"Elektron hesabatlar sistemi-EHS" panelinin və ya xidmət növünün yaradılmasında əsas məqsəd Azərbaycan Respublikası Milli arxiv idarəsinin strukturuna daxil olmayan, tabeliyindəki qurumlar tərəfindən arxiv sənədlərinin qeydiyyata alınması, uçotu, komplektləşdirilməsi, elektronlaşdırılması, ictimai istifadənin təşkili, elektron informasiya xidmətlərinin göstərilməsi, arxiv binalarının maddi texniki bazası, vəziyyəti, arxivlərlə bağlı sahələr haqqında rəsmi statistik məlumatların elektron şəkildə idarəyə çatdırılması, informasiyanın elektron emalı, inzibati və ilkin statistik məlumatların dəqiqləşdirilməsi və ümumiləşdirilməsi nəticəsində hesabatların hazırlanması və yuxarı təşkilatlara, eyni zamanda ictimaiyyətə çatdırlmasıdır.

Portaldan necə istifadə etmək olar? Bu məsələni araşdırsaq görərik ki, portalda "Təlimatlar və istifadə qaydaları" adlı pdf yerləşdirilmişdir (6). Ona əsasən deyə bilərik ki, Milli Arxiv idarəsinin E-xidmətlər portalından istifadə etmək üçün ilk növbədə müvafiq Reqlamentlərlə tanış olmalı, aidiyyati üzrə sənədlərin surəti skan edilərək hazılamalıdır. Bundan sonra Milli Arxiv İdarəsinin rəsmi internet saytında (milliarxiv.qov.az)yerləşdirilən "Elektron xidmətlər" banerini tıklayaraq portala daxil olmaq olar. Bundan əlavə "Elektron hökumət portalı"na daxil olmaqla idarənin təqdim etdiyi e-xidmətlərdən istifadə etmək olar.Bunun üçün aşağıdakı üsullardan istifadə etmək lazımdır.

1.İstifadəçi milliarxiv.gov.az səhifəsində Elektron xidmətlər bölməsinə daxil olmalıdır; İs-tifadəçi həm də "Elektron hökumət portalı"dan istifadə etməklə istədiyi xidmətlərə daxil ola bilər.

2. İki üsuldan birini seçdikdən sonra istifadəçi e-gov.az saytında təqdim edilən istənilən vasitələrdən birini seçməlidir. Elektron imza kartı ilə; E-Gov identity ilə; Asan imza ilə; "Elektron hökumət portalı" tərəfindən vətəndaşlara verilmiş istifadəçi adı və şifrə ilə daxil olmaq olar.

3.E-gov.az saytından qeydiyyatdan keçdikdən sonra açılan pəncərədən "Bütün xidmətlər" bölməsini seçmək lazımdır.

4. Açılan pəncərədən "Milli Arxiv idarəsi" bölməsini seçmək lazımdır.

5."Milli Arxiv idarəsi" bölməsini seçdikdən sonra açılan pəncərədə iki seçim var: Arxiv arayışlarının, arxiv sənədlərindən çıxarışların, arxiv sənədlərinin surətlərinin verilməsi üçün və elmi-tədqiqat və digər məqsədlərlə arxiv sənədlərindən istifadə edilməsi üçün müraciətlərin və sənədlərin qəbulu.

6. Açılan pəncərədən sorğu növünü seçmək lazımdır.

7. Açılan pəncərədən FİN nömrəsi yazdıqdan sonra digər məlumatlar avtomatik olaraq gəlir, boş qalan qrafaları doldurmaq lazımdır.

8. Sorğu pəncərəsində müvafiq qrafaları doldurub sənədin skan edilmiş surətini əlavə etdikdən sonra “Göndər” düyməsini basmaqla iş yekunlaşmış olur.

9. Sorğu gondərildikdən sonra sistem tərəfində istifadəçinin e-poçt ünvanına sorğunun qəbulu ilə bağlı avtomatik olaraq təsdiq bildirişi gəlir.

10. İstifadəçi öz şəxsi hesabından “Sorğuların arxivi” bölməsinə daxil olmaqla icra məlumatları ilə tanış ola bilir.

Nəticə: Azərbaycan Respublikası Milli Arxiv İdarəsi Milli arxiv fonduna daxil olan sənədlərin komplektləşdirilməsi, uçotu və mühafizəsi, ictimai istifadəsi, idarəyə tabe olan dövlət arxivlərinin və filiallarının işlərini əlaqələndirir və onların fəaliyyətini təşkil edir, respublikada arxiv işinin inkişafını və bu sahədə yeni texnologiyaların tətbiqini təmin edir, dövlət arxivlərinə və qeyri dövlət arxivlərinə metodiki kömək göstərir, dövlət orqanlarında arxiv işinin təşkilini əlaqələndirir, arxiv işinin vəziyyətini mütamadi olaraq təhlil edir, yuxarı təşkilatlar qarşısında hesabat verir, arxiv işinin inkişaf konsepsiyasını və strategiyasını hazırlayır, sənədlərin əlçatan olmasında rəqəmsallaşdırmaya üstünlük verir.

Ədəbiyyat:

1. http://milliarxiv.gov.az/az
2. https://azertag.az/xeber/azerbaycanda_arxiv_isinin_inkisafina_dair_2020_2025_ci_iller_uchun_dovlet_proqrami_tesdiq_edilib
3. http://milliarxiv.gov.az/az/struktur-ve-tabeli-teski-latlar
4. http://milliarxiv.gov.az/az/elektron-xi-dmetler-portali
5. http://milliarxiv.gov.az/az/hesabatlar-2023
6. milliarxiv.gov.az/storage/book/eamsistifadə telimatı. pd

## ТАЪЛИМНИНГ ЯРАТУВЧИЛИК ХАРАКТЕРИ

**Ҳабибулло Абдукаримов**,
ГулДУ профессори

**Аннотация:** Ушбу мақолада таълимнинг яратувчилик характери, ижобий хислатларнинг кўплиги нур устига аъло нур, аммо ўқитувчига хос салбий сифатлар битта қайд этилса ҳам ортиқча хисобланиши, ўқитувчи, устоз мақомини эгаллаш ҳамда унга лойиқ бўлиш сари интилиб яшамоғи, фаолият юритмоғи даркарлиги ёритилган. Талаба биринчи курсга қабул бўлганидан эътиборан унинг таълим жараёнига муносабати ҳамда касбига муносабати уйғунликда ўрганиб борилади. Билим олишга қизиққани билан касб эгаллашга муносабати суст талаба олийгоҳни битиргач бошқа сохада ўзини синаб кўришга харакат қилади.

**Калит сўзлар:** дарс, синф,талаба, ташкилотчилик, коммуникативлик, перцептив,. информацион, дидактив, йўналтирувчи, сафарбар этувчи, ривожлантирувчи, креатив, гностик, тадқиқотчилик.

**Annotation:** In this article, the creative nature of education, the abundance of positive qualities is an excellent light on the light, but even if one mentions the negative qualities characteristic of a teacher, it is overcounted. From the moment the student is admitted to the first course, his attitude to the educational process and his attitude to the profession are studied in harmony. A student who is interested in learning but has a weak attitude towards getting a profession tries to try himself in another field after graduating from the university.

**Key words:** lesson, class, student, organization, communicative, perceptive. informative, didactic, guiding, mobilizing, developing, creative, gnostic, research.

“Дунё бир кун, у ҳам-Бугун” деган экан бир аллома. Эрта туриб ишга шошамиз. Кўча-куйда аксарият инсонларни телефонда сўзлашиб кетаётганига кўзимиз тушади. Ахборот асри таъсирида хар ким ўз юмушлари билан банд бўлса керак деган хулосага келамиз.

Аммо ижтимоий муносабатларда ҳар хил ҳолатга эътибор қаратишга тўғри келади. Катта йўллардаги машиналарнинг тирбандлигидан ташқари, йўлакларда шошиб кетаётган турли ёшдаги аёллар, эркаклар ҳамда болалар диққатингизни тортади. Айниқса, тонг саҳарда супурги кўтариб юрган аёлларни кўриб сергак тортасиз ва атрофга аланглаб қарай бошлайсиз. Йўлаклар четидаги музқаймоқ идишлари, сигарет қутилари, чекилган сигарет қолдиқлари ва ахлат уюмлари табингизни хира қилади. Шу кайфиятда ишга етиб келасиз.

Дарс бошида синф ўқувчилари ёки талабаларга таассуротларингиз хақида икки оғиз тўхталиб ўтмасангиз бўлмайди. Бу масалада ёшларни воқиф қилиш зарур. Токи ёшларда мухитга нисбатан масъулият хисси шакилланса, бефарқлик янада камайган бўлади. Чунки бефарқлик муаммони келтириб чиқаради. Бир йўла “муаммо” нинг луғавий маъносига тўхталадиган бўлсак, бу сўз арабчадан – жунбоқли, сирли, ғалати, тушиниш қийин... деган маъноларни англатади (Ўзбек тилининг изохли луғати. 2-жилд, 622-б.). Демак имкон қадар воқеа-ҳодисага бефарқ бўлмай муаммонинг туғилишига йўл қолдирмаслик лозим. Шунда муаммо янги муаммони келтириб чиқармайди.

Маълумотларга қараганда 81 минг соф сўзимиз бор. Шундан қанчаси мактабгача таълимда ва умумий ўрта таълимда ўзлаштирилади? Бу масала илмий жиҳатдан ўрганилганми? Дунё бўйича 50дан ортиқ давлат ўзбек тилида сўзлашишини ҳисобга олсак, бугунги она тилимизнинг ривожига эътибор масаласи ҳар биримизга алоҳида масъулият юклайди. Айниқса, узликсиз таълим тизими илм асосида билим бериш принципига асосланса, таълим ривожида муаммоли вазиятлар ўз ечимига эга бўлиб, сўз бойлигимиз тобора қадрият даражасига кўтарилиб боради. Шунга кўра таълим ривожи хар доим давлатимиз назоратида бўлиб келмоқда, чунки таълим яратувчилик характерига эга. Таълим жамият эхтиёжидан келиб чиқиб, ижтимоий буюртма хисобланади. Унинг луғавий маъноси ҳам ўргатиш, ўқитиш, илм беришдан иборат (Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд, 27-б.).

Маълумки, билим ўз холича унчалик етакчи қурол эмас. У бор-йўғи ўзлаштирилган ахборотлар йиғиндиси холос. Билим одамниг табиати, фитрати, эътиқодини кучайтириб, фикрига қувват берсагина қудратли кучга айланади. Шунга мувофиқ ҳар бир талабага булажак кадр сифатида эмас, такрорланмас шахс сифатида қараш лозим.

Янгиланаётган педагогика тарбия ва таълим жараёнида ҳис-туйғу орқали иш кўриш тажрибасини қўллайди. Аммо ҳамон ўқитувчи айтиб берганларини қайтариб айтиш амалиёти мавжуд. Бу қобилиятли ўқувчи мақомига тўғри келмайди. Боланинг эркин фикрлаши, мантиқий тафаккур ривожи, айниқса, таъсирли тарбияни ҳис-туйғу орқали олиши рухиятини янада соғломлаштиради.

Аёнки, аксарият ҳолда она боланинг қалбига, қалби орқали онгига таъсир кўрсатади. Бунинг акси ўларок баъзи оталар боланинг миясига тўғридан тўғри таъсир кўрсатишга урунади. Шунинг учун бўлса керак, бола кўпроқ отасига эмас, онага талпинади. Чунки бола меҳр тарбиясига эхтиёжманд бўлади.

Тарбия туфайли балиқни учишга, эчкини сувда яшайдиган қилишга имкон йўқ. Бу жараён биологик жихатдан программалаштирилган. Шунинг учун касб тарбиясининг ҳам имкониятлари чексиз эмас. Камолотга моиллик инсон табиатининг ўзида мавжуд. Шунга кўра бўлажак ўқитувчига касбий сифатлар ҳамда касбий фазилатлар ҳақида билим бериш лозим. Чунки касбий фазилатларни билмаган шахс қандай қилиб ўқитувчи бўлиши мумкин?

Профессор Равшанбек Маҳмудовнинг қайд этишича, фазилат фуқаролардаги кўзга кўринадиган ва кўзга ташланмайдиган ижобий хислатлар номи. (Р. Маҳмудов. Касбий маънавият. Т.: “Методист”, 2023. -б. 15.). Олиб бораётган тадқиқотларимиз жараёнида инсонпарварлик билан билимдонликнинг уйғунлиги, масъулият хисси билан касбга содиқлик фазилати ўқитувчи шахсининг етакчи ижобий хислатлари таркибига кириши маълум бўлдики, бу билан Р. Маҳмудовнинг фикрларига тўлиқ қўшиламиз. Шу билан биргаликда талаба-ёшлар билан ўтказган сўровнома ва савол-жавобларимиз ўлароқ

ўқитувчи шахсининг 200дан ортиқ ижобий сифатлари аниқланган ҳамда ўрганилган бўлса, 60дан ортиқ салбий хусусиятлари қайд этилди.

Ижобий хислатларнинг кўплиги нур устига аъло нур, аммо ўқитувчига хос салбий сифатлар битта қайд этилса ҳам ортиқча хисобланади. Имкон қадар ўқитувчи, устоз мақомини эгаллаш ҳамда унга лойиқ бўлиш сари интилиб яшамоғи, фаолият юритмоғи даркар.

Талаба биринчи курсга қабул бўлганидан эътиборан унинг таълим жараёнига муносабати ҳамда касбига муносабати уйғунликда ўрганиб борилади. Билим олишга қизиққани билан касб эгаллашга муносабати суст талаба олийгоҳни битиргач бошқа сохада ўзини синаб кўришга харакат қилади. Бундай ёшлар оз дейсизми? Қўлимизда аниқ маълумотлар бўлмасада, иш фаолияти жараёнида бу каби ҳолларга дуч келишимиз аниқ. Бу ўринда муаммонинг ечимларидан бири бўлажак мутахассисга касб тарбияси беришдан иборат. Аниқроғи касб тарбияси илмий педагогик муаммо сифатида бугунги кунда кам ўрганилмоқда.

Олиб бораётган тадқиқотларимиз ўлароқ, ўқитувчи шахсининг фаолиятида касбий ўз-ўзини тарбиялаш устувор ахамиятга эгалиги маълум бўлди. Шунга кўра ўқитувчининг касб фаолияти структураси қуйидаги алгоритм тартибида келишига эътибор қратилди (1-расм).


1. Тарбиячилик.
2. Ташкилотчилик.
3. Коммуникативлик.
4. Перцептив.
5. Информацион.
6. Дидактив.
7. Йўналтирувчи.
8. Сафарбар этувчи.
9. Ривожлантирувчи.
10. Креатив.
11. Гностик (тадқиқотчилик).

Демак, таълимнинг яратувчилик характирини ўқитувчи шахсининг касбий ўз-ўзини тарбиялаши жараёнидан айрича тасаввур этиб бўлмаслиги аниқланди.

Педагок ва психолог олимлар изланишларида ўқитувчининг касб фаолияти структураси унинг касбий сифатлари ва айни пайтда касб қобилиятлари ҳам дейилишига эътибор қаратилиб, тарбия жараёнига, айниқса, касб тарбиясига алохида тўхталиб ўтилган (Х. Ибрагимов, Н. Темиров, Р. Сафарова ва бошқ.).

Ўтган асрнинг саксонинчи йилларида академик Н.В. Кузьмина педагогик фаолиятнинг коммуникатив, конструктив ва перцептив тузулмасига эътибор қаратган бўлса, И.А. Щербаков уларнинг ривожлантирувчи, йўналтирувчи ҳамда гностик (тадқиқотчилик) қобилиятларини ўрганган. Академик В.А. Сластенин юқорида кўриб ўтилган қобилиятларнинг изчил давоми ўлароқ тарбиячилик, дидактив ҳамда креатив қобилиятларни чуқур ўрганган ҳолда, бундай қобилиятлар нафақат ўқитувчида, балки ҳар қандай касб эгасида бўлиши мумкинлигини уқтирган.

Бизнинг тадқиқотга оид изланишларимиз ўқитувчининг касб фаолияти структураси унинг тарбиячилик қобилиятидан бошланиши зарурлигини тақозо этди (1-расм.). шундан келиб чиқиб, бўлажак ўқитувчиларни касбий-тарбиявий фаолиятга таёрлашнинг маънавий-ахлоқий хусусиятларини тизимли такомиллаштириш модели ишлаб чиқилди (2-расм.). Якуний хулоса ўлароқ касб тарбиясининг тузулмаси келтирилди (3-расм).




2-расм. Бўлажак ўқитувчиларни касбий тарбиявий фаолиятга тайёрлашнинг маънавий-ахлоқий хусусиятларини тизимли такомиллаштириш модели

Ушбу моделда бўлажак ўқитувчиларни касбий-тарбиявий фаолиятга таёрлашнинг маънавий-ахлоқий хусусиятларини тизимли такомиллаштириш, баркамол шахс тарбиясига бўлган ёндошувлар асосида ишлаб чиқилган. Бунда асосан инновацион акциологик тизим ҳамда шахсга йўналтирилган ёндошувнинг уйғунлиги ўлароқ маҳоратли, етук тарбиячи-ўқитувчилар тайёрлашнинг мохияти кўрсатиб бериган. Айни пайтда таълимнинг яратувчилик хусусияти мураккаб ва давомли эканлиги ҳамда уни ўрганиш педагог-олимлар олдига алохида масъулият юклашининг маъно-моҳиятига урғу берилган бўлиб, бу жараёнда:

1) касб тарбиясида очиқ дарс ва дарс таҳлилининг ўрни;

2) касбий ҳимоя ижтимоий ҳимоянинг таркибий қисми сифатида;

3) дарс одоби, дарс маданияти;

4) ижтимоий ҳаёт ривожи инсоннинг касбий камолоти билан уйғун равишда амал қилиши етакчи омил эканлиги устувор аҳамиятга эга ҳисобланади.




3-расм. Касб тарбиясининг тузилмаси.

# RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA UMUMTA’LIM MAKTABLARI O‘QITUVCHILARINI UZLIKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

**Berdaliyeva Gulasal Abdukunduzovna**
*Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, (PhD), dots.nt*

**Annotasiya:** Uzliksiz kasbiy rivojlanish tizimi – bu zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishishning muhim shartlaridan biri. Bu tizim kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va tajribani muntazam ravishda yangilab borish, shuningdek, o‘z sohasidagi yangiliklarni kuzatib, ularni amaliyotga tatbiq etishni o‘z ichiga oladi. Bugungi tezkor o‘zgaruvchan mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlashish uchun inson doimiy ravishda bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib borishi kerak. Ushbu maqolada uzluksiz malaka oshirish tizimlari kontseptsiyasi, ularning zamonaviy tashkilotlardagi ahamiyati va xodimlar, ish beruvchilar va keng jamiyat uchun ta'siri o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy rivojlanish, ahamiyati, raqamli texnologiyalar, tashkilotlar, malakali xodimlar

**Abstract:** Continuous professional development system is one of the important conditions for success in modern society. This system includes regular updating of professional knowledge, skills and experience, as well as monitoring the innovations in their field and putting them into practice. In order to successfully compete in today's rapidly changing labor market, a person must constantly develop their knowledge and skills. This article explores the concept of continuous learning systems, their importance in modern organizations and their implications for employees, employers and the wider society.

**Keywords:** professional development, importance, digital technologies, organizations, skilled workers

**Kirish:** Texnologiyalar, ish jarayonlari va talablar tez o‘zgarayotgan davrda malaka va bilimlar eskirishi tabiiy holat. Uzluksiz rivojlanish tizimi bu muammoga qarshi samarali yechimdir. Har bir sohada yangilanish va rivojlanish bo‘layotgani sababli, ishchi kuchi doimo zamon talabiga mos bo‘lishi kerak. Misol uchun, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili kabi yo‘nalishlarda yangi ko‘nikmalar tez orada talabga aylanishi mumkin. Shuningdek, uzluksiz kasbiy rivojlanish xodimlarga o‘z ishlarida yuqori samaradorlikni ta’minlash imkoniyatini beradi. Malakali xodimlar o‘z sohalarida samarali yechimlarni topib, yangi g‘oyalar yaratish va amalga oshirishda faol ishtirok etadilar. Bu, o‘z navbatida, kompaniyalar va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

*Uzluksiz kasbiy rivojlanishning asosiy jihatlari:*

1. Ta'lim olish imkoniyatlari – Rivojlanish tizimining birinchi bosqichi doimiy ravishda yangi bilimlar olishdir. Bu maqsadda turli xil o‘quv kurslari, seminarlar, konferensiyalar va o‘quv dasturlari mavjud bo‘lishi kerak. An'anaviy o‘quv usullari bilan birga, onlayn platformalarda ta'lim olish ham juda keng tarqalgan bo‘lib, bu jarayonni osonlashtiradi va qulay qiladi.

2. Ko‘nikmalarni rivojlantirish – Bilimni nazariy jihatdan o‘rganishdan tashqari, amaliyotda ham qo‘llash muhimdir. Praktik ko‘nikmalarni o‘zlashtirish xodimlarning o‘z ish jarayonini yanada samarali tashkil qilishlariga yordam beradi. Bu borada treninglar va amaliy seminarlar alohida o‘rin tutadi.

3. Tajriba almashish – Tajribali mutaxassislar va yangi xodimlar o‘rtasida tajriba almashish rivojlanishning samaradorligini oshiradi. Mentorlik tizimi yoki professional guruhlar doirasida o‘zaro bilim va ko‘nikmalarni almashish, ishchi xodimlarning professional o‘sishiga yordam beradi.

4. O‘z-o‘zini baholash va yangilanish – Inson o‘z faoliyatini doimo tahlil qilib, qaysi yo‘nalishlarda o‘zini takomillashtirish kerakligini aniqlashi kerak. Bu jarayon kasbiy rivojlanishda asosiy ahamiyatga ega. Shu bois, har bir kasbiy o‘stirish jarayoni o‘z-o‘zini baholash, qayta o‘rganish va yangi strategiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

*Rivojlanish uchun imkoniyatlar.* Kompaniyalar o‘z xodimlarining doimiy kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratishlari kerak. Buning uchun quyidagi yo‘nalishlar ko‘rib chiqilishi mumkin:

- O‘quv kurslarini tashkil qilish – Xodimlar uchun kasbiy bilimlarni oshirish bo‘yicha muntazam treninglar va o‘quv kurslari tashkil etish orqali ularning malakalarini oshirish mumkin.
- Onlayn ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish – Ko‘plab zamonaviy o‘quv platformalari onlayn kurslar orqali xodimlarga bilim olish imkonini beradi. Bunday kurslar masofaviy ta'limni qulay qiladi va xodimlarga vaqtni tejash imkonini yaratadi.
- Mentorlik dasturlarini joriy etish – Tajribali mutaxassislar yangi kelgan xodimlarga yordam berishi, ularni kasbiy jihatdan o‘stirishi mumkin. Bu tajriba almashish jarayonini tezlashtiradi va jamoaviy ruhni mustahkamlaydi.

**Tahlil va Natijalar.** *Uzliksiz kasbiy rivojlanishning individual va tashkilotlarga ta’siri*

Uzliksiz kasbiy rivojlanish nafaqat shaxsiy taraqqiyot uchun, balki tashkilotlar uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayonning individual va tashkilotlarga bo‘lgan ta’sirini quyidagi nuqtalarda ko‘rish mumkin:

*Shaxsiy rivojlanishga ta’siri.* **O‘z kasbiy o‘rningni mustahkamlash**: Uzluksiz o‘rganish va rivojlanish insonning o‘z kasbida mutaxassis darajasiga erishishiga yordam beradi. O‘z kasbiy o‘rnini mustahkamlagan kishi yangi ish imkoniyatlariga ochiq bo‘ladi va turli lavozimlarga nomzod sifatida ko‘riladi.

**Ishga bo‘lgan ishonchning oshishi**: Yangi bilimlar va ko‘nikmalar orttirgan xodim o‘z vazifalarini samarali bajarish uchun zarur ishonchga ega bo‘ladi. Bu ishonch ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qilishda va innovatsiyalarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega.

**Shaxsiy rivojlanish va motivatsiya**: O‘qish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni insonning shaxsiy motivatsiyasini oshiradi. Yangi yutuqlarga erishish istagi xodimni yanada faol va samarali bo‘lishga undaydi. Bu motivatsiya xodimni o‘z ustida ishlashga, yuqori maqsadlarga intilishga rag‘batlantiradi.

**2. Tashkilotlarga ta’siri. Kadrlar malakasini oshirish**: Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi tashkilot xodimlarining bilim va ko‘nikmalarini muntazam yangilashga xizmat qiladi. Bu esa, kompaniyaning bozor raqobatbardoshligini oshiradi. Yaxshi tayyorgarlikka ega xodimlar tezroq va samaraliroq ishlashadi, bu esa umumiy biznes samaradorligini oshiradi.

**Innovatsion g‘oyalarni rivojlantirish**: Xodimlar doimiy ravishda yangi bilimlarga ega bo‘lib, o‘z sohalaridagi yangiliklarni bilib borishadi. Bu tashkilot ichida yangi innovatsion g‘oyalarni shakllantirishga, yangi mahsulot va xizmatlar yaratishga hissa qo‘shadi. Innovatsiyalarni joriy etish esa tashkilotning rivojlanishi va o‘sishi uchun muhimdir.

**Kompaniya madaniyatini rivojlantirish**: Uzluksiz ta'lim va rivojlanishga qaratilgan e’tibor tashkilotda o‘zgarishlarga moslashuvchanlikni oshiradi va jamoaviy rivojlanish muhitini shakllantiradi. Bu, o‘z navbatida, kompaniyada ijobiy madaniyatni yaratishga va xodimlarning tashkilotga bo‘lgan sadoqatini kuchaytirishga yordam beradi.

**Uzliksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etishning usullari.** Har bir tashkilot o‘z xodimlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yo‘lga qo‘yishi lozim. Buning uchun bir qator usullarni qo‘llash mumkin:

**1. Ichki trening va seminarlardan foydalanish.** Kompaniyalar o‘z xodimlari uchun maxsus treninglar tashkil qilishi mumkin. Bu treninglar nafaqat xodimlarning yangi bilim va ko‘nikmalarini oshiradi, balki ularning kompaniya faoliyatiga chuqurroq jalb qilinishini ham ta’minlaydi. Shu bilan birga, ichki seminarlar xodimlar o‘rtasida tajriba almashish uchun samarali platforma yaratadi.

**2. Professional sertifikatlash va o‘quv dasturlari.** Xodimlar malakasini oshirish va kasbiy rivojlanishini tasdiqlovchi sertifikatlarni olishga rag‘batlantirish ham muhimdir. Sertifikatlash dasturlari xodimlarga o‘z bilimlarini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlash imkonini beradi. Bu nafaqat kasbiy rivojlanish uchun foydali, balki xodimning rezyumesida ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

**3. Onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish.** Bugungi kunda onlayn ta’lim platformalari orqali o‘quv kurslarini o‘zlashtirish imkoniyati keng tarqalgan. Masofaviy ta’lim xodimlarga o‘z vaqtini mustaqil rejalashtirish imkonini beradi, bu esa rivojlanish jarayonini tezlashtiradi. Coursera, Udemy, edX kabi platformalar keng miqyosda bilim olish imkonini beradi va xodimlarning kasbiy o‘sishiga yordam beradi.

**4. Mentorlik tizimini rivojlantirish.** Katta tajribaga ega bo‘lgan xodimlar yangi kelgan yoki kasbiy o‘sishga intilayotgan hamkasblariga mentorlardan biri sifatida yordam bera oladi. Bu tizim tashkilotda o‘zaro yordam va tajriba almashish jarayonini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

**Kasbiy rivojlanishdagi to‘siqlar va ularni yengib o‘tish yo‘llari.** Uzliksiz kasbiy rivojlanish ko‘plab afzalliklarga ega bo‘lsa-da, bu yo‘lda turli to‘siqlar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Quyida ba'zi to‘siqlar va ularni yengib o‘tish yo‘llari keltirilgan:

**Vaqt yetishmasligi**: Ko‘p xodimlar kasbiy rivojlanish uchun vaqt ajratishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday holatda tashkilotlar o‘quv dasturlarini moslashuvchan qilib tashkil qilishi, masalan, qisqa modul kurslari yoki onlayn o‘quv dasturlaridan foydalanish orqali vaqtni tejashga imkon yaratishi mumkin.

**Motivatsiyaning yo‘qligi**: Ba’zi xodimlar yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yetarli darajada rag‘bat topa olmaydi. Bunday holatda, tashkilotlar xodimlarning motivatsiyasini oshiruvchi dasturlarni joriy qilishlari, mukofotlash tizimlarini yaratishlari mumkin. Shuningdek, har bir xodimga individual rivojlanish rejalari tuzish ham foydali bo‘ladi.

**Moliyaviy resurslarning cheklanganligi**: O‘quv kurslari va treninglar tashkil qilish ko‘p hollarda moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Tashkilotlar ushbu muammoni hal qilish uchun xodimlarni o‘zaro o‘qitish va ichki treninglarni ko‘proq joriy qilish orqali xarajatlarni kamaytirishlari mumkin.

**Xulosa.** Uzliksiz kasbiy rivojlanish tizimi – bu insonning kasbiy o‘sishi va muvaffaqiyatga erishishining kalitidir. Bugungi kunda har qanday sohada raqobatbardosh bo‘lish uchun muntazam ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish zarur. Tashkilotlar va xodimlar birgalikda bu jarayonni samarali boshqarishlari mumkin bo‘lsa, natijada ular yanada yuqori natijalarga erishadilar. Texnologiyalar va mehnat bozori tez o‘zgarib borayotgan hozirgi davrda uzluksiz rivojlanish zamon talabidir va u insonning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim omillardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

**1.** Wareing, C. Buissink, D. Harper, M. Gellert Olesen, M. Soto, S. Braico, P. Van Laer, I. Gremion, L. Rainford (2017) Continuing professional development (CPD) in radiography: a collaborative European meta-ethnography literature review.

2. Jill Schostak, Mike Davis, Jacky Hanson, John F. Schostak, Tony Brown, Peter Driscoll, Ian Starke, Nick Jenkins (2010) ‘Effectiveness of Continuing Professional Development’ project: a summary of findings

3. Ashebir Mekonnen (2014) Practices and challenges of school based continuous professional development in secondary schools of kemashi zone

4. Daniel Desta, Desalegn Chalchisa, Girma Lemma (2013) School-based continuous Teacher Professional Development in Addis Ababa: An Investigation of Practices, Opportunities and Challenges <Special Issue: Study results of the Africa-Asia university dialogue for educational development network second phase>

5. Samar Aboulsoud, Helena Filipe (2019) Opening Editorial: CPD and Lifelong Learning: a call for an evidence based discussion

# TALABALAR MALAKAVIY AMALIYOTINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI SHAKL VA METODLARI

**Ergashev Rustam Nadjimovich**
Guliston davlat pedagogika instituti
professori v.b., ped. fan. nomzodi
e-mail: ergashev@mail.ru
**Qulmamatov Sindorqul Ibragimovich**
Guliston davlat pedagogika instituti
dotsenti, ped. fan. nomzodi

**Annotatsiya:** Talabalar malakaviy amaliyotiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar, uning mazmuni va vazifalari, uni samarali tashkil etish shakl va metodlari, talabalar faoliyatini nazorat qilish va baholash mezonlari haqida so‘z boradi. Ushbu masala yuzasidan professor-o‘qituvchi va amaliyotchi talabalar uchun uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** malakaviy amaliyot, 4+2 shaklidagi malakaviy amaliyot, malaka talablari, amaliyotchiga qo‘yiladigan talablar, kasbiy kompetentsiya, amaliyot natijasi, baholash mezonlari.

**Abstract:** It is about the modern demands placed on students' professional practice, its content and tasks, forms and methods of its effective organization, criteria for monitoring and evaluating students' activities. Regarding this issue, methodical recommendations are given for professors and practicing students.

**Key words:** *qualified practice, 4+2 form of qualified practice, qualification requirements, requirements for the practitioner, professional competence, practice result, evaluation criteria.*

Bo‘lajak pedagog kadrlarda kasbiy kompetentsiy, nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish oliy o‘quv yurtida ta’lim jarayonini xalqaro standart talablari asosida tashkil etishni, ularning o‘quv fanlaridan o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliy jarayonlar bilan integratsiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu natijaga erishishda talabalarning malakaviy amaliyotlari muhim o‘rin tutadi. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-avzustdagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan DTS va Malaka talablari asosida barcha pedagogik ta'lim yo‘nalishlarida talabalarning ikki xil turdagi malakaviy amaliyotlari tashkil etiladi:

1. **Malakaviy amaliyot** – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2. **4+2 shaklidagi malakaviy amaliyot** – kunduzgi ta' lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 3,4,5,6,7,8 semestrlarida amalga oshiriladi. Bunda talabalar bilan haftaning 4 kunida nazariy va amaliy ta'lim, 2 kunida esa amaliyot o‘tkaziladi. [2]

***Uzluksiz malakaviy amaliyot natijasida talaba:***

- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;
- ona tilida o‘z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so‘zlash uchun ona tili va cheł tillaridan birida yozma va og‘zaki nutq**;**
- axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va media savodxonlik;
- global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash;
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglab yetish;
- o‘quvchilarda gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

- ta'lim jarayoni sub'ektlarining hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o‘zaro harakatini tashkil etish usullarini qo‘llay olish;

- kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog‘liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg‘unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;

- tanqidiy fikrlash metodikasini o‘zlashtirish;

- o‘quvchilarda vatanparvarlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirish;

- inklyuziv ta'limda qadriyatli munosabatni tarkib toptirish, uzoq vaqt davolanishga muhtoj o‘quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyalarini o‘zlashtirish;

- ta'lim oluvchilarga o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuv-chanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirish va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish qobiliyatliyati, ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladi.

Ta’lim yo‘nalishi talabalarining malakaviy amaliyotlari quyidagi **(**4 yoki 3**)** bosqichlarda amalga oshiriladi: tanishuv malakaviy amaliyot (1 kurs), 4+2 tartibidagi o‘quv malakaviy amaliyot (2 kurs), 4+2 tartibidagi passiv pedagogik amaliyot (3 kurs), 4+2 tartibidagi faol pedagogik amaliyot (4 kurs).

Malakaviy amaliyot talabalarning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, kasbiy pedagogik kompetensiya, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratiladi.

Malakaviy amaliyotning har bir bosqichi uchun alohida dastur ishlab chiqilib, ularning mazmuni, amaliyot rahbari va talabalarga qo‘yiladigan talablar kursdan kursga ortib boradi.

Dastlabki o‘quv yilining birinchi bosqichida talabalar umumiy o‘rta ta’lim maktabining rahbar xodimlari va ixtisoslik fan o‘qituvchisining lavozim vazifalari, ta’limni tashkil etilishning o‘quv-me’yoriy xujjatlari, o‘quv fan dasturi, uning sinflar va choraklar kesimidagi mavzulari, darsning texnologik xaritasi va uning didaktik ta’minoti, dars beruvchi o‘qituvchisining kundalik faoliyati va kasbiy mahorati, o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, ongli ishtirok etishi, sinf rahbarining tarbiyaviy ish faoliyati, sinfdan va maktabdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlar rejasi, uni tashkil etish shakl, vosita va metodlari bilan yaqindan tanishadilar.

Malakaviy amaliyotning keyingi bosqichlarida talabalarning faolligi yanada ortadi. Amaliyotni hamkorlikda tashkil etish shakllari va ularda olib boriladigan ishlar xajmi murakkablashadi. Yuqori kurs talabalari mustaqil ravishda dars ishlanmalarini tuzish, darslarga zamonaviy didaktik talablar asosida tayyorgarlik ko‘rish va hattoki ularni o‘tishga kirishadilar[3].

Maxsus ishlab chiqilgan amaliyot mezonlari asosida talabalarning malakaviy amaliyot jarayonida erishgan natijalari joriy, oraliq va yakuniy nazorat shaklida baholab boriladi.

Talabalarining 4+2 shaklidagi malakaviy amaliyotlari haftaning 4 kunida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, 2 kunida esa amaliyot o‘tkaziladi. Usbu malakaviy amaliyot talabalarining oliy ta’lim muassasasida umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o‘zlashtirgan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda zaruriy pedagogik kompetensiyalar, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishi talabalari malakaviy amaliyotning har bir bosqichida o‘z shaxsiy ish rejasiga ega bo‘lib, unda belgilangan vazifalarni o‘z vaqida bajarishlari amaliyot rahbari tomonidan nazorat qilib boriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-октябрdagi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5847-son Qarori – T., 2019

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-avzustdagi 344- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan bakalavriat ta'lim yo‘nalishining Malaka talablari. -T., 2023 yil

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 noyabrdagi “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. –T., 2019

4. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son Qonuni. –T., 2020 yil, 23 sentyabr.

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLOIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

**Ergashev Rustam Nadjimovich**
Guliston davlat pedagogika instituti
professori v.b., ped. fan. nomzodi
e-mail: ergashev@mail.ru

**Annotatsiya:** Tezisda pedagogik va axborot texnologiyalarining ta’lim sifatiga bevosita ta’siri, ularini ta’lim jarayoniga tatbiq etishning afzalliklari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘quv-tarbiya jarayonida ob’ektivlik va shaffovlikni ta’minlashidagi o‘rni yoritilgan. Masofaviy o‘qitish uslubining sifatli qo‘llanilishi borasida o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun foydali ko‘rsatmalar berilgan.

**Kalit so‘zlar**: pedagogik texnologiyalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, uning ta’lim sifatiga ta’siri, o‘zaro aloqa o‘rnatish, ta’limda ob’ektivlik va shaffovlik, masofaviy o‘qitish uslubi, modul tizimi, sxema, rasm, jadval, grafik organayzer va diagrammalar.

**Abstract:** The thesis reveals the direct impact of pedagogical and information technologies on the quality of education, the advantages of their application in the educational process, the role of information and communication technologies in ensuring objectivity and transparency in the educational process. Useful instructions for teachers and students regarding the quality use of the distance educational method are given.

**Keywords:** pedagogical Technologies, Information Communication Technologies, its impact on the quality of education, interaction, objectivity and shaffoviness in education, distance learning style, modular system, scheme, picture, table, graphic organizer and diagrams.

Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosati talablaridan biri ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda o‘quvchilarni o‘qitishni jadallashtirish sanaladi. [1,7-8 -b]

Respublikamizda ta’lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga doir keng ko‘lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to‘plandi. Ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko‘rsatmoqda.

«Pedagogik texnologiya» so‘zlar birikmasining asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta’limda esa fan bo‘yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo‘l – aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak. [2,85-b.]

Yangi asr – informatsion texnologiyalar asri bo‘lishi bilan bir qatorda ushbu asr xalqaro intellektual-iqtisodiy korporatsiyaning yaratilish asri, ya’ni jahon miqyosidagi aql-zakovatning birlashuvi asri hamdir.

Bugun biz yangi texnologiyalarga sarflanayotgan mablag‘lar qay darajada o‘zini oqlashini, ularning ta’lim sifatini oshirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda masofaviy ta’limni rivojlantirishga ta’sir qanday ko‘rsatishini tasavvur qila olishimiz shart. Ko‘p hollarda «ta’limning kompyuter texnologiyalari» iborasi «axborot texnologiyalari» iborasi bilan aralashtirilib yuboriladi. Bu o‘rinda, asosan, an’anaviy pedagogik texnologiyalardan

farqli, kompyuter tarmoqlariga ulangan, dasturlashtirilgan, xalqaro aloqalarni ham ta’minlashga qodir tizim nazarda tutilmoqda. Bu holat so‘nggi yillarda jamiyat hayotida kompyuterlarning ahamiyati ortib borishi, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida turli xil axborotlarga nisbatan ehtiyojning kuchayishi bilan izohlanadi.

Ongga yetib kelayotgan axborotlar shaxsning mavjud madaniy-ma’rifiy muhitga moslashuvi jarayonida qay tarzda aks etishini bilishimiz va shunga mos tarzda ta’lim-tarbiya muassasalarida o‘quv dasturlari va jihozlariga nisbatan talablarni ishlab chiqishimiz lozim. Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga singdirishning afzalliklarini e’tirof etish mumkin. Eng avvalo, ta’lim jarayonida kompyuterlar va axborot-kommunikatsiya vositalarining qo‘llanilishi, talabalarning ular bilan bemalol ishlay olishlari pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan hisoblangan sub’ektivizmni cheklaydi. Masalan, agar talabaning javobi yoki bevosita o‘zlashtirishini baholash o‘qituvchining talaba shaxsiga munosabati ta’sirida kechgan bo‘lsa, mashinalar vositasida beriladigan ma’lumotlar ob’ektiv xarakterga ega bo‘ladi. [3, 59-65-b]

Ikkinchidan, kompyuter orqali bolaga yetkazilayotgan ma’lumotni zarurat bo‘lganida, qayta-qayta chaqirish va takrorlash imkoniyati ham bor. Bu narsa ayrim talabalarda, guruh sharoitida ishlaganda kuzatiladigan iymanish kabi sifatning namoyon bo‘lmasligini ta’minlaydi.

Uchinchidan, har bir professor-o‘qituvchining o‘zigagina xos bo‘lgan tushuntirish uslubi, metodik yondashuvi mavjud. AKT vositalaridan foydalanish pedagogik jarayonlar ichidagi samarasiz uslubiyotlarga barham beradi.

To‘rtinchidan, yangi axborotlarni uzatish texnologiyalari bilimlarni o‘zida ifoda etib, unda sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafika va diagrammalarga keng o‘rin beriladi. Bu narsa yoshlarda obrazli xotirani ancha jonlantirib, ularning eslab qolish qobiliyatini kuchaytirishi mumkin.

Beshinchidan, ushbu axborot vositalaridagi ma’lumotlarni kichik hajmli disketlarga yozib olish va ulardan zarur o‘rinlarda foydalanish mumkin. Bu ham vaqtni, ham mablag‘ni tejaydiki, iqtisodiy jihatdan yuzlab tirajlarda chop etilayotgan kitoblardan arzon bo‘ladi. Eng muhimi, manfaatdor auditoriya xohlagan ma’lumotini bir xil sifat va tizimda olishi mumkin bo‘ladi.

Nihoyat, ular “axborot asri” deb e’tirof etilayotgan yangi asrda yashab ijod qiluvchi yoshlarning ongini o‘stiradi, ulardagi texnik vositalardan cho‘chish hissini yo‘qotadi. Xullas, ta’lim muassasalarining bu narsaga sarflangan mablag‘lari behuda ketmasligi ehtimoldan xoli emas.

Agar biz har bir yosh qalbida Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat, pok iymon va odamgarchilikni tarbiyalay olsak, ular halqaro axborot tizimlari orqali bizning fikrlash tarzimiz, urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan ma’lumotlarni tanqidsiz qabul qilmaydigan, yurtimiz istiqboliga xizmat etadiganlarinigina saralab olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Buning uchun biz yoshlarimizda barqaror mafkuraviy immunitetni tarbiyalashimiz kerak. [4, 83-b.]

*Ta’lim jarayonini axborotlashtirish* – bu jamiyatni axborotlashtirishning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi.

Ta’limni axborotlashtirish quyidagi qulayliklar va afzalliklar bilan bog‘liq o‘zgarishlarda qatnashadi:

- jamiyatning har bir a’zosi haqidagi ma’lumotlarni va bilimlarni olishga yo‘l ochib berishda;
- shaxs uchun intellektual va ijodiy qulayliklarini rivojlantirishda;
- jamiyatning har bir a’zosi hayotida uning faolligi evaziga malaka oshirish xizmatlarini tezkor o‘zgartirishda;
- masofaviy o‘qitish o‘zib ketuvchi (ilg‘or) ta’limni tashkil etish va uning samarasini oshirishni ta’minlashda;
- ta’lim mahsulotlarini va xizmatlarini yaratish va tashkil etish maqsadidaturli axborot texnologiyalarini qo‘llashda;

- guruhlash, turlash, hisoblash, ma’lumotlarni agregatlash uchun AKT xizmatlaridan maksimal darajada foydalanishda;

- masofaviy o‘qitish qatnashchilarining axborot talablarini qondirish uchun boshqaruv axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishda;

- masofaviy o‘qitish qatnashchilari bilan AKT vositalarining o‘zaro axborot almashuvi jarayonlarida;

- fanlar bo‘yicha ekspertlarning to‘plagan bilimlar mahsulotlarini masofaviy o‘qitishdan foydalanuvchilar tomonidan olinishining keng imkoniyatini beruvchi ekspert tizimli axborot texnologiyalarini ishga tushirishda va shu kabilar.

Bunday tashkiliy-metodik masalalarning asosiy yechimlaridan biri – bu yangi ta’lim texnologiyalarini kiritish, shu bilan birga, respublikaning uzluksiz ta’lim tizimida, aynivsa, birinchi navbatda, oliy ta’limda masofaviy o‘qitish uslubi o‘z o‘rnini egallashi kerakligidadir.

Masofaviy o‘qitish uslubining sifatli qo‘llanilishi borasida quyidagi yo‘llanmalar shakllanmoqda:

*O‘qitilayotgan borliqni markazlashtirish*. Respublikamiz va xorijlik olimlar hamda mutaxassislarning bilim va tajribalarini qo‘llash, zamonaviy o‘quv qurollaridan foydalanish e’tiborda tutiladi. Bunda turli o‘quv manbalaridan foydalanish, talabalarni axborot bilan ta’minlash, bu axborot esa o‘z navbatida, butun dunyo mutaxassislari bilimlaridan, elektron kutubxonalardan olingan axborotlardan foydalanish talaba va o‘quvchilar hamda ularning o‘qituvchilari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

*O‘qituvchiga talabni kuchaytirish*. Ta’lim jarayonining standart holda jamlanishi,o‘qituvchi (pedagog)larning bilim darajasini oshirish majburiyatini yuklaydi. Bu uslublar ularning ish natijasi va bilim darajasining ko‘tarilishiga yordam beradi.

*O‘qitish turining egiluvchanligi*. Qulay vaqtda shug‘ullanish mumkinligi, qulay joyda va qulay tezlikda o‘quvchi-talabalarning bilim qabul qilishining turli shakllarini qo‘llash mumkinligi, ular tomonidan modellashtirish va ko‘rgazmali vositalarni joyida qo‘llash, axborot va bilimlarni etkazishda ko‘rgazmali, amaliy va boshqa metodlardan unumli foydalanish ikoniyatlarining mavjudligi ta’limning ushbu shakli egiluvchanligini ifodalaydi.

*O‘qituvchining roli va uning pedagogik imkoniyatlari*. O‘qituvchining o‘quvchi-talabaga nisbatan shaxsiy yondashuvining turli shakllarini qo‘llash va har bir o‘quvchi-talabaning bilim darajasi va tayyorgarligini har tomonlama o‘rganish sharoitining mavjudligida ko‘rinadi. [5,56 – b.]

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son Qonuni. –T., 2020 yil, 23 sentyabr.

2. Tolipov U., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. -T., 2005.

3. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T., Fan, 2006

4. Yo‘ldoshev J.G‘. Yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishlari, muammolari, yechimlari. – T., 1999

5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. –T., Iqtisod-moliya, 2010

## KUCHLI IQTISODIYOT VA KUCHLI MA’NAVIYAT UYG‘UNLIGI DAVLAT XIZMATCHILARI FAOLIYATINING YETAKCHI TAMOYILI SIFATIDA

**Ismailov Dilshod Baxriddinovich**,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Samarqand viloyati bo‘limi rahbari
E-mail: dilshodismailov06@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ma’naviyat tushunchasi va uning qamrov darajasi to‘g‘risida fikr yuritilgan. Ma’naviyat inson botiniy va zohiriy olamining tub negizini, davlat xizmatchisi faoliyatining ajralmas qismini tashkil etishi haqida g‘oyalar ilgari surilgan. Kuchli iqtisodiyot va

kuchli ma’naviyatning uyg‘unligi barqaror jamiyat hamda rivojlangan iqtisodiy-madaniy muhit yaratilishining omili hisoblanadi. Bunda insonlar iqtisodiy taraqqiyotning natijasi sifatida ta’lim va o‘zini-o‘zi rivojlantirish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lishi to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** kuchli ma’naviyat, barqaror rivojlanish, uchinchi renessans, globallashuv, intervensiya, rentabel, kompetensiya va sog‘lom ma’naviy raqobat.

**Annotation:** This article discusses the concept of spirituality and its scope. Ideas were put forward that spirituality is the fundamental basis of the inner and outer world of a person, an integral part of the work of a civil servant. The combination of a strong economy and a strong spirituality is a factor in creating a stable society and a developed economic and cultural environment. It states that people will have more opportunities for education and self-development as a result of economic development.

**Key words:** strong spirituality, sustainable development, third renaissance, globalization, intervention, profitability, competence and healthy spiritual competition.

Prezident Sh.Mirziyoyev ma’ruzalarida “Bizga bugun qanday rahbar kadrlar kerak?”, degan savolga ham aniq javoblar bor: “Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o‘zgarishi yuz bermaydi”. Zero yosh rahbar kadrlardan yangicha fikrlash, mustaqil fikrlash, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, ilg‘or boshqaruv usullarini qo‘llay olish, vatanparvarlik, halollik singari aniq fazilatlar kutilmoqda.

“Bizga bugun qanday rahbar kadrlar kerak emas?”, degan savolga ham aniq javoblar bor. Masalan, “Xalqning dardi va tashvishlarini pisand qilmaydigan, el-yurtimiz osoyishtaligi va jamoat tartibini saqlashga, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga qurbi yetmaydigan, loqayd va befarq shaxslarga rahbarlik lavozimlarida mutlaqo o‘rin yo‘q”, degan fikrga ko‘ra xalqning dardi va tashvishlarini pisand qilmaydigan, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga qurbi yetmaslik, loqaydlik va befarqlik sifatlari bor nomzodlar Yangi O‘zbekistonning yosh rahbarlari safida tura olmaydilar. Chunki bunday shaxslar Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlay olishmaydi.

Yangi O‘zbekistonda rahbarlikka nomzodlarni tanlash, tarbiyalash va saralashda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev asarlarida, chiqishlarida, hududlarda qilgan ma’ruzalarida ta’riflangan kuchli ma’naviy axloqiy fazilatlarni ilmiy o‘rganish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Yangi O‘zbekiston barcha sohalarda yangilanishni taqozo qiladi. Shu jumladan, “ma’naviy yangilanish”ni ham. “Ma’naviy yangilanish” nima degani? Bu joriy ma’naviyatimiz mazmunini “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mazmuni bilan boyitishni talab qiladi. Yangicha, ya’ni yangi strategiya talablari asosida yashashga, yangicha ishlashga o‘rgatadi. Eski stereotiplardan voz kechishni talab qiladi. Bu esa eng avvalo, bizga “ma’naviyat” kerak, degan savolga javob berishni talab qiladi. Bu savolga javob “ma’naviyat” so‘zining oldida turgan so‘z orqali sifatlanadi. Yangi O‘zbekistonni barpo etishning ikki ustuni – kuchli iqtisodiyot va kuchli ma’naviyat. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston fuqarolari va yoshlari – kuchli ma’naviyat sohib va sohibalari bo‘lishlari talab qilinadi.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “ma’naviyat” tushunchasi “inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. “Ma’naviyat” atamasining asosida “ma’no” so‘zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘y-basti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir”, degan ta’rif bor. Shuningdek, ma’naviyatli jamiyatda aql, sog‘lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo‘ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi, deyiladi.

“Jahon falsafasi qomusi”da “ma’naviyat (arab. ma’no, ma’nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa; insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki

dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezoni” tarzida tavsiflanadi.

O‘tmishda bir xalqni o‘ziga tobe qilgan dushman, avvalo, uni o‘zligi, tarixi, madaniyati va ma’naviyatidan judo qilishga kirishgani bejiz emas. Zero, ma’naviyati zabt etilgan mamlakatda o‘z tartiblarini o‘rnatish mustamlakachilarning azaliy, tarix sinovidan o‘tgan an’anaviy usullaridan biri bo‘lib keldi. Shu yo‘l bilan ma’naviy istilochi ma’nan qashshoq xalqni bora-bora o‘ziga singdirib yuboradi. Buning uchun o‘z mafkurasi va g‘oyalarini joriy etib, “ma’naviy asir” qilib, kun bermaslik siyosatini tutadi. Bu haqda bundan 2700 yil oldin yashagan qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy “... agar biror mamlakatni zabt etib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo‘lsangiz, dastavval o‘sha yerda yashayotgan xalqni o‘z tarixi, madaniyatidan mahrum eting, ma’naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o‘raladi, sizga qarshilik ko‘rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish oson kechadi”, degan edi.

**Keywords:** number, digitization, technology,warranty, information, collection, understanding, analysis, Use, Application, Programming, marketing,Sales,Service, Information, Computer, internet, mobile, artificial intellect,storage, transmission, cybersecurity, telecommunications.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalaridan foydalanish bugungi kun talablaridan biridir. Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlar sog‘liqni saqlash, transport, mudofaa va milliy xavfsizlik kabi ko‘plab sohalarda shu qatorda uzluksiz ta’lim jarayonida ham raqamli texnologiyalardan foydalanib kelmoqda.Ushbu texnologiyalarning barcha darajalari diapozonda bir xil signal holatini ifodalaydi. Raqamli texnologiyalar ma’lumotlarni qayta ishlash va almashishni kafolatlaydi. Bu ma’lumotlarni avtomatik ravishda yig‘ish, tushunish, tahlil qilish va ishlatish tehnologiyalari xisoblanadi. Raqamlashtirish, ma’lumotlarni dasturlash, aniq ro‘yhatga olish, ma’lumotlarni tahlil qilish, mashinani o‘rganish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish, marketing, sotish va xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda axborotni samarali boshqarish uchun ishlatilish jarayonida qo‘llanilmoqda. Ushbu tehnologiyalar kompaniyalar, tashkilotlar va muassasalarga sifatli qarorlar qabul qilish va faol operatsiyalarni boshqarishda yordam beradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish dunyoda rivojlangan barcha mamlakatlarda juda keng tarqalgan bo‘lib, turli sohalarda keng qo‘llanilib kelmoqda. Bu tehnologiyalar raqamli ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatishga asoslanadi. Shu qatorida ta’lim sohasida ham raqamli texnologiyalar muhim o‘rin egallab kelmoqda. Uzluksiz talimning bir bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich sinfladra ham qo‘llanilmoqda. Boshlang‘ich 4-sinf tarbiya darslarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanilsa,o‘quvchilarning bilim o‘lishi va ko‘nikma,malakalari shakllanisiga katta yordam bo‘ladi.Tarbiya darslarida berilgan turli xil vazifalarni bajarishda, **komryuter texnologiyalaridan** foydalanish yani ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilishda ishlatiladi. **Internet** texnologiyalari orqali 4-sinfga tarbiya faniga oid ma’lumotlarni uzatish, ijtimoiy tarmoqlardan olish, elektron pochta orqali jo‘natish va boshqa aloqa vositalaridan keng qo‘llanilib boriladi.O‘quvchilarda 4-sinfga tarbiya faniga oid ma’lumotlarni **mobil texnologiyalar** orqali yani smartfonlar va planshetlar orqali raqamli ilovalar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.O‘qituvchilar esa 4-sinfga tarbiya faniga oid ma’lumotlarni **ma’lumotlar bazasidan** katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash va boshqarish amalga oshiradilar. sun’iy intellekt algoritmlar orqali turli xil vazifalarni avtomatlashtirish va optimallashtirish ishlarini **sun’iy intellekt** jarayonida qollaydilar. **Ishlab chiqarish va avtomatizatsiya** jarayinida raqamli tehnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda qo‘llaniladi, bu esa 4-sinf tarbiya dars jarayonida ta’lim samaradorlikni oshiradi.

Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar kundalik davomida o‘quvchilarning bilim olishlarini, ko‘nikma malakalarini shakllanishini osonlashtiradi va ta’lim samaradorligini oshirishda ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi. Ularning rivojlanishini yangi imkoniyatlarning yaratilishi uchun xizmat qiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalar axborotni raqamli shaklda qayta ishlash, saqlash va uzatish imkonini beruvchi texnologiyalar to‘plami 4-sinf o‘quvchilarning tarbiya fani dars jarayonida ta’lim samaradorligini oshiradi. Ushbu texnologiyalar so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, jamiyatning turli sohalaridan biri bo‘lgan ta’lim tizimida ham keng tarqaldi. Quyida raqamli tehnologiyalarning asosiy jihatlari 4-sinf tarbiya fani darslarida samarali foydalanilsa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. **Raqamli ma’lumotlardan** foydalanishda 4-sinf tarbiya faniga oid ma’lumotjar raqamlar ko‘rinishida beriladi va o‘quvchilarga uzatiladi.Bu ma’lumotlarni o‘quvchilar aniqlab o‘zlarida ishonch hosil bo‘ladi va qayta ishlash imkoni

tug‘uladi.**Qayta ishlashda** o‘quvchilar raqamli signalni analog signalga qaraganda osonroq qayta ishlash mumkin. Kompyuterlar, smartfonlar va boshqa qurilmalar orqali turli xil operatsiyalarni bajarib boradilar.**Saqlashda** 4-sinf tarbiya faniga oid katta hajmdagi ma’lumotlarni kompakt va uzoq muddatli saqlash imkonini beradi.**Uzatishda** 4-sinf tarbiya faniga oid ma’lumotlarni internet va boshqa raqamli tarmoqlar orqali tezkor va ishonchli ma’lumot uzatilishi mumkin.

Uzluksiz ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalar asosida 4-sinf o‘quvchilarning tarbiya fani dars jarayonida ta’lim samaradorligini oshirada q**o‘llanish sohalari** ko‘ra a**xborot tehnologiyalari** yani kompyuter dasturlari, operatsion tizimlar, dasturiy taminot va apparat vositalari xizmat qiladi. **Telekommunikatsiyada** mobil va statsionar aloqa xizmatlari, internet xizmatlari va raqamli televideniyalarda foydalanadi. **Ommaviy axborot vositalarida** raqamli jurnalistika, bloglar, ijtimoiy media platformalari kiradi.Bunda 4-sinf o‘quvchilar tarbiya fani dars jarayonida telekommunikatsiya, Ommaviy axborot vositalarida mavzuga oid materiallar topib o‘rganishlariga qullay imkoniyat tug‘iladi. **O‘yin va ko‘ngilochar o‘yin**lardan tarbiya fanida o‘tiladigan mavzuga oid mobil o‘yinlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida 4-sinf o‘quvchilarning tarbiya fani dars jarayonida ta’lim samaradorligini oshirada **foydali tamonlari** quyidagilardan iborat;

1. **Samaradorlik:** raqamli tehnologiyalar jarayonlarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshiradi.
2. **Qulaylik:** katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor saqlash va uzatish imkoniyati.
3. **Innovatsiya:** yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish uchun keng imkoniyatlar.

**Raqamlashtirishning afzallik tamonlari:**

1. **Ma’lumotlarni osongina saqlash va qidirish:** elektron ma’lumotlar tez va oson qidirilishi, saqlanishi va boshqarilishi mumkin.
2. **Ish jarayonlarini tezlashtirish:** raqamli tizimlar qo‘llanishi ish samaradorligini oshiradi, vaqt va resurslarni tejaydi.
3. **Masofadan turib ishlash imkoniyati:** ma’lumotlar raqamli shaklda saqlanganda, ularni har qanday joydan olish va boshqarish osonroq bo‘ladi.
4. **Tahlil va qaror qabul qilishni yaxshilash:** raqamli ma’lumotlar asosida aniq va to‘g‘ri tahlillar o‘tkazish, bu esa to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Foydali tamonlari bilan bir qatorda **qiyinchiliklari** ham bor bular quyidagilardan iborat;

- **Kiberxavfsizlik:** ma’lumotlarni himoya qilish muhim muammo hisoblanadi.
- **Shaxsiy ma’lumotlar himoyasi:** shaxsiy ma’lumotlarning mahfiyligini ta’minlash zarurati.
- **Raqamli bo‘linish:** raqamli tehnologiyalarga kirish imkoni cheklangan hududlar.

Raqamli tehnologiyalar dunyoni o‘zgartirib, kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu tehnologiyalar rivojlanishida davom etib, kelajakda yanada katta o‘zgarishlar keltirishi kutilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida 4-sinf o‘quvchilarning tarbiya fani dars jarayonida ta’lim berilsa, ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari osonlashadi. Bunda esa ta’lim tizimi vositalari rolini multimedialar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalari, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dasr mashg‘ulotlarini o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi.

Umumta’lim maktabning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini aqlan etuk,axloqan pok, jismonan baquvvat, manaviy yuksak ijodkor, kreativ yondoshuvchi, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash vazifalari amalga oshirish darkor. Bu, o‘z o‘rnida, ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Mukammal va xalqaro standartlarga raqobatbardosh ta’lim tizimi davlatimizning kelajakdagi intellektual rivojlanishini belgilab beradi.

Raqamli texnologiyalar globallashuv jarayonlari nafaqat jamiyatga, balki yoshlarga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugun zamonaviy bilimlar va ma’lumotlarni o‘zlashtirmagan o‘quvchi raqobatbardosh mutaxassis bo‘lishi mushkul. Shu o‘rinda zamonaviy bilimlar va ma’lumotlarni o‘zlashtirgan o‘quvchi – kelajagini belgilaydi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi.

Ta’lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uzliksiz ta’limda foydalanish, shu jumladan, umumta’lim maktabning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich 4-sinf tarbiya fani darslarini samarali tashkil etish va unumli foydalanish maqsadga muvoffiqdir.

Umuman olganda, raqamlashtirish zamonaviy dunyoda samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim jarayonlardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. www.ziyo.com
2. http://vacademia.com/
3. http://popplet.com/
4. https://www.twiddla.com/
5. http://flockdraaw.com/
6. http://flockdraaw.com/
7. F.Mulaydinov, A.Abdullayev. “Ta’limda raqamli tehnologiyalarning roli”. 2023-yil.

## KOUCHINGDA MOTIVATSIYA NAZARIYALARI TAHLILI

**Y.Nurumbekova**
GulDPI “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri, dotsent

**Anotatsiya.** Ushbu tezisda kouchingda motivatsiya nazariyalari tahlili, vazifaning murakkabligi (tashqi, barqaror muvaffaqiyat omili), g‘ayrat (ichki, o‘zgaruvchan muvaffaqiyat omili),tasodifiy tasodif (tashqi, beqaror muvaffaqiyat omili),qobiliyatlar (ichki, barqaror muvaffaqiyat omili), psixologiya, motivatsiya nazariyasi batafsil yaratilgan.

**Kalit so‘zlar**: Shaxs, rivojlanish, dunyoqarash, kognitiv-baholash, «yaxshi – yomon», insonning xulq-atvori, motivatsion-kognitiv, parametr, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik, sabab, tasniflash, tashqi, barqaror.

**Annotation.** In this article, the analysis of motivational theories in coaching, task complexity (external, stable success factor), motivation (internal, variable success factor), random chance (external, unstable success factor), abilities (internal, stable success factor), psychology, The theory of motivation is created in detail.

**Key words:** Personality, development, outlook, cognitive-evaluation, "good - bad", human behavior, motivational-cognitive, parameters, success and failure, cause, classification, external, stable.

Inson faoliyati motivatsiyasining eng muhim masalalaridan biri bu uning harakatlarining sabablarini tushuntirishdir. Nedensional atribut deganda subyekt tomonidan boshqa odamlarning xulq-atvorining sabablari va motivlarini va ularning kelajakdagi xatti-harakatlarini bashorat qilish qobiliyatining rivojlanishi asosida shaxslararo tushunish tushunchasi tushuniladi.

Nedensional atributni eksperimental tadqiqotlar quyidagilarni ko‘rsatdi:bir kishi o‘z xatti-harakatlarini boshqa odamlarning xatti-harakatlarini qanday izohlayotgan bo‘lsa, shunchalik tushuntirmaydi;sabablarni aniqlash jarayonlari mantiqiy normalarga bo‘ysunmaydi;odam o‘z faoliyatining muvaffaqiyatsiz natijalarini tashqi omillar, muvaffaqiyatli natijalarni ichki omillar bilan izohlashga moyil. Nedensional atributni o‘rganish F. Xayderning 1958 yilda nashr etilgan «Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi» asaridan boshlandi. Shu bilan birga, odamning odam tomonidan idrok yetilishi bo‘yicha muhim tadqiqotlar matbuotda paydo bo‘ldi, u yerda odamni uning shaxs sifatida idrok etishiga oid ma’lumotlarni taqdim etish ketma-ketligining ta’siri aniqlandi.

Shaxs konstruksiyalari nazariyasi bo‘yicha G. Kelli tomonidan ishlangan bu bilim sohasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi – barqaror dunyoqarash kognitiv-baholash tuzilmalari, ular orqali odam dunyoni prizma orqali idrok yetadigan tushunchalar tizimi. Shaxsni qurish – bu qarama-qarshi baholovchi tushunchalar (masalan, «yaxshi – yomon», «yaxshi – yomon» va hokazo), ular ko‘pincha boshqa odamlarga va uning atrofidagi voqealarga beriladigan xususiyatlarda uchraydi. Biri ba’zi ta’riflarni (konstruksiyalar) ishlatishni afzal ko‘radi, boshqasi

yesa boshqacharoqlarini ishlatadi: biri ijobiy xususiyatlarga, ikkinchisi salbiy belgilarga murojaat qiladi. Shaxs prizmasi orqali ma’lum bir shaxsga xos xususiyatlarni shakllantiradi, uning dunyoga bo‘lgan o‘ziga xos qarashlarini tasvirlash mumkin. Ular, shuningdek, insonning xulq-atvorini, uning motivatsion-kognitiv izohini (sabab sababini) taxmin qilish uchun xizmat qilishi mumkin. Ma’lum bo‘lishicha, odamlar odamlarni tashqi holatlarga yemas, balki ularni sodir yetgan shaxs shaxsiyatining kuzatilgan xatti-harakatlarining sabablarini ko‘proq izohlaydilar. Ushbu naqsh «fundamental aniqlash xatosi» deb nomlanadi (I. Jones, 1979).

Faoliyatdagi yutuqlarni tushuntirishda ishlatiladigan tushunchalardan biri bu Vayner nazariyasi. Unga ko‘ra, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikning har xil sabablarini ikki parametr bilan baholash mumkin: lokalizatsiya va barqarorlik. Ushbu parametrlardan birinchisi, inson o‘zining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini ko‘rishini tavsiflaydi; o‘zingiz yoki holatlardan mustaqil ravishda. Barqarorlik tegishli sababning harakatining barqarorligi yoki barqarorligi sifatida qaraladi. Ushbu ikki parametrning turli xil kombinatsiyasi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikning mumkin bo‘lgan sabablarini quyidagi tasniflashni aniqlaydi.

Vazifaning murakkabligi (tashqi, barqaror muvaffaqiyat omili).

G‘ayrat (ichki, o‘zgaruvchan muvaffaqiyat omili).

Tasodifiy tasodif (tashqi, beqaror muvaffaqiyat omili).

Qobiliyatlar (ichki, barqaror muvaffaqiyat omili).

Psixologiyada turli xil faoliyatlarda muvaffaqiyatga yerishish uchun motivatsiya nazariyasi batafsil yaratilgan va ishlab chiqilgan.Ushbu nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar D.Makkelland, D. Atkinson va nemis olimi X.Xekxauzen. Ushbu nazariyaning asosiy qoidalarini ko‘rib chiqing. Biror kishining muvaffaqiyatga yerishishga qaratilgan faoliyati bilan bog‘liq ikkita sabab bor. Bu muvaffaqiyat uchun sabab va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun sababdir. Muvaffaqiyatga va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslikka undagan odamlarning xatti-harakati quyidagicha farq qiladi. Muvaffaqiyatga undagan odamlar odatda o‘zlarining faoliyatlarida ijobiy maqsadlar qo‘yadilar, bunga yerishish bir maromda muvaffaqiyat sifatida qaralishi mumkin. Ular har qanday holatda ham o‘z faoliyatida muvaffaqiyatga yerishish istagini aniq namoyon qiladilar, bunday tadbirlarni qidiradilar, ular bilan faol shug‘ullanadilar, o‘z maqsadlariga yerishish uchun vositalarni tanlaydilar va afzal ko‘radilar. O‘zlarining kognitiv sohasidagi bunday odamlar odatda muvaffaqiyatga umid qilishadi, ya’ni ular biron-bir ishni bajarishganda, ular doimo muvaffaqiyat qozonishini kutishadi, bunga ishonishadi. Ular maqsadga yerishishga qaratilgan harakatlar uchun ma’qullashni kutishadi va bu bilan bog‘liq ish ularga ijobiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, ular o‘zlarining barcha resurslarini to‘liq safarbar yetish va maqsadlariga yerishishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Muvaffaqiyatsizlikka yo‘naltirilgan odamlar, aksincha, ko‘pincha o‘zlarini yengil yoki juda murakkab kasblarni afzal ko‘rgan holda o‘zlarining shaxsiy taqdirini belgilashga tayyor yemaslar. Bundan tashqari, ular ko‘pincha o‘zlarining qobiliyatlari to‘g‘risidagi ob’ektiv ma’lumotlarga ye’tibor bermaydilar, o‘zlarini yuqori baholaydilar yoki kam baholaydilar, da’volarning real bo‘lmagan darajasiga yega. Muvaffaqiyatli odamlar o‘z maqsadlariga yerishishda juda qat’iydirlar. Juda oson va juda qiyin bo‘lgan vazifalar uchun ular muvaffaqiyatsizlikka sabab bo‘lganlarga qaraganda o‘zlarini boshqacha tutadilar. Muvaffaqiyatga yerishish motivatsiyasining ustunligi bilan, kishi qiyinchilik darajasida o‘rtacha yoki biroz ko‘tarilgan vazifalarni afzal ko‘radi va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik motivatsiyasining ustunligi bilan, vazifalar yeng oson va yeng qiyindir. ko‘nikmalar. Muvaffaqiyatsizlikka yo‘naltirilgan odamlar, aksincha, ko‘pincha o‘zlarini yengil yoki juda murakkab kasblarni afzal ko‘rgan holda o‘zlarining shaxsiy taqdirini belgilashga tayyor yemaslar. Bundan tashqari, ular ko‘pincha o‘zlarining qobiliyatlari to‘g‘risidagi ob’ektiv ma’lumotlarga ye’tibor bermaydilar, o‘zlarini yuqori baholaydilar yoki kam baholaydilar, da’volarning real bo‘lmagan darajasiga yega.

Muvaffaqiyatli odamlar o‘z maqsadlariga yerishishda juda qat’iydirlar. Juda oson va juda qiyin bo‘lgan vazifalar uchun ular muvaffaqiyatsizlikka sabab bo‘lganlarga qaraganda o‘zlarini boshqacha tutadilar. Muvaffaqiyatga yerishish motivatsiyasining ustunligi bilan, kishi qiyinchilik darajasida o‘rtacha yoki biroz ko‘tarilgan vazifalarni afzal ko‘radi va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l

qo‘ymaslik motivatsiyasining ustunligi bilan, vazifalar yeng oson va yeng qiyindir. ko‘nikmalar. Muvaffaqiyatsizlikka yo‘naltirilgan odamlar, aksincha, ko‘pincha o‘zlarini yengil yoki juda murakkab kasblarni afzal ko‘rgan holda, o‘zlarining shaxsiy taqdirini belgilashning yetishmasligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ular ko‘pincha o‘zlarining qobiliyatlari to‘g‘risidagi ob’ektiv ma’lumotlarga ye’tibor bermaydilar, o‘zlarini yuqori baholaydilar yoki kam baholaydilar, da’volarning real bo‘lmagan darajasiga yega. Muvaffaqiyatli odamlar o‘z maqsadlariga yerishishda juda qat’iydirlar. Juda oson va juda qiyin bo‘lgan vazifalar uchun ular muvaffaqiyatsizlikka sabab bo‘lganlarga qaraganda o‘zlarini boshqacha tutadilar. Muvaffaqiyatga yerishish motivatsiyasining ustunligi bilan, kishi qiyinchilik darajasida o‘rtacha yoki biroz ko‘tarilgan vazifalarni afzal ko‘radi va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik motivatsiyasining ustunligi bilan, vazifalar yeng oson va yeng qiyindir. ular ko‘pincha kasblarni mustaqil belgilashning yetishmasligi bilan tavsiflanadi, ular o‘zlariga yengil yoki murakkab kasblarni afzal ko‘rishadi.

Bundan tashqari, ular ko‘pincha o‘zlarining qobiliyatlari to‘g‘risidagi ob’ektiv ma’lumotlarga ye’tibor bermaydilar, o‘zlarini yuqori baholaydilar yoki kam baholaydilar, da’volarning real bo‘lmagan darajasiga yega. Muvaffaqiyatli odamlar o‘z maqsadlariga yerishishda juda qat’iydirlar. Juda oson va juda qiyin bo‘lgan vazifalar uchun ular muvaffaqiyatsizlikka sabab bo‘lganlarga qaraganda o‘zlarini boshqacha tutadilar. Muvaffaqiyatga yerishish motivatsiyasining ustunligi bilan, kishi qiyinchilik darajasida o‘rtacha yoki biroz ko‘tarilgan vazifalarni afzal ko‘radi va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik motivatsiyasining ustunligi bilan, vazifalar yeng oson va yeng qiyindir. ular ko‘pincha kasblarni mustaqil belgilashning yetishmasligi bilan tavsiflanadi, ular o‘zlariga yengil yoki murakkab kasblarni afzal ko‘rishadi. Bundan tashqari, ular ko‘pincha o‘zlarining qobiliyatlari to‘g‘risidagi obyektiv ma’lumotlarga e’tibor bermaydilar, o‘zlarini yuqori baholaydilar yoki kam baholaydilar, da’volarning real bo‘lmagan darajasiga ega.

**Adabiyotlar:**

1. Nurumbekova, Y. (2021). Training of future teachers to professional educative activity on the basement. *Journal of Central Asian Social Studies*, *2*(01), 66-74.

2. Nurumbekova, Y. (2024). Bo‘lajak mutaxassislarda kouching kompetensiyasini shakllantirish darajasini baholash va tashxislash asosida uni pedagogik korreksiyalash. *Молодые ученые*, *2*(3), 11-14.

3. Nurumbekova, Y. (2024). Bo‘lajak mutaxassislarda kouching kompetensiyasini shakllantirish darajasini baholash va tashxislash asosida uni pedagogik korreksiyalash. *Молодые ученые*, *2*(3), 11-14.

4. Nurumbekova, Y. (2023). SKILLS ENSURING COACHING EFFECTIVENESS. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, *2*(11), 34-39.

## BO‘LAJAK MUTAXASSISLARDA KOUCHING KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA QAYTMA ALOQA, FIDBEK BERISH XUSUSIYATLARI

**Y. Nurumbekova**
GulDPI Pedagogika va psixologiya
kafedrasi mudiri, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarda kouching kompetensiyasini shakllantirishda qaytma aloqa, fidbek berish xusuiyatlari, fidbek berish qoidalari, fidbek olish qoidalari**,** «teskari bog‘lanish» ta’rifi, teskari bog‘lanishni ta’minlash qoidalari, kouching tahlil qilinganda 10 ta mezon bo‘yicha 10 balldan jami 100 ball qo‘yish mumkin. samarali va samarasiz teskari bog‘lanish, kuzatishlar, individual, raqiblik (musobaqa), hamkorlikda o‘qish, hamkorlikda ishlashga asoslangan metodlar, hamkorlikdagi ta’lim yoki kichik guruhlarda o‘rganish pedagogikaning gumanistik yo‘nalishi texnologiyalariga tegishlidir, uning asosiy mazmuni-turli o‘quv vaziyatlarida talabalarning birgalikdagi faol o‘quv faoliyati uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi, hamkorlikda o‘qitishning zamonaviy tushunchasi

uch nazariya ta’siri ostida shakllangan: bilish (intellekt) rivojlanishi haqida tasavvurlar, ijtimoiy o‘zaro bog‘lanish va bixeviorizm g‘oyalari yoritilgan. Hamkorlikda o‘qitishning asosiy afzalliklari, interfaol usullarning 4 asosiy turi ajratiladi: kognitiv, eksperimental, rolli, fasilitatsiya mohiyati tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, kouch-murabbiylik, mutaxassis, kompetensiya, fidbek, qoidalar, «teskari bog‘lanish», ta’rif, mezon, ball, samarali, samarasiz, teskari bog‘lanish, kuzatishlar, individual, musobaqa, hamkorlikda o‘qish, hamkorlikda ishlash, metodlar, hamkorlikdagi ta’lim, nazariya, bilish, intellekt, rivojlanish, bixeviorizm, interfaol usullar, kognitiv, eksperimental, rolli, fasilitatsiya.

**Abstract:** In this article, based on an innovative approach, feedback in the formation of coaching competence in future specialists, features of giving feedback, rules for giving feedback, rules for receiving feedback, definition of "feedback", rules for providing feedback, coaching analysis a total of 100 points out of 10 can be assigned according to 10 criteria. effective and ineffective feedback, observations, individual, competition (competition), cooperative learning, methods based on cooperative work, cooperative education or learning in small groups belong to the technologies of the humanistic direction of pedagogy, its main content is different implies the creation of conditions for joint active learning activities of students in educational situations, the modern concept of cooperative learning was formed under the influence of three theories: ideas about the development of knowledge (intellect), the ideas of social interaction and behaviorism are covered. The main advantages of cooperative teaching, 4 main types of interactive methods are distinguished: cognitive, experimental, role-playing, and the essence of facilitation is analyzed.

**Key words**: innovation, coaching, expert, competence, feedback, rules, "feedback", definition, criterion, score, effective, ineffective, feedback, observations, individual, competition, cooperative learning, cooperative work, methods, cooperative learning, theory, cognition, intelligence, development, behaviorism, interactive methods, cognitive, experiential, role-playing, facilitation.

Kirish. Bo‘lajak mutaxassislarda kouching kompitentsiyalarini shakllantirishga kasbiy yo‘nalganlik darajasi, kasbiy tayyorgarligi 2014-2015 o‘quv yilidagi bitiruvchilarning (60110100-Pedagogika va psixalogiya (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvcliisi), 60310900 - Psixologiya (faoliyat turlari bo bo‘yicha) ta’lim yo‘nalshlari, xamda *5A110902- Pedagogika va psixologiya* mutaxassislikgi misolida) ixtisosligi bo‘yicha kasbga tayyorgarlik darajasi ilmiy-pedagogik, nazariy va tajribaviy tadqiqotlar analitik tahlil natijalari tanlab olingan OTM yo‘nalishlar kesimida o‘rganildi [3,6].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** U. Timoti Golvi (W.Timothy Gallwey) — kouching asosida turuvchi Ichki O‘yin konsepsiyasi muallifi. Ilk bora bu konsepsiya 1974 yilda nashr etilgan «Vnutrennyaya Igra v Tennis» (The Inner Game of Tennis) kitobida yoritilgan.Djon Uitmor (John Whitmore) — 1992 yilda nashr etilgan «Kouching vo‘sokoy effektivnosti» kitobining muallifi. Golvining g‘oyalarini biznes va menedjmentta qo‘llash yo‘nalishi bo‘yicha rivojlantirgan. Tomas Dj. Leonard (Thomas J. Leonard) — Kouch Universiteti (Coach University — www.coachu.com), Kouchlar xalqaro federatsiyasi, Xalqaro sertifikatlangan kouchlar assotsiatsiyasi (International Association of Certified Coaches — IAC) va CoachVille.com loyixasining asoschisi [4,49].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**. O’zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-sonli Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5544-sonli Farmoni, va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar tadqiqot metodologik asos bo‘ladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Fidbek – inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “qayta oziqlantirish” degan ma’noni bildiradi. Fidbek jarayoni - biror holat kuzatilganidan keyin, yoki dars, seminar nihoyasiga yetganida olib boruvchining xatti –xarakati yoki dars (seminar) olib boruvchi o‘qituvchi (kouch, trener, fasilitator, moderator) faoliyatiga kuzatuvchining fikr-

mulohazalarini bildirish jarayoni. Ushbu holat ko‘rilgan, kuzatilgan, qatnashgan shaxsning shaxsiy mulohazalaridan iborat bo‘ladi. Shuning uchun bu jarayon «Qayta aloqa» deb yuritiladi, ingliz tilida ushbu so‘z «fidbek» deb yuritiladi.

Kouch- murabbiylar kouching (seminar, terning) o‘tishdan qo‘rqmaydilar, biroq kuzatuvchilarning fikrlarini tinglashdan qo‘rqadilar. Ba’zi insonlar «Men qo‘rqmayman!» deyishlari, o‘zlarini himoya qilishlari yoki o‘ziga bo‘lgan ishonchini bildirmoqchi bo‘ladilar. Biroq ushbu jarayon tugagandan so‘ng ichki hissiyotlarida baribir o‘zgarish sezadilar. Fidbek berayotgan yoki eshitayotgan shaxslarda ushbu qiyinchiliklar kuzatiladi.

Nima uchun? Bir qancha sabablar bor ekan…

- o‘zaro munosabatlarda salbiy o‘zgarish paydo bo‘lishidan qo‘rquv;
- bir-birlarini to‘g‘ri tushunmasliklari mumkinligidan qo‘rquv;
- axloqiy normalarni namoyon eta olmaslikdan qo‘rquv;
- hammaning oldida uyalib qolishdan qo‘rqish va h.z.
- Shuning uchun psixologik tomondan quyidagilarga e’tibor berish lozim.
- Kouchingda fidbek o‘tkazish jarayoni bir qancha tartib va qoidalarga ega. Avvalam bor,
- kouchingni kuzatishga kirgan shaxs, kouchdan ruxsat so‘rashi va maqsadini aytishi lozim.
- Kouchingdan keyin yolg‘iz qolib fidbek berish uchun ruxsat so‘rashi kerak, agar kouching o‘tgan odam zarur emasligini bildirsa, demak fidbek berilmaydi yoki aksincha. (bu holat bir qancha sabablarga ko‘ra ro‘y berishi mumkin, masalan, kuzatuvchi xar doim atrofdagilarni kamchiligini aytishga o‘rgangan bo‘lsa, kouch bergan mutaxassis ataydan gapirtirmasligi mumkin. Yoki shaxsiy adovatlari bo‘lishi mumkinligini ham inobatga olish kerak.) Shuning uchun kuzatuvchi nihoyatda adolatli, adekvat va savodli bo‘lishi kerak. Buning uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish maqsadga muvofiq.

***Fidbek berish qoidalari:***

1. Fidbek berishga emotsional tomondan tayyorligingizga ishonch hosil qiling.
2. Umuman, fidbek berish zarurmikan, o‘ylab ko‘ring.
3. Fidbek berish uchun ruxsat so‘rang.
4. Nima uchun fidbek bermoqchi ekanligingizni (maqsadingizni) ma’lum qiling.
5. Avvalam bor kuzatilgan holatni tasvirlang, unga baho bermang (ijobiy narsalardan boshlang!)
6. Faqatgina o‘zgartirish mumkin bo‘lgan qism, mavzu bo‘yichagina gapiring.
7. Aniq detallar hakida gapiring, umumiy gaplardan qoching.
8. Darsni kuzatib bo‘lgandan so‘ng o‘sha zahoti fidbek berish. maqsadga muvofiq (darsdan 2soat, 1 kun o‘tgandan keyin emas yoki keyingi haftasiga).
9. Tekshirib ko‘ring, Sizni to‘g‘ri tushundilarmi?
10. Tajriba almashish imkonini berganlari uchun minnatdorchilik bildiring.

***Fidbek olish qoidalari:***

- Boshqalardan fidbek berishlarini so‘rang (chunki chekkadan kuzatganda, o‘zim ahamiyat bermagan narsalar ko‘rinishi, kouchingni yaxshilash yoki rivojlantirish uchun zarur maslahatlar eshitilishi mumkin)
- Kouchingni qaysi qismi yoki mavzusi bo‘yicha maslahat olmokchi ekanligingizni aniq ayting.
- Fidbek berilayotgan vaqtda, qog‘oz, ruchka olib maslahalarni yozib olishga harakat qiling.Iloji boricha, himoyalanishga, o‘zingizni oqlashga harakat qilmang, jimgina tinglash, tan olishni bildirmaydi. Balki fidbek berayotgan shaxsga nisbatan sizning hurmatingizni bildiradi.
- Barcha ma’lumotlarni eshitib bo‘lganingizdan so‘ng, tushunmagan, sizni ikkilantirgan fikr-muloxazalarga izox so‘rashingiz mumikn.

Fidbek bergan shaxsga minnatdorchilik bildiring.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. .Vospitay svoyego lidera, kak naxodit, razvivat i uderjivat v organizatsii talantlivых rukovoditeley. \ Per. s angl.-M.: Izdatelskiy dom “Vilyams”, 2002.- 416 s.
2. Nurumbekova, Y. (2021). TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO PROFESSIONAL EDUCATIVE ACTIVITY ON THE BASEMENT. Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 66-74.
3. Ya. Nurumbekova. “Shaxs psixologiyasi va kouching” o‘quv qo‘llanma *70110102*— Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi uchun tayyorlangan– Guliston: GulDU, 2022. - 285 b.
4. Ya. Nurumbekova “Kouch tayyorlash va kouching o‘tkazish istiqbollari” monografiya. GulDU. 2023y-145b.
5. Nurumbekova, Y. (2021). Training of future teachers to professional educative activity on the basement. *Journal of Central Asian Social Studies*, *2*(01), 66-74.
6. Nurumbekova, Y. (2023). FAOL KUZATISH EMPATIYA, REFLEKSIYA, IDENTIFIKATSIYA–KOUCHINGNING SAMARALI VOSITALARI SIFATIDA. *Interpretation and researches*, *2*(1).
7. Nurumbekova, Y. (2023). THE TYPES AND MAIN PRINCIPLES OF COACHING. *Science and innovation*, *2*(B2), 243-247.

## RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA EVTAGOGIK TA’LIM TAMOYILLARINING O‘RNI

**Xidirova Malohat Qazaqovna**
Guliston davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti v.b., (PhD)
xidirovamalohat848@gmail.com

**Annotatsiya:** Ta’limda raqamlashtirish resurslarni, vaqtni, mablag‘ni tejashning to‘g‘ri usuli ekanligini isbotladi. So‘nggi yillarda ta’limdagi o‘zgarishlar, ayniqsa, katta yoshdagi shaxslarning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoniga alohida e’tibor qaratishga sabab bo‘lmoqdi. Bu yangi o‘qitish usuliga “evtagogika” (yoki heutagogy) nomi berildi. Evtagogika – bu o‘z-o‘zini boshqarish asosida o‘rganish va o‘quvchining o‘z ta’lim yo‘lini mustaqil tanlashi tamoyiliga asoslangan yondashuvdir. Evtagogika ko‘pincha masofaviy ta’lim va onlayn kurslarda keng qo‘llaniladi, chunki bu ta’lim olish uchun o‘quvchi o‘z vaqtini va o‘quv vaqtini o‘zi belgilaydi. Ushbu tezisda evtagogika tamoyillari, uning xususiyatlari va ta’lim tizimidagi ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

**Kalit so‘zlar:** evtagogika, ta’lim, o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil o‘qish, moslashuvchanlik, evtagogik yondashuv**,** eksperimentga ochiqlik, kreativ va reflektiv o‘rganish, raqobatbardoshlik**.**

**Abstract**: Digitization in education has proven to be an effective way to save resources, time, and money. In recent years, changes in education, especially in the self-development processes of adult learners, have become a particular focus. This new teaching approach is called “heutagogy.” Heutagogy is a self-directed learning approach that allows learners to independently choose their own educational path. It is widely used in distance education and online courses, as it allows learners to set their own learning schedule and pace. This thesis discusses the principles of heutagogy, its features, and its significance in the educational system.

**Key words:** heutagogy, education, self-development, independent learning, flexibility, heutagogical approach, openness to experimentation, creative and reflective learning, competitiveness.

Evtagogika – bu o‘z-o‘zini boshqaruvchi ta’lim konsepsiyasi bo‘lib, unda o‘quvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantiradilar. Bu yondashuv an’anaviy pedagogika va andragogikadan farqli ravishda, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatni emas, balki

o‘quvchining o‘ziga mustaqillik berishni ustun qo‘yadi. Bunda o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy mas’uliyatni his qilib, o‘rganishning asosiy yo‘nalishlarini mustaqil belgilaydi, o‘qitish vositalarini, o‘quv resurslarini tanlaydi va ta’lim olishni o‘zlariga moslab olishadi, natijalarga erishishni maqsad qiladilar. Evtagogika ko‘pincha masofaviy ta’lim va onlayn kurslarda keng qo‘llaniladi, chunki bu ta’lim olish uchun o‘quvchi o‘z vaqtini va o‘quv vaqtini o‘zi belgilaydi. [1]

Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo‘rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va ta’lim jarayonini robotlashtirilishi, masalasi ham ko‘tarilmoqda. Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so‘zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o‘rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog‘liq masalalar tobora ko‘proq e’tiborga olinmoqda[5].

Evtagogik ta’lim bir nechta tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. O‘z-o‘zini boshqarish
2. Moslashuvchanlik
3. Eksperimentga ochiqlik
4. Kreativ va reflektiv o‘rganish.

Evtagogikada ***o‘z-o‘zini boshqarish tamoyili*** – bu ta’lim jarayonida o‘quvchining boshqaruvni o‘z qo‘liga olishiga asoslangan yondashuvdir. Ushbu tamoyil o‘quvchiga ta’lim maqsadlarini belgilash, o‘quv materiallarini tanlash, o‘ziga qulay o‘qitish metodlarini tanlash imkoniyatini beradi. Boshqacha aytganda, evtagogik yondashuv o‘quvchini ta’limda passiv emas, balki faol qatnashuvchi sifatida ko‘radi. Bu tamoyil mustaqillikni, mas’uliyatni va o‘z-o‘zini rivojlantiradi, o‘quvchining o‘quv jarayonidagi ehtiyoj va qiziqishlariga moslashtiriladi.

**O‘z-o‘zini boshqarish tamoyilining asosiy jihatlari.** *Shaxsiy ta’lim maqsadlarini belgilash.* Evtagogik ta’limda o‘quvchilar o‘z maqsadlarini o‘zlari belgilashadi. Bu esa ularni ta’lim jarayoniga yanada qiziqish bilan yondashishga undaydi. Masalan, professional rivojlanishni maqsad qilgan talaba kerakli darslarni tanlab, o‘zining bilim va ko‘nikmalarini shu yo‘nalishda kengaytiradi.

*O‘quv materiallarini tanlash erkinligi.* Evtagogikada o‘quvchilarga bilim olish uchun turli manbalar va o‘quv materiallarini tanlash huquqi beriladi. Bu ularning turli xil manbalardan bilim olishlarini ta’minlab, bilimni kengroq nuqtai nazardan tushunishga imkon beradi. Masalan, ta’limni tadqiqot asosida davom ettirayotgan o‘quvchi an’anaviy darsliklardan tashqari, ilmiy maqolalar, onlayn kurslar va amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan resurslarni o‘zi tanlaydi.

*O‘z-o‘zini baholash va rivojlantirish.* Evtagogik yondashuvda o‘quvchilar o‘z yutuqlari va kamchiliklarini mustaqil ravishda tahlil qilishadi. Bu ularga ta’limdagi kuchli va zaif tomonlarini anglash, qaysi sohalarda ishlash kerakligini belgilash imkonini beradi. Masalan, o‘z-o‘zini baholash orqali talaba bilimlaridagi bo‘shliqni ko‘rib, qo‘shimcha bilim olishga intiladi.

Evtagogikaning o‘z-o‘zini boshqarish tamoyili shaxsiy va professional rivojlanish uchun kuchli zamin yaratadi. Bu tamoyil o‘quvchilarga mustaqil va mas’uliyatli bo‘lishni o‘rgatadi, bilim va ko‘nikmalarni o‘z ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda rivojlantirishga imkon beradi. [2]

Evtagogikaning ***moslashuvchanlik tamoyili*** o‘quv jarayonini har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Bu tamoyilga ko‘ra, ta’lim jarayoni qat’iy dasturlarga bog‘liq bo‘lmasdan, o‘quvchilarning qiziqishlari, shaxsiy tajribalari va o‘ziga xos ta’lim uslublariga asoslanib o‘zgarishi mumkin.

**Moslashuvchanlik tamoyilining asosiy jihatlari.** *Shaxsiylashtirilgan o‘quv rejalari.* Evtagogikada har bir o‘quvchi uchun shaxsiy ta’lim rejalari tuzishga katta e’tibor beriladi. O‘quvchi o‘zining ta’lim yo‘lini o‘zi tanlashga qodir bo‘ladi, bu esa ularning qiziqishlari va kuchli tomonlarini inobatga olish imkonini beradi.

*O‘qitish usullarining moslashuvchanligi.* Evtagogika yondashuvida turli xil o‘qitish usullari va texnikalari qo‘llaniladi. Masalan, biri amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq vaqt ajratsa, boshqasi

nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga e’tibor qaratadi. Har bir o‘quvchi o‘ziga mos usulda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu jarayonda maksimal natija ko‘rsatishi mumkin.

*Ta’lim vositalari va resurslariga erkin kirish.* Evtagogik yondashuv turli xil ta’lim resurslari (kitoblar, videolar, maqolalar, amaliy kurslar va hokazo) bilan mustaqil foydalanish imkonini beradi. Bu o‘quvchilarga ta’limni o‘zlariga qulay vaqt va joyda davom ettirish imkoniyatini yaratadi.

*O‘quv tezligini boshqarish imkoniyati.* Evtagogikada o‘quvchilar bilim olish tezligini o‘zlari belgilaydilar, bu ularga materialni chuqurroq tushunish va tayyor bo‘lganlarida keyingi bosqichga o‘tish imkonini beradi. Bu xato qilishdan qo‘rqmaslik va o‘z xatolaridan saboq olish uchun imkon beradi.

Moslashuvchanlik tamoyili evtagogik yondashuvning asosiy elementlaridan biri sifatida o‘quvchilarga ta’lim jarayonini shaxsiy ehtiyoj va qiziqishlariga moslashtirishga imkon beradi. Bu tamoyil nafaqat bilim olishda erkinlik yaratadi, balki o‘quvchilarni mas’uliyatli, mustaqil va ijodiy shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Evtagogikaning **eksperimentga ochiqlik tamoyili** o‘quvchilarga o‘quv jarayonida yangi narsalarni sinab ko‘rish, xatolar orqali o‘rganish va ijodiy fikrlash imkoniyatini beradi. Bu tamoyil o‘quvchilarni o‘z bilimlarini o‘zlari mustaqil ravishda shakllantirishga undaydi va ularning muammolarni yechish, yangiliklar yaratish, shaxsiy qobiliyatlarini sinash va kengaytirishga intilishini qo‘llab-quvvatlaydi.

**Eksperimentga ochiqlik tamoyilining asosiy jihatlari.** *Xatolardan o‘rganish*. Eksperimentga ochiqlik tamoyili o‘quvchilarga xato qilish va bu xatolaridan o‘rganish imkoniyatini beradi. Bunda o‘quvchilar har bir xatoni ta’lim jarayonining bir qismi sifatida ko‘rib, undan xulosalar chiqaradilar.

*Yangiliklar yaratishga rag‘batlantirish*. Bu tamoyil o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun ijodiy usullarni izlash va tajriba qilishga undaydi. Masalan, yangi usullarni qo‘llash yoki muammolarni yangicha yondashuvlar orqali hal qilishga undaydi.

*Mustaqil qaror qabul qilish va o‘z bilimlarini sinab ko‘rish.* O‘quvchilar bilim olish jarayonida o‘z tajribalarini qo‘llash va natijalarni mustaqil baholash imkoniga ega bo‘ladi. Bu ularni tadqiqot va izlanishga undaydi, bilim olish jarayonida erkinlik hissini beradi.

Evtagogikada **kreativ va reflektiv o‘rganish tamoyili** o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini va o‘z o‘qish jarayonini tahlil qilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu tamoyil o‘quvchilarga o‘z bilimlarini chuqurroq anglash va o‘z yondashuvlarini yaxshilash imkonini beradi. Kreativ o‘rganish yangi g‘oyalar yaratishga, reflektiv o‘rganish esa o‘z bilim va tajribalarini tahlil qilishga qaratilgan.

**Kreativ va reflektiv o‘rganish tamoyilining asosiy jihatlari.** *Ijodiy fikrlash va yangilikka intilish.* Kreativ o‘rganish o‘quvchilarga o‘rganish jarayonida yangi yondashuvlarni qo‘llash va o‘z fikrlash usulini kengaytirish imkonini beradi. Bu ijodiy yondashuvlar orqali o‘quvchilar o‘zlariga mos usullarda o‘rganadilar, natijada o‘z sohasida yangi yutuqlarga erishish imkoniyatini topadilar.

*Reflektiv tahlil.* Reflektiv o‘rganish o‘quvchilarning o‘z ta’lim jarayonini tahlil qilishlarini anglatadi. O‘quvchilar o‘zlarini baholash, qanday bilimlar va ko‘nikmalarni rivojlantirish kerakligini anglash orqali ta’lim jarayonida yanada ongliroq yondashuvga ega bo‘ladilar.

*O‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish.* Kreativ va reflektiv o‘rganish orqali o‘quvchilar o‘zlarini yanada chuqurroq tushunadilar, bilimlarini mustaqil ravishda kengaytiradilar va o‘z kamchiliklarini anglab, ularni bartaraf etish uchun qo‘shimcha qadamlar qo‘yadilar.

Kreativ va reflektiv o‘rganish tamoyili o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi va ularni o‘z o‘qish jarayoniga chuqurroq qarashga undaydi. Bu tamoyil evtagogikaning asosiy elementlaridan biri sifatida o‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga va o‘z bilimlarini chuqur anglashga yordam beradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, evtagogika shaxsiy ta’limni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvi bo‘lib, kelajakda ta’lim tizimida yanada keng qo‘llanilishi kutilmoqda. Bu yondashuv, o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirish va bilishga intilishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi,

tezkor o‘zgaruvchan dunyoda bilimlarni samarali egallash imkonini beradi. Ushbu yondashuvni qo‘llash o‘quvchilarda mas’uliyat hissi, mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Blaschke, L. M. Heutagogy and Lifelong Learning: A Review of Heutagogical Practice and Self-Determined Learning. International Review of Research in Open and Distributed Learning. (2012).

2. Blaschke, L. M., & Hase, S. Heutagogy: A Holistic Framework for Self-Determined Learning in Higher Education. International Journal of Educational Technology in Higher Education. (2016).

3. Hase, S., & Kenyon, C. From Andragogy to Heutagogy. Ultibase Articles, RMIT University. (2000).

4. Canning, N. Playing with heutagogy: Exploring strategies to empower adult learners in higher education. Journal of Further and Higher Education, 34(1), 59-71. (2010).

5. Xidirova M.Q. Andragogik ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish. “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.2022

## TA’LIMNI JARAYONINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Samatova Dilrabo Yusufovna**
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta’lim jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari, o‘qituvchi-o‘quvchi faoliyatining axborot texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari bilan birga pedagogik olimlarning mazkur mavzu yuzasidan ilgari surilgan ilmiy qarashlari tahlil etilgan.

**Kalit so‘z:** ta’lim jarayoni, interaktiv doska, planshet, AKT, texnologik yondashuv, pedagogik texnologiya, axborot almashish, kompitentlik

**Annotation:** This article analyzes the pedagogical capabilities of digital technologies in the organization of the educational process, the possibilities of using information technologies in the activities of teachers and students, as well as the scientific views of educational scientists on this topic.

**Keyword:** educational process, interactive whiteboard, tablet, ICT, technological approach, pedagogical technology, information exchange, competence

Bugungi kunda barcha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish masalalari kompyuter texnologiyalarisiz hal etilmaydi. Chunki zamon shiddat bilan o‘zgarayotganda axborot bilan ishlashning turli vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga tez suratlarda kirib kelmoqda. Talaba-yoshlarda axborot bilan ishlash ko‘nikmalari aksariyat hollarda hayotdan, ya’ni amaliyotdan olgan tajribalari asosida rivojlanmoqda.

Ma’lumki, bugungi kunda har bir OTM kompyuter sinflari hamda mutaxassislar bilan yetarli darajada ta’minlangan. Biroq bu kabi sharoitlardan to‘g‘ri va samarali foydalanish uchun o‘qituvchining o‘zida AKT yoki raqamli o‘qitish usullariga motivatsiya yetishmayapti. Natijada ayrim o‘qituvchilar faqatgina ochiq darslarda( shunda ham o‘zgalarning ko‘magi ostida) gina AKT dan foydalanib dars o‘tmoqdalar. Bu holat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ma’lum bir to‘siqni yuzaga keltiradi. O‘z o‘rnida yoshlarning ko‘z o‘ngida o‘qituvchining mavqeni saqlab qolish masalasi ustida ishlash talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 4947-sonli Farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” yo‘nalishida “...umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish” nazarda tutilgan.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimini tubdan yangilash, uning samaradorligini oshirish ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va kasbiy ehtiyoj sifatida maydonga chiqmoqda. Sababi, texnologik

yondashuv negizida tayyor bilimlarni o‘zlashtirish asosiy maqsad bo‘lmay, mustaqil tanlash, mustaqil bilim egallash, mustaqil qaror qabul qilish va erkin fikrlar ko‘nikmasini shakllantirishni obyektiv zaruriyatga aylantirish orqali talabada intellektual salohiyatni rivojlantirish talabi vujudga kelmoqda. Buning uchun talaba yoshlarni sezgir, vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan, ayni shu vaziyat uchun tezkor obyektiv qaror qabul qila biladigan, malakali mutaxassis qilib tayyorlashda an’anaviy pedagogikaga tayanib ish yuritish kamlik qiladi. Texnologik yondashuvga oid nazariy-emperik tadqiqotlarning ko‘pligiga qaramasdan, an’anaviy ta’lim berish tajribasi ustuvor bo‘lib qolmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilarga hamon o‘zi dars beradigan o‘quv predmetini o‘qitishga oid ko‘nikmalar shakllantirilmoqda. Zamon talabiga mos, texnologik yondashuv asosida puxta o‘zlashtirgan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga qaratilgan qarashlar N.N.Azizxodjayeva, U.SH.Begimqulov B.R.Djurayeva, F.R.Yuzlikayev, O.Haydarova, SH.Sharipovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Pedagogik qarashlar Y.A.Komenskiy tomonidan 1632 yilda yozilgan “Buyuk didaktika” asari mazmunida ilk bor ilmiy asoslangan. U ta’limni tashkil etishning qonun-qoidalari, prinsiplari, o‘quv yili, ta’tillar, o‘quv choraklari, talabalarni maktabga bir vaqtda, ya’ni kuzda qabul qilish, sinf-dars tizimi, talaba faoliyatini baholash kabilarni joriy etdi. Uning pedagogika nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lishi, bolani yosh davrlarga bo‘lib, axloqiy tarbiyalash kabi prinsiplari ustuvor ahamiyatga ega.

Y.A.Komenskiyning g‘oyalari dunyo maktablarida hozirga qadar qo‘llanilib kelinayotgan bo‘lsa-da, yuqorida ta’kidlanganidek, uchinchi ming yillikda ilg‘or pedagogik texnologiyalar tatbiqi asosida o‘quvchi-talabaning aqliy zakovati, erkin fikrlash hamda mustaqil faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash davr ehtiyojiga aylandi. Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kun talablari bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat kasbiy, balki siyosiy, huquqiy madaniyati va ongini oshirish, faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashni taqozo etadi. Bu esa, talabalarda kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik texnologiyani puxta o‘zlashtirishga intilish orqali amalga oshishi mumkin.

Shunga muvofiq, pedagogik texnologiyalar davr taqozosi bilan pedagogika fani tizimida shakllangan esa-da, birdaniga fan yoki tadqiqot obyekti sifatida maydonga chiqmaganligi ma’lum. Bu tushuncha dastlab XX asrning o‘rtalarida AQShda qo‘llanila boshlagan. U rivojlangan davlatlarda ta’lim sohasidagi siyosatning asosiy vazifasi sifatida olib qaralgan. Bu siyosat YUNESKO tomonidan ham ma’qullangan. Uning tarixan kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari, xorij tajribalari yutuq va kamchiliklari alohida tadqiqot obyekti ko‘rinishida tahlil etilganligi bois, biz uni tadqiqot mavzusiga ko‘ra ixtisoslik fanlari qatorida o‘rganishni nazarda tutdik. Chunki texnologik yondashuv mazmuni pedagogik texnologiyalar tatbiqi va uning samaradorligi bilan bog‘liq.

Ta’lim tizimida texnologik yondashuvning ustuvorlik kasb etishi pedagogik tafakkurda ham sezilarli darajada aks etmoqda. Bu jarayonning negizini tashkil etuvchi innovatsion-kreativ g‘oyalar tatbiqi ijtimoiy faol, raqobatdosh shaxsni shakllantirish muammosiga qaratilmoqda. Bugungi kun o‘qituvchisi eng yaxshi pedagogik g‘oyalar, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy meyorlarning targ‘ibotchisi va namunasi sifatida o‘quvchi oldida gavdalanmog‘i lozim. Texnologik yondashuv asosida talabalarining mustaqil, individual fikriy taraqqiyoti va tafakkurini kengaytirishni talab qiladi. I.A.Kolesnikova ta’kidaganidek, texnologik yondashuv jarayonida pedagogning faoliyati ongli, erkin, maqsadga yo‘naltirgan, talabalarning tanloviga asoslangan bo‘lishi lozim. Bunda texnologik yondashuv texnologiyalarini asosiy sharti sifatida ta’lim oluvchining imkoniyatlarini kengaytirish orqali unga ta’lim-tarbiya berish jarayonida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchining individual va jamoaviy qiziqish-xohishlarini inobatga olishi lozim.

YE.V.Bondarevskiy texnologik yondashuv jarayonini pedagog madaniyatini yuksak namunasida ko‘radi va pedagog faoliyati insonparvarlik prinsipiga asoslangan bo‘lishi kerakligini e’tirof etadi. Bu, o‘z navbatida, talabalarning faoliyati professor-o‘qituvchilarning faoliyati bilan uyg‘unlashtirilsagina texnologik yondashuv jarayonini tashkil etishda muvaffaqiyatga erishilishi mumkin. Tadqiqotchining keltirgan farazi asosida pedagogikaning yaxlitliylik tamoyili asosida ta’lim-tarbiyaga yondashish yotadi.

Tadqiqotga oid izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, texnologik yondashuv mazmunidagi innovatsion g‘oyalarga tizimli yondashilganda didiktik jarayon o‘z yechimini topib boradi. Aks holda, talaba faoliyati reglamentlashgan, nazorat esa, markazlashgan holda qolib, an’anaviy “subyekt-obyekt” pedagogikasida o‘qituvchi tayyor bilimlarni berib, talabalar takrorlash, quruq yodlash bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bu jarayon talabadagi mustaqil fikr, ijtimoiy faollik hamda ijodiy faoliyatni cheklanib qolishiga olib keladi. Talabaning aqliy zakovati, erkinligi, mustaqil faoliyat yuritish qobiliyati to‘laqonli ta’min etilmasa, ta’limda avtoritar yondashuv, ya’ni, avtoritar pedagogika ustuvor bo‘lib, o‘qituvchi yagona axborot manbai, yagona tashabbuskor, talaba passiv tinglovchi, axborotni shunchaki qabul qiluvchiga aylanib qoladi.

Texnologik yondashuv mazmunida o‘qituvchi va talaba faoliyati “subyekt-subyekt” munosabatlari qonuniyatlari asosida tashkil etilmog‘i, o‘zaro hamkorlik, hamfikrlik, hamijodkorlik va do‘stona munosabatlar ta’min etilib, ta’lim-tarbiya mazmuni innovatsion g‘oyalar bilan boyib borilmog‘i lozim. Innovatsiya-bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak .

Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi. Innovatsion faoliyat - pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalami egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi.

Pedagog innovatsion faoliyatning sub’ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo‘llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas boqliq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izoqlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas. Innovatsiya -amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sub’ektlaming harakat tizimidir. Bu g‘oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo‘lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi, shuningdek, umuman ta’lim

tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsiya-ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir.

Bugun ta’lim tizimidagi innovatsiyalami quyidagicha tasniflash maqullanmoqda:

1. Faoliyat yo‘nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
2. Kiritilgan o‘zgarishlaming tavsifiga ko‘ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).
3. O‘zgarishlar ko‘lamiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli).
4. Kelib chiqish manbaiga ko‘ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi-sarflangan mablag‘ yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan yangiliklardan farqli o‘laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb-innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita pedagog faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ulami amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlami boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta’riflash imkoniyati paydo bo‘ldi. Innovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. «Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlaming mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolami yechishga qaratilgan faoliyatdir»-deb ta’kidlaydi, V.I.Slobadchikov.

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy- madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub’ektlaming harakat tizimi bo‘lib, u ma’lum doiradagi muammolami yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolami yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo‘lishdir. Pedagog innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o‘quv-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishdan iboratdir. Innovatsion faoliyat - uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi.

Pedagogning innovatsion faoliyati xususiyatlarini o‘rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilami innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
- ziddiyatlaming oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklami izlab topish va ulami o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

Pedagoglami innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish, jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o‘sib borayotganligini tushunish natijasida vujudga keldi. Uning tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o‘z ichiga olmasdan, balki yangiliklami izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalami qayta tekshirish kabi jarayonlami ham qamrab oladi.Innovatsion faoliyatning tuzilishini o‘rganib chiqqan olimlardan biri V.Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko‘rsatib o‘tadi:

Innovatsion faoliyatning tuzilishi-ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati.

Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo‘lishi mumkin».

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma’noda ta’lim- tarbiya jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta’lim tizimidagi innovatsiyalami pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo‘ljallanayotgan ta’lim tizimini loyihalash.
3. O‘zgarishlar va yangiliklami rejalashtirish.
4. O‘zgarishlami amalga oshirish.

Demak, pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad-uning yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o‘z ustida ishlash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlami o‘tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganimizda, innovatsion faoliyat - bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan maxsulot yaratish bo‘lib, uning progmatik xususiyati shundaki, u g‘oyalar maydonida ham va alohida bir sub’ektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo‘ladigan holdagina haqiqiy innovatsion faoliyat hisoblanadi. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo‘lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi-loyihaga, loyihani - texnologiyaga aylantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasawurlar akademik ilm mantiqi bo‘yicha to‘qilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo‘llab-quvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Niyozov G‘., Ahmedov Q., Tojiboev Q. Sharq allomalari va ma’rifatparvar adiblaming barkamol avlod tarbiyasiga oid ma’naviy - ahloqiy qarashlari. T.: “O‘zbekiston”, 2010, 3-bet.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori.:T, “Sharq” nashriyot-matbaa konsemining Bosh tahririyati, 1997, 56-bet.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. https://www.xabar.uz/siyosat/
4. http ://library .ziyonet.uz/ru/book/download/79452
5. Zakirova F va boshq. Elektron o‘quv-metodik majmualar va ta’lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo‘llanma, T.: OOMTV, 2010. - 57-bet.
6. Uzluksiz ta’lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari. Ilmiy konferensiya materiallari. Samarqand, 2017.
7. Berkinova Ch. maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishning mazmuni //Мактабгача таълим журнали. - 2021.

## BO‘LAJAK RAHBARLARNING KREATIV MALAKASINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

**Shodiboyeva Mohinur Abdurahmon qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi stajor-o‘qituvchisi
e-mail: mohinurshodiboyeva6@gmail.com
**Abdusalomova Shahnoza Abdurashid qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak rahbarning kreativ kompetentligini rivojlantirish bilan birga maktabgacha ta’lim tashkiloti mutaxassislarning kasbiy yetukligiga oid bir qancha ma'lumotlarga ega bòlish uchun shaxsga xos kreativlik sifatlari, kreativlikning rivojlantirish bosqichlari, kreativ layoqatning bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qismlari, kreativ kompetentlikni rivojlantirish omillari hamda kreativ o‘qitishning metod va usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, Tarbiyachi, Rahbar, Kreativ kompetentlik, Ilmiy-metodik tayyorgarlik, Ta’lim, Individual, G‘oyaviy e'tiqod, Ijodiy fikrlash, Interfaol o‘qitish, Innotvatsion yondashuv, Metodika, Intellektual, Yaratuvchanlik, Ko‘nikmalar, Rag‘batlantiruvchi strategiyalar,O‘quv mashg‘ulotlar.

Abstract: This article discusses the development of the creative competence of future leaders, along with providing various insights into the professional maturity of specialists in preschool education organizations. It covers the individual creative qualities of a person, the stages of developing creativity, the interconnected components of creative abilities, the factors for developing creative competence, and the methods and techniques of creative teaching.

Keywords: Creativity, Educator, Leader, Creative competence, Scientific-methodological training, Education, Individual, Ideological conviction, Creative thinking, Interactive teaching, Innovative approach, Methodology, Intellectual, Creativity, Skills, Motivational strategies, Learning activities.

Davlatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma‘rifiy o‘zgarishlar, ilm-fan, texnika, texnologiyalar sohasidagi taraqqiyot va axborotlar globallashuv jarayonida uzluksiz ta’lim tizimini xususan,maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishga izchil faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish va rahbarning kreativ malakasini oshirish masalalari dolzarb muammolar sifatida o‘rganilib chiqilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki mamlakatimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.Bugungi kunda jahonning ilg‘or mamlakatlar qatori davlatimizda ham ta’lim tizimini isloh qilishga katta e'tibor berilmoqda.Muxtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘li ekanligini aytdi Ta’lim muassasalarining bir turi sifatida maktabgacha ta’lim tashkiloti, bolalarning tarbiyasi,ta’limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo‘nalganligi bilan bog‘liq umumiy xususiyatlariga egadir. Xususan maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati boshqa ta’lim tashkilotlarida kechadigan pedagogik jarayonlardan jiddiy farq qiladi, hamda bugungi kunda ushbu ta’lim turiga e'tibor kuchaytirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘qituvchidagi tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta‘riflaydi: “Tarbiyachi - ustoz, bo‘lish uchun boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o‘zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak”- deb ta'kidlaganlar.Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi,g‘oyaviy e‘tiqodliligi o‘z kasbini sevishi va bu kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqati o‘qituvchi-tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi.Yana shuni aytib o‘tish joizki pedagog-tarbiyachi o‘z obro‘sini ko‘tarishi va bolajonlarning eng sevimli tarbiyachisi bo‘lishini xoxlasa o‘z fanini, o‘z predmetini, uning metodikasini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi zarur.Bolalarni sevgan ularning hayoti bilan qiziqish har biri shaxsni xurmat qilish va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi pedagog bo‘la oladi.

Bo‘lajak rahbarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishda rahbar shaxsga qo‘yiladigan talablardan biri-eng avvalo o‘z ustida izlanishlar olib borishidir.Har bir shaxsda kreativlik o‘zi nima? degan fikr ostida savol paydo bo‘lishi turgan gap.Ushbu savolga ya'ni "Kreativlik" tushinchasi nima?-degan savolga quyidagicha javob berish mumkin.Kreativlik ( ingl. “create”-yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor)-individning yangi g‘oyalar ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamdamustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

– fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olish;
– o‘ziga xoslik (originallik);
– qiziquvchanlik;

– farazlar yaratish qobiliyati;

– xayol qila olish (fantaziya)

Rahbarlikda kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Xo‘sh, biz uchun kreativlik nega kerak?

Kreativ insonlar har bir sohada, har bir bajaradigan ishida o‘zgalardan ajralib turadi. Chunki ular nafaqat o‘z ishlarini katta ishtiyoq va qiziqish bilan, balki hech kimning xayoliga kelmaydigan g‘oyalar orqali amalga oshirishadi. Shunday ekan kraetivlik muvaffaqiyatimiz kaliti desak adashmaymiz. Kreativlikni shakllantirishda tasavvur muhum ro‘l o‘ynaydi. Dunyoga mashur olim Albert Eynshteyn “tasavvur bilimdan muhum”, deganida aynan shuni nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiry fikrlar, yechimlar, kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun avvalo fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berishimiz zarur.

Tarbiyachi pedagog o‘zida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tiborini qaratmog‘i lozim:

1. O‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etishda nostandart usullardan foydalanish.
2. O‘zida tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish.
3. Ijodiy fikirlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga intilish yangilik yaratishga intilish. Bir qolipda fikrlamaslik.
4. Bolalarning har qanday yutuqlarini maqtashi, rag‘batlantirishi.
5. Bolalarga nisbatan ijodiy yondashish va ijodiy muhitni tashkil qilish.
6. Muammoni qo‘yish yoki muammoli vaziyatni yaratish.
7. Kreativ maydonni yarata olish.
8. Kreativ insonlar bilan ko‘proq muloqotda bo‘lish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi bo‘lajak mutaxassislarda kreativ kompetentligini rivojlantiris metodikasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bo‘lajak mutaxassislarning har qanaqa jarayonda o‘zining ijodiy va kreativ qobilyatlarini namoyon qilishida foydali va kerakli jihatlarini ko‘rsatadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to‘laqonli javob bera oladigan, har qanaqa vaziyatga kreativ yondasha oladigan, dunyoni yangicha qarashlar bilan anglaydigan kreativ qobilyatlarini rivojlantirish, ularda kreativ fiklash va tafakkurni shakllantirish eng avvalo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, mutaxassislardan kasbiy faoliyatlarida kreativ kompetentlikni talab etmoqda. Yaponiya maktabgacha ta’lim tizimi o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Yaponlar farzandlari bilan 5 yoshgacha "shoh" bilan gaplashgandek muomala qilishar ekan.5 yoshdan 15 yoshgacha "qul" bilan gaplashgandek, 15 yoshdan keyin esa tengdoshi bilan gaplashgandek muomala qilishar ekan. Yuqoridagi masalaga ham kreativ tomondan qaralganda qanday natijalarga erishish mumkinligini tasavvur qilsak bo‘ladi.

Ma’lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko‘ra) olti yoshgacha bo‘lgan bolalar 40% iste’dod potentsialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo‘lar ekanlar. Shunday ekan, ayni shu davr bolalarda kreativ qobilyatlarini shakllantirishning ayni vaqtidir. Buning uchun albatta maktabgacha ta’lim tashkilotidagi mutaxassislarning o‘zida kreativ sifat va kreativ kompetentlik shakllangan bo‘lishi kerak. Hozirgi zamon ta’lim jarayoniga Oliy ta’lim muassasasida taxsil oluvchi bo‘lajak tarbiyachilarni o‘qitishda “Kreativ Pedagogika asoslari” fanining qo‘shilgani talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur bo‘lguvchi kreativ kompetentligini rivojlantirilishi ta’lim jarayonini samarali va sifatli tashkil etishda xizmat qiluvchi omil bo‘ladi desak adashmagan bo‘lamiz

Xo‘sh, biz uchun kreativlik nega kerak?

Kreativ insonlar har bir sohada, har bir bajaradigan ishida o‘zgalardan ajralib turadi. Chunki ular nafaqat o‘z ishlarini katta ishtiyoq va qiziqish bilan, balki hechkimning xayoliga kelmaydigan g‘oyalar orqali amalga oshirishadi. Shunday ekan kraetivlik muvaffaqiyatimiz kaliti desak adashmaymiz.Kreativlikni shakllantirishda tasavvur muhum ro‘l o‘ynaydi. Dunyoga mashur olim Albert Eynshteyn “tasavvur bilimdan muhum”, deganida aynan shuni nazarda tutgan. Ko‘pincha

noodatiry fikrlar, yechimlar, kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun avvalo fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berishimiz zarur.

O‘qituvchining kreativligi, bu uning qat’iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g‘oyalarni izlab topish layoqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy).
2. Axloqiy (o‘z-o‘zini boshqarish).
3. Motivatsion (maqsadli).
4. Emotsional (his-hayajonli).

Kreativ layoqat quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat bo‘ladi:

1. Kreativ maqsad.
2. Ijodiy intilish.
3. Kreativ (ustanovka) qurish.
4. Kreativ yo‘nalish.
5. Kreativ ifodali akt.
6. Kreativ o‘z-o‘zini boshqarish.
7. Kreativ faollik.
8. Kreativ intilishlar darajasi.

Kreativlik jarayonini tashkil etish va boshqarishning murakkabligi shundaki, bunda ijodiy individuallikning nafaqatongli, balki ong osti tushunchalari paydo bo‘lishidir.Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o‘ta intellektual-evristik jihati sifatida qaraymiz.

Tadqiqotchi G. Ibragimova interfaol o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o‘tgan:

1.. Intellektual (aqliy). Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innotvasion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta’lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.O‘sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to‘laqonli javob bera oladigan, har qanaqa vaziyatga kreativ yondasha oladigan dunyoni yangicha qarashlar bilan anglatadigan kreativ qobilyatlarini rivojlantirish, ularda kreativ fikrlash va tafakkurni shakllantirish eng avvalo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, mutaxassis, tarbiyachilardan kasbiy faoliyatlarida kreativlik kompetentlikni talab etmoqda. Har tomonlama rivojlangan, jismonan baquvvat, barkamol shaxsni voyaga yetkazishda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari hamda mutaxassislarini kreativ rivojlantirishda hamda eng asosiylaridan yana biri oliy ta’lim muassasasi pedagoglarning zimmasidadir.Darslarda tarbiyachi “kreativlik yo‘l xaritasi” ga ko‘raquyidagi 4 ta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi :

1. Ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
2. Talaba (o‘quvchi ) bolalarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga;
3. Rag‘batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
4. Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning echimini topishga kreativ yondashish;

Kreativlik hozirgi kunda judayam, ayniqsa O‘zbeksitonda tanqis, kam uchraydigan narsalardan biri hisoblanadi. Bunga sabab ko‘pchilik pedagog o‘qituvchilarni o‘z ustida ko‘p ishlamasligida deb aytsak bo‘ladi.Kreativlik uchun qobilyat tug‘ma bo‘lishi kerakmi degan savol

tug‘iladi. Qaysidir ma`noda albatta kerak bo‘ladi. Lekin xammasi mehnatga, o‘z ustida ishlashga boribtaqaladi. Kreativ-pedagog har tomonlama rivojlangan, har bir darsini qiziqarli o‘taoladigan,yangi metodlar va tehnikalardan xabardor va barcha o‘quvchilari uchun sevimli bo‘lgan mahoratli ustoz. Uning darslari g‘aroyib g‘oyalarga boy bòlishi zarur.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Novikova G.P. Zamonaviy maktabgacha ta’limni boshqarish./qo‘llanma/.-M.:Ventana-Graf,2007.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birg quramiz.-T:"O‘zbekiston",2017.

3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida qo‘yiladigan davlat talablari.T.,2018 y.

4. Л.В.Куцакова. "Конструктирование и ручной труд в детском саду".М.:"Просвещение"..1990

5. Babayeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasinining asosiy mezonlari//Pedagogika ta’lim j. – T.:2001.2-son. 65-66-b.

6. Крысько В.Г. Секреты психологической войны (целый, задачи, методы,формы, опыт). -Минск, 1999.

7. Babanskiy Yu.k., Slastenin V.A., Sorokin N.A., Malkovskaya T.N., Belozersev ye.P., Polyakov V.A., Grishin D.M. Pedagogika / Pod.red.U.K.Babanskogo. -M.: "Prosvesheniye",1991.

8. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturiga -T., 2018 y

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING MAZMUNI

**M.A.Rayimqulova**
Guliston davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi, stajyor-o‘qituvchisi
e-mail:rayimqulovamaftuna49@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha tayyorlov yoshidagai bolalarning bilish jarayonida tanqidiy fikrlash texnologiyasini qo‘llashning dolzarbligi, tanqidiy fikrlash texnologiyasi afzalliklari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, kognitiv jarayon, fikrlash, komunikativlik, tolerantlik.

Abstract. This article talks about the importance of using critical thinking technology in the cognitive process of children of preschool age, the advantages of critical thinking technology.

Key words: critical thinking, cognitive process, thinking, communica-tiveness, tolerance.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida “Maktabgacha ta’lim tashkilotigacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu tashkilotlarda bolalarning har tomonlama intellectual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-shaoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotigacha ta’lim bilan qamab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” yangi taraqqiyot strategiyasida ham “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish bobida “Maktabgacha ta’lim tashkilotigacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash” vazifalari qo‘yilgan.

Bu esa maktabgacha ta’lim tashkilotigacha ta’lim yoshidagi bolalarni kognitiv faoliyatida tanqidiy fikrlash texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, duch kelayotgan muammoli masalalarni takomillashtirish imkoniyatlarini

kengaytiradi.Har bir tarbiyachi bolalar jamoasida ijodkorlik va ruhiy ozodlik muhiti hukmron bo‘lishini xohlaydi. Shuning uchun tarbiyachi pedagog bolalarda jonli tasavvur, fantaziya namoyon bo‘lishi, taqqoslash va bog‘lash, sezgi va onglilikga tayanishi uchun o‘quv jarayonini qanday tashkil qilish haqida doimo o‘ylash kerak.

Bugungi zamonaviy yosh avlodni kognitiv faoliyat bilan shug‘ullanishga undash, axborot-kommunikatsiya sohasida maqsad sari yo‘l topish nihoyatda qiyin. Maktabgacha ta’lim tashkilotigacha yoshdagi bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’limiga qadam qo‘yganda ko‘pincha barcha maktabgacha ta’lim tashkiloti fanlari bo‘yicha o‘quv materialini idrok etish bosqichidayoq jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buning sababi tafakkurning va birinchi navbatda, tanqidiy fikrlashning yetarlicha yuqori darajada rivojlanmaganligidir, Va bu zamonaviy dunyoda yangi asrga kognitiv madaniyatning yangi ko‘rinishi bilan qadam qo‘yayotgan odam uchun juda muhimdir,

Aqlning tanqidiyligi - bu insonning o‘zini va boshqa odamlarning fikrlarini xolisona baholash qobiliyati, barcha ilgari surilgan qoidalar va xulosalarni diqqat bilan va har tomonlama tekshirib ko‘rish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash, insonga shaxsiy va kasbiy hayotda o‘z ustuvorliklarini aniqlashga yordam beradi, axborot, tahlil qilish va mustaqil xulosalar chiqarish, o‘z qarorlarining oqibatlarini bashorat qilish va ular uchun javobgar bo‘lish qobiliyatini rivojlantiradi hamda birgalikdagi faoliyatda muloqot madaniyatini rivojlantirish imkonini beradi, tanlangan tanlov uchun individual javobgarlikni o‘z ichiga oladi, individual ish madaniyati darajasini oshiradi.

Milliy maktabgacha ta’lim tashkilotigacha ta’lim tizimi uchun bolalarni tanqidiy fikrlashini modernizatsiya qilishdan maqsad zamonaviy hayotning hozirgi Yangi O‘zbeklistonimizning Uchinchi Rennesans rivojiga javobberadigan yangi sifatga erishishdir.

Tanqidiy fikrlash fikrlash jarayonining eng muhim funksiyalari hisoblangan xulosalarimizga olib kelgan mulohazalarni yoki qaror qabul qilishda biz hisobga olgan omillarni, o‘zini baholashni o‘z ichiga oladi. M.V. Klarinaning so‘zlariga ko‘ra. tanqidiy fikrlash – bu oqilona, aks ettiruvchi fikrlash bo‘lib nimaga ishonish yoki qanday harakat qilish kerakligini hal qilishga qaratilgan. Shu tarzda tushunilgan holda, tanqidiy fikrlash qobiliyat (ko‘nikma) va moyilliklarni (munosabatlarni) o‘z ichiga oladi. [Klarina M.V. 1994].

Tanqidiy fikrlash insonning o‘z aqliy faoliyati, ular bilan ishlash qobiliyatini aks ettirish qobiliyatiningmavjudligini nazarda tutadi. tushunchalar, mulohazalar, xulosalar, savollar, analitik faoliyat qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, boshqa odamlarning o‘xshash imkoniyatlarini baholash imkonini beradi. Umuman olganda, tanqidiy fikrlash amaliy yo‘nalish bilan tavsiflanadi. Shu sababli, uni amaliy mantiqning bir shakli sifatida talqin qilish mumkin.

Tanqidiy fikrlash mexanizmi aqliy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Fikrlash va argumentatsiya jarayonini belgilovchi operatsiyalar: maqsadni belgilash, muammoni aniqlash, gipotezalarni ilgari surish, dalillarni keltirish, ularni asoslash, oqibatlarni bashorat qilish, muqobil nuqtai nazarlarni qabul qilish yoki qabul qilmaslik shular jumlasidandir. Bu murakkab va noaniq vaziyatlar va muammolarni sintez qilish, tahlil qilish va baholash uchun asosiy intellektual ko‘nikmalarni (bilim va tushunish) qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bular muammoni aniqlash, vaziyatni aniqlashtirish, dalillarni tahlil qilish, masalani har tomonlama o‘rganish, yechimlarni baholash mezonlarini va axborot manbalarining ishonchliligini ishlab chiqish, umumlashtirishdan qochish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu texnologiyaning maqsadi bolalarning nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilotida, balki kundalik hayotda ham zarurbo‘lgan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish (aniq qaror qabul qilish, axborot bilan ishlash, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish va h.k.

Tanqidiy fikrlash, refleksivlik, muloqot, ijodkorlik, harakatchanlik, mustaqillik, bag‘rikenglik, o‘z tanlovi va faoliyati natijalari uchun javobgarlik kabi asosiy shaxsiy fazilatlarni rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali biz quyidagi natijalarga erishamiz:

*- maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarlarini sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga o‘rgatish;*

*- yangi g‘oyalar va bilimlarni mavjud kontekstda ko‘rib chiqish;*

*- keraksiz yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarni rad etish;*

*- turli ma'lumotlarning bir-biri bilan qanday bog‘liqligini tushunish;*

*- fikrlashdagi xatolarni ajratibko‘rsatish;*

*- o‘ziga xos qiymat yo‘nalishlari to‘g‘risida xulosa chiqara olish;*

*- manfaatlar, mafkuraviy munosabatlar matnda yoki so‘zlayotgan shaxsda aks etadi;*

*- kategoriyali bayonotlardan qochish;*

*- mulohaza yuritishda halol bo‘lish;*

*- noto‘g‘ri xulosalarga olib keladigan noto‘g‘ri stereotiplarni aniqlash;*

*- oldindan tuzilgan munosabat, fikr va mulohazalarni aniqlash;*

*- har doim tekshirish mumkin bo‘lgan faktni ajrata olishtaxminlar va shaxsiy fikrlar;*

*- og‘zaki yoki mantiqiy nomuvofiqligini savol ko‘rinishida bayon etish;*

*- matn yoki nutqdagi muhim va ahamiyatsizni ajrata olish.*

*- O‘qish madaniyatini shakllantirish, shu jumladan ma'lumot manbalaridan foydalanish, turli xilmanbalardan foydalanish;*

*- o‘qish strategiyalari, o‘qilgan narsani adekvat tushunish, ma'lumotni muhimligi bo‘yicha saralash, ahamiyatsiz ma'lumotlarni "yo‘q qilish", yangi bilimlarni tanqidiy baholash, xulosalar va umumlashtirish;*

Shaxsiy qadriyat g‘oyasi va uni rivojlantirish, o‘zini o‘zi bilish va o‘zini namoyon qilish uchun qulay muhit yaratish juda muhimdir. Shuning uchun, bir tomondan, ta'lim faoliyati davomida bilish jarayoni uningbarcha bosqichlarida modellashtiriladi va tahlil qilinadi. Bu sizga ushbu texnologiyadan shaxsning (ham tarbiyalanuvchi, ham tarbiyachi) o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash vositasi sifatida foydalanish imkonini beradi. Boshqa tomondan, barcha ta'lim faoliyati subyekt-subyekt, sheriklik munosabatlari asosida quriladi.

Texnologiya bolalarlarda ijtimoiy mas’uliyatni singdirishga qaratilgan. Bunga erishish uchun butun ta'lim jarayoni aniq hayotiy vazifalar bilan chambarchas bog‘liq, bolalar real hayotda duch keladiganmuammolarni aniqlash va hal qilish. voqelikka ijtimoiy yo‘naltirilgan munosabat, jamoada ishlash ko‘nikmalari, shaxsning tamoyillari va harakatlarining o‘zaro bog‘liqligi fuqarolik qarashlarini shakllantirishning zarur shartidir.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947- son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil, 6-son, 70-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.

3. Роберт И.В. Теория и методика информатизации образования (психолого-педагогический и технологический аспекты) [Электронный ресурс] / И.В. Роберт. – Эл. изд. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2014. –398 с.: ил. – Режим доступа: http://znanium.com/catalog/product/538896 [Дата обращения 02 октября 2018

4. Использование технологии развития критического мышления на уроках русского языка и литературы. Манина Наталья Валериевна. Методическая пособия. Вохма.2021. 5 стр.

5. Клустер Д. Что такое критическое мышление [Текст] / Д. Клустер. // Критическое мышление и новые виды грамотности. – М.: ЦГЛ, 2005. – 80 с.

# TANQIDIY FIKRLASH MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

**Maftuna Rayimqulova**
Guliston davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi, stajyor-o‘qituvchisi
e-mail: rayimqulovamaftuna49@gmail.com
**Sarvinoz Jo‘rabekova**
Guliston davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha tayyorlov yoshidagai bolalarning bilish jarayonida tanqidiy fikrlash texnologiyasini qo‘llashning dolzarbligi, tanqidiy fikrlash texnologiyasi afzalliklari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, kognitiv jarayon, fikrlash, komunikativlik, tolerantlik.

Abstract. This article talks about the importance of using critical thinking technology in the cognitive process of children of preschool age, the advantages of critical thinking technology.

Key words: critical thinking, cognitive process, thinking, communicativeness, tolerance.

**Tanqidiy fikrlash** bolaning axborot kompetentsiyasini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishish imkonini beruvchi innovatsion usullardan biri hisoblanadi. Bu axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradigan, bolaning shaxsiy o‘sishi, uning individualligini rivojlantirish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini beradigan yaxlit tizimdir. Tanqidiy fikrlash yangi, allaqachon tushunilgan g‘oyalar sinovdan o‘tkazilganda, baholanganda, ishlab chiqilganda va bajarilgan ishlar asosida xulosalar chiqarilganda yuzaga keladi.

Tanqidiy fikrlash - bu fikrlashni qanday o‘rgatish kerakligi haqidagi savolga javob beradigan maxsus o‘qitish texnikasi. Bolaga tanqidiy fikrlash kerak, bu unga odamlar orasida yashashga yordam beradi.

**Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning maqsadi**: Bolalarni maktabga tayyorlang, bolalarning o‘zini o‘zi qadrlashini oshiring, ularga katta ma'lumotlar oqimidan kerakli narsani tanlashga o‘rgating, asosli xulosalar chiqaring, tanqidiy fikrlashga o‘rgating.

Tarbiyachining tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun texnologiya texnikasi va usullaridan foydalanish bolalarga mustaqil ravishda bilim olishga, o‘z fikrlarini rivojlantirishga yordam beradi, o‘z bilimlarini standart va nostandart vaziyatlarda qo‘llashga imkon beradi, yangi savollar berish qobiliyatini rivojlantiradi, turli argumentlar, mustaqillik, mas'uliyat va hozirgi vaziyatga, monolog va dialogik nutqqa moslashish qobiliyatini rivojlantiradi.

**Tanqidiy fikrlash texnologiyasi ta'lim natijalariga erishishga qaratilgan:**

• bilimlarning turli sohalarida tobora ortib borayotgan va doimiy yangilanib turadigan axborot oqimi bilan ishlash qobiliyati;

• axborotni birlashtirishning turli usullaridan foydalanish, savollar bera olish, o‘z gipotezasini shakllantirish, muammolarni hal qilish;

• turli tajribalar, g‘oyalar va tasavvurlarni tushunish asosida o‘z fikringizni ishlab chiqish;

• boshqalarga nisbatan o‘z fikrlarini (og‘zaki va yozma) aniq, ishonchli va to‘g‘ri ifodalash;

• o‘z nuqtai nazarini yuzasidan bahslashadi va boshqalarning nuqtai nazarini hisobga olishni boshlaydi;

• mustaqil ravishda o‘z ishlari bilan shug‘ullanish qobiliyati (akademik harakatchanlik);

• mas'uliyatni o‘z zimmasiga olish;

• birgalikda qarorlar qabul qilishda ishtirok etish;

• boshqa odamlar bilan konstruktiv munosabatlar o‘rnatish;

• hamkorlik qilish va guruhda ishlash qobiliyati va boshqalar.

**Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining tuzilishi uch bosqichdan iborat:**

1-bosqich - qiyinchilik (yangi bilimlarni olishga qiziqish uyg‘otish);

Ushbu bosqich sizga quyidagilarga imkon beradi:

- bolaning berilgan mavzu yoki muammo bo‘yicha bilimlarini yangilash va umumlashtirish;
- o‘rganilayotgan mavzuga doimiy qiziqish uyg‘otish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni guruhda va uyda faol bo‘lishga undash.

Esda saqlash bosqichida o‘rganilayotgan narsa haqidagi mavjud bilim va g‘oyalar xotiradan "esga olinadi", yangilanadi, shaxsiy qiziqish shakllanadi va muayyan mavzuni ko‘rib chiqish maqsadlari aniqlanadi.

2-bosqich - mazmunni tushunish (yangi ma'lumotlarni olish);

Ushbu bosqich maktabgacha yoshdagi bolaga quyidagilarga imkon beradi:

-yangi ma'lumotlarni olish;

- tushunish;
- mavjud bilimlar bilan bog‘lanish.

"Tushunish" bosqichining asosiy vazifasi "chaqiriq" bosqichida yaratilgan faollik va qiziqishni saqlab qolishdir. Ayni paytda bolalar ongli ravishda yangi bilimlarni allaqachon ma'lum bo‘lgan narsalar bilan bog‘lashadi.

Tushunish (yoki ma'noni anglash) bosqichida, qoida tariqasida, talaba yangi ma'lumotlar bilan aloqa qiladi. U tizimlashtirilmoqda. Bola o‘rganilayotgan ob'ektning tabiati haqida o‘ylash imkoniyatiga ega bo‘ladi, eski va yangi ma'lumotlarni o‘zaro bog‘lashda savollarni shakllantirishni o‘rganadi. Sizning shaxsiy pozitsiyangiz shakllantirilmoqda. Ushbu bosqichda bir qator texnikalardan foydalangan holda siz materialni tushunish jarayonini mustaqil ravishda kuzatishingiz juda muhimdir.

3-bosqich - aks ettirish (yangi bilimlarning tug‘ilishi);

Ushbu bosqichda bola muammoga shaxsiy munosabatni shakllantiradi. Bu erda yangi olingan bilimlarni hisobga olgan holda o‘z g‘oyalarini faol qayta ko‘rib chiqish amalga oshiriladi.

Bu yerda asosiylari:

- olingan axborotni yaxlit tushunish, umumlashtirish;
- har bir maktabgacha yoshdagi bolaning o‘rganilayotgan materialga shaxsiy munosabatini shakllantirish.

Yangi tushunchalarni kiritish uchun o‘zlarining birlamchi g‘oyalarini faol ravishda qayta qurishlari bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, yangi bilimlarni "o‘zlashtirish" va uning asosida o‘rganilayotgan narsa haqida o‘z asosli g‘oyasini shakllantirish sodir bo‘ladi. O‘z aqliy operatsiyalarini tahlil qilish bu bosqichning asosidir.

3-4 yoshli bolaning aqliy rivojlanishi allaqachon unga fikr harakati uchun xabar berishga harakat qilish uchun yetarlicha boy. Bolaning so‘z boyligi va bilim bazasi allaqachon unga o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifoda etishga imkon beradi va "nima uchun" davrining balandligi savol berishga yordam beradi. Ammo o‘quv jarayonining samaradorligi uchun to‘g‘ri texnologik usullarni tanlash, ularni muvaffaqiyatli birlashtirish va ularni allaqachon tanish bo‘lgan an'anaviy o‘qitish shakllari doirasiga moslashtirish muhimdir.

**Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari:**

• To‘g‘ri va yolg‘on bayonotlar;
• Klaster;
• Bashoratlar daraxti;
• Qalin va ingichka savollar;
• To‘xtashlar bilan o‘qish;
• Sinkveyn;
• Kub;
• Aralash hodisalar;
• Sxema bo‘yicha o‘rganish;
• Sir;
• Iqtibos;
• G‘oyalar savati va boshqalar;

• Ochiq savollar yordamida bashorat qilish;
• Bilaman, bilmoqchiman, bilib oldim;

O‘quv jarayonining samaradorligi uchun to‘g‘ri texnologik usullarni tanlash, ularni muvaffaqiyatli birlashtirish va ularni allaqachon tanish bo‘lgan an'anaviy o‘qitish shakllari doirasiga moslashtirish qobiliyati muhimdir.

Tanqidiy fikrlash faol, ijodiy usullar sari qadamdir . Agar biz bolani g‘ayrioddiy shaxs qilib tarbiyalamoqchi bo‘lsak, uni shunchaki ma'lumotlar bilan to‘ldirishimiz emas, balki uni tanqidiy fikrlashga undashimiz, ya'ni olingan ma'lumotlar asosida o‘z xulosalarini chiqarishimiz, mulohaza yuritishimiz va to‘g‘ri savollar berishimiz kerak.

Olimlarning ta’kidlashicha, axborotning tez o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lgan tez o‘zgarib borayotgan zamonamizda tafakkur tarkibida inson bilimlari hajmi yuqori sur’atlarda ortib bormoqda. Fikrlash jarayoni tayyor yechimga ega bo‘lmagan vazifa yoki muammo yuzaga kelganda boshlanadi. Agar biror narsani tushunish, nimanidir tushunish istagi bo‘lsa, bu yerda biz fikrlash haqida ham gapiramiz. Ammo zamonaviy bolalar mustaqil fikrlashni va bilim olishni o‘rganishga intilmay, gadjetlarga ustunlik berishadi. Mazkur jarayonda tarbiyachi-[pedagoglar oldida bir qancha savollat tug‘ila boshlaydi:

Zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish uchun motivatsiyani qanday oshirish mumkin?

Bolalarni ta'lim jarayoniga qanday jalb qilish kerak?

Bilimlarni qanday o‘rgatish kerak?

Bu muammolarni faqat an’anaviy tizimga tayanib hal qilib bo‘lmasligi aniq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zlarini bilim olishga undash uchun innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanish kerak. Bundan tashqari, ongning boshqa fazilatlari kabi , fikrlash ham rivojlanishi mumkin.

Tafakkurni rivojlantirish fikrlash qobiliyatini rivojlantirish demakdir .

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy faoliyatini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan innovatsion usullardan biri bu tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.

Ko‘pincha tanqidiy fikrlash deganda biror narsaning ishonchliligi, to‘g‘riligi yoki qiymatini baholash, sabablar va muqobil nuqtai nazarlarni izlash va topish, vaziyatni bir butun sifatida qabul qilish va faktlar va dalillarga asoslangan holda o‘z pozitsiyasini o‘zgartirish qobiliyati tushuniladi. U mantiqiy yoki analitik fikrlash deb ham ataladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi avvalo bolaning qiziqishini uyg‘otish (undagi izlanish va ijodiy faollikni uyg‘otish), so‘ngra unga materialni tushunish uchun shart-sharoit yaratish va nihoyat, olingan bilimlarni umumlashtirishga ko‘maklashishga qaratilgan turli usullar majmuidir.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Петрановская, Л.В. Мы готовим детей к позавчерашнему миру [Электронный ресурс] / Л.В. Петрановская. – Интернет-издание: Православие и мир. – Режим доступа: https://www.pravmir.ru/lyudmila-petranovskaya-myi-gotovim-detey-k pozavcherashnemu-miru/.

2. Роберт, И.В. Теория и методика информатизации образования (психолого-педагогический и технологический аспекты) [Электронный ресурс] / И.В. Роберт. – Эл. изд. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2014. –398 с.: ил. – Режим доступа: http://znanium.com/catalog/product/538896 [Дата обращения 02 октября 2018

3. Использование технологии развития критического мышления на уроках русского языка и литературы. Манина Наталья Валериевна. Методическая пособия. Вохма.2021. 5 стр.

4. Клустер, Д. Что такое критическое мышление [Текст] / Д. Клустер. // Критическое мышление и новые виды грамотности. – М.: ЦГЛ, 2005. – 80 с.

# ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

**Д.Б.Худойбердиева**
стажер-преподователь ГулГПИ кафедры
“Методика дошкольного и начального образования”
e-mail: hudojberdievgijosiddin@gmail.com
**К.Э.Тахирова**
студентка ГулГПИ по направлению
дошкольное образование
e-mail: karinatakhirova777@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada keltirilgan manbalar iqtidorli bolalar bilan ishlash va uning tarkibiy qismlarini o‘rganish orqali bolalarda iqtidorning namoyon bo‘lishi uchun asos yaratadi va asosiy yo‘nalishlarni takomillashtirishning ilmiy qarashlari, yondashuvlari va usullarini shakllantirish haqida gapiradi.

Kalit so‘zlar: iqtidor, texnologiya, iste’dod, demokratiya, strategiya, barqarorlik, davlat, nostandart, kreativ, individual.

Annotation: the resources presented in this article provide the basis for the demonstration of giftedness in children by working with gifted children and studying its components, and talk about the formation of scientific views, approaches, methods for improving the main directions.

Key words: talent, technology, democracy, strategy, sustainable, state, giftedness, nostandard, creative, individual.

Необходимость быстрого развития инновационных идей и технологий в мировом масштабе является причиной обращения особого внимания на такие вопросы, как совершенствование системы работы с одаренными детьми, способными к нестандартному и творческому мышлению, развитию детского таланта, организации целеустремленности. ориентированная социально-педагогическая деятельность. В развитых странах приоритет отдается организации углубленного и профильного образования, развитию педагогических механизмов работы с одаренными детьми.

Педагогические особенности работы с одаренными детьми в мире, совершенствование образовательных программ и дидактического сопровождения, развитие детского таланта в процессе внеклассной деятельности, психические чувства, проявляющиеся как таланты и способности, интеллектуальный потенциал на основе индивидуального подхода к детям. ведется. Эти исследования служат определению возможностей и интересов детей нижних ступеней системы непрерывного образования и организации на этой основе содержания образования и признаются фактором радикального изменения системы образования.

Реформы, направленные на совершенствование нормативно-правовой базы поддержки одаренных детей в Узбекистане, внедрение инновационной системы обучения и воспитания одаренных детей, налаживание сотрудничества в этой связи между семьями, образовательными учреждениями и молодежными организациями, разработка диагностического аппарата по отбору одаренных детей одаренных детей на основе передового зарубежного опыта, расширение возможностей внедрения социально-педагогических технологий и методов работы с одаренными детьми. В концепции развития системы народного образования до 2030 года определены такие задачи, как «создание системы осуществления конкретной целенаправленной работы с одаренными детьми и талантливой молодежью, организация «Президентских школ».

Этим объясняется необходимость уточнения педагогико-психологических особенностей работы с одаренными детьми и критериев отбора и развития одаренных детей, совершенствования социально-педагогической структуры и организационно-методической системы работы с одаренными детьми.№ ПФ-4947 Президента Республики

Узбекистан от 7 февраля 2017 года «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», о Государственной программе «Молодежь – наше будущее» от 27 июня 2018 года Постановление № ПФ-5466 от 29 апреля 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановление № ПФ-5712 от 14 августа 2018 года – реализация указанных задач в Решении PQ-3907 «О мерах по поднятию нравственного и физического совершенства системы образования на новый качественный уровень» и других нормативно-правовых документах это исследование работает в определенной степени.

Талант – это качество психики человека, которое систематически развивается на протяжении всей жизни и определяется тем, что человек обладает способностью достигать более высоких результатов в одной или нескольких областях по сравнению с другими людьми.

В психологических словарях понятие «талант» определяется следующим образом:

1) талант – уникальное сочетание способностей, обеспечивающее успешное осуществление данной деятельности;

2) талант - это общие способности, определяющие масштаб возможностей человека, уровень активности и уникальности;

3) талант - целостная индивидуальная характеристика умственного потенциала, способности к обучению и познавательных способностей;

4) талант – это наделённые природой способности, их природная основа, своеобразие и степени проявления;

5) талант – это талант, наличие внутренних возможностей и условий для достижения высоких результатов в деятельности.

На основании этих описаний можно отметить, что талант – это общие интеллектуальные и познавательные возможности человека, одаренного от природы, способность добиваться успехов в деятельности (например, учебной, творческой, профессиональной, научной) верхом на особых способностях.

Важный аспект работы с одаренными детьми связан с их социализацией. Если под социализацией понимается процесс формирования личности под влиянием культуры и общения, общения друг с другом, то понятие социализация – это процесс овладения примерным поведением, психологическими механизмами, социальными критериями и ценностями, необходимыми для успешного развития общества.

Одаренные дети – это дети, сочетающие в себе общие и специальные способности. Их отличают от других детей следующие признаки:

- любопытство;
- постоянно ищем ответы на различные вопросы;
- быстрое развитие речи, мышления, памяти;
- увлекается музыкой, рисованием, чтением, математикой с раннего возраста;
- высокий уровень познавательной деятельности и учебной деятельности;
- целеустремленность и оригинальность в поиске решений проблем;
- продуктивность мышления.

С педагогико-психологической точки зрения общие и специальные способности зависят от важных аспектов с учетом возрастных периодов.

Талант можно рассматривать и развивать как общую и универсальную способность в раннем - дошкольном и младшем школьном возрасте. Со временем эта «общая способность» приобретает свои особенности и определяет определенное направление. При этом необходимо обращать внимание на то, в какой степени этот талант проявляется у ребенка. Явно проявленная способность, т. е. признанная психологами, педагогами и родителями, называется «скрытой» способностью, а способность, не замечаемая окружающими, называется «потенциальной» способностью.

Талант это:

1. Именно качественная совместимость способностей обеспечивает успешное выполнение деятельности. Взаимное перемещение способностей с определенной структурой происходит за счет развития других способностей вместо одних способностей.

2. Общие способности или общие компоненты способностей, которые показывают широту личностных возможностей, являются уровнем и своеобразием деятельности человека.

3. Умственный потенциал или интеллект – это комплексная индивидуальная характеристика познавательных способностей и склонности к обучению.

4. Совокупность признаков природных способностей, уровень их проявления и уникальность способностей.

5. Талант – это наличие внутренних возможностей для достижения успеха в определенной деятельности.

Следовательно, талант–это качественно своеобразная совокупность способностей, которая выражает зрелость творческих способностей человека или определенной группы людей. Талант различается, с одной стороны, уровнем умственного развития, психических и духовных качеств, а с другой - овладением различными областями знаний в зависимости от направленности этих способностей.

Талант зависит от категорий «возможность» и «реальность». Человеческий талант – это только способность приобретать знания и навыки. Приобретение этих знаний и навыков зависит от многих условий.

2. Азизходжаева. N.N. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учебное пособие. -Т.: Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана. 2006, - с. 67-68
3. Шукур Пулатов. Инновационный подход к научно – методическому управлению образовательным учреждением подход. Учебное пособие. -Т.: "Молодая сила", 2022. - 196 стр.
4. Туракулов Х.А. Информационные системы и технологии в педагогических исследованиях. - Т.: Наука, 2007.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ELEMENTAR MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON VOSITALARDAN FOYDALANISH

**Yaxyoyeva Kifoyat Abduqodir qizi**
GDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistranti
e-mail: yaxyoyevakifoyat@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning elementar matematik tushunchalarini shakllanishida elektron vositalardan foydalanganda yuqori samaradorlikka erishganligi, elektron vositalarning qo‘llanilishiga oid mamlakatimizda va horijda olib borilgan tajribalar yoritilgan hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tushunchalarini rivojlantirishda bir nechta interfaol usullarda foydalanish tavfsiya etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Interaktiv o‘yinlar, elektron qurilmalar, kognitiv rivojlanish, eksperimental tajriba, Maktabgacha ta’lim, interaktiv platforma.

**Abtacrat:** In this article, high efficiency was achieved when using electronic tools in the in our country and abroad regarding the use of electronic tools were highlighted, and it was recommended to use severel interactive methods in the development of mathematical concepts of preschool children.

**Keywords:** Interactive games, electronic devices, cognitive development, experimental experence, Preschool education, interactive platform.

Maktabgacha yoshdagi davr bolalarning rivojlanishi uchun eng muhim davr hisoblanadi. Bolalarda kelajak uchun tamal toshni maktabgacha yoshdan qo‘yish kerak. Maktabgacha yoshdagi davr bolalarning kognitiv rivojlanishining eng muhim davridan biridir. Bu davrda bolalarga taqdim etiladigan ta’lim ularning kelajakdagi o‘quv muvaffaqiyatlari va umumuiy hayotiy ko‘nikmalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Elektron vositalar bolalarga matematik tushunchalarni o‘rganishga yordam beradigan samarali usul sifatida alohida ajralib turadi. Ilk yoshdan bolalarni mashg‘ulot jarayoniga qiziqtirish juda qiyin bo‘ladi. bolalarni elementar matematik tushunchalarini shakllantirish hamda ijodiy qobilyatlarini ro‘yobga chiqarishda, va jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatishda tarbiyachilar elektron vositalaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Ta’lim dasturlari, raqamli manipulatorlar va interaktiv platformalar kabi elektron vositalardan foydalanish ushbu ta’lim jarayonini sezilarli o‘zgartirishi mumkin.

Maktabgacha Yoshdagi bolalar uchun elementar matematik tushunchalarni shakllantirishda elektron vositalardan foydalanish juda foydali bo‘lishi mumkin. Ushbu vositalar O‘rganish tajribasini oshirishirishi, yosh bolajonlarni jalb qilishi va matematik tushunchalarni o‘rganishning interfaol usullarini taqdim etishi mumkin. Ushbu jarayonda elektron vositalardan foydalanish bo‘yicha ba’zi asosiy fikrlar:

Interaktiv ta’lim dasturlari. Ishtirok etish: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan o‘quv ilovalari ko‘pincha matematikani o‘rganishni qiziqarli qiladigan o‘yinlar,

boshqotirmalar va interaktiv vazifalarni o‘z ichiga oladi. Yoritiladigan tushunchalari Sanash, qo‘shish, ayirish va boshqa shu kabi asosiy tushunchalarni tasavvur qilishda yordam beradi.

Raqamli Malipulatorlar

Vizual vakillik: Virtual bloklar yoki hisoblagichlar kabi vositalar bolalarga matematik tushunchalarni hosil qilishda yordam beradi va mavhum g‘oyalarni yanada aniqroq qiladi

Amaliy tajriba: Raqamli manipulatorlar ushbu rivojlanish bosqichida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqot va tajriba o‘tkazish imkonini beradi.

O‘quv videolar va animatsiyalar. Hikoyalar: Hikoyalarni o‘z ichigan olgan videolar matematik tushunchalarni o‘zaro bog‘lash mumkin bo‘lgan tarzda tanishtirishi mumkin, bu esa bolalarga ularning ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Ko‘rgazmalilik: Animatsion namoyishlar ko‘rgazmali qurollar orqali o‘rganishni mustahkamlab, muammolarni bosqichma - bosqich yechish yo‘llarini ko‘rsatishi mumkin.

Interaktiv doskalar.

Guruh faoliyati: Interfaol doskalar bolalar birgalikda muammolarni hal qilishda ishtirok etishlari mumkin bo‘lgan guruh faoliyatini osonlashtirishi mumkin.

Dinamik tarkib: Tarbiyachilar ushbu doskalardan bolalarning javoblari va ehtiyojlariga moslasha oladigan dinamik tarkibni ko‘rsatish uchun foydalanishlari mumkin.

Onlayn o‘yimlar va platformalar. Motivatsiya: Matematik o‘yinlarni taklif qiluvchi onlayn platformalar bolalarni past bosimli muhitda o‘z mahoratini mashq qilishga undashi mumkin.

Taraqqiyotni kuzatish: Ko‘pgina platformalar fikr-mulohazalarni taqdim etadi va taraqqiyotni kuzatib boradi, bu ham tarbiyachiularga ,ham ota-onalarga rivojlanishni kuzatish imkonini beradi.

Roboto texnika va kodlash

Muammoni yechish ko‘nikmalari: Oddiy robototexnika yoki kodlash faoliyati bilan tanishtirish matematik tushunchalarni integratsiyalashgan holda mantiqiy fikrlash va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Amaliy o‘rganish: Bolalar robotlarni muayyan yo‘llarni bosib o‘tishga yoki hisoblash yoki o‘lchashni o‘z ichiga olgan vazifalarni bajarishga dasturlashda o‘yin orqali o‘rganadilar.

Ota-onalar ishtiroki

Uyda o‘rganish Elektron vositalar uyda o‘rganishni osonlashtirib, ota-onalarga ilova yoki o‘yinlar yordamida farzandlari bilan matematik mashg‘ulotlarni o‘tkazish imkoniyatlarini beradi.

Ota-onalar uchun manbalar: Ko‘pgina ta’lim platformalari ota-onalarga farzandlarining o‘qishini qo‘llab-quvvatlash uchun manbalar va maslahatlar beradi.

Shaxsiylashtirilgan ta’lim

Moslashuvchanlik: Ko‘pgina elektron vositalar bolalarning individual o‘rganish tezligi va uslubiga moslasha oladi va ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan tajribani taqdim etadi.

Darhol fikr mulohaza: Bolalar o‘z faoliyati haqida bir zumda fikr-mulohaza oladilar, bu ularga xatolarni tushunishga va ulardan o‘rganishga yordam beradi.

Birgalikda o‘rganish

Ijtimoiy hamkorlik: Elektron vositalar tengdoshlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlanishi, bolalarni matematika muammolari ustida birgalikda ishlashga va fikr almashishga undashi mumkin.

Guruh loyihalari: Guruh loyihalarini amalga oshirish imkonini beruvchi platformalar bolalarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda bir-biridan o‘rganishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’limda elektron vositalardan foydalanish haqida bir qancha tadqiqotlar mavjud. Masalan, M.A.Karimova (2020) o‘z ishida elektron o‘yinlar va interaktiv dasturlarning bolalarning matematik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Shuningdek, S.R.Abdurahmanova (2021) maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli texnalogiyalar yordamida matematik tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonini o‘rganadi. Horijda ham Maktabgacha ta’limda elektron qurilmalaridan foydalanish bo‘yicha turli tadqiqotlar mavjud. Misol uchun, Yilmaz (2021) o‘z tadqiqotlarida interfaol o‘yinlarning bolalarning matematik fikrlash qobilyatlarini

rivojlantirishga ta’sirini o‘rganib chiqdi. Bundan tashqari Demir va boshqalar (2020) raqamli o‘yinlar bolalarga raqam tushunchasini tushunishga qanday yordam berishni ko‘rsatdi.

M.A.Karimova o‘tkazgan tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tajribaviy faoliyat olib borildi. 5-6 yoshdagi 30 nafar bola ishtirok etdi. Ular uchun maxsus tayyorlangan elektron o‘yinlar va interaktiv dasturlar ishlab chiqildi. O‘yinlar bolalarga raqamlarni tanish, hisoblash, geometrik shakllarni aniqlash va ularni bir-biri bilan solishtirish kabi elementar matematik tushunchalarni o‘zlashtirishiga yordam berdi. Horij olimlari Yilmaz va Demir o‘tkazgan tadqiqotda 5-6 yoshli yoshli 40 nafar bola bilan eksperimental tadqiqot o‘tkazildi. Bolalar maxsus ishlab chiqilgan elektron o‘yinlar va ilovalar orqali matematik tushunchalarni o‘rganishga undadi. O‘yinlar sonni aniqlash, geometrik shakllarni tanish kabi asosiy matematik tushunchalarni o‘rganishdan iborat Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, bolalar elektron vositalardan foydalansa matematik tushunchalarni tezroq va samaraliroq o‘rganadi. Bolalar matematikani o‘yinlar orqali qiziqarli tarzda o‘rganishsa, ularning motivatsiyasi ham ortadi. Elektron vositalar bilan ta’lim olgan bolalar an’anaviy usullar bilan ta’lim olgan bolalarga qaranda yuqori muvaffaqiyatga erishdilar. Ushbu tadqiqotlar kelajakda maktabgacha ta’limda raqamli texnalogiyalarni qo‘llash uchun yangi imkoniyatlarni ochadi va pedagoglarga bolalar bilan ishlashga innovatsion yondashuvlarni taklif etadi.

Xulosa. Elektron vositalar maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy matematik tushunchalarni shakllantirishda samarali usul bo‘lib ko‘rinadi. Ushbu tadqiqot kelajakda maktabgacha ta’limda raqamli texnalogiyalardan foydalanish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi va tarbiyachilarga bolalar bilan ishlashda innovatsion yondashuvlar tavfsiya etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun elementar matematik tushunchalarni shakllantirishga elektron vositalarning integratsiyalashuvi ta’limni rivojlantirish uchun katta vada beradi. Raqamli resurslarning jozibador tabiatidan foydalangan holda, bolalar qiziqish, izlanish, va asosiy matematik ko‘nikmalarni egallashga yordam beradigan dinamik o‘quv muhitini yaratishi mumkin. Texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, Tarbiyachilar va ota-onalar uchun ushbu vositalarni o‘z ta’lim strategiyalariga chuqur o‘ylab kiritishlari, ular an’anaviy usullarni to‘ldirishi va yosh o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab quvatlashi muhim bo‘ladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdurahmonova S.R. “Raqamli texnologiyalar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tushunchalarni o‘zlashtirish.” Maktabgacha ta’lim tadqiqotlari. 2021.
2. Karimova M.A. “Elektron o‘yinlar va interaktiv dasturlarning matematik ko‘nikmalarga ta’siri.” Ta’lim va innovatsiyalar jurnali. 2020.
3. Demir B. “Raqamli o‘yinlarning maktabgacha yoshdagi raqamlar tushunchasini tushunishga ta’siri”. 2020.
4. Yilmaz A. “Interfaol o‘yinlarning bolalarning matematik fikrlash ko‘nikmalariga ta’siri”. Ta’lim va tadqiqot jurnali. 2021.

## MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYANI JORIY ETISHNING DOLZARB MASALALARI

**Samardinova Nigora Gulamdjanovna**
Guliston davlat pedagogika insituti magistranti
samarddinovanigora@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’nosini tushunib olish lozimdir. Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning ekalogik tarbiya berishda kreativ yondashuv haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek mustaqil fikrlashga o‘rgatish muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: kreativ, bola, taafakkur, maktabgacha ta’lim tashkiloti, ijodiy, tarbiya, mashg‘ulot.

Abstract: In order to fully understand the general essence of the process of developing creative qualities for preschool children in our article presented below, it is necessary to first understand the meaning of the concept of "creativity". This article talks about a creative approach to environmental education of preschool children. Teaching to think independently was also discussed.

Key words: creativity, child, thinking, preschooler, creativity, aesthetics, learning.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning muammosi ko‘pgina pedagog va tadqiqotchilarni qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o‘rganilib kelinmoqda. Emebaylning fikricha kreativlik muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish demakdir. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negiizda noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil – mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borsidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Boshqa ko‘pgina, sifatlar (fazilat) singari kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirib boradi. Bolaning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his- tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Kreativlik so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “yaratish” degan ma’noni anglatadi. Kreativlik bu o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmuidir.

Kreativlik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangiliklarni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim. Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta’lim falsafasi, umumiy vakasbiy pedagogika va psixologiya, o‘qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko‘rib chiqiladi.

Maktabgacha yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishi uchun eng samarali davri, chunki aynan manashu davrda psixik jarayonlar progressive o‘zgarishlar kechadi va shaxsiy fazilatlar tezkor rivojlanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o‘yinlar yordamida amalga oshadi.

Ekologiya nima?

*Ekologiya* – bu tirik organizmlarning bir-biri bilan va atrof-muhit bilan aloqalarini o‘rganadigan fan.

E’tibor qilsak, bugungi kunda ba'zida oddiy xatti-harakatlar me'yorlarini e'tiborsiz qoldirib, biz plastik butilka, stakanlarni tashlab yuborishimiz mumkin. ko‘pchilik shunday qiladi va bularning barchasi bolalar oldida sodir bo‘ladi. Lekin biz maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik xulq-atvor madaniyatini tarbiyalash, ularning ekologik ongini uyg‘otishimiz kerak.

Bolalar xulq-atvorida ekologik madaniyat, ekologik bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, ekalogik tajribalar asosida shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bola tirik mavjudotlarga hamdard bo‘lishni o‘rganishi kerak: jonli mavjudot xafa bo‘ladi, uni sevish kerak, hayvonlarga ozor berish mumkin emas, tabiat yaratgan narsalarni yo‘q qilishga haqqimiz yo‘q. Biz bolalar ongiga o‘zimizni o‘rab turganolam, barchamiz yashaydigan ulkan uy kabi tuyg‘uni uyg‘otishimiz kerak.

Ekologik ta'limning asosiy shakllari:

- ✓ to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim faoliyati- faoliyat bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini tashkil etishning yetakchi shaklidir.
- ✓ ekskursiyalar
- ✓ ekologik bayramlar va hordiq
- ✓ kundalik hayotda bolalarni tabiat bilan tanishtirish

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, Maktabgacha ta’lim davlat ta’lim standarti,

Maktabgacha ta’lim konsepsiyalarining ishlab chiqilishi va tadbiq qilinishi umumiy pedagogik jarayonning muhim qismidir.

Har qanday jarayonda bo‘lgani kabi tarbiyachilar ham o‘zlarida mavjud bo‘lgan barcha ta’lim usullari va usullaridan foydalanishga harakat qilishadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim berishning bir necha shakllari mavjuda. Bular: Vizual, amaliy, og‘zaki

Vizual usul – yuz marta aytishdan ko‘ra, bir marta ko‘rsatgan ma'qul, ayniqsa, bolalar va ularning tabiat bilan munosabatlari haqida. Ekologik ta'limdavizual usullar: kuzatishlar, rasmlarni ko‘rish, modellarni namoyish qilish, slayd- shou. Vizual usullar – bolalarning bilim faoliyati imkoniyatlariga to‘liq mos keladi, ularga tabiat to‘g‘risida jonli, aniq g‘oyalarni shakllantirishga imkon beradi.

Amaliy usul – o‘yinlar, tajribalar, modellashtirish. Ushbu usullardan foydalanish o‘qituvchiga alohida ob'ektlar va tabiat hodisalari o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarni o‘rnatish orqali fikrlarni aniqlashtirish va chuqurlashtirish, tizimga olgan bilimlarini kiritish imkonini beradi.

Amaliy usullar bolalarni ekologik madaniyatga to‘liq qo‘shilishi uchun juda muhimdir.

Modellashtirish. Modellashtirish usuli boshlang‘ich va ikkinchi darajali bolalar uchun juda mos keladi. Bu sxemalar, belgilar, figuralar yoki tasvirlar yordamida haqiqiy narsalarni (hodisalarni) almashtirish. Simulyatsiya bolalarga o‘rganilayotgan obyekt to‘g‘risida umumiy tushuncha berishgayordam beradi.

Tajribalar va tajribalar. Ekologik ta'limdagi tajriba - bu o‘rganilayotgan obyektni maxsus yaratilgan sharoitlarda kuzatish. Tajribaning maqsadi va maqsadi bo‘lishi kerak. Tajriba jarayoni, shuningdek texnologiyalar va vositalarni o‘ylab ko‘rish kerak. Tajribaning o‘zi mantiqiy ravishda og‘zaki yoki yozma ravishda to‘ldiriladi.

Atrof-muhit o‘yinlari. Didaktik, mobil, ish stoli yoki og‘zaki - o‘yin, bu materialni bilish, bilish va mustahkamlashdir. O‘yin ekologik tarbiya usuli sifatida bolalar bog‘chasi o‘qituvchilari tomonidan keng qo‘llaniladi, chunkio‘yin maktabgacha yoshdagi etakchi faoliyatdir.

Og‘zaki usul – hikoyalar, badiiy asarlar, suhbatlar, og‘zaki usullar bolalarda tabiatga nisbatan emotsional ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Og‘zaki usullar deganda biz suhbatlar, hikoyalar, o‘qiganlaringizni yoki ko‘rganlaringizni tahlil qilishni tushunamiz. Og‘zaki usullarni deyarli har doim vizual usullar qo‘llab-quvvatlaydi.

Suhbat har doim har qanday o‘yin, tajriba, kuzatishdan oldin turadi. Boshqa har qanday usul suhbatga hamroh bo‘ladi.

Og‘zaki usullardan biri bu badiiy adabiyotni o‘qish. Bu yoki o‘quv dasturi tomonidan tavsiya etilgan maxsus ekologik adabiyotlar yoki mumtoz yozuvchilarning asarlari bo‘lishi mumkin. Hozirda ko‘plab mualliflar tabiat, hayvonot dunyosi, atrof-muhitni muhofaza qilish muammolariga e'tibor bergan holda o‘z kitobllarini nashr qildirishyapti.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ekologik bilimlarni berishda o‘yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Didaktik o‘yinlar jarayonida bolalar tabiat hodisalari, o‘simliklar, hayvonlar to‘g‘risida o‘z fikrlarini aniqlaydilar,birlashtiradilar, ko‘rib chiqadilar.

Didaktik o‘yinlar bolalarga tabiat obyektlari bilan ishlashga imkon beradi, ularni taqqoslaydi, individual tashqi belgilaridagi o‘zgarishlarni qayd etadi.

*Tajriba* – bu maxsus tashkil etilgan sharoitda olib boriladigan kuzatuv. Tajriba nafaqat bolalarda tabiatga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishga yordam beradi, balki kuzatuvchanlikni, aqliy faoliyatini rivojlantiradi. Har bir eksperimentda kuzatilgan hodisaning sababi aniqlanadi, bolalar hukmlarga, xulosalarga olib boriladi.

*Ekskursiya* – asosiy faoliyat turlaridan biri va maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash bo‘yicha ishlarni tashkil etishning maxsus shakli. Ekskursiyalarning afzalligi shundaki, ular bolalarni tabiiy sharoitda tabiat obyektlari va hodisalari bilan tanishtirishga imkon beradi. Ekskursiyalarda bolalar o‘simliklar, hayvonlar va shu bilan birga ularning yashash sharoitlari bilan tanishadilar, bu esa tabiatdagi munosabatlar to‘g‘risida birlamchi g‘oyalarni shakllantirishga

yordam beradi. Bolalarni ekalogik tarbiyalashda, ularning tabiat hodisalari va obyektlariga ekalogik munosabatini shakllantirishda ekskursiyalarning o‘rni katta.

Shunday qilib, kreativ fikrlashni shakllantirishda quyidagi aniq vazifalarnihal qilish kerak:

- ❖ bolalarning ekalogik va hissiy tajribasini boyitish, ularning atrofdagivoqelik haqidagi g‘oyalai hajmini oshirish, ufqlarini kengaytirish;
- ❖ bolalar nutqini, majoziy iboralarni rivojlantirish, so‘z boyligini boyitish;
- ❖ bolalarda qayta loyihalash, tajriba elementlarini birlashtirish qobiliyatini rivojlantirish. Bolalarda “inklyuziya” asosid rekonstruksiya qilish kabi operatsiyani shakllantriishga alohida e’tibor beriladi, bu turli xil tasvirlarni yaratish uchun bir xil elementdan foydalanishga imkon beradi.
- ❖ rivojlanayotgan muhitni ma’lum bir tarzda jihozlash. Tasavvurning kombinatsion mexnizmlarini shakllantirish uchun sharoit yaratish lozimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish jarayonida qo‘yilgan vazifalarni hal qilishda biz turli usullardan foydalandik va turli dasturlarni sinab ko‘rdik. Bizning maktabgacha ta’lim tashkilotimizda o‘quv jarayonida hissiy jihatdan boy muhit yaratiladi, o‘qituvchilar darslar va boshqa ta’lim shakllari mazmunini ertak va o‘yin syujetlari va qahramonlari bilan to‘ldiradi, o‘zlarining improvizatsiyalari, frontal shakllari kichik guruh va individual bilan birlashtiriladi. Bolalar bilan ishlash shakllari. Bu bizga bolalar ijodiyotini rivojlantirish muammolarini hal qilish imkonini beradi.

Bolalarga og‘zaki ko‘rsatmalarga muvofiq alohida elementlardan ma’lum raqamlarni birlashtirish taklif etiladi, ya’ni yetishmayotgan namuna. Bola kelajakdagi obyektni tasavvur qilishi, uni tahlil qilish, mavjud tafsilotlar to‘plami bilan solishtirish va qaysi detal yaratilgan ob’ektning alohida qismlarini almashtirishi mumkinligini aniqlashi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, kreativlikni faollashtirish usullaridan foydalangan holda tashkillashtirilgan ijodiy o‘yin vazifalari, hayotiy vaziyatlar kreativ o‘yin va mashg‘ulotlardan foydalanish maktabgacha yosh davridagi bolalarda kreativ yondashuv asosida ekalogik tarbiyani shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Kreativ tafakkurga ega bo‘lgan bola mashg‘ulotlarnin tez o‘zlashtirish, berilgan har bir ta’limiy va tarbiyaviy ta’limotlarni tezda ilg‘ab oladilar va hayotga tatbiq etish xusuusiyatiga ega bo‘ladilar. Maktabgacha yoshdanoq kreativ fikrlay oladigan ekalogik tarbiyaga ega bo‘lgan bolalar kelajakda buyuk inson bo‘lib, yetishadilar va o‘z navbatida kelajakda vatani ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Shunday qilib, maxsus ta’lim jarayonida barcha bolalar kreativ va ijodiy konstruktiv muammolarni hal qilishning umumiy tamoyillarini shakllantiradilar.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qodirov R.G‘. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. –T., 2005
2. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi. –T., 2010
3. Berkinblit M.B., Petrovskiy A.V. Fantaziya va haqiqat. –T., 2012
4. Venger L.A., Dyachenko O.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliyqobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘yinlar va mashqlar. –T., 2014

## MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA MULTIMEDIYALAR BOLALARNI O‘RGANISH DUNYOSIGA JALB QILUVCHI VOSITA

**M.Q.Abdurasulova**
Guliston davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi’’
kafedrasi magistranti
e-mail: abdurasulovamohidil37@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimediya vositalarining afzalliklari va kamchiliklarini, ularning o‘rganish jarayonini boyitish va bolalarni o‘rganish dunyosiga jalb qilishda muhim ro‘lini takidlaydi.Shuningdek,ushbu texnalogiyalarni samarali qo‘llashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, multimediya, bolalarni o‘rganishga jalb qilish, Interaktiv ta’lim,o‘yin orqali o‘rganish, ta’limni boyitish, texnalogiya, zamonaviy ta’lim.

Abstract. This article highlights the importance, advantages and disadvantages of multimedia materials in preschools, their important role in enriching the learning process and engaging children in the world of learning. It also provides practical recommendations for effective use of these technologies.

Key words: Pre-school education, multimedia, engaging children in learning, Interactive education, learning through games, educational enrichment, technology, modern education.

Hozirgi zamonda texnalogiya jamiyatimizning ajralmas qismiga aylandi. Bolalarning dastlabki yillarida ham ularning texnalogiyaga ta’sirlanishi tobora kuchayib bormoqda. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimediya vositalarini qo‘llashni zamonaviy o‘quv jarayonining muhim qismi sifatida ko‘rish muhimdir. Multimediya vositalari bolalarning o‘rganish qiziqishini oshirish, ularni o‘rganish dunyosiga jalb qilishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Multimediya - turli xil vositalarini, jumladan audio, video, animatsiya, rasmlar, interaktiv dasturlar va boshqalarni birlashtirgan ta’limusulidir. Ushbu usul bolalarning o‘rganish jarayoniga rang-baranglik, interaktivlik va ta’sirchanlik qo‘shadi. Aynan maktabgacha ta’lim davri-bolaning faol anglaydigan yosh xisoblanadi. Chunki bu vaqt bolaning psixologiyasi va ongi uchun muhim voqealarga boy bo‘ladi. Shuning uchun bu davrda bolaning har bir qiziqishini e’tiborga olib, uni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish lozim. Xususan, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev maktabgacha ta’lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan, “Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasida bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi”.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tiziming boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu bo‘g‘inda bola har tomonlama sog‘lom va yetuk shaxs sifatida shakillantiriladi, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Hozirgi globallashuv davrida maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalar tarbiyasida multimediya vositalaridan foydalanish kerakmi degan savolga ikki xil yondashuv mavjud: Kimdir bolaga yoshligidan kompyuter texnalogiyalarini o‘rgatib borish kerak desa, kimdir bunga kompyuter texnalogiyalarining zararli oqibatlari tufayli qarshi fikrda bo‘lishi ham mumkin. Menimcha, zamon talablaridan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim muassasalarida multimediya vositalaridan foydalanish foydadan xoli emas.

Multimediya vositalari bolalarga o‘zlarining g‘oyalarini ifoda etish va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Masalan, rasm chizish dasturlari, musiqiy dasturlar va video yaratish dasturlari ularga o‘zlarining ijodkorligini namoyish etishga imkon beradi. O‘zlashtirishni oshiradi, o‘quv jarayonini interaktiv va ta’sirchan qilish orqali bolalarning ma’lumotni eslab qolish va o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Kompyuter grafikasi va turli slaydlar yaratib bola nutqini o‘stirish, sodda matematik amallarni o‘rganish, chet tillarini o‘rgatishni osonlashtirish, hatto shaxsiy gigiyena bo‘yicha ham foydalanish mumkin. Bu usullardan qandey foydalanish, video va slaydlarni qandey yaratish bu tarbiyachilarning indevidual mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Bu kichik maqolada ozroq tavsiya va yo‘l-yo‘riq berish imkoniyati bor xolos.

Ushbu kichik tavsiyalarni amaliyotda bajarib ko‘ring:

I. Nutq o‘stirish bo‘yicha “Bu kim?, Bu nima? ”o‘yini.

1) Turli kasb egalari (shifokor, o‘qtuvchi, uchuvchi, sportchilar) rasmlari qo‘yilib bolalarga “Bu kim?”savoli beriladi.

2) Turli hayvonlar (sigir, qo‘y, echki, mushuk) rasmlari qo‘yilib bolalarga “Bu nima? ” savoli beriladi.

Jarayon soddadan murakkablikka qarab yo‘naltirib boriladi.

II. Bola dunyoqarashi va fikrlash darajasini oshirish maqsadida “Keyin nima bo‘ladi?”, o‘yinlarini o‘tkazib borish. Bunda misol uchun havoni bulut qoplab borish jarayoni ko‘rsatiladi. Bolalarga “Keyin nima bo‘ladi?”, savoli tashlanganda “shamol bo‘ladi”, “yomg‘ir yog‘adi”, “kamalak chiqadi” kabi javoblar bo‘ladi. Albatta tarbiyachi bunda bolalarga tabiat hodisalari, fasllar almashishi, yomg‘ir qandey paydo bo‘lishi va hakazolar haqida ma’lumot berib boradi.

III. Bulardan tashqari sodda matematik amallarni bajarishni o‘rgatish bo‘yicha “Mevalar o‘yini” , “Mashinalar soni” o‘yinlarini ham qiziqarli qilib o‘tkazish mumkin. Bola nutqini o‘stirishda kompyuterning Photoshop dasturidan keng foydalanib ijobiy samaralarda erishish mumkin. Photoshop dasturining qatlamlariga to‘rt fasl rasmlarini joylab rasm asosida bolani biyron gapira olishga, so‘z boyligini yanada oshirishga erishish mumkin. Bundan tashqari shu kabi foydali usullarni turli faoliyatlardan foydalanish mumkin.

Endigi jiddiy masala-maktabgacha ta’lim muassasalarida axborot tehnalogiyalari yetarlimi va ularni mukammal beradigan mutaxassislar yetarlimi?. Oliygohlarda yetishib chiqayotgan mutahasislarning bu boradagi bilimlari yetarlimi? Bunga qo‘shimcha tarzda maktabgacha ta’limda multimediya vositalarini samarali qo‘llash uchun quyidagi maslahatlarni berish mumkin:

-Bolalarni yosh xususiyatlarini hisobga olish;

-O‘quv jarayoniga integratsiya qilish;

-Bolalar uchun mo‘ljallangan xafsizlik va multimediya materiallari;

-Dasturlarni tanlash;

kerak.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish va ularni multemediya vositalarini to‘g‘ri ishlatish, nazorat qilish vaqtlarini belgilash bo‘yicha maslahat berish kerak.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limda multimediya vositalarini samarali qo‘llash bolalarning o‘rganish qiziqishini oshirish, ularning ijodkorligini rivojlantirish va o‘zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi. Biroq, multimediya vositalarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida qo‘llash, bolalarni texnologiyalarga haddan tashqari qaram qilishdan saqlanish muhimdir.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi. 30.09.2020. y

2. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonun 2019-y.

3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari 2018 y.

4. N. N. Azizxo‘jayeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat’’ O‘quv qo‘llanma. Toshkent - 2006.

5. B. Ziyomuhammadov, M. Tojiev “Pedagogik texnologiyalar - Zamonaviy o‘zbek milliy modeli” –Toshkent. - 2009.

## MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHISINING SHAXSIY VA KASBIY SIFATLARINI BADIIY ADABIYOTLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

**Z.V.Suvonqulova**
Guliston davlat pedagogika instituti
“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta’lim)” yo‘nalishi magistranti
e-mail: zariiinsuvonqulova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning ish faoliyatida muhim bo‘lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarini badiiy adabiyotlar orqali shakllantirishning muhim ahamiyatlari bayon etilgan. Kelgusida tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish ko‘nikmalari tahlil qilingan. Shuningdek badiiy adabiyotning insonga ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: shaxsiy, kasbiy, tarbiyachi, sifat, badiiy adabiyot, bolalar, raqamli texnologiya, yangilik.

Annotation. This thesis discusses the significant importance of developing personal and professional qualities of future educators through literary works. It analyzes the skills necessary for shaping the personal and professional qualities of educators in the future. Additionally, it highlights the impact of literary literature on individuals.

Key words: personal, professional, educator, quality, literary work, children, digital technology, news.

Badiiy adabiyotlar insonni komillikka yetaklaydi. Unda turlicha qismatlarni, hikmatlarni, dunyoqarashlarni, muammolarni, yechimlarni ko‘ramiz, xulosa chiqaramiz. Eng asosiysi, o‘zimizni tarbiyalaymiz. Hozir kundan kunga badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqish ortib boryabdi. Ammo vaqtini befoyda narsalarga sarflayotgan yoshlar ham kam emas. Bolaga yoshligidanoq kitobga bo‘lgan mehrini oshirish insonni o‘z qo‘lida. Bola eng ko‘p vaqtini oila davrasida va maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘tkazadi. Bola tarbiyasi murakkab jarayondir. U tarbiyani eng ko‘p onasi va tarbiyachisidan oladi. Tarbiyachi pedagog ham ikkinchi ona hisoblanadi. Shuning uchun bolani tarbiyalovchi har bir shaxs o‘zini shunga mos va xos tutishi lozim. Yer yuzidagi barcha onalarni bunga tayyorlay olmaslik mumkindir, ammo tarbiyachilarni tayyorlay olsa bo‘ladi. Tarbiyachi bolani tarbiyalashda eng avvalo shaxsiy va kasbiy sifatlaridan foydalanadi. Uning shaxsiy sifatlari bolani kamsitmaslik, unga doimo yaxshi muomilada bo‘lish, savollarini bee’tibor qoldirmaslik, bolani ajratmaslik, kasbiy sifatlari esa faoliyat jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishi, yangilikni qabul qila olish, uni tez qabul qilish va faoliyatga to‘g‘ri joriy qilishi, raqamli texnologiyalardan foydalanishni bilishi, ish hujjatlarini yurita olishi hisoblanadi.

Aynan tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar uchun Masaru Ibuka ning “Uchdan keyin kech” asari ayni muddaodir. Unda aytilishicha, “Qoloq bolalar yo‘q. Barchasi o‘qitish usuliga bog‘liq.” Bu asar tufayli tarbiyachilar shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirib, tarbiyalanuvchilarni barchasiga e’tibor berish, ularni sinchiklab kuzatish kim qanday qobiliyatga ega ekanligini bilib olishni o‘rganadi. “Bola miyasi cheklanmagan miqdorda ma’lumot qabul qila oladi.” Ha albatta, bolani “buni tushinmaydi”, “buni bilmaydi” deb emas, balki, unga qiyinroq bo‘lgan ma’lumotlarni bola tilida tushuntirish va barcha savollariga erinmasdan javob berishni amaliyotda qo‘llash lozim. Bu asarda “Bola faqat o‘ziga qiziq bo‘lgan ma’lumotnigina eslab qoladi” deyilgan va bu tarbiyachilarga har bir mashg‘ulotini qiziqarli o‘tishi kerakligini anglatadi.

Yapon xalqida bir maqol bor: “Yoshlikda olingan bilim toshbaqaning kosasidan ham mustahkam bo‘ladi.” Anglab yetish kerakki, bolaga tarbiyani yoshligidan to‘g‘ri berish kerak.

Bir odam donishmanddan “Taqsir men farzandli bo‘ldim, aytingchi unga ilm berishni qachondan boshlashim kerak” deb so‘raganda, donishmand: “Kechikibsiz, unga ilm berishni ona qornidan boshlash kerak edi” deb javob bergan ekan. Shundan bilish mumkinki, bolaning eng muhim davri bu – uning yoshligidir. Tarbiyachi qanchalik ko‘p kitob bilan tanishsa, shunchalik faoliyat jarayonida qiynalmaydi va bolalarga to‘g‘ri tarbiya bera oladi.

Grigoriy Petrovning “Oq nilufarlar yurtida” asarida yozilishicha, Amerikaning Garvard Universitetidagi dunyoga taniqli finlandiyalik o‘qituvchi Pasi Sahlbergning ta’kidlashicha, Finlandiyaning xalqaro ta’lim sifati bo‘yicha doimo birinchi o‘rinni egallashining asosiy sababi: jamiyat bolalarni doimo qo‘llab quvvatlashi, ta’lim hamma uchun tengligi, mamlakatning esa ta’lim sohasiga ko‘proq pul ajratishidir.

Erkin Malikning “Chumolilar saltanati” asarida ajoyib satrni uchratish mumkin. Yozilishicha: Chumolilar bola tarbiyasiga nihoyatda e’tiborli ekan. Ular: Hayotda bir yil mazza qilib yashayman desang, dehqonchilik qil , o‘n yil mazza qilib yashash uchun bog‘bonchilik qil, yuz yil va undan ham ko‘proq mazza qilib yashayman desang, bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullan” degan shiorga amal qilishar ekan. Ha, ular uchun bolalar tarbiyasi hamma narsadan muhim, hamma narsadan ustun ekan. Bunday asarlarni o‘qigan tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlari shakllanmasdan qolmaydi. Nafaqat, tarbiyachilar balki, onalar ham bunday asarlarni o‘qishi bolalar tarbiyasi uchun ayni muddaodir. Tarbiyachi oila bilan muntazam hamkorlikda bo‘lib ota-onalarga bunday asarlarni o‘qishni tavsiya qilsa, bola har tarafdan mukammal bo‘lib shakllanadi.

“Farzand Yaratganning omonati, uning kamolotida ota-ona, ta’lim muassasalari va jamiyatning muhim o‘rni bor. Ayrimlar bola degani kattalar aytganiga ko‘nib yelkasini qisib turishi shart, also o‘z fikrini bildirib mahmadonalik qilishi kerak emas, deb hisoblashadi. Bunday mute bolalar ulg‘aygach jamiyatga nima beradi? Aslida farzandi bilan kichik yoshidanoq kattalardek suhbat qurgan, savollariga javob bergan, mehr bilan tarbiya qilgan ota-onalar bu xatti-harakatlari bilan asl insonni tarbiyalaydilar! Bolalarni, avvalo, inson qilib tarbiyalash ota-ona va ta’lim tizimining maqsadiga aylansa, biz tom ma’noda shaxs sifatida shakllangan hur fikrli, har tomonlama yetuk avlodlarga ega bo‘lamiz. Ana shunda bundan jamiyat ham, Vatan ham manfaat ko‘radi!” – deydi “Jazosiz tarbiya” asarining muallifi Adam Gunesh. Bunday asar tarbiyachining umumiy sifatlariga albatta samarali va foydali ta’sir o‘tkazadi.

“Ko‘rsatkich barmog‘ini bolaga niqtab baqiradiganlar bilib qo‘ysinki, u bolani tarbiya qilayotgani yo‘q, aksincha, bolaning qalbida ildiz otayotgan aybdorlik tuyg‘usini ilk urug‘larini qadamoqda.” deyiladi “Baqirmaydigan onalar” asarida. Qanchalik haqiqat. Haqiqatdan ham kelajakda bola aybi bo‘lmagan vaziyatlarda ham o‘zini aybdordek his qiladi. Hammaga ma’lumki aybdorlik hissi insonni ich-ichidan yemiradi.

“Oradan yillar o‘tib hech kim uyimizning betartib bo‘lgani, yoyilib yotgani haqida gapirmaydi, biroq biz bugun tarbiya qilayotgan, qalblariga mehr urug‘ini qadayotgan bolajonlarimiz umr bo‘yi xotirlanadigan, xayrli ishlarni amalga oshiradilar.” Xadicha Kubro Tongarning mana shu satrlarni hech kimni e’tiborsiz qoldirmaydi.

Jaloliddin Rumiy: “O‘ylaring so‘zlaringga, so‘zlaring fe’lingga, fe’ling taqdiringga nuqs etadi. Go‘zal o‘yla, go‘zal yasha.” deganlaridek bolani tarbiyalaydigan kishi avvalo o‘zi tarbiyalangan bo‘lmog‘i lozim. Har doim yaxshi narsalarni o‘ylash, fikrlash insonni aurasiga xuddi shunday narsalarni chorlaydi. Zero, farzand – oilaning ko‘zgusidir.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Adam Gunesh “Jazosiz tarbiya 2” Yangi asr avlodi. 2023
2. Erkin Malik “Chumolilar saltanati” Akademnashr. 2022
3. Grigoriy Petrov “Oq nilufarlar yurtida” Factor press. 2021
4. “Jaloliddin Rumiy hikmatlari” ziyouz.com sayti
5. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” Akademnashr. 2019 13-bet.
6. Xadicha Kubro Tongar “Baqirmaydigan onalar” Yangi asr avlodi. 4-bet, 22-bet.

## MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI CHINIQTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Ibragimova Gulsanam Anvarovna**
Guliston davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim metodikasi”
kafedrasi magistranti
e-mail:gulcehraibragimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni chiniqtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va imkoniyatlari muhokama qilinadi. Jismoniy faollik va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda yangi pedagogik texnologiyalarning o‘rni, virtual haqiqat, mobil ilovalar va interaktiv qurilmalarning maktabgacha ta’lim muassasalarida qo‘llanilishi masalalari yoritilgan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda ehtiyotkorlik va o‘qituvchilarni malakasini oshirish zarurligi ham ko‘rsatilgan. Maqola ta’lim jarayonida texnologiyalarning samarali foydalanishiga qaratilgan yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, innovatsion texnologiyalar, jismoniy rivojlanish, interaktiv qurilmalar, virtual haqiqat, mobil ilovalar, bolalarni chiniqtirish, pedagogik texnologiyalar.

Abstract. This article discusses the importance and potential of using innovative technologies to strengthen the health and physical development of preschool-aged children. It highlights the role of new pedagogical technologies in promoting physical activity and a healthy lifestyle, focusing on the use of virtual reality, mobile applications, and interactive devices in early childhood education. The article also emphasizes the need for cautious use of these technologies and the importance of improving the qualifications of educators. It proposes strategies for the effective integration of technology into the educational process.

Keywords: preschool education, innovative technologies, physical development, interactive devices, virtual reality, mobile applications, child strengthening, pedagogical technologies.

Maktabgacha ta’lim — bu bolalarning hayotidagi muhim bosqich bo‘lib, ularning jismoniy, aqliy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu davrda bolaning tanasini chiniqtirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish juda katta ahamiyatga ega. Bularning barchasini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida foydalaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar bolalarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, ularni chiniqtirish jarayonini samarali va qiziqarli tarzda tashkil etadi [1].

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar jismoniy rivojlanish, aqliy faollik, ruhiy holat va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda juda muhim bosqichda bo‘ladi. Shu sababli, bolalarning ta’limi va tarbiyasida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati ortib bormoqda. Innovatsion texnologiyalar yordamida bolalar uchun ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, samarali va ta'sirli qilish mumkin.

Innovatsion texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi [2]:

- **Pedagogik jarayonni yanada interaktiv qilish**: Interaktiv ta’lim qurilmalari, sensorli ekranlar, kompyuter o‘yinlari va virtual haqiqat texnologiyalari bolalar bilan samarali ishlashga yordam beradi.
- **Bolalar uchun yangi o‘yin shakllarini joriy etish**: Mobil ilovalar va kompyuter o‘yinlari yordamida bolalar o‘yin orqali o‘rganishadi, bu esa ularning faolligini oshiradi va yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini qiziqarli qiladi.
- **Jismoniy faollikni oshirish**: Bolalar uchun mo‘ljallangan interaktiv qurilmalar yordamida jismoniy faollikni oshirish, bolalarni chiniqtirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mumkin.

1-Jadval

Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari

| Afzallik | Tavsif |
|---|---|
| Jismoniy rivojlanish | Sensorli ekranlar va interaktiv qurilmalar bolalar harakatini rivojlantirishga yordam beradi. |
| Aqliy faollikni oshirish | Mobil ilovalar orqali mantiqiy o‘yinlar va matematik mashqlar orqali bolalar aqliy faolligini oshiradi. |
| O‘rganish jarayonini qiziqarli qilish | Kompyuter o‘yinlari va virtual haqiqat texnologiyalari bolalarning qiziqishini oshiradi va ta’limni yanada interaktiv qiladi. |
| Tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish | Innovatsion texnologiyalar yordamida bolalarga emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. |

Jismoniy faollikni oshirish bolalar uchun juda muhim, chunki bu nafaqat sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga, balki jismoniy rivojlanishni ham ta'minlashga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar yordamida bolalar uchun jismoniy tarbiya mashqlarini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin [3].

Texnologiyalar yordamida bolalarni jismoniy faollikka jalb qilishning asosiy yo‘llari:

1. **Interaktiv jismoniy tarbiya qurilmalari**: Bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan interaktiv qurilmalar (masalan, "Step Touch", "Smart Mat") bolalar uchun mashqlarni qiziqarli qiladi. Bu qurilmalar yordamida bolalar turli xil jismoniy mashqlarni to‘g‘ri bajarish va ularni o‘zlashtirishni o‘rganadilar [4].

2. **Virtual haqiqat (VR) texnologiyalari**: VR texnologiyalari orqali bolalar sport musobaqalarida ishtirok etish, yangi sport turlarini o‘rganish va jismoniy mashqlarni virtual ravishda bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. **Mobil ilovalar va gamifikatsiya**: Jismoniy faollikni oshirish uchun mobil ilovalar orqali turli xil interaktiv o‘yinlar va mashqlarni bajarish mumkin. Bu o‘yinlar bolalarni musobaqalarda ishtirok etishga rag‘batlantiradi va ularni faol bo‘lishga undaydi.

2-Jadval

Jismoniy faollikni oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari

| Texnologiya | Tavsif |
|---|---|
| Interaktiv qurilmalar | "Step Touch" kabi qurilmalar orqali bolalar jismoniy mashqlarni o‘rganishadi. |
| Virtual haqiqat (VR) | VR texnologiyalari orqali bolalar sport musobaqalarida ishtirok etishadi va jismoniy mashqlarni bajarayotganda yangi hissiyotlar bilan tanishadilar. |
| Mobil ilovalar | "Fitbit" yoki "Nike Training" kabi ilovalar bolalarning jismoniy faolligini kuzatib boradi va mashqlarni bajarishda yordam beradi. |
| Gamifikatsiya | O‘yinlar orqali bolalar uchun jismoniy mashqlarni yanada qiziqarli va musobaqaviy qilish imkoniyatini yaratadi. |

Innovatsion texnologiyalar bolalarning psixologik rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Bu texnologiyalar bolalarga o‘zlarining emotsional holatlarini ifoda etish, ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish va boshqa ruhiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi.

***Innovatsion texnologiyalarning psixologik rivojlanishdagi roli:***

1. **Kognitiv rivojlanish**: Mantiqiy o‘yinlar va matematik ilovalar bolalar uchun aqliy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Misol uchun, "Lumosity" ilovasi bolalar uchun aqliy mashqlarni taqdim etadi va ularni har xil kognitiv faoliyatlarga jalb qiladi [5].

2. **Ijtimoiy o‘zaro aloqalar**: Virtual aloqalar va interaktiv o‘yinlar bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, chunki ular o‘zaro hamkorlik, jamoada ishlash va boshqalarga yordam berishni o‘rganadilar.

3. **Emotsional rivojlanish**: Bolalar uchun mo‘ljallangan interaktiv hikoyalar va video materiallar, ularning hissiy intellektini rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, "Emo Adapto" ilovasi bolalarga emotsional holatlarni tushunishga yordam beradi.

3-Jadval

Innovatsion texnologiyalarning psixologik rivojlanishdagi roli

| Texnologiya | Psixologik rivojlanishdagi roli |
|---|---|
| Mantiqiy o‘yinlar | Aqliy faoliyatni rivojlantiradi va bolalarni kognitiv qobiliyatlarni oshirishga undaydi. |
| Virtual aloqalar | Bolalar uchun ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. |
| Interaktiv hikoyalar | Bolalarning emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi va hissiy intellektni oshiradi. |
| Mobil ilovalar | Bolalarning ijtimoiy va hissiy holatlarini kuzatib, ularni yaxshilashga yordam beradi. |

Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta’limda muvaffaqiyatli qo‘llash uchun o‘qituvchilarni malakasini oshirish zarur. Zamonaviy o‘qituvchilar texnologiyalarni ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olishlari kerak [6].

Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta’limda qo‘llash bolalarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Interaktiv ta’lim qurilmalari, virtual haqiqat, mobil ilovalar va boshqa texnologiyalar yordamida bolalarga qiziqarli va samarali tarzda ta’lim berish mumkin. Biroq, bu texnologiyalarni jismoniy va psixologik salomatlikni ta'minlash maqsadida ehtiyotkorlik bilan ishlatish zarur. Shu bilan birga, o‘qituvchilarni yangi texnologiyalarni qo‘llashda malakali tayyorlash ham alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xo‘jaeva, G. (2020). Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalar. Tashkent: Fan va ta’lim.
2. Karimov, B. (2019). Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Tashkent: Ma'naviyat va ma'rifat.
3. Salomova, R. (2021). Bolalarni jismoniy rivojlantirishda innovatsion usullar. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti.
4. Djonson, M. (2020). Innovative Educational Technologies in Early Childhood Education. Cambridge University Press.
5. Perova, T. (2018). Intellektual rivojlanish va innovatsion texnologiyalar. Moskva: Pedagogika.
6. Uzunova, N. (2022). Maktabgacha ta’limda texnologiyalarni qo‘llash. Toshkent: Ilm-ziyo.

## MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING DOLZARB MASALALARI

**K.M.Xidirova**
Guliston davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi’’
kafedrasi magistranti
e-mail : shahzodxidirov4222@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi va pedagoglarning innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali faoliyat olib borish jarayonlarining samaradorligi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** innovatsion texnologiya, o‘yin, zamonaviy pedagog, interfaol metodlar, shaxs, globallashuv, raqamlashtirish.

**Abstract.**This article talks about the relevance of introducing digital and innovative technologies in the preschool education system and the effectiveness of pedagogues’ activities through innovative pedagogical technologies.

**Keywords :** innovative technology , game , moder pedagogue , interactive methods , personality , globalization , digitalization.

Dunyo kundan - kunga rivojlanib, yangidan yangi innovatsion texnologiyalar yaratilmoqda. Hayotimizning har bir soniyasida dunyoning qaysidir burchagida yangi bir texnologiya yaratilmoqda.Texnologiyalar insonlarning og‘irini yengil, mashaqqatini oson qilish va eng qimmatli bo‘lgan vaqtlarini tejash uchun yaratiladi. Bugun hayotimizning har bir jabhasida bu texnologiyalarga duch kelamiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Masalan , har birimizning uyimizda televizor, kir yuvish mashinasi, elektr choynaklar , kompyuterlar , planshetlar va shunga o‘xshash ko‘plab texnologiyalar uchraydi. Barcha sohada bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham raqamli va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Elektron darsliklar, elektron kitoblar , majmualar shular jumlasidandir. Bugungi kunga kelib barcha soha raqamlashtirilmoqda. Raqamlashtirish –bu axborotni elektron holga keltirish.Boisi elekton darsliklardan foydalanishning afzalliklari bisyor. Ma’lumot topish tez va oson, vaqt va mablag‘ tomondan ham yengilliklar yaratadi.

Raqamli va innovatsion texnologiyalar maktabgacha ta’lim tizimini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Maktabgacha yosh –bu bola dunyoni faol anglaydigan davr. Bu yoshda bola hamma narsaga qiziqadi, bajarib ko‘rmoqchi bo‘ladi. Olimlarning aniqlashicha, maktabgacha yoshda bola hayoti davomidagi ma’lumotlarni , bilimlarni yarmidan ko‘pini o‘rganar ekan. Shu boisdan bu davrda bolaga to‘g‘ri va sifatli ta’lim tarbiya berishga jiddiy e’tibor qaratish lozim.Bola hech qachon o‘ziga qiziq bo‘lmagan ishni bajarmaydi.Qachonki bola qaysidir ishga qiziqsa, so‘ng bu ishni bajarishga harakat qiladi. Bu davrda yapon iqtiboslarida aytilganidek, bolaga podshohdek

muomala qilish kerak. Chunki bu davr bolaning psixologiyasi va ongi uchun muhim voqealarga boy bo‘ladi. Shuning uchun bu davrda bolaning har bir qiziqishini e’tiborga olib, uni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish lozim. Xususan, yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev maktabgacha ta’lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan, “ Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasiga bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi’’ .

Bugungi hayotimizni ko‘p qismini virtual olamda o‘tqazar ekanmiz biz unga moslashib borayotganimizni unutmasligimiz lozim. Biz uchun kompensatorlik vazifasini bajarayotgan algoritmlarning ta’sir simmetriyasini unutmaslik kerak. Chunki faqatgina real dunyoning murakkabligigina bizni yangi maqsadlar qo‘yishga fikrlashga majbur qiladi, konstativ bir xillikka ega, doimiy ovunchoq virtual olam esa maqsadsiz utopik xayollarni keltirib chiqaradi va maqsadsiz yoki sifatsiz fikrlashdan kelib chiqqan qaror-xulosalar orqali absurdlikka olib keladi[1].

Professor Sh.S.Kushakov fikricha, “Kompyuter asri yangi dezinformasiyani vujudga keltirdi, ya’ni feykli dezinformasiya. Demak virtual olamda ko‘proq yolg‘on ma’lumotlar tarqatish, kishilarni aldash, chalg‘itish oson kechmoqda”. [4]

I.D.Yegorcheva Internet va televizion makonni o‘z ichiga olgan o‘spirinlar hayotining yangi joylari haqida gapiradi. Ushbu bo‘shliqlar zamonaviy o‘spirinlarning yangi “ijtimoiylashuv bo‘shliqlari” sifatida qaraladi. Ushbu sohalarning ahamiyati rivojlanib borayotgan odamlar hayotida shunchalik kattaki, bu sizni yangi paydo bo‘lgan ijtimoiy institutlar haqida o‘ylashga majbur qiladi. “Biroq, bu bo‘shliqlar va ularning “kattalar jamoasida” ta’siri haqida bilim yetarli emas”. [2]

Bugungi kunda, albatta, muhim vazifa “o‘qituvchilarning axborot madaniyatini har tomonlama va maqsadli rivojlantirish, uning darajasiga oliy ta’lim muassasasining o‘quv jarayoniga info-kommunikatsiya texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etish va shunga mos ravishda talabalarning axborot kompetensiyasini shakllantirish bog‘liqdir”. [5]

Darhaqiqat, zamonaviy bola ko‘p jihatdan “boshqacha” bo‘lib qoldi. Ushbu fikrni ishlab chiqishda biz N.V. Chudovaning bayonotini beramiz, u Internetga kirish motivatsiyasini o‘rganish natijalariga ko‘ra O.N. Arestova., L.N. Babanin, A.E. Voyskunskiy foydalanuvchilarning fikriga ko‘ra, endi bu ehtiyojlarning katta qismini qondirishga yordam beradi. Bu sizga Internet tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlarni zamonaviy inson faoliyatiga vositachilik qiladigan va uning yuqori aqliy funksiyalarini shakllantirishda ishtirok eta oladigan yangi madaniy vositalar sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Umuman olganda, internetning o‘zi semiotik va psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan madaniyat hodisasi sifatida qaralishi mumkin. [6]

Shunday qilib, so‘nggi o‘n yilliklarda sodir bo‘lgan yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishidagi ulkan yangilanish va uning davom etayotgan taraqqiyoti Internetni yangi, deyarli o‘rganilmagan muhit sifatida ochdi, bu esa ushbu sohadagi inson faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab savollarni tug‘dirdi va shu bilan olimlarga tadqiqot uchun keng muammoli maydonni ochdi. Internet-bu o‘ziga xos haqiqat, ilgari mavjud bo‘lmagan, haqiqatan ham yangi “dunyo” bo‘lib, u inson uchun o‘zining ijobiy va salbiy tomonlarini ochib beradi va shu bilan o‘z foydalanuvchilariga shaxsiy rivojlanishning turli xil variantlari va mumkin bo‘lgan trayektoriyalarini taklif qiladi. Bu shuni anglatadiki, Internet virtual muhit bo‘lib, insonning o‘zini, uning imkoniyatlari va qobiliyatlarini, potentsialini va umuman sub’ektivligini amalga oshirishning haqiqiy sohasi bo‘lib, zamonaviy insonning o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘zini o‘zi amalga oshirish uchun yangi keng imkoniyatlarni ochib beradi. Internetning o‘ziga xos xususiyatlari majmuasi uni nafaqat yangi axborot texnologiyasi, balki yangi ijtimoiy-madaniy muhit va insonning o‘zini o‘zi amalga oshirish sohasi sifatida ham ko‘rib chiqishga imkon beradi. [3]

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, virtual olam o‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasi uchun muhim, yangi vosita sifatida ko‘plab imkoniyatlar yaratish bilan birgalikda ba’zi qiyinchiliklarni ham yuzaga keltiradi. Virtual olam yangiliklaridan foydalanish o‘qituvchilarga o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirokini oshirish imkoniyatini beradi. Virtual olam foydalanuvchilari ijtimoiy jarayonga moslashish va o‘sish imkoniyatiga ega, masalan, fan o‘qituvchi-lari interfaol doska yordamida o‘z sinflarida virtual olam imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin. Bu esa o‘quvchilarning dars jarayoniga qiziqishini oshirishi, o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha tasavvur qila olish imkoniyatining oshishi, tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ullanishi, fikrlarini erkin bayon qilishi uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boboqulov A.A., Mirzaliyev S.M. Zamonaviy jamiyatda virtual reallik muammosining falsafiy tahlili // “Yangi O‘zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari” konferenxiya materiallari. 2022-yil, aprel. -327-331 b.

2. Егорычева И.Д. Генезис самореализации как особого типа деятельности и роль подростко-вого возраста в ее развитии: автореф. дис. … д-ра психол. наук. М., 2012.

3. Крамаренко Н.С., Сомов Д.С. Виртуальный мир как новое пространство самоосуществления человека// Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология. 2013. –С. 42-48

4. Кушаков Ш.С. Фейковая модел дезинформасии как разновидност симулякора // “Yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalashning dolzarb masalalari. Talabalar ongida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materilalari. Samarqand, 2019. – S 19-21.

5. Ветров Ю.П., Печерская С.А., Сомов Д.С. Подготовка преподавателей к использованию ИКТ: актуальные проблемы // Высшее образование в России. 2007. № 8. С. 40-44.

6. Чудова Н.В. Особенности образа «Я» жителя Интернета // Психологический журнал. 2002. № 1.

## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI MATNLI MASALALAR YECHISHGA O‘RGATISH USULLARI.

**Qulmamatov Sindorqul Ibragimovich**,
Guliston davlat pedagogika institute dotsenti,
e-mail: sindorqulguldu@gmail.com
**Xamzaqulov Erjigit Abdubasharovich**,
Guliston davlat pedagogika institute o‘qituvchisi,
e-mail: xamzaquloverjigit25@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Matnli masalalar haqida batafsil ma'lumotlar bilan o‘qituvchilar va o‘qituvchilikka o‘qiyotganlar o‘z o‘qituv tavsiyalari va strategiyalarini kengaytirishi mumkin. Matematikani yanada qiziqarli va qiyinroq qila olish uchun Matnli masalalar ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda turli xil masalalarni qamrab oluvchi maxsus matematik adabiyotlar va qo‘llanmalar mavjud bo‘lib, ular o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun qulay manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, matematik, Matnli masalalar, matematik fikrlash, zamonaviy ta’lim, masofaviy o‘qitish, yechim, qo‘shish va ayirish.

Abstract: The article provides detailed information on textual issues that teachers and pre-service teachers can use to expand their instructional recommendations and strategies. Word problems are an integral part of the learning process to make math more interesting and challenging. Today, there are specialized mathematics books and manuals that cover a wide variety of topics and serve as a convenient resource for teachers and students.

Key words: educational process, mathematics, Text problems, mathematical thinking, modern education, distance learning, solution, addition and subtraction.

Matnli masalalar turli xil matematik masalalarning bir turi bo‘lib, ular odatda matematik tushunchalarni qo‘llab, muayyan vaziyatlar yoki hikoyalar asosida tuzilgan bo‘ladi. Ushbu turlari maktab dasturlarida tez-tez uchraydi va ulardan foydalanish ta'lim jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Quyida Matnli masalalar turlarining ayrimlari haqida batafsil ma'lumot beramiz.

**Qo‘shish va ayirishli Matnli masalalar** .Ushbu masalalar turida asosiy operatsiyalar qo‘shish va ayirish bo‘lib, o‘quvchilar oddiy hisoblash amallarini o‘rganadilar. Masalan, bir do‘konga 50 kg qand sotuvga qo‘yilgan va undan 20 kg sotilgan bo‘lsa, qancha qand qoldi?

**Ko‘paytirish va bo‘lishli Matnli masalalar**. Bu turdagi masalalarda ko‘paytirish va bo‘lish amallari qo‘llaniladi. Misol: Bir fermer o‘z dalasiga 5 qatorga 10 tup pomidor ekdi. U jami necha tup pomidor ekdi?

**Nisbiy va proporsional Matnli masalalar** .Ushbu masalalarning yechimi nisbiylik va proporsional lik qoidasiga asoslangan. Masalan, agar 3 qalam 6000 so‘m tursa, 5 qalam necha so‘m turadi?

**Aralash Matnli masalalar.**Bu masalalar bir nechta arifmetik va algebraik amallarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bir hisoblagich yonidagi savdo avtomatiga bir vaqtning o‘zida naqd va kartadan turli qiymatlar solinadi.

**Murakkab masalalar.** Murakkab masalalarning yechimi o‘quvchilardan yuqori darajadagi mantiqiy fikr va ko‘p qadamlik amallarini talab qiladi. Ushbu masalalar bir nechta bosqichlardan yoki shartlardan tashkil topgan bo‘lishi mumkin.

**Boshlang‘ich sinflarda Matnli masalalar**.Boshlang‘ich sinflarda Matnli masalalar, ya'ni so‘zli masalalar, o‘quvchilarning mantiqiy va matematik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu turdagi masalalarni yechish o‘quvchilarga real hayotda duch keladigan muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Quyida boshlang‘ich sinflarda Matnli masalalar bo‘yicha ba'zi asosiy ma'lumotlar taqdim etiladi.

Matnli masalalar qanday tarkibiy qismlarga ega? Odatda, Matnli masalalar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Shart: Masalaning muammosi va u bilan bog‘liq bo‘lgan ma'lumotlar. Savol: Masalaning yechimining nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yordamchi ma’lumotlar: Yechim uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma'lumotlar.

**Matnli masalalarning turlari:**

1. Qo‘shish va ayirish masalalari: Bolalar sonlarni qo‘shish va ayirish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Ko‘paytirish va bo‘lish masalalari: Bu masalalar bolalarga ko‘paytirish va bo‘lish amallarini amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi.

3. Solishtirish masalalari: O‘quvchilar sonlar orasidagi farqlarni yoki qiymatlarni solishtiradi.

4. Umumiylashtirish va tahlil etish masalalari: Murakkabroq masalalar bo‘lib, bir nechta amallarni talab qiladi va o‘quvchilarda tahlil qilish, umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

**Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini Matnli masalalarni yechishga o‘rgatish quyagi bir nchta pedagogic strategiyalar qo‘llaniladi:**

1. Vizual yordam: Rasm, diagrammalar yoki grafiklar orqali masalaning mazmunini yanada tushunarli qilish.

2. Guruhlarda ishlash: O‘quvchilarga masalalarni guruhlarda muhokama qilish va birgalikda yechim topish imkonini berish.

3. O‘yinlar va interaktiv ish usullari: Matematika va so‘zli masalalarning qiziqarli bo‘lishini ta’minlash uchun turli o‘yinlar yoki ilovalar qo‘llanilishi.

**Matnli masalalar yechishning bosqichlari:**

1. Masalani o‘qish va tushunish: Masalaning sharti va savolini to‘g‘ri tushunish muhim.
2. Reja tuzish: Masalani yechish uchun qanday amallar bajarilishi kerakligiga reja tuzish.
3. Amalni bajarish: Masalaga mos ravishda matematik amallarni bajarish.
4. Yechimni tekshirish: Masalaning yechimining to‘g‘riligini tekshirish va javobni yozish.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun asosiy qiyinchiliklar:**

1. Matnli masalalarni tushunishdagi qiyinchiliklar: Ba'zi o‘quvchilar uzun va murakkab jumlalarni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

2. Amalni tanlash: To‘g‘ri matematik amalni tanlash va uni bajarishda xatoliklar.

3. Diqqatni jamlash: Masala yechimida barcha kerakli ma'lumotlar va amallarni ko‘zdan qochirmaslik.

**Matnli masalalar yechimida Ota-onalar va o‘qituvchilarni roli:**

1. Barqaror o‘quv muhiti yaratish: O‘quvchilar o‘zlarining bilimlarini amalda qo‘llash uchun yaxshi o‘quv muhitiga muhtoj.

2. Bolalarni rag‘batlantirish: Bolalarni yakka tartibda yoki guruhlarda Matnli masalalar yechishga rag‘batlantirish.

3. Davomat va davomiy o‘rganish: Mashg‘ulotlarni muntazam ravishda olib borish va o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan masalalarni yechishga yordam berish.

Bu ma'lumotlar boshlang‘ich sinflarda Matnli masalalar mavzusida umumiy tushuncha va uslubiy asos yaratish uchun xizmat qiladi.

**Masalalar yechishdagi mantiqiy fikrlash.**Mantiqiy fikrlash inson tafakkurining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, masalalar va muammolarni samarali hal qilishda yordam beradi. Mantiqiy fikrlash jarayonida mantiqni o‘z ichiga olgan, salbiy va ijobiy tomonlarini e'tiborga olgan holda, biror masalani tahlil qilish va muammoli vaziyatdan chiqish yo‘llarini topish ko‘zda tutiladi.

Mantiqiy fikrlashning asosi matematik mantiq va formal mantiqdan kelib chiqadi. Matematik mantiq asosan matematika sohasida foydalaniladi, ammo uning tamoyillari kundalik hayotda ham ahamiyatlidir. Formal mantiq esa muayyan qoidalar asosida tuzilgan xulosalar chiqarishni o‘z ichiga oladi. Bu xususiyatlar turli masalalar yechimida qo‘llaniladi. Mantiqiy fikrlashning muhim bosqichlari quyidagilar:

**Masalani tushunish va aniqlash:** Bu bosqichda masalaning mohiyati va chegaralari aniqlanadi. Masalan, masalaning nima ekanligi, uning cheklovlari va maqsadi tushunib olinadi.

**Masalani tahlil qilish:**Bu bosqichda ma'lumotlarni to‘plash va ularni tahlil qilish amalga oshiriladi. Ma'lumotlar asosida mavjud holat, faktlar va berilgan shartlar aniqlanadi.

**Yechimni tanlash va tasdiqlash:** Barcha variantlar orasidan eng optimal yechim tanlanadi va uning to‘g‘ri ekanligi tekshiriladi. Agar mavjud yechim qoniqarli bo‘lmasa, muqobil variantlar ko‘rib chiqiladi.

**Natijani baholash va xulosa chiqarish:** Tanlangan yechim natijalari baholanadi va bundan kelib chiqadigan xulosalar chiqariladi. Bu jarayon muammoning mazmuni va unga erishilgan yechim asosida amalga oshiriladi. Mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi usullar qo‘llanilishi mumkin:

**Matematik va mantiqiy masalalarni yechish**: Matematik misollar va mantiqiy masalalar mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Misollar va masalalar orqali inson o‘z fikrini tizimli ravishda tashkil qilishga o‘rganadi.

**Shaxmat va boshqa strategik o‘yinlar o‘ynash**: Shaxmat kabi strategik o‘yinlar mantiqiy fikrlashni kuchaytirish va strategik qaror qabul qilish ko‘nikmasini oshiradi.

**Tanqidiy fikrlash mashqlari bajarish**: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mantiqiy tahlil qilish, dalillarni baholash hamda xulosalar chiqarish qobiliyatini oshiradi.

**Muammolarni amaliy yechishga yondashish**: Amaliyot orqali olingan tajriba mantiqiy fikrlashni mustahkamlashda muhimdir. Hayotdagi kundalik muammolarni tahlil qilib, ularga amaliy echim topish insonning mantiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

**Xulosa**: Xulosa qilib aytganda , Mantiqiy fikrlashning ahamiyati har xil sohalarda katta rol o‘ynaydi: ilm-fan, ta'lim, biznes va kundalik hayotda. Mantiqiy fikrlash yordamida inson mantiqan asoslangan qarorlar qabul qiladi, muammolarni tizimli yechadi va effektiv natijalarga erishadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orqali, har qanday masalani hal qilishda mantiqiy fikrlashning naqadar muhimligini tushunish mumkin. Mantiqiy fikrlash faqatgina matematik masalalarda emas, balki hayotiy qarorlarni qabul qilishda, muammolarni yechishda va yo‘nalishlarni aniqlashda ham katta ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. S.I.Qulmamatov. Iqtidorli o‘quvchilarni sonlar ustida tezkor hisoblashga o‘rgatish qoidalari. GulDU axborotnomasi jurnali, 2022 yil 3-son. 63-66 betlar.

2. Xamzaqulov, E. (2024). DERIVATIVE OF A MODULAR FUNCTION AND ITS ANALYSIS BY LEARNING METHOD. Modern Science and Research, 3(2), 943-946.

2. Xamzaqulov, E., & To’xtayeva, A. (2024). THE CONCEPT OF NUMERIC AND LETTER EXPRESSIONS IN PRIMARY GRADES. EXPRESSION WITH VARIABLE. Modern Science and Research, 3(2), 90-93

3. Raxmonov, J. T., Xamzaqulov, E. A., & qizi Xamzaqulova, S. S. (2023). BA’ZI ANIQMAS INTEGRALLARNI YECHISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA UNI TA’LIM METODI BILAN TAHLILI. Innovative Development in Educational Activities, 2(18), 87-91.

4. Xamzaqulov, E. (2024, May). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNING METODIK TAHLILI. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 2, pp. 22-26).
5. Xamzaqulov, E. (2024, May). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNING METODIK TAHLILI. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 2, pp. 22-26).
6. Abdubasharovich, X. E. (2024). MODULLI FUNKSIYANING HOSILASI VA UNI TA’LIM METODI BILAN TAHLILI.
7. Xamzaqulov, E. (2024, May). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNING METODIK TAHLILI. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 2, pp. 22-26).

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING HOZIRGI DAVRDA UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**A.N.Qudratov**
Guliston davlat universiteti "Axborot texnologiyalari"
kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: a.n.kudratov@mail.ru
Tel:+998975671163
**D.E.Abduraimov**
Guliston davlat universiteti "Axborot texnologiyalari"
kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: dostonbek.abduraimov@mail.ru
Tel:+998946723690
**J.J.Xojakulov**
14-23 gurux "Axborot tizimlari va texnologiyalari"
yo‘nalishi talabasi. Tel: +998337812004

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning umumiy o‘rta ta'lim tizimidagi o‘rni va uning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini qanday samarali tashkil etishga, o‘quvchilarning bilim olish qobiliyatini qanday yaxshilashga va o‘qitish metodikalarini qanday innovatsion usullar bilan boyitishga yordam berishini ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etishda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari haqida ham so‘z yuritiladi. Maqola umumiy o‘rta ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llashning zarurligi va uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli haqida keng ma'lumot beradi.

**Kalit so‘zlar:** Ta'lim sifati, raqamli texnologiyalar, umumiy o‘rta ta'lim, innovatsion usullar, ta'lim samaradorligi, o‘qitish metodikasi, ta'lim jarayoni, o‘quvchilarning bilim olish qobiliyati, raqamli resurslar.

**Abstract:** This article analyzes the role of digital technologies in the general secondary education system and its importance in improving the quality of education. It will be considered how digital technologies help to effectively organize the educational process, how to improve the ability of students to learn, and how to enrich teaching methods in innovative ways. It also talks about the problems that arise in the implementation of digital technologies and their solutions. The article provides extensive information about the need for successful use of digital technologies in the general secondary education system and its role in improving educational efficiency.

**Keywords:** quality of Education, digital technologies, general secondary education, innovative methods, educational effectiveness, teaching methodology, educational process, students ' ability to acquire knowledge, digital resources.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga kirib bormoqda va ular ta'lim tizimiga ham jiddiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Ta'lim tizimi o‘zgarib, yangi usullar,

metodikalar va pedagogik yondashuvlar joriy etilmoqda. Raqamli texnologiyalar ta'limda o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirishda, o‘qituvchilarga esa darslarni samarali va interfaol tarzda olib borishda muhim vositaga aylanmoqda. Xususan, umumiy o‘rta ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirishda, o‘quvchilarning bilim olishdagi qobiliyatini rivojlantirishda, shuningdek, o‘qitish samaradorligini yaxshilashda katta ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga nafaqat texnik vosita sifatida kirib kelgan, balki u ta'lim jarayonini yaxshilashda innovatsion imkoniyatlar yaratmoqda. Kompyuterlar, interaktiv ta'lim platformalari, mobil ilovalar va internetga asoslangan ta'lim tizimlari o‘quvchilarni turli xil bilimlarga o‘rgatishda yordam beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlashda ko‘plab raqamli resurslardan, masalan, elektron darsliklar, video darslar va interaktiv mashqlarni ishlatishlari mumkin.

Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayoni yanada individualizatsiya qilinishi mumkin. O‘quvchilarga o‘z qiziqishlari va bilim olish qobiliyatiga mos ravishda ta'lim berish, shuningdek, ularning o‘z-o‘zini o‘rganishiga imkon yaratish ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. O‘qituvchilar uchun esa, raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi va rivojlanishini tezda aniqlash imkoniyati mavjud. Bunday yondashuv ta'lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarning muvaffaqiyatini kuzatish va tahlil qilishga imkon beradi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishda o‘zining mustahkam o‘rniga ega. Kompyuterlar va interaktiv ta'lim resurslari orqali o‘quvchilar darslarni yanada faol o‘rganadilar, o‘qituvchilar esa ta'lim metodikalarini samarali tarzda o‘zgartirishlari mumkin. Masalan, o‘quvchilarga onlayn sinovlar va testlar o‘tkazish orqali ularning bilimini baholash va o‘quv jarayonini yaxshilash mumkin. Bunday interaktiv va innovatsion metodlar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim jarayonini yanada qiziqarli qilish mumkin. Mobil ilovalar, o‘yinlar va interaktiv platformalar yordamida o‘quvchilar o‘zlari uchun qulay va qiziqarli usullar bilan o‘rganadilar. Bu esa ularning ta'limga bo‘lgan qiziqishini va motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, raqamli resurslar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini kengaytirish imkoniyatini yaratadi, chunki ular o‘z vaqtida darsdan tashqari materiallarni o‘rganishlari mumkin.

Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etishda bir qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, barcha ta'lim muassasalarida yetarli miqdorda texnologik vositalar mavjud emas. Ba'zi hududlarda internet tarmog‘i, kompyuterlar va boshqa raqamli resurslarning mavjudligi cheklangan. Ikkinchidan, o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash bo‘yicha malakalari ham kam. O‘qituvchilarning ko‘pchiligi raqamli texnologiyalarni faqat oddiy vosita sifatida ishlatadi, ammo innovatsion usullarni qo‘llashga tayyor emaslar. Uchinchidan, o‘quvchilarda ham ba'zi hollarda raqamli resurslardan samarali foydalanish qobiliyati yetarli emas.

Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli joriy etish uchun bir qator choralar ko‘rish zarur. Avvalo, barcha ta'lim muassasalarida raqamli vositalarni ta'minlash va internetga kirish imkoniyatlarini yaxshilash kerak. Bundan tashqari, o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun doimiy ravishda malaka oshirish kurslari va treninglar o‘tkazish zarur. O‘quvchilarni raqamli resurslardan samarali foydalanish uchun turli xil dasturlar va kurslar yaratish ham muhimdir.

Raqamli texnologiyalar umumiy o‘rta ta'limda ta'lim sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Ular ta'lim jarayonini yanada interfaol va individualizatsiya qilish, o‘quvchilarning bilim olish qobiliyatini rivojlantirish va o‘qituvchilarga samarali o‘qitish metodikalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Biroq, raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli joriy etish uchun infrastruktura, malakali kadrlar va raqamli resurslarga bo‘lgan ehtiyojni to‘g‘ri tashkil etish zarur. Bu orqali ta'lim sifatini yanada oshirish va o‘quvchilarga samarali ta'lim berish mumkin bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qudratov, A. N., & Yusupov, A. X. (2021). O ‘QUV JARAYONIGA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO ‘LLASH. Science and Education, 2(1), 309-313.
2. Qudratov, A. (2023). PROBLEMS OF DEVELOPING STUDENTS'KNOWLEDGE. *Modern Science and Research*, *2*(4), 729-733.
3. Qudratov, A. (2023). AXBOROT XAVFSIZLIGI FANINI QIZIQTIRUVCHI VA IJODIY TOPSHIRIQLAR ASOSIDA TASHKIL QILISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 55-58.
4. Qudratov, A. (2023). AXBOROT XAVFSIZLIGI FANINI QIZIQTIRUVCHI VA IJODIY TOPSHIRIQLAR ASOSIDA TASHKIL QILISH. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, *1*(5), 55-58.
5. Jurayev, U., Qudratov, A., Bahodirov, M., & Rajabov, J. (2024). NEYRON TARMOG ‘IDA FAOLLASHTIRISH FUNKTSIYALARINING TAHLILI. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(2), 120-130.
6. Saidov, J. D., Qudratov, A. N., Islikov, S. X., Normatova, M. N., & Monasipova, R. F. (2023). Problems of Competency Approach in Developing Students' Creativity Qualities for Creating a Database. Journal of Higher Education Theory and Practice, 23(1)
7. Normamatova, N. (2024). FARZAND TARBIYASIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLAR. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(2), 100-102.
8. Normamatova, N. (2023). SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING CHILDBEARING. Modern Science and Research, 2(9), 452–454. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24264
9. Ziyadullaev, D., Mukhamedieva, D., Teshaboyev, M., Abdurakhimov, D., Bakhodirov, M., Ziyodullaeva, G., & Abduraimov, D. (2023). Application of the neuro-fuzzy approach to solving problems of soil phases evaluation. In BIO Web of Conferences (Vol. 67, p. 02009). EDP Sciences.
10. Seytov, A., Abdurakhmanov, O., Kakhkhorov, A., Karimov, D., & Abduraimov, D. (2024). Modeling of two-dimensional unsteady water of movement in open channels. In E3S Web of Conferences (Vol. 486, p. 01023). EDP Sciences.

## “TABIIY FANLAR”NI O‘QITISHDA INNOVATSION VA ELEKTRON TA’LIMIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**D.M. Elmuratova**,
GulDPI dotsenti, p.f.f.d(PhD)
**S.Sh.Karimova,**
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
e-mail: elmuratovadilrabo6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqqola hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash, an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarish, model asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-2-sinflarda “Tabiiy fanlar”ni o‘qitish jarayonidagi muhim vosita haqida so‘z boradi.

Abstract. This article focuses on the use of interactive methods and information technologies in the educational process. In traditional education, students are taught to acquire only ready-made knowledge, and the use of modern technologies improves their acquired knowledge. to search for, independently study and think, analyze, even draw the final conclusions by themselves, an important tool in the process of teaching "Natural Sciences" in the 1st-2nd grades of general secondary schools based on the model is talked about.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. Yuqorida tavsiya ətilgan model asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-2-sinflarda “Tabiiy fanlar”ni o‘qitish jaraënida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Model asosida “Tabiiy fanlar” mazmuni asosida o‘quvchilarning tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ma’lum ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich tizim asosida foydalanish imkoniyatini yaratadi (2.3-rasmga qarang).

O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, “Sinkveyn”, “BBB”, “Beshinchisi ortiqcha”, “6x6x6”, “Bahs-munozara”, “Rolli o‘yin”, FSMU, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Yumaloqlangan qor”, “Zigzag”, “Oxirgi so‘zni men aytay” kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

Dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ta’lim-tarbiya berish yo‘llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz.


Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim berishda, darslik va ko‘rgazma materiallar bilan bir qatorda elektron resurslar bilan ishlash o‘quvchiga ancha qulaylik tug‘diradi, ya’ni ularda o‘quvchilar faoliyatini yo‘naltiruvchi, tizimga soluvchi ko‘rsatmalar va topshiriqlar mavjud, asosiysi bajargan harakatini to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi haqida darhol ma’lumot oladi. Esda saqlab qolish maqsadida o‘qituvchi turli ma’lumotlarni o‘zlashtirish haqida o‘quvchilarga tavsiyalar beradi, xotirani rivojlantirishni doimiy nazorat qilib turadi, uni takomillashtirishga yordam beradi. Elektron darslik yoki qo‘llanma bilan ishlash o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Mazkur ishlarni o‘rganish va tadqiq qilish doirasida o‘quvchilarni tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda bevosita raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishga e’tibor qaratildi. Maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, 1-2-sinflar uchun elektron dasturiy platforma ishlab chiqildi. Undan foydalanish mexanizmi https://tabiiy.yoshavlod.uz/1-sinf-uchun/1-bob/ sayti kirish va uni bosqichma-bosqich faoliyatini bajarib borish nazarda tutiladi.



Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ko‘pgina predmetlari uchun multimedia vositalari yaratilgan bo‘lib, endilikda o‘quv jarayonini kompyuterlashgan muhitda tashkil etishga bo‘lgan e’tibor ancha rivojlandi. O‘rgatuvchi-dasturiy vositalar hozirgi kunda ko‘pgina fanlarni qamrab olmoqda.

Mazkur eletron dasturiy material boshlang‘ich sinflarning 1-va 2-sinflaridagi “Tabiiy fanlar” fani uchun tayyorlangan bo’lib, undagi tavsiya etilgan o’quv jarayoniga xizmat qiluvchi dasturiy materiallar o’quvchilarning fanni o’zlashtirishlari uchun asosiy yordamchi vositalardan biri bo’lib xizmat qiladi. Unda alohida holatda o’quvchilar uchun bir necha bloklarga bo’lingan vazifalar berilgan bo’lib, dars jarayonida, darsdan tashqari holatlarda ham bemalol foydalanish imkoniyati yaratiladi.




O‘ylaymizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas’uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi.

Elektron dasturiy vositalar mazmunida videomateriallar ham tayyorlangan bo‘lib, ular tabiat va inson bilan bog‘liq voqea hodisalarni bir necha videovositalar asosidagi ma’lumotlari ham ilova qilingan.

Bundan tashqari o‘quvchilarni kichik guruhlardagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida didaktik materiallar ham berilgan. Ular dars jarayonida o‘quvchilarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘quv fanlarini o‘zlashtirishlari uchun darslik va qo‘llanmalar bilan bir qatorda tavsiya etilgan va bevosita tayyorlangan mazkur elektron ta’limiy vositalar ularni fanga qiziqtirib qo‘ymasdan, ularni darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni mustaqil ishlash imkonini berishi bilan xarakterlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabieva M. Tabiatshunoslik: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. 5-nashr. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2016. – 128 B. 115-116 betlar.

2. Shirinov M.K. Interaktiv metodlarning tabiatshunoslik fanida qo‘llanilishi // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2013. – № 3. – B. 46-49.

3. Suyarov K.T. O‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari // Xalq ta’limi. - 2018. - № 6. – B.27-32.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILINI O ‘QITISHDA TURLI INNOVATSION VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**D.M.Elmuratova**
Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD
e-mail: elmuratovadilrabo6@gmail.com
**S.J. Qazaqova,**
Guliston davlat pedagogika instituti
magistratura 2-bosqich talabasi
e-mail: sarvinozqazaqova@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o‘quvchilarning yanada mazmunli bilim olishlariga xizmat qiladigan hamda o‘qituvchilar darslarini qiziqarli tashkil qilishga yordam beradigan interfaol metodlarning mazmuni va mohiyati va ularni boshlang‘ich ta’lim darslarida qo‘llash bosqichlari haqida so‘z borgan

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, metod, interfaol, interfaol metod, interfaol ta’lim, dars, tashkil etish, bosqich, usul, bumerang, alifbo metodiKalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, metod, interfaol, interfaol metod, interfaol ta’lim, dars, tashkil etish, bosqich, usul, ”Bank metodi”, “Scatter gories “o‘yini

**Аннотация.** В данной статье говорится о содержании и сущности интерактивных методов, которые служат учащимся для получения более содержательных знаний и помогают интересно организовать занятия учителей, и этапах их применения на уроках начального образования.

**Ключевые слова:** начальное образование, метод, интерактив, интерактивный метод, интерактивное обучение, урок, организация, этап, метод.

O‘zbekiston ta’lim islohatlarini amalga oshirish bo‘yicha butunlay yangicha g‘oyalar, yondashuvlar, tamoyillar va yo‘nalishlarga asoslangan bosqichga qadam qo‘ydi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili, matematika, o‘qish, tarbiya, tabiatshunoslik darslari o‘z mohiyati ,maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Shuningdek boshlang‘ich sinflarda har bir fan e’tibor qaratilib o‘tilishi lozim bo‘lgan fanlardir. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori ilm dargohlardan yaratiladi. Boshqacha qilib aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi, farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Demak, shunday ekan kelajagimiz yoshlariga beriladigan ta’lim sifatli, mazmunli va qiziqarli bo‘lishi kerak. Hozirgi kunda o‘quvchilarimiz bilimlarini yanada mukammal egallashlari uchun turli xil samarali 599 usullardan foydalanmoqda. Shulardan biri bu interfaol metodlar hisoblanadi. Mana shu ta’lim va tarbiya jarayonida esa shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, bilimlari, qobilyatlari o‘sadi. Darhaqiqat, ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoni unumdorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Yoshlarimizning yaxshi ta’lim olishlariga qaratilgan va darslarimizni qiziqarli tashkil qilishga undaydigan Respublikamizning ta’lim haqidagi qaror va qonunlari mavjud. Jahonda ta’lim muammosining dolzarbligi eng muhim masalalardan biri sanalib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida boshlang‘ich ta’lim taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat sifatida e’tirof etildi. AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Singapur, Finlandiya kabi davlatlarda o‘tkazilgan ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar va erishilgan natijalar mazkur ilmiy izlanish uchun o‘ziga xos metodologik asos vazifasini o‘taydi. Shuningdek, ta’lim sohasida erishilgan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, eng avvalo, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish jarayonlarini tashkil etishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi.Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish jarayoni bolaning til rivojiga, shuningdek, o‘qish, yozish va fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarur.

**METOD VA METODOLOGIYA.** Hozirgi kunda ta’lim metodlari takomillashishida asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullaridir.Zamonaviy innovatsion va pedagogik texnologiyalar bolalarda qiziqish va faollikni oshiradi, o‘qish jarayonini dinamik va rang-barang qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.Innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari:

- Aktiv o‘qitish metodlari.
- Proyekt metod: Bolalarni ma’lum mavzu bo‘yicha mustaqil tadqiqot olib borishga va natijalarni taqdim etishga undaydi.
- Muammoli o‘qitish: O‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

- Guruhdagi ishlar: Bolalarning bir-biri bilan hamkorlik qilish, fikr almashish va jamoada ishlash qobiliyatlarini shakllantiradi.
- Interaktiv o‘qitish texnologiyalari:
- Kompyuterlar va internetdan foydalanish: O‘quvchilarning ta’lim resurslariga kirish imkoniyatini kengaytiradi, ta’lim jarayonini dinamik va qiziqarli qiladi.
- Interaktiv doskalar: O‘qituvchining materialni taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradi, bolalarning qiziqishini oshiradi.
- Onlayn ta’lim platformalari: O‘quvchilarning o‘qish jarayoniga mustaqil va qulay tarzda qatnashish imkoniyatini yaratadi.
- Til o‘rganishning yangi uslublari:
- Oldingi bilimlarga asoslanib o‘qitish: Bolalarning avvalgi bilimlariga asoslanib, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi.
- Differensial o‘qitish: Har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, o‘quv materiallarini differensiyalash imkonini beradi.
- Amaliy mashqlar: O‘quvchilarning til bilimini amaliy tarzda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanishda samarali natijaga erishish uchun faqatgina bir xil metodlardan foydalanib qolmasdan yangidan-yangi metodlardan va zamonaviy texnalogiyalardan foydalanishimiz lozim. Interfaol metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini va dunyoqarashini shakllantiradi. O‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq va qiziqishlarini oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish va ularni amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Bilim olish va yaxshi tarbiya topish esa inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim darslarini o‘qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish ulardan tashkil etiladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarini tashkil etishida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikka erishishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar hal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir:

Boshlang‘ich ta’lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan shart sharoitlarni yaratish;

boshlang‘ich ta’lim darslari pedagog xodimlari o‘rtasida interfaol metodlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o‘quv seminarlarini tashkil etish;

ular tomonidan pedagogik texnologiya asoslarini puxta o‘zlashtirishga erishish; O‘qituvchi darslarni yanada samarali tashkil etish uchun ham bu haqidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Biz quyida maqolamizda berilgan masaladagi har bir tayanch tushunchalarga ta’rif berib o‘tamiz. **Interfaol** – ingliz tilida interact (rus tilida interaktiv) ifodalanib lug‘aviy nuqtai nazardan inter o‘zaro ikki taraflama act-harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma’nolarni anglatadi. Interfaol ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarini o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim. Metod (yunoncha metados – bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usulidir. Boshlang‘ich sinflarda samarali darslarni tashkil etish uchun bir qancha interfaol metodlarni ko‘rib chiqamiz. Bulardan: “Qarorlar shajarasi”,”Bank”,”Toj”,”Jonli kitob”,”Do‘stlik uyi”,”Soyabon”, ”Alifbo”,”Scatter gories”,”Yashirin konvert” kabi metodlardir. Ta’lim jarayonida bu metodlarni qo‘llash o‘quvchining muayyan nazariy bilimlarini puxta o‘zlashtirishga, vaqtning tejalishiga, har bir o‘quvchining faollikka undalishida, o‘quvchining erkin fikirlash layoqatini shakllanishiga, o‘quvchida o‘zgalarning fikrini tinglay olish ko‘nikmasining hosil bo‘lishiga, o‘quvchining o‘z fikrini himoya qila olishiga, o‘quvchida bildirilgan fikrlarni umumlashtira olish ko‘nikmasini shakllanishiga olib keladi.

**TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA**.Shunday qilib, ta’lim jarayonida interfaol usullarni qo‘llashda o‘qituvchi ta’lim jarayonining boshqaruvchi vazifasida bo‘lib, bunda boshqaruv maqsadi ta’limning obekti va subyekti sifatida o‘quvchiga yo‘naltiriladi. Boshlang‘ich ta’lim darslari o‘qituvchilarida pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish malakasini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish asosida erishiladi. 1.Boshlang‘ich ta’lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi yagona maqsadning qaror topganligi.

2. Boshlang‘ich ta’lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi harakatning izchil, maqsadga muvofiq, tizimli va uzluksiz amalga oshirilishi.

3.Boshlang‘ich ta’lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda mavjud shart sharoit hamda sub’ektiv yondashuvlarni inobatga olish.

4. Pedagogik mahorat va iqtidorlarni erkin namoyish etish, yangi tajribalarni ommalashtirish, nazariy va amaliy faoliyat birligidir.

**XULOSA**. Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida, darslarni interfaol metodlar asosida o‘tish uchun avvalo o‘qituvchi o‘sha darsga oid malumotlari ya’ni metodlari bo‘lishi kerak. Unda o‘qituvchi o‘tiladigan mavzuga mos o‘quvchilarga ham qiziqarli nutqini o‘stiradigan metodlar tayyorlashi kerak. Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga interfaol metodlarni qo‘llash matematika, ona tili, tabiiy fanlar va boshqa darslarida ham samarali natija bermoqda. Interfaol metodlar ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilarni nutqini o‘stirishda, erkin fikrlashga undaydi. Metodlarni qo‘llashda ham, o‘qituvchi e’tiborli bo‘lishi shart. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak. Shunday qilib, bugungi kundagi bu kabi masalalar hali xanuz davom etmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O„RQ-637-son. “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun.

2. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi”. Metodik qo‟llanma. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 108 bet.

3. Hayitov.A.I. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi”. “Zuhra Baraka Biznes” nashriyoti. T.: 2021. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 602

4. Yo‘dosheva D. Ashurboyeva D. “Ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnalogiyalar.”- T.: Turon Zamin Ziyo. 2018.

5. Hayitov, A. I., & Miltikboyeva, Z. (2022, May). Methods of organization of native language classes in primary classes on the basis of interactive methods. In E Conference Zone (pp. 11-13).

6. Abdushukurova. D, Hayitov, A. I. (2022). Effective ways to organize mother tongue lessons in primary classes on the basis of interactive techniques. Conferencea, 30-32.

7. Bakhtiyarovna, M. Z. (2021). Integrated teaching of primary education. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1332-1336.

8. Anvar, H. Integrated Approach to Improving Pedagogical Abilities of Future Primary Education Teachers. JournalNX, 197-201.

## MAKTAB MA’NAVIYAT SEKTORLARI FAOLIYATINING ARTPEDAGOGIK PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

**Sherzod Jumanov**
O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti
o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa(PhD) doktori.
jumanovsherzod452@gmail.com

**Annotatsiya:** maqolada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan “Besh muhim tashabbus”da belgilangan vazifalarni ro‘yobga chiqarishda umumta’lim maktablaridagi

ma’naviyat sektorlari tomonidan tashkil qilinishi lozim bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy, ijodiy ishlarning mazmuni, usul va shakllari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** madaniy faoliyat, ijodiy-madaniy ishlar bo‘yicha targ‘ibotchi, axloqiy tuyg‘u, badiiy ta’lim, badiiy to‘garaklar, shaxs, mahorat saboqlari, kitobxonlik, milliy badiiy qadriyatlar ruhi.

**Abstract:** the article discusses the content, methods and forms of spiritual-educational, creative work that should be organized by the spiritual sectors of secondary schools in the implementation of the tasks set forth in the "Five Important Initiatives" put forward by President Shavkat Mirziyoyev.

**Key words:** cultural activity, propagator of creative and cultural works, moral feeling, art education, art circles, person, skill lessons, reading, spirit of national artistic values.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri, bu ma’naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta’lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy uyg‘onish g‘oyasi asosida ma’naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga etkazishdir”, –degan fikrlari yoshlarni ijodiy, madaniy faoliyatga jalb etish yo‘nalishlarini belgilashda dasturiy ahamiyat kasb etadi.

Besh muhim tashabbusining amalga oshirilishida maktablar ma’naviyat sektorlarining roli katta. Zero besh tashabbus mazmunida madaniyat va san’atga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki badiiy to‘garaklar mashg‘ulotlarining yoshlar tarbiyasida shaxs qalbi, axloqiy tuyg‘ularini tarbiyalashda boy psixologik imkoniyatlarga ega. Zero "San’at inson ruhiyatining eng xilma-xil tomonlarini - nafaqat tasavvur va hissiyotni, o‘z-o‘zidan ravshan ko‘rinadigan holatlarni, balki fikr va irodani ham qamrab oladi. Demak, bu ongni va o‘zlikni anglashni rivojlantirishda, axloqiy tuyg‘ularni tarbiyalashda va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun badiiy ta’lim shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlanishni rag‘batlantirish vositalaridan biridir". Buni R.M.Chumicheva o‘tkazgan tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Yuqoridagi ilmiy asoslardan kelib chiqib, maktablar ma’naviyat sektorlari o‘z faoliyatini bir necha yo‘nalishlarda tashkil etadi. Jumladan, targ‘ibotchi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o‘rganadi va sinf o‘quvchilaridan turli yo‘nalishlardagi ya’ni, she’rxonlik, kitobxonlik, milliy o‘yinlar, san’atning turli janrlari, jumladan, aktyorlik, musiqa san’ati, ashula va raqs san’ati, sahna madaniyati kabi ijodiy jamoalarni tashkil qilishi mumkin. Shu bilan birga, targ‘ibotchi sinfdan tashqarida olib borilayotgan ishlarga rahbarlik qiladi. Bunda maktabda ijodkorlar, san’atkorlar, she’rxonlik, kitobxonlik kabi to‘garaklarni tashkil qiladi. Shuningdek, maktabda o‘tkaziladigan ijodiy-madaniy tadbirlar o‘tkazilishini nazorat qiladi, shuningdek, o‘quvchilarni ijod maktablariga, teatrlarga, tarixiy joylarga, muzeylarga borishini tashkil qiladi.

Maktab ma’naviyat sektori tadbirlarni tashkil qilish jarayonida avvalo tadbirning maqsad va vazifalarini belgilab olishi kerak. Tadbirlarni tashkil qilish jarayonida axborot va kompyuter texnologiyalaridan yuqori saviyada foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish barobarida o‘zi shu sohani ham mukammmal egallashi lozim. Targ‘ibotchi tadbirlarda axborotning turli xil ko‘rinishlari: matn, rangli grafika, mavzuga xos ovozli va har xil musiqalardan, animatsion jarayonlar va shuningdek, qisqa metrajli filmlardan keng foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, maxsus dasturiy ta’minot, rasmlar, audio, video ma’lumotlardan foydalanish orqali tadbirning yanada samarali bo‘lishiga erishiladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli iqtisodiyotga o‘tish keng joriy etib borilmoqda. Dunyoda kechayotgan pandemiya sharoitida onlayn tarzda tashkil etilgan darslar yoshlarni raqamli iqtisodiyotni mukammal egallashiga keng yo‘l ochgan bo‘lsa, bu holatlar ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarda ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Maktablararo o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ijodiy-madaniy ishlar va shu kabi tanlovlarni tashkil qilib borilishi ham uzoq masofalarni yaqinlashtiradi. Targ‘ibotchi onlayn tarzda o‘tkaziladigan tadbirlardan ham samarali foydalansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Maktab ma’naviyat sektorining yana bir muhim faoliyat turi bu – uning ijodiy to‘garaklar tashkil etib, reja asosida mahorat saboqlarini olib borishidir. Chunki mahorat darslariga malakali

An'anaviy o‘yin qoidalarini o‘zgartirish ko‘proq jismoniy yoki kognitiv muammolarni qo‘shishi mumkin, masalan, bo‘sh joyni cheklash yoki harakatlar orasidagi javob vaqtini qisqartirish, o‘quvchilarni tezroq reaksiyaga kirishga undash.Talabalarning tezkorlik va muvofiqlashtirish qobiliyatlariga ishonchini mustahkamlash uchun ijobiy fikr bildiring va rag‘batlantiring. Yaxshilanishni kuzatish uchun teglarni hisoblash yoki vaqtli sprintlar kabi oddiy o‘lchovlardan foydalaning.Tezlik mashqlari va harakatli o‘yinlar barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun haftada ikki-uch marta o‘quv rejasining izchil qismi bo‘lishi kerak. Har bir mashg‘ulot 10-15 daqiqalik maqsadli tezkor o‘yinlarni o‘z ichiga olishi kerak, bunda vaqt mahoratni oshirish mashqlari va sovitish mashg‘ulotlariga ajratilgan.

Jismoniy va ijtimoiy rivojlanish uchun harakatli o‘yinlarning foydalari. Harakatli o‘yinlarning afzalliklari jismoniy rivojlanishdan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ham ijtimoiy, ham hissiy o‘sishiga ijobiy hissa qo‘shadi:

Talabalar o‘zlarining tezkorligi va muvofiqlashtirishlari yaxshilanganini ko‘rganlarida, ular o‘zlarining jismoniy qobiliyatlariga ishonch hosil qiladilar, bu esa o‘z-o‘zini hurmat qilish va jismoniy faoliyatga ijobiy munosabatda bo‘lishga olib kelishi mumkin. Ko‘p harakatli o‘yinlar jamoaviy ish va muloqotni o‘z ichiga oladi, talabalarga do‘stlik o‘rnatishga, hamkorlikni mashq qilishga va adolatli o‘yin tuyg‘usini rivojlantirishga yordam beradi.Yoshligida qiziqarli mashg‘ulotlarni joriy etish, o‘quvchining turmush tarzi va sog‘lig‘iga doimiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan harakat va jismoniy tayyorgarlikka bo‘lgan muhabbatni kuchaytiradi.

Baholash usullari sodda, qiziqarli va boshlang‘ich yosh guruhiga mos bo‘lishi kerak. Reaktsiya vaqtlarini yoki qisqa sprintlarni kuzatish tezlik va chaqqonlikning yaxshilanishini aniqlashga yordam beradi.

Teglar soni va ballar hisobi: Talabalarning teglardan qanchalik qochishlarini yoki boshqalarni belgilashlarini hisoblash reaktsiya vaqtlari va chaqqonlik haqida tushuncha beradi.

O‘z-o‘zini baholash va fikr-mulohazalar: Talabalarni o‘z faoliyati haqida mulohaza yuritishga va ularning yaxshilanishini his qilishga undash rag‘batlantiruvchi bo‘lishi mumkin va o‘qituvchilarga o‘quvchilarning yutuqlari bo‘yicha qarashlarini tushunishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga harakatli o‘yinlarni kiritish ularning tezkorligi, epchilligi va reaksiya vaqtini oshirishning tasdiqlangan usuli hisoblanadi. Ushbu o‘yinlarning interaktiv, qiziqarli tabiati o‘quvchilarni rag‘batlantiradi, jismoniy va kognitiv qobiliyatlarga bo‘lgan turli talablar har tomonlama rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Harakatli o‘yinlardan muntazam foydalanish orqali o‘qituvchilar jismoniy faoliyatga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otishi va yosh o‘quvchilarning hayoti davomida foydali bo‘lgan asosiy vosita ko‘nikmalarini shakllantirishlari mumkin. Shunday qilib, harakatli o‘yinlar kelajakdagi sport mashg‘ulotlari va umr bo‘yi fitnes uchun zamin yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

**Adabiyot va manbalar ro‘yxati.**

1. T.Usmanxo‘jayev, A.Po‘latov, S.Tajibayev, F.Pulatov “Sport va harakatli o‘yinlar”. Darslik. Cho‘lpon. Toshkent-2018.

2. Raximqulov K.D. “Milliy harakatli o‘yinlari” O‘quv qo‘llanma. -T.:2012 y.

3. Usmonxo‘jaev T, Tolipjonov A, Meliev H, Xotamov N “500 harakatli o‘yinlar” uslubiy qo‘llanma. Yangi asr avlodi nashriyoti. -T.: 2014 y.
4. T.S.Usmonxujayev, F.Xo‘jayev «1001 o‘yin». -T.: «O‘qituvchi» 1990 y.

## BOSHLANG‘ICH SINFDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK-YONDASHUVLAR

**Kurbanova Dilrabo Xaitbayevna**
Guliston davlat pedagogika instituti
stajor-o‘qituvchisi
dilrabokurbonova54@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinfda tarbiya fanini o‘qitishning nazariy asoslari, pedagogik-metodik yondashuvlar va ularning samaradorligini baholash masalalari yoritib berilgan. Boshlang‘ich sinfda tarbiya fanini o‘qitishda pedagogik-metodik yondashuvlarni samarali qo‘llash o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.Maqolada o‘qitish jarayonini sifatli tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishlarini va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirish, pedagogik-metodik yondashuvlarning samaradorligini muntazam baholash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamiyatga munosib a’zo bo‘lishga tayyorlash mumkinligi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, tarbiya fanining mohiyati va ahamiyati,o‘qitish metodlari,tadqiqot natijalarining umumlashtirilishi.

Abstract: The theoretical foundations of education in primary school, pedagogical-methodical approaches and issues of evaluating their effectiveness are explained in the article. The effective use of pedagogical-methodical approaches in teaching the science of education in the primary school makes a great contribution to the personal development of students. it is reflected that it is possible to prepare elementary school students to become worthy members of society through regular evaluation of their effectiveness.

Key words: education, the essence and importance of the science of education, teaching methods, generalization of research results.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy rivojlanishida tarbiya fanining o‘rni beqiyosdir. Ularning axloqiy, huquqiy, estetik va jismoniy tarbiyalanishiga katta hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan, ularning qiziqishlarini va ijodiy salohiyatlarini rivojlantiradigan pedagogik-metodik yondashuvlarga talab ortib bormoqda. Shuning uchun, boshlang‘ich sinfda tarbiya fanini o‘qitishda pedagogik-metodik yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish juda muhimdir.

Tarbiya fanining mohiyati o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, ularning axloqiy, huquqiy, estetik va jismoniy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. U o‘quvchilarga jamiyatda to‘g‘ri xulq-atvor qoidalarini o‘rgatish, ularning vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik va boshqa ijobiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiya fanini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarni axloqiy, huquqiy, estetik va jismoniy jihatdan shakllantirish, ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashdir. Bu jarayon o‘quvchilarni jamiyatda munosib hayot kechirishga, o‘zlarini va atrof-muhitni hurmat qilishga, o‘z huquqlari va majburiyatlarini bilishga, estetik qadriyatlarni anglashga va sog‘lom turmush tarzini olib borishga tayyorlashni o‘z ichiga oladi.

Tarbiya fanini o‘qitishning vazifalari quyidagilar:

**Axloqiy tarbiya**: O‘quvchilarga axloqiy qoidalarni o‘rgatish, ularning halollik, adolatlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik, o‘zaro hurmat va boshqa ijobiy fazilatlarini shakllantirish.

**Huquqiy tarbiya:** O‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning o‘z huquqlari va majburiyatlarini bilishini, qonunlarga bo‘ysunishini, huquqiy mas'uliyatni anglashini ta'minlash.

**Estetik tarbiya:** O‘quvchilarning estetik didini rivojlantirish, ularning go‘zallikni anglashini, san'at asarlarini tushunishini, o‘zlarini va atrof-muhitni go‘zallik bilan bezashga intilishini ta'minlash.

**Jismoniy tarbiya:** O‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash, ularning sog‘lom turmush tarzini olib borishini, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishini, o‘z tanasini va salomatligini himoya qilishini ta'minlash.

**Vatanparvarlik tarbiyasi:** O‘quvchilarning vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, ularning o‘z vataniga bo‘lgan muhabbatini, tarixini, madaniyatini, tabiatini hurmat qilishini, vatan himoyasi uchun tayyor turishini ta'minlash.

Pedagogik-metodik yondashuvlar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini jonlantirishda muhim ahamiyatga ega.Ular o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning qiziqishlarini va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu yondashuvlardan to‘rt asosiy turi: **o‘yinli o‘qitish, muammoli o‘qitish, loyihaviy o‘qitish va interfaol o‘qitish** o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalarni oshirishga yordam beradi. Har bir yondashuvning o‘ziga xos afzalliklari mavjud.

**1. O‘yinli o‘qitish.** O‘yinli o‘qitish jarayonida bolalar o‘yin orqali bilim olishadi, bu esa o‘rganishni qiziqarli va qulay qiladi. O‘yinlar o‘quvchilarni o‘rganishga rag‘batlantiradi va darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.O‘yinlar orqali o‘quvchilar ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.Ushbu metod orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Tarbiya darslarida o‘yinli o‘qitish usuli o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni faol ishtirok etishga undashda samarali hisoblanadi.O‘yinli o‘qitish, o‘quv jarayonini jonlantirish bilan birga, bolalarga o‘rganish jarayonida ko‘proq quvonch keltiradi. Ushbu usulda o‘qituvchilar o‘quvchilarga bilim berishdan tashqari, ularni axloqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarga ham o‘rgatadilar. Tarbiya darslarida o‘yinli o‘qitish usuli o‘quvchilarni bilim olish jarayonida faol ishtirok etishga, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga va motivatsiyalarini oshirishga yordam beradi. Ushbu usul, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bolalar uchun o‘rganishni quvnoq va foydali qiladi. O‘qituvchilar o‘z darslarida ushbu usulni keng qo‘llashlari kerak, chunki bu o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.O‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish, ularning faol ishtirokini ta'minlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. O‘yinlar o‘quvchilarga o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi.O‘yin texnologiyasi o‘quv jarayonining ma’lum qismini qamrab oladigan yaxlit ta’lim sifatida tashkil etiladi. O‘yin texnologiyalari dars davomida o‘quvchilarni qiziqtirish, rivojlantirish, raqobat muhitini yuzaga keltirish uchun foydalaniladigan usullardir. O‘yinda o‘quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladilar.

**2. Muammoli o‘qitish.** Muammoli o‘qitish usuli o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilar real hayotdagi muammolarni tahlil qilishga va ularga yechim izlashga undaladi.

Ushbu yondashuv o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, shuningdek, o‘zaro muloqot qilishga rag‘batlantiradi.Muammoli vaziyatlar o‘quvchilarni yangicha fikr qilishga va ijodkorlikni oshirishga yordam beradi.Muammoli o‘qitish — bu o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik usul bo‘lib, unda ta'lim jarayoni muammo yoki vaziyat atrofida tashkil etiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarga muammolarni hal qilish, tahlil qilish va qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.

Muammoli darsning bosh maqsadi – o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to‘liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo‘llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

**3. Loyiha asosida o‘qitish.** Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarga amaliy ko‘nikmalarni egallash, o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash va yangi g‘oyalar ishlab chiqish imkonini beradi.O‘quvchilar o‘zlari tanlagan mavzular bo‘yicha mustaqil ish olib borishadi, bu esa ularning

ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.Guruhli ish orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini oshiradilar, bu ijtimoiy ko‘nikmalarni kuchaytiradi.O‘quvchilar loyihalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va natijalarini taqdim etish jarayonida o‘z bilim va ko‘nikmalarini qo‘llaydilar.

**4. Interfaol o‘qitish.** Interfaol o‘qitish o‘quvchilarning darsda faol ishtirok etishini ta’minlaydi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi,Shunda ta’lim jarayoni qiziqarli bo‘ladi.O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, o‘rganilgan materialni muhokama qilish va o‘zaro baham ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol o‘qitish metodlari o‘quvchilarga muloqot qilish, fikr almashish, o‘zaro yordam berish imkonini beradi.Interfaol metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlash , deb yuritiladi.Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga katta yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati,o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.Mashg‘ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur va shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to‘g‘ri tanlash, tayyorlash hamda mashg‘ulot o‘tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo‘lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an’anaviy ta’lim usullari orasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, har bir o‘qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o‘tkazish usullarini tanlashda to‘g‘ri hisobga olishi kerak.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilardir:

1. **Interfaol metodlar**: “Muammoli ta’lim”, “Keys-stadi”, “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish” va boshqalar.

2. **Interfaol ta’lim strategiyalari**: “Aqliy hujum”,“Bumerang”,“Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”,“Yumaloqlangan qor”.

**3. Interfaol grafik organayzerlar**: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster” va boshqa ko‘plab misollarni keltirishimiz mumkin. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg‘ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko‘rinishda ifodalanishiga asoslaniladi.

Ushbu yondashuv, ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro muloqot va hamkorlikni kuchaytiradi.

O‘qitishda o‘yinli, muammoli, loyihaviy va interfaol yondashuvlar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu yondashuvlar yordamida tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilar faol ishtirok etishga undaladi, bu esa ularning bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishiga va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik-metodik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishi va qo‘llanilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyasi va ta'limida muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar o‘z darslarida ushbu metodlarni integratsiyalash orqali nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarni hayotga tayyorlash va ularning shaxsiy rivojlanishiga ko‘mak berishi lozim. Kelajakda ushbu yondashuvlarni amaliyotda yanada takomillashtirish va rivojlantirish ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.To‘xtaev, A.Xolmuhamedov. “Pedagogika”. -T.: O‘qituvchi nashriyoti, 2017

2. U.Umarov, A.Axmedov. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”. -T.: Fan va texnologiya nashriyoti -2019.

3. G.A.Jalolov, N.O‘.Sodiqov. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. -T.: Noshir nashriyoti. -2020.

4. N.Norboyeva. “Ta’limda metodik yondashuvlar”. - T.: Innovatsiya nashriyoti, 2021.

5. M.Toshbekova. “Tarbiya darslarida faol va interfaol o‘qish uslublaridan samarali foydalanish”mavzusidan ma’ruza matni. - T., 2022.

## O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

**Kurbanova Dilrabo Xaitbayevna**
Guliston davlat pedagogika instituti
stajor-o‘qituvchisi
dilrabokurbonova54@gmail.com
**Sevinch Baxromova Rustam qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 37-23-guruh talabasi
sevinchbaxromova0601@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqola doirasida pedagogik texnologiyalarning ta’rifi va turlari, jumladan, interfaol usullar va texnologik vositalar haqida ma’lumot beriladi. Interfaol darslar, guruh ishlari va online platformalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini qanday rivojlantirishiga misol sifatida keltiriladi.O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini baholash usullari, jumladan, testlar, loyihalar va ijodiy ishlanmalar muhokama qilinadi.Maqola ta’lim sohasida innovatsiyalarni joriy etish va o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Mustaqil fikrlash,pedagogik texnologiyalar,o‘quvchilarning qobiliyatlari,ta'lim jarayoni,interfaol metodlar ,tanqidiy fikrlash ,multimedia vositalari,o‘yin asosidagi o‘qitish,rolli o‘yinlar,individualizatsiya, o‘z-o‘zini baholash,motivatsiya,ijtimoiy ko‘nikmalar.

Abstract: This article examines the importance of pedagogical technologies in the development of independent thinking skills of students. The article provides information on the definition and types of pedagogical technologies, including interactive methods and technological tools. Interactive lessons, group work, and the use of online platforms are examples of how students can develop independent thinking skills. Methods of assessing students' independent thinking skills, including tests, projects, and creative work, are discussed. and includes practical recommendations aimed at increasing the creative potential of students.

Key words: Independent thinking, pedagogical technologies, students' abilities, educational process, interactive methods, critical thinking, multimedia tools, game-based teaching, role-playing games, individualization, self- self-esteem, motivation, social skills.

Mustaqil fikrlash – o‘quvchilarning o‘z fikrlarini yaratish, muammolarni tahlil qilish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir. XXI asrda bu qobiliyatlar talab qilinadi, chunki zamonaviy dunyo tez o‘zgaradi va o‘quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatlari muhimdir.Ushbu qobiliyat nafaqat ta’lim jarayonida, balki hayotning barcha sohalarida ham muhimdir. Mustaqil fikrlash o‘quvchilarga murakkab muammolarni aniqlash va ularga yechim topish imkoniyatini beradi. Bunday qobiliyatlar o‘quvchilarni nafaqat maktabda, balki kelajakda professional hayotlarida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.O‘quvchilar turli fikrlarni baholash va o‘zlarining pozitsiyalarini shakllantirishga o‘rganadilar. Tanqidiy fikrlash esa har qanday ma’lumotni chuqur tahlil qilish va o‘z qarorlarini asoslash qobiliyatidir.O‘quvchilar o‘z-o‘zini baholash va o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini topadilar, shuningdek, o‘z maqsadlarini aniqlab, ularga erishish uchun strategiyalar ishlab chiqishga o‘rganadilar. Mustaqil fikrlash innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish va yaratuvchanlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi, bu esa zamonaviy dunyoda raqobatbardosh bo‘lish uchun muhimdir.O‘quvchilar o‘z fikrlarini ifoda etish va boshqalar bilan baham ko‘rish jarayonida ijtimoiy va emotsional qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bu ularning muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi

va mustaqil, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi.Natijada, mustaqil fikrlash ta’lim jarayonida asosiy o‘rin tutadi va o‘quvchilarni faol, ijodkor va mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Bunday qobiliyatlarni rivojlantirish uchun pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash zarur.

**Pedagogik texnologiyalar.** Pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim jarayonini samarali boshqarish va o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan uslublar va vositalardir. Ular o‘qituvchilarga o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini optimallashtirishda yordam beradi va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Quyida pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni keltirilgan.

1. **Interfaol o‘qitish metodlari.**Interfaol darslar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.Darslar davomida o‘quvchilarni turli mavzular bo‘yicha munozaralarga jalb qilish. O‘qituvchi muammoni taqdim etadi, o‘quvchilar esa o‘z fikrlarini bildirishadi. Bu usul tanqidiy fikrlash va o‘z fikrlarini ifoda etish qobiliyatlarini oshiradi.O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lish va ularga loyihalar, tadqiqotlar yoki taqdimotlar tayyorlashni topshirish. Guruh ishlarida har bir o‘quvchi o‘z rolini bajaradi, bu esa hamkorlik qobiliyatini oshiradi va jamoa bilan ishlashni o‘rgatadi.

Interfaol metodlar o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan usullar bo‘lib, quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi:

**Munozara.** O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari va bir-birlari bilan fikr almashishlari uchun munozaralar tashkil etish. Bu ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

**Guruh ishlari.** O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘lib, birgalikda muammo yechish, loyihalar yaratish va g‘oyalarni muhokama qilish imkoniyatini olishadi. Bu, hamkorlik va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

**Rolli o‘yinlar.**O‘quvchilar muayyan rollarni bajarish orqali real hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qiladilar. Bu usul empatiya va tushunishni oshiradi.

2. **Multimedia va interaktiv vositalar.** Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish o‘quvchilarni jalb qilish va bilimlarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi.O‘qituvchilar darslar davomida taqdimotlar va videolarni qo‘llash orqali mavzuni yanada qiziqarli va tushunarli qilishlari mumkin. Bu usul vizual materiallar yordamida murakkab g‘oyalarni osonroq tushunishga yordam beradi. Ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun online platformalardan (masalan, Google Classroom yoki Moodle) foydalanish. Bu platformalar orqali o‘qituvchilar topshiriqlar berish, natijalarni baholash va o‘quvchilar bilan doimiy aloqada bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi:

**Taqdimotlar.** PowerPoint yoki boshqa taqdimot dasturlari orqali vizual materiallar tayyorlash. Bu o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi va mavzuni yanada tushunarli qiladi.

**Video materiallar.** Ta’lim dasturlari, hujjatli filmlar yoki animatsiyalar yordamida mavzularni jonlantirish. Video materiallar ko‘pincha murakkab g‘oyalarni oson tushunishga yordam beradi.

3. **O‘yin asosidagi o‘qitish**. O‘yinlar ta’lim jarayonini qiziqarli qilish va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda samarali vositadir.O‘quvchilar ma’lum vazifalarni bajarish orqali ta’lim oladilar. Masalan, o‘qish savodxonligi darsida o‘quvchilar muayyan davrni simulyatsiya qilish orqali o‘sha davr haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishlari mumkin. Bu jarayon ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.Ta’limga oid interaktiv o‘yinlar orqali o‘quvchilar ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Masalan, matematik o‘yinlar yordamida hisoblash ko‘nikmalarini mustahkamlash.

O‘yinlar orqali o‘qitish – o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va bilimlarni o‘zlashtirishni osonlashtirishning samarali usuli. Bu usul o‘yin elementlarini o‘qitish jarayoniga kiritishni o‘z ichiga oladi:

**Kvestlar.** O‘quvchilar ma’lum vazifalarni bajarish orqali yangi bilimlarni egallaydilar.

**Simulyatsiya o‘yinlari.** O‘quvchilar turli vaziyatlarda qarorlar qabul qilishadi, bu esa mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

**4. Individualizatsiya va differensiyatsiya.** Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari, ehtiyojlari va o‘rganish usullari bor. Pedagogik texnologiyalar orqali ta’limni individualizatsiya qilish imkoniyatlari:

**Individual topshiriqlar.** O‘quvchilarning qobiliyatiga mos keladigan muammolarni berish.

**Turli darajadagi materiallar.** O‘quvchilarga moslashtirilgan resurslar va materiallar taqdim etish, bu esa har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular ta’lim jarayonini qiziqarli, interfaol va individual tarzda tashkil etishga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlariga va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

**O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini baholash.** Bu jarayon nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, balki ularning tahlil qilish, baholash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Quyida mustaqil fikrlash qobiliyatlarini baholash usullari va metodologiyalari keltirib o‘tamiz:

**1. Testlar va anketalar.** Testlar va anketalar — o‘quvchilarning bilimini baholashda keng qo‘llaniladigan usullar.

**Qisqa savollar va testlar**. O‘quvchilardan ma’lum bir mavzu bo‘yicha savollarga javob berish talab etiladi. Bu usul bilim darajasini tezda baholash imkonini beradi. Qisqa savollar o‘quvchilarni o‘z bilimlarini tahlil qilishga undaydi.

**Anketalar**. O‘quvchilarning fikrlarini va munosabatlarini o‘rganish uchun anketalar tuzish. Bu usul o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifoda etish imkoniyatini yaratadi.

**2. Ijodiy ishlar.** Ijodiy ishlanmalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini baholashda samarali vosita hisoblanadi.

**Loyihalar**. O‘quvchilarga berilgan mavzu asosida loyihalar tayyorlashni topshirish. Bu jarayonda o‘quvchilar muammolarni aniqlash, tadqiqot o‘tkazish va yechimlar ishlab chiqishlari kerak. Loyihalarning natijalari ularning ijodiy fikrlashini ko‘rsatadi.

**Ijodiy yozuvlar**. O‘quvchilarga erkin mavzular bo‘yicha insho yoki esselar yozish. Bu usul ularning fikrlarini tartibga solish va ifoda etish qobiliyatlarini baholashga yordam beradi.

**3. Guruh muhokamalari.** Guruh muhokamalari o‘quvchilarning fikr almashish va muloqot qilish qobiliyatlarini baholashda muhim rol o‘ynaydi.

**Guruh taqdimotlari**. O‘quvchilarga guruh bo‘lib tayyorlangan taqdimotlar orqali o‘z g‘oyalarini taqdim etish. Bu jarayonda ular bir-birlarini tinglaydi va fikrlarini baham ko‘rishadi. O‘quvchilarning o‘zaro muloqoti va fikr almashishi mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

**Munozaralar**. O‘quvchilarga muayyan mavzu bo‘yicha munozara o‘tkazishni taklif qilish. Bu jarayonda ularning fikrlarini mustaqil ifoda etishlari va boshqalar bilan bahs qilishlari talab etiladi.

**4. Individual baholash.** O‘quvchilarni individual baholash usullari ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini aniqlashda qo‘llaniladi.

**Refleksiya**. O‘quvchilardan dars davomida o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini yozib olishlarini so‘rash. Bu, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyatini baholash imkonini beradi.

**Individual intervyu**. O‘quvchilar bilan individual suhbatlar o‘tkazish. Bu usul ularning fikrlarini chuqurroq tushunishga va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi.

O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini baholash ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Turli baholash usullari yordamida O‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini yaratish mumkin. Bu jarayon, o‘z navbatida, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlariga va mustaqil fikrlashlarini kuchaytirishga yordam beradi.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z fikrlarini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirish, ularni ijodiy va tanqidiy fikrlashga rag‘batlantirish, ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.Natijada, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish

va baholash jarayonlari, ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli va raqobatbardosh shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xolmatov A. "Ta’lim metodologiyasi: nazariy asoslar va amaliyot". -T., Ta’lim va Innovatsiyalar nashriyoti, 2018-yil.

2. Qodirov S. "Pedagogik texnologiyalar: nazariy va amaliy yondashuvlar". -T., O‘zbekiston Ta’lim Akademiyasi, 2019-yil.

3. Raxmonov A. "Interfaol o‘qitish usullari: ta’lim jarayonida innovatsiyalar". -T., Fan va Ta’lim nashriyoti, 2020-yil.

4. Abdullayeva N. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar: nazariy va amaliy jihatlar".Oliy Ta’lim Vazirligi, 2021-yil.

5. Sattorov M. "O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini baholash: metodologik yondashuvlar".Ta’lim va Ilm nashriyoti, 2022-yil.

## BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOGIKASINING JAMIYATDAGI O‘RNI

**Shoymatova Gulnoza**
Guliston davlat pedagogika instituti stajyor -o‘qituvchisi
shoymatovagulnoza3@gmail.com
**Cho‘lliyeva Afzuna**
Guliston davlat pedagogika instituti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
afzunacholliyeva@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limning mohiyati va mazmuni, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining o‘qitilishi va undagi muammolar, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining jamiyat hayotiga ta’siri bayon qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, pedagogika, innovatsiya, integratsiya, dars, inklyuziv ta’lim, metod.

**Abstract.** This article describes the nature and content of primary education, the teaching of primary education pedagogy anot its problems and its impact on the life of society.

**Keywords:** elementary school, pedagogy, innovatsion, integration, lesson, inclusive education, method.

Ta’lim va tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Undan keyin esa maktabgacha va maktab ta’lim tashkilotlarida davom ettiriladi. Xalqimiz orasida ham yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir deb ta’-kidlanadi. Bunday bilimni esa boshlang‘ich sinfdayoq berish maqsadga muvofiqdir. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda bilimning shakllanish davri hisoblanadi. Aynan tarbiya ham bu davrda qanday yo‘sinda berilsa umri davomida shu tarbiya ta’sirida bo‘ladi. O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limga oid ilmiy- tadqiqotlar XX asrdan boshlab amalga oshirilgan.

Boshlang‘ich sinf tarbiyalovchi pedagog qanday bo‘lishi kerak? Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asarida ta’kidlanganidek o‘qituvchi" malak qiyofali" bo‘lishi kerak. Odob-axloqi, etika-estetikasi, nutqi va bilim, ko‘nikmalari bilan o‘rnak bo‘lishi kerak. Pedagog bu tarbiya jarayonining qonuniyatlarini, tarkibi va tashkil etish mexanizmlarini tadbiq etadi, tarbiyaviy va o‘quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo‘sinlarini belgilab beriluvchi shaxs hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi fani 2020-2021-yillar pandemiyadan keyin talim tizimimizni yanada takomillashtirish maqsadida joriy qilingan fan hisoblanadi. Ushbu fanning ta’lim dasturi 2021-yilda ishlab chiqilgan va Oliy ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan. Jumladan bu fanning asosiy tarkibiy qismini 5 ta modulga bo‘lingan. Bular:

1-modul. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining nazariy asoslari.

2-modul. Boshlang‘ich ta’lim didaktikasi.

3-modul. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasida tarbiya nazariyasi.

4- modul. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya.

5- modul. Boshlang‘ich ta’limda integratsiya.

Mazkur fan o‘qituvchisi va pedagoglarni tarbiyalashda asosiy fan hisoblanib oliy ta’lim tizimida joriy qilingan. Ushbu fanning bir necha fanlar bilan aloqadorli mutaxasislarni har tomonlama yetuk kadr bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. "Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi" fanining umumiy pedagogika, pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik mahorat, pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik texnologiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ta’limda normativ hujjatlar fanlari bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi.

Bu fan o‘qitilishi asosida ko‘nikma va bilimga ega kadrlarni tayyorlashda asosiy rol o‘ynaydi. Tom ma’noda jamiyat hayotini barpo etishda ham ushbu fanning o‘rni beqiyos. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim konsepsiyasida ham o‘qituvchi-mutaxasis oldida turgan vazifalar quyidagicha belgilab qo‘yilgan:" Mutaxasis malakasi- chuqur umumiy bilim, keng dunyoqarash, kasb tayyorgarligi, kompyuter savodxonligi, o‘z bilimini tezlik bilan yangilash va to‘ldira olish qobiliyati singari omillardan tashkil topadi" deyilgan. Hozirgi kunda talim tizimida yoshlarga bilim berish asosini o‘qituvchilar tashkil qilmoqda. Bugunga qadar maktablarda inklyuziv sinflar tashqil gilingan bo‘lib ularda bolalarga faqat maxsus sertifikatga ega o‘qituvchilargina dars berishi mumkin edi. Hozirgi kunga kelib Oliy ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim fani tashkil qilingani uchun bo‘lajak o‘qituvchilar hech qanday muammosiz ta’lim berishga haqli. Bu esa o‘qituvchi va pedagoglarning jamiyat oldida yetuk kadr bo‘lishini ta’minlaydi.

Ta’lim va tarbiya berish pedagogning asosiy vazifasi hisoblandi. Hozirgi davrda axborot kommunikatsiyalari tez suratlarda rivojlanmoqda. Shu texnalogiyalardan foydalanilgan holda dars otish ham o‘qitishning samarali bo‘lishiga zamin yaratilmoqda. Yangicha metod va texnalogiyalar yosh avlodning zamon bilan hamnafasligini oshirmoqda. Shu munosabat bilan ta’lim tizmimiz ham sezilarli darajada tarqqiy etmoqda. Buning barchasining negizida o‘qituvchi va mutaxasislarning, professor o‘qituvchilarning, tatqiqotchi olimlarning mehnati mujassamdir. Shuning uchun ham yurtimizda 1-oktabr kuni " O‘qituvchi va murabbiylar kuni" sifatida keng nishonlanib kelinadi. Bu ularga nisbatan berilgan e’tiborning ramzidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchini tarbiyalash, shaxsni tarbiyalash pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi. Oila va jamiyat esa birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishga ko‘maklashadi. O‘qituvchi esa mazkur jarayonda o‘qitadi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi, tarbiyalaydi, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

**1.** “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” gi (O‘RQ-901-son 01.02.2024y)

**2.** “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi “ (PF-5847- son 08.10.2019)

**3.** Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi innovatsiya, integratsiya. G‘afur G‘ulom.T-2013.

**4.** Tursunov S.Q. Ta’limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Monografiya. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2018-y.

**5.** Turdiyeva G. Raqamli talim platformalari talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish konikmalarini shakllantirish vositasi sifatida //(buxdu. uz). – 2023. – T. 35. – №. 35.

## CHEGARAVIY SHATLARDA VAQT BO‘YICHA HOSILA QATNASHGAN DIFFERENSIAL TENGLAMALAR

**Xamzaqulov Erjigit Abdubasharovich**

*GulDPI “Pedagogika” fakulteti stajyor o‘qituvchisi.*

e-mail: xamzaquloverjigit25@gmail.com

**Annotatsiya:** Matematik fizik tenglamalariga tegishli bo‘lgan “Chegaraviy shartda vaqt bo‘yicha olingan hosila ishtirok etgan issiqlik tarqalish tenglamasi” va unga keluvchi matematik modellar ularni yechish usullari ushbu ishda batafsil bayon etilgan. Bundan tashqari yechish usuli sifatida asos qilib Galerkin metodi olingan va uning yordamida olingan yechim turg‘unligi ko‘rsatib õtilgan.

**Kalit so‘zlar:** Hosila,matematik model, galekin usuli, chegaraviy shart, issiqlik tarqalish tenglamasi, turg‘unlik,tenlamalar sistemasi, aniq yechim, taqribiy yechim.

**Annotation:** The "Heat conductivity equation with time derivative under boundary conditions"" and related mathematical models, related to mathematical physics equations, are described in detail in this work. In addition, Galerkin's method was used as the basis of the solution method, and the stability of the solution obtained using it was shown.

**Key words:** Derivation, mathematical model, Galekin method, boundary condition, heat dissipation equation, stability, system of equations, exact solution, approximate solution.

**Masalaning fizik jihatdan qo‘yilishi.** Qator dolzarb texnik muammo(masala)larni tadqiq etishda, izlanayotgan funksiyadan vaqt bo‘yicha hosilani o‘z ichiga olgan chegaraviy shartli parabolik tipdagi aralash masalani o‘rganish zarurati yuzaga keladi. Bunday tipdagi masalalar, masalan, temperaturasi uning barcha nuqtalarida bir xil bo‘lgan jism sirti yaxshi aralashgan suyuqlik bilan yuvilganida paydo bo‘ladi . Umumiy massasi $M^1$ bo‘lgan, yaxshi aralashgan suyuqlikka tushirilgan R radiusli izotrop doiraviy silindrni qaraylik.Boshlang‘ich vaqt momentida silindr $U_0$ temperaturagacha tekis isitiladi, suyuqlikning boshlang‘ich temperaturasini esa nolga teng qilib qo‘yilgan bo‘lsin deb faraz qilaylik. Belgilashlarni kiritamiz: $u^1(t)$ — suyuqlik temperaturasi, $u(r,t)$ — silindr temperaturasi, $a$ —silindr moddasining issiqlik o‘tkazuvchanligi, $C$ — uning nisbiy issiqlik sig‘imi. Shunday faraz qilaylikki, silindr chetlarida issiqlik almashinuvi mavjud emas va silindr materiali va suyuqlikning barcha xarakteristikalari temperaturaga bog‘liq emas.

Silindr ichidagi temperatura maydoni

$$\frac{\partial u}{\partial t} = a\left(\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + \frac{1}{r}\frac{\partial u}{\partial r}\right)$$

Issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi

$$u(r,0) = u_0,\ r \le R;\ u^1(0) = 0$$
$$u(r,R) = u'(t), \qquad t > 0$$
$$\frac{2acM}{R}\frac{\partial u}{\partial r} = -c^1 M^1 \frac{\partial u}{\partial t}, \quad r = R$$

Boshlang‘ich va chegaraviy shartlar bilan aniqlanadi.

Izlanayotgan funksiyadan vaqt bo‘yicha hosilani o‘zida saqlovchi shunga o‘xshash masalalar keng sersuv daryo tubining issiqlik rejimini o‘rganishda yuzaga keladi. Sirtli birjinslimaslik (metallar sirtining cho‘g‘lanishi(qizishi), suyuq metallning kristallanishi, issiqlik zarbasi masalalari va boshqalar) termofizik jarayonlarni o‘rganishda nochiziqli chegaraviy shartlar paydo bo‘ladi.

Xusussan, induksion pech induktoriga birjinsli izotrop jism joylashtirilgan bo‘lsa, u holda nostatsionar temperature maydoni aniqlanishi matematik jihatdan nochiziqli chegaraviy shartli issiqlik tarqalish tenglamasini yechishga keltiriladi, bu holda chegaraviy shart izlanayotgan funksiyadan vaqt bo‘yicha hosilani o‘z ichiga oladi:

$$\begin{cases} \gamma\dfrac{\partial u}{\partial t} = \Delta u\,, x \in \Omega,\ \ 0 < t \le T;\ \delta, \gamma, a_1, a_2 = const \\ \delta\dfrac{\partial u}{\partial t} = \Delta u + \dfrac{\partial u}{\partial n} + \delta u = a_1 - a_2 u^4, \quad x \in \partial\Omega \end{cases}$$

Qayd etib o‘tamizki, chegarlangan sohaning butun chegarasida berilgan, nostatsionar chegaraviy shartli umumiy parabolik tenglama uchun chegaraviy masalaning korrektligi isbotlangan.

M.L.Rasulovning kitoblarida chegaraviy shartida izlanayotgan funksiyadan vaqt va normal bo‘yicha aralash hosilani o‘zida saqlovchi parabolik tipdagi masalalar konturli integral metodi bilan tadqiq etiladi.

Yu. Mitropolskiy va uning hamkasblari ishlari umumlashgan va klassik yechimlar mavjudligini isbotlashga bag‘ishlangan.

Bundan tashqari, bu ishlarda qaralayotgan $H$ Gilbert fazosida Galerkin bo‘yicha taqribiy yyechimlarning turg‘unligi tadqiq etilgan.

Maxsus ko‘rinishdagi chegaraviy masalalar va maxsus ko‘rinishdagi kordina funksiyalari tekis metrikada Galerkin bo‘yicha taqribiy yyechim turg‘unligi isbotlangan. ishda D.B.Topolyanskiy va Ya. M. Zasrudskiy ikki turg‘unlik tushunchasini farqlaydilar: turg‘unlik va umumlashgan turg‘unlik.ulardan birinchisi M.A. Beliyev ta’rifiga yaqin bo‘ladi, bir vaqtning o‘zida turg‘unlik tushunchasini kengaytiradi, aynan, boshlang‘ich vaqt momentida izlanayotgan funksiya koeffitsiyentlari uchun tenglamalar sistemasini yechish paytida paydo bo‘ladigan qo‘zg‘alishni qo‘shimcha ravishda hisobga oladi.Umumlashgan turg‘unlik deganda S.G. Mixlinning turg‘unlik tushunchasi tushuniladi. Qaralayotgan Gilbert fazosida taqribiy yechimlarning turg‘unligi tadqiq etilgan. Bu turg‘unlik koordinata sistemasining kuchli minimalligi faraz etilib o‘rnatilgan.

Monoton koeffitsiyentlar bo‘lgan holda, umumlashgan yechimning mavjudligi va yagonaligi Galerkin metodi bilan isbotlanadi. Keyin Galerkin metodi yaqinlashish tezligi bahosini hosil qilingan.

Ishning amaliy qiymati shundan iboratki, dissertatsiyad ko‘rilayotgan masalaning taqribiy yyechimi aniq yechimdan qanchalik og‘ganini(chetlanganini) baholash imkoniyatini beradi. Keyinchalik, dissertatsiyada o‘tkazilgan turg‘unlik tatqiqoti yaqinlashish tartibi oshganida taqribiy yechim xatoligi sezilarli darajada oshmaydigan koordinata funksiyalarini shunday tanlash imkoniyatini beradi.

Nihoyat, eng umumiy belgilashlar ro‘yxatini keltiramiz. $E_m$ simvoli m o‘lchovli yevklid fazosini anglatadi, $x = (x_1, x_2, \dots, x_m)$ –undagi ixtiyoriy nuqta. $\Omega - E_m$ da chegaralangan soha.

$L_2$ normada

$$\|u_n(t) - u(t)\|^2_{L_2(\Omega)} \le ch, \quad h = \frac{T}{n}$$

Va

$W_p^1(\Omega)$ normada

$$\|u_n(t) - u(t)\|_{W_p^1(\Omega)} \le ch^{\frac{1}{2p}}$$

xatolikning bahosi hosil qilinadi, $W_p^1$— baho barcha $\xi, \eta \in E_{m+1}$ lar uchun

$$\sum_{i=1}^{m}[a_i(x,\xi) - a_i(x,\eta)](\xi_i - \eta_i) \ge c|\xi - \eta|^p$$

shartda hosil qilingan.

Chegaraviy shartda vaqt bo‘yicha hosilasiz parabolc tipdagi kvachiziqli masala yyechimi mavjudligi va yagonaligi isboti uchun Galerkin metodi ko‘plab avtorlar: Brauder, Lions, Vishik, Ladijinskaya, Uralseva, Dubinskiy va boshqalar tomonidan qo‘yilgan.

Klassik kvazichiziqli parabolic masalaning galerkin metodi bo‘yicha taqribiy yyechimi xatoligioptimal bahosini olish bilan amerikalik matematiklar Douglas, du Pont, Dendi, Viler, Rachvord va boshqalar shug‘ullanishgan.

Douglas va du Pont Galerkin metodining $H^1 = W_2^1$ – xatolik bahosini va vaqt bo‘yicha Galerkin metodining bir nechta diskret sxemalarini, xususan, kvachiziqli parabolik masalalarga qo‘llaniladigan Galerkin – Kranka –Nicolson metodini hosil qildilar. Agar unda taqribiy yyechim qidiriladigan $\Omega = (0,1) \times (0,1)$ va $M = M_h$ qism fazo shunday bo‘lakli nominal funksiyalarning fazosi bo‘ladi deb da’vo qilinadi, unda barcha $\alpha = (\alpha_1, \alpha_2) : 0 \le \alpha_1, \alpha_2 \le m-1$ lar uchun $D_\alpha g(x) = \left(\frac{\partial}{\partial x_1}\right)^{\alpha_1}\left(\frac{\partial}{\partial x_2}\right)^{\alpha_2} g(x)$ lar $\Omega$ sohada va $g(x)\sum_{i,j}^{m-1} C_{i,j}\, x^i x^j$ ko‘rinishidagi ko‘phad bo‘ladi.

**XULOSA.** Ushbu maqolada issiqlik tarqalish tenglamasiga oid chegaraviy masala, boz ustiga chegaraviy shartda keltirilgan vaqt bo‘yicha hosila o‘rin egallaydi va uning barobarida unga

keltiluvchi matematik model ko‘rsatib o‘tildi. Bu model tenglamasi aniq va taqribiy usulda yechildi va shuningdek masalaning taqribiy yechimiga oid ba’zi teoremalar keltirildi va isbotlandi. Adabiyotlar tahlili asosida avval o‘rganilgan tadqiqotlar natijalaridan unumli foydalangan holda, o‘z nazariy qarashlarimiz ushbu ishda ilgari surildi.

**ADABIYOTLAR**

1. SH.M. Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent-«O‘zbekiston» - 2016. 56 bet
2. SH.M.Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil, qathiy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. - 104 b.
3. SH.M. Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent-«O‘zbekiston» - 2017. 488 bet.
4. SH.M. Mirziyoyev . “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini tahminlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” Toshkent-«O‘zbekiston»-2017.48 bet
5. Mamatov A.Z. Primeneniya metoda Galerkina k nekotoromu kvazilineynomu uravneniyu parabolicheskogo tipa // Vestnik LGU,-1981.-№13.-p.37-45.
6. Mamatov A.Z., Djumabaev G. Ob odnoy zadache parabolicheskogo tipa s divergentnoy glavnoy chastyu // p.53 /inter. Scientifical practical conference., VSTU, Vitebsk, Repub. Belaruss ».- 2020 г.
7. Mamatov A.Z., Baxramov S. Priblijennoe reshenie metoda galerkina kvazilineynogo uravneniya s granichnym usloviem, soderjahiy proizvodnuyu po vremeni ot iskomoy funktsii // Uzbekistan-Malaysia International Scientific Online Conference Proceedings,.NUuz, 24-25 august 2020 y., p.239
8. Xamzaqulov, E. (2024). DERIVATIVE OF A MODULAR FUNCTION AND ITS ANALYSIS BY LEARNING METHOD. Modern Science and Research, 3(2), 943-946.
9. Xamzaqulov, E., & To’xtayeva, A. (2024). THE CONCEPT OF NUMERIC AND LETTER EXPRESSIONS IN PRIMARY GRADES. EXPRESSION WITH VARIABLE. Modern Science and Research, 3(2), 90-93
10. Raxmonov, J. T., Xamzaqulov, E. A., & qizi Xamzaqulova, S. S. (2023). BA’ZI ANIQMAS INTEGRALLARNI YECHISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA UNI TA’LIM METODI BILAN TAHLILI. Innovative Development in Educational Activities, 2(18), 87-91.
11. Xamzaqulov, E. (2024, May). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNING METODIK TAHLILI. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 2, pp. 22-26).
12. .Xamzaqulov, E. (2024, May). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNING METODIK TAHLILI. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 2, pp. 22-26).
13. .Abdubasharovich, X. E. (2024). MODULLI FUNKSIYANING HOSILASI VA UNI TA’LIM METODI BILAN TAHLILI.
14. Xamzaqulov, E. (2024, May). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNING METODIK TAHLILI. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 2, pp. 22-26).

## BOSHLANG‘ICH TA’LIM FANLARINI O‘QITISHDA CHET EL TAJRIBALARI.

**Xamzaqulov Erjigit Abdubasharovich,**
*GulDPI “Pedagogika” fakulteti stajyor o‘qituvchisi.*
**Mardonova Marjona Zokirjon qizi .**
*GulDPI“Pedagogika” fakulteti talabasi*
e-mail: xamzaquloverjigit25@gmail.com

**Annotatsiya** Maqolada Yaponiya va Finlandiya kabi ilg‘or xorijiy davlatlarnig ta’lim tizimi tuzilmasi , tajribalari va zamonaviy ta’lim dasturlari haqida qisqacha ma’lumotlar

etirof etilgan. Shuningdek , ta’lim tizimidagi yutuqlar va O‘zbekistonning ayni paytdagi yutuqlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar :** ta’lim tizimi , tajriba , mamlakat , tuzilma , xalqaro baholash.

**Abstract** The article acknowledges the brief information about the structure , experiences and modern educational programs of advanced foreign education systems such as Japon and Finland . Achievements in the education system and current achievements of Uzbekistan are also described.

**Key words** : educational system , experience , country , strukture , international assessment.

Vatanimizda ta’lim tizimi qanchadir vaqt mobaynida mana shunday darajaga keldi.Hozirgi kunda esa bu ta’limni qayta qurish va uni yuksak darajada rivojlantirish kabi ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad maktab faoliyatini rivojlantirish , insonparvarlik tamoyillarini shakllantirish , shuningdek o‘quv tarbiya ishlar mazmunini , uning ko‘rinishi va uslublarini qaytadan yangilash va yanada takomillashtirishdir.Yangi ta’limni biz zamonaviy ta’lim desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Yangilangan ta’lim to‘la ma’noda yangicha tafakkur, sog‘lom fikr demakdir.

Ta’limdagi muvaffaqiyat va rivojlanish , aksariyat dadil harakat qiluvchilar ya’ni o‘zgaruvchi va o‘zgartiruvchilar tarafidan amalga oshadi.Shu bois ta’limda bo‘ladigan o‘zgarishlar va hamma narsa maktabga va uning tizimiga borib taqaladi . Maktab faoliyatini va ta’lim tizimini rivojlantirishda bizga chet el tajribalari samara beradi . Hozirgi kunda O‘zbekistonga ko‘plab xorijiy tajribalar kirib kelgan va bundan davlatimiz ham bu tajribalarni ta’lim tizimiga tatbiq qilmoqda. Xorijiy ta’lim tajribalaridan masalan **PIRLS** ya’ni baholash dasturi va oliy ta’lim tizimidagi Kredit modul tizimi hamda **PISA** tadqiqotlari hozirga qadar qo‘llanib kelinmoqda.Bu esa ta’lim tizimining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.Biz mana shunday tajribalarni egallab o‘zimizga olib kirib ta’lim tizimini rivojlanish smaradorligini oshirishimiz va insoniylik burchimizni bajarishimiz lozim.Biz bu vazifalarni muvaffaqiyatli tarzda hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el maktab faoliyati va tajribalarini o‘rganishdir.Chet el tajribalarini qunt bilan o‘rganish va uning asosiy mohiyati nimada ekanligini anglashimiz va biz ham bundan to‘g‘ri foydalanishimiz zarur.

Davlatimiz rahbari mamlaktda kadrlar muammosi mavjudligini va barcha sohalarga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi.Mana shunday maqsadda butun ta’lim tizimi takomillashtirilmoqda.

Maktabgacha ta’lim rivojlanayotgani maktab saboqlariga katta zamin bo‘ladi. Umumiy o‘rta ta’lim sifati ilg‘or chet el tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda.

**YAPONIYA TA’LIM TIZIMI.** Yaponiya ta’limida "iqtidorli o‘quvchi" tushunchasi yo‘q , chunki har bir o‘quvchi alohida iqtidor sohibidir.

Ilg‘or mamlakatlar ichida Yaponiya ta’lim tizimi o‘ziga xos yo‘nalishi yetakchi o‘rinni egallaydi.Masalan, Yaponiya ta’lim tizimining tarkibiga maktabgacha ta’lim ,boshlang‘ich maktab, yuqori o‘rta maktab, oliy ta’lim tizimlariga kiruvchi o‘quv yurtlari.

Boshlang‘ich maktabda o‘qituvchilar bolalarni tanqidga yani o‘z xulqlarining yomon jihatlarini,maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o‘rgatishadi.Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi faqat ta’lim berish bilangina cheklanib qolmay,bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta’sir etadi . Tanqid bu kelajak mevasidir.

Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o‘qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo‘lgan yagona davlat.

Majburiy ta’lim muhiti. Ta’limning bu pog‘onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘z ichiga oladi.Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko‘rsatiladi.

Yuqori o‘rta maktab 10-11-12-sinflarni o‘z ichiga oladi,bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo‘limlari mavjud.

Yuqori bosqich o‘rta maktablarda butun o‘quv jarayonida o‘quvchilar 80 ta sinov topshiriladi.O‘quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o‘z xohishlariga ko‘ra ingliz tili , texnik ta’lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi.

Universitetlariga yuqori va o‘rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o‘quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2 bosqichga bo‘linadi:1-bosqich turar joyda o‘tkaziladi, buning uchun yapon tili,matematika ,fizika ,kimyo ,jamiyatshunoslik , tarix bo‘yicha test sinovlaridan o‘tkaziladi.

Yaponiyada oliy ta’lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta’limi bilan uzviy bog‘liqdir.

Jaxldor, betoqat, serzarda, xarakatchan bolalar–xolerik hisoblanadilar.

Bolalar kattalarning yordamiga muxtoj bo‘lishiga qarab ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ba’zi bolalar biror hatti-harakatni bajarishni bir necha marta ko‘rsatish, tushuntirish, ketidan ergashtirish kerak. Boshqa bolalarga esa bajariladigan ish bir marotaba ko‘rsatilsa yetarli bo‘ladi. Shunday bolalar ham borki, ular berilgan vazifani mustaqil bajaradilar. Bolalar o‘zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Ba’zi bolalar ko‘p savol beradilar va harakatchan bo‘ladilar, ba’zi bolalarni esa hech narsa qiziqtirmaydi.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini jadal rivojlantirish ehtiyoji bilan uni amalga oshirishga tarbiyachilarning tayyor emasligi, zamonaviy bilimlar bilan yetarli qurollanmaganligi orasidagi ziddiyat innovatsion texnologiyalardan foydalanishga ehtiyojning mavjudligini keltirib chiqarmoqda.

Haqiqatdan ham jamiyatda ―Innovatsiya tushunchasi keng va tor ma’noda ishlatiladi. Demak, innovatsiya –biror bir yangi ijtimoiy ehtiyojni yaxshiroq qondirish uchun yangi ilmiy, amaliy vosita, ya’ni yangilik yaratish, tarqatish va qo‘llashni o‘z tarkibiga oladigan kompleks jarayon sifatida tadqiq etiladi. Shuningdek, ―Innovatsiya biror bir jamoa yoki ta‘lim jarayonini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovatsiya sub‘yekti tomonidan yangilik deb qabul

qilingan bo‘lib ta’lim jarayoni ishtirokchilarini har tomonlama intellektual rivojlanishini ta’minlash maqsadida yangi vosita, uslub, yondashuvlar asosida tadqiq etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan ―2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi PQ 2707 sonli qarori.

2. Rahimova R. Tarbiyachiga ming bir maslahat. //Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -Toshkent , 2007.

3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

## BOSHLANG‘ICH TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MATEMATIKA DARSINI TASHKIL ETISH

**Axmedova Sayyora Furkatovna**
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti
e-mail:sayyora furqatovna@gmail.com

Annotatsiya Uzluksiz ta'lim tizimida matematika fanini o‘rgatish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning bilimlarini samarali rivojlantirish va ta'limni interaktiv shaklda olib borishda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta'lim tizimida matematika darslarini tashkil etishda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning asosiy afzalliklari, muammolari va ular bilan bog‘liq yechimlar ko‘rib chiqilgan. Raqamli ta'lim vositalari o‘quvchilarga matematik masalalarni boshqacha tarzda tushunishga va o‘zlashtirishga yordam beradi, shuningdek, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ta'lim tizimidagi texnologik yangiliklarni joriy etish, o‘qituvchilarning malakalarini oshirish va ta'limning sifatini yaxshilash uchun zarur chora-tadbirlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, boshlang‘ich ta'lim, matematika, interaktiv darslar, ta'limning samaradorligi, o‘quvchilarning bilimlarini rivojlantirish.

Abstract: The use of digital technologies in the process of teaching mathematics in the system of continuous education plays a crucial role in the effective development of students' knowledge and conducting lessons in an interactive manner. This article discusses the main advantages, problems, and solutions associated with the application of digital technologies in organizing mathematics lessons in the primary education system. Digital educational tools help students to understand and master mathematical problems in new ways, thereby improving the effectiveness of the learning process. The article also outlines necessary measures for introducing technological innovations into the education system, enhancing teachers' qualifications, and improving the quality of education.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga keng kirib borishi bilan, matematikani o‘rgatish metodlari ham yangilanmoqda. Boshlang‘ich ta'limda matematika darslarini samarali tashkil etish uchun raqamli texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, darslarni interaktiv va ilg‘or usullarda o‘rgatish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning bilim olish jarayoni yanada sifatli, samarali va kognitiv faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada boshlang‘ich ta'limda matematika darslarini raqamli texnologiyalar asosida qanday tashkil etish mumkinligi va bu jarayondagi dolzarb muammolar ko‘rib chiqiladi.

**Raqamli texnologiyalarni matematika darslarida qo‘llash.** Raqamli texnologiyalarni matematika darslariga joriy qilish o‘quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratadi. Interaktiv ta'lim vositalari, masalan, onlayn ta'lim platformalari, matematik o‘quv ilovalari va multimedia dasturlari yordamida darsni yanada qiziqarli va samarali o‘tkazish mumkin. Raqamli ta'lim resurslari o‘quvchilarga matematik tushunchalarni yaxshiroq tushunish va mashq qilish imkonini beradi. Masalan, *GeoGebra* yoki *Khan Academy* kabi platformalar yordamida murakkab matematik masalalarni vizual tarzda ko‘rsatish mumkin.

**Raqamli texnologiyalarning afzalliklari. Interaktivlik**: O‘quvchilar raqamli platformalar yordamida o‘z o‘qish jarayonini interaktiv ravishda boshqarish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu o‘quvchilarga matematik masalalarni turli shakllarda hal qilishni o‘rgatadi va o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

1. **Individual yondashuv**: Raqamli texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlariga mos ravishda individual darslarni tashkil etishlari mumkin. Bu, ayniqsa, boshlang‘ich ta'limda juda muhimdir, chunki har bir o‘quvchi o‘z sur'atida o‘qishi va rivojlanishi kerak.
2. **Vaqt va resurslarni tejash**: Onlayn resurslar orqali o‘quvchilar va o‘qituvchilar darslarni har joyda va har vaqtda olib borishlari mumkin. Bu metod ta'limning sifatini oshirishga yordam beradi va vaqtni samarali ishlatishni ta'minlaydi.

**Muammolar va cheklovlar**

Biroq, raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich ta'lim tizimida matematika darslarida qo‘llashda ba'zi muammolar ham mavjud:

- **Texnik infrastrukturani ta'minlash**: Ba'zi hududlarda Internet tarmog‘ining pastligi yoki zarur texnik vositalarning yo‘qligi o‘quvchilarga ta'lim olishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.
- **O‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalari**: Raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar o‘zlarining raqamli ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borishlari lozim. Bu esa, o‘qituvchilarning o‘z malakalarini oshirishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi.
- **O‘quvchilarni raqamli asbob-uskunalarga muvofiqlashtirish**: Ba'zi o‘quvchilarda raqamli texnologiyalarni ishlatish uchun zarur ko‘nikmalar bo‘lmasligi mumkin, bu esa o‘qish jarayonini sekinlashtirishi va samaradorligini pasaytirishi mumkin.

**Dars jarayonini raqamli vositalar orqali tashkil etish**

Raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich ta'limda samarali qo‘llash uchun darslarni to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Matematika darslarini raqamli vositalar yordamida tashkil etishda quyidagi yondoshuvlar samarali bo‘lishi mumkin:

1. **Multimedia materiallar yordamida tushuntirish**: Matematikaviy mavzularni o‘quvchilarga tushuntirishda grafik, animatsiya va video materiallar yordamida vizual ko‘rsatmalar berish o‘quvchilarning yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Masalan, *GeoGebra* kabi dasturlar yordamida geometrik shakllarni va algebraik ifodalarni ko‘rsatish mumkin.
2. **Interaktiv mashqlar va testlar**: O‘quvchilarning bilimlarini sinab ko‘rish va mustahkamlash uchun onlayn testlar va interaktiv mashqlarni tashkil etish mumkin. Bu mashqlar o‘quvchilarga o‘z-o‘zini baholash imkoniyatini beradi va o‘qituvchiga har bir o‘quvchining yutuqlarini kuzatib borish imkoniyatini yaratadi.
3. **Gamifikatsiya**: Matematika darslarini yanada qiziqarli qilish uchun o‘yinlashtirish elementlarini qo‘llash mumkin. Bu o‘quvchilarning o‘zlashtirish motivatsiyasini oshiradi va ularni yangi bilimlarni o‘rganishga undaydi.

Boshlang‘ich ta'limda matematika darslarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish o‘quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratadi va ta'lim jarayonini sifatli, samarali va interaktiv qilishda yordam beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitishning afzalliklari katta, lekin uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur texnik infratuzilma, o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalari va o‘quvchilarning moslashuvchanligi muhim omillar hisoblanadi. Shuning uchun, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida to‘liq qo‘llash uchun o‘qituvchilarni tayyorlash va zarur infratuzilmani yaratish masalalariga e'tibor qaratish zarur.

**Tavsiya.O‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar bo‘yicha malakasini oshirish**: O‘qituvchilarni yangi texnologiyalar va metodologiyalarni o‘zlashtirish uchun muntazam ravishda o‘qitish dasturlari tashkil etilishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov, A. (2018). Boshlang‘ich ta'limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning metodik asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.

2. Islomov, B., & Zokirov, D. (2020). Matematika darslarida interaktiv texnologiyalardan foydalanish. Tashkent: Ma'naviyat va ma'rifat.

3. Mahmudov, R. (2019). Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi o‘rni. Tashkent: Science and Education.

4. Jabborov, T. (2017). Raqamli ta'lim vositalari va ularning o‘quvchilarga ta'siri. Samarkand: Samarqand davlat universiteti.

5. Xodjayeva, D. (2021). O‘qitish metodikasi: Yangi yondashuvlar. Bukhara: Buxoro davlat universiteti.

## BOLALARDA LINGVISTIK IJODIY INTELEKTNI SHAKLLANTIRISH ERTAK VA QO‘SHIQLARDAN FOYDALANISH

**M.K. Jabborova**
Qarshi davlat universiteti doktoranti
e-mail: maftuna97jabborova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada erta maktab yoshidagi bolalarga chet tillarini o‘rgatishda qiziqarli ertak va qo‘shiqlardan foydalanishning usullari yoritilgan. Ertak va qo‘shiqlarni rolli tarzda bajarish orqali bolalardagi til o‘rganishga bo‘lgan intilishlarini uyg‘otish, hamda qiyinchiliklarsiz sodda va oson yo‘llar orqali lingvistik qobiliyatlarini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, fonetik, leksik, morfologik, qo‘shiq, rolli ertaklar, nutq apparatlari

Annotation: This article describes the methods of using interesting fairy tales and songs in teaching foreign languages to children of early school age. By performing fairy tales and songs in a role-playing way, it is thought about awakening children's desire to learn a language, and forming their linguistic abilities through simple and easy ways without difficulties.

Key words: linguistics, phonetic, lexical, morphological, song, role-playing tales, speech devices

Bolalarga chet tillarini erta yoshdan boshlab o‘rgatish, ulardagi tilshunoslik qobiliyatini oshirishga imkon beradi. Chunki bola tillarni o‘rganish jarayonida o‘z tili va o‘zga tillarni fonetik, leksik, morfologik jihatdan solishtiradi. O‘rganayotgan tilidagi madaniyat hamda urf-odatlar bilan tanishadi. Boshqa madaniyatlar bilan tanishish esa boladagi bag‘rikenglikni shakllantiradi. [2, 51-b.] Chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj yildan-yilga ortib borayotganligi sababli, boshlang‘ich sinflardagi ingliz tillarini o‘rgatishga ajratilgan dars soatlari o‘quv yuklamasining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Bu esa bolalardagi aqliy zo‘riqishga sabab bo‘lmoqda. Shunday ekan bolalarning chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va ularda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirishda ota-onalar ham o‘z hissalarini qo‘shishlari kutilgan natijaga erishish imkonini beradi.

N.V. Oxotinaning “Bolalar uchun quvnoq ingliz tili” dasturi bolalarda quvnoq usulda, hech qanday zo‘riqishlarsiz ingliz tilini o‘rganishlariga yordam beradi. Bolalar ingliz tilini o‘rganishda rolli o‘yinlardan, qo‘shiqlardan, ertak va hikoyalardan foydalanishadi. Ingliz tilini o‘rgatishga asoslangan mashg‘ulotlar guruhli tarzda tashkil etilib, guruhdagi bolalar soni 8-10 tadan oshmasligi kerak. 25-30 daqiqa davom etadigan dars mashg‘ulotlari belgilangan bosqichlarda amalga oshiradi.

**Birinchi bosqich- tayyorgarlik.** Fonetik jihatdan. Ushbu bosqichda yangi ingliz tili tovushlarini artikulyatsion apparatlar yordamida hosil qilinadi. Bunda eng asosiysi “quvnoq ingliz tili tovush”larini hosil qilishdir. Har bir tovushning o‘z rangi va o‘z hikoyasi bor. Buning yordamida bolalar uni eslashadi va bir biriga bog‘lashadi. Assimilyatsiya. Bundan tashqari bu bosqichning o‘ziga xosligi, bolalar harflar bilan bevosita tanishishlari hamda harflarga qo‘l bilan teginishlari ham mumkindir. Bolalar bilan ishlashda bu jarayonlarni bir-biriga bog‘lash judayam muhimdir. Chunki bola tug‘ilgandan boshlab, atrof-muhitni o‘rganishda oladigan bilimlarini

mustahkamlashda barmoq uchidagi retseptorlardan foydalangan holatda amalga oshiradilar. Bu retseptorlar orqali bola predmetlarning issiqligini, sovuqligini, g‘adir-budirligini, silliqligini bila oladi**.** Bu yerda bir xillik prinsipi qo‘llaniladi. Bu usul yordamida bola tovushlarning shaklini barmoqlari bilan his qilish orqali yanada yaxshiroq eslab qoladi. Bolalar uchun bu jarayon judayam qiziqarli bo‘ladi.

**Ikkinchi bosqich-leksik.** Ushbu bosqichda yuqorida o‘rganilgan tovushlar yordamida hosil qilingan so‘zlar mobil ilovalar orqali bolalarga eshittiriladi. Bu jarayon o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Bolalar bu bosqichda chet tiliga oid bo‘lgan yangi so‘zlar bilan tanishishadi.

**Uchinchi bosqich-musiqali.** Bu bosqichda bolalarga ingliz tilidagi qo‘shiqlarni ijro etish yoki mashqlar yordamida amalga oshirish taklif etiladi. bu holat ularda lingvistik qobiliyatni oshishiga sababchi bo‘ladi. Qo‘shiq aytish orqali bolalarda eslab qolish, eshitish qobiliyatlarining shakllanishiga, boshqa mamlakatlarning madaniyati bilan tanishishiga va eng asosiysi so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz qilish orqali o‘rganishga imkon beradi. Mashqlar orqali chet tilini o‘rganish so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, nafaqat dars jarayonidagi aqliy zo‘riqishlarning oldini olishga yordam beradi.

**To‘rtinchi bosqich-dialogli.** Aynan shu bosqichda, o‘rganilgan yangi so‘z birikmalari nutq apparatlarida jonlantiriladi. Bolalar bu jarayonni olib borishda turli xildagi ertaklardan, rolli o‘yinlardan foydalanishadi. Ertak va rolli o‘yinlarni sahnalashtirilgan tarzda amalga oshirishadi. Bundan tashqari o‘rganilgan so‘zlardan dialoglar tashkil etishadi.

**Beshinchi bosqich- yakuniy** bosqich hisoblanadi va bu bosqichda o‘rganilgan so‘zlar, so‘z birikmalari takrorlanib, mustahkamlanadi.

O‘quvchilarning lingvistik ijodiy intelekti shakllanishida ertaklarning ham o‘rni beqiyos. Chunki bolalar ertaklarni sevishadi, uni jon quloqlari bilan tinglashadi, ertak qahramonlarining kechnmalarini his qilishadi. Shuning bilan birga ertak qahramonlariga aylangilari keladi. Shunday ekan biz bolalarga rolli o‘yinlar orqali, ertak qahramonlari obraziga kirishlariga imon beramiz. Dramatik elementlari mavjud bo‘lgan rolli o‘yinlar bolalar qalbida chinakam qiziqish uyg‘otadi. Shuning bilan birga o‘zlari xoxlagan tarzda chet tillarini bemalol osongina o‘rgana olishadi. O‘zbek yoki boshqa mamlakatlar ertaklarini ingliz tili talqinida, rollarga kirgan holatda amalda bajarish bolalarga o‘zgacha quvonch beradi. Bizga ma’lumki o‘zbek, rus xalq ertaklari qadim-qadimdan buyon bolajonlarning sevimli ertaklariga aylangan, ammo uning yangi talqinda amalga oshirilishi ertaklarning undanda sevimli bo‘lishiga sababchi bo‘ladi.

Dastlab bolalar, ertaklarni ijro etishdan avval ertak qahramonlarining so‘zlarini ingliz tilida yodlab, o‘zlariga tegishli bo‘lgan obrazlarni mashq qilib ko‘rishadi. Masalan rus xalq ertaklaridan hisoblangan “Teremok” (A small house) ertagini bolalarga aytib beramiz. Bu ertakni har bir bola biladi va ertakni odatiy holda eshitish ular uchun qiziqarli bo‘lmaydi. Ammo bu ertakni biz bolalarga yangi talqinda ijro ettirishimiz orqali ertakka bo‘lgan qiziqishlarini oshira olamiz. Avvalambor, bolalarga ertakni aytib berishdan oldin, ularga notanish bo‘lgan ingliz tilidagi so‘zlar bilan tanishtiramiz. So‘ng bolalarga shunday deymiz “I’ll speak in Uzbek, you'll speak in English, and otherwise I’ll speak in English, you'll speak in Uzbek”. Ushbu jarayon orqali bolalarga o‘zlarini tarjimon sifatida sinab ko‘rish imkoni beriladi. Keyin esa har biir bola o‘z rolidagi harakterlarni tavsiflab ertak qahramoniga aylanadi.

Eratk boshlanadi va o‘qituvchi quyidagi so‘zlarni aytadi: *– A small house stood in the open air.*

Bolalar ularga tanish bo‘lgan ertakni bilish va ingliz tilidagi eshitgan so‘zlari yordamida yuqoridagi so‘zni tarjima qiladilar. Ertak uchun oldindan uycha tayyorlangan va bezatilgan bo‘ladi. har bir bola esa, o‘z uy hayvonlari obraziga kirgan holatda o‘tirgan bo‘ladi.

O‘qituvchi davom etadi*: - A mouse is running by the small house.– Who is the mouse? Stand up.* Sichqoncha rolini ijro etayotgan bola o‘rnidan turadi. O‘qituvchi bolaga aytadi: *– You are running by the small house.* Ushbu so‘zlarni eshitgan bola “Present Continuous” zamonini bilmasdan turib, so‘zlarni tushunishi va o‘qituvchuga qarata javob berishi qiyin bo‘ladi. Ammo o‘qituvchi tana harkatlari va yuz ifodalari orqali bolaga nimani tasvirlab berishi kerakligini

o‘rgatadi. – *You like the small house and ask* (sen kichkina uychani yoqtirib qolasan va undan so‘raysan)*:Teremok, teremok, uychada kim yashaydi?*

*– The small house, the small house, who lives in the small house?*

*– Nobody answered. The mouse is coming in the small house and begins to live there.*

O‘qituvchi bolalarga tarjima qilishni yengillashtirish uchun ertakka oid bo‘lgan rasmlarni ko‘rsatadi hamda qahramonlar harakatini bajaradi. So‘ngra ertakdagi keyingi qahramon, ya’ni uy hayvoni hisoblangan qo‘y paydo bo‘ladi.

*– A sheep is walking by the small house.*

*– Who is the sheep? Stand up.*

*– You are walking by the small house.*

*– You like the small house and ask: - Teremok, teremok, uychada kim yashaydi?*

*– The small house, the small house, who lives in the small house?*

*– I am a mouse. My name is … Who are you?*

*– I am a sheep. My name is … Let me in the small house.*

*– Let’s live together.*

Ertak shu tarzda davom etaveradi, faqatgina ertak qahramonlari uy hayvonlaridan iborat bo‘ladi. “Teremok” ertagini yangi usulda sahnalashtirish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Uy hayvonlarining nomini ingliz tilida bilishni;
- Allaqachon ham leksik, ham fonetik jihatdan o‘rganilib bo‘lingan Present Contunious fellarini yangi shaklda o‘rganishni; (kimdir yuguradi, kimdir sakraydi, kimdir uchadi, kimdir o‘tiradi va hkzo)
- Avtomatik tarzda, nutq apparatlarida so‘zlarni aks ettirishni;

Ertak uyning mayda bo‘laklarga bo‘linib ketishi bilan an’anaviy tarzda yakunlanadi. Ertak qahramonlari esa yangi uy qurish uchun ishni boshlab yuborishadi. Uy yasash jarayonida qo‘shiq xirgoyi qilishadi. Nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalar, hattoki, maktab o‘quvchilari ham ingliz tilini qo‘shiqlar orqali o‘rganishni judayam yaxshi ko‘rishadi. Ertak va qo‘shiq aytish faoliyatining birgalikda olib borilishi bosh miya yarimsharlarining faol ishlashiga turtki beradi. Tadqiqiotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, bu ikki faoliyat jarayoni o‘rganilayotgan materialni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Musiqa bolalarni hissiyotlarga berila olishini, diqqatini jamlashni, tabiiy dunyoqarashini oshirishni va eng asosiysi chet tilini o‘rganishni osonlashtiradi. [1, 79-b].

Qo‘shiq va mashqlar orqali amalga oshiriladigan jismoniy tarbiya jarayoni barcha yoshdagi bolalar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Biz qo‘shiq kuylash yoki o‘yinlar orqali maktabdagi har qanday darslarni tashkil eta olamiz. Masalan, “Baa,Baa black sheep” qo‘shig‘i sinfda o‘quvchilar bilan birgalikda dumaloq shaklga kelgan holatda kuylanadi. O‘yinni qur’a tashlagan holatda qora qo‘yni tanlab olish bilan boshlanadi. Qo‘shiqni ijro etish jarayonida uy egasi, o‘g‘illari, bekasi va kichkina bolakay obraziga kirishadi. Bu jarayonni har qnaday qo‘shiq bilan amalga oshirish mumkin.

Erta maktab yoshidagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish jarayoni qiziqarli va samarali bo‘lishi uchun bir qator qoidalarga amal qilishimiz lozim. Ular:

- Darslar o‘yin shaklida tashkil etilib, bolaning xohish-istaklariga va tabiiy ehtiyojlariga mos keladigan bo‘lishi lozim;
- O‘quv materiallarini turli xildagi axborot vositalari (ovoz, video, grafika, modellar, rasmlar) orqali taqdim etish,
- O‘quv materiallarini taqdim etishda hamda ularni takrorlashda yangi usullardan foydalanish;
- Ta’lim olish jarayonida qulay shart-sharoitlar hamda do‘stona muhitni yaratish;
- Bola faoliyatini uning qiziqishlariga asoslangan holda tashkil etish;

Xulosa sifatida shuni keltirishimiz mumkinki, pedagog tomonidan puxta ishlab chiqilgan va tashkil etilgan ingliz tilini o‘rgatuvchi darslari o‘quvchilarning chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqlarini oshiradi. Boladagi lingvistik qobiliyatlarning shakllanishi qiziqarli tashkil etilgan dars jarayonlariga chambarchas bog‘langan. Ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, erta maktab

yoshida turli xil usullardan foydalangan holatda amalga oshirish, kelajakda ushbu tilni o‘rganish uchun asosiy poydevorni yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мокерова Н. С., Протасова Е. В. Играя, познаем мир // Современное дошкольное образование: опыт, проблемы и пер- спективы: сборник научно-методических статей. Йошкар-Ола: Поволжский государственный технологический университет, 2014. С. 116–123.

2. Сластенин В. А. Педагогический процесс как система и целостное явление. -М.: Издат. дом МАГИСТР-ПРЕСС, 2000. С. 195–219.

## TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O‘QITUVCHIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

**Sheraliyeva Nasiba Alimkulovna**
Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
nasibasheraliyeva23@gmail.com

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada tarbiya dasrslarini tashkil etishda o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar tarbiya darslarning umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tilish jarayonini va o‘quvchilarning qay darajada o‘zlashtirishini bilish maqsadida o‘quvchilarni bilim ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish hamda “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida milliy qadriyatlarga qiziqishlarini shakllantirish bo‘yicha falsafiy, psixologik, pedagogik, didaktik, metodik, adabiyotlarni tahlil qilish.“Tarbiya” fanini o‘qitish asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida milliy qadriyatlarga qiziqishlarini shakllantirishning didaktik ta’minotini takomillashtirish va umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish” hamda o‘quvchilariga tarbiya darslarini samarali tashkil etishda o‘quvchilarning kereaktiv fikri haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘z:** Tarbiya, o‘qitish, metodik, iste’dod, texnologiya, pedagogik, psixologik, samarador, uzluksiz, kompetentsiya, mas’uliyat.

**Annotation:** in this article, the requirements for the teacher in the organization of educational dasrs in order to find out the transition process of educational classes in general secondary schools and the degree to which students master, control cognitive skills and abilities of students and improve the methodology for developing interests of students in national values in the process of teaching “educational” , analysis of psychological, pedagogical, didactic, methodological, literature.Based on the teaching of the subject” education”, students of general Secondary Education Schools thought about improving the didactic provision of the formation of their interest in national values and improving the educational processes of students of general secondary education schools on a competency approach", as well as the kereactive opinion of learners in the effective organization of educational classes for students.

**Keywords:** upbringing, teaching, methodical, talent, technology, pedagogical, psychological, effective, continuous, competence, responsibility.

O‘qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, etuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi zarur. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohotlari, ilm-fan, texnologiya sohalarida erishilayotgan yutuqlar uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘qitilayotgan fanlarni optimallashtirish va yangi fanlarni o‘qitishni taqozo etmoqda.

Bu kabi o‘quv fanlarining o‘qitilishidagi talablardan eng muhimi – ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o‘z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga mamlakatimizda amalga

oshirilayotgan islohotlarni mazmun-mohiyatini xususan ta’lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy tamoyillarini ham ochib berish hisoblanadi. Prezidentimiz mamlakatimiz mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotganini alohida ta’kidlab o‘tdi. “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda”, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

Har qanday mustaqil davlat mustahkam ma’naviy poydevorga ega bo‘lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. Farzandlarimizning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo‘lib qoladi. Shu maqsadda biz ―Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasi doirasida umumta’lim maktablarida birinchi marta ―Tarbiya fanini joriy etmoqdamiz - deb ta’kidlab o‘tgan edi. Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya ta’limdan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladigan qo‘shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq -yuluq jarayon bo‘lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi.

Tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo‘ldi. Masalaning yana bir tomoni oliy ta’lim muassasalarida zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali tarbiyachi pedagoglarni tayyorlash ishining sustlashib ketgani bilan bog‘liq. Chunki, yosh avlodni tarbiyalashda ma’lum malaka va kompetentsiyalarni egallamay turib, bunday mas’uliyatli ishga kirishishning o‘zi maqsadga muvofiq emas.

Shunday bir vaziyatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorining chiqishi bu millat kelajagi, millat ma’naviy taraqqiyoti uchun bir o‘ziga hos tarixiy voqelik bo‘ldi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur al Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning ma’naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Kontseptsiyaning zamon bilan hamnafasligini ta’minlaydi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etganligi alohida ta’kidlandi. Jumladan, Evropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning ―xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim, Xitoyning yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o‘rganilgan.

Konsepsiyada O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiytexnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi darajaga ko‘tariladi. Prezidentimiz O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarish uchun fuqarolarning faolligiga erishish muhim omil ekanligiga e’tiborni qaratdi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun fikrlashi, hayotga munosabati butunlay o‘zgacha bo‘lgan yangi avlodni tarbiyalash, ta’lim-tarbiya berish vazifasi muhimdir.

Bu borada mamlakatimizda qisqa davr ichida amalga oshirilgan ishlar, xususan, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta-ta’lim, oliy ta’limdagi islohotlar yangi avlodni tarbiyalash

asoslarini mustahkamlamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-sonli “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qaror doirasida 2020-2023 yillarda respublika oliy ta’lim muassasalarining «Boshlang‘ich ta’lim», «Tarix» (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha), «Tarix o‘qitish metodikasi», «Filologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tili», «O‘zbek tili va adabiyoti», «Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi», «Pedagogika va psixologiya», «Dinshunoslik» va Islomshunoslik (Islom tarixi va manbashunosligi)», «Psixologiya (Din sotsiopsixologiyasi)» ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchilariga umumiy o‘rta ta’lim maktablarida «Tarbiya» fanini o‘qitish huquqi berilishi yuzasidan zarur choralarni ko‘rsin va mazkur ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalariga 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab tegishli o‘zgartirishlar kiritishni rejalashtirilgan bo‘lib, bu borada muayyan ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy birdamlik hissini mustahkamlash, xalqimiz turmushini har tomonlama yuksaltirishga xizmat qiladigan ezgu g‘oyalar atrofida yosh avlodni birlashtirish ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Albatta, bu o‘z-o‘zidan amalga oshib qolmaydi, buning uchun avvalo mavjud holatni hisobga olgan holdi tizimli èndashuv zarur. Shuning uchun ―Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasi doirasida umumta’lim maktablarida birinchi marta ―Tarbiya fani joriy etildi.

Tarbiya fanni o‘qitishdan maqsad –o‘quvchilarni kelajak avlodni ma’naviy yuksad fizilatlar egasi qilib tarbiyalashda innovatsion tarbiya texnologiyalarini qonuniyatlarini, jahon tarbiya kontseptsiyalari namunalarining qiyosiy tahlili, ta’lim muassasalarida tarbiya fanini o‘qitishning shakl, metod va vositalarini o‘rgatishdan iborat. Fanning vazifasi esa – talabalarga tarbiya fanini o‘qitishning nazariyilmiy, amaliy va metodologik asoslari haqida bilim berish, tarbiya fanini o‘qitish ijtimoiy zarurat sifatida ilmiy-amaliy asoslash, fanni o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning sifat samaradorligini oshirishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ―Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarorida: ―Har bir oliy ta’lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamqorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o‘quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o‘tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy xamkor ta’lim muassasalaridan yuqori malakali o‘qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish ta’kidlanganligi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy va ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotining muvaffaqiyatlarini belgilab beruvchi, bu tub vazifalarning bosh harakatlantiruvchi kuchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliètga tatbiq etishdan iborat. Bunda avtoritar pedagogikadan voz kechib, innovatsion texnologiyasini qabul qilishimiz kerak bo‘ladi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda ta’lim va tarbiyaning bosh maqsadi va mazmuni tubdan yangilandi. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasida oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim tizimida tarbiya fanini o‘qitishda quyidagilar inobatga olinishi lozim: Birinchidan, tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish, to‘htovsiz ravishda yuksalib borishi lozim.

Ikkinchidan, tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida talaba tashqaridan kelayotgan axborot xurujlariga, tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta’siri bolaning ularga munosabatiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘quvchilar faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o‘zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Oliy ta’lim tizida o‘qitiladigan

tarbiya fanida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy, mafkuraviy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy bilimlar bilan qurollanishi zarur. Chunki u yosh avlod ongu tafakkurini, tarbiyasi o‘z bilimlari asosida shakllantiradi.

Uchinchidan, tarbiya fanini o‘qitish jarayonida talabaning ongigina emas, balki his-tuyg‘ularini ham o‘stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini rivojlantirish lozim. Bunga rishish uchun o‘qituvchi o‘qituvchining ongi, hissiyoti, tafakkkuri va irodasiga ta’sir etib boradi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayonini o‘qituvchi boshqaradi, u o‘quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

To‘rtinchidan, oliy ta’lim tizimida o‘qitilayotgan ―Tarbiya fanni o‘zlashtirish natijasida o‘qituvchi bilishi lozim bolgan bilimlar majmui ham aniqlashtirib olinishi lozim. Tarbiya fanining Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, me’yoriy-huquqiy asoslari, ushbu fanini o‘qitishning ilmiy, diniy, badiiy va falsafiy asoslari, o‘qitishdagi yangicha yondashuvlar; Zamonaviy tarbiyashunoslikning globallashuv, o‘zaro integratsion va axborot texnologiyalari rivojlangan jarayonidagi muammolari, vazifalari va ularning echimlari, tarbiyaviy jaraènlar, uni tashkil etishda milliy tajriba, ma’naviy merosdan samarali foydalana olish hamda yuksak ma’naviyatli pedogok kadrlarni shakllantirish, ta’lim tizimi faoliyatini ta’minlashning me’yoriy-huquqiy hujjatlari, yoshlarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish kabilarni bilishi kerak.

Beshinchidan, talabalar tarbiya fani o‘rganish mavzusiga kiritgan muammolarini idrok etish, tarbiyani mustahkamlashda milliy tarbiya mezonlarini qo‘llay bilish, atrofida sodir bo‘layotgan jarayonlarga o‘z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson hayotida tarbiyaning o‘rnini anglash va bugungi kunda ta’lim tarbiya jaraènida sodir bo‘layotgan voqealarni baholay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, O‘zbekistonning ta’lim-tarbiya siyosatini bilish, tarbiya jarayonida ma’naviy-milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mezon va tamoyillarlar bo‘yicha o‘z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy tarbiya talablariga amal qiladigan faol haètiy dunèqarash kabi malakalarga ega bo‘lishi kerak.

Xulosa qillib aytganda, ta’lim-tarbiya hamjihatlikda, hamkorlikda olib boriladigan jarayon. Bu erda oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchimurabbiyning alohida, ota-onaning alohida o‘rni va jamoatchilikning hamkorlikdagi vazifalari bor. Shu jihatdan qarasak, demak, ―Tarbiya fanining o‘qitilishi, samaradorligi masalasi umumxalq ishi darajasiga ko‘tarilishi zarur. O‘zbekiston kelajagi bo‘lgan yoshlarning istiqboli uchun astoydil va hamkorlikda ishlashimiz kerak, degan ma’naviy talabni umumxalq xarakatiga aylantirilsa va har bir pedagog o‘qituvchi o‘ziga qat’iy vazifa sifatida belgilasa,―Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari kontseptual g‘oyani amalga oshirish imkoniyati oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ―Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risidagi 2019 yil 3 maydagi PQ 4307-sonli qarori .

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 1059-sonli qarori

3. Anarmatovna, N. Y., & Ummatkulovna, X. Z. (2022). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL-SPIRITUAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1832-1838.

4. Nurumbekova, Y. (2020). Improving the system of spiritual and moral-spiritual training of future teachers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(9), 411-418.

5. Нурумбекова, Я. А. (2012). ОСНОВНЫЕ ПРИЦИПЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЯ. *Педагогические науки*, (3), 107-108.

6. NURUMBEKOVA, Y. (2024). BO‘LAJAK MUTAXASSISLARDA KOUCHING KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH DARAJASINI BAHOLASH VA TASHXISLASH ASOSIDA UNI PEDAGOGIK KORREKSIYALASH. *Молодые ученые*, *2*(3), 11-14.

7. Anarmatovna, N. Y., & Ummatkulovna, X. Z. (2022). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL-SPIRITUAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1832-1838.

8. Nurumbekova, Y. (2023). THE TYPES AND MAIN PRINCIPLES OF COACHING. *Science and innovation*, *2*(B2), 243-247.

## INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

**M.A.Abduvaliyeva**
Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi magistranti
e-mail: mashhuraabduvaliyeva26@g-mail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada siz butun jahonda globallashuv davrida ta’limni modernizatsiya qilishda, ta’limning sifati va samaradorligini jahon talablariga mos ravishda yuqori ko‘rsatgichga olib chiqishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni qay darajada muhim ekanligi haqida tatbiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** *ta’lim, texnologiya, modernizatsiya, interfaol, o‘qitish, metod, didaktik texnologiyalar, faoliyat.*

**Abstract**: in this article, you will learn how important the role of innovative technologies is in modernizing education in the era of globalization, in bringing the quality and efficiency of education to a high level in accordance with global requirements.

**Key words**: *education, technology, modernization, interactive, teaching, method, didactic technologies, activity.*

Mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani singari ta’lim sohasida ham yanada takomillashtir bo‘yicha chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim taraqqiyotini jahon andozasi darajasiga ko‘tarish bosh maqsadimiz etib belgilangan. Buning asosi sifatida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy davlat dasturi” kabi asosiy mezonlarimizni ayta olamiz va buning zamirida malakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, yosh avlodga samarali va sifatli ta’limni tashkil etish yotadi. Asosiy mezonimizning amaliy natijasi sifatida jamiyatga yuqori deontologiyaga ega, raqobatbatbardosh kadrlarni yetishtirish tashkil etadi. Butun jahondagi globallashuv davrida ta’lim oluvchilarni axborot oqimidan to‘g‘ri foydalanishga hamda mustaqil faoliyatti to‘ri tashkil etishga yo‘naltirish ta’limning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Ta’lim sifatini va samaradorligini oshirish hozirgi vaqtda ta’lim muassasalariga o‘z sohasi bilimlarini va yondosh bilimlarni chuqur o‘zlashtirgan, o‘z ustida tinimsiz mehnat olib boruvchi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida keng ko‘lamli nazariy va amaliy bilimlarga ega va uni unumli qo‘llay oluvchi o‘qituvchilarni talab etadi.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yangilanish” (yoki “o‘zgarish”), “in” qo‘shimchasi esa lotinchadan “yo‘nalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” ko‘rinishida tarjima qilsak – “o‘zgarishlar yo‘nalishida” deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi bo‘lib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo‘ldi. Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yanglish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi.

***Innovatsion ta’lim texnologiyasi*** – bu ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni qandaydir yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o‘z ichiga olgan ta’lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasidir. Ta’limdagi innovatsion faoliyat ta’lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo‘lishiga qaratilgan kompleks faoliyatni o‘z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishning usul va usullari, ta’lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo‘lishi

mumkin. Ta’lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib boradi. Quyidagi asosiy texnologiyalar guruhlarini ajratish mumkin:

1. Fan ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki AKT. Ushbu texnologiyalardan foydalanish axborot jamiyatining rivojlanishi va hayotning barcha sohalarida axborot vositalarini faol joriy etish bilan bog‘liq. Bunday texnologiyalar talabalar ongini axborotlashtirishga qaratilgan. Ta’lim dasturlari informatika, axborot jarayonlari va AKTni o‘rganishga qaratilgan yangi fanlarni o‘z ichiga oladi. Professor-o‘qituvchilar va talabalarning axborot madaniyatini oshirishga yordam berish uchun o‘quv jarayoni ham faol ravishda axborotlashtirilmoqda;

2. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar. Ushbu texnologiyalar shaxsni ta’lim va tarbiyada ustuvor o‘ringa qo‘yishga qaratilgan. Butun ta’lim jarayoni shaxsning o‘ziga xosligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan.

3. O‘quv jarayonini axborot-tahliliy ta'minlash. Ushbu guruh texnologiya-laridan foydalanish har bir o‘quvchi, sinf, parallel, ta’lim muassasasining rivojlanishini o‘rganishga, ularni adekvat baholashga qaratilgan;

4. Intellektual rivojlanish monitoringi. Texnologiyalar grafiklardan foydala-nishga, test tizimiga, individual o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini va umuman ta’lim sifatini kuzatish imkonini beruvchi yangi baholash usullariga asoslangan;

5. Ta’lim texnologiyalari. O‘quv jarayonini ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Shuning uchun shaxsni, uning asosiy fazilatlarini rivojlantirishning yangi usullari joriy etilmoqda;

6. Didaktik texnologiyalar. Ular ta‟lim muassasasi rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunday texnologiyalar an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi: o‘quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audiovizual, multimedia vositalaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan o‘qitish usullari.

Innovatsion texnologiyalarning ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishdagi ahamiyati – bu ta’limni tartibga solish, uni to‘g‘ri yo‘naltirishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son Qonuni. – T., 2020 yil, 23 sentyabr.

2. Ishmuxamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yullari. T.: TDPU, 2004.

3. Oliy ta‟limda faol va interaktiv ta’lim texnologiyalari (darslarni o„tkazish shakllari): darslik / komp. T.G. Muxin. - Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013. - 97 p.

4. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: darslik / mualliflar jamoasi; ed. Bordovskoy N.V. - 2-nashr, o‘chirilgan - M.: KNORUS, 2011. - 432 b

## BELGIYA VA SHVETSIYA DAVLATLARINING TA'LIM TIZIMLARIGA KOMPARATIV TAHLIL

**Nasrullayeva Mumtozmahal Abdusamat qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti
e-mail: mumtozmaha19m@gmail.com

Annotatsiya: Ta’lim tizimlari har bir davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Belgiyaning va Shvetsiyaning ta’lim tizimlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu tizimlarning samaradorligi va ularning o‘zaro farqlari ko‘plab tadqiqotlar va ta'lim ekspertlari tomonidan o‘rganilgan. Ushbu maqolada Belgiyaning va Shvetsiyaning ta’lim tizimlariga komparativ tahlil o‘tkazamiz, ularning o‘ziga xosliklari, kuchli tomonlari va o‘xshashliklarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Belgiya, ta’lim tizimi, Shvetsiya, STEM,PISA,komparativ tahlil, kasbiy ta’lim,Vallon, umumiy ta’lim, monitoring, ta’lim sifati, texnologiya, raqamli o‘qitish

Abstract: Educational systems are important in the social and economic development of every country. The education systems of Belgium and Sweden have their own characteristics, and the effectiveness of these systems and their differences have been studied by many studies and education experts. In this article, we will conduct a comparative analysis of the educational systems of Belgium and Sweden, consider their peculiarities, strengths and similarities.

Keywords: Belgium, education system, Sweden, STEM, PISA, comparative analysis, vocational education, Wallonia, general education, monitoring, quality of education, technology, digital learning

Umumiy ta’lim tizimining tuzilishi.Belgiya ta’lim tizimi uchta asosiy til hududiga ajratilgan: flamand (niderland tilida so‘zlashuvchilar), vallon (fransuz tilida so‘zlashuvchilar) va nemis tilida so‘zlashuvchilar. Har bir mintaqada o‘ziga xos ta’lim siyosati, dasturlari va yondashuvlari mavjud, ammo umumiy tuzilma bir xil. Belgiyada boshlang‘ich ta’lim 6 yoshdan boshlanadi va 12 yoshgacha davom etadi. Keyin o‘rta ta’lim bosqichiga o‘tiladi, u esa 18 yoshgacha davom etadi. O‘rta ta’lim ikki yo‘nalishga bo‘linadi: umumiy ta’lim va kasbiy ta’lim.

Shvetsiyada ta’lim tizimi umumiydir va barcha mintaqalarda bir xil, bu mamlakatda bir nechta turli tillarda so‘zlashuvchi guruhlar bo‘lsa ham, ta’limning asosiy tizimi bir xil asosga qurilgan. Shvetsiya ta’lim tizimi 6 yoshda boshlanadi va 9 yil davom etadi. Keyinchalik, 15 yoshdan 19 yoshgacha o‘rta ta’limning keyingi bosqichlari (gymnasiet) mavjud bo‘lib, bu yerda talabalar umumiy akademik yoki kasbiy ta’lim oladilar. Shvetsiyada ta’lim tizimi markazlashgan bo‘lib, barcha o‘quvchilar uchun yagona dastur va tizim amal qiladi.

Ta'limga kirish va imkoniyatlar.Belgiyada ta’limga kirish huquqi qonuniy ravishda kafolatlangan. Biroq, ta’lim tizimida o‘zgarishlar mintaqaviy hukumatlar tomonidan amalga oshiriladi, bu esa ayrim hududlarda resurslar va imkoniyatlarning farq qilishiga olib keladi. Flamand mintaqasida ta’lim tizimi ko‘proq innovatsion va zamonaviy metodlarga asoslangan, Vallon mintaqasida esa an’anaviyroq yondashuvlar hukm suradi. Kasbiy ta’lim va amaliy bilimlar ta’lim tizimida katta ahamiyatga ega bo‘lib, talabalar o‘z kasblarini boshlashdan oldin bir nechta amaliyot va tajriba olishadi.

Shvetsiyada ta’lim tizimi o‘zining tenglik prinsiplariga asoslangan. Ta’lim barcha uchun bepul va davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Bu mamlakatda o‘quvchilarning ehtiyojlariga qarab moslashtirilgan yordam tizimi mavjud, shuningdek, ta’limda inklyuzivlik (barcha o‘quvchilarni teng ravishda ta’lim olish imkoniyati yaratish) katta e'tibor qaratiladi. Shvetsiyada talabalar o‘z qiziqishlariga mos keladigan yo‘nalishni tanlashda keng imkoniyatlarga ega, shu jumladan, kasbiy ta’lim ham yuqori darajada rivojlangan.

Ta’lim sifatini baholash va monitoring.Belgiyada ta’lim sifatini baholash tizimi davlat tomonidan amalga oshiriladi, lekin bu jarayon mintaqaviy hukumatlar tomonidan boshqariladi. Mintaqaviy hukumatlar ta’lim sifatini baholashda o‘ziga xos me'yorlar va ko‘rsatkichlarni belgilaydi, ammo umumiy sifat baholash tizimi belgiyalik o‘quvchilarni xalqaro testlarda (masalan, PISA) ishtirok etishiga yordam beradi. PISA (Program for International Student Assessment) testlari Belgiyaning ta’lim tizimida asosiy baholash vositalaridan biri hisoblanadi. Bu testlar o‘quvchilarning matematik, ilmiy va o‘qish ko‘nikmalarini o‘lchaydi.

Shvetsiyada ta’lim sifatini baholash jarayoni yagona va markazlashtirilgan bo‘lib, Shvetsiya Ta’lim Kengashi (Skolverket) tomonidan boshqariladi. Skolverket ta’lim standartlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shu bilan birga, o‘quvchilarning o‘rganish natijalarini baholashda PISA kabi xalqaro sinovlar ham muhim rol o‘ynaydi. Biroq, Shvetsiyada ta’lim sifatini baholash ko‘proq o‘quvchilarni individual darajada baholashga qaratilgan va ta’lim tizimida o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun resurslar mavjud.

**Kalit so‘zlar**: texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik, ma'naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi.

**Abstract**: In this article, the use of pedagogical technology in the classroom, interactive methods and educational games in primary school, the use of modern information and communication technologies in teaching elementary education in primary school helps students to think independently, creative research and logical thinking. along with the expansion, ideas are articulated that help them relate what they learn in the lessons to life, increasing their interest.

**Keywords:** technical, informational, audiovisual active civic position, responsibility, obligation, legal consciousness and culture, deep outlook, healthy beliefs, enlightenment, tolerance, spiritual, ideological, delicate upbringing.

Maktabda bolalarga yangi pedagogik texnologiyalar asosida saboq berish jarayonida muammoli vaziyatlar yaratib, o‘quvchilarning aynan shu yangi mavzu doirasida qanchalik bilimga ega ekanligini tezkor savol - javob metodlaridan, yoki qiziqarli, kutilmagan tarqatmalar asosida dars samaradorligini kuzatish, tajribalarda sinalib kelinmoqda .O‘qituvchi nafaqat o‘quvchiga bilim beradi, balki uning hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga yordam berib, shaxs sifatida jamiyatning faol a’zosiga aylanishiga ko‘maklashadi. Shu boisdan birinchi o‘qituvchi hamma vaqt o‘quvchi xotirasida umrbod qoladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga o‘quvchini tarbiyalashda xalqimizning boy ma’naviy merosi, qadriyatlari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘qituvchi faoliyatida xalq og‘zaki ijodi, jumladan, maqol, topishmoq, tez aytish, rivoyat, afsona, ertaklardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchini nafaqat dars jarayonida balki, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida ham tarbiyalab boradi. Shu bois tarbiyaviy ishlarni zamon talablari darajasida tashkil etishga harakat qilish, ular mazmunini turli-tuman didaktik vositalar bilan boyitib borish bugungi kun sinf rahbarlari oldida turgan dolzarb muammolaridan biridirKasblarning eng ulug‘i - bu o‘qituvchilik kasbidir. Bu borada boshlang‘ich sinf o‘qituvchini alohida tilga olmoq darkorki, u ilk bor o‘quvchi savodini chiqarib, unga “Ona”, “Vatan”, “Oila” so‘zlarini yozish va o‘qishni o‘rgatadi, ularning mazmunini anglatadi.

Boshlang‘ich sinf darslarini multimedia vositalaridan foydalangan holda tashkil etish orqali o‘quvchilarda ushbu fan bo‘yicha beriladigan turli yo‘nalishdagi ma’lumotlarga, vazifa va topshiriqlarga bo‘lgan qiziqishni yanada orttirish, topshiriq sifatida berilgan amaliy ishlarni video va animatsion usul orqali tasavvur qilgan holatda mustaqil bajarishlari uchun qulaylik yaratuvchi manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi.Shu sababdan multimedia vositasi haqida qisqacha ma’lumot:

Multimedia vositalari haqida so‘z borar ekan internet sayti manbalarida u haqidaa quyidagicha ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin bo‘ladi:

Multimedia (multi - ko‘p, media - muhit) - bu kompyuter texnologiyalarining soxasi bo‘lib, turli axborot saqlovchi vositalaridagi turli fizik ko‘rinishda ifodalangan axborotlarga ishlov beradi.

Multimedia - bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interfaol dasturiy ta’minot ostida boshqariladigan video va audio effektlarning o‘zaro bog‘liqligi bo‘lib, matn, tovush, grafika, foto, videoni birlashtiradi. Bunda ma’lumot turli axborot tashuvchilarida mavjud bo‘lishi mumkin (magnit va optik disklar, audio va video tasmalar).

Multimedianing apparat dasturiy vositalari foydalanuvchi o‘z ish faoliyatida axborotning matn va grafik shakldan tashqari yana foydali audio va video fayllar shakllaridan foydalanish, hamda o‘zlarining animatsiyali rolik va filmlarini yaratishlari mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchining mas’uliyatli, ko‘p qirrali va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni vatanparvar, odobli, iymon-e’tiqodli qilib tarbiyalash, shuningdek, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o‘qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog‘liq: bolalarni o‘qitish, maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil eta bilish, o‘tkazish, ota-onalar o‘rtasida pedagogik targ‘ibot ishlarni olib borish va sinf jamoasini shakllantirish kabilar. Bularni hammasi o‘qituvchidan chuqur bilimlarga ega bo‘lishni, o‘z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi.

Bugungi kunda taraqqiyot sari odimlab borayotgan Respublikamiz yuksalishi yo‘lida xalqimizning boy tarixi, madaniyati, urf-odatlari bilan faxrlana oladigan va uni o‘quvchi yoshlar o‘ratasida targ‘ib qila oladigan fidoiy o‘qituvchilar zarur bo‘ladi. Shubhasiz bunday o‘qituvchilar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy vazifalaridan biri bizning kelajagimiz bo‘lmish yosh avlodni to‘g‘ri, insonparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Boshlang‘ich sinflar maktab ta'limining dastlabki bosqichi bo‘lib, bolalar o‘qituvchi rahbarligida ta'limga birinchi qadamni qo‘yadilar.

O‘quvchilar ilk bor o‘quv faoliyatida bilim, ko‘nikma va malakani egallaydilar. O‘qituvchi sinf bilan yolg‘iz ishlaydi va ko‘pincha tarbiyachi sifatida ish yuritadi. O‘qituvchilarning bolalarga bo‘lgan munosabati katta mehribonlik va g‘amxo‘rlik bilan xarakterlanadi. O‘quvchilarning

o‘qituvchilar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hamda o‘quvchilarning o‘sishi va rivojlanishiga qarab ularni qayta tarbiyalash xususiyati ham sinf rahbari uchun muhim ahamiyatga ega. Maktab Nizomida sinf rahbarining asosiy vazifalari belgilab berilgan. Sinf rahbari barcha o‘qituvchilar bilan birgalikda aloqada bo‘lib, o‘zining sinfi bilan tarbiyaviy ishlarni olib boradi. O‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarga qo‘yiladigan pedagogik talablar birligiga erishadi. Ota-onalar, kun uzaytirilgan guruh tarbiyachilari, jamoatchilik bilan doimo aloqada bo‘lib turadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘tkazilgan darslar o‘quvchilarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o‘z munosabatlarini bildirishga intilishlarini tarbiyalab, o‘z nuqtai nazaridan asoslashga imkoniyat beradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Bunday darslarda o‘qituvchi o‘quvchilarni faoliyatini dars maqsadiga yo‘naltiradi bu usullarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlikjarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, dars jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlari doimiyligi ta`minlanishi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorligidagi faoliyatining doimiy ravishda tashkil etilishini ta`minlaydi. O‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rish mobaynida o‘quv vositalarini darsning rejadagi mavzusiga qarab tanlashi va asosiy e`tiborni qo‘llaydigan metodlari va tanlagan o‘quv vositalariga qaratishi lozim. O‘z darslarida har bir mavzuga mos yangi usullar va texnik vositalaridan o‘z o‘rnida va unumli foydalanishi zarur. Bu esa o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga, berilgan aniq mavzu bo‘yicha atroflicha fiklashga va ijodiy faol bo‘lishga yo‘naltiradi. Hozirgi kunda keng qo‘llanadigan usullar “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Debat”, “U kim Bu nima”, “Xotira mashqi”, “eslab qol”, “Sirli sandiqcha”, va boshqa usullardan foydalanib darsni tashkil etsa, dars mazmunli bo‘ladi. Dars davomida kelib chiqqan muammolarni inovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali oson yechimini topish mumkin. O‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni darsdagi faoliyatini aniq bir maqsadga yo‘naltirib, har bir darsga puxta tayyorgarlik ko‘rgan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borishi va o‘quvchilarni ko‘proq mustaqil fikrlashga, fikrlarini erkin bayon etishga o‘rgatib borishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy maqsadi, o‘quvchida savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning dunyoqarashi, axloqi, estetik didi, qobiliyati va e’tiqodini rivojlantirib, ma’lum kasb egasi bo‘lishga tayyorlab borishdan iboratdir. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘ta mas’uliyatli, murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois bu jarayonda faoliyat yuritish o‘qituvchidan juda katta kuch, matonat, sabr-bardosh, ijodkorlikni talab etadi. Negaki, o‘qituvchi ilk bor o‘quvchi qo‘liga qalam ushlatib, unga harfni, o‘qishni o‘rgatadi, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini boyitadi hamda ahil sinf jamoasini shakllantirib boradi. Shuningdek, bu vaqtda o‘qituvchidan har bir o‘quvchiga e’tiborli bo‘lish, ularning qiziqish va xarakter xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O. Hasanboyeva .Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent. 2016.
2. Davlatova.N. Maktabgacha ta‘lim metodikasi. 2019.
3. O‘. O‘tanov. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti fanidan ma’ruzalar matni,Samarqand-2016.
4. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SON SO‘Z TURKUMINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O‘QITISH

**O‘razbayeva Jasmina Abduhakim qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
**Niyozullayeva Shoira Jaloliddin qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada boslang‘ich sinflarda son so‘z turkumi darslarini interfaol usullar yordamida o‘tish usullari va yo‘llari haqida yoritib o‘tilgan.Maqolada kltirilgan metodlarning usullariga emas balki aynan son so‘z turkumi darslariga mos kelishiga ko‘proq urg‘u berilgan va shu yo‘nalishda tanlangan.

**Kalit so‘zlar:** son so‘z turkumi, metod, usul, dars, muammoli vaziyat, charxpalak, aqliy hujum, zig-zag.

**Abstract:** This article covers the methods and ways of teaching number vocabulary in elementary grades using interactive methods. The article emphasizes the suitability of number vocabulary lessons, rather than the methods of the mentioned methods. 'it is given and chosen in this direction.

**Key words:** numerical vocabulary, method, method, lesson, problem situation, charkhpalak, brainstorming, zig-zag.

Ona tili fanini o‘qitish qanchalik muhim va dolzarbligini 1-sinflardan boshlab o‘qitilishidan bilish mumkin. O‘zbek tilimizning so‘zlarga boyligi boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darsliklarida qo‘llangan holatidan ham ma’lum. Son so‘z turkumi ustida olib borilgan lug‘atga oid ishlar o‘quvchilarning mavzuga xos bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish bilan bir qatorda, lug‘at zahirasini oshirishga ham katta hissa qo‘shadi.

Son ustida ishlash o‘qitish dasturiga ko‘ra 1-sinfdan boshlansa ham, lekin uni o‘rganish jarayoni, metodik jihatdan qaraganda 4 bosqichga bo‘linadi.Son so‘z turkumi 1-sinflardan boshlab o‘qitilishisa ham, lekin aynan son so‘z turkumi tushunchasi bilan emas, balki narsalarning son-sanog‘ini bildirgan so‘zlar tushunchasi bilan o‘tiladi.Aynan son so‘z turkumi atamasi bilan esa, 3-sinfdan boshlab o‘rgatiladi. Son boshlang‘ich ta’limda elementar nazariy tushunchalar asosida amaliy o‘rganiladi. Lekin 1-bosqichni to‘liq ma’noda sonni amaliy o‘rganish bosqichi deb nomlaymiz. Chunki bu bosqichda umuman hech qanday nazariyasiz son so‘z turkumi bilan ishlanadi va bu 1-sinfning savod o‘rgatish va 1-sinfning 2-yarmini o‘z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun son so‘z turkumi haqidagi tushunchani to‘g‘ri shakllantirish uchun zamonaviy metodlardan foydalanishning o‘rni juda uhim sanaladi. Chunki bu yoshdagi bolalarning yosh xususiatiga qarab barcha darslarni iloji boricha interfaol metodlar va o‘yinlardan foydalanib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu mavzuni tushuntirish va o‘rgatish jarayonida hayolimga bir qancha metodlardan foydalanib darsni tashkil qilish keladi va men bulardan qaysi biri o‘qitish jarayoni uchun samaraliroq degan maqsad bilan zamonaviy interfaol metodlarning bir nechta turlari bilan tanishib, ularni o‘rganib chiqdim va ushbu maqolani yozishga harakat qildim.

Boshlang‘ich sinflarda son so‘z turkumini o‘qitishda Charxpalak, aqliy hujum, muammoli vaziyat, zig-zag, FSMU metodlarini qo‘llash to‘g‘ri keladi deb o‘yladim. FSMU metodi asosida son tushunchasini o‘quvchilar ongiga to‘g‘ri shakllantirish ustida ishlash jarayoni 3-sinf o‘quvchilarining aqliy darajasiga mos kelishi bilan muhim hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kichik guruhlar bilan ishlash ancha yaxshi samara beradi hamda o‘quvchilarni faollashtirishga ko‘mak beradi. Har bir kichik guruhlarda o‘quvchilarning yoshidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyat asosida savollar tuzib chiqiladi. .Savollardagi asosiy mazmun darslikdagi bosqichlar asodida shakllantirilgan bo‘ladi. Shuni ham yodimizda tutishimiz kerakki, boshlang‘ich ta’limda son uch yo‘nalishda o‘rganiladi:

1. Son so‘z turkumiga oid so‘zlarning talaffuzi va ma’nosi ustida ishlash.
2. Sonning grammatik shakllari ustida ishlash.
3. Sonlarning imlosi ustida ishlash.

Bu metodlar son so‘z turkumi mavzusi yuzasidan beriladigan tushunchalarning mohiyatiga, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini inobatga olgan holda tanlanishi ham muhi ahamiyatga ega hisoblanadi. Son so‘z turkumining o‘qitish jarayonidagi uch yo‘nalish bo‘yicha har bir guruhga quyidagi muammo orqali mavzu yuzasidan o‘z shaxsiy fikrlarini bayon qilishadi. Birinchi guruh son so‘z turkumiga oid so‘zlarning talaffuzi va ma’nosi ustida ishlashni qay tartibda yo‘lga qo‘yish kerakli haqida o‘z fikrlarini bayon qilishadi. Ikkinchi guruhdan sonning grammatik shakllari ustida ishlash haqidagi fikrlari so‘raladi. Uchinchi guruh esa sonlarning imlosi ustida

ishlash haqidagi fikrlarini bayon qilishadi. O‘quvchilarning bu kabi fikrlari o‘qituvchi tomonidan baholab, rag‘batlantiriladi. Ikkinchi bosqichda esa,shu metod bo‘yicha sabab aytiladi. Sabab jarayonida o‘qituvchi kichik guruhlar uchun bir xil muammo aytadi. Kishilar bir-biri bilan o‘zaro muloqot qilganida soating nechchi bo‘ldi? deb so‘rashadi. Soatdagi raqamlarni so‘raganimizda biz aynan shu so‘roqni beramiz.

Son tushunchani o‘zlashtirishga ko‘maklashadigan asosiy metodik shartlar o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni yangi bilim olishlari uchun qiziqtirish hisoblanadi.O‘qituvchi son haqidagi tushunchalarni shakllantirish jarayonini nazoratga olishi, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish uchun zamonaviy interfaol metodlar nima ekanligini bilib olishlari va jarayonning xususiyatlarini, son tushunchasini o‘rganish va o‘rgatish qaysi hollarda va qay yo‘sinda tashkil qilingan darslarda boshqalarga ko‘ra natijaliroq bo‘lishini sinab ko‘rib o‘z faoliyati uchun bilib olishi kerak.

Xulosa o‘rnida Sheroziyning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tsak bo‘ladi: ”Agar inson ilm nuri bilan o‘z yo‘lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko‘chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma’rifat bilan baquvvat bo‘ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo‘ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko‘rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san’atdir.Dunyoda qanday yovuzlik sodir bo‘lgan bo‘lsa,ularning hammasi nodonlik orqali kelib chiqqan. Eng zo‘r halokat nodonlik, insoniylikni bitiruvchi ham nodonlikdur.Yaxshi tahsil ko‘rgan va ilm nuri bilan xulqni yaxshilagan ayol har yerda izzat topadi. Ilm-ayol uchun ziynat. Aqlini nodonlikdan qutqargan har bir ayol nomus, izzat ayollik qadrini tushunib yetadi. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi. Ilmsiz ayol esa,bola tarbiyalashda turli xatolarga yo‘l qo‘yadi”.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Qosimova K. va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: “Nosir” nashriyoti. 2009y. B 261.

2. G‘afforova T. G‘ulomova X. 1-sinfda ona tili darslari. Toshkent: Taffakur, 2007y.

3. G‘ulomova X. Yo‘ldosheva Sh. Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004y

4. G‘ulomov A. Qodirov B. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1998y.

## BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA ERTAK JANRIGA XOS MATNLAR USTIDA ISHLASH

**Jumanazarova Zahro Berdiyor qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
**Davronova Saida Valijon qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**ANNOTATSIYA**. Ertak janri insoniyatning qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lgan eng muhim va qiziqarli adabiy shakllaridan biridir. U xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi bo‘lib, ko‘plab madaniyatlarda o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ular hayotda yuz beradigan turli muammolarni, insoniy his-tuyg‘ularni va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Quyida ertak janrining asosiy xususiyatlari, strukturalari, temalari va ertak janri matnlari ustida ishlash xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ertak, xalq og‘zaki ijodiyoti, syujet, srtuktura, ertaklarning temalari, ertak qahramonlari.

**ANNOTATION**.The fairy tale genre is one of the most important and interesting literary forms of mankind, which has existed since ancient times. It is an integral part of folk oral creativity and manifests itself in a unique way in many cultures. They reflect the various problems that occur in life, human emotions and social relationships. The following is talked about working on the main features of the fairy tale genre, structures, themes and texts of the fairy tale genre.

**Keywords:** fairy tale, folk oral creativity, plot, structure, themes of fairy tales, heroes of fairy tales.

Ertak - o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va eng ommaviy janrlaridan biri. Fantastik xayolot hamda badiiy to‘qimalar asosiga qurilib, didaktik g‘oya tashuvchi og‘zaki hikoyalar ertak deb ataladi.

Ertaklarning tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi va turli xalqlarda o‘ziga xos shakllarda mavjud. Masalan, Yevropa, Osiyo va Afrika xalqlarining ertaklari o‘z madaniyatlarining xususiyatlarini, urf-odatlarini va e'tiqodlarini aks ettiradi. Ertaklar ko‘pincha tarbiyaviy maqsadlarda ishlatiladi va ularning asosiy vazifalaridan biri – axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdir. Ertaklar asosan nasr shaklida yaratilgan. Bugungi kunda ertaklar nafaqat og‘zaki ijod sifatida, balki adabiyot va ommaviy madaniyatda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy yozuvchilar xalq ertaklarini qayta yozib, zamonaviy mavzularni qo‘shmoqda. Shuningdek, kinofilmlar va animatsion filmlar orqali ham ertaklar qayta ishlab chiqilmoqda

Ertakning o‘tkir maroqli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgulik kuchining yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertaklar zamonaviy dunyoda ham tarbiyaviy rolini saqlab qolmoqda. Ular bolalarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirish va hayotiy saboqlar berishning samarali vositasi bo‘lib qolmoqda.

Ertaklarda ko‘pincha yaxshi va yomon, adolat va nohaqlik, sevgi va fidoyilik kabi temalar ko‘tariladi. Bu temalar ertaklarning asosiy motivlarini tashkil etadi. Motivlar, odatda, qahramonning sayohati, qiyinchiliklarni yengib o‘tishi va o‘z-o‘zini topishi bilan bog‘liq. Masalan, "Qizil shapka" ertagida qahramonning yovuzlikka qarshi kurashi va o‘zini himoya qilish yo‘llari tasvirlanadi. Ushbu motivlar nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki ular insoniyatning umumiy tajribasini aks ettiradi. Ertaklar orqali ko‘plab ijtimoiy muammolar, masalan, adolat, tenglik va inson huquqlari haqida fikr yuritiladi.

Ertaklar, odatda, uch asosiy qismdan iborat: kirish, voqea rivoji va xulosa. Kirishda qahramonlar va ularning muammolari tanishtiriladi. Bu bosqichda, qahramonlarning xarakterlari va ularning atrof-muhit bilan munosabatlari ochib beriladi. Voqea rivojida esa qahramonlar muammolarni hal qilish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu muammolar ko‘pincha fantastik elementlar yoki sehrli ob'ektlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Xulosa qismida esa voqealar natijasi ko‘rsatiladi, va ko‘pincha qahramon o‘z maqsadiga erishadi yoki yutqazadi. Ushbu strukturaviy qism ertaklarning ko‘plab variantlarida umumiy bo‘lib, ularning tahlilida muhim rol o‘ynaydi.

Ertak janri matnlari ham ertakni o‘rganish va o‘qitish jarayonlarida asosiy o‘rin egallaydi. Matnlar ustida ishlash eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Quyida ertak janri matnlari ustida ishlash uchun bir necha asosiy nuqtalarni ko‘rib chiqishimiz mumkin:

a) mavzu tanlash: Ertak uchun qiziqarli va o‘ziga xos mavzu tanlang. Bu o‘ziga xos qahramonlar, fantastik voqealar yoki axloqiy saboqlar bo‘lishi mumkin;

b) qahramonlar yaratish: Ertakning qahramonlari va antagonistlarini aniq belgilab olish. Ularning xarakterlari, maqsadlari va o‘zaro munosabatlari muhim. Har bir qahramonning maqsadi, qobiliyatlari va xususiyatlari aniq bo‘lishi kerak. Ular o‘zaro qanday munosabatda bo‘lishini ko‘rsatish muhim;

c) syujetni qurish: Ertakning boshlanishi, rivojlanishi va yakuni qanday bo‘lishini rejalashtirsh kerak. Odatda, ertaklar qandaydir muammoga duch kelish va uni hal qilish jarayonini o‘z ichiga oladi;

d) tilda o‘ynash: Ertakni yozishda tasviriy va ijodiy til ishlatish, o‘quvchini jalb qilish uchun juda muhim;

e) qayta ko‘rib chiqish, tahrir qilish: Ertak yozgandan so‘ng, ertakni qayta ko‘rib chiqib, struktura, til va qahramonlar rivojini tekshirib chiqish lozim.

Yuqorida keltirilgan ertak matni ustida ishlashga doir ba’zi asosiy punktkar ustida ishlansa, ertak yaratilishi jihattan ancha mukammal va mazmundor holda yaratiladi. Shuningdek, ushbu janrni turli zamonaviy metodlar, xususan, ko‘rgazmali qurollar, zamonaviy aspektlar asosiga

qurilgan hamda o‘quvchilar o‘zlari tomonidan sahnalashtirilgan tarzda tashkil etish bilim oluvchiar o‘rtasida ushbu janrga bo‘lgan munosabatni kuchaytirishi dars. mashg‘uloti saviyasini oshirish imkoniyatini beradi. Ertak janri matni ustida ishlash jarayonida chuqurroq tahlil qilish va yanada batafsil ma’lumot berish janrining turli o‘ziga xos xususiyatlarini kengroq o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ertak janri – insoniyatning muhim madaniy merosi. Ertaklar orqali xalqning qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashini saqlab qolish mumkin. Ushbu janr bolalar tarbiyasida, ularga axloqiy qadriyatlarni o‘rgatishda va badiiy tasavvurni kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Ertaklar orqali odob-axloq qoidalari, qahramonlik, halollik, va mardlik kabi fazilatlar tarbiyalanadi. Shu bilan birga, ertak janri matnlarini o‘rganish badiiy tahlil, janrning tarkibiy qismlari, timsollar va syujet tuzilmasini aniqlash imkonini beradi. Ertaklar insonning ichki dunyosini va ijtimoiy hayotdagi muammolarni o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Matnlar ustida ishlash natijasida ularning zamonaviy ta'lim va madaniyatdagi ahamiyatini ham o‘rganish mumkin. Umuman olganda, bu ish ertak janri matnlarini chuqurroq o‘rganishning ahamiyatini ta’kidlab, ularning adabiy va madaniy meros sifatida saqlanishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. T.: «FAN»
2. M.Jo‘rayev. J. Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish, T: "Barkamol fayz media 2017. O‘ZBEKISTON, 180 b
3. Sarim soqov B. O‘zbek folklorining janr sostavi // O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik.l-tom. -T.: "Fan", 1988

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATNNI O‘RGANISH BOSQICHLARI

**Doniyorova Dinora Kenjaboy qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
**Tursunboyeva Nurjahon Mahmudjon qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** ushbu tezisda boshlang‘ich sinflarda matnni o‘rganish bosqichlari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, darslikdagi matnlar tahlili qilinib ularning ma’no va mazmuni haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, 3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida berilgan Muhabbat Hamidovaning “Odob” nomli matni tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘z:** Boshlang‘ich sinf, o‘qish, matnni tahlil qilish, tahlil, matn tanlash, o‘qish tezligi.

**Abstract:**this thesis focused on the stages of text learning in the elementary grades, and analyzed the texts in the textbook and talked about their meaning and content. Also presented is an analysis of the text of the love Hamidova, entitled” decency“, given in the 3rd grade textbook” reading literacy".

**Key words:** Elementary class, reading, text analysis, analysis, text selection, reading speed.

**KIRISH**. Mustaqilligimizdan so‘ng yurtimizda ta'lim sohasida ko‘plab yangiliklar va o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712- on farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini tasdiqlash ilgari surilgan. Boshlang‘ich sinf darsliklari hozirda ko‘plab davlatlarning darsliklari bilan sinov muddati o‘tamoqda. Misol tariqasida Finlandiya tizimi asosida yaratilgan darslik haqida so‘z olib borar ekanmiz bu darslik o‘quvchilarning qiziqishlariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Fanlarning o‘zaro integratsiyalashganligi o‘quvchilarning salohiyatini yanada oshiradi. Darslikda ijodiy vazifalar va muammolarni hal qilish topshiriqlari ham mavjud.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limining asosiy maqsadi – o‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, o‘quvchilar lug‘at boyligini oshirish, fikr mahsulini to‘g‘ri ravon va ongli ifodalashga o‘rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri - matn yaratishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, uni o‘quv

amaliyotiga izchil joriy etish hisoblanadi. Matn – bu ma'lum bir maqsadga erishish uchun so‘zlar, jumlalar va paragraflardan tashkil topgan ifoda hisoblanadi. Matnlar o‘qish, yozish va muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ular turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin: hikoyalar, maqollar, insholar va dialoglar kabi. Matn tuzish bolalarga bir qator foydali ko‘nikmalar va manfaatlar beradi va ular quyidagilar:

1. Matn tuzish bolalarning tasavvurini kengaytiradi va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

2. O‘z fikrlarini aniq va izchil ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi, bu esa ularning yozma nutqini yaxshilaydi.

3. Matn tuzish jarayonida mantiqiy tahlil va tartibga solish ko‘nikmalari rivojlanadi, bolalar fikrini izchil ifoda etishni o‘rganadilar.

4. Lug‘at boyitish, grammatik qoidalarni o‘zlashtirish va tilni ishlatish qobiliyatini oshiradi.

5. O‘z his- tuyg‘ularini va fikrlarini erkin bayon etish imkonini beradi, bu esa o‘z-o‘zini anglashga yordam beradi.

6. O‘ziga qiziqarli mavzularni tanlash orqali o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bu ko‘nikmalarni egallagan bola matnni qiyinchiliksiz tuza olishi mumkin bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflardan matnni o‘rganish jarayoni bolalarning o‘qish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, har biri o‘quvchilarning matnni tushunish va tanqidiy fikrlashini oshirishga qaratilgan.

1. Matnni tanlash. O‘quvchilar uchun qiziqarli va foydali matnlar tanlash muhimdir. Ularning yoshiga mos keladigan tushunarli va ma'lumotlarga boy bo‘lishi zarur. Masalan, ertaklar, qisqa hikoyalar yoki ilmiy maqolalar tanlanishi mumkin.

2. Oldindan ko‘rib chiqish. O‘quvchilar matnni o‘qishdan oldin, matnning mavzusi, muallifi va asosiy g‘oyasi haqida suhbat qilishi kerak. Bu jarayon bolalarning qiziqishlarini oshirishga va matnni o‘zlashtirishga yordam beradi.

3. O‘qish jarayoni. O‘quvchilar matnni o‘qiydilar. Bu bosqichda talaffuz va o‘qish tezligiga e'tibor berish zarur. O‘qish jarayonida o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularga kerakli ko‘rsatmalar berish muhimdir.

4. Tushunishni tekshirish. O‘qishdan so‘ng, o‘quvchilarga savollar berish orqali ularning matnini qanday tushunganini aniqlash kerak. Savollar aniq va qiziqarli bo‘lishi lozim, bu esa bolalar o‘rtasida muhokama va fikr almashinishini rag‘batlantiradi.

5. Muvofiqlik va tahlil. O‘quvchilar o‘qilgan matnni muhokama qilishadi. Ular matnning asosiy g‘oyasi, qahramonlari va voqealar haqida fikr yuritishlari, o‘z nuqtai nazarini bildirishlari mumkin. Bu jarayon tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

6. Ijodiy faoliyat. Matn asosida ijodiy ishlarda e'tibor berish zarur. O‘quvchilar matndan ilhomlanib rasm chizish, dramatizatsiya qilish yoki yangi hikoyalar yozish orqali o‘z ijodiy qobilyatlarini namoyish etishlari mumkin. Bu jarayon ularning bilim doirasini kengaytiradi.

7. Takrorlash va qiyoslash. O‘quvchilar o‘qilgan matnni boshqa matnlar bilan qiyoslash orqali tushunishlarini chuqurlashtirish mumkin. Bu jarayon ularning bilimdoirasini kengaytradi.

8. Natijalarni baholash. O‘quvchilar o‘z o‘qish jarayonlari haqida fikr yuritishadi. Bu baholash nafaqat o‘qituvchisiga balki o‘quvchilarga ham o‘z o‘zgarishlarini tushunishiga yordam beradi.

3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligining 57-betida Muhabbat Hamidovaning “Odob” nomli matnini ko‘rib chiqsak. Ushbu matnni quyidagi bosqichlarda tahlil qilamiz.

1. Matnni tanlab olamiz.

2. O‘qishdan avval uning muallifi ya'ni Muhabbat Hamidova ekanligiga va mavzusiga e'tibor qaratamiz.

3. Matnni talaffuz va o‘qish tezligiga e'tibor bergan holda o‘qib chiqamiz.

4. Matn to‘g‘risidagi quyidagi savollarni o‘quvchilarga beramiz.

a) Muallif hikoya orqali nima demoqchi bo‘lgan.

b) Nima uchun madina maktabga bormadi.

5. Matn birgalikda muhokama qilinadi. Uning qahramonlari Madina, Karima opa, Hakima xola Matluba kelinoyi.

6. Matnga mos rasm chiziladi.

7. Matnni darslikdagi boshqa matnlar bilan solishtiramiz. Ustun jihatlarini sanaymiz.

8. Natijalarni baholaymiz.

Boshlang‘ich sinflarda matnni o‘rganish bosqichlari o‘quvchilarning o‘qish va tushunish qobiliyatlarini rivojlanishiga qaratilgan. Har bir bosqich o‘ziga xos vazifalar va uslublarga ega bo‘lib, ularning bilim va kunikimalarini kengaytirish uchun muhimdir. O‘qituvchilar bu jarayonni samarali tashkil etish orqali bolalar hayotida kitobning ahamiyatini oshirishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 29.04.2019-yil

2. G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qish metodikasi (Ma’ruzalar matni). 2-qism. Toshkent, 2002.

3. 3-sinf “O‘qish savodxonligi” 2023-yil.

4. http//universalpublishings.com.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BADIIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASH

**Allaberganova Shahrizoda Bozorboy qizi**
GulDPI, “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
**Abdug‘ofurova Feruza Ikrom qizi**
GulDPI, “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar orqali o‘quvchilarda fanga oid tayanch kompetensiya elementlari shakllantirish jihatlari aytib o‘tilgan. Tanlangan metodni qo‘llash orqali o‘quvchilarda do‘stlik, mehr-oqibat, poklik tuyg‘ularini badiiy asar orqali shakllantirish, fikrlarini erkin va teran bildirishga o‘rgatish, bu bilan ularning dunyoqarashini o‘stirish, darslarda topqirlik, zukkolik, tezkorlik hamda faollik kabi qobiliyatlarini yanada takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich ta’lim, badiiy asar, ertak, afsona, rivoyat, do‘stlik, “To‘rt pog‘onali” metodi.

**Abstract.** This article touches upon the aspects of developing students' basic elements of competence related to science through modern technologies. Using the chosen method, students are offered to develop feelings of friendship, kindness and purity through a work of art, learn to freely and deeply express their thoughts, thereby developing their worldview, ingenuity, resourcefulness, intelligence and further improvement of abilities. such activities are provided.

**Key words:** Primary education, artistic work, fairy tale, legend, narrative, friendship, "Four-step" method.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirish bugungi kunda jamiyatning maktab oldiga qo‘ygan muhim talablardan biri hisoblanadi. O‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyati va faolligini o‘stirishdek muhim vazifa darsda faollik prinsipini muvaffaqiyatli qo‘llash darajasi bilan chambarchas bog‘langan.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yangi yaratilgan “Milliy o‘quv dasturi” asosida chiqarilgan darslikda o‘quvchilarning og‘zaki bilim ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratilgan. O‘qish savodxonligi fani og‘zaki va ijodiy fikrlashni o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qish savodxonligi darslari oldiga qo‘yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog‘liq bo‘lib qolmay, balki bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o‘zgarishlar, turli foydali mehnatlar bilan ham o‘zaro bog‘liq bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligi darslarini afsonalarsiz, ertak va rivoyatlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Afsona va rivoyatlar bolalarda go‘zallikka muhabbat uyg‘otadigan, poklik tuyg‘ulariga orzuqa bo‘ladigan hissiyotni oshiradigan, tasavvurlar olamini boyitadigan, estetik didni os‘tiradigan, aql- idrokni mustahkamlaydigan, musiqa va tasviriy san’at elementlari bilan bog‘liq bo‘lgan, ozodlik va hurlikning qadrini his qildira oladigan darajada ta’sirchan va sehrli bo‘lishi zarur.

Afsona va rivoyatlar o‘quvchilarning ma’naviy kamol topishiga, qadrlash, e’zozlash kabi tuyg‘ularini rivojlantirishga, eng asosiysi o‘quvchilarning dunyo qarashini o‘zgartirishga, ularning so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Badiiy asar orqali o‘quvchilarning ruhiy holatini, asar mualliflariga bo‘lgan munosabatlarini orqali ularning psixologiyasini bilib olishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy tarbiyasi shakllanishida ham afsona va rivoyatlarning o‘rni beqiyosdir. Shuningdek “Shiroq” afsonasida vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, insoniylik g‘oyalari ilgari suriladi. Bu rivoyat asosda bolalarning ruhiyati takomillashadi. Afsonalarimizni bolalarga o‘rgatishda har xil vositalar, texnologiyalar bilan ish olib olib borish maqsadga muvofiqdir.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Badiiy asar mazmunini tahlil qilish va to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.

2. Asarning g‘oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, syujet chizig‘i qurilish va tasviriy vositalarini tushuntirish o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishini, bog‘lanishli nutqini rivojlanishinii ta’minlaydi.

3. O‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil etishning zururiy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o‘qish o‘quvchilarning bilish faolayitini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Masalan 3-sinf darsligida berilgan “Do‘stlik yo‘lagi” rivoyatini tahlil qilamiz. Bu rivoyatda do‘stlik, qon-qarindoshlik, mehr-oqibatlilik, ezgulik kabi g‘oyalar juda ta’sirchan va samimiy tasvirlab berilgan: “Qish kelib, qalin qor yog‘a boshlagan kunlarning birida qo‘shnilardan biri erta turib, darvozasi oldidagi qorni kurab, kata yo‘l tomonga yo‘lak ochibdi. Ishini tugatib qarasa, qo‘shnisi darvozasi oldidan yo‘lak ochib bo‘lgan ekan. Shunda u: “Ertaga vaqtliroq chiqib, birinchi bo‘lib yo‘lak ochib qo‘yaman”, deb ko‘nglidan o‘tkazibdi. Tuni bilan yana qor yog‘ibdi. Haligi odam qorni birinchi kuramoqchi bo‘lib saharda turibdi-da, shosha-pisha ko‘chaga chiqibdi. Ish boshlashdan oldin qo‘shnisi tomonga qarabdi. Qarasa, qo‘shnisining darvozasidan katta yo‘l tomonga yo‘lak ochib bo‘lingan ekan…

Bu kabi tushunchalar 4-sinf o‘qish savodxonligi darsligida ham berib o‘tilgan bo‘lib, buni “Do‘stlikda gap ko‘p ekan” o‘zbek xalq ertagi talqinida “To‘rt pog‘onali” metod orqali ko‘rib chiqamiz.

“To‘rt pog‘onali” metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

“Tushuntirish” bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarga avval oddiy asarni o‘qib, tushuntirib beradi.

“Nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish” bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarga topshiriqni qanday bajarish kerakligini amalda ko‘rsatib beradi.

Uchinchi bosqichda o‘quvchilar o‘qituvchi ko‘rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi, o‘quvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan o‘qituvchi o‘z fikrini bildirib, xatolarini to‘g‘rilab turadi.

“Mashq qilish” bosqichida ta’lim oluvchilarning hatti-harakati o‘qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. O‘quvchilar ish amallarini mukammal o‘zlashtirganlaridan so‘ng, uni mustaqil bajaradilar. “To‘rt pog‘onali” metodning asosiy belgisi o‘quvchilarning harakatlari O‘qituvchi ko‘rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir. “To‘rt pog‘onali” metodning afzalliklari: ta’lim oluvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda yordam beradi; vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud; oddiy ish bosqichlarini o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi.

Ertakni o‘quvchilarga oson tushuntirish, ertak qahramonlari o‘rniga o‘zlarini qo‘yib ularning hissiyotlarini his qildirish, asar voqealariga qiziqtirish va bundan tashqari ularning aktyorlik mahoratlarini sinash va orttirish uchun asarni rollarga bo‘lib ijro qildiramiz. Bu ertakda qog‘ozvoy va kesakvyning do‘stligi ta’riflangan bo‘lib bir kuni ikkalasi ham do‘st axtarib safarga chiqishgan paytlari uchrashib qolishadi. Shunda birinchi bo‘lib qog‘ozvoy gap boshlaydi:

- Assalomu alaykum, Kesakvoy

- Vaalaykum assalom, - deb zo‘rg‘a alik olibdi Kesakvoy.

- Qani, Kesakvoy, yo‘l bo‘lsin, juda ham xafa ko‘rinasan? – so‘rabdi Qog‘ozvoy,

- Bir joyda yolg‘iz yuraverib juda zerikib kettim. O‘zimga do‘st-birodar axtarib ketyapman, - debdi Kesakvoy…

Kunlardan bir kuni qattiq shamol turibdi. Shunda Qog‘ozvoy juda qo‘rqib ketibdi-da, Kesakvoyga:

- Voy, do‘stim Kesakvoy, chatoq bo‘lyapti-ku?! Ana endi, bizning do‘stligimiz buziladigan bo‘ldi. Shamol bobo qahr bilan kelib, meni sendan ayirib olib ketadi, - debdi qattiq qayg‘urib.

- Men bor ekanman, bunday bo‘lishi mumkin emas. Men bunga yo‘l qo‘ymayman, debdi Kesakvoy. Keyin Qog‘ozvoyning ustiga chiqib uzala tushib yotib olibdi-da, do‘stini Shamol bobo olib ketishidan saqlab qolibdi.

- Ikkovlari xursand bo‘lib turishgan ekan, osmonga Bulut bobo chiqib olibdi. Hamma yoqni qorong‘ilik bosib, bir payt sharros yomg‘ir quyib beribdi. Kesakvoy do‘sti Qog‘ozvoyga qarab:

- Ey do‘stim Qog‘ozvoy, ana endi mendek do‘stingdan ajraladigan bo‘lding. Mana shu yomg‘ir meni birpasda eritib selga qo‘shib olib ketadi-da, sendan ajratib, do‘stligimizga chang soladi, debdi.

- Shunda Qog‘ozvoy do‘stiga qarab:

- Unday deb g‘amga berilma, oshna. Mendek do‘sting bor ekan, bunga yo‘l qo‘ymayman. Men seni o‘rab olib, seni yomg‘irning qahr-g‘azabidan saqlab qolaman... debdi.

Bundan ko ‘rinib turibdiki do‘sting chin bolsa albatta har doim oldingda turadi.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich ta’limda badiiy asarlarni o‘rganish tanqidiy fikrlay oladigan, boshqalarga hamdard bo‘ladigan, o‘z fikrini ijodiy ifoda eta oladigan barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlar yosh o‘quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va madaniy ongni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Asarni tahlil qilish o‘quvchilarni savol berishga, aloqa o‘rnatishga va o‘z fikrlarini rivojlantirishga undaydi. Turli xil badiiy asarlarni o‘rganish orqali o‘quvchilar turli madaniyatlar va tarixlar haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Bu hamdardlik va tafovutlar uchun minnatdorchilikni rivojlantiradi, yanada kengroq dunyoqarashni rag‘batlantiradi. Badiiy asarlar o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini va fikrlarini ijodiy tarzda ifoda etishga imkon beruvchi vositadir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU. 2000.

2. Boshlang‘ich ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish: muammolar va yechimlar Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari Toshkent -2014.

3. Jumayev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbayeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang‘ich ta'lim fanlarini o‘qitish metodikasi O‘UM. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.

4. Toirova M.E. 3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligi. “Novda”, Toshkent - 2023.

5. Toirova M.E. 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligi. “Novda”, Toshkent - 2023.

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI BADIIY MATN USTIDA ISHLASH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH

**Valijonova Tursunoy G‘anijon qizi**
GulDPI “Boshlangich ta’lim” yonalishi 3-kurs talabasi
**Zilola Xojimurotova Muhiddin qizi**
GulDPI “Boshlangich ta’lim” yonalishi 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy matnlar ustida ishlash orqali mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodlari yoritilgan. Badiiy matn ustida ishlashning nafaqat bolalarning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda, balki ularning mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini ifoda etish hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishdagi o‘rnini tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada badiiy matn tahlili jarayonida qo‘llaniladigan samarali metod va texnikalar haqida batafsil ma'lumot berilgan. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda matn bilan ishlashni qiziqarli va tushunarli usullar yordamida tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, badiiy matn, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, pedagogika, o‘quvchilar rivojlanishi, tanqidiy fikrlash, o‘quv metodlari, o‘qitish usullari, ta'lim texnikalari.

**Abstract:** this article covers methods for the formation of independent thinking skills of Primary School students by working on artistic texts. The role of working on an artistic text is analyzed not only in the development of children's analytical and critical thinking skills, but also in their ability to make independent decisions, express their own opinion and improve logical thinking skills. The article also details the effective techniques and techniques used in the process of artistic text analysis. Recommendations have been made to organize work with the text using interesting and understandable methods, taking into account the age characteristics of readers.

**Keywords:** primary grade, literary text, independent thinking, analysis, pedagogy, student development, critical thinking, teaching methods, teaching methods, teaching techniques.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mustaqil fikrlashni rivojlantirish juda muhim, chunki bu yoshda asosiy o‘quv ko‘nikmalari shakllanadi va o‘quvchilarning aqliy salohiyati rivojlanishining negizlari yaratiladi. Badiiy matn ustida ishlash orqali bolalarda tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu jarayon faqatgina matnni o‘qib, mazmunini anglab yetishdan iborat bo‘lmay, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘z qarashlarini ifoda etishga va o‘qilganlardan kelib chiqib xulosa chiqarishga o‘rgatishni ham o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun badiiy matnning ahamiyati. Badiiy matn o‘quvchilarga qahramonlar xarakteri, voqealar rivoji va muallifning o‘ziga xos yondashuvini tushunish imkonini beradi. Matn mazmunini tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar voqealar zanjirini kuzatib, turli nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqadilar. Bu esa ularni chuqurroq fikrlashga, voqealarga o‘z munosabatini bildirishga undaydi. Shu orqali ular o‘zlarining hayotiy tajribalarini kengaytiradilar va mustaqil qarash shakllantirishni o‘rganadilar.

Badiiy matn ustida ishlash metodlari:

1. Savol-javob usuli: Matnni o‘qib chiqqach, o‘quvchilarga mazmunni anglash va tahlil qilish uchun savollar beriladi. Savollar yordamida matndagi voqealar, qahramonlarning xatti-harakati va muallifning niyati haqida o‘ylashga undaladi.
2. Munozara: O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, muhokama qilish imkonini yaratish. Bu usul ularning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, o‘z fikrlarini boshqalar bilan baham ko‘rish imkonini beradi va turli fikrlarni eshitib, o‘z nuqtai nazarlarini boyitishga yordam beradi.
3. Rol o‘ynash (dramatizatsiya): O‘quvchilar matn qahramonlarining obraziga kirib, ularning xatti-harakatlarini sahnalashtiradilar. Bu usul orqali ular qahramonlarning xarakteri va motivlarini chuqurroq tushunadilar, voqealarga nisbatan o‘z qarashlarini shakllantiradilar.
4. Matn davom ettirish: O‘quvchilarga o‘qilgan matn asosida voqealarni davom ettirish yoki yangi sahna yaratish topshirig‘i beriladi. Bu usul bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ularga voqealarning mantiqiy oqimini tushunish imkonini beradi.
5. Kompyuter va multimedia texnologiyalaridan foydalanish: Animatsiyalar va multimedialar yordamida matn voqealarini jonlantirish bolalarning qiziqishini oshiradi, vizual tasvirlar orqali o‘qilganlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish natijalari. Badiiy matn ustida ishlash natijasida o‘quvchilar bir qator ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:

- tahliliy fikrlash: Matndagi asosiy fikrlarni aniqlash va xulosalar chiqarish ko‘nikmalari rivojlanadi.

• tanqidiy fikrlash: Qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, voqealarga o‘z nuqtai nazari bilan yondashish qobiliyati shakllanadi.

• mantiqiy xulosa chiqarish: Voqealar zanjirini mantiqan tahlil qilib, davom ettirish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi.

• ijodiy fikrlash: Matn asosida yangi g‘oyalar yaratish, voqealarni boshqacha tugatish yoki rivojlantirish orqali ijodiy qobiliyat shakllanadi.

Xulosa. Badiiy matn ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda samarali vositalardan biridir. Bu jarayon orqali o‘quvchilar nafaqat o‘qish va tushunish, balki o‘qilgan matnga nisbatan o‘z fikrlarini bildirishi, tahlil qilish va ijodiy yondashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ta’lim jarayonida badiiy matndan foydalanish, o‘qituvchilarga o‘quvchilarni ijodkor, tahlil qiluvchi va tanqidiy fikrlovchi shaxslar sifatida tarbiyalashda katta yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov, A. (2018). Boshlang‘ich sinflarda badiiy matn bilan ishlash metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

2. Abdullaeva, Z. (2019). Badiiy matn va ijodiy fikrlash. Pedagogik mahorat jurnali, 4(2), 47-51.

3. Rafiqova, M. (2020). Boshlang‘ich ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari. Toshkent: Talim texnologiyalari instituti.

4. Niyozov, A. (2017). O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish. Pedagogika va psixologiya fanlari ilmiy jurnal, 3(5), 33-39.

5. Mamatqulov, O. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashga o‘rgatish. O‘zbekiston pedagogik nashriyoti.

## BOSHLANG‘ICH TA’LMDA PIRLS TOPSHIRIQLARI USTIDA ISHLASH

**Jumanova Soliha G‘ayrat qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lm” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
**Zakiryayeva Durdona Nazar qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lm” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS topshiriqlari asosida badiiy asarlarni tahlil qilishga o‘rgatishning ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim tizimi, funksional savodxonlik, milliy rejaning maqsadi, PIRLS test topshiriqlari, o‘zbek xalq maqollari, boshlang‘ich sinf, jahon amaliyoti, hikoya, test topshiriqlari, kompetensiya, o‘qish, badiiy asar, ta‘‘lim sifatini baholash.

**Abstract.** This thesis discusses the importance of teaching primary grade students to analyze works of art based on PIRLS tasks.

**Key words:** educational system, functional literacy, the purpose of the national plan, PIRLS test tasks, Uzbek folk proverbs, primary class, world practice, story, test tasks, competence, reading, artistic work, ta Assessment of the quality of education.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 2030- yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.Yoshlarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish, ularni ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi

kunning dolzarb masalalaridan biridir. Yoshlarni jahon andozalariga mos holda tarbiyalash pedagoglar oldidagi muhim vazifalaridan biridir.

Konsepsiya doirasida, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro PIRLS, PISA, TIMSS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Shuningdek, xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq ishlar olib borilmoqda.

**Keyword:**elementary school,reading literacy,folklore,admonition,proverb.

**KIRISH**. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kelajak yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, - degan edilar.

**“Maqol” -** xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda,obrazli va obrazsiz,grammatik va tugallangan ma’noli hikmatli ibora,chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalar, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va soda poetik shaklga kelgan. Xalq og‘zaki ijodi haqida ilmiy ish olib borgan dunyodagi hamma olimlar maqollarda millatning dunyoqarashi, hayot va tabiat voqealariga bo‘lgan munosabati aks etganini alohida ta’kidlaydilar.

Bizga ma’lumki, badiiy asar matni ustida ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Maqollarni o‘rganishda ham bu bosqichlariga e’tibor qaratish darkor. 1-2-sinflar maqollarni

o‘rganishning ilk bosqichi bo‘lsa savod o‘rgatish davri maqollarni o‘qish va o‘rganishning tayyorlov bosqichidir. Savod o‘rgatish davridayoq o‘quvchilar maqollarni o‘qiy boshlaydilar. Alifbe davrida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bog‘liq bo‘lib, ular matn g‘oyasini o‘quvchilarga aniq hamda lo‘nda yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Bu vaqtda o‘quvchilarga maqollar o‘qitiladi, ma’nosini bilganlaricha izohlab berishlari talab qilinadi.

Maqollarni o‘rgatish o‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g‘oyaga mos maqol ustida qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib olish zarur. Boshlang‘ich sinflarda matn ostida berilgan maqollarni o‘qish va o‘rganish,tahlil qilish asar o‘qilib,tahlil qilinib bo‘lingach amalga oshirilishi kerak. Boshlang‘ich sinflarning 1-2-sinflarida maqolni ifodali o‘qish va yod olishga ahamiyat beriladi. 1-2-sinflarda maqolning mazmunini o‘rganish va yod olishdan tashqari, uning matnida izohli so‘zlar, birikmalar ustida lug‘at ishi o‘tkazish, badiiy til vositalari,ko‘chma ma’noli, qarama-qarshi ma’no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so‘zlar ma’nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi. 3-sinf o‘qish savodxonligi darsligida ham maqollar berilgan, ushbu maqollar turli xil metodlar orqali o‘quvchilar saviyasiga mos holda tuzilgan. Masalan,”bulbul bog‘ni bezaydi”,-degan maqolni bulbul va bog‘ni rasmini qo‘yib bezaydi so‘zini qo‘ygan.

Xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish maqol o‘quvchilarni xotirasini charxlaydi, fikrlash doirasini kengaytiradi, mantiqiy tafakkurni boyitadi hamda rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinfning deyarli barcha darsliklarida xalq og‘zaki ijodi namunalari berilgan bo‘ladi. Ona tili darsliklarida ko‘proq xalq maqollarni mashqlar tarkibiga singdirilgan. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatidan kelib chiqqan holda darsliklarga kiritilgan maqollar tushunilishi oson bo‘lgan maqollardir.

Bilamizki, maqol xalq og‘zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari-ohangdosh tovushlilar takrori bo‘ladi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo‘lgan ajoyib so‘z ustalarining o‘lmas satr va hikmatli so‘zlari ham ko‘pincha xalq maqollariga o‘xshab ketadi. Masalan, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida aytgan bir qancha hikmatli so‘zlari shular jumlasidandir: “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”, “Tilga ixtiyorsiz - elga e’tiborsiz” va boshqalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbek xalq maqollari.
2. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi (ma’ruzalar matni) 2-sinf, G‘ulomova X,Yo‘ldosheva Sh , - T.:2002
3. Fuzailov S,Xudoyberganova M,Yo‘ldosheva Sh., Ona tili, 3-sinf.- T.:2019
4. Ikromova R,G‘ulomova X,Yo‘ldosheva Sh,Shodmonqulova D,Ona tili,4-sinf uchun, T .,2020
5. Mirzayeva S., O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.:O‘qituvchi,1992.
6. https://www.samdu.uz
7. https://uz.wikipedia.org
8. https://arxiv.uz.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BADIIY ASARNI TAHLIL QILISH USTIDA ISHLASH

**Qodirqulova Dilnoza Xayrulla qizi**
GulDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
**Turdibekova Noila Nurbek qizi**
GulDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar orqali o‘quvchilarda fanga oid tayanch kompetensiya elementlari shakllantirish jihatlari aytib o‘tilgan. Tanlangan metodni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tarixga, milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishlari ortadi, o‘quvchilar ijodiy, erkin o‘z fikrlarini bildirishga harakat qiladilar, bu bilan ularning mustaqil fikri, dunyo qarashi o‘sadi, darsdagi qiziqishlari, topqirliklari, zukkoligi, tezkorligi, faolliklari oshib borishi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Rivoyat, innovatsion metod, boshlang‘ich ta'lim, to‘rt pog‘onali, Ibn Sino.

**Abstract:** In this article, the aspects of forming basic competence elements related to science in students through modern technologies are mentioned. By using the selected method, students' interest in history and national values increases. Students try to express their ideas creatively, freely, thereby their independence his mind, world view grows, his interests in class, resourcefulness, intelligence, quickness, activities increase is highlighted.

**Keywords:** Narration, innovative method, primary education, four steps, Ibn Sina. Boshlang‘ich ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va konikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Pedagog olimlar fikriga ko‘ra faollik tamoyili quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi:

-Ishning maqsad va vazifalarini aniq bilish, tushunish va tushuntirish;

-Bilish jarayonining analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va qiyoslash kabi ko‘rinish va shakllarni qo‘llab o‘qitish;

-Har bir so‘z, gap, tushunchani to‘liq ochib bera olish;

-Jamoa bo‘lib, guruh bo‘lib, bir-birini o‘qitishga erishish;

-Ta'lim samarali bo‘ladi, qachonki siz ishlatilishiga oid misollar ko‘proq keltirsangiz;

-Har bir narsadan asosiysini topishga o‘rgating;

-Har bir shaxsning individual xususiyatlarini biling, shunga mos o‘qiting, muomalada bo‘ling;

-O‘ylashga, fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgating.

-Yordamchi narsalar ko‘chirish, aytib turish, nusxa olishga o‘rgatmang.

-Ijodiy tafakkurni oshiruvchi mashqlarni ko‘proq qo‘llang.

Boshlang‘ich ta'limda o‘qish darslarini afsona va rivoyatlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Afsona va rivoyatlar bolalarda go‘zallikka muhabbat uyg‘otadigan poklik tuyg‘ulariga orzuga bo‘ladigan hissiyotni o‘tkirlashtiradigan, aqlni, fahm-farosatni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o‘stiradigan musiqa va tasviriy san'at predmetlari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi kerak.

Afsona va rivoyatlar qadrlash ko‘nikmalarini o‘stiradi, o‘quvchilarni shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllanishga xizmat qiladi. Ayniqsa,darsda o‘quvchilarni faolligini oshiradigan ruhiyatlarini shakllantiradigan,tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr tabiatidan kelib chiqib rollarga bo‘lib o‘qitish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og‘zaki hikoya tuzdirish kabi ijodiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘qish darslarida afsona va rivoyatlarni o‘rganishdan maqsad tarbiyaviy vazifaning hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog‘liq bo‘lib qolmay balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o‘zgarishlar, ekalogik vaziyatlar, mehnat o‘tmish o‘zbek xalq qahramonlari bilan ham o‘zaro bog‘liq bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinflarda ta'lim jarayonini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, fikri, xarakteri, tasavvur va tushunchasi, idrok etish qobilyati, irodasi, qiziqishi faolligi kabi ruhiy holatlarini o‘rganishni taqozo etadi.

Shunga ko‘ra afsona va rivoyatlar o‘quvchilarni ruhiyatini o‘stirishga xizmat qiladi Vatan haqidagi tasavvurlarini boyitib boradi.

Bola 1-sinfga kelganida taxminan 1300, 1400 atrofida so‘z boyligiga ega bo‘ladi. Maktab ta'limi, o‘qituvchilarning pedagogik mahorati bilan unga har kuni 5-6 ta yangi so‘z o‘rgatiladi va bu so‘zlar uning lug‘atidan joy olishi hamda mustahkamlanishi kuzatilib boriladi. O‘quvchilarni so‘z boyligini oshirishda, uning ruhiyatini shakllanishida afsona va rivoyatlarning samarasi kuchli bo‘ladi. O‘quvchilar bilimini rivojlantirish va uning nufuzini oshirishda pedagogik, metodik va psixoplogik tamoyillarga amal qilib, har bir o‘qituvchi o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lishi va tizimli ravishda bolalar ona tili o‘qitishning eng maqul uslublarini qo‘llash orqali ko‘zda tutgan maqsadiga erishishi aniq. O‘qituvchi bolalar ruhiyatini chuqur o‘rganib, ularning har biriga o‘ziga xos munosabatda bo‘lish, nutqida tasviriy vositalarni ishlatishga o‘rgatishni taminlash kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy talablardan biri ilg‘or pedagogik texnalogiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirib o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga, erkin fiklashga o‘rgatishdir.

Dunyo ta'lim tizimiga nazar tashlaydigan bo‘lak, yangi islohatlar davrida ta'lim tajribalariga tayanib ish tutmoq yaxshi natijalarga olib keladi. Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponya jahonda Amirika Qo‘shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Jahonning ko‘zga ko‘ringan ruhshunoslari va iqtisodchilari Yaponya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyutiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Turli ta'lim ko‘nikmalarini bolalar ongiga singdirish, milliy tarbiyani esa boshlang‘ich ta'limda shakllantirish, yaponlarga xos fazilatdir. Masalan, 2-sinf o‘quvchisi ko‘pchilik oldida nutq so‘zlash qobilyatiga ega bo‘lishi, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Shu bilan birgalikda bolalar milliy qahramonlarini ham yaxshi bilmog‘i zarur. Yaponyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari afsona va rivoyatlarni ham o‘zlashtirmog‘i lozim.

O‘zbekiston Respublikasining ta'lim tizimida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy tarbiyasi shakllanishida ham afsona va rivoyatlarning o‘rni beqiyosdir. Masalan, "Shiroq" afsonasida Vatanparvarlik, jasurlik, insoniylik olg‘a suriladi. Bu asosda bolalar ruhiyati takomillashadi. Afsonalarimizni bolalarga o‘rgatishda har xil ilg‘or vositalar asosida dars jarayonini olib borsak maqsadga erishamiz.

Rivoyatlar har bir sinf kesimida o‘rganiladi. 3-sinf o‘qish darsligida yettita rivoyat kiritilgan bo‘lib, shu rivoyatlarimizdan biri "Ibn Sinoning shogirdlari" rivoyatini quyidagi, "To‘rt pog‘onali" metod orqali dars jarayonini olib boramiz.

"To‘rt pog‘onali" metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

"Tushuntirish" bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarga avval oddiy rivoyatni o‘qib, tushuntirib beradi. "Nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish" bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarga topshiriqni qanday bajarish kerakligini amalda ko‘rsatib beradi.

Uchinchi bosqichda o‘quvchilar o‘qituvchi ko‘rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi, o‘quvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan o‘qituvchi o‘z fikrini bildirib, xatolarini to‘g‘rilab turadi.

"Mashq qilish" bosqichida ta'lim oluvchilarning hatti-harakati o‘qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. O‘quvchilar ish amallarini mukammal o‘zlashtirganlaridan so‘ng, uni mustaqil bajaradilar.

"To‘rt pog‘onali"metodning asosiy belgisi o‘quvchilarning harakatlari O‘qituvchi ko‘rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir.

"To‘rt pog‘onali" metodning afzalliklari: ta'lim oluvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda yordam beradi; vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud; oddiy ish bosqichlarini o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi.

Ibn Sinoning shogirdlari bular quyidagilar:

Tozalik

Parhez

Badantarbiya

Bemor kayfiyati

Natijaviyligi:

Ziyraklik oshadi;

Mustaqil fikrlash ko‘nikmasi rivojlanadi;

Qiyosiy o‘rganish rivojlanadi.

So‘z ajratish malakasi rivojlanadi.

Bunday interfaol darslarni tashkil etish o‘quchilardan darsda faol ishtirok etishni, manbalardan foydalanib, mustaqil yakka holda guruhda jamoa bo‘lib bilim olishni mavzu yuzasidan o‘z mustaqil fikrini bildirishni talab etadi. Ilg‘or pedagogik texnologiya usullari asosida tashkil etiladigan darslar muntazam o‘tkazilib borilsa o‘quvchida mustaqil bilim olish, olingan bilimlarni tahlil qilib, erkin fikr bildirish tajribasi boshlang‘ich sinflardanoq shakllanib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘rsida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son 23.09.2020

2. S.T. Turg‘unov, L.A. Maqsudova, M.A. Umaraliyeva, N.M. Tojiboyeva Pedagogik jaaryonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. -Toshkent : "Sano -standart", 2012.

3. "Ta'lim samaradorligini oshirish yo‘llari" mavzusidagi seminar trening mteriallari.-T., 2002.

4. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU. 2000.

5. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang‘ich ta'lim fanlarini o‘qitish metodikasi O‘UM. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.

6. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. -T.: TDPU, 2013.

## BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH

**Saydullayeva Nozima**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
**Abdusamatova Farida Baxtiyor qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** ushbu tezisda boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ravon va ongli o‘qish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi va nutqi, erkin fikrlash qobiliyati rivojlantirilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, nutq, tafakkur, matn, ijodiylik, matn yaratish, matn ustida ishlash, erkin fikrlash.

**Abstract:** in this thesis, information is given about the development of fluent and conscious reading skills of primary school students and the development of speech and free thinking skills by working on the text in primary grades.

**Key words:** primary education, speech, thinking, text, creativity, creating a text, working on a text, free thinking.

Matn nutqiy hodisa bo‘lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmuniy birikishidir. O‘z tuzilishiga ko‘ra gap xat boshi, bo‘lim qism, boblardan tashkil topadi. O‘quvchilari tomonidan yaratilgan matnlar asosan gap, xat boshi va qismdan iborat bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida bosqichma-bosqich tarzda matn yozish va o‘qish o‘rgatib boriladi.

Matn ustida ishlashga o‘quvchilarni jalb qilish o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday pedagogik jarayon kabi boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashda ham muayyan psixologik, pedagogik, metodik talablar inobatga olinishi zarur. Shundagina boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matn bilan ishlash orqali muayyan bilimlarni o‘zlashtiradi, ravon va ongli o‘qish ko‘nikma-malakalariga ega bo‘ladi, nutqi boyiydi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi, o‘zgaradi. O‘quvchilar qanchalik ko‘p matn o‘qisa, shunchalik so‘z boyligi, matnning ma’nosini tushunish orqali dunyoqarashi va fikrlashi o‘zgaradi. O‘quvchilarini ijodiy fikrlashga yo‘naltirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining asosiy vazifalardan hisoblanadi. O‘quvchilarida ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, tushunarli va ta’sirchan, chiroyli so‘zlash, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga qarab to‘g‘ri, o‘rinli va samarali foydalanish malaka va ko‘nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tilining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Darhaqiqat, ona tili orqali o‘quvchilarida ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsuli og‘zaki va yozma shakllarda tog‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Mashg‘ulotlarida asosiy e’tibor o‘quvchilarga tilning grammatik qurilishini emas, balki ularning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, fikrini sharoitiga mos ravishda ifodalay olish ko‘nikmalarini kengaytirishga qaratishimiz zarur. A.Hamroyev ta’kidlaganidek, ona tili ta’limiga kognitivpragmatik usul elementlarini kiritish

o‘quvchilar tafakkuri va mustaqil fikrlash layoqatlarini o‘stirish, ta’lim jarayoni samaradorligi bolalar o‘zlashtirishining sifatini yaxshilashga olib keladi.

O‘quvchining bunday nutqi uzundan-uzun jumlalardan ortiqcha so‘zlardan xoli bo‘lishiga, nutq yaratilayotgan paytda o‘quvchining so‘zlovilarga nisbatan qanday turishga, qo‘l, ko‘z, bosh, bo‘yin, oyoq harakatlariga alohida e’tibor berish kerak. Nutq sharoitining muxim tarkibiy qismlaridan biri so‘zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishidir. Bu nutqning eng zaruriy tarkibiy qismlaridan biridir. Xalqimiz bunga juda katta e’tibor bergan. Shuning uchun “So‘zim aytgin uqqancha”-kabi maqollarda xam nutqning tinglovchilarga tushunarli qilib bayon etish zaruriyati ta'kidlangan. Tinglovchilarning saviyasini hisobga olish faqat nutq taqdirini emas, balki notiq taqdirini ham hal qiladi. Shuning uchun o‘quvchilarda o‘z fikrini tinglovchining saviyasini, yoshi, mavqeini hisobga olgan holda bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun o‘quvchilar bilan ayni bir fikrni, o‘quvchilarga o‘zidan kichiklarga, tengqurlarga, o‘zidan kattalarga “yaqinlarga, yaqindan tanish bo‘lmagan shxslarga ifodalash ustida muntazam ish olib borishga to‘g‘ri keladi. Bolalarni maktublar yozishga o‘rgatish, ayni bir fikrni turli kishilarga turli xilda bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirishga samarali ko‘nikmalarini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Ona tili darsliklari so‘zga ehtiyoj hosil qiladigan, so‘z boyligini oshiradigan o‘quv-topshiriqlariga, matnlarga boy bo‘lishi, leksikologiya har bir til sathining tarkibiy qismiga aylantirilishi lozim va zarurdir, har bir dars matn tahlili bilan boshlanib, matn yaratish bilan tugallansagina, ona tili ta’minining bosh maqsadga erishgan, o‘quvchilarning nutqiy taraqqiyotini ta’minlagan, ularni nutq sharoitiga mos ravishda go‘zal ixcham va ravon so‘zlashga o‘rgatgan, so‘z san’ati ilmiy bilan tanishtirgan bo‘lamiz. Matn ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishning eng ma’qul usullaridan biri hisoblanadi. Buning uchun ularning og‘zaki va yozma nutqlarini baravar rivojlantirib borish kerak. Biror asar matn ustida ishlashda ham bu talablarni unutmaslik lozim. O‘quvchilarda ijodiy fikrlash va ijodiy matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid tashkiliy-metodik ishlarni asosan o‘tilgan darsni mustahkamlash jarayonida, shuningdek, uy vazifalari bajarishga yo‘llanma berish davrida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Matn yaratishga o‘rgatish orqali o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikma va malakalarini oshirish ona tili mashg‘ulotlarida ko‘zlanadigan bosh maqsad bo‘lib, u so‘z ustida ishlash, gap ustida ishlash va matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi.

Qanday nutqni yaxshi nutq deb atash mumkin? O‘quvchi nutqiga qanday talablar qo‘yiladi? Bu savollarga javob topmay turib bolalar nutqining boshqa muammolari xaida fikr yuritish qiyin. O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri nutqning nutq sharoitiga mosligidir. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so‘zlovchi va tinglovchining sharoiti tushniladi. Bu sharoit bexad ko‘p tarkibli, serqirra bo‘lib so‘zlovchi va tinglovchini nutq paytida qurshab turgan barcha narsa, buyum, holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb-kori, so‘zlovchining maqsadi va imkoniyatlrigacha bshlagn barcha narsalarni o‘z ichiga oladi. Nutq sharoiti nutq shaklini belgilashda juda muhim omildir. Chunonchi, bir-biridan uzoq turgan so‘zlovich va tinglovchi faqat yozma nutq (xat. Maktub, axborot, voqeanavislik va h.k.) vositasida fikr almashtira oladi. Tabiiyki, bu nutqning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Bir-biriga yaqin turgan so‘zlovchi va tinglovchi orasida fikr almashishning eng qulay yo‘li og‘zaki nutqdir. Og‘zaki va yozma nutqning o‘z nutq sharoitlariga yarasha xilma-xil xususiyatlari bor. Chunonchi, so‘zlovchi ko‘p bo‘lsa, so‘zlovchining baland ovozda to‘xtamlarga rioya qilib, imo-ishoralardan kamroq foydalanib, fikrini izchil va birbiriga bog‘liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o‘ziga xos ko‘rinishi, o‘quvchining masalalarini yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida ma’lum bir mavzuni sinfda, biror yig‘inda ochib berishdagi nutqida o‘z aksini topadi. Shuning uchun bunday nutqda fikr izchilligi, gaplarning o‘zaro to‘g‘ri bog‘lanishi, bog‘lovchilar, olmoshlar, soxa atamalari, iboralar, ovoz tembri, ohang kabilarni to‘g‘ri qo‘llashga alohida e'tibor berish lozim. O‘quvchining bunday nutqi uzundan-uzun jumslalardan ortiqcha so‘zlardan xoli bo‘lishiga, nutq yaratilayotgan paytda o‘quvchining so‘zlovilarga nisbatan qanday turishga, qo‘l, ko‘z, bosh, bo‘yin, oyoq harakatlariga alohida e'tibor berish kerak. Nutq

sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so‘zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishidir.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan talablardan biri uning aniq bo‘lishidir. Nutqning aniqligi bu farqat narsa, voqea-hodisani tasvirlash yoki bayon qilish emas, balki shu narsa, voqea-hodisa uchun xos bo‘lgan belgilarini aniqlash, ularning tasviriga mos tushadigan so‘z, so‘z birikmalari, iboralarva gaplar tunlashdan xam iboratdir. Aniqlik nutqning boyligi va rng-barangligi bilan chambarchas bog‘liq. Ma'lum bir mazmunn turli shakllarda bila berish, nutq sharoitiga mos tushadigan tasvir usulini tanlash nutqqa aniqlik kiritadi.

Ohangdorlik ham o‘quvchi nutqiga qo‘shiladigan muhim talablardan biridir. Ohang o‘quvchi nutqining ta’sirchanligini oshirish vositalaridan biridir. Shuning uchun she’riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o‘qiy olish malkasi ham o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablardan bri hisoblanadi. U ohang yordamida nutqni sintegmalarga bo‘ladi. Mantiqiy urg‘uni o‘rinli qo‘llaydi.

Nutqqa qo‘yiladigan yana bir muhim talab uning soddaligi va sofligidir. Sodda nutq avvalo, tushunarli bo‘ladi.

Nutqning tushunarli bo‘lishi bir tomondan fikrni lo‘nda, aniq bayon qilishi, tushunarli bo‘lmagan g‘aliz jumlalardan saqlanishda namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan tinglovchining tayyorgarlik darajsiga ham bog‘liqdir. Demak, o‘quvchi fikrni xam sodda xam ravon bayon qilishi o‘zgalar fikrinng moxiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Nutqning sofligi avvalo uning tozaligi demakdir. Ma'lumki, o‘quvchilar nutqida xar xil qaytariqlar, ortiqcha jumlalar, o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan gap, so‘zlar anchagina qismini tashkil etadi, ular nutqining bunday so‘zlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish ona tili mshg‘ulotlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Nutqni egallash jarayoni bola tafakkurining o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq holda yuz beradi. O‘quvchi o‘z fikrini ifoda etishda til unsurlari(elementlari)ni o‘zlashtirish davomida atrof-olamni his qila boshlaydi, borliqni bilib oladi. Bola ongida til vositalari yordamida aks ettirgan tushunchalar shakllana boradi. Bu holat bolaning faqat ona tilida fikrlashi, idrok etishi asosida ro‘y beradi. O‘quvchi aloqa-aralashuv davomida til unsurlarini egallay borar ekan, ular tilning murakkab hodisalariga duch kela boshlaydi. O‘quvchilar til hodisalarining shakli va mazmuni haqida mulohazalar yurita boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflardayoq o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro nutqiy bog‘liqlikni o‘strib boradilar, ijodiylik, tafakkur, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sobirova M. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchi so‘z boyligini oshirish. Til va adabiyot ta’limi. Toshkent. 1-son. 38 b.

2. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodikasi. Toshkent. O‘qituvchi. 1992. 326 b.

3. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.Toshkent: O‘qituvchi.

4. Ashrapova T. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. T. «O‘qituvchi», 2020-yil. 102103-betlar.

5. L. O‘rinboyeva (va boshqalar). 2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi –Toshkent Respublika ta’lim markazi.

6. Umarova M. O‘qish kitobi. 3-sinflar uchun darslik. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2019-yil.

7. Shojalilov A. va boshqalar. O‘qish kitobi. 4-sinflar uchun darslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 2020

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SHE’RIY MATNLAR USTIDA ISHLASHGA INNOVATSION YONDASHUV

**Rabbimqulova Durdona Haydarqul qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
**Sharifova Charos Fozil qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya**: Boshlang‘ich sinflarda she’riy matnlar ustida ishlashda innovatsion yondashuvlar bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, badiiy so‘z san’ati bilan tanishtirish va o‘qishga qiziqishini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzu she’rlarni o‘qitish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yo‘naltirilgan zamonaviy metodlarni qamrab oladi. Ushbu yondashuvlarda o‘yinli va interaktiv metodlardan foydalanish, texnologiyalardan foydalangan holda audio va video materiallar yaratish, jamoaviy va rolli o‘qish, tahlil qilish kabi usullar orqali bolalarning she’riy asarlarni tushunish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb qilib, ularga ijodiy fikrlash va estetik didni shakllantirishda yordam beradi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda she’r matni ustida ishlash, uni tahlil qilishning innovatsion usullari yoritilgan.

**Kalit so‘z:** boshlang‘ich sinf, she’riy matnlar, innovatsion yondashuvlar, ta’limiy texnologiyalari, didaktik materiallar, bolalar she’riyatiga qiziqish, audiovizual materiallar, bolalarning ijodiy qobiliyatlari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, she’riy obrazlar.

**Abstract:** Innovative approaches to working on poetic texts in elementary grades are important for developing children's creative thinking, introducing them to the art of words, and increasing their interest in reading. This topic covers modern methods aimed at making the process of teaching poems interesting and effective. In these approaches, children's ability to understand poetic works is developed through the use of playful and interactive methods, creation of audio and video materials using technologies, collective and role-playing reading, and analysis. Innovative approaches involve students as active participants in the educational process, helping them to develop creative thinking and aesthetic taste. This article describes innovative methods of working on the text of the poem and analyzing it in elementary grades.

**Key words:** primary class, poetic texts, innovative approaches, educational technologies, didactic materials, interest in children's poetry, audiovisual materials, children's creative abilities, development of critical thinking, poetic images.

**KIRISH**. Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining adabiy nutqini rivojlantirish va ularni badiiy asarlar bilan tanishtirish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, she’riy matnlar orqali bolalarga estetik zavq uyg‘otish, ularning til imkoniyatlarini kengaytirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Boshlang‘ich sinflarda she’riy matnlar ustida ishlashning o‘zgacha usullari o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning ijodiy tafakkurini shakllantiradi va o‘qitish samaradorligini oshiradi. Zamonaviy ta’lim tizimi va metodikasi turli innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, she’riy matnlarni o‘qitishda interaktiv, texnologik va qiziqarli usullarni joriy qilish hozirgi davrda dolzarb masala hisoblanadi. Bu tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang‘ich sinflarda she’riy matnlarni samarali o‘rganish usullarini o‘rganish, innovatsion yondashuvlar asosida o‘qitish jarayonini takomillashtirish va bu orqali o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishdir.

She’r — bu asar yoki his-tuyg‘ularni badiiy uslubda ifodalovchi, o‘ziga xos ritm va qafiyalarga ega bo‘lgan adabiy tur. She’r ko‘pincha o‘zida chuqur ma'nolarni, tasvirlarni va emotsiyalarni mujassamlashtiradi. U lirik, epik yoki dramatik bo‘lishi mumkin va turli xil mavzularni qamrab oladi. She’r yozish san'ati esa poeziya deb ataladi.

She’riy matn — bu she’r shaklida yozilgan badiiy asar. U ritm, qafiya va figurativ til vositalaridan foydalanib, muayyan his-tuyg‘ular, g‘oyalar yoki voqealarni ifodalaydi. She’riy matnlar lirik, epik yoki dramatik bo‘lishi mumkin, va ko‘pincha tasviriy obrazlar, metaforalar va simvollar bilan boyitilgan bo‘ladi. She’riy matnlar o‘zida estetik go‘zallikni va chuqur ma'noni mujassamlashtiradi.

Boshlang‘ich sinflarda she’riy matnlar ustida ishlashga innovatsion yondashuv ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish maqsadida bir qancha metod va texnikalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Interfaol usullar: O‘quvchilarga she’rlarni o‘qitishda o‘yinlar, guruh muhokamalari va rolli o‘yinlar kabi interfaol usullarni qo‘llash. Bu metodlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga va she’rlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

2. Vizual materiallar: She’rlarni tushunishni osonlashtirish uchun rasmlar, videolar va multimediya materiallardan foydalanish. Bu o‘quvchilarning tasavvurlarini kengaytiradi va she’rning ma'nosini chuqurroq anglashlariga yordam beradi.

3. Kreativ yondashuv: O‘quvchilarni she’r yozishga rag‘batlantirish va o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashga imkon berish. Bu, masalan, she’rlar yaratish, ularni sahnalashtirish yoki ijodiy loyihalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

4. Multidisiplinar yondashuv: She’rlarni boshqa fanlar bilan bog‘lash, masalan, san'at, tarix yoki tabiiy fanlar. Bu orqali o‘quvchilar she’rning kontekstini yanada yaxshi tushunadilar.

5. Tadqiqot va muhokama: O‘quvchilarga she’rlarning mualliflari, tarixi va madaniy kontekstini o‘rganish imkoniyatini berish. Bu, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

6. Emotsional bog‘lanish: O‘quvchilarni she’rlardagi his-tuyg‘ular bilan bog‘lash va ularga o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash imkonini berish. Bu, masalan, she’rlardan keyin muhokama o‘tkazish yoki shaxsiy tajribalar bilan bog‘lash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu innovatsion yondashuvlar boshlang‘ich sinflarda she’riy matnlar ustida ishlash jarayonini qiziqarli, samarali va ma’naviy jihatdan boyitishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuv — bu yangi g‘oyalar, usullar yoki texnologiyalarni joriy etish orqali muammoni hal qilish yoki jarayonni yaxshilash maqsadini ko‘zlaydigan yondashuvdir. U quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

-yangi g‘oyalar: Mavjud tizimlarni takomillashtirish uchun yangi fikrlar va konseptlarni ishlab chiqish.

-texnologiyalarni qo‘llash: Zamonaviy texnologiyalar yordamida samaradorlikni oshirish.

-ijodkorlik: Innovatsion yondashuv ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi va yangi yechimlar topishga yordam beradi.


-tajribalar o‘tkazish: Yangi metodlarni sinab ko‘rish va natijalarni tahlil qilish orqali takomillashtirish.

-ko‘p qirrali yondashuv: Bir nechta sohalar orqali amalga oshirilishi, yangi ko‘rinish va yechimlarni keltirib chiqarishi.

Innovatsion yondashuv, umuman olganda, muammolarni yangicha ko‘rib chiqish va ularga yangi yechimlar taklif qilish jarayonidir.

Keling, boshlang‘ich sinflarda berilgan she’riy matnni tahlil qilib ko‘raylik. Misol uchun, "Qish" mavzusidagi she’rni olaylik.

She’r Tahlili: She’r "Qish" mavzusida yozilgan bo‘lib, qish faslining go‘zalliklari va uning tabiiy holatlarini ifodalaydi. She’rda qishning rang-barangligi, qor, muz va qishda yashovchi hayvonlar tasvirlangan. Bu obrazlar o‘quvchilarga qish faslini ko‘z o‘ngida tasavvur qilishga yordam beradi. She’rda qishning go‘zalligi va sovuqligi bilan birga, uning keltirgan hissiyotlari ham aks etadi. O‘quvchilar qorli landshaft va qishki o‘yinlarning quvonchini his qilishadi. She’rda o‘ziga xos ritm va qafiya mavjud, bu esa o‘quvchilarning she’rni eslab qolishini osonlashtiradi va uning estetik go‘zalligini oshiradi.




**XULOSA.** Boshlang‘ich sinflarda she’riyat matnlari ustida ishlash innovatsion yondashuvlar yordamida ta'lim jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi. Interaktiv metodlar, multimedia vositalari, ijodiy loyihalar va o‘zaro baholash orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, tilni o‘zlashtirish va badiiy tuyg‘ularini rivojlantirish mumkin. Madaniy kontekstni

inobatga olish esa she’rlarning chuqurroq tushunilishiga yordam beradi. Shu tariqa, bu yondashuvlar o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdug‘aniyev X. Adabiyot darslarida yangi pedagogik texnologiyalar. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 2020.
2. Abdullaeva S. M. She’riy matnlarni tahlil qilish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 2017.
3. Amonov R. A. Pedagogik innovatsiyalar va texnologiyalar. –T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti, 2018.
4. Jumayeva T. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan she’riy matnlar ustida ishlash. –T.: Fan, 2022.
5. Karomatov Z. Boshlang‘ich ta’limda adabiyot va nutq madaniyati. –T.: Ma’naviyat, 2015.
6. Tursunov I. O‘zbek maktablarida adabiyotni o‘qitish usullari. –T.: Universitet nashriyoti, 2020.
7. Vahobova M. X. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati. –T.: Fan va texnologiya, 2019.
8. Xolmurodov U. Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. –T.: Ilm ziyo, 2016.
9. G‘aniyev B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. –T.: Yangi asr avlodi, 2017.
10. Sharipov A. Ta’limda kreativ va innovatsion yondashuvlar. –T.: Navro‘z nashriyoti, 2021.

## BOSHLANG'ICH SINF O‘QUVCHILARINI RASM ASOSIDA IJODIY MATN TUZISHGA O‘RGATISH

**Imomxo‘jayeva Ma'rifat Rahimjon qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
**O‘ktamova Shaxina O‘tkir qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu yozilgan tizesda boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga berilgan rasmlar asosida mashq va topshiriqlardan foydalanish samaradorligi yoritilgan, metodist olimlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, o‘quv fanini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini rag‘batlantirish, mantiqiy va ijodiy tafakkurini o‘sitirishda mashq va topshiriqlardan foydalanish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari tahlil qilingan va subyektiv munosabat bildirilgan.

**Kalit so‘z**: Matn, rasm, boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar, dastur ,kreativlik, qobiliyat, integratsiya.

**Abstract:** The use of exercises and tasks based on pictures given to elementary school students is highlighted in the given texts, study of the speech of students of the first grade by Methodist scientists, checking of vocabulary, study of educational science The analysis of the progress of sending from exercises and tasks in the establishment of logical and creative thinking, and the subjective attitude of the student was analyzed.

**Keywords:** Text, picture, primary class, students, program, creativity, ability, integration.

So‘nggi yillarda yurtimizda ta'lim sohasida ko‘plab yangiliklar va o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019-yildagi PF-5712-son farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash ilgari surilgan. Boshlang‘ich sinf darsliklari hozirda ko‘plab davlatlarning darsliklari bilan sinov muddatini o‘tamoqda. Misol tariqasida Finlandiya tizimi asosida yaratilgan darsliklar haqida so‘z olib borar ekanmiz, bu darslik o‘quvchilarning qiziqishlariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Fanlarning o‘zaro integratsiyalashganligi o‘quvchilarning salohiyatini yanada oshiradi. Darsliklarda ijodiy vazifalar va muammolarni hal qilish topshiriqlari ham mavjud.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini rasm asosida ijodiy matn tuzishga o‘rgatish – bolalar fikrini rivojlantirish va tasavvurini boyitishda juda samarali usuldir. Mana bu jarayonni samarali tashkil qilish uchun ba’zi maslahatlar:

1. Sodda va tushunarli rasmlardan boshlang: Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun murakkab rasmlar o‘rniga sodda, aniq va o‘zlariga tanish bo‘lgan obyektlar tasvirlangan rasmlar tanlang. Masalan, tabiat manzarasi, maktabdagi holatlar yoki hayvonlar.

2. Rasmni diqqat bilan kuzatishni o‘rgating: O‘quvchilardan rasmni diqqat bilan kuzatishni so‘rang va uni kichik qismlarga ajratib tahlil qilishga yo‘naltiring. Ulardan rasmda nimalar borligini, qanday harakatlar ko‘rsatilganini va qanday ranglar ishlatilganini aytib berishni so‘rang.

3. Savollar berish orqali ijodni rivojlantirish: Rasm haqida turli savollar bering. Masalan:

Bu rasmda nima bo‘lyapti?

Rasmda qanday holat tasvirlangan?

Qahramonlar qanday kayfiyatda, ular nima qilishyapti?

Nima deb o‘ylaysiz, bu voqea qayerda sodir bo‘lyapti?

Qahramonlar keyin nima qilishi mumkin?

4. Tasavvurga yo‘naltiring: Rasm asosida o‘quvchilardan qisqa hikoya tuzishni so‘rang. Ularni qahramonlarning his-tuyg‘ularini, kelajakdagi harakatlarini va voqealarning davomiyligini tasavvur qilishga yo‘naltiring.

5. Yordam beruvchi iboralar bering: Boshlang‘ich o‘quvchilar uchun boshlanishi yoki rivoji qiyin kechishi mumkin, shuning uchun ularga oson iboralar yoki boshlanish shakllarini taklif qiling. Masalan, "Bir kuni...", "Ertalab...", "Birdaniga...".

6. Ko‘rgazmali ijodiy ishlarga e’tibor qarating: Har bir o‘quvchining ijodiy ishini ko‘rib, ularning fikrlarini baham ko‘rishlariga imkon bering. Bu ularda o‘z ishlariga ishonch hissini uyg‘otadi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

7. Mavzuga mos leksikani boyitish: Rasmda uchraydigan obyekt va harakatlar bo‘yicha yangi so‘z va iboralarni o‘rgatib, matnni boyitishda yordam bering. Bu kelgusida mustaqil ijodiy ishlar yozish uchun foydali bo‘ladi.

Bu usullar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida rasm asosida ijodiy matn tuzish ko‘nikmasini samarali shakllantirishingiz mumkin. Shu bilan birga, ularda tasavvur qilish, tahlil qilish va o‘z fikrlarini bayon qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Finlandiya tizimi asosida yaratilgan darsliklar o‘quvchilarning ijodiy, mustaqil va qiziqish asosida o‘rganishlariga ko‘maklashadi. Ushbu darsliklarda an’anaviy yodlash va murakkab nazariya o‘rniga, amaliyotga yo‘naltirilgan va qiziqarli o‘quv jarayoni yaratishga e’tibor qaratiladi. Finlandiya ta’lim tizimi dunyoda yuqori natijalarga erishgani uchun, ko‘plab davlatlar, jumladan, O‘zbekiston ham ushbu tizimga qiziqib, uni mahalliy sharoitga moslashtirishni rejalashtirmoqda.

Finlandiya tizimi asosida yaratilgan darsliklarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Integratsiyalashgan fanlar: Finlandiya tizimida fanlar o‘zaro bog‘lanadi. Masalan, matematika, geografiya va biologiya bir dars doirasida o‘rgatilishi mumkin. Bu o‘quvchilarning o‘rganilayotgan bilimlarni real hayotga moslashtirishlariga imkon yaratadi.

2. Mustaqil o‘rganishga yo‘naltirilgan: O‘quvchilarga mustaqil fikrlash, savol berish va ijodiy yechimlarni izlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ko‘proq erkinlik beriladi. Darsliklar qattiq nazorat qilinmasdan, o‘quvchilarning o‘z qiziqishlariga ko‘ra mavzuni kengaytirishlariga imkon yaratadi.

3. Amaliy va loyihaviy yondashuv: O‘quvchilarga mavzularni tushunishga va o‘rganilgan bilimlarni qo‘llashga yordam beruvchi amaliy topshiriqlar beriladi. Masalan, loyiha ishlari yoki guruh bilan yechim topish mashg‘ulotlari qo‘llaniladi. Bu jarayonda o‘quvchilar ko‘proq qo‘llari bilan ishlashadi, tajriba o‘tkazishadi yoki tadqiqot olib borishadi.

4. Qiziqish va qobiliyatlarni rivojlantirish: Darsliklar o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va qiziqishlariga moslashtirilgan. Har bir o‘quvchi o‘z yo‘nalishi va kuchli tomonlarini rivojlantirish uchun mos material va vazifalarni topishi mumkin.

5. Sinovlar va baholash tizimi soddalashtirilgan: Finlandiya tizimida qattiq baholashdan ko‘ra, o‘quvchilarning jarayondagi ishtiroki va bilimlarni amaliy qo‘llashlari ahamiyatli hisoblanadi. Baholar ko‘proq o‘quvchilarni rag‘batlantirish maqsadida qo‘yiladi.

6. Innovatsion material va texnologiyalar: Finlandiya darsliklari ko‘pincha zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan bo‘ladi. Elektron darsliklar, interaktiv vazifalar va raqamli resurslar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va o‘qishni yanada qulaylashtiradi.

7. Hayotiy mavzularni o‘rganish: Darsliklarda faqat an’anaviy mavzular emas, balki kundalik hayotda qo‘llaniladigan ko‘nikmalar – moliyaviy savodxonlik, ekologiya, hayotiy muammolarni hal qilish kabi mavzular ham o‘rgatiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham Finlandiya tizimi asosida tuzilgan darsliklardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilmoqda. Bu tizim asosida tayyorlangan darsliklar orqali o‘quvchilar o‘qish jarayonida mustaqillikka erishish, keng qamrovli fikrlash va bilimlarni hayotga tatbiq qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdug‘aniyev X. Adabiyot darslarida yangi pedagogik texnologiyalar.–T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 2020.

2. Abdullaeva S. M. She’riy matnlarni tahlil qilish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 2017.

3. Amonov R. A. Pedagogik innovatsiyalar va texnologiyalar. –T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti, 2018.

4. Jumayeva T. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan she’riy matnlar ustida ishlash. –T.: Fan, 2022.

5. Karomatov Z. Boshlang‘ich ta’limda adabiyot va nutq madaniyati. –T.: Ma’naviyat, 2015.

6. Tursunov I. O‘zbek maktablarida adabiyotni o‘qitish usullari. –T.: Universitet nashriyoti, 2020.

7. Vahobova M. X. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati. –T.: Fan va texnologiya, 2019.

8. Xolmurodov U. Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. –T.: Ilm ziyo, 2016.

9. G‘aniyev B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. –T.: Yangi asr avlodi, 2017.

10. Sharipov A. Ta’limda kreativ va innovatsion yondashuvlar. –T.: Navro‘z nashriyoti, 2021.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MASAL JANRIGA OID MATNLAR USTIDA ISHLASH

**Botirova Xurshida Rustam qizi**
**Sadiqulova Nilufar Abdumannob qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti boshlang‘ich
ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf darsliklarida berilayotgan masal janriga xos matnlarning zamonaviy ta’lim tizimida yang innovatsion vositalar orqali o‘tilishi berilgan. Masallarni o‘qitish orqali bolalarnng mustaqil fikrlashini o‘stirish,ta’limiy-tarbiyaviy jihatdan bilimini oshirish muhimligi ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar**: zamonaviy ta’lim tizimi, masal, adabiyot nazariyasi, liro-epik janr, interfaol metodlar, ijodiy ishlar, ma’naviy tarbiya, interfaol usul, aqliy salohiyat.

**Abstract.** In this thesis, the passage of the parable genre texts given in primary school textbooks in the modern education system through new innovative tools is given. The importance of developing children's independent thinking and increasing their educational and educational knowledge through the teaching of parables was considered.

**Key words**: modern educational system, parable, theory of literature, lyric-epic genre, interactive methods, creative works, spiritual education, interactive method, mental capacity.

Rivojlanib borayotgan zamonda yashar ekanmiz, jahonda va yurtimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarni bilmasligimiz mumkin emas, hattoki. O‘sib kelayotgan o‘quvchi yoshlarga ta’lm va tarbiyani birdek singdirish esa biz, boshlang‘ich sinf oqituvchilarining oldiga qo‘ygan eng asosiy vazifasidir. Ularning ma’naviyatini, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini yanada o‘stirish zarur.

Inson o‘zligini anglashi va o‘zining insoniylik burchini mukammal bajarishi uchun ma’lum e’tiqodga ega bo‘lishi, hayotning asl mohiyati nimada ekanligini chuqur anglashi lozim. Bunda esa yaxshi ta’lim va ma’naviy tarbiyaning o‘rni nihoyatda katta. Ma’naviy tarbiya atamasi insonni komil inson sifatida shakllantirishga, uning ijtimoiy hayotda faol ishirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlarni o‘z ichiga oladi. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, badiiy asarlarning ma’naviy ta’sir kuchi qolganlariga nisbatan sezilarli darajada kuchli. Shularni inobatga olgan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari darsligiga badiiy matnlar bilan ishlashga oid turli xildagi topshiriqlar kiritildi.

Ta’lim beruvchi va oluvchi ham mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlangan bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan har qanday asarda bolalarning muloqat madaniyati va erkin fikr yurita olish kabi vositalarni bajaradi. Jumladan o‘quvchilar uchun tez va oson eslab qolishda masal janri katta ahamiyatga ega. Masal - axloqiy, satirik va kesatiq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she’riy, ba’zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o‘simliklar dunyosiga ko‘chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo‘lishidan tashqari, kulgili savoljavob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko‘pincha masalning kirish qismida, ba’zan pirovardida qissadan hissa – ibratli xulosa chiqariladi.

Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida she’riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa syujetli asar deb ta’rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi.

Masal janrini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda yolg‘onchilik, ikkiyuzlamachilik, qo‘pollik, yalqovlik, beparvolik va qo‘rslik kabi illatlarni yo‘q bo‘lishi uchun yordam beradi. Bu kabi illat yoki nuqsonlarni har bir o‘quvchida yo‘q bo‘lishi uchun turli xil mavzudagi masallar bilan tanishtirish va shu orqali kitobxonlikni ham shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi.Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo‘lgan kichik piesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo‘la oladi.“Antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo‘lgan. O‘z ma’nosidan ko‘chirilgan (majoziy) so‘z va kinoyaviy iboralar orqali qilinadigan “yashirincha” tanqidning tili va uslubi Ezopga nisbatan berilib, “Ezop tili” deyilgan va shu ta’bir joriy qilingan”.Mashhur masalnavis Gulxaniyning “Toshbaqa bilan Chayon”, “Maymun bilan Najjor” masallari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do‘stlik, rostgo‘ylik, qo‘lidan kelmaydigan ishga urinmaslik kabi g‘oyalar ilgari suriladi.

O‘quvchilar faqat masalni o‘qibgina qolmasdan tahlil qilish ko‘nikmasini ham shakllantirish kerak.Agar o‘qigan asarini ongli ravishda tushuna bilsa, asarlarni anglab yetishida hech qanday muammo bo‘lmaydi. Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo‘lgan kichik pyesani eslatadi. Masalan, o‘qish darslarida o‘quvchilar badiiy asar matni ustida ishlash orqali o‘zlariga kerakli hayotiy saboqlarni oladilar. Bundan tashqari ular matn tahlili jarayonida asar qahramonlarining xatti-harakatlarini birma-bir tahlil qilib, yaxshi qahramonlardan o‘rnak oladilar, ularga o‘xshashga harakat qiladilar, shu bilan birga asardagi voqealardan ta’sirlanadilar.

Dars o‘tish jarayonida, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bunday metodlardan foydalanish ularning aqliy salohiyatini oshirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Misol sifatida Ezopning masallarini o‘quvchilarga oson tarzda tahlil qilishni va tushunib mag‘zini chaqishni o‘rgatish o‘qituvchining vazifasidir. “Yovvoyi echkilar va cho‘pon” masalini o‘qitish orqali o‘quvchilar juda ko‘p ma’lumotlarni olishi va hayotda ham shularga asoslangan holda yashashga o‘rgatadi. Masalda cho‘pnning echkilariga qo‘shilib,yovvoyi echkilar kelib qo ‘shilishadi. Va shu bilan ertasiga yomg‘ir yog‘ganligi sababli echkilarni yaylovga olib

chiqmaydi.Yovvoyi echkilarga juda ko‘p yem-xashak beradi cho‘pon. Lekin o‘zining echkilariga ozgina qilib beradi. Shunda echkilar xafa bo‘ladi. Ertasiga hamma echkini yaylovga yuborganda yovvoyi echkilar qochib,faqat eski echkilari qoladi. Shunda cho ‘pon ularga qarata “ey echkilar men sizlarga o‘zimning echkilarimdan ham yaxshi qaragandim, lekin sizlar vafo qilmay qochib ketdinglar”,- deb o ‘ksinib gapiradi. Qissadan hissa shuki, inson hech qachon yangi do‘st topganda eski do‘stni unutmaslik kerak. Bunda echkilar timsolida ikkita ma’noni anglash mumkin. Ya’ni birinchisi o‘zining manfaati uchun harakat qiladigan insonlar, ikkinchisi esa sadoqatli do‘st timsoli gavdalanadi. Bu bilan o‘quvchilarga har doim do‘stga vafodor bo‘lish, yangi do‘stlar ko‘proq topish kerak, lekin eski do‘stlarni ham unutmaslik kerakligini o‘rgatadi. Buni qiziqarli tarzda ham o‘tish mumkin. O‘quvchilarning yodida muhim o‘rnashib qolishi uchun sahna ko‘rinish tarzida ham o‘tish mumkin. Cho‘pon obrazini bir o‘quvchi. Yovvoyi echkilar bir nechta o‘quvchi Echki bitta o‘quvchi. Bunday qilib sahnalashtirilsa, o‘quvchining nutqiy salohiyati va sahnada o‘zini tutishi kabi madaniyat ham shakllanadi. Masal ustida ishlash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Masal mazmunini aniq idrok qilish.
2. Qatnashuvchilarning xarakteriga mos xususiyatlarini, xatti-harakatlarinining sabablarini ochish.
3. Allegoriyani aniqlash.
4. Masal xulosasini tahlil qilish.

**Izohli diktant** o‘quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o‘tkaziladi. O‘quvchi, odatda, o‘qituvchining ko‘rsatmasi bilan so‘zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So‘zning yozilishini bo‘g‘in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan,Kitob – bilim manbai – Kitob: Ki-tob. Ikki bo‘g‘in. Birinchi bo‘g‘inida, ikkinchi bo‘g‘inida -tob tovushlari bor. Oxirgi b tovushi p tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda b yoki p tovushini ifodalovchi harfning yozilishini tekshirib aniqlaymiz. Buning uchun so‘z oxiriga i tovushini qo‘shamiz va aytamiz: kitobi b tovushi yozilar ekan kabi izohlanadi.Izohli diktant boshlang‘ich sinflarning barchasi uchun mos bo‘lib, o‘quvchilarga yozdirilgan matn tarkibidagi imlosi qiyin so‘zlarning yozilishini eslatish va ta‘kidlash maqsadida o‘tkaziladi.Saylanma diktantda o‘quvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar. Uning o‘qituvchining topshirig‘iga mos qisminigina (o‘rganilgan qoida asosida yoziladigan so‘zlarni, so‘z birikmalarini) yozadilar. Masalan, bosh harf bilan yoziladigan so‘zlarnigina yozish (1-sinf), qaratqich kelishigidagi so‘zni u bog‘langan ot bilan yoki tushum kelishigidagi so‘zni u bog‘langan fe’l bilan birga yozish (4-sinf) kabi.

**Saylanma diktan**t o‘quvchilarda imloviy ziyraklikni o‘stiradi. Masalan, bosh harf bilan yoziladigan so‘zlarnigina yozish (1-sinf)

**Erkin diktan**t uchun hikoya tarzidagi uncha katta bo‘lmagan matn tanlanadi. Tanlangan matnning har bir bo‘limida ikkitadan uchtagacha gap bo‘lishi kerak. Matnda o‘quvchilar yozishda qiynaladigan yoki imlosi o‘rganilmagan so‘zlar ishtirok etgan bo‘lsa, matn mazmuniga halal yetkazmagan holda, boshqa so‘zlar bilan almashtirish yoki tushirib qoldirish mumkin. Bu diktantda o‘quvchilarga mazmunni buzmay, gap tuzilishini o‘zgartirish, bir so‘zni unga yaqin ma‘noli so‘z bilan almashtirish erkinligi beriladi. Diktant uchun 3-5 qismli matn tanlanadi. O‘qituvchi avval matnni bir marta ifodali o‘qib beradi, so‘ngra matn mazmuni yuzasidan suhbat o‘tkazadi. Ayrim qoidalarni eslatadi. Keyin matnning bir qismi qayta o‘qib beriladi, o‘quvchilar uning mazmunini yozadilar.Erkin diktant imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, o‘quvchilar nutqini o‘stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, bayon yozishga tayyorlaydi

**Ijodiy diktant**da o‘quvchilarga o‘rganilgan qoidaga mos so‘z, so‘z birikmasi, biror mavzuga doir savollar beriladi. Ular berilgan so‘z va so‘z birikmalarini qatnashtirib, savollarga javob topish orqali matn yoki hikoyacha tuzadilar. O‘qituvchi ana shu berilgan so‘z va so‘z birikmalari yordamida tuzilgan hikoya mazmunini ishni bajarish usuli haqida o‘quvchilarga tushuncha beradi. Chunki ijodiy diktant matnini o‘quvchilarning o‘zlari ijod qiladilar va uni o‘qituvchining ko‘rsatmasiga muvofiq yozadilar. Shunisi bilan diktant inshoga o‘xshaydi. Ijodiy diktant o‘rganilgan qoidalarni o‘zlashtirish va yozuvda o‘rinli qo‘llash malakalarini mustahkamlaydi. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi, ularda ijodkorlik, mustaqillik kabi zaruriy malakalarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi.

**Rasm diktant** predmet rasmini yoki o‘zini ko‘rsatib o‘tkaziladi: predmet rasmi ko‘rsatiladi, o‘quvchilar uning nomini aytadilar va yozib vergul qo‘yadilar, ish shunday davom etadi (Birinchi so‘z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko‘ra yozilishi eslatiladi). Rasm diktantda o‘rganilgan qoidani, ayniqsa, o‘quv yili davomida o‘rganiladigan imlosi qiyin so‘zlarni to‘g‘ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirganliklarini sinash maqsadi ko‘zda tutiladi.3-4-sinfda ayrim harflar imlosiga doir imlo qoidasidan a va o unlisining imlosi, i va u unlisining imlosi, h va x undoshlarining imlosi, v va f undoshlarining imlosi, b va p undoshlarining imlosi, h va x undoshlarining imlosi, d va t undoshlarining imlosi, z va s undoshlarining imlosi, j va ch undoshlarining imlosi o‘ va i unlilari, e va i unlilarining talaffuzi,

imlosi, so‘z ma’nosini farqlashdagi o‘rni, tutuq belgili so‘zlar o‘rganilganda ham rasm diktantlardan foydalanish mumkin.

**Lug‘at diktant** o‘rganilgan imlo qoidalarini mustahkamlash, o‘quvchilar lug‘atini boyitish, o‘rganilgan imlo qoidalarini o‘quvchilar tomonidan qanchalik o‘zlashtirilganini aniqlash, hisobga olish maqsadida o‘tkaziladi. Lug‘at diktant uchun o‘rganilgan imlo qoidasi asosida yoziladigan so‘zlar tanlanadi. Lug‘at diktantning ko‘ruv sezgisiga asoslangan turidan foydalanish lug‘at diktantning eshitib yozish turiga tayyorlaydi. Chunki bola nuqtalar o‘rniga qaysi harfni qo‘yishni o‘ylaydi, talaffuzi bilan yozilishini taqqoslaydi, so‘ng yozadi. Eshitib yozishda bunday imkoniyat bo‘lmaydi. Buning uchun doskaga quyidagicha topshiriq yozib qo‘yiladi:

**1- sinf uchun:**

Nuqtalar o‘rniga a yoki o harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring va imlosiga e’tibor bering.

B...h...r, b...h..., Bux...r..., d…vl… t, d…v…, s…v…b

**2- sinf uchun:**

Nuqtalar o‘rniga i yoki u harflaridan mosini qo‘yib yozing imlosiga e‘tibor bering.

Uz…m, b…lb…l, g…r…ch, b…rg…t, qov…n, sov…n, ch…mch…q, ch…g‘…rch…q

**Tekshirish diktant**i dasturning biror bo‘limi o‘rganilib, xilma-xil ta’limiy mashqlar bilan mustahkamlangach, ular o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Tekshiruv diktanti yozadigan darsda yordam ko‘rsatilmaydi. Tekshiruv diktanti o‘quv yili davomida 5-6 marta o‘tkaziladi. Masalan, ot turkumi o‘rganilib bo‘lingach diktant yoki bayon yozdirish o‘quvchilarning egalik qo‘shimchali, kelishik bilan turlangan so‘zlarni imloviy to‘g‘ri yozishni egallab olganliklarini namoyish qiladi. Sifat turkumi o‘rganilib bo‘lingach, olinadigan diktant sifatlardagi daraja ifodalovchi –roq qo‘shimchasinining yozilishini, biroz, to‘q, liqqa, nim so‘zlari bilan keladigan sifatlarni, ko‘m-ko‘k, oppoq kabi sifatlarning imlosiga doir ko‘nikmalarini aniqlashga yordam beradi. Fe’l turkumi o‘rganilib bo‘lingach, diktant orqali zamon, shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslangan, bo‘lishsizlik qo‘shimchalari bilan qo‘llangan fe’llarning imlosini qay daraja xotirada olib qolganliklarini aniqlash ko‘nikmalarini aniqlash mumkin bo‘ladi.Diktantning bu turida yo‘l qo‘yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta’limiy ahamiyati katta.

**Baholash mezonlari**:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to‘g‘ri ishlatilishi.
3. Fonetik tahlil.
4. So‘z tarkibiga ko‘ra tahlil.
5. Gap bo‘laklariga ko‘ra tahlil.
6. Leksik tahlil.
7. Xatboshilarga rioya qilinishi.
8.Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
9. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Tekshiruv diktantida dastur talabiga ko‘ra so‘zlar soni:

1-sinfda: 1-yarim yillikda: yil oxirida: 20-25 so‘z.

2-sinfda: 1-yarim yillikda: yil oxirida: 30-35 so‘z.

3-sinfda: yil oxirida: 50- 60 so‘z

4-sinfda: yil oxirida: 70- 75 so‘z

Diktantning bu ko‘rinishini yozish jarayonida o‘quvchilar grammatikadan olgan nazariy bilimlarini yozuvga mustaqil tatbiq qilishga odatlanadilar, bunda o‘quvchilar mustaqil fikrlashga, biror imlo qoidasi haqida o‘zicha hukm chiqarishga majbur bo‘ladilar. Bu o‘quvchilarning ongli bilim olishlariga zamin yaratadi. Ba’zan esa avval o‘rganilgan bir necha dars davomida turli yo‘llar bilan bolalarga singdirilgan biror mavzuni yana ham puxtaroq mustahkamlash, shuningdek, o‘quvchilar bilimidagi bo‘sh tomonlarni aniqlab olish va uni tuzatish uchun metod izlash maqsadida ta‘limiy diktantdan foydalanish mumkin. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni ko‘proq mustaqil fikrlashga, o‘z xatosini izlab topishga o‘rganilgan nazariy bilimni birovning yordamisiz yozuvga tatbiq qilishga yetaklaydi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Matchonov S., Bakiyeva H., Gulyamova X. va b. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Ishonchli hamkor. 2021

2. Gulyamova, X. (2021). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH FANIDAN UMUMLASHTIRUVCHI DARSLARNI TASHKIL ETISH. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 1052-1060.

3. G‘ulomova, X., &Bakiyeva, H. (2020). O‘QISH DARSLARIDA SHE’RIY ASARLAR MATNI USTIDA ISHLASH. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 582-589.

4. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 1998, 6-son.

5. Davlat Ta’lim Standarti va o‘quv dasturi
(Boshlang„ich ta‟lim).- Toshkent, 2017.

6. Qosimova K., Matchonov S. , G‘ulomova X., Yo‘ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, “Nosir”, 2009.

## ABDULLA AVLONIY IJODIDA MASAL JANRINING O‘RNI

**Xoldorova Husnida**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi
**Fayzullayeva Salama**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Abdulla Avloniy hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf darsliklarida Abdulla Avloniy ijodidan namunalar va ular asosida tuzilgan topshiriqlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, masal, Abdulla Avloniy, o‘qish savodxonligi.

**Annotatsiya:** this article provides information about the life and work of abdulla Avloni. Also, examples of Abdulla Avloni’s work and assignments based on them are given in elementary school textbooks.

**Keywords:** primary grade, parable, Abdulla Avloniy, reading literacy.

**KIRISH.** So‘nggi yillarda yurtimizda til o‘qitish tizimini, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning bilim egallash imkoniyatlarini yaratish hamda ularning mantiqiy fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyatini takomillashtirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonida bu o‘z aksini topgan.

Abdulla Avloniy ijodida masal janri muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘z asarlarida hayotiy saboqlarga, axloqiy qadriyatlarga va insoniy muammolarga e’tibor qaratadi. Masal — qisqa, mazmunli hikoya yoki gap bo‘lib, unda ko‘pincha biror saboq yoki axloqiy fikr ifodalanadi.

1. Axloqiy sabotlar: Avloniy masallarida odatdagi hayotiy vaziyatlar va insonlar o‘rtasidagi munosabatlar tasvirlanadi. U o‘z asarlarida yaxshilik, yomonlik, adolat va nohaqlik kabi mavzularni ko‘taradi.

2. Qiziqarli hikoyalar: masallar ko‘pincha qiziqarli va e’tiborni jalb qiluvchi hikoyalar orqali beriladi. Avloniy o‘z masallarida mantiqiy fikrlashni, sabr-toqatni va donolikni ta’kidlaydi.

3. O‘qituvchi va tarbiyachi: masal janri, Avloniy uchun o‘qituvchi va tarbiyachi sifatida xizmat qiladi. U masallari orqali yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashni, hayotdagi muhim qadriyatlarni o‘rgatishni maqsad qiladi.

4. Folklor an’analari: Avloniy ijodida xalq og‘zaki ijodining an’analari aks etadi. U o‘z asarlarida folklor elementlarini, xalq qahramonlarini va urf-odatlarini qo‘shib, masalarning milliy mohiyatini oshiradi

. 5. Darsliklar va o‘quv materiallari: Avloniy masallarini o‘quv jarayonida ham qo‘llagan. U o‘z asarlarini o‘quvchilarni tarbiyalash va ma’naviy dunyosini boyitish maqsadida yozgan.

Abdulla Avloniy o‘zining ijodida masal janriga alohida e'tibor qaratgan. Uning masallari nafaqat ma'naviy-axloqiy saboqlarni o‘z ichiga oladi, balki xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini ham namoyon etadi.

1. Masal janrining ahamiyati: Axloqiy ta'lim: Avloniy masallari orqali yoshlarni axloqiy qadriyatlar, mehnatsevarlik, halollik kabi insoniy fazilatlar bilan tanishtiradi. Folk pedagogikasi: masallar xalq tajribasini va donishmandlikni o‘zida mujassam etadi, bu esa Avloniy ijodining pedagogik qismidir.
2. Struktura va uslub: sodda va ravon uslub: Avloniy masallari sodda tilda yozilgan, bu esa ularni oson qabul qilish imkonini beradi. Qiziqarli hikoyalar: har bir masal o‘ziga xos hikoya, ko‘pincha kulgili yoki taajjublantiruvchi voqealar bilan to‘ldirilgan.
3. Masallar va inson tabiatining ko‘rsatishi: Insoniy xususiyatlar: Avloniy masallari ko‘pincha inson tabiatining turli jihatlarini, xususan, insoniy zaiflik va kuchlarni ta'kidlaydi. Hayotiy saboqlar: Ular o‘z ichiga hayotiy saboqlarni jamlaydi va muammolarni hal etish yo‘llarini taklif etadi.
4. Avloniy masallarining o‘ziga xosligi: Mahalliy an'analar: Avloniy o‘z masallarida O‘zbekistonning madaniy va etnik xususiyatlarini aks ettiradi. Universal mavzular: Uning masallari butun insoniyatga tegishli bo‘lgan universal mavzularni ham qamrab oladi, bu esa ularni keng auditoriyaga tanitadi.

Abdulla Avloniy ijodida masal janri muhim o‘rin tutadi, u nafaqat o‘z zamonining ma'naviy va axloqiy muammolarini yoritadi, balki kelajak avlodlarga ham qimmatli saboqlar beradi. Uning masallari zamonaviy hayotda ham ahamiyatini yo‘qotmaydi va ko‘plab insonlar uchun ma'naviy manba sifatida xizmat qiladi.

Abdulla Avloniy ijodida masal janrining o‘rni o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, maktab darsliklarida ham tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turadi. 2-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida “Bolari bilan pashsha” masali keltirilgan.

**Bolari bilan pashsha**

Bir Pashsha qir tarafdan uchib kelayotgan Arini ko‘rib:

—Do‘stim, qayerdan kelyapsan? - dedi. Ari: —Qirdan kelyapman. Biroz bol yig‘dim. Uy yasash uchun mum ham hozirlab keldim, - dedi. Pashsha: —Oh, birodar! Bir boshing uchun buncha harakat qilasan! Sen men kabi yashasang nima bo‘ladi? Mening yashashimda hech bir mashaqqat yo‘q. Insonlar hozirlagan dasturxonlardan har xil taomlarni yeb - ichib umr o‘tkazaman. Ba’zi vaqtlarda sen tayyorlagan boldan ham to‘ygunimcha yeyman. Mana! Yashamoq mana! Umr kechirish uchun olamda bundan ham yaxshi turmush bo‘ladimi? Menda bol tayyorlash mashaqqati ham yo‘q, uya solish kulfati ham yo‘q, – dedi.

Ari bu so‘zlarga javoban shunday dedi:

— Oh, do‘stim! Sening bunday turmushing o‘z boshingdan beri kelmasin. Mashaqqatsiz taomda lazzat bo‘ladimi? Insonlar seni dasturxondan quvib haydaydi. Oxiri bir o‘rgimchak luqmasi bo‘lishdan boshqa narsaga yaramaysan. Ammo men tayyorlagan mum hamma yerni yoritadi. Bolim dunyoning hamma yerida maqbuldir. Shu sababli insonlar meni o‘zlari tarbiya qiladilar. Har yerda meni maqtaydilar. Qo‘y, birodar, mening ishim ko‘p. Sen bilan behuda so‘zlashib turishga vaqtim yo‘q.

Ari shunday deb uchib ketdi.

Xulosa shuki, mehnatning oxiri rohat, yalqovlikning oxiri xorlikdir.

Xulosa qilib aytganda, ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy ta’lim - tarbiyaning barcha muhim jabhalari haqida keng mushohada yuritadi. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy - ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch - quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. 2019-yil 29-aprel.

2. Qosimov B. Abdulla Avloniy. T., 1979.
3. Avloniy. A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi, 1992
4. Boboxonov A., Maxsumov M., Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati._T.:, 1997-y.
5. 2-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligi

## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA HIKOYA JANRIGA XOS MATNLAR USTIDA ISHLASHNING O‘ZIGA XOS SHART-SHAROITLARI

**Saydaliyeva Gulbahor**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
gulikomiljonovna84@gmail.com
**O‘taganova Mohinur**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
mohinurotaganova@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda hikoya janri ustida ishlashning o‘ziga xos shart-sharoitlari, metodik yondashuvlar va pedagogik ahamiyati keng yoritilgan. Hikoya janri orqali o‘quvchilarda analitik fikrlash, hissiy idrok va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni muhim o‘rin tutadi. Metodik yondashuvlar, o‘quv muhiti, amaliy faoliyat va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati maqolada batafsil tushuntirilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, hikoya janri, o‘qish darslari, tahlil, metodik yondashuvlar, pedagogik ahamiyat, didaktik materiallar, ijodiy faoliyat.

**Annotation.** In this article, the specific conditions, methodical approaches and pedagogical importance of working on the story genre in primary education are widely covered. The process of forming analytical thinking, emotional perception and moral values in students through the narrative genre is important. Methodical approaches, educational environment, practical activities and the importance of using modern technologies are explained in detail in the article.

**Key words:** primary education, story genre, reading lessons, analysis, methodical approaches, pedagogical importance, didactic materials, creative activity.

Boshlang‘ich ta’lim bolalarning bilim olish va shaxs sifatida shakllanish jarayonidagi ilk qadamdir. Bu bosqichda adabiyot darslari, xususan, hikoya janri, o‘quvchilarning tafakkurini kengaytirish, tasavvurini boyitish va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Hikoya janrining qisqa va aniq ifodali voqealarga asoslanganligi tufayli u boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun eng mos janrlardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limi o‘qish darslarida badiiy asarlar janriy xususiyatlariga ko‘ra o‘rganish ilmiy-nazariy jihatdan bo‘lmasa-da, amaliy tomondan turli asarlar misolida amalga oshiriladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning o‘quvchilarga ta’siri ham har xil bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan o‘qish darslari yuqori sinflarda o‘tiladigan adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘qish darslarida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar mazmuni, o‘quvchilarni to‘g‘ri, ravon, ma’lum darajadagi tezlik bilan ifodali o‘qishga o‘rganishi, bolaning ona Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g‘oyalarini ular ongiga singdirilishi kabi bilimlarini boyitish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi. O‘qish darslarini Davlat standarti talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog‘lab o‘tilishi uning ta’sirchanligi hamda ongli idrok etishlarini ta’minlaydi. Unda o‘qish va nutq o‘stirishning ta’limiy-tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo‘yicha o‘qish mazmunini o‘qish ko‘nikmalarining og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o‘qish mashg‘ulotlarining yozma nutq bilan bog‘lanish kabi masalalar aniq kiritilgan. O‘qish savodxonligi darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o‘qish malakalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lsin. Bundan tashqari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni ham reja asosida olib borish va unda badiiy asarlar tahlilini qilish ham ko‘p foyda beradi. Hozirda bolalar uchun qiziq bo‘lgan rasmli,

qiziqarli kitoblar nashr etilmoqda, o‘qituvchi bola yoshidan kelib chiqib uyda qo‘shimcha o‘qish uchun topshiriqlar berishi ham katta samara beradi.

Hikoya janri ham boshlang‘ich adabiy ta’limda ta’sir jihatidan alohida o‘ringa ega janr hisoblanadi. Ayniqsa, kichik hajmli hikoyalarning berilishi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma’lum bir voqea, hayotning muhim tomonlarini umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya – bu to‘liq ma’noli va hikoya xarakteriga ega bo‘lgan kichik nasriy asar. Hikoya qandaydir voqeani qisqa vaqt ichida sodir bo‘ladigan voqealarga asoslangan bo‘ladi. Hikoya muallifi avvalo uning syujetini tuzadi, faqat muhim nuqtalarni tanlaydi.

Hikoya mazmuni syujet asosida ochib borilib, odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So‘roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea- hodisalar, xatti-harakat o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi. Hikoyani o‘qish darsida o‘quvchilar tushunmaydigan so‘z va iboralar ma’nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. Hikoyani o‘qishda uning mazmuniga diqqat qaratish dolzarb sanalib, shu mazmunni boshlang‘ich sinf o‘quvchisi idrok etsa, ya’ni tasavvurida voqealar ketma-ketligini shakllantira olsa, asarni to‘liq anglagan bo‘ladi. Hikoya o‘qib bo‘lingach, o‘quvchilar o‘ylashi, o‘z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishiga vaqt berish kerak. O‘qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta’sir etganini bilishdan iborat. Savollarni asosan o‘qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o‘quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga yoqadi va ishni jonlantiradi:

- asar mazmunini yaxshi tushunish;
- o‘z fikrini izchil bayon qilish;
- mazmun va voqealar orasidagi bog‘lanishni to‘liq esda saqlash;
- asar qahramonlari haqida fikr bildirish.

Hikoya janrining ta’limiy ahamiyati. Hikoya janri bolalarning ta’lim olish jarayonida bir qancha pedagogik maqsadlarga erishishga imkon beradi. Ushbu janr boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun maxsus tanlangan bo‘lib, ularning intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bular quyidagilardan iborat:

Axloqiy tarbiya: Hikoyalar, odatda, yaxshilik va yomonlik, haqiqat va adolat, do‘stlik va xiyonat kabi mavzularni yoritadi. O‘quvchilar hikoya qahramonlarining xatti-harakatlari orqali axloqiy xulosalar chiqaradi va ularda yaxshilikka muhabbat, yomonlikka esa nafrat hissi shakllanadi. Masalan, qahramonning fidokorona harakati yoki yomon xulqi bolalarda tegishli tuyg‘ularni uyg‘otishi mumkin.

Analitik tafakkur: Hikoya syujetini tahlil qilish, voqealar ketma-ketligini anglash va qahramonlarning motivlarini tushunish orqali o‘quvchilarda analitik tafakkur rivojlanadi. O‘quvchilar hikoya davomida muhim bo‘lgan voqealarni tanlash, ularni baholash va ular orasidagi sabab-oqibat aloqalarini tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Hissiy idrok va empatiya: Hikoyalar bolalarda qahramonlarning his-tuyg‘ulariga hamdardlik qilishni rivojlantiradi, bu esa ularning hissiy intellektini oshiradi. Hikoyadagi voqealar orqali o‘quvchilar qahramonlarning o‘rniga o‘zlarini qo‘yib ko‘rishga o‘rganadi, bu esa empatiya va insoniylikni rivojlantiradi.

Hikoya matnlarida ishlash shart-sharoitlari. Hikoya matnlari ustida ishlashda samarali o‘qitish va o‘rganish jarayonini tashkil etish uchun ma’lum shart-sharoitlarni ta’minlash zarur. Ushbu shart-sharoitlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega:

Mazmunan boy materiallar: Tanlangan hikoyalar bolalarning yoshiga mos bo‘lishi, qiziqarli va ma’noli bo‘lishi lozim. Hayotiy voqealarga asoslangan hikoyalar o‘quvchilarning kundalik hayotidagi voqealar bilan bog‘liq bo‘lganda, ularni qiziqtiradi va tushunishni osonlashtiradi.

Qulay o‘quv muhiti: Hikoya bilan ishlashda interaktiv va samimiy o‘quv muhiti yaratish juda muhimdir. Bolalar matnni tushunish jarayonida o‘z fikrlarini erkin bayon qila oladigan dars

muhiti o‘quvchilarni rag‘batlantiradi. Bu jarayonda o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi savollari va ishtirokni qo‘llab-quvvatlashi muhim.

Texnologiyalardan foydalanish: Vizual va audiomateriallardan foydalanish hikoya mazmunini tushunishni osonlashtiradi. Multimediali darsliklar, video lavhalar va slaydlar orqali hikoyani ko‘rish va eshitish bolalarning matnni yaxshiroq anglashlariga yordam beradi.

Hikoya matnlarini o‘rganishning metodik yondashuvlari. Hikoya janri bilan ishlashning samarali metodik yondashuvlari o‘qituvchilarning dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Quyidagi metodik yondashuvlar o‘quvchilarning matnni to‘liq tushunishiga imkon yaratadi:

Ifodali o‘qish: O‘qituvchining hikoyani ifodali tarzda o‘qishi bolalarning e’tiborini jalb qiladi va ularni matnni anglashga rag‘batlantiradi. Hikoyaning ohangdor o‘qilishi orqali bolalar matnning kayfiyati va muhim nuqtalarini yaxshiroq his qiladi.

Savol-javob usuli: O‘quvchilarga matnni tahlil qilish va o‘z fikrlarini bildirish uchun savollar beriladi. Bu savollar matnning asosiy mazmunini tushunish va qahramonlarning harakatlarini tahlil qilishga xizmat qiladi. Masalan: "Hikoya qahramoni nima uchun bunday qildi?", "Siz qahramonning o‘rnida qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?"

Guruhli tahlil: O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, hikoya syujetini va qahramonlarning xatti-harakatlarini muhokama qilish metodikasi bolalarda hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu usulda o‘quvchilar o‘z fikrlarini ochiq bildirishga o‘rganadi va bir-birlaridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Amaliy faoliyat va ijodiy mashqlar. Hikoya janri bilan ishlashda o‘quvchilarning ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish dars jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Quyidagi amaliy faoliyatlar bunday ishlarga misol bo‘lishi mumkin:

Rasm chizish: O‘quvchilar hikoya mazmuniga asoslanib voqealar tasvirini yaratadi. Bu ularning tasavvur qilish va vizual ongini rivojlantiradi. Har bir rasm hikoyadagi muhim nuqtalarni eslab qolishga va ularni to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi.

Dramatizatsiya: Hikoyani sahnalashtirish orqali o‘quvchilar qahramonlarning hissiy tajribalarini his qilishadi va ularning harakatlariga chuqurroq kirishadi. Bu usul jamoaviy ishlash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Kreativ yozuv mashqlari: O‘quvchilardan hikoya matnini davom ettirish yoki o‘z versiyalarini yaratish so‘raladi. Bu ularning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi va yozma nutq ko‘nikmalarini yaxshilaydi.

Zamonaviy texnologiyalarning o‘rni.Hikoya janrini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. Interaktiv darsliklar, video materiallar va elektron kitoblar yordamida bolalar hikoyani nafaqat o‘qib, balki ko‘rib, eshitib o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, hikoya asosida animatsion video tomosha qilish bolalarga syujetni yaxshiroq tushunish va voqealar orasidagi bog‘liqlikni anglashga yordam beradi. Multimedia elementlari bolalarning qiziqishini oshiradi, ta’lim jarayonini boyitadi va o‘qish darslarini interaktiv shaklda o‘tkazish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalarning yana bir afzalligi, ularning bolalarning turli o‘quv uslublariga moslashuvchanligidir. Vizual, eshituv va kinestetik o‘quvchilar bir xil darsdan turli xil shakllarda foyda olishlari mumkin, bu esa darsni hamma uchun qiziqarli va samarali qiladi.

Umumiy qoidalar:

1. Hikoya tanlashda o‘quvchilarning yoshiga va qiziqishlariga mos matnlarni tanlash zarur.
2. Darslar davomida ochiq savollar berish va bolalarning javoblarini rag‘batlantirish muhim.
3. O‘quvchilar bilan samarali tahlil jarayonini olib borish va fikr almashish uchun interaktiv metodlardan foydalanish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna, Boshlang‘ich ta’limda hikoya janri ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari// “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya to‘plami. 2018.

2. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X. va b., O‘qish kitobi, 4-sinf uchun darslik. – T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2020.

3. G‘ulomova X. O‘quvchilarning matn ustida ishlashi// maqola. Til va adabiyot ta’limi, 1994.

4. Voshina M.P., Kislinskaya S.A., Lebedeva E.V. Metodika obucheniya literature v nachal'noy shkole, Akademiya, 2010.

## BOSHLANG’ICH TA’LIMDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQINI VA MUSTAQIL FIKRLASH QOBILYATINI O‘STIRISH

**Usmonova Shohistaxon Shukurulloxon qizi**
**Tolibjonova Sevara G'ulomjon qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich” ta'lim yo‘nalishi 3-bosqich talabalari.

**Annotatsiya**. Ushbu tezisda boshlang‘ich ta'limda matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini va ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish , so‘z boyligini oshirish haqida bayon etilgan. Matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarda talimiy tarbiyaviy bilimlar hosil bo‘lishi va ularni rivojlantirish usullari ko‘rib chiqilgan.

**Kalitso‘zlar**: Ta'lim,tarbiya ,metod,usul,uslub,faoliyat,matn ,vosita ,yozma ish,hikoya ,ertak,ijodiy ish,qobiliyat.

**Annotation**. This thesis describes the development of students' oral and written speech, their thinking ability, and increasing their vocabulary by working on the text in primary education. Methods of formation of educational and educational knowledge in students by working on the text and their development were considered.

**Key words**: Education, education, method, method, style, activity, text, tool, written work, story, fairy tale, creative work, ability.

"Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e’zozlash — odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag‘rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lib o‘tirish taraqqiyot yo‘lidagi eng katta g‘ovdir".

Bolaning tarbiyasining muhimligi kabi ta'limi ham birdek muhimdir.Albatta bu ta'lim va tarbiyani o‘quvchilarga qanday usulda, qaysi darajada yetkazib berish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning qo‘lida hisoblanadi. O‘qituvchi ta'lim berar ekan bu ta'limning samarasi qanchalik ekanligi o‘quvchining tashqi ko‘rinish,odob va nuqtida namoyon bo‘ladi. Buning uchun eng avvalo o‘quvchi o‘zining o‘zligini insoniyligini aqlan va ruhan tushunishi va bu bilimlarni olishi zarurligini bilishi ,ta'lim olish uchun harakat qilishi zarur.

O‘quvchilar ilk maktabga qadam qo‘yar ekan ularning nutqi hali yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Bundao‘qituvchi o‘quvchilarning nutqini va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish rivojlantirishi uchun bir qancha vazifalarni bajarishi kerak. Yaxshi rivojlanmagan nutqni rivojlantirish uchun rivojlantiruvchi vosita, yani matndan foydalaniladi.Bunda o‘qituvchi matnning og‘zaki va yozma turlaridan foydalanadi. Matn nutqning yozuvdagi ifodasi. Matnning og‘zaki ko‘rinishi bu- nutq.Yozma ko‘rinishiga bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan: ertak, hikoya asarning turli ko‘rinishlari (badiiy ilmiy )roman, insho maqola, bayon masal , she'r ,doston, topishmoq, tez aytish, maqol kabilardan foydalanadi. Boshlang‘ich sinflarda esa asosan she'r, topishmoq, maqol, hikoya tez aytish, insho, bayonlardan foydalaniladi. Yuqoridagi matn turlaridan foydalanib o‘qituvchi matn ustida ishlash vazifalarini olib boradi.O‘quvchi bu vazifalarni osondan murakkabga qarab bajarib boradi. Masalan, birinchi sinflarda o‘quvchilar harf ,bo‘g‘in, gap, hikoya , ertak, she'r, maqollar bilan tanishadilar. O‘quvchilar o‘zlari matn tuzishga harakat qiladilar. Uchinchi, to‘rtinchi sinflarda esa ularning so‘z boyliklari oshadi va bayon, inshoyozushni mashq qiladilar. Buning uchun ular eng avval matn ustida ishlash ishlarini olib borgan bo‘lishlari kerak. Matn ustida ishlash o‘quvchilarning nutqini

tafakkurini aqlini rivojlantiribgina qolmay , ularni diqqatini jamlashga, qaror chiqarishga, mulohaza qilishga ,xulosa qilishga o‘rgatadi.Boshlangich ta'lim o‘quvchilarida nutq va uni o‘stirish har doim dolzarb mavzu bo‘lgan. Nutq kishi faoliyatining turi til vositalari asosida aqlni va tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar vazifasini, o‘zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish ishini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi va uni o‘z ishining mahoratli kishisi sifatida namoyon qilishga yordam beradi.. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqqiyatli ta'lim olish qurolidir,o‘qituvchi uchun esa ta'lim berish quroli.

O‘quvchilardan nutqni rivojlantirish uchun o‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmasini hosil qilishimiz kerak. O‘quvchilarning nutqi o‘z-o‘zidan rivojlanib qolmaydi. Buning uchun o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligi zarur. Bunda o‘qituvchiturli xil matn (hikoya, ertak, badiiy asar, masal, topishmoq va maqollar )ustida ishlash vazifalarini bajaradi va o‘quvchilarning nutqini tekshiradi,rivojlantiradi. Turli usul va metodlardan foydalanadi.

Nutqini o‘stirish vositalaridan biri to‘g‘ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir .Qayta hikoyalashning bir qancha turlari bor:

- O‘quvchi o‘qilgan matn mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishi;
- matn mazminiga mos tashkil etilgan sahna korinishlar orqali;
- mat yuzasidan testlar ishlash orqali;
- matnni so‘zlab berishi orqali;
- metodlar orqali;

Nutqiy xatolarga noto‘g‘ri (n oo‘rin) tanlangan so‘zlar, noto‘g‘ri tuzilgan gaplar, morfologik shakllarni noto‘g‘ri ishlatish kiradi.Boshlang‘ich sinflarda bunday xatolar ustida ishlash ancha qiyin,chunki ularni to‘g‘rilash va oldini olish uchun ona tili dasturida berilgan qisqa nazariy m a’lumot yetarli emas. Bolalar nutqini takomillashtirish ustida rejali, muntazam ish olib borish uchun asosiy nutqiy xatolar turini bilish zarur. Bunday nutqiy xatolarni o‘rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to‘g‘rilash va oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Nutqiy xatolar uch turga ajratiladi:

1. Bir so‘zni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o‘quvchi so‘zni ishlatishga kam e ’tibor beradi va faol lug‘atidagi so‘zdan takroriy foydalanadi; ikkinchidan, o‘quvchining so‘z boyligi kam, sinonim lam i bilmaydi, takrorlanadigan so‘zlar o‘rniga olmoshlardan foydalana olmaydi.

Agar o‘qituvchi bir so‘zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning m a’nodoshlaridan yoki shu so‘z o‘rniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi o‘quvchi matnni e ’tiborbilan o‘qib, takrorlarini nisbatan tez tuzata oladi.

2. So‘zning ma'nosini yoki ma’no qirrasini tushunmaslik natijasida uni aniq m a ’nosida ishlata olmaslik. Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so‘z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi.

3. Shevaga xos so‘zlardan foydalanish. O‘quvchilar bunday so‘zlarni ota-onalarining nutqi va nutqiy sharoit ta’sirida qo‘llaydilar. Ularda adabiy tilda qo‘llanadigan tushunchalarni shakllantirish asosida shevaga xos so‘zlarni ishlatmaslik ko‘nikmasi hosil qilinadi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi: Nutq til vositalariga boy , aniq, mantiqiy ,tushunarli , ifodali, to‘g‘ri bo‘lishi lozim.

O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqida yo‘l qo‘ygan nutqiy xatolarni o‘z vaqtida to‘g‘rilab borish zarur. O‘quvchi yo‘l qo‘ygan xatosining to‘g‘ri variantini o‘zlashtirsin, imkoni bo‘lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to‘g‘rilashning eng foydali usuli yo‘l qo‘ygan xatosini o‘quvchining o‘zi to‘g‘rilashi hisoblanadi, agar o‘quvchi xatosini to‘g‘rilay olmasa, uni o‘qituvchi to‘g‘rilaydi.

Qayta hikoyalashning bir qancha turlari bor:

- O‘quvchi o‘qilgan matn mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishi;
- matn mazminiga mos tashkil etilgan sahna korinishlar orqali;
- mat yuzasidan testlar ishlash orqali;

○ matnni so‘zlab berishi orqali;

Bundan tashqari "Ona tili ta’limi mazmuni” o‘quv-metodik qo‘llanmasi mualliflari H.Ne'matov, A.G'ulomovlar o‘quvchilarni ijodiy yozma ish matn ustida ishlashga o‘rgatishda egallangan bilimlarni quyidagi ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlashni tavsiya qiladilar:

"Ijodiy yozma ish" (matn) tushunchasi: rasm asosida hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa buyum, voqyea - hodisa tasviri;

-o‘quvchi (muallif) va borliq; yozma ishning maqsadi; yozma ish- o‘quvchining (muallifning) o‘zligi;

- yozma ishga mavzu tanlash; uni tayyorlash; ayni bir narsa (buyum, manzara, voqea - hodisa) hamda turli mavzuda matn yaratish;

-yozma ish mazmunining mavzu va uning nomlanishi bilan uyg‘unligini ta'minlash;

-berilgan mavzu, erkin mavzu ustida ishlash;

-mavzuni yoritish uchun zarur material: o‘quvchining bilimlari, kuzatishlari, taassurotlari, mushohadalari, qiyos va o‘xshatishlari, hukm va xulosalari;

-yozma ishning rejasi, unga qo‘yilgan asosiy talablari; tor reja, keng reja;

-manzilgohni yozish;

-mavzuni yoritishda mazmun izchilligi; "xat boshi" tushunchasi, yozma ish ustida qayta ishlash; uyadosh, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so‘zlardan foydalanish;

-matnning uslubi (gap qurilishi), imlosi va tanish belgilari ustida ishlash;

-ishni oqqa ko‘chirish;

-xatolar ustida ishlash.

Demak, matn ustida ishlash, matnni tahrir qilish mashg‘ulotlari, o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishni kafolatlaydi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta'limda matn ustida ishlash orqali og‘zaki va yozma nutqlarini fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib,tafakkurini kengaytirib,diqqatini yaxshilab ,aqlini oshirishga erishiladi. Bundan tashqari xatolar ustida ishlanganda o‘quvchilar o‘z xatolari nimada ekanligini bilib, uning to‘g‘rilab, qayta xato qilmaslikka shevaga xos so‘zlarni ko‘p qo‘llamaslikka, jozibali, kitobiy so‘zlarni qo‘llab,serma'no so‘zlaridan foydalangan yoqimli nutq yaratadilar. Turli matnlar o‘qigan va u matnlar ustida ishlagan o‘quvchining nutq boyligi oshib, fikrlash doirasi kengayib boradi.Ko‘plab asarlar o‘qigan va tahlil qilgan o‘quvchilardan kelajakda ajoyib ritorika namoyondalari yetishib chiqadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Donyorova Mohinur "o‘quvchilarda nutqni o‘stirish da matni yaratish metodining o‘rni". Jizzax 2022- yil
2. H.Ne'matov, A.G'ulomovlar "Ona tili ta’limi mazmuni” o‘quv-metodik qo‘llanmasi Toshkent 2021-yil
3. Karima Qosimova|, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva,Sharofjon Sariyev."Ona tili o‘qitish metodikasi "Toshkent 2009- yil

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SIFAT SO‘Z TURKUMINI O‘QITISHDA YANGI INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Raxmatova Sevara G’ayratjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Mamatqulova Nazira Rustam qizi
Guliston davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Yusufboyeva Farida Oybek qizi
Guliston davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Umarova Mohinur Shavkatjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumini o‘qitishga asoslangan darslarning yangi innovatsion metodlar asosida o‘qitilishi, dars rejalarini ham shunga

asosan tuzilishi kerakligi haqida yozilgan. Boshlang‘ich sinflarda innovatsion ko‘rinishdagi metodlar bilan ishlash,dars jarayonini olib borishning eng yaxshi usuli sifatida e’tirof etiladi. O‘quvchilarga dars jarayonini qiziqarli, aniq va tushunarli bo‘lishini ta’minlash ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri ekan, ushbu yangi innovatsion metodlardan foydalanish asosiy usul va yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** metod, usul, faollik, kuzatish, innovatsion metodlar, fikrlash, bilim, tushuncha, sifat, o‘yin metodi.

**Abstract:** In this article, it is written that the lessons should be taught based on new innovative methods based on the teaching of quality vocabulary in primary grades, and lesson plans should be drawn up accordingly. Working with innovative methods in primary classes is recognized as the best way to conduct the teaching process. As one of the important tasks of mother tongue lessons is to make the lesson process interesting, clear and understandable for students, the use of these new innovative methods is one of the main methods and directions.

**Key words:** method, method, activity, observation, innovative methods, thinking, knowledge, understanding, quality, game method.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil so‘z turkumlarini o‘qitish va o‘rgatish 1-sinfning ikkinchi yarim yilligidan boshlanadi .Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z turkumlari haqidagi dastlabki tushunchalar so‘z turkumlarining o‘z nomlari bilan emas, balki ular bajaradigan vazifalariga nisbatlab qo‘yilgan nomlar bilan o‘rgatiladi. Bu kabi ko‘rinishda o‘rgatish 1-sinfning ikkinchi yarim yilligidan boshlab 2-sinfni ham o‘z ichiga oladi. 3-sinfdan boshlab esa so‘z turkumlarining o‘z nomlari bilan o‘qitish boshlanadi. Shu jumladan sifat so‘z turkumi ham shu ko‘rinishda o‘rgatiladi. 1-sinfning ikkinchi yarim yilligidan boshlab 2-sinfning oxirigacha sifat so‘z turkumi “sifat” deb emas , balki “shaxs va narsaning belgisini bildirgan so‘zlar” deb o‘rgatiladi. 3-sinfdan esa o‘z nomi , yani, sifat so‘z turkumi nomi bilan keng o‘rganishni boshlashadi.Bu esa umumiylikdan xususiylikka tomon borish, oddiylikdan murakkablikka qarab o‘rganish tamoyillariga asoslab o‘rgatiladi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda, raqamli texnologiyalar asrida ta‘lim tizimini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Maktab ta‘limida eski, an’anaviy faqat o‘quvchilarni nazariy jihatdan qoidalarni yodlatishga yo‘naltirilgan ta‘limdan butunlay voz kechgan holda, balki o‘quvchilarni kompleks vazifalarni,bilimlar, mantiq, tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy fikrlashga, fikr-mulohazalarni shakllantirib, qaror qabul qilishga,ijodiy yondashishga, insonlar bilan hamkorlik qilish, jamoada faoliyat olib borishga, o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini to‘g‘ri va haqqoniy baholashga, ularni boshqarishni,intellektga ega bo‘lishni, diqqatni bir vazifadan boshqasiga tez qarata olishga,moslashuvchan bo‘lishga o‘rgatishni talab qiladi. . Zamonaviy ta’lim dunyodagi tinimsiz o‘zgarishlarga moslashgan, turli muammo va to‘siqlarga tayyor turadigan mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirmoqda. Bu kabi ta’lim o‘quvchilarni nafaqat amaliy ko‘nikmalar bilan, balki o‘quvchilarga bugungi kunda zarur bo‘lgan zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beruvchi o‘quv usullari bilan qurollantiradi.

Sifat so‘z turkumini o‘qitish innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil qilinganda, asosan o‘quvchilarda hamkorlik qilgan holda, jamoa muhitida , juftliklarda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi, umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga yordamlashadilar, o‘quvchilarda ijodiy va mustaqil firlash malakalari shakllanib boradi, o‘quvchilar o‘z ishlari natijasida o‘qishga, ta’lim olishga shaxsan mas’uliyatni his qilishadi.Sifatni o‘rganish yo‘llari materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni nazarda tutadi. O‘quvchilar 1- va 2-sinfda sifatning leksik ma’nosini o‘rganadilar, sifatga qanday?, qanaqa? so‘rog‘ini berishga odatlanadilar. 3-sinfda sifat so‘z turkumi o‘z nomida “sifat” deb o‘rganiladi.4-sinfda ilgari o‘tilgan mavzular va ma’lumotlar takrorlanib, grammatik materialga bog‘liqligi bilan qip-qizil, yam-yashil kabi orttirma darajadagi sifatlarning yozilishi va belgilik darajasi o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda „Sifat" mavzusi quyidagi bosqichlarda o‘rganiladi:

Birinchi bosqich. Sifat haqidagi dastlabki yuzaki ma’lumotlar bu bosqichda sifat so‘z turkumi birinchi tanishtirish, sifatning leksik ma’nosi va so‘roqlari ustida kuzatish olib borish bilan boshlanadi. Predmetning belgilari turli xil bo‘lib, uni rangi, mazasi, shakli, xil-xususiyatlari hidi, tuzilishi tomonidan o‘rganiladi. Shunday ekan, sifat haqidagi ko‘nikmani shakllantirish uchun uning ma’nolarini topish kerak bo‘ladi.O‘qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, (qanday?) olma -yashil, shirin, yumaloq olma; (qanday?) ip - uzun, qizil ip. Albatta, suhbat asosida o‘quvchilar olma, ip so‘zlari nima? so‘rog‘iga javob bo‘lib, predmet nomini bildirishi, qizil, shirin, yumaloq kabi so‘zlar qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lib, predmetning belgisi (rangi, mazasi, shakli)ni bildirishni aytadilar. O‘qituvchi atrofimizni o‘rab olgan predmetlarning o‘z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farq qilishini yana bir-ikki misollar yordamida tushuntiradi (Qanday? daraxt-katta, chiroyli, sershox, ко ‘m-ko ‘k daraxt. Qanaqa ? shkaf — oynali, baland shkaf). Xulosa chiqariladi: qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar predmet belgisini ifoalab keladi.

Bu bosqichda darslarda –“Ortiqchasini top” o‘yini, -Senkveyn metodini qo‘llaganda kutilgan natijaga erishiladi. Masalan, o‘qituvchi kitob, oq, katta, chiroyli, qizil kabi so‘zlarini o‘quvchilarga beradi, o‘quvchilar esa ularning orasidan ortiqchasini chiqarib tashlashadi. O‘quvchilarda bu jarayon ularning tanqidiy fikrlashini va nutqini rivojlantirish vazifasini bajaradi.

Ikkinchi bosqich. Sifat haqida tushunchani shakllantiradi (3-sinf). Ikkinchi bosqichda asosan ikki vazifa: „Sifat" tushunchasini shakllantirish va o‘quvchilar nutqini yangi sifatlar yordamida boyitib borish,fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga to‘g‘ri keladigan sifatlardan nutqda unumli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish belgilab beriladi. „Sifat-tushunchasini shakllantirish o‘quvchilaning „predmetning belgisi" degan umumlashtirilgan kategoriyani o‘rgana olish darajasiga uzviy bog‘langan. Shu maqsadda rang, maza-ta’m, shakl, hajm, xil-xususiyat ifodalaydigan so‘zlar guruhlanadi va shu so‘zlarning xususiyatlari birlashtiriladi.

Bu bosqichda Klaster, Eyler Venn diagrammasidan foydalanilsa, o‘quvchilarning darslarga qiziqishi yanada oshadi. Masalan, o‘qituvchi qanday? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni so‘roq ostiga olib to‘plam hosil qiling kabi vazifalarni qo‘yadi.

Uchinchi bosqich. Shu grammatik mavzu bilan bog‘liq holda ba’zi sifatlarning yozilishini o‘rgatiladi (4-sinf).Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqda sifatlardan to‘g‘ri,aniq va o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish bilan bog‘liq holda –roq qo‘shimchasi bilan qo‘llangan sifatlarni va ko‘m-ko‘k, yam-yashil kabi sifatlarni to‘g‘ri yozish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga tayangan holda belgilanadi va o‘quvchilar nutqini o‘stirishga yo‘naltiriladi. Nazariy ma‘lumotlarga asoslanib matnda berilgan otlarning belgilarini bildiradigan sifatlarni tanlab olish, gapda sifat bog‘langan otni aniqlab yozish, otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so‘z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Bu bosqichda –“Ha yoki yo‘q” o‘yinidan foydalanganda o‘quvchilarga mavzu haqidagi fikrlarini xulosalashga va o‘quvchilar ongiga tez singishiga, ularni kundalik faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi.

| t/r | Savollar | Ha | Yo‘q |
|---|---|---|---|
| 1 | Sifat shaxs va narsalar nomini bildiradi | | + |
| 2 | Sifat qanday? Qanaqa? So‘roqlariga javob bo‘ladi. | + | |
| 3 | Sifat yasovchi qo‘shimchalarga –q kiradi | + | |
| 4 | -chi, -loq, -dosh qo‘shimchalari shaxs ma‘nosini bildiradi | + | |

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X. G‘ulomova, Sh.Yol‘dosheva, Sh.Sariyev Ona tili o‘qitish metodikasi.. Toshkent ―NOSHIR‖ nashriyoti. 2009 y

2. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi‖ dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Ta‘limni rivojlantirish ilmiy metodika markazi.A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish ilmiy tadqiqot instituti. Toshkent 2023

3. Ona tili darsligi. 4-sinf. –T.: Novda edutainment, 2023

# 3-SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA HIKOYA JANRIGA XOS METALLAR USTIDA ISHLASH IMKONIYATLARI

**Rakhimjonova Lobar**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 16-22 guruh talabasi
**Namozova Odina**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 16-22 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda 3-sinf o‘qish savodxonligi darslarida hikoya janriga xos metallar haqida bayon etilgan. Shuningdek, bolalar hikoya janri bilan yangi tanishish jarayonida bo‘lgani uchun ,ularga hikoyani tushuntirish va ushbu janrda ishlashni osonlashtirish uchun turli xil metodlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, hikoya , darslik, mantiqiy fikrlash, islohotlar, ta’lim va tarbiya.

**Abstract:**In this thesis, in the 3rd grade reading literacy lessons, it is described about the metals specific to the narrative genre. Also, since children are in the process of getting to know the story genre, they are given information about various methods to explain the story and facilitate work in this genre.

**Key words:** elementary school, story, textbook, logical thinking, reforms, education and training.

3- sinf o‘quvchilari o‘qish savodxonligi darslarida yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradigan davrda bo‘lishadi. Ayniqsa, hikoya janri ular uchun qiziqarli va ijodiy imkoniyatlar dunyosini ochadi. Hikoya o‘qish va yozish darslari orqali bolalar voqealarni ko‘z oldiga keltirishni, qahramonlarning his-tuyg‘ularini tushunishni o‘rganadilar. Ushbu maqolada hikoya janrini o‘rganishga qaratilgan asosiy metodlar va ularning o‘quvchilarning savodxonligini oshirishdagi ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

**Hikoya** – Badiiy adabiyotning qisqa janri bo‘lib, unda biror voqea, hodisa yoki qahramonning hayotidagi muayyan bir holat qisqacha tasvirlanadi. Hikoya odatda bir necha sahifadan oshmaydigan, qisqa, mazmunli asar bo‘lib, voqealar ketma-ketligi sodda va ravon tarzda bayon qilinadi. Unda o‘quvchiga o‘sha voqea orqali muallifning g‘oyasi, hayotiy saboq yoki o‘git yetkaziladi.

Hikoyaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Bir asosiy voqea hikoyada odatda bitta asosiy voqea yoki hodisa tasvirlanadi. Bu voqea tez rivojlanadi va qisqa muddatda o‘z yakuniga yetadi.
- Qahramonlar hikoyada ko‘p qahramonlar bo‘lmaydi; aksariyat hollarda asosiy e'tibor bitta yoki ikkita qahramonga qaratiladi.
- Qisqa hajm roman yoki qissaga nisbatan hikoya qisqa bo‘lib, unda voqealar tezkor va lo‘nda ifodalanadi.
- Sodda tuzilma hikoyaning boshlanish, rivojlanish va yakun qismlari bo‘ladi, bu qismlar voqealar ketma-ketligini soddalashtiradi.

Hikoyalar inson hayoti, uning his-tuyg‘ulari, orzu-umidlari, qiyinchiliklari haqida bo‘lib, o‘quvchida chuqur hissiy ta’sir uyg‘otadi.

Oliy ta’lim muassasalarini bitiruvchilari tomonidan dual ta’limni tashkil etishni baholash natijalari diagrammasi dual ta’lim tizimini “Tarmoq – korxona - oliygoh” darajasida qurish “korxona-laboratoriya” darajasida qurishdan ko‘ra qiyinroq ekanligini ko‘rsatdi.Oliy ta’lim muassasalarini bitiruvchilari tomonidan o‘z-o‘zini baholashda ularda o‘nta kompetensiyani rivojlantirish darajasini baholashlarida, birorta ham respondent "kompetensiya rivojlanmagan" pozitsiyasini tanlamadi, ammo respondentlarning ma’lum bir qismi “kompetensiyalarning zaif rivojlangan” pozitsiyasini qayd etdilar (44,4% gacha). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dual ta’lim imkoniyatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarda nafaqat uni tashkil etish tamoyillarini amalga oshirish, balki o‘qitish usullarini yanada takomillashtirish ham muhim ekanligi aniqlandi.

Dual va an’anaviy ta’limni qiyosiy tahlil qilish natijasiga ko‘ra oliy ta’limda muhandis energetik kadrlarni tayyorlashda dual ta’limi asosida o‘qitishning joriy etilishi va tashkil etilishida uning quyidagi asosiy tamoyillari aniqlandi:

- muhandis energetik mutaxassislar tayyorlashning tuzilishi, mazmuni va hajmi korxonaning haqiqiy ehtiyojlarga mos kelishi kerak;
- muhandis energetik mutaxassislik bo‘yicha fanlardan bajariladigan laboratoriya ishlarining mavzulari korxona ishlab chiqaradigan tovarlar, mahsulotlar va ularning sifatini aniqlovchi optimal parametrlarini aniqlash va yuqori samaradorligini baholashga qaratilgan bo‘lishi lozim;
- bajariladigan kurs ishlari va yakuniy malakaviy bitiruv ishi mavzulari ish beruvchi korxonalarning potensial ehtiyojlarga yo‘naltirilishi kerak.
- talabalarning amaliyoti ishlab chiqarish korxonasining zamonaviy uskunalarida olib borilishi zarur va hakozalar.

**Xulosa:** 1. Dual ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari tamoyillarini shakllantirish va uni takomillashtirish “Tarmoq- korxona-oliygoh” darajasida dual ta’lim tizimini yaratishga tayananish maqsadga muvofiqdir.

2. Dual ta’limni “Tarmoq- korxona-oliygoh” darajasida tashkil etishning uslubiy tamoyillari oliygoh va korxona hamkorligidagi ta’lim jarayonini yanada muvaffaqiyatli shakllantirish, talabalarning kognitiv faoliyati (nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitish) faoliyatini oqilona tashkil etishni imkonini beradi.

3. “Muqobil energiya manbalari” ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari o‘rtasida maxsus so‘rov natijalari dual ta’lim doirasida egallagan malakalari, o‘rganilgan material ishlab chiqarish talablariga javob berishini ta’kidlanadi. Shu bilan birga, o‘tkazilgan anketa so‘rovlariga binoan “Tarmoq-korxona-oliygoh” darajasida dual ta’limni muvaffaqiyatli tashkil etish “korxona – laboratoriya ” darajasiga qaraganda dual jarayonni qurish qiyinroq ekanligi aniqlandi.

4. Korxona ehtiyojlarini hisobga olgan holda talabalarni mutaxassislik fanlarini professional modul asosida o‘qitish hamda o‘qitish materiallarini o‘z ichiga olgan holda uning mazmunini qayta ko‘rib chiqish zarurati ma’lum bo‘ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-son qarori.

2. Сидакова Л.В. Сущность и основные признаки дуальной модели обучения. Образование и воспитание. 2016; 2: 62 – 64.

3. Растегаева Д.А., Филимонюк Л.А. Основы реализации системы дуального обучения в профессиональной подготовке студентов организаций высшего образования. Мир науки, культуры, образования. 2017; 6 (67): 110 – 112.

4. Харитонова Н.Д. Дуальная система образования в высшей школе: эффективность внедрения. Электронный научно-методическийжурнал Омского ГАУ. 2017; 3: 15. Аваилабле ат: ҳттпс://элибрарй.ру/итем.асп?ид=28889620

5. Терещенкова Е.В. Дуальная система образования как основа подготовки специалистов. Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2014; 4: 41 – 45.

6. G N Uzakov, X A Almardanov, I N Kodirov, L A Aliyarova.Modeling the heat balance of a solar concentrator heliopyrolysis device reactor. B IO Web of Conferences,71, 010,98 (2023). p.1-11.*CIBTA-II-2023.* ROSSIYA. https://doi.org/10.1051/bioconf/20237101098.

7. Kodirov I.N. Advantages of dual education in training qualified engineering personnel in technical higher education institutions. Proceeding of International Conference on Modern Science and Sciendies Hosted online from Paris, France.Date: 19th March,2024.Pp.223-231.

8. Kodirov I.N.Dual education system in training qualified alternativi energy personnel in cooperation with manufacturing enterprises. Proccedings of International Educators Conference.Hosted online from Rome,Itale. Website: conferenceseries.com.E-ConferenceSeries.Date: 25th March, 2024.ISSN:2835-396X.Pp.100-110.

9. Kodirov I.N. Characteristics of dual education in the training of engineering bachelors in higher education institutions. Western European Journal of Linguistics and Education. Volume 2, Issue 2, February, 2024. Pp. 91-95.

10. Kodirov I.N.Dual education in the training of qualified engineering personnel in technical fields is the basis of the new innovative educational system. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. Volume 2, Issue 2, February, 2024. Pp. 33-38.

11. Kodirov I.N.Muhandis-texnik kadrlar tayyorlashda dual ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari. “TAFAKKUR ZIYOSI” ilmiy-uslubiy jurnali. Jizzax. 2024/2-son.10-14 b.

12. Kodirov I.N. Texnika oliy ta’lim muassasalarida malakali muhandis kadrlar tayyorlashda dual ta’limning afzalliklari. “ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal. Urganch davlat universiteti. Xorazm. 5/1-son (may 2024).58-62 b.

13. Kodirov I.N.Dual ta’limni “korxona-kafedra” darajasida tashkil etish orqali oliy ta’limda muhandis energetiklarni tayyorlash. Замонавий таълим / Современное образование. htt ps://doi .org /10.34920/so /vol _2024_issu e_6_2. 2024, 6 (139).9-16 б.

## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PSIXOLOGIK TAYYORLASH VA EMOTSIONAL QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AHAMIYATI

**M.J.Shodiyeva**
Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi mudiri
Pedagogika fanlari doktori (DSc)
e-mailshodiyeva82@gmail.com
Tel:+998903259172

**Annotatsiya.** Boshlang‘ich ta'lim bolalarning intellektual rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri sanaladi. Bu yoshda o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki psixologik va emotsional jihatdan shakllanish jarayonidan o‘tadi. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga beriladigan ta'limda ularning psixologik tayyorligi va emotsional qo‘llab-quvvatlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Quyida psixologik tayyorlash va emotsional qo‘llab-quvvatlashning boshlang‘ich ta'lim uchun qanchalik zarur ekanini ko‘rib chiqamiz.

**Kalit so‘zlar**: psixologik tayyorgarlik, emotsional qo‘llab-quvvatlash, boshlang‘ich ta'lim, motivatsiya, stress boshqaruvi, diqqat va xotira, o‘yinli ta'lim, ijodiy faoliyat, individual yondashuv, psixolog yordam.

**Annotation.** Primary education is one of the most important stages in children's intellectual development. At this age, students not only acquire knowledge, but also go through the process of psychological and emotional formation. Therefore, their psychological preparation and emotional support are of great importance in the education provided to elementary school students. Below we will consider how necessary psychological preparation and emotional support are for primary education.

**Key words:** psychological preparation, emotional support, primary education, motivation, stress management, attention and memory, game education, creative activity, individual approach, psychological support.

Boshlang‘ich maktabga moslashish qiyin jarayon bo‘lishi mumkin va o‘quvchilarga yangi muhitga moslashishda psixologik yordam zarur. Ota-onalar, tarbiyachilar va o‘qituvchilar bolalar uchun xavfsiz va qulay muhitni ta'minlash uchun birgalikda ishlashlari kerak. Faol tinglash, ijobiy mustahkamlash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, maslahat xizmatlari va guruh terapiyasi psixologik yordam ko‘rsatishning samarali usullaridir. Hissiy va psixologik yordam ko‘rsatish orqali bolalar xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi muhitda o‘sishi va rivojlanishi hamda akademik va shaxsiy hayotlarida muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

1. Bolalarning psixologik tayyorligi nima?

Psixologik tayyorlik, o‘quvchilar uchun ta'lim jarayonida ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan ruhiy va hissiy holatni anglatadi. Bu holat bola o‘qishga kirayotganida ularning o‘z-o‘zini anglash, diqqatni jamlash, yangi ma'lumotlarni qabul qilish va ularga moslashish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich ta’lim yoshida bolalarning psixologik tayyorligini oshirish uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish muhim:

Motivatsiya: Bolalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqi kuchli bo‘lishi kerak. Darslarni o‘yin va ijodiy faoliyatlar bilan boyitish bu motivatsiyani oshiradi.

Diqqat va xotira: Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning diqqatni bir joyga jamlay olish va materiallarni eslab qolish qobiliyatlari muhim. Shu maqsadda darslar o‘quvchilarning yoshiga mos, qisqa vaqt davomida o‘tishi kerak.

Hissiy holatni boshqarish: Bolalar uchun o‘qituvchi va tengdoshlar bilan muloqotda hissiyotlarini ifoda qilish va boshqarishni o‘rgatish zarur. Bu ularni stress holatiga qarshi immunitetli qiladi va o‘zini tutish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2. Emotsional qo‘llab-quvvatlash nima uchun zarur?

Bolalar boshlang‘ich sinfda o‘qishni boshlaganda, yangi muhitga moslashish, o‘z tengdoshlar bilan muloqot o‘rnatish va yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish ular uchun qiyin kechishi mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar o‘zlarini xavfsiz va qulay his qiladigan dars muhitiga muhtoj. Emotsional qo‘llab-quvvatlashning o‘quvchilarga bo‘lgan foydalari quyidagilar:

Stress va qo‘rquvni kamaytiradi: O‘quvchilar o‘qituvchi va tengdoshlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanganda, ular darslarga qiziqish bilan kirishadi va o‘zlariga ishonch hosil qiladi.

O‘z-o‘zini hurmat qilishni oshiradi: Emotsional qo‘llab-quvvatlash bolalarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. O‘z-o‘zini hurmat qilish yuqori bo‘lgan o‘quvchilar ta’limda yuqori natijalarga erishishga moyil bo‘ladilar.

Moslashuv qobiliyatini rivojlantiradi: Maktab muhitida qo‘llab-quvvatlangan bolalar yangi vaziyatlarga tezroq moslasha oladi va bu moslashuv kelajakdagi turli ijtimoiy vaziyatlarga tayyorlanishiga yordam beradi.

3. Psixologik tayyorlash va emotsional qo‘llab-quvvatlashni qanday amalga oshirish mumkin?

Boshlang‘ich ta’limda psixologik va emotsional qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish uchun quyidagi yondashuvlarni qo‘llash mumkin:

a) Individual yondashuv. Har bir bolaning psixologik rivojlanish darajasi va ehtiyojlari farq qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olib, unga alohida yondashishi zarur. Masalan, uyatchan o‘quvchilarni ishtirokga jalb qilish uchun

rag‘batlantirish, diqqatni jamlay olmaydigan bolalarga esa qisqa tanaffuslar berish samarali usul bo‘lishi mumkin.

b) O‘yin va ijodiy faoliyatlar. Bolalar o‘yin orqali tezroq o‘rganadi va o‘zlarini ifoda etadi. O‘quvchilarni o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar, teatr ko‘rinishlari va rasm chizish kabi faoliyatlar orqali ta'lim jarayoniga jalb qilish, ularning emotsional holatini yaxshilaydi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

C) Stressni kamaytirish texnikalari. O‘quvchilarga stress va tashvishlarni boshqarish texnikalarini o‘rgatish ham psixologik tayyorgarlikning muhim qismi sanaladi. Masalan, chuqur nafas olish mashqlari, vizualizatsiya, va qisqa tanaffuslar orqali diqqatni qayta tiklash usullari bolalarga stressni yengishda yordam beradi.

d) Psixologlar va maslahatchi mutaxassislar qo‘llab-quvvatlashi

Maktablar psixologik xizmatni tashkil etishi va bolalar bilan ishlash uchun maxsus psixologlarni jalb qilishi kerak. Psixologlar o‘quvchilarning emotsional muammolarini o‘z vaqtida aniqlash va kerakli yordamni ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Ular bilan o‘tkaziladigan psixologik treninglar o‘quvchilarning ijtimoiy muloqot va hissiy boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. O‘qituvchilarning rolini mustahkamlash. O‘qituvchilarning psixologik bilim va ko‘nikmalarini oshirish o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilarga stress boshqaruvi, bolalarning emotsional ehtiyojlarini aniqlash va ularga yordam berish bo‘yicha treninglar o‘tkazish foydali bo‘ladi. O‘qituvchilar o‘zlarini emotsional qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus bilimlarga ega deb his qilsalar, ular bolalarga yordam berishda o‘zlarini ishonchli va samarali tutadilar.

**Xulosa.** Boshlang‘ich ta’limda psixologik tayyorlash va emotsional qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning nafaqat ta'limdagi muvaffaqiyatlari uchun, balki ularning kelgusidagi ruhiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun ham zarur. Bu yondashuvlar orqali maktablarda qulay va ishonchli ta'lim muhiti yaratiladi, o‘quvchilar o‘zlarini xavfsiz va tushungan holda his qiladilar. Shu sababli, psixologik va emotsional qo‘llab-quvvatlash tizimini ta’lim dasturiga kiritish, ularni qo‘llash uchun zaruriy resurslarni yaratish boshlang‘ich ta'lim tizimini yanada yaxshilash va bolalarning kelajagiga katta hissa qo‘shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G’oziyev E. Umumiy pedagogika. Yangi asr avlodi (2010).
2. Davlatshin M. Umumiy psixologiya. TDPU.
3. R.A.mavlonova, N.h.Rahmonqulova “Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi”
4. O‘rinova, “Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish”
5. R.Mavlonova “Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya”

## ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI ISHLAB CHIQISH JARAYONLARIDA METODIK TA'MINOTNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

**Nurmaxanov Kayrat Erpayızovich**
Nukus davlat pedagogika instituti
Matematika o‘qitish metodikasi kafedrasi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
e-mail: nurmakhanovk88@gmail.com
Tel: +998905774541

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish jarayonlarida metodik ta'minotni takomillashtirishning zamonaviy usullari tahlil qilinadi. Elektron ta'lim resurslarining o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashishi, ularning bilimlarini mustahkamlash va motivatsiyasini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Metodik tamoyillar asosida loyihalash, multimedia va interaktivlik elementlarini qo‘llash orqali elektron ta'lim resurslarining ta'lim

samaradorligini oshirish yo‘llari yoritiladi. Shuningdek, maqolada adaptiv o‘qitish va gamifikatsiya kabi innovatsion yondashuvlar haqida ham fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** elektron ta'lim resurslari, metodik ta'minot, raqamli ta'lim, didaktik tamoyillar, raqamlashtirish, adaptiv o‘qitish, interaktiv ta'lim, multimediya, o‘quv platformalari, ta'lim sifatini oshirish

**Abstract:** This article analyzes modern methods for improving methodological support in the development of electronic educational resources. It examines how electronic resources can be adapted to students' needs, enhancing their knowledge retention and motivation. The article discusses ways to improve the effectiveness of electronic educational resources by incorporating didactic principles, multimedia, and interactive elements. It also explores innovative approaches such as adaptive learning and gamification.

**Keywords:** electronic educational resources, methodological support, digital education, didactic principles, digitalization, adaptive learning, interactive learning, multimedia, educational platforms, improving education quality

Hozirgi kunda ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu jarayonda zamonaviy elektron ta'lim resurslari (ETR) muhim o‘rin tutadi. Ta'lim resurslarining o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashishi, bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berishi, ularni jalb qilish va motivatsiyasini oshirishi zarurdir. Shu sababli, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish jarayonlarida metodik ta'minotni takomillashtirish zamonaviy ta'lim muhitining ajralmas qismidir.

**1. Elektron ta'lim resurslarining asosiy komponentlari va ularning metodik ahamiyati**

Elektron ta'lim resurslari quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- ***Interaktivlik:*** O‘quvchilarning dars jarayoniga faol jalb qilinishini ta’minlash uchun interaktiv elementlardan foydalanish muhimdir. Masalan, turli xil testlar, masalalar va o‘yinlar o‘quv jarayonini jonlantiradi va o‘quvchilarning diqqatini o‘qishga yo‘naltiradi.
- ***Moslashtirish:*** Elektron ta'lim resurslari har bir o‘quvchining individual ehtiyoj va qobiliyatlariga moslashtirilishi kerak. Bu o‘quv jarayonini samarali qiladi.
- ***Multimedia elementlari:*** Raqamli darsliklar, videolar, audio va grafik tasvirlar ta'lim resurslarini yanada qiziqarli va tushunarli qiladi.

Mazkur komponentlarning samaradorligi va ularni ishlab chiqish jarayonida qo‘llanishi ta'lim resurslari sifatini sezilarli darajada oshiradi.

**2. Elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishda zamonaviy metodik usullar**

Zamonaviy metodik usullar ta'lim resurslarini ishlab chiqishning yangi usullarini qo‘llashga imkon beradi. Quyida bu usullarning asosiylari bayon etilgan:

- ***Konstruktsionistik yondashuv:*** Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta'lim resurslari o‘quvchilarning bilimlarini mustaqil ravishda shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradigan tarzda yaratilishi lozim. O‘quvchilar o‘quv resurslaridan mustaqil o‘rgana olishlari va o‘z bilimlarini mustahkamlashlari uchun real hayotiy muammolar asosida vazifalar taqdim etiladi.
- ***Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi:*** Ushbu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, o‘quvchilar o‘z tengdoshlari yoki mutaxassislardan tajriba o‘rganadilar. Shunday qilib, o‘quv resurslari jamoaviy ishlash, muhokama va birgalikda o‘rganishni rag‘batlantiradigan interaktiv muhit yaratishi kerak.
- ***Adaptiv o‘quv tizimlari:*** Zamonaviy elektron ta'lim platformalari o‘quvchilar uchun moslashtirilgan o‘quv rejasini taqdim etish imkoniyatiga ega. Masalan, adaptiv o‘quv tizimlari har bir o‘quvchining natijalariga qarab keyingi bosqichlarni tavsiya etadi yoki qiyinchilik darajasini moslashtiradi.
- ***Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish):*** Gamifikatsiya ta'lim jarayoniga o‘yin elementlarini qo‘shish orqali o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish va motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Bu usul turli vazifalarni bajarish, rag‘bat olish, reytinglar va yutuqlar bilan qo‘llanilishi mumkin.

**3. Elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishda didaktik tamoyillar**

Elektron ta'lim resurslari ishlab chiqishda didaktik tamoyillarga asoslangan yondashuv katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ***Maqsadga yo‘naltirilganlik:*** Har bir ta'lim resursi aniq maqsad va vazifalarga mos kelishi kerak.
- ***Izchillik:*** Ta'lim materiallari izchil tuzilgan bo‘lishi kerak, bu o‘quvchilarning bilimni yaxlit holda tushunishiga yordam beradi.
- ***Moslashuvchanlik:*** Ta'lim resursi talabaning bilim darajasiga moslashishi va o‘rganish jarayonida moslashuvchan bo‘lishi lozim.
- ***Jozibadorlik:*** Ta'lim resurslarining jozibador va qiziqarli bo‘lishi o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

**4. Elektron ta'lim resurslarini joriy etishning amaliy tomonlari**

Elektron ta'lim resurslarini ta'lim jarayoniga tatbiq qilishda o‘qituvchilarning roli muhim hisoblanadi. Ular:

- ✓ Elektron resurslardan foydalanish bo‘yicha trening va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari,
- ✓ O‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan o‘quv rejalarini ishlab chiqishlari,
- ✓ Turli texnologiyalardan foydalangan holda, o‘quvchilar bilan samarali hamkorlik qilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish jarayonlarida zamonaviy metodik usullarni qo‘llash ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Raqamli o‘quv materiallarining ta'lim jarayoniga moslashishi va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish imkoniyati ta'lim sifatini oshirishning samarali yo‘lidir. Elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishda didaktik tamoyillar va zamonaviy metodlarni qo‘llash nafaqat o‘quvchilar uchun, balki o‘qituvchilar uchun ham yangi imkoniyatlar ochib beradi. Shunday qilib, ushbu maqola elektron ta'lim resurslarini yaratishda metodik ta'minotni takomillashtirish orqali o‘quv jarayonining innovatsion imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

**Adabiyotlar:**

1. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning (4th ed.). Hoboken, NJ: Wiley.
2. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3-10.
3. Anderson, T., & Elloumi, F. (2004). Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.
4. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning (2nd ed.). New York: Cambridge University Press.
5. Bonk, C. J., & Graham, C. R. (2006). The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. San Francisco: Pfeiffer.
6. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. San Francisco: Jossey-Bass.
7. Laurillard, D. (2013). Rethinking University Teaching: A Conversational Framework for the Effective Use of Learning Technologies (2nd ed.). London: Routledge.
8. Ally, M. (2004). Foundations of Educational Theory for Online Learning. In T. Anderson & F. Elloumi (Eds.), Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.
9. Bates, A. W. (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning for a Digital Age. Vancouver, B.C.: Tony Bates Associates Ltd.
10. Picciano, A. G., & Dziuban, C. D. (2007). Blended Learning: Research Perspectives. Needham, MA: Sloan Consortium.
11. Erpayizovich, Nurmakhanov Kayrat. "IMPORTANT FACTORS FOR USING THE GEOGEBRA PROGRAM IN TEACHING ANALYTICAL GEOMETRY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 691-693.

12. Nurmakhanov K. E. Improving the Methodology of Using the Geogebra Program in E-Learning Environment //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 14571-14577.

13. Nurmakhanov K. THROUGH GEOGEBRA DIGITAL LEARNING SYSTEMS SOLVING PROBLEMS OF ANALYTICAL GEOMETRY //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 4.

14. Erpayizovich, N. K. (2024). Methodology Of Teaching Future Teachers To Create Electronic Educational Resources In The Conditions Of Digitization. Onomázein, (62 (2023): December), 2575-2581.

15. Barakbaevich, P. B., & Erpayizovich, N. K. (2023). TEACHING MATHEMATICS USING THE GEOGEBRA SOFTWARE TOOL IN AN E-LEARNING ENVIRONMENT. QUALITY OF TEACHER EDUCATION UNDER MODERN CHALLENGES, 1(1), 360-365.

16. Prenov, B. B., & Nurmakhanov, K. E. (2022). Active methods of teaching analytical geometry in higher education institutions. *NeuroQuantology*, *20*(18), 108.

## OLIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA QONUNLARNING O‘RNI VA ROLI

**Tursunova Olmos Fayzievna**
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi dotsenti
e-mail:olmostursunova1@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda yoshlarga oid normativ-huquqiy hujjatlar mohiyati yoritib berilgan. Oliy ta’limda tahsil olayotgan yoshlarning huquqiy madaniyati, huquqiy ongi va huquqiy bilimini yuksaltirishdagi me’yorlar ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar**: yoshlar, huquqiy madaniyat, huquqiy bilim, huquqiy ong, normativ-huquqiy hujjatlar.

**Rezume:** The article describes the nature of regulatory documents relating to youth in the development of the higher education system. Standards for increasing legal culture, legal awareness and legal knowledge of young people studying in higher educational institutions have been identified.

**Key words:** youth, legal culture, legal knowledge, legal consciousness, legal acts.

O‘zbekistonning kelajagi, birinchi navbatda, yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, irodaviy sifatlariga, mustaqil pozitsiyasiga, g‘oyaviy, siyosiy, huquqiy etuklik darajasiga, milliy o‘zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olishlariga bevosita bog‘liq. Jamiyat taraqqiyotini, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq bo‘lgan ulkan vazifalarni bajarishga ommani safarbar etishni mafkurasiz tasavvur etish mumkin emas. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday deyiladi: «Xalqimizda «ta’lim va tarbiya beshikdan boshlanadi» degan hikmatli bir so‘z bor. Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga etaklaydi.

Shu sababli, ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimi printsipiga asoslanishi, ya’ni ta’lim bog‘chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim».

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarga taalluqli me’yorlardan tashqari, aynan yoshlarni huquqiy ongini yuksaltirishga doir bo‘lgan qoidalar ham mavjud. Jumladan,

33-modda: «Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi”.

Shuningdek, O‘zbekiston 2016 yilning 14-sentyabrida O‘zbekiston Respublikasida «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinganini alohida qayd etib o‘tish joiz. Ushbu huquqiy hujjat bosh islohotchi bo‘lgan davlatning yoshlar masalasiga doir strategik yo‘nalishlarini izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘llarini belgilab

berdi. Yoshlarga oid davlat siyosati davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir. Shunday ekan, qonun yoshlarimizning huquqiy madaniyatini oshirishda huquqiy kafolat hisoblanadi, normativ-huquqiy aktda yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash belgilab qo‘yilgan.

Ushbu qonunga ko‘ra, davlat yoshlar siyosatini amalga oshirar ekan, avvalo, millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma’lumoti va siyosiy e’tiqodidan qat’iy nazar, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, milliy-madaniy an’analarning avloddan avlodga o‘tishi, avlodlarning ma’naviy aloqalarini ta’minlash, yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘llarini erkin tanlab olishlarini kafolatlash, jamiyat va yoshlar hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishini ta’minlashni o‘ziga vazifa qilib olishi belgilab qo‘yilgan.

Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy faolligi o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu borada ularda shakllanayotgan ijtimoiy va mafkuraviy tushuncha va g‘oyalarning ahamiyati kattadir. Shu nuqtai nazardan, “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasida yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston qanchalik qaltis dunyo bilan aloqaga kirishganligini kuzatish mumkin. Mintaqamizda yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash zaruriyatining sabablaridan biri shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti chet el sarmoyalari, zamonaviy texnika va texnologiya, bozorni shakllantirish usullari bilan bir qatorda mamlakatimizga o‘zining madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi va tasavvurlarini ham olib kirmoqda. Global mafkuraviy tahdid va tajovuzning xavfi - ularning yurtimizga ochiq kirib kelishidir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmonida yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, «ommaviy madaniyat» va boshqa yot g‘oyalarga qarshi mustaqkam immunitetni shakllantirish muhimligi qayd etilgan.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zlarining Oliy Majlisga qilgan murojaatlarida: «Oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishimiz zarur.

O‘zbekistonda oliy va o‘rta maxsus ta’lim maskanlari bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish o‘tgan davrda 9-10 foiz darajasida bo‘lib kelayotgan edi. So‘nggi ikki yilda ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli, biz bu raqamni 15 foizdan oshirishga erishdik.

Lekin bu hali etarli emas. Chunki dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich ularda 60-70 foizni tashkil etadi».

Shuningdek, Yoshlarimizning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga, jumladan, axborot texnologiyalari rivojlangan bir paytda yoshlarimizning virtual saytlar to‘riga aralashib qolishi, «mumkin bo‘lmagan» mavzularda bahsga kirishib ketishi, virtual jihodlar kabi «kasallik»larga nisbatan immunitetni shakllantirish zarur. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni bugungi kunda yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashga dasturulamal bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyani tizimli va uzviy

ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini keng targ‘ib qilish belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda, yuqoridagi «kassallik»larga nisbatan albatta yurtimizda javobgarlik asoslari belgilanganligini yoshlarimiz ongiga sindirib borishimiz shart.

Ijtimoiy hayotda yoshlar faoliyatiga nisbatan liberal siyosat yuritish ular tarbiyasiga putur etkazadi. Azaldan yoshlarning faoliyati ota-ona, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla va keng jamoatchilik tomonidan doimo nazoratda bo‘lib kelgan. Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish bizningcha to‘g‘ri bo‘lar edi:

Birinchidan, «shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot - jamiyat» kontseptsiyasi asosida barchada daxldorlik hissini uyg‘otish;

Ikkinchidan, barcha bo‘g‘indagi ta’lim muassasalarida korruptsiyaga qarshi kurash bo‘yicha keskin choralar ko‘rish. Buning uchun, salohiyatli, ilmli yoshlar o‘rtasida turli xil brifinglar, master klasslar, konkurslar tashkil etish va rag‘batlantirish. Pedagog va talaba-yoshlarga har bir ilmiy ishi uchun eng kam oylik ish miqdorida rag‘batlantirish. Zero, investitsiyalarga bilimga, g‘oyaga qaratilsa yoshlarimiz barcha masalalarga kreativ yondashadilar.

Uchinchidan, ta’lim muassasalarida sog‘lom raqobatni kuchaytirish. Masalan, «Prezident asarlari bilimdoni», «Huquqiy bilimdon», «Deputat bo‘lsam», «Senator bo‘lsam», «Hokim bo‘lsam» kabi konkurslar tashkil etish. Konkurs ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar oddiy, «…bo‘lsang, avvalo qanday qonunlarni qabul qilgan bo‘larding? Kontseptsiyangni ishlab chiq? Qaysi qonunlarga qanday o‘zgartishlar kiritish lozim, nega? Asoslang. Va hakozo.

To‘rtinchidan, har bir ta’lim mussasasi qoshida «Huquqiy klinika» tashkil etish, volontyorlardan iborat guruh yurtimizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy aktlar bilan aholining turli qatlamlarini tanishtirib boradi, albatta reja asosida bir oyda bir marta. Targ‘ibot-tashvig‘ot ishlarini olib boradilar. Zero Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: «Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – dekmokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!»

Beshinchidan, turli xil stipendiyalar, mukofotlar ta’sis etishini tavsiya qilamiz.

Oltinchidan, «Yosh qonun ijodkori» shiori ostida insholar, rasmlar, albomlar, video, audio ko‘rsatuvlari, she’rlar, qonun loyihalari konkurslarini tashkil etish.

Vatanimizdagi har bir yosh avlod ongiga ana shu maqsadlarimizni singdirib borsak, ularga yangi zamonaviy bilimlar berib, milliy g‘oyamiz ruhida tarbiyalasak, ertaga mehnatimizning samarasini albatta ko‘ramiz. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bu yo‘lda bizga ishonch va ilhom, g‘ayrat va shijoat beradigan beqiyos bir kuch-qudrat borki, biz unga tayanib, o‘z maqsadlarimizga albatta etamiz. Bu – hayot sinovlarida toblangan, so‘zida qat’iy turadigan, ishning ko‘zini biladigan, mehnatkash, mard va matonatli xalqimizdir. Biz bugun ko‘p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo‘lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o‘ylab, el-yurtimizning, xalqimizning yorug‘ kelajagini ko‘zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo‘ymoqdamiz”.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida». Xalq so‘zi gazetasi, 2016-yil 15- sentyabr, № 182 (6617). 1-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 23-b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmoni. Zarafshon gazetasi, 2017-yil 8-iyul № 85 (22885) 2-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi «O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2023 y., 6-son, 70-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Mahalla gazetasi. 2019 yil 29-dekabr 164-165-son (1642). 3-bet.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni. Xalq so‘zi gazetasi, 2019-yil 10-yanvar, № 5 (7235). 4 b.

## YIGITLARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OILADAGI TARBIYANING O‘RNI

**Nurumbekova Yarkinay Anarmatovna**
Guliston davlat pedagogika instituti p.f.f.d (Phd), dotsenti.
**Nishanbayeva Sevara Avazxanovna**
Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti
e-mail: **sevara.axmetova1979@gmail.com**

**Anotatsiya:** Hozirgi davrda jamiyatimizda oilaviy nizolarning soni ortib bormoqda buning, natijasida ajirimlar soni xam keskin kupayib bormokda. Ushbu maqolada yigitlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash muammosi atroflicha bayon qilingan. Oila haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga oid sharq mutafakkirlarining qarashlari va zamonaviy yondashuvlar, shuningdek, oila borasidagi ijtimoiy-psixologik masalalar muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** oila, yigitlar, oila mustahkamligi, qadriyat, oilaga tayyorlash, jammiyat, oila psixologiyasi, tarbiya.

**Abstract:** in the current period, the number of family conflicts in our society is increasing due to this, as a result of which the number of ajirim is sharply decreasing. This article describes in detail the problem of psychological preparation of guys for family life. Views of Eastern thinkers and modern approaches to the formation of ideas about the family, as well as socio-psychological issues about the family, have been discussed.

**Keywords:** Family, Guys, family strength, value, preparation for the Family, Community, Family Psychology, upbringing.

O‘tmishga, bobo-momolarimizning hayotiga nazar tashlasak, oilada o‘g‘il bola tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Bolaligidan oilaning suyanchi, kattasi, opa-singillarining himoyachisi bo‘lishini, qolaversa, Vatanning tayanchi ekanini uqtirib, shu asosda tarbiya berilgan. To‘g‘ri, ayol oilaning chirog‘i, iqboli. Farzandning sog‘lom, barkamol tug‘ilib voyaga yetishi ko‘p jihatdan unga bog‘liq. Shunday bo‘lsa-da, tarbiyada e’tiborni ikki jinsdagi farzandga ham teng qaratish zarur. Hatto, o‘g‘il bolalarga ko‘proq ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Chunki ayolning ayolday yurishini ta’minlaydigan erkaklar ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak. Bugun aksariyat yoshlarimiz bo‘sh qoldi deguncha darrov qo‘l telefoni bilan mashg‘ul bo‘lishi odatiy holga aylanib qoldi. Qandaydir o‘yin o‘ynaydi, qo‘shiq eshitadi, film tomosha qiladi, ijtimoiy tarmoqlardagi turli-tuman ma’lumotlar bilan tanishadi. Buning nimasi yomon, texnika davri, taraqqiyot dersiz? To‘g‘ri, buning yomon tomoni yo‘q. Tan olishimiz kerak, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ayniqsa, internet taraqqiyot darajamizni bir necha pog‘onaga ko‘tardi, uzog‘imizni yaqin, ishimizni yengil qildi.

Oilaviy munosabatlar nihoyatda murakkab va bir-biriga bog‘liq bo‘lib, qadim zamonlardan bashariyat ahlining diqqat markazida bo‘lgan. Bugungi kunda yigitlarni psixolgik jihatdan oilaviy hayotga tayyorlash va faoliyatning samarali tashkil etilishi bir qancha ijtimoiy muammolarning ijobiy hal etilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi: -Jamiyatimizning ijtimoiy ma’naviy jihatdan rivojlanishini ta’minlaydi; - jamiyatimizning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining yuqori bosqichga ko‘tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi; -mustahkam oilalarni shakllantirish, ularda sog‘lom psixologik muhitni qaror toptirish, oila tarbiyasini samarali tashkil etish, farzandlar tarbiyasida muayyan muvaffaqqiyatlarga erishish, oilaviy mojaro, ajrimlarning oldini olish uchun zamin hozirlaydi. Sharqda yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Jumladan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Rizouddin Ibn Faxriddin kabi allomalar bu masala yo‘zasidan o‘zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgacha o‘z ahamiyatini

yuqotmagan. Ular «Nasixatnoma», «Pandnoma», «Hikmatnoma» tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbaalarda qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi, oila muqaddas, uni avaylab asrash aynan uy bekalariga bog‘liq ekanligi haqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan xodisalar hikoya qilinadi.

«Kaykovus Unsurulmaoni – 63 yoshida o‘g‘liga atab «Qobusnoma» yozib, unda o‘zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi. Mamlaktimizning yetakchi psixolog olimlaridan biri Vasila Karimova “Oila ma’rifati” ushbu risola muallifining “Oila ma’rifati” ruknida chop etilayotgan risolalarining dastlabkisi bo‘lib, bu bevosita oilaviy hayot bo‘sag‘asida turgan yoshlar hamda endigina nikoh qurib, yaxshi niyatlar bilan turmush qurgan kuyov va kelinchaklarga mo‘ljallangan. Unda asosiy e’tibor oila ilmining mazmun mohiyati, oila 6 ma’rifatini tashkil etuvchi omillar va baxtli hayot kechirishni aslida hammaga ma’lum bo‘lgan, lekin amalda har doim ham egallash oson bo‘lmagan jihatlarga qaratilgan. Muallif “Oila ma’rifati”ga erishish, ya’ni kelin-kuyovlar, yoshlar hamda ularning ota-onalar savodxonligini oshirish orqali, oilaviy muhitda ma’naviy qadriyatlarni barqarorlashtirishga erishishni ko‘zda tutgan. A.Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir”, degan fikri o‘zbekning kun tartibidan tushmasligi lozim. Chunki avvalgiga o‘xshab qariyalar keksalar yoshlarni odob axloqqa chaqirib yoshlar esa ularni hurmatlab, ularning o‘gitiga amal qilish udumi yo‘qolib bormoqda. Har kim o‘zi bilan ovora birovning gapi birovga yoqmaydi. Yosh yigitlarda umr yo‘ldosh tanlashda sevgi tushunchasi faqat 4 o‘rinda, ya’ni xurmat qilish, ishonch, bir-birini tushunish kabi xislatlardan keyin turadi. Yoshlar oilani jiddiy qabul qilmaydilar. Natijada juda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yadilar, keyinchalik oilaning muhimligini psixologik tan oladilar. Bizning asosiy vazifamiz shuki, yigitlarda oilaning qadrini, sevgi, nikoh oiladagi sevgini ro‘li muhimligini va u uzoq va baxtli hayot garovi ekanligini uqtirishdir. Oilaviy hayot o‘z o‘rnini shaxsiy manfaatlarga, martaba, o‘z-o‘zini rivojlantirish, sayohatlarga borishga bo‘shatib berdi. Bugungi kun voqeligi odamlarning na siyosiy, na ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda hech qanday inqirozli vaziyatlarda ham yo‘q bo‘lib ketmaydigan shunday mustahkam, muhim qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojini sezmoqda. Insonga bunday qimmatbaho manbani berish faqat shaxsiy sohaning ustunlari bo‘lishi mumkin: sevgi, do‘stlik tuyg‘usi va, albatta, oila bu borada ustuvor o‘rinni egallaydi.

Oila va oilaviy munosabatlarni yaratish, rivojlantirish va saqlashga tayyorlik shaxsiy rivojlanish potentsialida namoyon bo‘ladi va eng muhimi, bu kattalarning shaxsiy kamolotidir. Bu shaxsiy kamolotga erishish mumkin va bu aniq, oilaviy hayotda, chunki shaxsning etukligi namoyon bo‘ladigan faoliyatdir. Agar insonning oilasi farovon bo‘lsa, jamiyat nuqtai nazaridan u ishonch va hurmat pozitsiyasidan qabul qilinadi. Jamiyat va davlat hayoti uchun zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlar nuqtai nazaridan Vygotskiyning so‘zlariga ko‘ra, nikohga tayyorgarlik muammosining ahloqiy tomoni oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlik kontekstida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi kerak, uni amalga oshirish natijasi yigitlarning his-tuyg‘ularini va his-tuyg‘ularini boshqarishga yordam beradigan ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning tashqi ifodasi orqali o‘z-o‘zini tartibga solish usullarini egallash kerak. Yigitlarda mehr-muhabbat tuyg‘usini to‘g‘ri anglash va bu tuyg‘ularga integratsiyalashgan mas'uliyat hissini shakllantirish lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda yosh yigitlarga, ularning ilm olish va kasb-xunar egasi bo‘lishiga katta e’tibor berilmoqda. Lekin bularning o‘zi yosh yigitlarning kelgusi hayotlarining farovon bo‘lishligi uchun yetarli darajada emas, balki ularga oilaviy hayot saboqlaridan psixologik bilim va tushunchalardan keng va yetarlicha ma’lumot berish davr talabiga aylanib bormoqda. Yoshlarimizni ona vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida, yuksak ma’naviyatli va salohiyatli qilib tarbiyalash har birimizning ishimiz. Ayniqsa, internet tarmoqlarida tarqatilayotgan diniy aqidaparastlik, terrorizm g‘oyalarini yoyish, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlarini yoshlar ongiga singdirish, ularning turmush tarziga aylantirishga bo‘layotgan urinishlarga, yoshlarimizning ana shu illatlar ta’siriga tushib qolmasliklari, yuqoridagi kabi aldovlarga ko‘r-ko‘rona ergashmasliklari uchun eng avvalo, ularning bilim va tafakkurini boyitish, internet ma’lumotlaridan o‘rinli va oqilona foydalana bilish ko‘nikmasini shakllantirishimiz zarur.

Chunki sog‘lom psixologik muhit qaror topgan oiladagina barkamol va yurt koriga yaraydigan kelajak avlodni voyaga yetkazish mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bu masalaga e’tibor qaratishimiz davr talabiga aylanib o‘z dolzarbligini amaliy hayot tajribasida nmayon etmoqda. 2021 yil statistik ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak 11 oyda 30000 ming oilani ajrashishi bu millat taqdir va davlat kelajagiga katta hafv ekanligini xar bir sog‘lom fikr egasi anglab turibdi. Ajaralgan har bir oilaning 2 nafar farzandi bor deb oladigan bo‘lsak 60000 ming nafar bolalar noto‘liq oilada voyaga yetadi. Bu holat bolaning psixikasiga juda yomon ta’sir qilishi tabiiy hol. Biz bugungi kunda maktab va jamiyat hayotida tarbiyasi og‘ir bolalarni sonini keskin kam paytirish borasida sa’y harakatlarni olib borishimiz samarasiz bo‘lib qolishiga olib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Akhmedov B. Uzbek nation. T., Public Heritage Publishing House named after Abdullah Qadiri, 1992, p. 121.
2. Eshnaev N.J., Maratov T.G‘., Mirzaraximova G. (2020). O‘zbek milliy kino san’ati va madaniyatida psixoprofilaktik xizmat tizimini joriy etish masalalari. Oriental Art and Culture 03. 156-165. 9
3. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
4. Подготовка учащихся к семейной жизни и сопутствующему образованию: методика обучения. мат-ли / авт.-сост. А.А. Фомарова [ИА]. - Фогилев: «ime. Кулешова А.А. ", 2012. - 52 с.
5. Karimova O. “Oila huquqi asoslari” -t.: 2003.
6. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). 16-22.
7. Ремерикова Н.Н. Равенство в семейной жизни: структура и содержание. Мемерикова // Документы и выходы. - 2009. - № 9. - С 61–67.

## ONA TILI TA’LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM VOSITALARINING AHAMIYATI

**O.B.Qurbonova**
Nizomiy nomidagi TDPU
“Umumiy tilshunoslik” kafedrasi dotsenti (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili ta’lim mazmunining lingvodidaktik jihatdan nazariy asoslanishi, bu fanni turli o‘quv predmetlarini o‘zaro integratsiyalab o‘qitish, talabalarning og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish, o‘z fikrini mustaqil ifoda qilish, nutqiy ko‘nikmalarni egallash bo‘yicha tilshunos va metodist olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim mazmuni, o‘quv dasturi, darslik, nutq ko‘rinishlari, og‘zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko‘nikma, nutqiy kompetensiya, mashq, o‘quv topshirig‘i, matn ustida ishlash.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical basis of the educational content of the native language linguodidactically, the scientific views of linguists and Methodist scientists on the mutual integration of various educational subjects, the cultivation of oral and written speech by students, independent expression of their opinion, acquisition of speech skills.

**Keywords:** educational content, curriculum, textbook, speech manifestations, oral and written literacy, speech skills, speech competence, exercise, study assignment, work on the text.

Bugungi kunda ta’lim jarayoni subyektlarining zamonaviy yondashuvlarini, mustaqil mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish va ularning kognitiv- pragmatik kompetensiyalarini

takomillashtirish, talabalarni ona tili ta’limi mazmuni bo‘yicha o‘quv-metodik, nutqiy-pedagogik faoliyatga yo‘naltirish, ta’limiy vositalardan unumli foydalanishni o‘rgatish, ularning nazariy, diagnostik, pragmatik bilimlarini takomillashtirish orqali ijodkorlik, kreativ mantiqiy fikrlash malakalarining, informativ yondashuvlarni o‘stirish ta’sir ko‘rsatadi. Buning uchun ta’lim mazmunini interaktiv, innovatsion metodlarni qo‘llashning ilmiy metodologik asoslarini takomillashtirish ahamiyatli. O‘quv jarayonida ta’lim subyektlarining lingvistik va nutqiy, og‘zaki va yozma nutq ifodasining, grammatik bilimlarining o‘zbek tilida yuqori darajada rivojlantirishga e‘tibor qaratish lozim. Shu xususda metodist olimlar B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalar tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida bo‘lg‘usi mutaxassislarni maktab ta’limiga tayyorlashda grammatik mavzularga bog‘liq holda o‘quvchilar nutqini o‘stirish, lug‘atini boyitish metodikasiga alohida e’tibor qarstilgan. Mazkur maqola mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim bosqichlarida o‘quvchi va talabalarning kognitiv- pragmatik, nutqiy- kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadga muvofiq.

1. Образовательная среда: ориентация на личностно-ориентированное обучение: Фокус смещается от передачи готовых знаний к развитию самостоятельного мышления, критичности и креативности студентов. Преподаватель выступает как фасилитатор, а не просто источник информации. Проектная деятельность: Выполнение проектов, требующих нестандартных решений и интеграции знаний из разных областей, стимулирует творческий поиск. Проблемное обучение: Постановка перед студентами проблемных ситуаций, требующих нетривиальных решений, развивает аналитические и креативные способности. Использование активных методов обучения: Дискуссии, мозговые штурмы, ролевые игры, кейс-стади – все это способствует обмену идеями и развитию коллективной креативности. Доступ к современным технологиям: Использование цифровых инструментов, программного обеспечения для дизайна, моделирования и других творческих задач расширяет возможности студентов. Креативные пространства: Наличие специально оборудованных зон для творческой работы, где студенты могут свободно общаться, экспериментировать и реализовывать свои идеи.

2. Роль преподавателя: стимулирование инициативы и самостоятельности: Преподаватель должен создавать атмосферу доверия и открытости, поощрять эксперименты и не бояться ошибок. Развитие критического мышления: Преподаватель должен учить студентов анализировать информацию, формулировать собственное мнение и аргументировать его. Обратная связь: Регулярная и конструктивная обратная связь помогает студентам понимать свои сильные и слабые стороны, корректировать свои работы

и развиваться. Моделирование творческого поведения: Преподаватель должен сам демонстрировать творческий подход к своей работе и быть примером для студентов. Индивидуальный подход: Учитывание индивидуальных особенностей и способностей каждого студента, помощь в поиске и реализации потенциала.

3. Оценка и мотивация: Нестандартные методы оценки: Оценка творческих работ не должна ограничиваться только традиционными формами. Необходимо учитывать оригинальность, креативность и глубину мышления. Поощрение креативности: Студенты должны быть мотивированы к проявлению творческих способностей, получать положительное подкрепление за свои успехи. Создание конкурентной среды: Участие в конкурсах, конференциях и выставках стимулирует творческую активность студентов.

4. Внеучебная деятельность: творческие кружки и секции: Возможность развития творческих способностей за пределами учебного процесса. Взаимодействие с профессиональным сообществом: Знакомство с практикой работы, общение с профессионалами.

В заключение: развитие творческих способностей студентов — это длительный и многогранный процесс, требующий комплексного подхода и совместных усилий преподавателей, студентов и образовательных учреждений. Современные педагогические условия должны быть ориентированы на стимулирование индивидуальности, самостоятельности и креативности каждого студента.

Творческие способности являются неотъемлемой частью профессионального развития учителя начальных классов. Они позволяют педагогу создавать увлекательные уроки, находить нестандартные решения учебных задач, вдохновлять и мотивировать детей.

Основные направления работы по развитию творческих способностей будущих учителей:

Формирование креативного мышления: развитие гибкости и оригинальности мышления: использование мозговых штурмов, ролевых игр, творческих заданий на поиск нестандартных решений. Стимулирование фантазии и воображения: создание сказок, стихов, проведение игр на развитие воображения. Поощрение нестандартных идей и альтернативных подходов: создание проектов, презентаций, использование различных методов обучения.

Развитие творческого потенциала в педагогической деятельности: Применение инновационных технологий: использование интерактивных досок, мультимедийных презентаций, онлайн-ресурсов, программ для создания видеоуроков. Создание проектной деятельности: разработка и реализация проектов в различных предметных областях. Использование методов активного обучения: ролевые игры, дискуссии, дебаты, творческие конкурсы. Внедрение игровых технологий: использование игр для развития когнитивных и социально-эмоциональных навыков.

Создание творческой атмосферы на занятиях: стимулирование инициативы и самостоятельности: предоставление студентам возможности самостоятельно выбирать темы для исследований, проектов и презентаций. Создание благоприятного психологического климата: поощрение критического мышления, открытости новым идеям, взаимоуважения. Повышение мотивации и интереса к профессии: демонстрация примеров успешных творческих педагогов, посещение мастер-классов, участие в конкурсах и фестивалях.

Развитие творческих способностей в личном развитии: посещение выставок, театров, концертов: вдохновение творческими достижениями других людей. Занятия творческими хобби: рисование, музыка, танцы, литература, рукоделие - это способ развития фантазии и креативности. Чтение художественной литературы: погружение в мир фантазии и творческих идей. Самообразование и постоянное поиск новых знаний: творчество основывается на знаниях и опыте.

Важно помнить, что развитие творческих способностей - это длительный процесс, который требует последовательных усилий и системного подхода. Важно также помнить о

том, что у каждого человека есть свой собственный творческий потенциал, который нужно раскрывать и развивать.

**Литературы:**

1. Зязюн И.А. Педагогическое мастерство: учебник / І.А. Зязюн, Л. В.Крамущенко, И.Ф. Кривонос и др.; По Ред. И.А. Зязюна. - 2-е вид., дополнить. и перераб. – К.: Высшая шк., 2004. – 422 с.

2. Зязюн И.А. Философия педагогического действия: монография / І.А. Зязюн. - Черкассы: Вид.-во от ЧНУ имени Б. Хмельницкого, 2008. - 608 С.

3. Сысоева С. О. Основы педагогического творчества: учебник. / С. О. Сысоева. – К.: Миллениум, 2006. – 346 с.

## OILADA BOLALAR BILAN MULOQOTNI YO‘LGA QO‘YISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

**Xidirova Malohat Qazaqovna**
Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika” kafedrasi dotsent v.b., (PhD)
xidirovamalohat848@gmail.com,
**Tolliboyeva Hilola Bahodir qizi**
Pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Oilada bolalar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish, ularning tarbiyasida va psixologik rivojlanishida katta ahamiyatga ega.To‘g‘ri muloqot usullarini qo‘llash orqali bolalarda ishonch, hurmat va muhabbat hissini shakllantirish mumkin. Maqolada oilada bolalar bilan samarali muloqot qilishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari haqida tushunchalar berib boriladi.

**Kalit so‘zlar.** Muloqot, pedagogik, psixologik shart-sharoitlar, tushuncha, oila, farzand, ota-ona, psixolog, o‘qituvchi, ijtimoiy, ijtimoiylashuv ,jamiyat, muhit, tarbiya, jarayon, bosqich, tur, xususiyat, fikr, o‘quvchi, keksa avlod, yaqin insonlar, do‘stlar, guruh va jamoa.

**Abstract.** Establishing communication with children in the family is of great importance for their upbringing and psychological development. By applying proper communication methods, trust, respect, and love can be fostered in children. This thesis provides an understanding of the pedagogical and psychological conditions necessary for effective communication with children in the family.

**Keywords.** Communication, pedagogical, psychological conditions, concept, family, child, parents, psychologist, teacher, social, socialization, society, environment, education, process, stage, type, feature, opinion, student, older generation, close people , friends, group and team.

**Kirish.** Hozirgi kunda oilada bolalar bilan muloqot olib borish anchayin murakkablashib bormoqda. Oilada bolalar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yishning pedagogik shart-sharoitlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, birinchi ochiq va halol muloqot lozimdir. Bolalar bilan muloqotda ochiq va halol bo‘lish kerak. Ular bilan gaplashganda uning his tuyg‘ulariga etibor berish, muammolarini tinglash va muhokama qilish muhimdir. Bu usul bolalarda ishonch hissini oshiradi, hamda ularning kelajagi uchun ham foydalidir. Bundan tashqari ota-onalar bolalari uchun ham namunali bo‘lishi kerak. Uning xatti harakatilari,so‘zlari bolalarga ta’sir qiladi. Agar ota-onalar o‘zlari yaxshi namuna ko‘rsatsa farzand ham ularga ergashadi. Xalqimiz aytganidek, „Qush – uyasida ko‘rganini qiladi”. Bu maqol ham bejiz emas, bolalar eng avvalo uyida ko‘rgan narsasini takrorlaydi. Shuning uchun ham ota-onalari farzandiga namuna bo‘lishi kerak. Agarda ota-onada doimiy janjallashsa, bir-biriga nisbatan o‘zaro hurmat bo‘lmasa,farzandiga alohida vaqt ajratmasa, o‘z ayblarini o‘zi anglab yetmasa,farzand ham oila tushunchasiga ana shunday ko‘z bilan qaray boshlaydi, ya’ni mehrni ota-onasidan emas ko‘chadan mehr izlay boshlaydi.Bolaning dilida qanday vaziyat o‘tayotganini o‘zi anglay olmagan holda jamiyatdan uzila boshlaydi. Unda odamovilik, tortinchoqlik, qo‘rqoqlik hissilari ustun kela boshlaydi.Ya’ni unga hamma narsa

begonadek tuyuladi. O‘zini anglamagan holda ulg‘ayadi Shuning uchun Ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi muloqot juda muhim. Bu muloqot o‘zaro tushunish, ishonch, va yaqinlikni rivojlantiradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Inson boshqa mavjudodlardan o‘z ongi, muloqotga kirishishi,va aqliy fikrlay olishi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham inson ongli mavjudotlar sirasiga kiradi. Oila qurish jarayonida ikki qarama- qarshi jins vakillari bir birlari bilan muloqotda bo‘ladilar, bir birlarini o‘rganib oila ostonasiga qadam qo‘yishadi. Oilaning mustahkamligini bog‘lab turuvchi rishta bu farzanddir. Ana endi ota-onaning asosiy etibori bog‘lab turuvchi rishta farzandga qaratiladi.Tarbiya berish va ota-onaning tarbiyalanish bosqichi ham ana o‘shanda yana bir sayqallanadi.Ya’ni ota-ona tarbiya berish jarayonidagi farzand bilan muloqotga kirishish jarayonidir.

Muloqot jarayoni shunday yo‘lga qo‘yilsinki, farzand hech bir kamchilik ko‘rmay ulg‘aysin. Lekin ota-onalar ko‘pincha mana shu jarayonda ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Mashhur turk yozuvchisi Adem Guneshning ,,Farzand tarbiyalash siri” kitobida shunday so‘zlarni keltirib o‘tadi. ,,Farzand tarbiyalash jarayonida ota-onada ikki xil muloqot jarayoni bo‘lishi kerak. Ya’ni birinchisi ichki muloqot, ikkinchisi tashqi muloqot “. Bu so‘zlarga nazar tashlasak, ota-ona farzandi bilan muloqotga kirishish jarayonida gapiradigan gapini oldin tahlil qilib, keyin yuzaga chiqarish kerak. Ularga doimiy vaqt ajratish kerak. Muloqot jarayonida turli xil varvar va vulgarizim so‘zlardan foydalanmaslik kerak. Ota ona daraxt misoli bo‘lsa farzand unib kelayotgan niholdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Milliy tiklanishdan, milliy yuksalish sari” kitobida oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish, ota-onalarning bolalariga nisbatan mas’uliyatini oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zarurligini qayd etadi. Oilada ona qiz bola bilan yaqin sirdosh bo‘lsa,ota o‘g‘il bilan do‘st bo‘ladi. Bola o‘z xatti-harakatlariga javob bera olgach, shaxs deb qaraladi. Bu davrda ular muloqot jarayonining eng qiziq davri bo‘ladi. Bu davrda ota-ona farzandga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Bolada u nima, buni nima qilishda foydalanadi degan savollar bera boshlaydi, atrofdagilarga nisbatan qiziqishi ortadi, bu davr bolaning atrof bilan tanishish jarayoni sanaladi. Bolaning nutqi jarayonida to‘g‘ri talaffuz qilish muhimdir. Bolaning krizis davri aynan 3 yosh, o‘smirlik, o‘spirinlik va keksalik davr hisoblanadi. Bu davr haqida Ergash G‘oziyevning ,,Umumiy psixologiya” kitobida ham alohida keltirib o‘tilgan. Bolalarning muloqot jarayonida turli qiyinchiliklar yuzaga kelmasligi uchun,ota onalar farzandlari bilan doimo muloqotda bo‘lishi va farzandi qaysi bosqichni boshidan o‘tkazayotganligidan xabardor bo‘lishi kerak. Ota-onalar farzandlari bilan muloqot jarayonini yo‘lga qo‘yishda quyidagilar tafsiya etiladi:

- Ochiqlik va ishonch: Farzandlar ota-onalari bilan ochiq muloqot qilishni his qilishlari uchun, ota-onalar ishonchli va samimiy bo‘lishi lozim. Farzandlar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta olishlarini his qilishlari muhimdir.

- Ijobiy munosabat: Ota-onalar farzandlariga ijobiy munosabatda bo‘lishlari, ularga ko‘maklashishi va rag‘batlantirishi zarur. Bu farzandlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

- Eshitish va tushunish: Ota-onalar farzandlarining fikrlarini, his-tuyg‘ularini va muammolarini diqqat bilan eshitishlari kerak. Ularning fikrlariga ahamiyat berish, ularni tushunishga harakat qilish zarur.

- O‘rnak ko‘rsatish: Ota-onalar muloqotda qanday qilib o‘zaro munosabatlarni qurishlarini ko‘rsatib berishi kerak. Bu ularning farzandlariga yaxshi namuna bo‘ladi.

Ota-ona farzandlari uchun ibrat bo‘lsa, ular ham kelajakda ota -onalariday bo‘lib ulg‘ayishadi va farzand tarbiyalash jarayonida hech qanday qiyinchiliklarga duch kelishmaydi.

**Muhokama.** Farzand ota-onalar uchun bamisoli farishtaga tengdirlar.Shu sababli ham ba’zi bir ota-onalar farzandlarini o‘zaro nigohi orqali anglab olaman deb o‘ylaydilar, ularni moddiy tomonlama hech kimdan kam qilmaydilar. Farzandiga vaqtlarini ajratmaydi, ularni oldiga borsa, qo‘polroq qilib aytganda “Pul bilan og‘zini yopishadi”, farzandni hech kim kam-ko‘stsiz, bizdek tarbiya qila olishmaydi deb o‘ylashadi. Farzandi bilan muloqot qilmaydi,undan o‘zini olib qochadi yoki ishlatib juda ko‘p deb bahona topishadi.Bu esa farzandga va ota-onaga minus sanaladi. Yani farzandda qay holat kechayotganini bilmaydi. Yana farzandim menga quloq solmaydi deb

nolishadi. Aslida esa eng katta xatoni o‘zlari qilishganini anglab yetishmaydi. Farzand muloqotga kirishish, ijtimoiylashuv jarayonida, do‘st orttirish jarayonida juda qiynaladi, ularda kechayotgan vaziyatni tushunmaslik salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Bu vaqtda ota-ona va psixolog farzand bilan ishlashi tafsiya etiladi.

**Natija.** Ota onalar va bolalar o‘rtasida ishonchli muvozanatni saqlash kerak. Muloqotni rivojlantirish uchun qiziqarli faoliyatlarni birgalikda o‘tkazish (o‘yinlar, sport, sayohatlar) ham juda foydali. Ota-onalar farzandlariga emotsional intellektni rivojlantirishga yordam berishi lozim, bu esa ularni o‘z his-tuyg‘ularini yaxshiroq anglashga imkon beradi. Sabr-toqat: Har bir muloqot jarayonida sabrli bo‘lish juda muhimdir. Ba’zan bolalar his-tuyg‘ularini ifoda etishda vaqt olishi mumkin. Ota-onalar farzandlariga ishonch bildirishlari kerak. Bu farzandlarning o‘zlarini qulay his qilishlariga va mustaqil bo‘lishlariga yordam beradi. Ochiq va samimiy muloqot ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Farzandlar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta olishlari kerak. Farzandning muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarida ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi zarurdir. Bu ularga kuch beradi va yangiliklarga ochiq bo‘lishlariga yordam beradi. Farzandlarining muloqotga kirishishi, ya’ni ularning boshqa odamlar bilan aloqalar o‘rnatishi va muloqot qilish qobiliyati, hayotda muhim rol o‘ynaydi.

**Xulosa.** Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ota-onalar farzandlariga muloqot qilishda yordam berishlari kerak. Ularni tinglash, fikrlarini qadrlash va suhbati davomida qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir. Farzandlarni muloqotga kirishishga tayyorlashda izchil yondoshuv zarur bo‘ladi: ularga tinglashni, fikr bildirishni va boshqalarga hurmat ko‘rsatishni o‘rgatish lozim. Oilada bolalar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yishning pedagogik va psixologik shartsharoitlari to‘g‘ri amalga oshirilsa, bolalarning rivojlanishi va tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalar bolalar bilan ochiq va halol muloqot qilishlari, ularni tinglashlari, rag‘batlantirishlari va ularga ishonch bildirishlari kerak.Shundagina farzand yaxshi psixologik tarbiya topadi. O‘ziga bo‘lgan ishonchi yanada ortadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Abdullayev Sh. Oila va bolalar tarbiyasida muloqotning ahamiyati. Toshkent: O‘zbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi nashriyoti. 2010.
2. Karimova D. Muloqot psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti nashriyoti. 2018
3. Muxammadiyev F. Oilada bolalar bilan muloqot qilishning pedagogik usullari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. 2017
4. Raximov K. Oila psixologiyasi Toshkent: Ma’rifat nashriyoti.2011
5. Xodjayeva N. Oilada bolalar bilan muloqot qilishning psixologiyasi. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.2016

## ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К СТРЕССОВЫМ СИТУАЦИЯМ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Бахытжан А.Б.**
Казахский национальный университет им.аль-Фараби
Докторант кафедры «Педагогика и образовательный менеджмент»
e-mail: arailym98.1998@gmail.com
Тел: +77001881098
**Нургалиева Д.А.**
Казахский национальный университет им.аль-Фараби
Ст.преподаватель, к.п.н кафедры «Педагогика и образовательный менеджмент»
e-mail: nur.dolores@mail.ru
Тел: +77027675044

**Аннотация.** Современное образование, с переходом к цифровизации и внедрением инновационных технологий, ставит перед педагогами новые вызовы. В статье

рассматриваются основные причины стресса у педагогов, возникающего в условиях быстрого освоения новых технологий и дистанционного обучения. Особое внимание уделено подготовке будущих педагогов к стрессовым ситуациям, включая развитие стрессоустойчивости и эмоциональной регуляции. Приводятся рекомендации по использованию различных методов психологической подготовки и международного опыта для успешной адаптации в образовательной среде. Подчеркивается необходимость формирования у педагогов навыков управления стрессом для эффективной работы в условиях цифровых трансформаций.
**Ключевые слова:** стрессоустойчивость, психологическая подготовка, цифровизация образования, инновационные технологии, стресс в образовании, педагогическая деятельность.

Образовательная сфера подвергается значительным трансформациям в связи с внедрением цифровых технологий и новых методов обучения. Это ставит перед педагогами задачу быстро реагировать на изменения и осваивать инновационные подходы в своей работе. Р. С. Немов в своём учебнике отмечает, что стресс является одним из самых распространённых аффектов в современном мире. Это состояние длительного психологического напряжения, вызванного эмоциональной перегрузкой нервной системы[1]. Этот аспект важен для подготовки будущих педагогов, поскольку стресс часто встречается в их профессиональной деятельности. Осознание его природы поможет им лучше справляться с эмоциональными нагрузками и поддерживать свою психологическую устойчивость.Процесс адаптации может вызывать стресс, который негативно сказывается как на профессиональной деятельности, так и на личном состоянии преподавателей. В условиях цифровизации особенно важно развивать у будущих педагогов умения справляться со стрессом и повышать свою стрессоустойчивость для эффективной работы.

А. Г. Маклакова в своей работе акцентирует внимание на процессе, который сопровождает развитие стресса. Автор отмечает, что основная суть стрессовой реакции заключается в «подготовительном» возбуждении организма, активирующем его для возможных физических усилий. Таким образом, можно утверждать, что стресс всегда предшествует значительной трате энергетических ресурсов, что, в свою очередь, может привести к истощению физиологических резервов организма [2]. Это утверждение важно для психологической подготовки будущих педагогов, поскольку стрессовые ситуации в их профессиональной деятельности неизбежны. Знание механизмов стресса и осознание его последствий помогут будущим педагогам научиться управлять своими эмоциональными и физиологическими реакциями, чтобы не только эффективно справляться с трудностями, но и поддерживать своё психофизиологическое состояние на должном уровне. Обучение этим аспектам в рамках психологической подготовки позволит педагогам развить навыки стрессоустойчивости и научиться предотвращать выгорание, что необходимо для долгосрочной и успешной профессиональной деятельности.

Стресс у педагогов может быть вызван рядом факторов, как внешними, так и внутренними. Одним из значимых источников стресса является необходимость непрерывного совершенствования и освоения новых технологий, что связано с цифровизацией образовательного процесса. Современные педагоги сталкиваются с ситуациями, когда требуется быстро обучаться новейшим цифровым платформам, методикам и инструментам. Переход на дистанционное обучение, повышение требований к качеству учебного контента и необходимость работать в условиях высокой цифровой нагрузки также могут вызывать стресс.

Другими важными причинами стресса являются высокие требования со стороны учебных заведений, отсутствие времени на собственное развитие и отдых, а также перегрузка работой. В условиях цифровизации преподаватели могут сталкиваться с недостаточной подготовленностью к нововведениям и технологическому обеспечению. Неопытность или низкая квалификация в работе с цифровыми инструментами часто

становятся источником беспокойства и фрустрации, что усугубляет стрессовые реакции. Также важно отметить, что в условиях онлайн-обучения педагоги теряют физический контакт с учениками, что снижает возможности для полноценной коммуникации и понимания потребностей обучающихся.

Цифровизация образования является не только основным трендом, но и значительным источником стресса для многих педагогов. Педагоги сталкиваются с необходимостью адаптировать традиционные методики обучения к новым условиям, используя онлайн-платформы и цифровые инструменты. Особенно это актуально для тех, кто не имел опыта работы с такими технологиями. В условиях быстрого перехода на онлайн-обучение стресс увеличивается из-за перегрузки информацией и недостаточной подготовки к работе с платформами, что может повлиять на качество преподавания и вызвать чувство профессиональной некомпетентности.

Кроме того, избыточная нагрузка на педагога в условиях цифровизации может проявляться в виде многозадачности. Например, необходимость одновременно следить за выполнением заданий студентами в онлайн-режиме, отвечать на электронные письма, работать с большими объемами информации и учитывать различные цифровые требования увеличивает вероятность возникновения стресса.

Перед разработкой методов профилактики важно провести психодиагностику для оценки уровня стресса и эмоционального выгорания у будущих педагогов до и после вмешательства. Выбор психодиагностических методик определяется спецификой профессиональной деятельности. Для оценки профессионального стресса и стрессоустойчивости у специалистов экстремальных профессий часто применяются такие инструменты, как многоуровневый опросник «Адаптивность» (А. Г. Маклаков, С. В. Чермянин), методика диагностики эмоционального выгорания (В. В. Бойко), шкала организационного стресса Мак-Лина, тесты Ч. Спилбергера (модификация Ю. А. Ханина), копинг-тесты Р. Лазаруса и С. Фолькмана, тест Я. Стреляу (адаптация Н. Н. Даниловой и А. Г. Шмелева), опросник SACS С. Хобфолла, тест Дембо – Рубинштейн (модификация А. М. Прихожана), скрининговый опросник AUDIT и проективные методики [3].

Для будущих педагогов выбор диагностических инструментов также зависит от необходимости оценки их стрессоустойчивости, эмоционального выгорания и адаптивных стратегий в условиях образовательной среды. Например, можно применить методику диагностики эмоционального выгорания В. В. Бойко, так как она позволяет выявить степень истощения эмоциональных и психических ресурсов, что особенно важно в условиях учебной деятельности, где педагогам часто приходится сталкиваться с высоким уровнем стресса. Эта методика, наряду с другими инструментами, поможет более точно оценить стрессоустойчивость будущих специалистов и выявить потенциальные риски выгорания, что является ключевым аспектом их профессиональной подготовки и психоэмоционального здоровья.

В ответ на вызовы, создаваемые цифровизацией и внедрением инновационных технологий, можно выделить несколько эффективных способов и подходов для снижения стресса и повышения стрессоустойчивости педагогов:

| **Способ** | **Описание** | **Примеры методов** | **Результат** |
|---|---|---|---|
| Развитие навыков эмоциональной саморегуляции | Умение контролировать свои эмоции и реакции на стрессовые ситуации | Дыхательные упражнения - Медитация и Mindfulness | Снижается уровень стресса и повышается эмоциональное благополучие. |
| Обучение и тренировка стрессоустойчивости | Развитие способности справляться с трудными ситуациями, не теряя работоспособности. | - Когнитивно-поведенческая терапия- Упражнения на адаптацию к стрессу | Быстрее адаптация к нововведениям в образовательной среде. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Использование инновационных технологий для снижения стресса | Применение цифровых инструментов и платформ для организации работы и управления стрессом. | - Виртуальные тренажеры для обучения управлению стрессом- Использование обучающих приложений для педагога | Снижается уровень стресса у педагогов. |
| Развитие коммуникативных навыков | Повышение уверенности в общении с коллегами, студентами и родителями через цифровые каналы. | - Эффективная работа с электронной почтой и мессенджерами- Сетевые тренинги по улучшению общения в онлайн-среде | Минимизация стрессовых ситуации в межличностных контактах. |
| Поддержка коллег и социальных групп | Создание поддерживающей среды в коллективе. | Коллективные обсуждения и встреча с коллегами для обмена опытом- Поддержка со стороны руководства | Поддержка коллег и участие в социальных группах помогают педагогу справляться со стрессом. |

Чтобы эффективно работать в условиях цифровизации и инновационных образовательных технологий, будущие педагоги должны быть подготовлены к стрессовым ситуациям, возникающим в профессиональной среде. Психологическая подготовка, включающая развитие стрессоустойчивости, является важным элементом подготовки студентов педагогических вузов.

1. Развитие стрессоустойчивости. Стрессоустойчивость — это способность эффективно справляться с трудными ситуациями, адаптироваться к изменениям и сохранять продуктивность. Для повышения стрессоустойчивости педагогам необходимо научиться не только справляться с профессиональными нагрузками, но и сохранять психоэмоциональное равновесие. Программы психологической подготовки могут включать тренинги по эмоциональной регуляции и управлению стрессом.

2. Использование технологий для поддержки стресса. Современные технологии могут быть полезными не только как инструменты для преподавания, но и как средства для снижения стресса. Например, использование онлайн-курсов и интерактивных платформ для повышения квалификации педагогов позволяет не только улучшить их профессиональные навыки, но и снижать уровень стресса, так как обучение становится более доступным и гибким.

3. Коммуникационные навыки. В условиях цифровизации и онлайн-образования особенно важно развивать навыки эффективной коммуникации в цифровой среде. Способность грамотно организовывать обратную связь с учениками, создавать комфортную атмосферу общения и поддерживать контакт с родителями и коллегами через электронные каналы связи помогает уменьшить стресс и предотвратить его накопление.

4. Методы эмоциональной саморегуляции. Развитие навыков эмоциональной саморегуляции позволяет педагогам лучше контролировать свои эмоциональные реакции и принимать более взвешенные решения в стрессовых ситуациях. Методы саморегуляции, такие как дыхательные упражнения, медитация и mindfulness, могут помочь педагогам справляться с ситуациями, которые вызывают повышенную тревогу и напряжение.

Психологическая подготовка будущих педагогов к стрессовым ситуациям, вызванным цифровизацией и внедрением инновационных технологий, имеет ключевое значение для успешной профессиональной деятельности. Важно развивать у студентов не только профессиональные знания и навыки, но и способность справляться с изменениями, адаптироваться к новым условиям и сохранять психоэмоциональное здоровье. Учитывая постоянное развитие цифровых технологий и инновационных методов в образовании, необходимо также пересматривать подходы к обучению педагогов и внедрять современные методы и практики психологической поддержки.

**Литература:**

1. Немов Р. С. Психология. Кн. 1. Общие основы психологии. М., 1999, с. 442
2. Марищук В. Л., Евдокимов В. Поведение и саморегуляция человека в условиях стресса. СПб.: Издательский дом «Сентябрь». 2001, с. 81-85.
3. Профессиональный стресс и стрессоустойчивость специалистов экстремального профиля деятельности: учебное пособие / Н. Н. Смирнова, А. Г. Соловьев, М. В. Корехова, И. А. Новикова. – Архангельск: Изд-во Северного государственного медицинского университета, 2017. – 161 с.].

## RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING OLIY TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

**Kurbanova Gullola Baxramovna**
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.
gullolakurbanova077@gmail.com
**Ravshanov Umidjon Abdiqodir o‘g‘li**
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti
rua20041999@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda zamonaviy dunyoda tobora ommalashib borayotgan "raqamli texnalogiya" tushunchasining yurtimizdagi ta’lim muassasalarida, jumladan oliy ta’limda keng joriy etilishi va uning bugungi istiqbollari to‘g‘risida so‘z boradi. Bugungi kunda ushbu tushuncha jamiyatning barcha sohasida dolarb ijtimoiy zaruriyat ekanligi ta’kidlab o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** "raqamli texnologiya", ta’lim muhiti, zamonaviy ta’lim, masofaviy ta’lim, multimedia vositalari.

**Abstract:** This article talks about the widespread introduction of the concept of "digital technology", which is gaining popularity in the modern world, in educational institutions of our country, including higher education, and its current prospects. Today, it is emphasized that this concept is a social necessity in all spheres of society.

**Keywords:** "Digital technology", educational environment, modern education, distance education, multimedia tools.

Raqamli texnologiya tushunchasi bugungi kunda barcha sohada o‘z afzalliklarini ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek, yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolar, xususan yosh bolalardan, keksa avlod vakillarigacha ko‘plab muammolarning yechimi sifatida "raqamli texnologiya" tushunchasini tilga olmoqda. Davlat va jamiyat boshqaruvi hamda ijtimoiy sohada raqamli texnologiyaning keng joriy etilishi esa samaradorlikni oshirishga bir so‘z bilan aytganda, insonlar hayotini keskin yaxshilashga olib kelmoqda. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham bugungi kunda jamiyatimizdagi barcha sohalarga "raqamli texnologiya" dolzarb zaruriyat ekanligi to‘g‘risida shuni ta’kidlab o‘tadiki," Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnalogiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi

bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi"[1,45 b.].

Xo‘sh, bugun butun yer yuzini qamrab olayotgan ushbu “raqamli texnalogiya” tushunchasi asli qanday ma’noni anglatadi va bugun ta’lim muassasalarida qanday o‘ringa ega.

Raqamli texnologiya – kodlashtirilgan (raqamli signallar yordamida uzatiladigan) axborotlarni diskret holda, ya’ni uzlukli – qisqa, muayyan vaqt oralig‘ida olish imkonini beruvchi texnalogiya sanaladi.

Ta’limdagi raqamli texnologiyalar – bu raqamli texnalogiyalarga asoslangan zamonaviy ta’lim muhitini tashkil etish usuli.

Raqamli ta’lim muhiti (DSP) – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini birlashtiruvchi ochiq axborot tizimlari to‘plamidan iborat raqamli makon.

Axbarot olish va foydalanish tezligi juda oshgan hozirgi kundagi ta’lim tizimida raqamli texnalogiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish hamda faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Eski ta’lim dasturlarining an’anaviy usuli o‘z navbatida ta’lim sifatining u qadar yuqori bo‘lishini ta’minlay olmagan. O‘quvchi va talabalarda qoliplashtirish va bir xillik holatini paydo qilgan. Shaxsiy mustaqilligi va kreativligi shakllanmay, o‘qituvchi va talaba nazariy bilimlar bilan cheklanib qolgan. Bugungi kunda raqamli texnalogiyalarning ta’lim muassasalari, jumladan oliy ta’limga kirib kelishi o‘qituvchi va talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘sishiga qulay zamin yaratib bermoqda. Oliy ta'limga raqamli texnologiyalarning kirib kelishining ayni misoli sifatida biz ”Kredit modul” tizimini keltirishimiz mumkin. Aynan mana shu raqamli texnologiya oliy ta'limdagi shaffoflikni ta'minlash, qoğozbozlikni oldini olish hamda vaqtdan unumli foydalanish uchun joriy etilganligi hech kimga sir emas. [2,57-58 b.]

Shuningdek, yangi ta’lim tizimidagi o‘quvchi va talabalarga berilayotgan dars samaradorligini oshirishda mobil qurilmalar, elektron doskalar, kompyuter va planshetlar, simulyatsiya va virtual labaratoriya kabi shu turdagi raqamli texnalogiyalar o‘qituvchining mavzu bayonini tushuntirishi va talabaning berilayotgan mavzuni yanada kengroq tushunishida asosiy vosita bo‘lib hisoblanmoqda. Ushbu vositalar oliy o‘quv yurtlariga kiritilgan yangi ta’lim tizimi, ya’ni 60/40 dasturini yo‘lga qo‘yishda yordam beruvchi qurol hisoblanadi.

Yana shuni qayd etishimiz mumkinki, hozirda yurtimizda kundan- kunga rivojlanib borayotgan virtual o‘quv muhiti va masofaviy ta’limni ta’minlash, dasturlarda qatnashmagan talabalarga qulay imkoniyat yaratib bermoqda. Shu bilan birga, talabalar slaydlar, video-roliklar, online dars va treninglardan foydalangan holda o‘zlarining bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil tarzda oshirib borishlari mumkin.

Ammo, hamma vaqt ham axbarot texnalogiyalaridan ta’lim jarayonida to‘g‘ri va samarali foydalana olinmayabdi. Bu esa ta’lim ta’lim sifatini oshirishda, ko‘zlangan natiga erishishda og‘ishishlarga olib kelmoqda. O‘qitish sifatini saqlab qolgan holda ta’limda raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun nimalar qilish kerak?

**Birinchidan,** albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarining so‘ngi yutuqlarini o‘zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz lozim.

**Ikkinchidan,** o‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va axborot resurslari, o‘qitish vositalari va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari,laboratoriyalar,mediastudiyalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O‘zbekistonning barcha oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash.

**Uchinchidan**, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish.

**To‘rtinchidan,** interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma’ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog‘liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o‘tkazish.

**Beshinchidan**, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari,video- konferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish.

**Oltinchidan,** texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash, raqamli didaktika va raqamli ta’lim modellarini qo‘llash, o‘qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Bu vazifalar yo‘lga qo‘yilar ekan har qanday sohada, xususan ta’limning barcha turlarida yuqori sifat o‘zgarishlariga erishishimiz, jahon axbarot makonida yetuk mutaxasis kadrlarni yetishtirib chiqara olishimiz mumkin. Biz ta’lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnalogiyalardan manfaatli oydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. [3, 54-59 b.]

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, raqamli texnalogiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish, mamlakatimiz ta’limini rivojlangan davlatlar ta’limi qatoriga qo‘sha olishi mumkin. Shunday ekan raqamli texnalogiyalarning ta’lim muassasalariga, jumladan oliy ta’limda qo‘llanishi yetishib kelayotgan mutaxassis kadrlarni uzoq muddatli malaka asosida emas, balki qisqa muddatda bilim, ko‘nikma va malakalaga ega holda jamiyatga yetishtirib chiqarishda asos bo‘lib xizmat qilmoqda desak adashmagan bo‘lamiz. Axborot asri bugun shuni talab qilar ekan, bunday qulayliklar bilan har bir shaxs jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, Vatani va xalqi oldida mardanovor turib, ishonchini oqlashi hamda bugun ta’lim sohasida ham O‘zbek farzandi nimalarga qodir ekanini ko‘rsatib berishi lozim va shartdir!

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.
2. D.Baxraminova. Ta’lim tizimida axborot texnalogiyalarini qo‘llashning ilmiy pedagogik masalalar; 6-tom 3-son/ 2022-yil/15-mart.
3. https://bestpublication.org/index.php/pedg/issue/view/81
4. https;//uza.uz/o/politics/ubekistin-respublikasi-prezidenti-rziyoyevningoliy-25-01-2020.

## MAKTABGACHA TA’LIMDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZARURATI

**Niyozova Gulnoza Baxtiyor qizi,**
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning zamonaviy istiqbollari, ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni hamda pedagogik samaradorligi yoritilgan. Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish orqali mashg‘ulotlarni individuallashtirish, bolalarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va axborot madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maktabgacha ta’lim, raqamli texnologiyalar, elektron ta’lim resurslari, kompyuterli ta’limiy o‘yinlar, interfaol ta’lim.

**Abstract**. The article discusses the modern prospects for the use of information and communication technologies (ICT) in the preschool education system, their role in the educational process and pedagogical effectiveness. The possibilities of individualizing classes, developing children's cognitive activity, independent thinking, creativity and information culture through the introduction of information technologies into the educational process are analyzed.

**Keywords:** Information and communication technologies, preschool education, digital technologies, electronic educational resources, computer educational games, interactive education.

.

Bugungi kunda barcha ta’lim muassasalari, shu jumladan maktabgacha ta’lim tashkilotlari zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu esa, tarbiyachi-pedagoglarning o‘z mehnati faoliyatiga yangicha yondashuvini, mashg‘ulot o‘tish jarayonida bolalarni bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ularni tushunarli va qiziqarli shaklda tashkil etishda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish zaruriyati paydo bo‘ladi.

Birinchidan, an’anaviy o‘qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va og‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko‘rishi tufayli “axborotli o‘qitish” sifatida tavsiflanadi, chunki o‘quvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta’kidlagan holda baholanmoqda.

Ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko‘payib borayotganligi va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta’lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimiz ta’lim kengliklarida ro‘y berayotgan tub burilishlar har bir ta’lim muassasasida didaktika sohasini jonlantirishni talab etai, yangilikni joriy etish yo‘li esa har doim murakkab va uzoqdir. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, yangi axborot texnologiyalari yaqin yillar ichida didaktik yangilikka kirishishning asosiy manbai bo‘lib qoladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, o‘quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida, ta‘lim jarayonining sifati va samaradorligi ortishi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashuvini, fanlararo aloqalarning chuqurlashuvini kuzatish mumkin. Didaktika nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadigan, axborot texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikka erishiladigan metodik maqsadlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- O‘qitish jarayonini individuallashtirish va differentsiyalash;
- Teskari aloqa bilan o‘quv faoliyati nazoratini olib borish;
- O‘z-o‘zini nazorat qilish;
- O‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish;
- O‘quv vaqtini tejash;
- O‘quv axborotlarni kompyuter orqali vizuallashtirish;
- O‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish;
- Kompyuterda laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish;
- Axborot ma’lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish;
- O‘qishga qiziqishni orttirish;
- O‘quvchini o‘quv materialini o‘zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish;
- Fikrlashni rivojlantirish;
- Optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish;
- O‘quvchida axborot madaniyatini shakllantirish.

Maktabgacha ta’im tashkilotlarida ta’lim jarayonida yangi kompyuter va axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalarining joriy etilishi, pedagog-tarbiyachilarning axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga ularning mashg‘ulotni tashkil etish jarayonidagi o‘rni, vazifalari va rolini o‘zgartiradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ta’lim berishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ancha nozik masala hisoblanib, ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lmoqda.

Lekin shunga qaramay maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularni har tomonlama yetuk inson bo‘lib, ya’ni intellektual qobiliyatlarini rivojlanishida kompyuter texnologiyalari vositalaridan foydalanish o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida axborot texnologiyalaridan tarbiyalanuvchilarning badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o‘qish, rasmlarni ko‘rish va ajrata bilish tasavvurlarini kengaytirish, kompyuterli o‘yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda keng foydalanilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi uchun mo‘ljallangan barcha kompyuterli o‘yin dasturlarining hammasi ham ta’lim jarayonida o‘z samarasini beravermaydi. Shuning uchun ham kompyuter o‘yinlarini tanlash va ulardan foydalanish uchun jiddiy yondashuv va e’tibor kerak bo‘ladi. Kompyuterli o‘yin dasturlari shunday yaratilgan bo‘lishi kerakki, unda bajariladigan har bir harakat bolalar tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi hamda qobiliyatlarini rivojlantirishi lozim. O‘yin dasturidagi har bir harakatni bola tushuna olish, uni qanday bajarish kerakligini o‘ylash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari maktabgacha ta’lim tashkilotlariga tarbiyalanuvchilarni axborot texnologiyalari bo‘yicha boshlang‘ich savodxonligini ham oshirish mumkin, ya’ni kompyuterning umumiy tuzilishi, asosiy qurilmalari to‘g‘risida umumiy tushunchalarni, klaviaturadan foydalana olish malakalarini hosil qilish mumkin. Bu bolalarni kompyuter o‘yinlaridan foydalana olish bilim va ko‘nikmalarini shakllanishida asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuterli o‘yin dasturlaridan foydalanish bolalarda bir qancha pedagogik-psixologik funktsiyalarni amalga oshiradi va shakllantiradi:

- Bolalarning fikrlash qobiliyatini oshiradi;
- Bola bir vaqtning o‘zida ham ko‘radi, ham eshitadi;
- Mustaqil harakat qilish imkonini beradi;
- Insonlar bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi;
- O‘z-o‘zini nazorat qilishni shakllantiradi.

Kompyuterli o‘yin dasturlaridan tashqari maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun kompyuterli nashrlar, shu jumladan virtual laboratoriya, ijodiy ishlanmalar, virtual sayohatlar va boshqa elektron axborot resurslari yaratilmoqdaki, ulardan foydalanish bugungi kunda o‘z samarasini ko‘rsatmoqda.

Axborot texnologiyalari vositalaridan maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishda foydalanishning samaradorligi tarbiyachi-pedagoglarning ta’lim jarayoniga shu texnologiyalarni qo‘llashga oid bilim, malaka hamda ko‘nikmalarining darajasi va tajribasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, maktabgacha ta’lim tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan mukammal foydalanish uchun asosiy e’tibor, eng avvalo, zarur bo‘lgan sharoitni yaratish hamda ta’lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy elektron axborot va uslubiy resurslaridan samarali foydalanishga qaratilishi lozim.

## ADABIYOTLAR:

1. Hamdamov R. Begimqulov U, Tayloqov N. Ta’limda axborot texnologiyalari o‘quv qo‘llanma. O‘zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2010, -120 b.
2. Toshtemirov D.E., Niyozov M.B., J.D.Saidov Ta’limda axborot texnologiyalari o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2020. -292 b.
3. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). - Qarshi: Nasaf, 2011. - 257 b.
4. Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim-tarbiya jarayoniga multimediaga asoslangan kompyuter o‘yinlarini qo‘llash // Zamonaviy ta’lim 2022, 3(112), 59-67 b.

# OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSIYALARNI TIJORATLASHTIRISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Mirzayev Djamshid Turdaliyevich**
Guliston davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi, PhD
Email: mirzjamshid.003@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida texnologiyalar transferini yo‘lga qo‘yish, texnologiyalarni tijoratlashtirishning xorijiy modellari va ulardan mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida foydalanish masalalari tadqiq qilingan.

**Tayanch so‘zlar:** *Innovatsiya, innovatsiyalar transferi, innovatsiyalarni tijoratlashtirish, innovatsion model, innovatsion tizim, innovatsion infratuzilma.*

**Abstract:** This article examines the issues of technology transfer in higher education institutions, foreign models of technology commercialization and their use in higher education institutions of our country.

**Keywords:** *Innovations, innovation transfer, innovation commercialization, innovation model, innovation system, innovation infrastructure.*

Innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish borasida turli oliy o‘quv yurtlari tomonidan foydalaniluvchi yondashuvlarning turli-tumanligiga qaramasdan, tijoratlashtirish modellarining ikki tipini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin [1]:

1. ***CHiziqli (jarayonli)*** model vazifa va topshiriqlarning qadamba-qadam bajarilishini ko‘zda tutadi. Ba’zi bir holatda bunday modellar ishlanmalarni muvaffaqiyatli tijoratlashtirish imkoniyatlarini oshirish uchun bir vaqtda bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning bir-birini to‘ldiruvchi sohalarini o‘z ichiga olgan parallel jarayonlarni ishga tushirishni nazarda tutadi.

**Annotatsiya:**Maqolada talabalarda simmetriya tamoyillariga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli va innovatsion texnologiyalarning o‘rni tahlil etilgan. Raqamli va innovatsion texnologiyalar simmetriya tamoyillarini o‘rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ular o‘quvchilarga bu tamoyillarni interaktiv va intuitiv tarzda o‘rganish imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli va innovatsion texnologiyalar, interaktiv, intuitiv, simmetriya, GeoGebra, Desmos, Google Classroom, Moodle

**Abstract:** The article analyzes the role of digital and innovative technologies in the development of students' competencies related to the principles of symmetry. Digital and innovative technologies open up new opportunities for studying the principles of symmetry. They allow students to learn these principles in an interactive and intuitive way.

**Key words:** digital and innovative technologies, interactivity, intuitiveness, symmetry, GeoGebra, Desmos, Google Classroom, Moodle

Ma’lumki, hozirgi kunda ta’lim tizimida eng samarali foydalanilayotgan tizim bu raqamli va innovatsion texnologiyalar tizimidir. Raqamli va innovatsion texnologiyalar simmetriya tamoyillarini o‘rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ular o‘quvchilarga bu tamoyillarni interaktiv va intuitiv tarzda o‘rganish imkonini beradi. Quyida raqamli va innovatsion texnologiyalarning simmetriya tamoyillarini o‘rgatishda qanday rol o‘ynashini va bu jarayonda qanday imkoniyatlar yaratishini ko‘rib chiqamiz.

1. Vizualizatsiya va interaktiv platformalar: Simmetriya ko‘pincha geometrik shakllar va ularning o‘zgarishlarini o‘rganish bilan bog‘liq. Raqamli texnologiyalar, masalan, GeoGebra, Desmos, va boshqa interaktiv dasturlar o‘quvchilarga geometrik shakllar, ularning simmetrik transformatsiyalari (refleksiya, aylanish, o‘zgartirish)ni real vaqtda ko‘rish va manipulyatsiya qilish imkonini beradi. Bu o‘quvchilarni tushunishni chuqurlashtirishga yordam beradi, chunki ular simmetriya tamoyillarini amaliy misollar bilan ko‘rishadi.

2. Simulyatsiyalar va animatsiyalar: Simulyatsiyalar va animatsiyalar yordamida o‘quvchilar simmetrik shakllarning qanday paydo bo‘lishi, qanday o‘zgarishi va bir shaklning boshqa shaklga qanday o‘tishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishadi. Masalan, 3D modellashtirish va animatsiya dasturlari yordamida o‘quvchilar 3D simmetriya va rotatsiya kabi mavzularni yanada batafsil

o‘rganishlari mumkin. Bu texnologiyalar yordamida shakllarni qaysi tomonga aylantirganingizda simmetriya qanday o‘zgarishini osonlik bilan tushunish mumkin.

3. Kollaborativ o‘rganish muhitlari: Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga birgalikda ishlash va o‘zaro fikr almashish imkonini beradi. Google Classroom, Moodle kabi platformalar orqali o‘quvchilar simmetriya tamoyillari bo‘yicha o‘z ishlarini birgalikda bajarishlari mumkin. O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida tezkor fikr almashish, forumlar va virtual sinflar yordamida mavzuni yanada chuqurroq tushunish imkoniyatlari yaratadi.

4. Augmentatsiya va virtual haqiqat (AR/VR): Augmentatsiya va virtual haqiqat (AR/VR) texnologiyalari simmetriya tamoyillarini o‘rganishda o‘zgacha imkoniyatlar yaratadi. Masalan, o‘quvchilar o‘zlari haqiqiy muhitda 3D simmetrik shakllarni ko‘rib, ularni o‘zgartirish yoki tahlil qilish imkoniga ega bo‘lishadi. Virtual sinflar orqali o‘quvchilar o‘zlariga kerakli geometrik simmetriya shakllarini ko‘rib, ularga ta’sir etuvchi fizikaviy qonunlarni o‘rganishlari mumkin.

5. Ma’lumotlarni tahlil qilish va sun’iy intellekt: Sun’iy intellekt (SI) va mashinani o‘rganish texnologiyalari simmetriya tamoyillarini tahlil qilishda yangi yondashuvlar yaratadi. Masalan, SI yordamida geometrik shakllarni tanib olish, ular orasida simmetrik bog‘lanishlarni aniqlash va o‘quvchilarga real vaqtda tuzilgan shakllar asosida muammolarni yechishda yordam berish mumkin. Bu metodlar o‘quvchilarga shakllarning simmetrik xususiyatlarini tez va samarali tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

6. O‘quv materiallarini individualizatsiya qilish: Raqamli texnologiyalar orqali o‘quv materiallarini individualizatsiya qilish mumkin. Masalan, simmetriya tamoyillari bo‘yicha o‘quvchilar uchun turli darajadagi muammolarni avtomatik tarzda yaratish, o‘quvchilarning qiyinchilik darajalariga qarab turli xil vazifalarni taqdim etish mumkin. Bu o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi va o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

7. Raqamli o‘quv resurslari: Simmetriya bo‘yicha turli xil video darsliklar, interaktiv qo‘llanmalar va onlayn testlar o‘quvchilarning bilimini mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, Khan Academy, Coursera, yoki YouTube kabi platformalar orqali o‘quvchilar simmetriya tamoyillari haqida turli formatdagi video darslar va misollarni tomosha qilishlari mumkin. Bu o‘quvchilarga nazariyani amaliy misollar bilan bog‘lashda yordam beradi.

8. Yaratish va loyihalar: Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga o‘zlarini ijodiy tarzda ifoda etish imkonini beradi. Masalan, o‘quvchilar 3D modellar yaratish, grafik dizayn dasturlarida simmetrik rasmlar yaratish va ularni digital platformalarda taqdim etishlari mumkin. Bu nafaqat simmetriya tamoyillarini o‘rganishda, balki o‘quvchilarning ijodiy va texnik kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Raqamli va innovatsion texnologiyalar simmetriya tamoyillarini o‘rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ular nafaqat tushunchani yaxshiroq tushunishga yordam beradi, balki o‘quvchilarning kreativ fikrlash va analitik ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, bu texnologiyalar o‘quvchilarga interaktiv, vizual va amaliy metodlar orqali yanada samarali o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. Simmetriya tamoyillari fizika fani uchun juda muhim, chunki u tabiiy qonuniyatlar, xususan, fizika tizimlarining yuqori darajadagi tartib va muvozanatini tushunishda asosiy o‘rin tutadi. Masalan, fizikaning ko‘plab sohalarida (mexanika, elektromagnitizm, kvant fizika va boshqalar) simmetriya tamoyillari obyektlar va jarayonlarning xususiyatlarini aniqlashda qo‘llaniladi. Raqamli va innovatsion texnologiyalar bu jarayonda talabalarga simmetriya tamoyillarini tushunishda yangi yondashuvlarni taqdim etadi, bu esa ularga yanada chuqurroq va amaliy bilimlarni olishda yordam beradi. Fizika o‘qitish jarayonida simmetriya tamoyillarini rivojlantirishda raqamli va innovatsion texnologiyalarning roli qanday bo‘lishini quyidagi jihatlar orqali ko‘rib chiqamiz.

1. Simmetriya va fizikaning asosiy tamoyillari: Simmetriya fizika fanida ko‘plab muhim g‘oyalarni izohlashga yordam beradi. Misol uchun: - Galiley simmetriyasi: Har qanday inersial (ya'ni tezlikda doimiy) tizimda fizik qonunlar bir xil tarzda ishlaydi.

- Noether teoremasi: Simmetriya va saqlanadigan miqdorlar o‘rtasidagi bog‘lanishni tasvirlaydi. Masalan, vaqtga bo‘lgan simmetriya energiya saqlanishiga olib keladi. Fizikada simmetriya tamoyillarining tushunilishi uchun talabalar, masalan, fazoviy va vaqtga oid

simmetriyalarni o‘rganishlari zarur. Raqamli texnologiyalar bu tamoyillarni vizualizatsiya qilish va talabalarga amaliy tajriba orqali tushuntirishda yordam beradi.

2. Interaktiv simulyatsiyalar va vizualizatsiya: Simmetriya tushunchalarini o‘rganish uchun talabalar ko‘pincha ko‘rinishlar va shakllarni manipulyatsiya qilishga muhtoj. Raqamli platformalar va simulyatsiyalar bu jarayonni osonlashtiradi.

- PhET Interactive Simulations: Bu loyiha universitetlar va maktablar uchun turli fizika tajribalarini virtual muhitda o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Talabalar elektronlar va protonlar o‘rtasidagi elektromagnit simmetriya, yoki ikkita qo‘llanilayotgan kuchning simmetrik ta'siri kabi mavzularni interaktiv tarzda o‘rganishlari mumkin.

- GeoGebra: Bu vosita yordamida geometrik shakllar va simmetriya tamoyillarini real vaqt rejimida yaratish mumkin. Fizika fanida, masalan, harakatning simmetrik xususiyatlari (tezlikni va vaqtni o‘zgartirish, teskari harakat)ni interaktiv tarzda o‘rganish imkonini beradi. Bu turdagi simulyatsiyalar talabalar uchun fizika qonunlarini tushunishning aniq va intuitiv usulini taqdim etadi. Ular o‘zaro simmetrik jarayonlarni ko‘rish va ularni manipulyatsiya qilish orqali o‘rganadilar.

3. Augmentatsiya va virtual haqiqat (AR/VR) Texnologiyalari: Augmentatsiya (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalari fizika darslarida talabalarga yanada chuqurroq o‘rganish tajribasini taqdim etadi. Bu texnologiyalar simmetriya tamoyillarini o‘rganishda juda samarali. - Virtual Haqiqat (VR): Fizika o‘qitishda VR texnologiyasidan foydalanish talabalarga 3D model yordamida simmetrik jismlarning harakati va o‘zaro ta'sirini ko‘rish imkonini beradi. Misol uchun, talabalar magnit maydonlarining simmetrik xususiyatlarini ko‘rish yoki zarrachalar o‘rtasidagi simmetrik o‘zaro ta'sirni virtual muhitda kuzatishlari mumkin. Augmentatsiya (AR): Talabalar haqiqiy muhitga ko‘proq virtual elementlar qo‘shish orqali, masalan, simmetrik kuchlar yoki energiya o‘zgarishlarini haqiqatda qanday ko‘rishlarini tushunishlari mumkin. AR yordamida fizikaviy tajriba o‘tkazishda, simmetriya tushunchalari ko‘rsatiladigan interaktiv elementlar yaratish mumkin. Bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar matematik modellarni va fizik qonunlarni nafaqat nazariy, balki amaliy tarzda ham o‘rganishadi.

4. Simmetriya va fizika jarayonlarini modellashtirish: Fizika fanida simmetriya ko‘plab jarayonlarni modellashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida talabalar turli fizik jarayonlar, masalan, termodinamika, elektromagnitizm, va kvant fizikasidagi simmetriya tamoyillarini model qilib ko‘rishlari mumkin.

- Matlab/Simulink: Bu dasturlar fizika jarayonlarini simulyatsiya qilishda juda foydalidir. Talabalar, masalan, elektromagnit maydonlar yoki boshqa fizikalik tizimlardagi simmetrik xususiyatlarni modellashtirib, ularni vizualizatsiya qilishlari mumkin.

- OpenSim: Bu dastur orqali talabalar bioloji va mexanik tizimlardagi simmetriya tamoyillarini o‘rganishlari mumkin. Masalan, muskul-skelet tizimining simmetrik holatlarini modellash va kuzatish mumkin. Bu platformalar talabalar uchun real fizik tizimlarni simmetrik asosda modellashtirish va tahlil qilish imkoniyatini beradi.

5. Kollaborativ yondashuvlar va onlayn resurslar: Fizika o‘qitish jarayonida kollaborativ yondashuvlar o‘quvchilarga fikr almashish va o‘zaro tajriba orttirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar bu jarayonni yanada samarali qilish uchun foydalaniladi.

- Google Classroom va Moodle kabi onlayn ta'lim platformalarida talabalar simmetriya va fizika bo‘yicha guruhli muammolarni hal qilishlari mumkin. Ular birgalikda masalalar ustida ishlash, simulatsiyalarni tahlil qilish va o‘z bilimlarini boshqalar bilan baham ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

- Kollaborativ onlayn dasturlar yordamida talabalar birgalikda fizikaviy simmetrik tizimlarni modellashtirish, simulyatsiya qilish va ular haqidagi natijalarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

6. Interaktiv video va animatsiyalar: Fizika fanida simmetriya tamoyillarini tushuntirish uchun interaktiv video va animatsiyalar ham samarali vosita hisoblanadi.

- YouTube va boshqa ta'lim platformalarida simmetriya va fizika bo‘yicha turli animatsiyalarni tomosha qilish, masalan, yorug‘likning simmetrik tarqalishi yoki zarra harakatlaridagi simmetriya xususiyatlarini kuzatish mumkin.

- Khan Academy va Coursera kabi onlayn ta'lim platformalarida fizika bo‘yicha simmetriya tamoyillari bilan bog‘liq interaktiv video darslar mavjud. Bu materiallar o‘quvchilarga simmetriyaning fizik jarayonlardagi o‘rni va ahamiyatini tushunishda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, fizika o‘qitish jarayonida raqamli va innovatsion texnologiyalar simmetriya tamoyillarini o‘rganishda muhim vosita hisoblanadi. Simmetriya tushunchalarini interaktiv simulyatsiyalar, AR/VR texnologiyalari, virtual modellash, kollaborativ platformalar va boshqa raqamli resurslar yordamida yanada samarali o‘rgatish mumkin. Bu texnologiyalar talabalar uchun fizika va simmetriya tamoyillarini tushunishning intuitiv va amaliy usullarini taqdim etadi, bu esa ularning ilmiy va analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. А.А.Детлаф, Б.М.Яворский. “Курс физики”. I том. Москва. Высшая школа. 1994.
2. В.Гейзенберг. Развитие понятий в физике XX столетия. // Вопросы философии. 1975. № 1. стр.88
3. Владимиров Ю.С. Основания физики. М., БИНОМ, 2008
4. Г.Вейл. Симметрия. Наука. М.:,1968.с.192.
5. Готт В.С., Перетурин А.Ф. Категория симметрии и асимметрии в физика микромира.-В кн: Философские вопросы квантовой физики.М.,1970 с.
6. Кюри П. Избранные труды .М.,-Л.1966.с.101
7. Владимиров Ю.С. Основания физики. М., БИНОМ, 2008, с.19.
8. U.R.Bekpo‘latov, M.U.Musurmonov. “Fizikada simmetriya va saqlanish qonunlari”. (Uslubiy qo‘llanma), Navoiy-2023, NavDPI kichik bosmaxonasi, 25-26 b.
9. Bekpulatov, U.R., Musurmonov, M.U. The role of the principles of symmetry in the formation of the general theoretical foundation of scientific knowledge and scientific worldview. ISJ Theoretical & Applied Science, 2023, 03 (107), pp. 7-15.

## ТАЛАБАЛАРДА ИЖТИМОИЙ УСТАНОВКАЛАР ШАКИЛАНИШИНИНГ ИЖТИМОЙИ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

**Бекболаев Жавлонбек Жуманазар ўғли**
Гулистон давлат университети doktoranti
*E-mail:javlonbekbekbolayev@gmail.com*
Tel: 97 245 27 27
ГулДу профессори, М.Х. Холназарова тақризи асосида

**Аннотация.** Ижтимоий муносабатлар нафақат инсон ҳаёти жараёнида шаклланади, балки кўпинча ўзгаради. Бу уларнинг шахс сифатида инсоннинг бошқа психологик хусусиятларидан фарқидир. Агар, масалан, темперамент, характер, қобилият, Ирода, эҳтиёжлар каби шахсий хусусиятлар аста-секин шаклланса ва ҳаёт давомида озгина ўзгарса (лекин ҳеч бўлмаганда бир авлоднинг ҳаётида), унда ижтимоий муносабатлар, аксинча, тез ва қайта-қайта шаклланиши мумкин.ўзгаради. Инсоннинг хулқ-атворини башорат қилиш учун унинг шахсиятининг бошқа хусусиятларига қараганда унинг ижтимоий муносабатларини билиш анча муҳимдир, чунки инсоннинг бевосита кузатиладиган хатти-ҳаракати биринчи навбатда унинг ижтимоий муносабатларига богьлиқ. Шахснинг бошқа шахсий хусусиятларига келсак, улар ҳозирги ижтимоий муносабат орқали унинг ижтимоий хулқ-атворига таьсир қилади.

**Калит сўзлар:** воситалар, муносабат, омиллар, маьлумот манбаси

**Abstract.** Social relations are formed not only in the process of human life, but often change. This is their difference from other psychological characteristics of a person as a person. If, for example, personal characteristics such as temperament, character, ability, Will, needs are gradually formed and change little over the course of life (but at least in the life of a generation),

then social relations, on the contrary, can be formed quickly and repeatedly.changes. To predict a person's behavior, it is much more important to know his social relationships than other characteristics of his personality, since the directly observed behavior of a person depends primarily on his social relationships. As for other personal characteristics of a person, they affect his social behavior through the current social attitude.

**Key words:** means, attitude, factors, source of information

**Кириш.** Биринчи жаҳон уруши тугаганидан сўнг олимларнинг ушбу масалага катта эътибори жалб қилинди. Ҳарбий ҳаракатлар пайтида қарама-қарши томонлар жаҳон амалиётида биринчи марта бир-бирига тўғридан-тўғри психологик таъсир кўрсатиш воситаларини қўлладилар. Улар авиатсия томонидан душман орқасида тарқалган ташвиқот ва таргъибот характеридаги варақалар ёки душман тилида эшиттириладиган радио орқали узатиладиган тегишли мақсадли матнлар эди. Маьлум бўлишича, бундай воситалар одамларнинг ижтимоий муносабатларини ўзгартириб, душманга кучли руҳий тушкунликка олиб келиши мумкин ва бу ҳолат уруш тугаганидан кўп ўтмай сиёсатчилар ва ҳарбийларнинг алоҳида эътиборини тортди. Одамларнинг ижтимоий муносабатининг шаклланиши ва ўзгаришига таьсир қилувчи омилларни ўрганиш дунёнинг бир қатор мамлакатларида, шу жумладан АҚШ, Буюк Британия ва Германияда амалга оширила бошланди. Дастлаб бу тадқиқотлар ёпиқ эди, аммо 1930-йиллардан бошлаб уларнинг натижалари мунтазам равишда очиқ матбуотда ҳам чоп этилади. Америкалик ижтимоий психолог Ховланд бу масалани ўрганишга катта ҳисса қўшди. Ушбу бобда муҳокама қилинган маьлумотлар ва фактлар асосан унинг экспериментал ва назарий ишланмаларидан олинган.

Аввало, одамларнинг ижтимоий муносабатининг шаклланиши ва ўзгариши қандай омилларга богьлиқ бўлиши мумкинлигини билиб оламиз.

Агар биз умумий маьнода ижтимоий муносабатларни шакллантириш ва ўзгартириш жараёнини ҳақиқатда мавжуд бўлган шаклда тасаввур қилсак, у қуйидагича кўринади. Ижтимоий муносабатни шакллантириш ёки ўзгартириш учун мўлжалланган баьзи бир маьлумот манбаи, маьлумот узатиш воситаси ва ушбу маьлумотларга мурожаат қилинган аудитория (ўрнатмалари шаклланадиган ёки ўзгартириладиган одамлар) мавжуд. Ушбу жараёнда ижтимоий муносабатлар богьлиқ бўлиши мумкин бўлган учта омил гуруҳини ажратиш мумкин. Бу маьлумот манбасининг ўзи, унинг муносабати таьсир кўрсатадиган одамлар томонидан қандай қабул қилиниши; маьлумотни ташкил қилиш ёки узатиш усули ва ушбу маьлумот юборилган аудитория. Келинг, ушбу омилларнинг барчаси билан богьлиқ бўлган ва одамларнинг ижтимоий муносабатларига маьлум таьсир кўрсатиши мумкин бўлган фактларни батафсил кўриб чиқайлик. Келинг, масалани муҳокама қилишни маьлумот манбасининг хусусиятлари ва одамлар томонидан қандай қабул қилиниши билан бошлаймиз.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.** Ижтимоий установкани ўрганиш Л.Лангенинг ишидан бошлангани маьлум, у эрда у ҳиссий ва моторли реактсия вақтини, шунингдек, мавзуни Ижтимоий установкага богьлиқлигини ўрганишга ҳаракат қилган. Бу эрда Ижтимоий установка ўтган тажриба туфайли тайёрлик сифатида кўринади.

1918-1920 йилларда В. И. Томас ва Ф. Знанетскийнинг "Йевропа ва Америкадаги полшалик деҳқонлар"номли жилдли тадқиқотлари чоп этилган. Ушбу иш туфайли "Ижтимоий установка" тушунчаси ижтимоий психологияда Марказий ўринни эгаллайди.

Гарварднинг таниқли психологи Гордон Аллпортнинг баёноти шундан далолат берадики, у 1935 йилда ушбу иншоотлар Америка ижтимоий психологиясининг бутун биносининг асоси эканлигини ёзган.

Полша деҳқонларининг бошлангьич гуруҳларини ўрганиш вазифаларидан бири Знанетский мен одамлар ўртасидаги ижтимоий ўзаро муносабатларнинг асосий ижтимоий муносабатларини аниқлашда кўрдим. У ушбу муносабатлардаги ўзгаришларнинг сабаблари ва қонунларини аниқлашга интилди**.**

**Тадқиқот методологияси.** Талабаларнинг ижтимоий фазилатларини шакллантириш замонавий мактаб таълим тизимининг энг муҳим вазифаларидан биридир. Жамоада ишлаш, фарқларга бардошли бўлиш, ҳамдардлик ва ҳамкорликни намоён этиш қобилияти – буларнинг барчаси муваффақиятли ижтимоийлашган одамнинг ажралмас қисмидир.

Ушбу мақсадларга эришиш учун ўқувчиларнинг ижтимоий кўникмаларини шакллантиришга ёрдам берадиган турли хил техника ва технологиялар қўлланилади. Асосий усуллардан бири ижтимоий вазиятларни моделлаштиришдир. Ушбу усул талабаларга олинган билимларни Реал вазиятларда амалда қўллаш ва бошқа одамлар билан мулоқот қилиш ва мулоқот қилиш кўникмаларини ривожлантириш имконини беради.

Шунингдек, ижтимоий фазилатларни шакллантиришнинг муҳим элементи можаролар билан ишлашдир. Талабаларга зиддиятли вазиятларни таҳлил қилиш ва ҳал қилиш, муросага келиш ва конструктив эчимларни излаш қобилиятини ривожлантириш ўргатилади. Бу, айниқса, можаролар кундалик фаолиятнинг ажралмас қисмига айланган замонавий жамиятда тўғьри келади.

Умуман олганда, талабаларнинг ижтимоий фазилатларини шакллантириш таьлим тизимининг муҳим ёьналиши ҳисобланади. Ижтимоий вазиятларни моделлаштириш ва низоларни ҳал қилиш каби асосий технологияларни жорий этиш талабаларга замонавий жамиятга муваффақиятли мослашиш ва бошқалар билан уйгьун муносабатларни ўрнатиш имконини беради.

Ижтимоий фазилатлар ўқувчиларнинг таьлимида муҳим рол ўйнайди. Улар шахснинг уйгьун ривожланишини шакллантиришга ёрдам беради, жамиятда муваффақиятли мослашишга ёрдам беради ва ўрганишни осонлаштиради.

Талабаларнинг асосий ижтимоий фазилатларидан бири бу коммуникативликдир. Бошқаларни самарали мулоқот қилиш, тинглаш ва тушуниш қобилияти одамлар билан ўзаро муносабатларнинг асосидир. Мулоқот орқали талабалар ўз фикрларини ишлаб чиқиш ва этказишни, бошқалар билан ҳамкорлик қилишни, низоларни ҳал қилишни ўрганадилар.

Эмпатия ва багьрикенглик ҳам муҳим ижтимоий фазилатлардир. Талабалар бошқа одамларнинг ҳис-туйгьулари ва фикрларини тушунишлари ва ҳурмат қилишлари, фарқларга тоқат қилишлари ва қийин вазиятларда муросага келишлари керак. Ушбу фазилатлар жамоада ижтимоий масьулият ва конструктив ўзаро таьсирни ривожлантиришга ёрдам беради.

**Таҳлил ва натижалар.** Ўқувчиларнинг ижтимоий фазилатлари ўқув жараёнида муҳим рол ўйнайди. Улар нафақат академик кўрсаткичларга таьсир қилади, балки жамоавий ишда иштирок этиш, мулоқот қобилиятларини ривожлантириш ва синфдошлари билан муносабатларни ўрнатиш қобилиятини ҳам белгилайди.

| Ижтимоий сифат | Таьлимга таьсири |
|---|---|
| Емпатия | Емпатиянинг мавжудлиги ўқувчига синфдошларини яхшироқ тушунишга, синфда ижобий муҳит яратишга ва конструктив муносабатларни сақлашга имкон беради. |
| Толерантлик | Синфдошларининг фикрлари, қизиқишлари ва маданий хусусиятларидаги фарқларга нисбатан багьрикенглик кўрсатадиган талабалар ўрганиш ва ўзаро билим алмашиш учун очиқ ва дўстона муҳит яратишга ҳисса қўшадилар. |
| Мулоқот қобилияти | Яхши мулоқот қобилиятига эга бўлган талабалар ўқитувчилар ва ўртоқлар билан осонроқ алоқа ўрнатадилар, гуруҳ топшириқлари ва лойиҳаларида фаол иштирок этадилар, бу эса ўқув материалларини яхшироқ ўзлаштиришга ёрдам беради. |
| Етакчилик | Ривожланган этакчилик фазилатларига эга бўлган талабалар гуруҳдаги ишларни самарали ташкил этишлари, қолган ўқувчиларни умумий мақсадга эришиш ва ижобий синф жамоасини яратишга ундашлари мумкин. |
| Масьулият | Ижтимоий жавобгарлик ўқув вазифалари ва мажбуриятларига |

| | |
|---|---|
| | нисбатан кўпроқ онгли муносабатни ривожлантиради, бу эса ўрганиш ва ўз-ўзини тарбиялашда яхши натижаларга олиб келади. |

Шундай қилиб, ўқувчиларнинг ижтимоий фазилатлари ўқув жараёнининг ажралмас қисмидир. Улар ижобий таълим муҳитини шакллантиришга таъсир қилади, ҳар бир талабанинг мулоқот қобилиятлари ва шахсий ўсишини ривожлантиришга ҳисса қўшади.

Ижтимоий фазилатларни шакллантириш усулларидан бири моделлаштиришдир. Ушбу усул талабалар ижтимоий кўникмаларни машқ қилишлари ва бошқа одамлар билан қандай муносабатда бўлишни ўрганишлари мумкин бўлган муайян вазиятларни яратишни ўз ичига олади. Моделлаштириш жараёнида талабалар ижтимоий хулқ-атвор мисолларини кузатишлари мумкин, сўнгра ўқитувчилар ва тенгдошларидан фикр-мулоҳазалар ва тузатишлар олиш орқали ушбу ҳаракатларга тақлид қилишлари мумкин.

Ижтимоий фазилатларни шакллантиришнинг яна бир усули-кооператив таълим. Ушбу усул талабаларнинг гуруҳлардаги ҳамкорлиги ва ўзаро таъсирини ўз ичига олади. Гуруҳда ишлаш жараёнида талабалар алоқа, этакчилик, ҳамкорлик ва багърикенглик каби ижтимоий кўникмаларни ривожлантириш орқали муаммоларни ҳал қилишни ва биргаликда қарор қабул қилишни ўрганадилар.

**Хулоса ва таклифлар.** Хулоса қилиб айтганда, ўқувчиларда ижтимоий фазилатларни шакллантириш таълим тизимининг муҳим вазифасидир. Моделлаштириш, кооператив таълим ва лойиҳа фаолияти каби турли усуллар ўқувчиларга жамиятда муваффақиятли мослашиш ва фаолият юритиш учун зарур бўлган ижтимоий кўникмалар ва хусусиятларни ривожлантиришга ёрдам беради.

Ижтимоий моделлаштириш. Ижтимоий моделлаштириш жараёни қуйидаги босқичларни ўз ичига олади:

Рол моделларини танлаш. Талабалар тақлид қилишни ва ўрганишни хоҳлайдиган хатти-ҳаракатларни танлайдилар. Улар ҳаётнинг турли соҳаларидаги муваффақиятли одамлар бўлиши мумкин: олимлар, спортчилар, рассомлар, сиёсатчилар ва бошқалар.

Моделларни таҳлил қилиш. Талабалар танланган рол моделларининг ҳаёт ёъли ва ютуқларини, уларнинг тамойиллари ва қадриятларини ва бошқалар билан қандай муносабатда бўлишни ўрганадилар.

Симулятсия қилинган моделлар. Турли хил ўқув ва кундалик вазиятларда талабалар ўзларининг рол моделларининг хатти-ҳаракатларини такрорлашга, натижаларни таҳлил қилишга ва тузатишлар киритишга ҳаракат қилишади.

Фикр-мулоҳаза. Ижтимоий моделлаштириш жараёнида талабалар ва ўқитувчи ўртасида фикр-мулоҳазаларни тақдим этиш муҳимдир. Ўқитувчи талабаларнинг тараққиёти ва ютуқларини қайд этиши, шунингдек уларни ривожланиш ва ўз-ўзини ривожлантириш ёъларига ёъналтириши керак.

Шундай қилиб, ижтимоий моделлаштириш талабаларга муваффақиятли намуналарнинг хатти-ҳаракатларини тақлид қилиш ва таҳлил қилиш орқали ижтимоий фазилатларни ривожлантиришга имкон беради. Ушбу усул ўқувчиларнинг ўзаро таъсир, ҳамдардлик ва ҳамкорлик кўникмаларини шакллантиришга ёрдам беради, бу жамиятда муваффақиятли мослашиш учун муҳим асосдир.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. М.Норбошева “Болалар психологияси” Тошкент-2002. (31-32 бетлар)

2. Бурибаевич М. К., Юлдашев С. Э., Угли С. Л. Б. Псйчологй оф Модерн Леадершип ас ан Импортант Пҳеноменон оф Эффективе Манагемент //Интернатионал Жоурнал оф Эарлй Чилдҳоод Спесиал Эдусатион. – 2022. – Т. 14. – №. 1.

3. Бойназар С. Л., Улугбек М. Урсачен Дер Энтстеҳунг Вон Псйчисчен Крисен //" ОНЛИНЕ-СОНФЕРЕНСЕС" ПЛАТФОРМ. – 2021. – С. 514-516. Бойназар С. Л., Улугбек М. Урсачен Дер Энтстеҳунг Вон Псйчисчен Крисен //" ОНЛИНЕСОНФЕРЕНСЕС" ПЛАТФОРМ. – 2021. – С. 514-516.

4. Шовхийев Л., Шарафитдинов А. Психологияда туш кориш тилсимлари //Замонавий

инноватsion тадқиқотларнинг долзарб муаммолари ва ривожланиш тенденсиялари: ечимлар ва истиқболлар. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 485-488.

5. Ибрагимовна, Тухтасинова Мунира, эт ал. "ЕДУСАТОРС АРЕ ОНЕ ОФ ТҲЕ СРЕАТОРС ОФ ТҲЕ НЕW РЕНАИССАНСЕ (прогресс ин интернатионал реадинг литерасй студй)." *Жоурнал оф Адвансед Ссиентифис Ресеарч (ИССН: 0976-9595)* 3.4 (2023).

6. Тухтасинова, Мунира Ибрагимовна, анд Назокатхон Иқболжон қизи Қурбонова. "УЧИНЧИ РЕНЕСАНС САРИ ИЛДАМ ҚАДАМЛАР БИЛАН (ПИРЛС халқаро баҳолаш дастурининг иккинчи даврийлигига тайёргарлик)." *Эдусатионал Ресеарч ин Универсал Ссиенсес* 2.1 СПЕСИАЛ (2023): 401-403.

7. Ибрагимовна, Тукҳтасинова Мунира, анд Садирова Дилноза Муродовна. "Импровинг тҳе мечанисмс оф усинг Интернатионал Ассессмент Програмс (басед он тҳе Пирлс Интернатионал Ассессмент Програм)." *Асиан Жоурнал оф Мултидименсионал Ресеарч* 11.12 (2022): 125-131.

## TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

**M.B.Islamova**
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: islamova.moxichexra@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Muammoli ta’lim, diskussiya, kritik fikrlash, refleksiya, kooperativ ta’lim kabilar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy mexanizmlar sifatida qabul qilinib, ularning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tanqidiy fikrlash, pedagogik mexanizm, muammoli ta’lim, diskussiya, kritik fikrlash, refleksiya, kooperativ ta’lim.

**Annatation:** This article analyzes the pedagogical mechanisms of the development of critical thinking in students. Problem-based learning, discourse, critical thinking, reflection, and cooperative learning are considered as the main mechanisms for the development of critical thinking, and their content is revealed.

**Keywords:** critical thinking, pedagogical mechanism, problem-based learning, discourse, critical thinking, reflection, collaborative learning.

Tanqidiy fikrlash, o‘quv jarayonida talabalarning faolligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini va muammolarni tahlil qilishdagi yondashuvini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, nafaqat talabaning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga, balki ularning kelajakdagi faoliyatida qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va o‘z fikrlarini asoslash ko‘nikmalarini takomillashuvida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy pedagogik mexanizmlari haqida so‘z boradi.

Tanqidiy fikrlash – bu ma'lumotni tahlil qilish, baholash, savol berish, muammo va uning yechimlari haqida mulohaza yuritish, fikrlarni taqqoslash va xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash nafaqat ilmiy bilimlarni qabul qilish, balki bu bilimlarni amaliyotda qanday qo‘llashni, ularni muhokama qilish va rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy ahamiyati shundaki, u talabalarga:

- **Ma'lumotlarni mantiqiy va tahliliy tarzda qabul qilish**, ya'ni olingan bilimlar asosida mustaqil xulosalar chiqarish;
- **Qarorlar qabul qilishda mas'uliyatli bo‘lish**, har bir qarorning ijtimoiy, axloqiy va iqtisodiy oqibatlarini hisobga olish;
- **Mustaqil fikrlarni shakllantirish**, o‘z nuqtai nazarini shakllantirib, mustahkam asoslash;

• **Konfliktlarni hal qilish va muloqotda samarali bo‘lish** imkoniyatini yaratadi, talabalarga konstruktiv muloqot, jamoaviy ishlash va muammolarni birgalikda hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda turli xil pedagogik maxanizmlar mavjud bo‘lib, pedagoglar turli metod va yondashuvlarni qo‘llashlari zarur bo‘ladi. Biz pedagogika fanlarini o‘qitishda foydalaniladigan asosiy pedagogik mexanizmlarning ayrimlari bilan tanishamiz.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng asosiy va muhim yondashuvlardan biri bu muammoli ta’lim texnologiyalaridir. Muammoli ta'lim (Problem-based learning - PBL) o‘quv jarayonida talabalarga real hayotdagi yoki ilmiy sohalardagi muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan metoddir. Bu yondashuvda talabalarga aniq javoblar o‘rnatilmaydi, balki ular turli variantlarni sinab ko‘rishlari va mantiqiy tahlil qilishlari kerak bo‘ladi. Shu tarzda, tanqidiy fikrlashga asoslangan metodika talabalarning muammolarni mustaqil ravishda hal qilishiga va o‘z bilimlarini baholashga yordam beradi. Tanqidiy fikrni rivojlantirish uchun talabalarga muammoli vaziyatlar taqdim etish foydalidir. Bu muammolarni tahlil qilish, turli xil yechimlarni topish va tanqidiy qarorlar qabul qilish talabadan puxta fikrlashni talab qiladi. Misol uchun, talabalar real hayotdagi masalalar, ilmiy yoki ijtimoiy muammolarni tahlil qilishlari mumkin.

Muammoli ta’lim metodini qo‘llash talabalarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantiradi:

• Muammolarni tahlil qilish va ularga turli yechimlar izlash;

• Jamoaviy ishlashda bir-birining fikrlarini qabul qilish va teng huquqli bahs-munozaraga kirishish;

• O‘rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va h.k.

Muammoli ta’lim texnologiyalaridan Pedagogika nazariyasi va tarixi, Pedagogik konflektologiya, Oila pedagogikasi, Ijtimoiy pedagogika kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish samarali hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng muhim pedagogik mexanizmi bu diskussiyadir.

Diskussiya — bu ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasida ma'lum bir masala yoki mavzu haqida fikr almashish, bahslashish va qarashlarni ifodalash jarayonidir. Diskussiya o‘quvchilarning yoki ishtirokchilarning har xil fikrlarni tinglash, o‘z fikrlarini bildirish va turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish imkonini beradi. Diskussiya va muhokama jarayonlari talabalarning fikr almashish, turli nuqtai nazarlarni o‘rganish va asosli fikrlarni keltirish qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagog talabalarga muayyan mavzu bo‘yicha ochiq savollar berib, ularga argumentlarni ishlab chiqish va boshqalar bilan bahs-munozara qilish imkonini yaratishi kerak. Bu jarayon nafaqat tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, balki ijtimoiy va muloqot ko‘nikmalarini ham mustahkamlashga yordam beradi. **Fikr almashish** – talabalar bir-birining nuqtai nazarini tinglash va o‘z fikrini asoslashda o‘zaro yordam ko‘rsatadilar. **Muhokama** – jiddiy va konstrukttiv munozara orqali yangi fikrlarni yaratish, qarorlar va xulosalarni shakllantirish. Diskussiyalar talabalarni turli nuqtai nazarlarni ko‘rish, qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish va o‘z fikrini asoslashga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonni to‘g‘ri boshqarib, har bir talabaning fikrini tinglashi va ular o‘rtasida izchil, maqsadga yo‘naltirilgan muhokama olib borishi kerak.

Diskussiya bir nechta asosiy maqsadga xizmat qiladi:

1. Fikr almashish — har bir ishtirokchi o‘z nuqtai nazarini ochiq va aniq ifoda etadi;

2. Yangi g‘oyalar va qarashlarni o‘rganish — boshqa ishtirokchilarning fikrlaridan foydalangan holda yangi qarorlar yoki yechimlar qabul qilinishi mumkin;

3. Qaror qabul qilish — biror masala yoki muammoni hal qilish uchun eng maqbul variantni topish.

Diskussiya konstruktiv va hurmatga asoslangan bo‘lishi kerak, shunda barcha ishtirokchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta oladi va to‘liq bahs olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradigan eng qiziq va noodatiy, doimiy foydalaniladigan mexanizm - savolga javob berish orqali kritik fikrlashdir.

Savolga javob berish, albatta, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy mexanizmidir. Talabalar faqat javobni eshitib qolmasdan, har bir javobni tekshirish, uni boshqa variantlar bilan solishtirish va o‘z fikrlarini asoslashlari zarur. Shu tariqa, talaba o‘z fikrini tanqidiy yondoshuvda

rivojlantiradi va mustahkam asosli qarorlar chiqarishga o‘rganadi. Dars davomida o‘qituvchi talabalar bilan savol-javob orqali munozara olib borishi, turli nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqish, ma’lumotni tahlil qilish va o‘z fikrlarini dalillar bilan asoslashga undashi muhimdir. Masalan, “Nima uchun?” yoki “Qanday qilib?” kabi savollar orqali talabalarni o‘z fikrini mustahkamlashga va o‘z fikrini boshqalar bilan baham ko‘rishga undash mumkin. Aslida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda to‘g‘ri savol berish o‘ta muhim hisoblanadi. Chunki, savolning saviyasi va mantig‘idan bilish mumkinki, u muammoni, vaziyatni qanchalik to‘g‘ri tushunganini anglash mumkin bo‘ladi. Javob berish ko‘nikmasi ham insonda o‘zgaruvchan bo‘lishi lozim, sababi muammoni yoki vaziyatni chuqur anglagan sari javoblar ham chuqur va mukammallashib boraveradi. Natijada talabada kritik fikrlash paydo bo‘ladi.

Kritik fikrlash — bu muammolarni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlardan qarab, ularni yaxshiroq tushunish va yechimlarni topish qobiliyatidir. Bu jarayonda shaxs yoki guruh mavjud axborotlarni, dalillarni va fikrlarni sinchiklab o‘rganadi, mantiqan to‘g‘ri va ishonchli xulosalar chiqarishga harakat qiladi. Kritik fikrlashning asosiy tamoyillari quyidagilar:

1. Obektivlik: O‘z nuqtai nazaringizni emas, balki barcha tomonlarni va dalillarni inobatga olish;
2. Tahlil qilish: Masalani yoki fikrni bo‘laklarga ajratib, har bir qismini alohida o‘rganish;
3. Savollar berish: Fikrni qabul qilishdan oldin, unga oid savollar berish — bu yangi bilimlarni olish va xatolarga yo‘l qoyaslik imkonini beradi;
4. Dalil va asosga tayanganlik: Fikr yoki qarorni mustahkamlovchi dalillarni izlash va bu dalillarga tayanish;
5. To‘g‘ri qarorlar qabul qilish: Mantiqiy va aniq xulosalar chiqarish, shuningdek, qarorlarni muqobil yechimlar bilan taqqoslash.

Kritik fikrlash faqat intellektual jarayon emas, balki amaliyotdir. Masalan, biz hayotdagi qarorlarni, ishlash metodlarini, muammolarni hal qilishni, hatto kundalik vaziyatlarda ham kritik fikrlashni qo‘llashimiz mumkin. Bu nafaqat bilim va tafakkur, balki harakat va muammolarni hal qilishda samarali bo‘lish uchun ham zarurdir.

Kritik fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi usullarni qo‘llash mumkin: a) Doimo yangi fikrlarni o‘rganish va ular haqida qayta o‘ylash. b) Muammolarni hal qilishda turli nuqtai nazarlardan qarash. c) Kiritilgan axborotning to‘g‘riligini tekshirish. d) Mantiqiy xatolarni aniqlash va ularga yo‘l qo‘ymaslik kabilardir. Bu ko‘nikma ayniqsa ta’lim, ish va kundalik hayotda muvaffaqiyatga erishishda katta rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, **konstruktiv tanqid qilish** va **fikrlarni tahlil qilish** talabalar uchun muhim o‘rganish jarayonidir. Tanqidiy fikrlarni yaratish va ularga o‘z fikrlaringizni asoslash – bu nafaqat bilimlarni yaxshilash, balki mustahkam qarorlar qabul qilishning ham zarur vositasidir.

Tanqidiy fikrlarni rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri bu refleksiya va o‘z-o‘zini baholashdir. Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash talabalarga o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘rganilgan materialni qayta ko‘rib chiqish va uning samaradorligini baholash imkonini beradi. Bu mexanizm orqali talabalar o‘z bilimlarini yaxshilash, xatolarini aniqlash va ularni tuzatish usullarini topishga o‘rganadilar. O‘z-o‘zini baholash jarayoni tanqidiy fikrlashning muhim qismi hisoblanadi, chunki u talabalarga o‘z qarorlarini tahlil qilish va ularga yangi nuqtai nazardan qarash imkonini beradi. Talabalar o‘z ishlarini baholashga, o‘z fikrlarini tahlil qilishga va xatolaridan xulosa chiqarishga o‘rgatilishi kerak. O‘z-o‘zini baholash jarayoni tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, chunki bu jarayonda talabalar o‘z fikrlarini qanday asoslash va qanday qilib yanada aniqroq va puxta bo‘lishini tushunadilar.

Refleksiya bir qancha talablarni o‘z ichiga oladi: o‘rganilgan bilimlar haqida qayta fikr yuritishga undaydi; xatolarini aniqlash va ularni tuzatish imkonini yaratadi; o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun yangi yo‘llar izlashga rag‘batlantiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning yangi sayqallanayotgan pedagogik mexanizmi bu - kooperativ ta’limdir. Kooperativ ta'lim (Collaborative learning) metodologiyasi talabalarni guruhlarda ishlashga yo‘naltiradi. Guruhda ishlash, muhokama qilish va fikr almashish orqali talaba tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ular turli fikrlarni eshitish, o‘z fikrlarini baham

ko‘rish va kengroq nuqtai nazarlarni o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi. Kooperativ ta'limda talabalarning bir-biriga yordam berishi, o‘zaro fikr almashishi va umumiy xulosalar chiqarishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda guruh loyihalari usuli ham muhim ahamiyatga ega. Bu usul talabalarni real yoki nazariy loyihalar ustida hamkorlikda ishlashga, o‘zaro fikr almashish, bir-birlarining fikrlarini tahlil qilish va birgalikda qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Bunday loyihalarni ishlab chiqish jarayonida talabalar hamkorlikda muayyan bir materialni yoki hodisani tahlil qilib, birgalikda tanqidiy fikrlar bildirishadi. Bu jarayon o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini jamoaviy tarzda rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlashning yana bir pedagogik mexanizmi bu - **Kritik o‘rganish texnikalaridir.**

Kritik o‘rganish texnikalari orqali talabalarga ma'lum bir matn yoki kontentni tahlil qilish va uni tanqidiy ko‘rinishda baholashni o‘rgatish mumkin. Bu texnikalarga “Yuqori darajadagi savollar” qo‘llanilishi, analiz va sintez qilish, matnni ajratib ko‘rish va uning asosiy fikrlarini aniqlash kabi metodlar kiradi. Shu tarzda, talaba berilgan ma'lumotni faqat qabul qilmasdan, uni chuqur tahlil qilishga, xulosalar chiqarishga o‘rganadi. Bu texnikada kritik o‘qish va analitik yozish muhim hisoblanadi. Kritik o‘qishda talabalarga matnlarni nafaqat o‘qish, balki tanqidiy o‘qish va matnning ichki tuzilishini, muallifning nuqtai nazarini va maqsadlarini tahlil qilishni o‘rgatish nazarda tutiladi. Analitik yozishda esa talabalarga mustaqil ravishda tahliliy esse va fikrlarni yaratishni o‘rgatish maqsad qilinadi. Bu, o‘z navbatida, talabalarning fikrlarini aniq va izchil tarzda ifoda etish imkoniyatini oshiradi

Talabalarning tanqidiy fiklashini rivojlantirishning biz yuqorida izohlagan pedagogik mexanizmlarining har biri o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim jarayonlarida izchil foydalanilsa, tanqidiy tafakkur tarziga ega kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Хачумян Т. И. Понятие “Критическое мышление” и его сущность в психолого-педагогической науке. Хачумян Т. И. // Теоретические вопросы культуры, образования и воспитания: сб. наук. пр. Вып. 24, часть 2. – Киев: Издательский центр КНЛУ, 2003.

2. Кочерга А. В. Взаимосвязь мышления, чувств и воображения в развитии критичности человека. В. Кочерга. Автореф. дис. канд. психол. наук : 19.00.01 Ин-т психологии им. Костюка АПН Украины. – М., 2003.

3. F.O. Xodjiyeva. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida). p.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2008.

4. Islamova M.B. Tanqidiy tafakkur” tushunchasining metodologik asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari. Pedagogik fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar: muammo va yechimlar//Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, Qo‘qon, 66-71 betlar.

## HOZIRGI ZAMON OILALARDAGI FARZANDLARARO SIBLINGLARDA HASAD VA HAVAS NAMOYON BO‘LISHI HAMDA RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARINI O‘RGANISH

**Jumabekov Ziyovuddin Xazratqul o‘g‘li**
“Oila va gender” ilmiy tadqiqot instituti doktaranti
GulDPi “Pedagogika” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
e-mail: Jumabekovziyovuddin795@gmail.com

**Annotatsiya:** Jahonda rivojlanish davrida oilaning mustahkamligi, farovonligi doiraviy muhokamalarda avj olmoqda. Yurtimizda ham keng ko‘lamda oila mustahkamligi yo‘lidatarg‘ibot va tashviqot ishlari olib borilmoqda. Mahallalarda xotin qizlar faollari, hokim yordamchilari oilalarda “sog‘lom oila” shiori ostida turli ishlar olib borishmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Oila, farzand , xasad, rivojlanish, oilaviy hamkorlik, ijtimoiy omil, psixologik muhit va ijtimoiy psixalogik yondashuvlar.

**Annotation:** during the development period in the world, the strength, well-being of the family is at the forefront of circular discussions. In our country, there is also a large-scale family

strengthening corridor, where research and propaganda work is being carried out. In the neighborhoods, women activists, deputy governors are doing various things in the families under the slogan “healthy family”.

**Keywords:** family, child, Hasad, development, family Cooperation, social factor, psychological environment and social psychalogical approaches.uch as suicide, harm to health, and damage to property are committed through the motive of envy.

**KIRISH.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.04.2017 yil 2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori e’lon qilindi. Ushbu farmonda Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash shart sharoitlari keltirib o‘tilgan. Mamlakatimizda yoshlar talim tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.Yoshlarni barkamol inson etib voyaga etkazish, ularga ezgu fikr-g‘oyalarni singdirish, yot mafkuralar, hurujlardan asrash, ularda turli g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurash ko‘nikmalarini shakllantirish, takomillashtirish, shuningdek “Jismoniy jihatdan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vataniga sodiq, shijoati mustahkam, qat'iy hayotiy nuqtai nazariga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi vazifalari belgilangan.

Hasad hozirgi davrda har bir shaxsga tasir ko‘rsatuvchi xis kechinma ekanligi bilan xarakterlanmoqda. Xasad xissining namoyon bo‘lish jihati hozirgi davrda rivojlanib bormoqda.Eng ko‘p uchraydigan va namoyon bo‘lish jihatlari oilada siblinglar o‘rtasida kuzatilmoqda va bu bugungi rivojlanishdagi asosiy muammolar hisoblanadi.Oilada kelinlar o‘rtasida ham bir biriga nisbatan xasad xissini ko‘plab uchratishimiz mumkin. Bunday jarayonlarni psixokorreksiya qilish bugungi kunning asosiy dolzarbligi hisoblanadi. "Hasadgo‘ylar" o‘zlarida bor narsaning ular uchun hech qanday ahamiyati yo‘q. Asosiysi, qo‘shnida bor. Va agar qo‘shni ko‘proq yoki yaxshiroq bo‘lsa, unda hamma narsa … Bunday hasad bilan kurashish kerak. Bunday hasadni o‘rganish va qanday psixologik muammolar va insoniy ehtiyojlar haqida gapirayotganini tushunishga harakat qilish kerakmi?

Albatta, hayotni osonlikcha boshdan kechirganlarning hasadini engish, "omadli" deb atash juda qiyin. Shuning uchun, umuman hasad qilmaslik mumkin emas. Lekin nafaqat axloqiy va axloqiy me’yorlar nuqtai nazaridan, balki bu tuyg‘u, hissiyotlarning samarasizligi nuqtai nazaridan ham doimo hasad qilish noto‘g‘ri. Ma'lumki, ezilgan his-tuyg‘ular halokatli. Boshqa odamga hasad, uning yutuqlari va yutuqlari, odamlar o‘z salohiyatini, yutuqlari va imkoniyatlarini qadrsizlantiradi … Agar biz faqat vaqti -vaqti bilan, epizodik tarzda namoyon bo‘ladigan hasad haqida gapiradigan bo‘lsak, unda bunday hasad, albatta, halokatli emas. **Misol uchun:** qiz do‘sti bilan uchrashdi va u ozib ketganini ko‘rdi. Qizimiz ham anchadan beri ozishni xohlardi, lekin u bu ishni bajara olmadi. U hali ham dangasa edi, sport zaliga borishni kechiktirdi va hokazo. Va do‘stini ko‘rganida, u shunday deb o‘yladi: "Ma'lum bo‘lishicha, Svetkaning irodasi bor, lekin men unday emasmi?" Natijada - hasad uni harakatga undaydi - shunga qaramay, qiz sport zaliga yoziladi va dietaga qat'iy rioya qila boshlaydi.Misol tariqasida oladigan bo‘lsak bizning muhandis ham sinab ko‘rishga qaror qildi va odatdagi ish yo‘nalishini o‘zgartirib, hamkasbidan ustun keldi. Uning rivojlanishi umumiy Yevropa musobaqasiga yuborildi va uning mukofoti hamkasbiga berilganidan oshib ketdi. Albatta, ishlar har doim ham yaxshi ketavermaydi. Ammo, aslida, ichki salohiyati va o‘ziga ishonchi yuqori bo‘lgan odamlar uchun hasadning epizodik namoyon bo‘lishi ularni yangi yutuqlarga undagan vaziyatlarni kuzatish mumkin.

**Maqsad va uni asoslash.** Hasad kuzatiladigan yoshlar o‘rtasida korreksion ishlarni amalga oshirish, ular o‘rtasidagi munosabatni ijobiylashtirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Biz bugungi ilmiy faoliyatimizda har bir hududlarda oilalardagi farzandlarning xasad yoki havas hissining qay darajada shakllanganligini o‘rganamiz. Biz bu tadqiqotlarni amalga oshirishda hasadni keltirib chiqaruvchi sabablarini bilishimiz kerak. Hasadning bir necha sabablari bor.

Ulamolarimiz mazkur sabablarni o‘rganib chiqib, asosiylari oltita ekanini ta'kidlaganlar. Ularni qisqacha o‘rganib chiqamiz:

1. Dushmanlik va yomon ko‘rish. Bu, hasadning eng kuchli sabablaridan biridir. Ikki kishi biror sababga ko‘ra urishib qolishlari va oralarida kelishmovchilik chiqib bir-birini yoqtirmay qolishlari mumkin. Fazabi chiqqan odam o‘zining dushmaniga nisbatan qalbida kek saqlab qolsa, u hasadga aylanadi. Dushmaniga o‘zi yetkaza olmagan zararni zamondan kuta boshlaydi. Agar dushmaniga biror yomonlik etsa, xursand bo‘ladi va Alloh taoloning O‘zi menga yomonlik qilgani uchun uni jazoladi, deydi. Mabodo dushmaniga ne'mat etsa, uning maqsadiga teskari bo‘lgani uchun xafa bo‘ladi. Hasadi yana ham ziyoda bo‘ladi. Mazkur ne'matning yomon ko‘rgan odamidan ketishini istaydi va shu maqsadda ish ham olib boradi.

2. Ko‘ra olmaslik. Ba'zi odamlarda boshqaning o‘zidan ustun bo‘lishini ko‘ra olmaslik odati bo‘ladi. Ana shu narsa ham hasadning sabablaridan biridir. Odatda, birovni o‘zidan past sanab, uni odam o‘rnida ko‘rmay, nazar-pisand qilmay yurgan kimsa shunday bo‘ladi. Doimo o‘sha odam unga qaram bo‘lishini va yalinib turishini istaydi. Birdan, qarasa, haligi odamga ne'mat etibdi. Hasadchining xayoli boshidan uchadi. O‘zini qo‘ygani joy topa olmay qoladi. Hasadi o‘zini ko‘rsatadi.

3. Kibr. Mutakabbir odamlar o‘zidan past sanalgan kishilarni doimo masxara qilib, yerga urib, oldilarida maqtanib, sal narsaga kerilib yurgan bo‘ladilar. Shuning uchun ulardan past odamlarga ne'mat etganiga chiday olmay, hasad qilishga o‘tadilar.

4. Maqsadiga erisholmay qolishdan qo‘rqish. Bu holat bir maqsadga erishish uchun harakat qilayotgan shaxslar orasida bo‘ladi. Ulardan biri ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lida ne'matga sazovor bo‘lsa, boshqasi hasad qiladi. Qo‘polroq misol keltiradigan bo‘lsak, xuddi kundoshlarga o‘xshagan bo‘ladi.

5. Shuhratparastlik. Bunga ma'lum bir sohada tengi yo‘q bo‘lishni orzu qilgan shuhratparast kimsa misol bo‘ladi. Agar unga dunyoning narigi burchida senga teng keladigan odam chiqibdi, deyilsa, o‘shaning yo‘q bo‘lishini orzu qiladi.

6. Odamlarga yaxshilikni ravo ko‘rmaydigan tabiati buzuq shaxs hasadchi bo‘ladi. O‘ziga hech aloqasi bo‘lmasa ham, birovga ne'mat etishini ko‘rolmaydi. O‘z-o‘zidan hasad qilaveradi.

**Hasad fenomeni uch darajada namoyon bo‘ladi va xuddi shu tarzda o‘z-o‘zini hurmat qilish va shaxsning xulq-atvoriga ta'sir qiladi:**

- Ong darajasi - past pozitsiyani bilish, oddiy qabul qilinishi mumkin va og‘ir noqulaylik tug‘dirmaydi;

- Hissiy tajriba darajasi - bunday vaziyat tufayli bezovtalanish, g‘azablanish yoki g‘azablanish, avto -tajovuz, pastlik hissi, mag‘rurlikning buzilishi va taqdirning adolatsizligi mumkin;

- Haqiqiy xatti -harakatlar darajasi - bu vayron qilish, hasad ob'ektini yo‘q qilish. Hasadgo‘ylik ob'ektini hasadgo‘ylar uchun muammo tug‘dirganlikda ayblash mumkin bo‘lgani kabi, tajovuz ham aniq mavzuga qaratilgan. Bu darajada hasad xatti -harakatlarning etakchi motiviga aylanadi.

- Hasad hissi sizni boshqa narsadan kamchilik izlashga majbur qiladi.

- Odam qanchalik hasad qilsa, shunchalik o‘z ojizligiga, boshqalarda bor narsani ololmasligiga ishonadi.

- Hasadning namoyon bo‘lishini bizning egoning qandaydir o‘yinlari deb hisoblash mumkin, agar u boshqa odam qandaydir tarzda bizni va boshqa odamning yutuqlarini chetlab o‘tsa, buzilgan deb o‘ylaymiz.

- Taqqoslashlar, shundan so‘ng o‘zlarining pastligi, qadrsizligi, o‘tkazib yuborilgan imkoniyatlar va umumiy adolatsizlik hissi paydo bo‘ladi. O‘zining benuqsonligini saqlab qolish istagi, muvaffaqiyatsizlikni o‘zini ko‘rishdan qo‘rqish, odam boshqalardan, ayniqsa, hasad qilganlardan kamchilik qidira boshlaydi.“Hasad bu boshqa odamlarning yutuqlari, muvafaqqiyatlariga, axloqiy-ma’naviy qarashlariga nisbatan “dushmanlarcha”, yoqtirmagan holda munosabat bildirishdir”. Hasad shaxsga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Hasadgo‘yda xavotirlik, sirlilik, to‘liqsizlik kompleksidan iztirobga tushush, norozilik kabi xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Bunda

har ikki tomon – hasad qilayotganva hasad qilinayotgan shaxslar ham jabr ko‘radi. Sub’ekt ijtimoiy hayotidagi hasad muammosiga e’tiborimizni qaratar ekanmiz, hasad nafaqat o‘zganing hayotini, balki o‘zining hayotini buzadi. Sababi hasadgo‘y shaxslilik darajasida ma’lum destruktsiyalarni boshdan kechirib, unga o‘zini-o‘zi rivojlantirishda real yutuqlarga erishishda halaqit beradi. Shunday qilib, hasadni uch darajada namoyon bo‘ladigan fenomen sifatida ko‘rib chiqish mumkin: ong darajasida – o‘zining quyiholatdagi darajasini anglash, hissiy kechinma darajasida bunday holatdan darg‘azab bo‘lish va alam qilish, real xulq-atvor darajasida hasad predmetini yo‘qotish, buzishda namoyon bo‘ladi.

“Hasad” tushunchasini tushunish uning islom ta’limotidagi ahamiyati va ahamiyatini tan olishni o‘z ichiga oladi. Hasad eng katta gunohlardan biri hisoblangan Hasadga ishora qiladi. Islom ulamolariga ko‘ra, Hasad o‘z ne’matlaridan norozilik va boshqalarning ne’matlaridan mahrum bo‘lishini ko‘rish istagidan kelib chiqadi. Bu shaxs va jamiyat darajasida bo‘linish, adolatsizlik va ma'naviy tanazzulga olib kelishi kabi salbiy oqibatlarga olib keladi (Iqbol, 2008). Hasadga qarshi kurashish uchun Islom o‘z ne'matlariga shukr qilishni, boshqalarga hamdard bo‘lishni va bu halokatli xislatdan Allohdan panoh so‘rab duolar bilan panoh so‘rashni da'vat etadi. “Hasad” islom ilohiyotidagi atama bo‘lib, boshqalarning ne’matlari va muvaffaqiyatlariga nisbatan salbiy his-tuyg‘ular bilan birga kelgan Hasadni anglatadi. Bu jamoalar ichida zarar va nizolarga olib kelishi mumkin bo‘lgan halokatli tuyg‘u hisoblanadi.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Hozirgi vaqtda dunyoviy bilimlarni egallagan har bir oila a’zolarida mafkuraviy ongning to‘laqonli shakllarini ko‘rishimiz mumkin. Shundey ekan har jamiyatda so‘glom raqobat tufayli shaxslar yuksalib kelmoqda, lekin jamiyat ichida hasad kabi salbiy xislatga ega odamlar ham hozirda ko‘plab uchramoqda**.** Biz bu kabi salbiy xislarni o‘rganilib, korreksiya qiluvchi tashviqiy choralarni ishlab chiqilmoqda**.** Hasadning choraviy davosi: Ma’lumki, hasad eng og‘ir qalb xastaliklaridan biridir. Bu kabi xastaliklarini faqatgina ilm va amalni kuchaytirgan holda davolash mumkin.

Hasadni ilm bilan davolash quyidagicha: Avvalo, har bir kishi hasad o‘zining dinu dunyosiga zarar ekanini yaxshi anglab etmog‘i lozim. Shu bilan birga, u hasad qilingan odamning na diniga va na dunyosiga zarar yetkaza olmasligini ham tushunishi kerak. Balki uning hasadidan dushmani foyda oladi. Agar oxiratga va undagi hisob-kitobga iymonni bir tarafga qo‘yib turib, aql yuzasidan ish tutganda ham, hasadga o‘rin yo‘q. Chunki hasadchi o‘z hasadi tufayli ich-ichini eydi, qalbi dard-alamga to‘ladi. Ammo biror foyda ko‘rmaydi.

Ne’mat hasad qilingan odamdan sizning hasadingiz tufayli zavolga uchramaydi. Qanday qilib deysizmi? Unga ne'matni Alloh taolo bergan va Allohning O‘zi belgilagan muddatgacha davom etadi. Birovning hasadi tufayli ne’mat tugab qolmaydi. Oxiratda unga zarar etmasligi aniq. Chunki ne’mat etgani yoki sizning hasadingiz unga gunoh bo‘lib yozilmaydi. Balki hasadingiz sababli mazlum bo‘lgani uchun foyda olishi ham turgan gap. Bu dunyoda uning foyda olishi sizning jizg‘anak bo‘lishingizdandir. Shu sababdan odamlarning xursandchiligining yana biri dushmanining azob chekishi hisoblanadi. Yuqorida zikr qilingan narsalarning barchasi hasadchi o‘ziga o‘zi dushman va dushmaniga do‘st ekanini ko‘rsatadi. Bu xuddi dushmanini qatl qilish uchun tosh otayotgan odamga o‘xshaydi. Birinchi toshni otganda dushmaniga tegmasdan o‘ziga qaytadi va o‘ng ko‘zini ko‘r qiladi. Uning achchig‘i yana ham alanga olib, ikkinchi toshni otadi. Ikkinchi toshi ham mo‘ljalga tegmay o‘ziga qaytadi va chap ko‘zini ham ko‘r qiladi. U g‘azab otiga minib uchinchi toshni otadi. Tosh qaytib kelib, o‘zining boshini yoradi. Dushmani esa soppa-sog‘, kulib, uni tomosha qilib turadi. shaxsning ta'sir etuvchi omillarga bo‘lgan munosabatining o‘ziga xosligini ta'kidlaydigan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarining haddan tashqari intensivligi (yoki kuchayishi) yoki aniq vaziyat... Masalan, tashvish odatiy namoyon bo‘lish darajasidagi xarakterli xususiyat sifatida, g‘ayrioddiy vaziyatlarga tushib qolgan ko‘pchilik odamlarning xatti-harakatlarida aks etadi. Ammo agar tashvish shaxsning xarakterini ta'kidlash xususiyatlariga ega bo‘lsa, unda odamning xatti-harakati va harakatlari etarli darajada tashvish va asabiylikning ustunligi bilan ajralib turadi. Xususiyatlarning bunday namoyon bo‘lishi, go‘yo odatdagi va patologiyaning chegarasida, ammo salbiy omillarga duch kelganda, ba'zi aksanlar psixopatiyaga yoki odamning aqliy faoliyatidagi boshqa og‘ishlarga aylanishi mumkin. Olim A.E.

Lichkoning fikriga ko‘ra, shu bilan birga, tanlangan zaiflik mavjud bo‘lib, u ma'lum psixogen ta'sirlarga tegishli (hatto yaxshi va yuqori qarshilik holatlarida ham). Qur’oni karim va hadisi shariflarda hasadning bu turidan qaytarilgan. Zero, bunday illat odamni yomon yo‘llarga boshlaydi. Qalbida hasad illati bor kimsa harom yo‘llar bilan birovga ziyon yetkazishga, shu bilan “alami”dan chiqishga harakat qiladi.

Ushbularni tafakkur qilgan odamning qalbida hasad olovi so‘nishi turgan gap. Hasadni amal bilan davolash quyidagicha:

Ya’ni har qanday bu holatni boshidan o‘tkazayotgan shaxslarda korreksion yo‘llarni qo‘llashimiz maqsadga muvofiq. Misol uchun aka ukasida kuzatilayotgan rivojlanishlar tufayli ota onasining unga nisbatan ko‘proq e’tiborini his qiladi . Hasadi unga mutakabbirlik qilishni tavsiya qilmoqda, u unga sekinlik bilan salbiy tasir ko‘rsatadi. Hasad juda keng tarqalgan kasallikdir. Undan ehtiyot bo‘lish kerak har doim. Inson, avvalo, o‘zidan – birovlarni hasad qilishdan ehtiyot bo‘lsin. Qolaversa, birovlarning hasadidan ham ehtiyot bo‘lsin. Hasad nafs kasalliklaridan sanaladi. Hasad illatidan juda oz kishilargina xolidirlar. Pastkash odam hasadining zahrini birovga sochadi, ichida ko‘ra olmaslik olovi alanga olayotgani uchun qoni qaynaydi, ko‘ziga qon to‘ladi, birovlarning yutug‘ini ko‘ra olmaydi. Karim inson esa qalbida hasad alomatini sezsa, uni yashiradi, dilini isloh qilish harakatida bo‘ladi.

Ibn Javziy rahmatullohi alayh shunday degan: “Hasad shunday narsaki, inson botini undan butkul xolos bo‘la olmaydi. Odam qalbida hasad borligi bilan gunohga botmaydi, balki musulmon birodaridagi ne’matni yo‘q bo‘lishini xohlashi bilan gunohkor bo‘ladi” (Manba: “At-tibbur ruhoniy libnil javziy”).

Hasad qilish loyga qorishtirilgandir. Odam bolasi borki, u bilan birga hasad ham dunyoga keladi. Kimda-kim ichidagi hasadni so‘z yoki amal bilan yuzaga chiqarmasa, hechqisi yo‘q (Manba: “Soydul xotir”). Shu o‘rinda aytish kerak, inson bolasi hasaddan xoli emas. Alloh tarafidan tanlab olingan, maqomlari yuqori ko‘tarilgan anbiyolargina bundan mustasnodirlar. Payg‘ambarlardan o‘zgalar hasadga nisbatan oshkor etuvchi yoki yashiruvchidirlar. Hasadchilarning ham bir nechta darajasi bo‘ladi. Ba’zilarning hasadi qalbini egallab oladi, ammo uning alomati tilida ko‘rinmaydi. Yana shunday kimsalar bor, u ne’matga erishgan odam qarshisida o‘zini tutib tura olmaydi, g‘azabini jilovlay olmaydi, ko‘zini lo‘q qilib, suqlanib ne’matga qaraydi, tili bilan ne’matga erishgan odamni g‘iybat qiladi. Xullas, hasad eng yomon illatlardan biridir. Mo‘min inson bunday qusurdan uzoq yurishga, qalbini isloh qilishga harakat qiladi

Salafi solihlardan ko‘plari o‘zini g‘iybat qilgan shaxs haqida xabar eshitsa, unga hadyalar yuborar edilar.

Hasad qilish tuyg‘usi har doim gunohga tenglashadi, chunki bu buzg‘unchi tabiatga ega. Qalbingizdagi hasad bilan uni o‘rnini egallovchi havas hissining tezlik bilan rivojlanishini o‘rganilishi kerak. Avvalo bu tuyg‘u sabablarini topishingiz kerak. Ko‘pincha, hasadning sababi - bu yutqazish qo‘rquv hissi, har kimdan yomonroqdir. Ammo qo‘rquv noldan chiqmaydi. Odam o‘zini yoqtirmasa, o‘zining barcha mohiyatini barcha afzalliklari va kamchiliklari bilan qabul qilmasa, u atrofida bo‘lgan kishilardan noloyiq deb hisoblaydigan narsalarni yashirishga harakat qiladi. Komplekslar atrof muhitdagi odamlarning idealizatsiyasi natijasida paydo bo‘ladi. Natijada, inson o‘z hayotini eng yaxshi narsalarga ega bo‘lish, yaxshiroq bo‘lish, yaxshiroq yashash istagiga bag‘ishlaydi. Bularning hammasini har qanday inson taqqoslash bilan bajaradi va bularning faoliyatidan qoniqish his qila olmaydi. Yaxshi va yomon hasad qilish tushunchalari shartli bo‘lib, farq faqat boshqalarga zarar keltirishi mumkinmi? Lekin hasadgo‘y kishi uchun qanday hasadning unga zarar etkazishi muhim emas. Bunday holda, qora hasadga qarshi eng yaxshi himoya qilish, o‘zingizni qabul qilishdir. Yomonliklarni o‘zingizning eskizlaringiz bilan birga qabul qiling, o‘zingiz istagan darajada ideal emasligini tan olishdan qo‘rqmang. Biror kishi o‘zining mohiyatini qabul qilgandan so‘ng, unga ta'sir qilishdan qo‘rqib qoladi, kimdirdan yaxshiroq bo‘lish istagini qoldiradi. Biror kishi o‘zini yaxshi ko‘rsa, u hech qanday boylik uchun o‘z shaxsiyligining bir qismini almashtirishni xohlamaydi va kimdir yaxshiroq bo‘lganini aks

ettirmasdan o‘zini o‘zi tashlamaydi. Aksincha, do‘stlaringiz va qarindoshlaringizning har qanday muvaffaqiyati samimiy quvonchni keltirib, odamni baxtli qilishi mumkin bo‘ladi.

**Yakuniy qism**. Menimcha, hamma hasadning "oq" va "qora" ga bo‘linishini eshitgan. Menimcha, bu hissiyotlarning kuchi haqida emas, balki ular bilan konstruktiv yoki halokatli kurashish qobiliyati haqida. "Qora" hasad-bu biz hasad qiladigan odamga yoki o‘zimizga qaratilgan buzg‘unchi reaktsiyalar haqidagi hikoya ("men yutqazdim" uslubidagi o‘zini o‘zi tanqid qilish). "Oq" - shunga ko‘ra, konstruktiv. Bu hasad tuyg‘usidan biz yiqilmaymiz, aksincha, maqsadlarimizga erishish yo‘lida o‘zimizni undan uzoqlashtiramiz. Agar shunday bo‘lsa, hasad bizga qadriyatlarimizni tan olishga yordam beradi. Agar siz muvaffaqiyatning bir turiga doimiy ravishda hasad qilsangiz, lekin bu sizning qadringiz bo‘lmasa, unda qanday hasad borligini o‘rganish yaxshi mavzu. Va oqlanganmi. Misol uchun, odam mashhur odamlarga hasad qiladi, lekin mashhur bo‘lish uning qiymati emas. Biz buning ortida nima borligini tekshirganimizda, "mashhur = sevilgan" kognitiv buzilish odamda ishlaydi va "sevilish" inson uchun qadrli bo‘ladi. Va keyin biz hasad emas, balki sevish kerakligi mavzusi bilan ishlaymiz.

Men har doim ham boshqasining muvaffaqiyati bizga o‘xshab ko‘rinmasligiga e'tibor berishni muhim deb hisoblayman. Biz yana lug‘atga qaraymiz: muvaffaqiyat - bu belgilangan maqsadning eng yuqori yutug‘i, faoliyat natijasi. Biz boshqasining "muvaffaqiyatiga" hasad qilganimizda, tekshirish yaxshi bo‘lardi: bu haqiqatan ham muvaffaqiyatmi yoki bu shunchaki chiroyli rasmmi? Bu odam haqiqatan ham o‘sha maqsadga intilganmi yoki u shu bilan tug‘ilganmi? Yoki bu boshqa maqsadlarga erishishning "tarafi"? Bu muvaffaqiyat unga nima qildi? Bunga kim yoki nima hissa qo‘shdi? Masalan, ilgari ortiqcha vaznga ega bo‘lgan odamda vazn yo‘qotishga hasad. Bunga hasad qilishdan oldin, oldingi va keyingi fotosuratlarni taqqoslab, quyidagi fikrlarni aniqlang: bu odamning maqsadi ozish edi va u bunga qanday erishgan? Va qanday qilib u o‘z yutug‘ini saqlab qolishni rejalashtirmoqda? Ma'lum bo‘lishicha, odam og‘ir kasal, yoki tom ma'noda zalda "o‘ldirilgan" yoki muntazam ravishda o‘zini tozalovchi ho‘qna qilib qo‘yadi. Bu hayotingizda takrorlamoqchi bo‘lgan narsaga o‘xshaydimi? Agar siz boshqasining maqsadi va yo‘lini bilsangiz, maqsadlaringizni, kelib chiqishingizni va shu natijaga erishmoqchi bo‘lgan yo‘llaringizni tekshiring. Endi his-tuyg‘ularingizni yana bir bor tekshiring. Ehtimol, hasadning izi yo‘q edi yoki uning o‘rnini mutlaqo boshqa tuyg‘ular egalladi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. KarimovI.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. 1997.
2. Shoumarov G‘.B. “Oila psixologiyasi”– T.: O‘quv qo‘llanma. Sharq nashriyoti, 2010.
3. V.M.Karimova , “Oila psixologiyasi” Darslik – T.: 2007.
4. G‘oziyevE.G‘.Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi) . T. ,O‘qituvchi, 1994.
5. Davletshin M.G.,Do‘stmuxamedova Sh.A., To‘ychiyeva
S.M., Mavlonov M. ―Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.

## INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARI XODIMLARI O‘RTASIDA JAMOANI BOSHQARISH KO‘NIKMALARINI VA HAMJIHATLIKNI OSHIRISH

**Doniyorbek Gofurov**
GulDPI, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”
kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
g-mail: doniyor5093454@gmail.com

**Annotatsiya:** Tezisda oliy ta’lim muassasalari oldida nafaqat yuqori malakali o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlar, balki xodimlarni samarali boshqarishni ham talab qiluvchi yangi vazifalar tuganligi, bunday sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashish uchun xodimlarni boshqarishda innovatsion yondashuvlar va birdamlikning zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ta'lim va fan bilan shug‘ullanadigan tashkilotlarda zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish faoliyat samaradorligini oshirishi, ichki kommunikatsiyalarni yaxshilashi, korporativ madaniyatni mustahkamlashga ham yordam berishi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xodimlarini boshqarish, xodimlarini birlashtirish, stress va charchash, yetakchilik va motivatsiya, muloqot, jamoani qurish, jamoani shakllantirish.

**Abstract:** This thesistypes rapidly changing world, higher education institutions face new tasks that require not only highly qualified teachers and administrative staff, but also effective staff management. In order to successfully adapt to changing conditions, innovative approaches and solidarity are needed in the management of personnel. The use of modern management technologies not only improves efficiency and improves internal communications, but also helps strengthen corporate culture, which is especially important for organizations involved in education and science.

**Key words:** managing employees, uniting employees, stress and burnout, leadership and motivation, communication, team building, team building.

Ushbu maqolada Oliy o‘quv yurtlarida jamoa boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari. Oliy o‘quv yurtlari (OTM) turli toifadagi ishchilarni: o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, ma’muriy xodimlar va texnik mutaxassislarni birlashtirgan murakkab tuzilmalardir. Bu guruhlar turli xil boshqaruv yondashuvlarini talab qiladigan turli vazifalar, mas'uliyat darajalari va kasbiy vakolatlarga ega. Bundan tashqari, universitetlar xodimlar, ayniqsa o‘qituvchilar va tadqiqotchilar o‘rtasida yuqori darajadagi avtonomiya bilan ajralib turadi, bu jamoani shakllantirish va umumiy sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish jarayonini murakkablashtirishi mumkin.

**Jamoani boshqarish va xodimlarning hamjihatligiga innovatsion yondashuvlar**

| **Oliy o‘quv yurtlari xodimlarini boshqarish va birlashtirish muammolari** | | |
|---|---|---|
| **1.** | **Xodimlarning ishdan bo‘shatilishi** | Alohida guruhlarning vazifalari va maqsadlaridagi farqlar jamoada tarqoqlikka olib kelishi mumkin. O‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va ma'muriy xodimlar ko‘pincha bir-biridan ajratilgan holda ishlaydi, bu ularning o‘zaro aloqalarini qiyinlashtiradi. |
| **2.** | **Muloqot muammolari** | Samarali ichki aloqa kanallarining yo‘qligi ma'lumotlar bo‘shliqlariga, turli bo‘limlar o‘rtasida tushunmovchiliklarga va ta'lim muassasasining rivojlanish jarayonidagi umumiy ishtirok darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. |
| **3.** | **Ishtirok etishning past darajasi** | Byurokratizatsiya va katta hajmdagi ma'muriy vazifalar sharoitida xodimlar motivatsiyaning pasayishi va umumiy jarayonda ishtirok etishlari mumkin. Bu ish unumdorligining pasayishiga va xodimlar almashinuvining oshishiga olib kelishi mumkin. |
| **4.** | **Stress va charchash** | Yuqori ish yuki va natijalarga erishish uchun doimiy bosim (ayniqsa tadqiqot va o‘qitishda) stress va charchashga olib kelishi mumkin. Bu jamoadagi muhitni yomonlashtiradi va umumiy samaradorlikni pasaytiradi. |

Yuqoridagi muammolar kontekstida jamoani boshqarishga innovatsion yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Yangi boshqaruv amaliyotlari, texnologiyalari va usullarini joriy etish nafaqat dolzarb muammolarni hal qilishga, balki jamoaviy ongni rivojlantirishga, hamkorlik va o‘zaro yordamni rag‘batlantirishga yordam beradi.

**1. Muloqotni yaxshilash uchun texnologiyadan foydalanish.** Jamoa boshqaruvini takomillashtirishning asosiy vositalaridan biri raqamli platformalar va aloqalarni boshqarish vositalarini joriy etishdir. Zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

- Ichki muloqotni yanada shaffof va samarali tashkil etish;
- Dars rejalari, jadvallar, tadqiqot hisobotlari kabi muhim ma'lumotlarga kirishni osonlashtiring;
- Turli bo‘limlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa darajasini oshirish.

**Misol:** Microsoft kabi hamkorlik platformalarini amalga oshirish Teams , Slack yoki shunga o‘xshash echimlar, ayniqsa, masofaviy ish muhitida xodimlarning hamkorligini yaxshilashi mumkin.

**2. Xodimlarni boshqarishning moslashuvchan usullari.** Boshqaruvning moslashuvchanligi beqarorlik va o‘zgarishlar sharoitida muhim element hisob-lanadi. **Agile menejment** (Agile) kabi zamonaviy yondashuvlar universitetlarga tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishga yordam beradi, shuningdek, resurslar va xodimlarni yanada samarali taqsimlashni ta'minlaydi.

- **Scrum va Agile** yondashuvlari yangi ta'lim dasturlari va tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish uchun ta'lim muassasalarida ishlashga moslashtirilishi mumkin.
- Boshqaruvdagi moslashuvchanlik xodimlarga muammolarni hal qilish va vaqtni boshqarishda ko‘proq erkinlik berish orqali stress darajasini kamaytirishi mumkin.

**3. Yetakchilik va motivatsiya.** Jamoani muvaffaqiyatli boshqarish uchun barcha darajadagi menejerlar orasida etakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak. Etakchilikka zamonaviy yondashuvlar quyidagilarga qaratilgan:

- **Hissiy intellekt**: O‘zining va hamkasblarining his-tuyg‘ularini tushunish va boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.
- Ahbarlarga jamoada yanada qulay muhit yaratishga yordam beradi.
- **Xizmatkor etakchilik**: Ushbu etakchilik modeli jamoaning farovonligi va rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilish muhimligini ta'kidlaydi, bu ayniqsa o‘qituvchilar va tadqiqotchilar uchun muhimdir.
- **Tan olish orqali motivatsiya**: Xodimlarni rag‘batlantirishning innovatsion yondashuvlari nomoddiy tan olish tizimlarini (masalan, muvaffaqiyatlarning jamoatchilik tomonidan tan olinishi, individual rivojlanish dasturlari) joriy etishni o‘z ichiga oladi, bu ishtirok etish va ishdan qoniqishni oshirishi mumkin.

**4. Jamoa qurish va jamoani shakllantirish.** Yaxlit jamoani shakllantirish har qanday tashkilot uchun muhim vazifadir, ammo universitetlarda turli kasbiy guruhlar va ularning manfaatlari tufayli bu ayniqsa qiyin bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, innovatsion jamoa qurish usullari jamoaviy ruhni shakllantirishga yordam beradi:

- **O‘zaro funktsional loyihalarni tashkil etish**: professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va ma'muriy xodimlar o‘rtasidagi hamkorlikdagi loyihalar mustahkam aloqalar va yaxshiroq tushunishga yordam beradi.
- **Onlayn va oflayn tadbirlar**: Madaniy va sport tadbirlarini, konferentsiyalarni, professional uchrashuvlarni tashkil etish, ayniqsa, o‘zaro aloqaning raqamli shakllariga o‘tish sharoitida birlashishning muhim elementidir.

**5. Korporativ madaniyatni rivojlantirish.** Jamoani boshqarishga innovat- sion yondashuvni korporativ madaniyatni rivojlantirmasdan amalga oshirish mumkin emas, bu ta'lim muassasasining missiyasi va qadriyatlari haqida umumiy nuqtai nazarni shakllantirishga yordam beradi. Buni amalga oshirish uchun sizga kerak:

- Ta'lim muassasasining qadriyatlari va missiyasini muhokama qilishga qaratilgan tadbirlarni muntazam ravishda o‘tkazish;
- Mentorlik va malaka oshirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash;
- Har bir xodim o‘z takliflarini bildirishi va qaror qabul qilishda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan ochiq muloqot madaniyatini yarating.

Jamoani boshqarish ko‘nikmalarini oshirish va oliy ta’lim muassasalari xodimlarining hamjihatligi boshqaruvda moslashuvchanlikka, yetakchilik va motivatsiyani rivojlantirishga, muloqotni yaxshilashga va xodimlarning turli guruhlari o‘rtasida yaqin hamkorlik qilish uchun sharoit yaratishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Raqamli texnologiyalar, moslashuvchan boshqaruv modellari va korporativ madaniyatni rivojlantirish usullaridan foydalanish universitet samaradorligini oshirishga va jamoadagi muhitni yaxshilashga

yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasasining asosiy vazifasi bo‘lgan o‘quv jarayoni va ilmiy faoliyat sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. -T.: Voris Nashriyot, 2006.
2. G‘ulomov S.S. Menejment asoslari. - T.: O‘qituvchi, 2002.
3. Kenjaboyev A.E., Karimova B.X. Pedagogik menejment asoslari. O‘quv qo‘llanma. Termiz – 2023-yil.
4. Improvement of team management and cohesiveness skills among employees of higher education institutions based on innovative approaches. Doniyor G‘ofurov.

## АРТ ПЕДАГОГИКА ЁНДОШУВ АСОСИДА ТАЛАБА ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШНИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Нурбоева Шоҳсанам Шамсиддин қизи**
Гулистон давлат педагогика институти ўқитувчиси
e-mail: nurboyevashohsanam9@gmail.com

**Аннотация.**Ушбу мақолада арт педагогикаси ёндошуви асосида талабаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинади. Мақсад — арт педагогикасининг таълим тизимидаги аҳамияти, унинг ватанпарварлик тарбиясига таъсири ва талабаларни миллий қадриятлар руҳида тарбиялашдаги ўрнини аниқлаш. Мақолада арт педагогикасининг тарбия воситаси сифатидаги ўрни, унинг психологик ва педагогик асослари, ҳамда ёшларнинг ватанпарварлик ҳисси ва миллий қадриятларга бўлган муносабатини шакллантиришдаги самараси ўрганилади.

**Калит сўзлар:**арт педагогика, ватанпарварлик, тарбия, ёшлар, психологик хусусиятлар, таълим, миллий қадриятлар, педагогика.

**Annotation.**This article analyzes the distinctive features of educating students in the spirit of patriotism through the approach of art pedagogy. The goal is to identify the significance of art pedagogy in the education system, its impact on patriotism education, and its role in nurturing students in the spirit of national values. The article examines the role of art pedagogy as an educational tool, its psychological and pedagogical foundations, and its effectiveness in shaping the sense of patriotism and the relationship with national values in young people.

**Keywords:** art pedagogy, patriotism, education, youth, psychological characteristics, teaching, national values, pedagogy.

Ҳозирги замонда таълимнинг фақат академик натижаларга эришиш билан чегараланмаслиги, балки ёшларда соғлом ижтимоий-ахлоқий қадриятларни шакллантириш, уларни умуминсоний қадриятларга риоя қилиш, шунингдек, миллий ва ватанпарварлик ҳиссини тарбиялаш муҳим аҳамиятга эга. Бу борада арт педагогикаси ёндошуви махсус ўрин тутади. Арт педагогикасининг тарбиялаш усуллари, талабаларнинг эго-ҳислари ва ички дунёсига таъсир қилиб, уларни Ватанга бўлган муҳаббат, миллий қадриятлар ва ижтимоий масъулиятга даъват қилиш учун қулай воситадир.

Мақсадимиз арт педагогикасининг ватанпарварлик тарбиясига таъсирини, унинг талабалардаги индивидуал ва ижтимоий ривожланишга бўлган таъсирини ўрганиш, шунингдек, арт педагогикасининг ўзига хос хусусиятлари ва унинг замонавий таълим тизимидаги ўрнини аниқлашдан иборатдир.

Арт педагогикасининг ватанпарварлик тарбиясига таъсири ҳақидаги тадқиқотлар замонавий педагогикада аҳамиятли ўрин тутади. Арт педагогикаси ва ватанпарварлик тарбиясини ўзаро боғлашга қаратилган ишлар асосан эстетик ва ахлоқий ривожланишга алоҳида эътибор қаратишига йўналтирилган.

Педагогика ва психология соҳасидаги тадқиқотлар арт педагогикасининг ижтимоий масъулият, ахлоқий қадриятлар ва миллий ҳис-туюғуларни шакллантиришда муҳим восита эканлигини кўрсатади. А.Х. Ибрагимова (2019) ўз ишларида санъат ва таълимнинг ўзаро интеграциясининг ёшларнинг ички дунёси ва муҳаббат ҳиссини шакллантиришдаги аҳамиятига алоҳида эътибор қаратган. Шунга ўхшаш, С.Р. Баранов (2017) арт педагогикасининг ижтимоий-ахлоқий тарбияни шакллантиришдаги ролига оид тадқиқотлар олиб борган.

Психологик адабиётларда, санъат шаклларидан фойдаланиш ёшлар ва талабаларда миллий ғурур ва ватанпарварлик ҳиссини шакллантиришдаги муҳим восита сифатида кўрсатилган. Бунинг натижасида, талабаларнинг ижтимоий ва ахлоқий ривожланишида катта ютуқларга эришилгани таъкидланади.

Тадқиқотда асосан илмий-амалий тадқиқот усуллари қўлланилган. Бу, аввало, арт педагогикасининг ватанпарварлик тарбиясидан фойдаланиш усулларини, психологик таъсирини ва ижтимоий ахлоқий аҳамиятини таҳлил қилишга қаратилган. Тадқиқот усуллари қуйидагилардан иборат:

Таълим методларини таҳлил қилиш: Арт педагогикасининг асосий принциплари ва унинг ватанпарварлик тарбиясига таъсирини аниқлаш.

Экспериментал тадқиқот: Талабаларнинг арт педагогикасини амалга ошириш натижаларини кузатиш.

Сўров ва интервьюлар: Талабалар ва педагоглар билан интервьюлар ўтказиш орқали уларнинг арт педагогикаси ҳақидаги фикрларини ўрганиш.

Тадқиқотнинг мақсади талабаларнинг ички дунёсига таъсир қилиш, уларнинг миллий ва ватанпарварлик ҳиссини шакллантиришнинг самарадорлигини аниқлашдан иборат бўлган.

Тадқиқот натижалари талабалар ўртасида арт педагогикасининг ватанпарварлик руҳида тарбиялашда муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатди. Арт педагогикасининг таъсири билан талабалар ўз Ватанига бўлган муҳаббатини, миллий қадриятларга бўлган муносабатини қайта кўриб чиқишга, уларнинг маънавий ривожланишида ижобий ўзгаришларга эришишга қодир бўлишди.

Эксперимент натижалари кўрсатганидек, санъат воситалари орқали ташкил этилган машғулотлар талабаларнинг ватанпарварлик ҳиссини кучайтиришда самарали бўлган. Арт педагогикасининг муҳим хусусияти шундаки, у талабаларни на фақат билим, балки ҳис-туйғулар ва ижтимоий бағрикенгликка ҳам тарбиялайди. Ушбу восита, шунингдек, талабаларда жамоавий ишлаш, ижтимоий масъулият, миллий дунёқараш ва ахлоқий қадриятларга эҳтиромни шакллантиришда катта аҳамият касб этади.

**Хулоса ва таклифлар.** Тадқиқот натижалари арт педагогикасининг ватанпарварлик тарбиясини шакллантиришда муҳим роль ўйнаганлигини кўрсатди. Арт педагогикасини тарбиялаш воситаси сифатида жорий қилиш, ёшларнинг маънавий, ижтимоий ва ахлоқий жиҳатдан ривожланишини таъминлашга ёрдам бериши мумкин. Бунинг учун, таълим тизимида арт педагогикасини самарали жорий қилиш учун бир қатор таклифлар илгари сурилади:

Арт педагогикасини таълим жараёнига самарали интеграция қилиш учун махсус тренинглар ва семинарлар ташкил этиш.

Санъатнинг таълимдаги ўрнини ошириш ва унинг ватанпарварлик тарбиясига таъсирини кенгайтириш.

Ватанпарварлик тарбиясини шакллантиришда педагогик ва психологик усулларни жорий қилиш.

Шу билан бирга, санъатни таълим жараёнига интеграциялаш орқали талабаларнинг ижтимоий фаоллиги ва умуминсоний қадриятларга бўлган муносабатини ривожлантиришда янги имкониятлар яратилди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ибрагимова А.Х. (2019). Арт педагогикасининг ёшларнинг миллий қадриятларга муносабатини шакллантиришдаги ўрни. Тошкент: Ўзбекистон давлат педагогика университети.
2. Баранов С.Р. (2017). Педагогика ва санъат: ёшларни тарбиялашдаги роль. Москва: Педагогика.
3. Валиуллин Р.Ф. (2020). Ватанпарварлик тарбияси ва санъат // Олий таълим. — №2.
4. Алимов А.С. (2021). Ёшлар психологиясининг асослари. Тошкент: Маориф.
5. Низомова М.Ж. (2018). Психологик таълим: миллий қадриятлар ва этник шахс. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт.

## KATTALARGA TA’LIM BERISHNING MUHIM XUSUSIYATLARI

**Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi**
Pedagogika va psixologiya kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi.
**Yo‘ldosheva Marjona**
GulDPI Geografiya Iqtisod 31-23 guruh talabasi.
muxamadiyevagulnoza4@gmail.com

**Annotatsiya**. Ushbu tezisda kattalarga ta’lim berishning muhim xususiyatlari, kattalarga ta'lim berish bolalarga ta'limdan farqi, o‘rganish uslublari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Kattalar ta’limi, motivatsiya, pedagogika, psixologiya, ta’lim texnologiyalari.

**Abstract.** This article talks about the important features of teaching adults, the difference between teaching adults and teaching children, and learning styles.

**Key words:** Adult education, motivation, pedagogy, psychology, educational technologies.

Kattalar ta’limi deganda rasmiy va norasmiy ta’lim jarayonlarining butun majmui tushuniladi. Uning yordamida jamiyat hayotining ijtimoiy, ishlab chiqarish, oilaviy-maishiy qatlamlaridagi o‘quv faoliyatini amaliy ishtirok bilan birga yoki galma-gal olib boruvchi kishilar:

- o‘z qobiliyatlarini rivojlantiradilar;
- bilimlari, ko‘nikmalarini, shaxsiy fazilatlari va ma’naviy qadriyatlarini boyitadilar;
- yangi kasbni egallaydilar yoki malakalarini oshiradilar, yoki ularni jamiyat va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi yo‘nalishlarda qo‘llaydilar.

So‘nggi yarim asrda kattalar ta’limi umuman ta’lim sohasining rivojlanishida yetakchi rol o‘ynayapti. Uni miqdor va sifat jihatdan rivojlantirish esa butun dunyoda zamonaviy ta’limning asosiy vazifasiga aylandi.

Miqdoriy munosabatda jahonning rivojlangan mamlakatlarida kattalar ta’limi katta yoshdagi aholining 20-80 % ni qamrab oladi. So‘nggi yillarda kattalar ta’limi jamiyatning marginal ijtimoiy guruhi vakillari (ijtimoiy zaif qatlamlar: nafaqaxo‘rlar, ishsizlar, ayollar, nogironlar va b.)ning o‘qishi uchun keng imkoniyatlar yaratayotgani sababli katta yoshda ta’lim oluvchilar soni ortib bormoqda.

Sifat darajasida kattalar ta’limi sohasida ta’limning asosiy konsepsiyalari va turlari shakllanyapti, rivojlanyapti va amalga oshyapti. Bular uzluksiz, erkin (yoki „ochiq”), masofaviy (distansion), shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va b. Kattalar ta’limida ta’limni tashkil etishning turli shakl va metodlari keng qo‘llanyapti. Masalan, davom ettirilgan ta’lim, qayta tiklangan ta’lim, o‘qitishning aralash kurslari, dam olish kunlari o‘qish kurslari va sh.k.

Katta yoshdagi kishilarning turli ehtiyojlarini qondiruvchi fuqarolik, ekologik ta’lim kabi yangi mazmunli dasturlar yaratilyapti va muvaffaqiyatli amalga oshirilyapti.Andragogika” tushunchasi 1833 yilda ilmiy adabiyotlarda ko‘zga tashlana boshladi. Birinchi bo‘lib nemis pedagog tarixchisi A.Kapp tomonidan qo‘llanilgan.“Andagogika” grek tilida “andros” – erkak yoki kishi, “agogeyn” -yetaklash ma’nosini bildirgan. Agar so‘zma so‘z tarjima qilinsa, andragogika – “kattalarni yetaklash” ma’nosini bildiradi.

***Andragog*** – bu kattalarni o‘qitish bilan shug‘ullanadigan inson. Katta yoshdagi kishining uzoq hayotiy yo‘lida uning bolaligi va yoshligida egallagan bilim, malaka, ko‘nikma va sifatlari yetarli emas, shuning uchun unga butun umr davomida o‘qish zarur. Lekin inson o‘z hayoti davrida o‘zgaradi, demak u turli yosh davrida turlicha o‘qiydi. Insonning asrlar davomidagi ijtimoiy, ishlab chiqarish, maishiy sohalaridagi turmush tarzi undan butun umr davomida o‘zini o‘qitishga xarakat qilishni talab etmagan. Shuning uchun kattalar ta’limi uzoq vaqt davomida keng rivojlanmagan, demak kattalarni o‘qitish to‘g‘risidagi fanning rivojlanishi uchun jamiyatda kuchli ehtiyoj ham mavjud bo‘lmagan.

Kattalarga ta'lim berishning muhim xususiyatlari quyidagilar:

1. Motivatsiya:

* Ichki Motivatsiya: Kattalar ko‘pincha o‘zlarining shaxsiy ehtiyojlari va maqsadlariga mos keladigan narsalarni o‘rganishga motivlangan bo‘ladilar.

* Amalga Oshirish: Kattalar o‘rganayotgan ma'lumotlarni o‘zlarining hayoti va ish joylarida qanday qo‘llashni bilishni xohlashadi.

* Tanlash Erkligi: Kattalar o‘zlarining o‘rganish yo‘llarini tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishni xohlashadi.

2. Tajriba:

* Oldingi Tajriba: Kattalar bolalarga nisbatan anchagina tajriba to‘plagan bo‘ladilar. Ular o‘zlarining o‘rganish jarayoniga o‘zlarining tajribalarini qo‘shishni xohlashadi.

* Ahamiyatlilik: Kattalar o‘rganayotgan ma'lumotlar o‘zlarining oldingi tajribalariga ahamiyatli bo‘lishi kerak.

3. O‘rganish Uslubi:

* Amaliy Yondashuv: Kattalar ko‘pincha nazariy ma'lumotlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra, amaliy mashqlar va muammolarni hal qilishni afzal ko‘radilar.

* Mustaqillik: Kattalar o‘zlarining o‘rganish jarayonini boshqarishni va mustaqil ravishda o‘rganishni xohlashadi.

* Tezlik: Kattalar ma'lumotlarni tezda o‘zlashtirishni xohlashadi.

4. O‘qituvchi Roli:

* Yo‘l Ko‘rsatuvchi: O‘qituvchi faqatgina ma'lumot manbayi bo‘lib qolmasdan, o‘rganuvchilarni qo‘llab-quvvatlaydigan, yo‘l ko‘rsatuvchi va mentor bo‘lishi kerak.

* Muloqot: O‘qituvchi o‘rganuvchilar bilan ochiq muloqot qilishi, ularning fikrlarini va tajribalarini hurmat qilishi kerak.

Kattalarga ta'lim berishning muhim xususiyatlarini hisobga olish:

* Motivatsion muhit yaratish: Kattalarni o‘rganishga rag‘batlantirish uchun ularning shaxsiy ehtiyojlari va maqsadlariga mos keladigan ta'lim dasturlari va materiallarni yaratish.

* Tajribadan foydalanish: Kattalarga o‘zlarining tajribalarini baham ko‘rishga imkon berish va ularning oldingi bilimlarini o‘rganish jarayoniga qo‘shish.

* Amaliy yondashuv: Kattalarga o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyatini berish uchun amaliy mashqlar, loyihalar va muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olgan ta'lim uslublarini qo‘llash.

* Mustaqillikni rag‘batlantirish: Kattalarga o‘zlarining o‘rganish jarayonini boshqarishga imkon berish, o‘zlarining o‘rganish yo‘llarini tanlash va mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash.

Kattalarga ta'lim berishda bu muhim xususiyatlarni hisobga olish orqali o‘qituvchilar samarali ta'lim jarayonini tashkil qilishlari va o‘rganuvchilarning o‘zlarining shaxsiy va professional rivojlanishiga yordam berishlari mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Биленко П.Н., Блинов В.И., Дулинов М.В., Есенина Е.Ю., Кондаков А.М., Сергеев И.С. Дидактическая концепция сифрового профессионального образования и обучения. - М.: Перо, 2020. – 98 с.

2. Василкова Т.А. Основы андрагогики: учебное пособие /Т.А. Василкова. - М.: КНОРУС, 2011– 256 с.

3. Xakimjonova H.X. Kattalarni o‘qitish metodikasi (uslubiy qo‘llanma). –Toshkent, 2019. – 30 b.
4. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Samarqand. –2009. – 220 b.
5. Xakimova M.F., Nurumbekova Ya.A., Xidirova M.Q. Umumiy pedagogika va psixologiya. –Toshkent, 2023. – 483 b.

## FUTBOL SPORT TURI BO‘YICHA MUSOBAQALAR O‘TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH KOMPETENTSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Izzatullayev Sunnatulla Shermuxammad o‘g‘li**
Guliston davlat universiteti Sport turlarini o‘qitish uslubiyati o‘qituvchisi
**e-mail:** sunnatullaizzatullayev@gmail.com

**Annotatsiya.** Ush bu maqolada talabalarda futbol sport turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish va hakamlik qilish kompetentsiyalarini takomillashtirish jismoniy tarbiya darslarini futbol mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilishning dasturlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirish haqida kengaytirilgan ma’lumotlar berib o‘tilgan. Futbol sport turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish usullari haqida hamda nizomini tuzish hakamlaring vazifalari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit sozi.** Futbol, sport, musobaqa, usullar, nizom, hakam, musobaqalar o‘tkazish, mashg‘ulot.

**Annotation.** In this article, detailed information is given on the improvement of the competences of conducting football competitions and refereeing among students based on the development of programs for the effective organization of football training in physical education classes. Information is given about the methods of conducting football competitions and the duties of referees in drawing up the regulations.

**Key word.** Football, sport, competition, methods, regulations, referee, conducting competitions, training.

Globallashib borayotgan hozirgi davrda sport davlatlarning rivojlanishi va xalqaro miqyosda milliy nufuzini oshirishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Jismoniy madaniyat kishilar salomatligida muhim o‘rin tutib, ishlab chiqarish va mehnat unumdorligini ta’minlaydi. Jahonda yuz berayotgan madaniy o‘zgarishlar, sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari sportning o‘sishini ta’minlovchi faktorlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ko‘pgina rivojlangan davlatlar jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish yuzasidan o‘zlarining strategiyalarini ishlab chiqmoqda. Ayniqsa, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi va xalqaro sport tashkiloti (FIFA) tomonidan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda sportni rivojlantirish yuzasidan izchil tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, aholi salomatligini muhofaza qilishda jismoniy tarbiyaning rolini oshirish, sport turlari bo‘yicha musobaqa o‘tkazish va hakamlik qilish kompetensiyalarini rivojlantirish, sport o‘yinlari metodikasini standartlash, tizimli sport musobaqalarini tashkil etish kabilar shular jumlasidandir.[3]

**Tadqiqot obyekti va qo‘laniladigan metodlar.** Tadqiqotning obyekti sifatida gimnastika sport turi bo‘yicha talabalarda sport musobaqalari o‘tkazish va hakamlik qilish kompetentsiyalarini rivojlantirish jarayoni. Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, so‘rov, suhbat, anketa, test, intervyu, usullaridan foydalanildi.

**Olinadigan natijalar va ularning taxlili.** Sovrinli o‘rinlar, shuningdek, musobaqada qatnashuvchi jamoalar yoki jismoniy tarbiya jamoalari (natijalar klublar bo‘yicha hisobga olinganda) egallaydigan barcha keyingi o‘rinlar aniqlanadigan biron-bir rasmiy musobaqa o‘tkazishdan avval, musobaqa haqidagi nizom tuzilgan bo‘lishi kerak. Bu nizom futbol federatsiya yoki musobaqani o‘tkazuvchi boshqa biror tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.[1]

Musobaqa nizomi katta yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjatdir. Unda asosiy tashkiliy va texnik shart-sharoitlar aniq bayon qilingan bo‘ladi.

Nizom o‘quv-mashg‘ulot ishlarining mazmunini belgilab beradi, chunki jamoalarning tashkiliy-uslubiy tayyorgarligi bo‘lajak musobaqalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda

o‘tkaziladi. Musobaqada qatnashuvchi jamoalarning tayyorgarlik ko‘rish uchun yetarli vaqtga ega bo‘lishlari nazarda tutilib, nizom oldindan tasdiqlanishi va tarqatilishi kerak. Musobaqani o‘tkazish davrida tasdiqlangan nizomdan chetga chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi, aks holda mazkur musobaqani o‘tkazayotgan tashkilotning obro‘yiga putur yetadi va keraksiz nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi, holos.

Musobaqa nizomida quyidagi masalalar aks ettirilgan bo‘lishi kerak:

1. O‘tkazilayotgan musobaqaning maqsadi va vazifalari.
2. Musobaqani kim o‘tkazishi (federatsiya, tashkiliy komitet va hokazolar).
3. Musobaqa o‘tkazish muddatlari va shartlari.
4. Musobaqaga qo‘yiladigan jamoalar soni va nomi, talabnomaga kiritiladigan qatnashchilarning maksimal miqdori.
5. Musobaqa o‘tkaziladigan o‘yin tizimi (davralari — bir yoki ikki davrali, mag‘lubiyatdan keyin o‘yindan chiqib ketiladigan, aralash tizim).
6. Hisobga olish tizimi va jamoalarning hamda jismoniy tarbiya jamoalarining (natijalar klublar bo‘yicha hisoblanganda) egallagan o‘rinlarini aniqlash tartibi.
7. Musobaqalarning alohida shartlari (qanday hollarda o‘yinda qo‘shimcha vaqt belgbilanishi va uning davomiyligi, o‘yin durrang bilan tugallanganda yoki o‘tkazilgan musobaqa natijasida ochkolar soni teng bo‘lganda. G‘olibni aniqlash usullari, o‘yin qoidalarida ko‘rsatilgandan tashqari nechta o‘yinchi almashtirish mumkinligi va hokazolar).
8. Jamoalarni va musobaqa qatnashchilarini rasmiylashtirish tartibi, shakli, o‘yinchilarga talabnomalar berish va qayta talabnoma berish muddati.
9. Musobaqalarni olib boradigan hakamlar jamoasining nomi.
10. O‘tkazilgan o‘yinga norozilik bildirish va uni ko‘rib chiqish, shuningdek, o‘yinchilarni maydondan chiqarib yuborish yoki ularni ogohlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan intizom masalalarini qarab chiqish tartibi.
11. O‘yinchilar intizomni buzganligi uchun jamoalarning javobgarligi hamda stadion va klublar ma’muriyatining o‘yin o‘tkazish vaqtida tartib saqlanishi uchun javobgar bo‘lishi.
12. Musobaqa o‘tkaziladigan joylar va ularga qo‘yiladigan talablar.
13. G‘oliblami mukofotlash hamda oxirgi o‘rinlarni egallagan jamoaning yoki jamoalarning keyingi xuddi shunday musobaqada qatnashish shartlari.

Davrali tizim musobaqaning davrali tizimida har bir jamoa, agar musobaqa bir davrali o‘tkazilsa, bir-biri bilan bir marta, agar musobaqa ikki davrali o‘tkazilsa, ikki marta uchrashishi kerak. Uning bunday tizim yoki adolatli musobaqalashuvchilar kuchlari nisbatini ancha oqilona belgilashga va kuchli jamoani aniqlashga imkon beradi, bunda musobaqaning umumiy yakunidagi tasodifiylik elementi ma’lum darajada bartaraf qilinadi. Bu tizim bo‘yicha musobaqalarni ikki davrali qilib o‘tkazish eng to‘g‘ri hisoblanadi. Davrali tizimda musobaqa ishtirokchilarining barcha o‘rinlari to‘plangan ochkolar soniga qarab aniqlanadi. O‘tkazilgan barcha o‘yinlar natijasida eng ko‘p ochko olgan jamoa (yoki jismoniy tarbiya kollektivi) g‘olib hisoblanadi. Bir yoki bir necha jamoalarda ochkolar teng bo‘lib qolganda, g‘olibni aniqlash uchun musobaqa tartibida qandaydir qo‘shimcha ko‘rsatkichlar yoki tadbirlar (masalan, shu jamoalar o‘rtasida qo‘shimcha o‘yin yoki shu jamoalar o‘rtasidagi avval o‘ynalgan o‘yin natijalari, yoki kiritilgan to‘plar nisbati) nazarda tutilgan bo‘lishi kerak.[3]

Davrali tizim bo‘yicha o‘ynash tartibida qur’a tashlash bilan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning nomerlari aniqlanadi. Jamoalarning aniqlangan raqamlari asosida o‘yinlar jadvali (kalendari) tuziladi. Musobaqalar bir davrali qilib o‘tkazilganda, o‘yin bir-biri bilan bellashuvchi ikki jamoadan dastlabkisining maydonida o‘tkaziladi. Agar musobaqada ikki davra nazarda tutilgan bo‘lsa, ikkinchi o‘yin keyingi jamoa maydonida o‘tkazilishi kerak. Davrali tizim bo‘yicha o‘tkaziladigan o‘yinlar kalendarini uch usul bilan tuzish mumkin. Birinchi usul. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soniga qarab, jamoalarning umumiy soniga yaqin bo‘lgan toq son olinadi va unga muvofiq ravishda vertikal chiziqlar o‘tkaziladi. Masalan, 6 ta jamoa bo‘lganda, unga (ya’ni 6 soniga) yaqin bo‘lgan toq son 5 bo‘ladi. Demak, besh vertikal chiziq o‘tkazish zarur.

Jamoalar soni 10 ta bo‘lganda, unga yaqin toq son - 9, demak, to‘qqizta vertikal chiziq chizilgan bo‘lishi kerak va xokazo.[2]

Vertikal chiziqlarning ostidan va ustidan, pastdan boshlab chapdan o‘ngga qaratib jamoalar nomeri ketma-ket tartibda birinchidan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soniga eng yaqin bo‘lgan toq songacha, orada bir chiziq qoldirib yozib chiqiladi. Bu raqamlar keyingi raqamlarni grafik tarzida yozish uchun dastlabki reja bo‘lib hisoblanadi. Birinchi kun o‘yinlar taqvimini tuzish uchun birinchi raqamdan boshlab vertikal chiziq atrofida soat strelkasiga qarshi yo‘nalishda oshib boruvchi tartibda barcha ishtirok etuvchi raqamlar yozib chiqiladi. Qolgan o‘yin kunlarining taqvimini tuzish uchun vertikal chiziqlar o‘rtasidagi barcha raqamlar, avval ularning ostiga va ustiga qo‘yilgan raqamlarni hisobga olgan holda, ilonizi qilib qo‘yib chiqiladi. Shuni ham aytish kerakki, raqamlar birin-ketin vertikal chiziqlarning o‘ng tomonidan ortib boruvchi tartibda takrorlanib yoziladi.[4]

Shundan keyin ikkinchi va qolgan taqvim kunlarida bellashuvchi jamoalami aniqlash uchun har bir vertikal chiziqning chap tomoniga avvalgi taqvim kunidagi barcha raqamlar o‘zgarishsiz o‘tkazilishi kerak.[3]

**10 jamoa uchun o‘yinlar taqvimini tuzish**

**(10 ga eng yaqin bo‘lgan kichik toq son - 9)**

| | | 6 | | | 7 | | | 8 | | | 9 | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 6 | 5 | 5 | 7 | 7 | 6 | 6 | 8 | 8 | 7 | 7 | 9 | 9 | 8 | 8 | 1 | 1 | 9 |
| 7 | 4 | 4 | 8 | 8 | 5 | 5 | 9 | 9 | 6 | 6 | 1 | 1 | 7 | 7 | 2 | 2 | 8 |
| 8 | 3 | 3 | 9 | 9 | 4 | 4 | 1 | 1 | 5 | 5 | 2 | 2 | 6 | 6 | 3 | 3 | 7 |
6. Xakimova M.F., Nurumbekova Ya.A., Xidirova M.Q. Umumiy pedagogika va psixologiya. –Toshkent, 2023. – 483 b.

7. Биленко П.Н., Блинов В.И., Дулинов М.В., Есенина Е.Ю., Кондаков А.М., Сергеев И.С. Дидактическая консепция цифрового профессионального образования и обучения. М.: Перо, 2020. – 98 с.

8. Василкова Т.А. Основы андрагогики: учебное пособие / Т.А.Василкова. - М.: КНОРУС, 2011– 256 с.

9. Вербиский А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход: Метод. пособие. - М.: Высш. шк., 1991. – 207 с.

## TA’LIMNI AXBOROTLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

**Mansurova Odinaxon Ulug‘bek qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ta’lim tizimiga axborot texnologiyalarining kirib kelishi bilan ta’lim jarayoning sifat samaradorligida salmoqli o‘zgarishlar kuzatilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohatlari jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning mavjud imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** axborot texnologiyalari, elektron axborot, mediakompetentlik, ZOOM, Google meet, Google disk, Camtasio studio.

**Annotation:** With the introduction of information technologies into the educational system, we can see significant changes in the quality and efficiency of the educational process. This article discusses the possibilities of using digital technologies in the course of educational reforms in our country.

**Keywords:** information technology, electronic information, mediacompetence, ZOOM, Google meet, Google disk, Camtasio studio.

Dunyodagi axborotlashgan jamiyat muhiti ta’lim tizimiga kuchli ta’sir etmoqda. Bugungi muntazam amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, innovatsion jarayonlarning asosiy vazifalardan biri raqamlashtirish jarayoni xususiyatlariga to‘la moslashish hisoblanadi. Xalqaro miqyosda

ijtimoiy institutlarning ta’lim tizimi boshqaruvidagi o‘zaro hamkorligini takomillashtirish dolzarbligi tobora ayon bo‘lib bormoqda. Shuning uchun ham Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini axborotlashtirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish, integrativ ta’lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Dunyoning hozirgi rivojlanish bosqichi ilmiy axborotlar hajmining mutassil o‘sib borishi bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni[1], 2012 yil 21 martdagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2013 yil 27 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorlari, [2]

Hukumatning tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlari ijrosini ta’minlash, ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va multimedia resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.[3]

Ta’lim muassasasining elektron axborot ta’lim muhitini yaratish sof texnik masala bo‘lib qolmasdan, balki buning uchun muassasaning ilmiy-metodik, tashkiliy va pedagogik imkoniyatlarini tizimli yondashuv asosida ishga solish talab etila di.

Axborot texnologiyalari mikro va makrodunyodagi, murakkab qurilmalar, biologik tizimlardagi hodisa hamda jarayonlarni kompyuter grafikasi va modellashtirishdan foydalanish asosida o‘rgatish, juda katta yoki kichik tezlikda sodir bo‘ladigan fizik, astronomik, kimyoviy, biologik jarayonlarni qulay vaqt o‘lchamida taqdim etish kabi yangi didaktik masalalarni echishga yordam beradi.

Shu bois, ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri – hodisa va jarayonlarni kompyuterda modellashtirishdir. Kompyuter modellari an’anaviy darsning tarkibiga hamohang bo‘lishi va o‘qituvchi uchun kompyuter ekranida, ko‘p effektlarni namoyish etishiga, o‘quvchilarning yangi, noan’anaviy o‘quv faoliyatini tashkil etishga katta yordam beradi. Axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlaydigan pedagog quyidagi kompetentsiyaviy talablarga javob berishi kerak:

Mediakompetentlik sifatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishligi;

Mediakompetentlik (media competence) ta’lim tizimimizdagi nisbatan yangi atama hisoblanib, u media ma’lumotlarni turli ko‘rinishda uzatish va baholash, o‘rganish, yetkaza bilish kabi ma’nolarni o‘z ichiga oladi.

Mediata’lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi. Professor A.B.Fyodorov zamonaviy olamdagi mediata’limni ommaviy axborot bilan muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida ijodiy, kommunikativ salohiyatlar, tanqidiy tafakkur, mediamatnlarni to‘laqonli idrok etish, talqin qilish, tahlil qilish va baholash mediatexnika yordamida o‘z-o‘zini ifodalashning turli shakllariga o‘qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya(media) vositalari va materiallari yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ko‘radi.

- Elektron darsliklar yarata olish va ular bilan erkin faoliyat olib borish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

- ZOOM, Google meet, Google disk, Camtasio studio kabi dasturlarda erkin ishlay olish;

- Masofaviy ta’lim platformasini kreativ yangiliklar bilan boyitib borish va boshqalar.

Dunyo miqyosida koronavirus pandemiyasi barcha sohalar singari ta’lim tizimiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Karantin qoidalari ko‘plab an’anaviy ta’lim shakllari va metodlarini samarasiz holatga solib qo‘ydi. Bu vaziyatda quyidagi muammo va kamchiliklar ko‘zga tashlandi:

- Internet aloqasi sifatining notekis taqsimlanganligi;

- AKT moslamalarining ta’lim sub’ektlari barchasida ham yetarli emasligi;

- Ta’lim sub’ektlarida media-axborot qurilmalaridan foydalanish ko‘nikmasi (mediasavodxonlik darajasi)ning pastligi;

- Masofaviy ta’lim shaklida ta’lim sub’ektlari uchun javobgarlikning to‘liq ta’minlanmaganligi kabi bar qator kamchiliklar ko‘zga tashlandi.

Ta’limni axborotlashtirish bo‘yicha kadrlar tayyorlashning umumpedagogik tamoyillarini quyidagicha keltirish mumkin:

- kasbiy yo‘nalishga nisbatan bazaviy tayyorgarlikning invariantligi, uning axborot, kommunikatsiya, umummadaniy jihatlarga yo‘naltirilganligi, axborot-lashgan jamiyat rivojlanishining hozirgi darajasiga mosligi;

- pedagog kadrlarni tayyorlashni ixtisoslashtirish, ya’ni aniq bir fan bo‘yicha axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlarini joriy etishga yo‘naltirilganlik;

- pedagog kadrlar tayyorlashning differentsiallashgani, uning shaxsiy afzalligiga, kasbiy ehtiyojiga va talabalarning xususiyatlariga yo‘naltirilganligi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohatlari jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayonida qo‘llash, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron manbalardan foydalanish shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish xamda oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonlarini axborotlashtirish tamoyillari bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish bo‘yicha sotsiologik tadqiqotlar olib bormoqda.

Xulosa sifatida OTMlarda samaradorlikni yanada oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- ta’lim sub’ektlarining mediakompetentligini uzluksiz oshirib borish mexanizmini ishlab chiqish (You tube va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda mavjud AKT turli dasturlaridan foydalanish videodarslarini o‘zbek tilida ham ko‘paytirishni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash);

- ta’lim muassasalari uchun zarur zamonaviy texnik jihozlar bilan ta’minlash jarayonini nazoratga olish va amaliy qo‘llab-quvvatlash, chekka hududlarda ham internet aloqasi va texnik jihozlar tizimli faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

- barcha ilmiy jurnallar va ishlanmalarni Veb-saytlarga muntazam joylab borish;

- elektron boshqarish tizimlarini faoliyatga keng joriy etish va qog‘ozbozliklarni, vaqtni o‘g‘irlovchi keraksiz hujjatlarni keskin kamaytirish;

- masofaviy ta’lim platformasida, shuningdek barcha ijtimoiy tarmoqlarda ham subektlarning mas’uliyatliligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
3. “O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori
4. Akbarjonovich M.A. (2023). An analytical approach to the elimination of corruption. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(4), 2045-2047.
5. Mansurov A. Development stages of migration from a historical point of view //UzMU xabarlari. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – C. 108-111.
6. Akbarjonovich M. A. et al. The Economy of the Baburian Empire. – 2023.
7. Abdulaziz M. Migratsiyani ijtimoiy zarurat sifatidagi ahamiyati //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 38-40.
8. Abdulaziz M. Migratsiya tushunchasining tahlili va uning muammoli jihatlari //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 32-34.
9. Erkinovna T.N. The influence of social communications on the formation of alienation and loneliness. – 2023.
10. Erkinovna T.N. The development of sociology and its role in the life of society //Galaxy international interdisciplinary research journal. – 2022. – т. 10. – №. 11. – с. 1320-1323.
11. Temirova N. Begonalashuv tushunchasi talqini uning sabablari va bartaraf etish zarurati //news of the nuuz. – 2024. – T. 1. – №. 1.10. – c. 162-164.

# NIKOH OLDI YETUKLIK MUNOSABATLARI VA UNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK, ETNOPSIXOLOGIK TALQINI

**Normamatova Nazira Alijon qizi**
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
naziranormamatova715@gmail.com

**Annotatsiya.** Tezisda oila munosabatlari davlat siyosati darajasidagi masala, oila jamiyatining asosiy bo‘g‘ini ekanligi, nikoh oldi yetuklik munosabatlari yoshlarning shaxsiy, ijtimoiy va etnopsixologik jihatdan tayyor bo‘lishini anglatishi, oila munosabatlarining mustahkam bo‘lish omillari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** nikoh oldi yetuklik, ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik, shaxsiy rivojlanish, oila qadriyatlari, nikoh oldi omillari.

**Abstract.** In our country, attention is paid to family relations at the level of state policy. The family is the main link of society. Premarital maturity refers to the personal, social, and ethnopsychological readiness of young people. Marriage is the strengthening of family relationships.

**Key words:** premarital maturity, socio-*psychological, ethnopsychological, personal development, family values, premarital factors.*

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o‘rni beqiyosdir. Oila poydevori yetuk mustahkam bo‘lsa, uning ustida qurilgan imorat ham ko‘rkam bo‘ladi.Nikohga yetuklik tushunchasi ham o‘z navbatida o‘ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odamlar doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi mavjudotdir.

Nikohga yetuklik deyilganda oila quruvchi yoshlarning jismoniy, jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Nikohga yetuklik jarayonida yoshlarda bir qancha o‘zgarishlar yuz berdi.

Nikohga tayyorgarlik shaxsning ma’lum ijtimoiy-psixologik xususiyatlari orqali o‘z aksini topadi.Ijtimoiy-psixologik xususiyatlar shaxsning xulq-atvori, axloqiy tarbiyasiga ta’sir ko‘rsata oladi. Nikoh oldi omillari:

1. Oilaviy hayotga yetukligi.
2. Oila qurish motivlari.
3. Nikohgacha tanishish muddati.
4. Nikoh qurish yoshi.
5. Nikoh qurish shartlari.
6. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari. [1, 97 b]

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilangan.Konstitutsiyaning oilaviy munosabatlar sohasidagi tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Ayollar va erkaklar huquqlarining tengligi
2. Nikohlangan shaxslarning teng huquqligi
3. Onalik va bolalik muhofazasi
4. Nikoh erkinligi
5. Oilani muhofaza qilish [2, 56 b]

Etnopsixologiya, shaxsning etnik madaniyatiga xos xususiyatlar va urf-odatlar ta’sirni o‘rganadi. Nikoh qurish jarayonida milliy qadriyatlarga tayangan holda nikoh quriladi.Har bir xalqning o‘ziga xos urf-odatlari bor. Nikoh jarayonidagi urf-odatlarga oilalar tanishuvi, fotiha to‘yi,to‘y oldi marosimlari, to‘ydan keyingi marosimlari kiradi. Er-xotinlarning millatiga ko‘ra, oila turlari. [4, 97 b]

Bir millatli oilalar va baynalmilal oilalarga Nikoh oldi yetuklik munosabatlari ikki yoshning shakllanishi va rivojlanishiga yordam beradi Ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan nikoh oldi

munosabatlari yoshlar orasida o‘zaro ishonch, mas’uliyat, hurmat va hissiy bog‘lanish kabi muhim omillarga asoslanadi. Oila haqida allomalarimiz ham o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan.

Abu Nasr Forobiy oilani jamiyatning bir bo‘lagi sifatida ko‘rgan va uni axloqiy-tarbiyaviy asos deb bilgan. Uning fikriga ko‘ra, inson oila muhitida shakillanadi,oila esa jamiyatning kichik modeli sifatida inson qadriyatlarini Farobiy uchun oila – insoning komillikka erishish yo‘lida muhim qadamlardan biridir.

Alisher Navoiy oilani inson hayotining bosh yutug‘i va ma’naviy saodat manbai deb hisoblagan. U o‘z asarlarida oila ahamiyati, er-xotin o‘rtasidagi hurmat, o‘zaro tushunish va sabr qanoat kabi qadriyatlarni targ‘ib qilgan.

Jaloliddin Rumiy oilani ilohiy tuyg‘ular va muhabbat makoni deb bilgan. U oila a’zolari orasidagi sevgi va muhabbatni inson ruhiy komillikka erishishidagi kuch deb biladi. Rumiy oila muhitida paydo bo‘ladigan mehr-muhabbat orqali inson o‘zining ilohiy mohiyatini kashf qilishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Konfutsiy oilani jamiyatdagi tartibi va tartiblilikning asosi deb bilgan. Uning fikricha, oila ichidagi munosabatlar, hurmat va mas’uliyat his-tuyg‘ulari jamiyatdagi ahillik va barqarorlikka asos soladi Oilaning yaxshiligi – davlatning yaxshiligidir degan qarash uning falsafasida asosiy o‘rin Nikoh oldi yetuklik munosabatlari yoshlar orasida ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar bilan murakkab tarizda bog‘liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. Toshkent, 2016
2. Shoumarov G‘.B., Haydarov I.O. Oila psixologiyasi. –T., 2018
3. Mamatqulova L. Nikoh va oila psixologiyasi. -T., 2016
4. Ergashev T. Etnopsixologiya asoslari. –Toshkent, 2019
5. Bekmurodova S. Oila psixologiyasi. –T., 2016

## O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA FASILITATOR YONDASHUVINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Sabrina Xamidova**
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

**Annotasiya:** Ushbu tezisda o‘qituvchining fatsilitatorlik mahorati va uning asosiy vazifalari, sifatli ta’lim va samarali natijalarga erishishda fatsilitatsiyaning roli, fatsilitatsiya talabalarda o‘quv-bilish faoliyati, mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish garovi ekanligi atroflicha yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** fasilitator, professor-o‘qituvchi, faoliyat, samara, ta’lim jarayoni, fasilitatsiya, pedagog, lektor, tyutor, edvayzer.

**Abstract**: In this article, the analysis of the concept of facilitator is detailed, and the requirements for it are very complex and diverse. For this reason, there are currently efforts to use the concept of a teacher in parallel with the concept of a facilitator, and even instead of it, to increase the social activity of students.

**Key words:** facilitator, professor-teachers, activity, effect, educational process, facilitation, pedagogue, lecturer, tutor, advisor.

Manbalarga tayanib fatsilitator tushunchasini kengroq tahlil qilib o‘tadigan bo‘lsak, bu tushuncha klassik psixolog Karl Rodjers tomonidan fanga kiritilgan. Inglizcha so‘z “facilitate” – “engillatmoq, hamkorlik qilmoq” degan ma’nolarni anglatadi. Demak, o‘qituvchining asosiy vazifasi engillatish va shu bilan bir vaqtda o‘quv-biluv faoliyatini stimullashtirish, ya’ni guruhda zarur intellektual va hissiy muhitni, psixologik qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish bo‘lib hisoblanadi.

Ta’lim jarayonini „fatsilitatsiyalash“ tushunchasiga olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ularning fikricha, ta’lim jarayonini ***fatsilitatsiyalash***, bu:

- terapevtik va psixologik ko‘rsatmalar orqali ish olib borish (G.T. Barett);
- talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish orqali ish olib borish (F. Emer);
- talabalar orasida o‘zaro ijobiy shaxsiy munosabatlarni shakllantirish orqali ish olib borish (R. Shmak);
- sinegretik (yangicha alternativ) va akmeologik (psixofiziologik) yondoshuvlar orqali ish olib borish (R.S. Dinmuxametov);
- psixologik, integrativ va individual ish olib borish, demakdir (I.V. Jijina).

Qanday uslub bo‘lishidan qat’iy nazar ta’lim jarayonini fatsilitatsiyalash K.Rodjers fikricha: “bu bizning yashashni o‘rganishimiz va talabalarni unga o‘rgatishdan iboratdir”. XX asr va undan oldingi davrlarda kerakli bilimlarni “talabalarga etkazish” ta’limda asosiy maqsadlardan biri bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi davrda bu o‘z o‘rnini kerakli bilimlarni “talabalar o‘zlari izlab topib olishiga” bo‘shatib bergandir. Bu ayniqsa repetitorlik ta’limida yaqqol ko‘zga tashlanadi. [5]

Hozirgi fatsilitistik talablar juda murakkab va turli tumandir. Shu sababli hozirda talabalar ijtimoiy faolligini oshirishda o‘qituvchi tushunchasini fatsilitist tushunchasi bilan parallel va hatto uning o‘rnida ishlatishga bo‘lgan intilishlar ko‘zga tashlanadi. Unda o‘qituvchidan quyidagilar talab qilinadi:

- talabalar bilan samimiy va haqqoniy insoniy munosabatlarni o‘rnatish;
- talabalar bilan munosabatda “yuqorida turuvchi boshliq” munosabatidan voz kechish;
- talabalarning ichki imkoniyatlariga ishonish, ularni ochiq tasdiqlash va rag‘batlantirish;
- talabani u o‘ylaganidek tushunishga harakat qilish va uning ichki dunyosiga kira olish;
- talaba shaxsiga tegib ketadigan baho berishdan saqlanish.

Fatsilitatsiya o‘ziga xos bir jarayondir. Uning o‘ziga xosligi shundaki fatsilitatsiya ma’lum bir darajada psixoterapevtika ishlariga o‘xshab ketadi. Chunki bunda talaba o‘zining ichidagi bor imkoniyatlarini erkin namoyon qiladi. Shu sababli ham aksariyat hollarda bu sohada talabalar bilan ishlashda aniq maqsadga yo‘naltirilgan psixoterapevtik amaliyotlardan keng qo‘llaniladi. Bunda asosan quyidagilar bajarilishiga e’tibor qilinadi:

- talabani bor boricha qanday bo‘lsa shunday qabul qilish;
- talabani har tomonlama tushunishga harakat qilish;
- talabadagi ichki intilishlar va unga yarasha bo‘lgan imkoniyatlarni aniqlab olish;
- talaba imkoniyatlarini ma’lum bir darajada amalga oshishiga ko‘maklashish;
- talabadagi ikkilanish, qo‘rqish, hayiqish va begonasirash kabi hislar ta’sirini minimal darajaga olib kelish;
- talabaga ochiq xolisona munosabatda bo‘lish;
- talabaning shaxs sifatida o‘zini to‘laqonli xis etishiga imkon yaratish.

Keyingi tushuncha – “tyutor”, ingliz tilidan tarjima qilganda “ustoz, tarbiyachi, repititor” degan ma’noni bildiradi. Zamonaviy pedagogikada tyutor – bu o‘qituvchi-maslahatchi, koordinator demakdir. Uning maqsadi – talabaning, unga qulay bo‘lgan tartibda, dars davomida, bilim va malakalarni maksimal darajada mustaqil o‘rganishiga asoslangan ta’lim muhitini yaratish. Shu bilan birga o‘qituvchi talabalarga o‘quv materialidan, internetdan, o‘zlarining amaliy tajribalaridan samarali foydalanishlari uchun yordam beradi. Shu tariqa bilimlar talabalarning faolligi, ularning faoliyati va amaliyoti orqali egallanadi. Tyutorning koordinatsiyalovchi ishi muammoni qo‘yish, maqsad va vazifalarni belgilash, uni amalga oshirish uchun harakat dasturini tayyorlash, ish natijalarini tahlil qilishga qaratiladi. Tyutor mustaqil ish jarayonida talabalarga maslahat beradi, ularni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan bir qatorda u shunday samarali ijodiy muhitni yaratadiki, unda talabaning har qanday fikri va g‘oyasini tanqid qilish, o‘z nuqtai nazari va tadqiqot strategiyasini o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi. Tyutor eshita oladi va talaba fikrlaridagi muhim o‘rinlarni ajratib ko‘rsata oladi. O‘qituvchi talabalarni ma’lumotli axborotlar, yo‘naltiruvchi savollar, maslahatlar bilan yo‘naltiradiki, bunda uning tashkilotchilik roli ta’limiy rolidan ustunlik qiladi. [3,4]

Tyutor tomonidan koordinatsiyalashtirilgan o‘quv-biluv faoliyati talabalarda quyidagi sifatlarni shakllantirishga yordam beradi: tashabbuskorlik, ochiqlik, kuzatuvchanlik, ijodiy va intellektual faollik, nostandart qaror qabul qila olish qobiliyati, tanqidiy tafakkur, kattalarning tajribasini qadrlash va diqqat bilan munosabatda bo‘lish, optimizm, tolerantlik.

E’tibor bergan bo‘lsangiz, tyutorning bajaradigan ishi fatsilitatorniki bilan o‘xshash. Faqat bir jihati bilan farq qiladi: fatsilitatorlikda ijobiy, stimullashtiruvchi o‘quv jarayoni muhitini yaratishga urg‘u beriladi, tyutorlikda esa tashkiliy-koordinatsiyalovchi holatlarga e’tibor qaratiladi. O‘qituvchining yuqorida aytib o‘tilgan rollari talabada qo‘rquv uyg‘otmaydi, uning qadr-qimmatini pasaytirmaydi, aksincha, unda erkinlik va mas’uliyatlilikni tarbiyalaydi, yuqori darajada onglilik, jasurlik kabi fazilatlarni shakllantiradiki, bu bizning jamiyatimizda juda muhim sanaladi.

Demak, talabalar ijtimoiy faolligini takomillashtirish jarayonining metodik ta’minoti uzluksiz ta’lim tizimida yuqori pog‘onani ifoda etib, innovatsion jarayon sifatida jamiyatning pedagog xodimlar kasbiy kompetentliligiga qo‘yadigan talablari va ularning shaxsiy ehtiyojlarini ta’minlash, motivlarini chuqurlashtirish, individual xususiyatlarini e’tiborga olish, kasbiy faoliyatlariga qulay sharoitlar paydo qilishni nazarda tutadi. muhit yaratish, pirovard natijada ta’lim sifati va samaradorligiga erishishni ta’minlaydi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Anarmatovna, Y.N. (2023). Coaching Skills Improvement System for Future Educator Psychologists. *American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750)*, *1*(10), 82-87.

2. Nurumbekova Y. (2023). Faol kuzatish empatiya, refleksiya, identifikatsiya – kouchingning samarali vositalari sifatida. *Interpretation and researches*, *2*(1).

3. Nurumbekova Y. (2023). The types and main principles of coaching. *Science and innovation*, *2*(B2), 243-247.

4. Anarmatovna, N.Y., Ummatkulovna, X. Z. (2022). Improving the system of spiritual and moral-spiritual training of future teachers. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1832-1838.

5. Nurumbekova Y. (2020). Improving the system of spiritual and moral-spiritual training of future teachers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(9), 411-418.

6. Нурумбекова Я.А. (2012). Основные прициpы профессиональной деятельности воспитателя. *Педагогические науки*, (3), 107-108.

## ZAMONAVIY TA’LIMDA FASILITATOR XUSUSIYATLARI

**Xamidova Sabrina Abduvahobovna**
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

**Annotasiya:** Fasilitatsiya jarayonida jamoaning uyg‘un va samarali ishlashi, yangi narsalarni yaratish yoki nazariy ilmiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish, keyinchalik amaliy qo‘llanilishini topish uchun izlanishlar olib boriladi. Jamoaviy ish va jamoaviy o‘zaro ta’sir o‘qituvchining maxsus harakatlari orqali tashkil etiladi. Fasilitatsiya aynan shu harakatlarni osonlashtirish jarayonini aks ettiradi. Unda ustuvorlik pozitsiyasini yetakchi o‘rin egallaydi. Ta’lim sohasida bu joy o‘qituvchiga tegishli. Uning vazifasi o‘zini hokim sifatida ko‘rsatish emas, balki neytral pozitsiyani egallash va talabalarni to‘g‘ri va rivojlanish yo‘nalishiga yo‘llashdir.

**Kalit so‘zlar:** kredit, pedagog, lektor, tyutor, edvayzer, fasilitator, professor- o‘qituvchilar, faoliyat, samara, ta’lim jarayoni, fasilitatsiya.

**Abstract:** In the process of facilitation, research is carried out in order to achieve harmonious and effective team work, to create new things or to acquire theoretical scientific information, and then to find its practical application. Team work and team interaction are organized through special actions of the teacher. Facilitation refers to the process of making these actions easier. The leader takes the priority position in it. In the field of education, this place

belongs to the teacher. His task is not to show himself as a governor, but to take a neutral position and guide students in the right direction and development.

**Key words:** credit, pedagogue, lecturer, tutor, advisor, facilitator, professor-teachers, activity, effect, educational process, facilitation.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqdaki, buning zaruriy sharti o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi rolini o‘zgartirishdir. O‘qitishning o‘zini axborotni uzatish sifatida emas, balki mazmunli o‘quv jarayonlarini osonlashtirish sifatida tashkil etish zarurati mavjud. Shu boiz, ta’lim jarayonida fasilitatsiya va fasilitator tushunchalari keng qo‘llanilmoqda.

Kredit-modul tizimida akademik faoliyat turlari. Kredit ta’lim tizimini joriy etishning yangi sharoitlarida professor-o‘qituvchilarning roli ham sezilarli darajada o‘zgaradi.

Kredit ta’lim tizimida o‘qituvchi (pedagog) o‘zining vazifasiga ko‘ra ta’lim jarayonining quyidagi sub’yektlari sifatida faoliyat olib borishi mumkinligi qayd etib kursatilgan: lector, tyutor, edvayzer, fasilitator, maxsus komissiya a’zosi.

Lektor sifatida yuqori akademik professorlar yoki dotsentlar safidan malakali o‘qituvchilar tayinlanadi. Shu tariqa ular ma’ruza darslarini yuqori ilmiy-uslubiy darajada tashkil etadi va olib borishadi.

Ma’ruzalar akademik potoklarga, ya’ni mutaxassisligi yaqin bo‘lgan bir nechta guruhlarga o‘qitiladi. Auditoriyadagi talabalar soni lektorning malakasidan va auditoriyaning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Professor va dotsentlar o‘zlarining ilmiy saviyasi, ilmiy izlanish yo‘nalishlari va pedagogik mahoratidan kelib chiqib bir mutaxassislik ichida bir nechta fanlaridan ma’ruza o‘qishlari mumkinligi aytib o‘tilgan.

Oliy o‘quv yurtining Ilmiy kengashi qaroriga ko‘ra ma’ruza o‘qish huquqi ilmiy darajasiz, lekin eng tajribali va yuqori malakali o‘qituvchilarga ham beriladi.

Lektor, tyutor, edvayzer va boshqa sub’yektlarning vazifalari. Lektor o‘zining har bir ma’ruza mashg‘uloti bo‘yicha o‘qituvchi rahbarligisiz amalga oshiriladigan talabaning mustaqil ta’limiga (TMT) ga 0,5-1 soat oralig‘ida vaqt ajratishi maqsadga muvofiq ekanligi belgilab qo‘yilgan.

***Tyutor*** – fan o‘qituvchisi sifatida amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini olib boradi, maslahat beradi, O‘RTMI ni tashkil qiladi va amalga oshiradi, kurs ishlariga rahbarlik qiladi, amaliyotlarni tashkil qiladi.

Tyutorning amalga oshirish vazifasi har bir talabaning fanni o‘rganishini nazorat qiladi, shaxsiy topshiriqlarni bajarishini va amaliy mashg‘ulotlardagi faoliyatini baholaydi va zarur bo‘lsa ularga amaliy yordam ko‘rsatadi. Shuningdek, tyutor talabaning aniq bir fanni o‘rganishdagi faoliyatini umumiy tahlil qilishi mumkin.

Tyutorlar quyidagi sifatlarni o‘zlarida to‘la mujassam etgan bo‘lishlari zarur:

- o‘qituvchilik: amaliy mashg‘ulotlarni yuqori talablar darajasida olib borish, talabalarga kasbiy o‘zini anglashda yordam berish, fanning o‘quv-uslubiy materiallaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishlarini ta’minlash;
- maslahatchilik: talabalarning bilish jarayonlarini muvofiqlashtirish, guruhli maslahat va muloqot darslarini tashkil etish va olib borish, fanning turli masalalari bo‘yicha talabalarga yakka tartibda maslahatlar berish;
- menejerlik: talabalar guruhlarini yig‘ish va to‘la shakllantirish, guruhli mashg‘ulotlarni boshqarish, talabalarning fanni o‘zlashtirishini nazorat qilish.

***Edvayzer*** talabalarni oliy o‘quv yurtining o‘ziga xos jihatlari, ishchi o‘quv rejasi mazmuni, diplom olish uchun qo‘yiladigan talablar, tanlangan yo‘nalishning imkoniyatlari bilan tanishtiradi va talabalarning moyilligi, imkoniyatlari, qiziqishlari va maqsadlariga muvofiq shaxsiy o‘quv trayektoriyalarini tanlashda birlamchi zaruriy yordamchi sanaladi.

Edvayzer qayd qilish tadbirlarida faol ishtirok etadi. Har bir edvayzerga RO tomonidan ma’lum miqdorda talabalar biriktirib beriladi. Talabalar biriktirilgandan so‘ng edvayzer ular bilan shaxsiy rejimda ishlashga o‘tadi.

Edvayzer tashkiliy-uslubiy ishlarda ishtirok etadi hamda o‘quv fanlarni tanlash va ularga yozilish bo‘yicha maslahatlar beradi, yo‘nalishning tanlov fanlari kataloglari va ishchi o‘quv dasturlari bilan tanishtirib boradi.

O‘quv yili davomida edvayzer fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadigan maslahat jadvallariga muvofiq ishlaydi. Talabalarning shoshilinch akademik muammolarini hal qilish maqsadida edvayzer ish jadvalidan tashqari shaxsiy uchrashuvlarni ham belgilashi mumkin.

***Fasilitator*** – (ingliz tilida facilitator, lotincha facilis – yengil, qulay) – guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi va to‘la amalga oshiradi.

***Moderator*** – qabul qilingan qoidalarga amal qilishni nazorat qiladi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma’lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi va xulosalarni to‘plashga xarakat kiladi.

***Supervayzer*** – quyidagi to‘rt vazifani amalga oshiradi: o‘qituvchi sifatida o‘rgatadi, fasilitatorlik, maslahatchi, ekspert vazifani bajaradi.

Bizning ta’limda ushbu faoliyatlarning hammasi professor- o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. O‘qituvchilik faoliyatini bunday turlarga ajratish bu faoliyat turining samarasini va sifatini mukammal darajada oshirishga olib keladi.

Fasilitatsiya nima, uning zaminida qanday ma’no yashiringan?

***Fasilitatsiya*** – bu shunday boshqaruv tizimini yaratish va pedagogik jarayonni tashkil etishni o‘z ichiga olgan maxsus boshqaruv uslubi bo‘lib, unda boshqaruv direktiv xususiyatga ega, o‘zini o‘zi boshqarish tizimining o‘zini o‘zi tashkil etish doirasidan tashqariga chiqmaydi. Sodda qilib aytganda, fasilitatsiya ham jarayon, ham harakat usuli, shuningdek, yuqori sifatli va samarali guruhlarning o‘zaro ta’sirini amalga oshirish, guruh hamkorligi va qo‘shma faoliyatni tashkil etish vositasidir.

Oliy ta’lim tizimida fasilitatsiyani talabaga ijobiy ta’sir ko‘rsatishni ta’minlaydigan, xonada qulay muhit yaratish maqsadida, талабаларнинг o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshirish, mustaqil ishlash faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash yo‘lidagi rivojlantiruvchi ta’lim usuli sifatida tushunish kerak.

***O‘qituvchi-fasilitator*** – faoliyati ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv doirasida amalga oshiriladigan va ochiqlik, талабаларнинг his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga, faoliyati va harakatlariga empatik qarovchi, ularning muvaffaqiyatlari va xizmatlarini rag‘batlantiruvchi, ishonchli munosabati bilan ajralib turadigan o‘qituvchi.

Fasilitator o‘quv jarayonidagi maxsus vosita hisoblanadi. Ta’lim muassasasi va umuman ta’lim tizimining rivojlanishi samaradorligi fasilitatorning malakasi va kasbiy mahoratiga bog‘liq. Unga psixologik o‘zaro ta’sir qilish ko‘nikmalari va samarali muloqotni ta’minlash texnologiyalari o‘rgatiladi.

Pedagog-fasilitatorning faoliyati o‘quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini rivojlantirishga foydali ta’sir ko‘rsatadigan, kommunikativ o‘zaro munosabat ko‘nikmalarini shakllantiradigan va o‘quv jarayonida tengdoshlar o‘rtasidagi muloqot uchun qulay muhit yaratishga yordam beradigan shunday ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan muassasa. Bu holda o‘quv jarayoni erkinlik va sog‘liqni saqlashni tejaydigan usullar va texnologiyalardan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Fasilitator quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:

1. O‘quv mashg‘ulotida muhokamani to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirish va qurish.
2. Jamoaviy qarorlarning xilma-xilligidan eng maqbul va to‘g‘ri, shuningdek, muayyan vaziyatda samaralini tanlash.
3. Xavfli qarorlar qabul qila olish va ular uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish.
4. Talabalarning turli guruhlari, muammoli va qiyin bolalar bilan muloqot qilish.

5. Turli formatdagi suhbatlar, dialoglar, munozaralar qura olish va ularda osongina harakatlana olish.

6. Tarbiyaviy ta’sirning turli uslub va vositalarini qo‘llash, ularni samarali birlashtirish.

7. Jamiyat taraqqiyotining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga, ta’lim sohasidagi siyosiy o‘nalishlarga moslashish oson.

8. Ta'lim muammolari va vazifalarini hal qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish.

9. Stressli vaziyatlarni enging, his-tuyg‘ularingizni boshqaring.

10. Talabalar bilan ochiq muloqot.

11. Shaxsiy rivojlanishni rag‘batlantirish va ularning fazilatlarini, qobiliyatlarini o‘zgartirish, ko‘nikmalarni rivojlantirish istagi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Anarmatovna, Y.N. (2023). Coaching Skills Improvement System for Future Educator Psychologists. *American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750)*, *1*(10), 82-87.

2. Nurumbekova Y. (2023). Faol kuzatish empatiya, refleksiya, identifikatsiya – kouchingning samarali vositalari sifatida. *Interpretation and researches*, *2*(1).

3. Nurumbekova Y. (2023). The types and main principles of coaching. *Science and innovation*, *2*(B2), 243-247.

4. Anarmatovna, N.Y., Ummatkulovna, X. Z. (2022). Improving the system of spiritual and moral-spiritual training of future teachers. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1832-1838.

5. Nurumbekova Y. (2020). Improving the system of spiritual and moral-spiritual training of future teachers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(9), 411-418.

6. Нурумбекова Я.А. (2012). Основные прициры профессиональной деятельности воспитателя. *Педагогические науки*, (3), 107-108.

## TALABA YOSHLARDA VIRTUAL QARAMLIKNI OLDINI OLISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Azimova Rushana Zokirjonovna**
Guliston davlat pedagogika insituti o‘qituvchisi
e-mail: rushana0242@mail.ru

**Anatatsiya.** Ushbu tezisda talaba yoshlarni virtual qaramlikdan saqlash va uning paydo bo‘lishini oldini olish, ta'lim muhitida kompyuter bilan ishlashga oqilona yondashish usullari keltirib o‘tilgan. Virtual qaramlikning psixologik va jismoniy belgilari, o‘smirlar o‘rtasida kompyuterga qaramlikni tashxislash, uning oldini olish va korreksiya yo‘llarini aniqlash uchun o‘qituvchilar, psixologlar, ota-onalar tomonidan kuzatilishi va tekshirilishi mumkin bo‘lgan asosiy ko‘rsatmalar tavsiya etilgan.

**Kalit so‘zlar**: kompyuterga qaramlik, virtual qaramlik, profilaktika tizimi, talabalar, sog‘liq, ijtimoiy tarmoqlar, o‘yinga qaramlik, AKT.

**Abstract.** This thesis outlines methods for preventing and protecting students from virtual addiction and approaches to rational use of computers in the educational environment. The psychological and physical signs of virtual addiction, how to diagnose computer addiction among adolescents, and strategies for prevention and correction are discussed. The thesis also provides key indicators that can be monitored and checked by teachers, psychologists, and parents to identify and address this issue.

**Keywords:** computer addiction, virtual addiction, prevention system, students, health, social networks, gaming addiction, ICT.

Texnologik jadal rivojlanish fonida, ayniqsa raqamli texnologiyalar sohasida, jumladan, tarmoq yaratishda, Internet Internetga qaramlik xulq-atvorini oshirishning keskin muammosiga

aylandi. Raqamli inqilob, elektron qurilmalarning tez o‘sishi bilan biz muloqot qilish, o‘rganish va ko‘ngil ochish usullarini, shuningdek, jamiyatda o‘zini tutish uslubimizni o‘zgartirdi. Bugungi kunda Internetning asosiy foydalanuvchilari, ko‘plab sotsiologik so‘rovlarga ko‘ra, 18 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir, ularning aksariyati talabalardir.Shu boisdan talabalarda virtual qaramlikni oldini olish,bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.[1,25-36]

Internetga qaramlik "texnologiyaga qaramlik" deb nomlanuvchi kengroq muammoning bir qismidir. Bu kundalik hayot bilan bog‘liq holda Internetdan foydalanishda muvozanatni saqlash yoki nazorat qilishning iloji yo‘qligini anglatadi. Shu munosabat bilan, Internetdan foydalanuvchilarning ongi va xatti-harakatlariga ta'sirini muhokama qilish xorijiy va mahalliy adabiyotlarda davom etmoqda. Odamlar va Internet o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning eng faol tadqiqotlari faqat o‘tgan asrning 90-yillarida boshlangan. Internetga qaramlik fenomenini o‘rgangan birinchi tadqiqotchilar amerikalik olimlar, klinik psixolog Kimberli Yang va psixiatr Ivan Goldberg edi. 1996 yilda Torontoda bo‘lib o‘tgan Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi konferentsiyasida doktor Kimberli Yang Internetga qaramlik muammosi bo‘yicha birinchi ma'ruzasini taqdim etdi. Yosh Internetga qaram bo‘lib qolgan odamlarning 600 dan ortiq holatlarini o‘rganib chiqdi. Majburiy xulq-atvor munosabatlarda, oilada birdamlikda, ish unumdorligida va maktabda ishlashda muammolarga olib keldi. [2,98-101]

Zamonaviy odamlar Internetga texnologiya sifatida emas, balki o‘ziga xos "yashash joyi" sifatida qarashadi. Ular bir vaqtning o‘zida ikkita dunyoda yashaydilar: haqiqiy va raqamli, virtual.Virtual muloqot va muloqot uchun yangi dasturlarning ishlab chiqilishi yoshlar orasida foydalanuvchilar sonini ko‘paytirmoqda. Internetga qaramlik haqida birinchi ma'lumot 80-yillarda amerikalik psixiatrlarning tadqiqotlarida paydo bo‘lgan. 1994 yilda Goldberg "Internetga qaramlik buzilishi" atamasini taklif qildi, bu o‘zini o‘zi boshqarishni yo‘qotish va virtual hayotga chekinish holatini tavsiflaydi.

Ushbu xatti-harakatlar turli xil tadqiqotlarda muhokama qilingan, jumladan "Internetga qaramlik" (Bai, Lin va Chen, 2001), "patologik Internetdan foydala-nish" (Davis 2001) va "Internetga qaramlik" (Vadi al-Dawasir, 2001). A.E.Voiskunskiy virtual qaramlik turining shaxsiy mezonlarini ishlab chiqdi. V.D. Mendelevich internetga qaram bo‘lgan shaxslar turlarining tasnifini aniqladi. V.A. Loskutova rus tilidagi internet foydalanuvchilarining madaniy xususiyatlarini o‘rgangan. A.E. Jichkina, A. Yu., N. A. Kuznetsova, E. A. Petrova, I. V. Chudova Internetga qaram bo‘lgan foydalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganishni taqdim etdilar rivojlanishda aniqlash zarurati hisoblanadi. [4,45-53]

Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Internetdan foydalanuvchilarning asosiy guruhi talabalar auditoriyasini ifodalovchi 18 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Doimiy ravishda o‘sib borayotgan Internet faoliyati va texnologiyalari yoshlarni o‘ziga jalb qiladi, bu esa Internetdan ortiqcha foydalanishga va "Virtual qaramlik" deb nomlanuvchi noto‘g‘ri Internet munosabatlariga olib keladi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kompyuterga qaram kishilarning moslashuv-chanligi past,ular uyatchan, bu shaxsning kommunikativ sohasida o‘zini namoyon qiladi. Shunga qaramay, Internetga qaram bo‘lganlar orasida ijtimoiy muloqotga bo‘lgan ehtiyoj ancha yuqori, ammo bu ehtiyoj real muloqotni virtual muloqotga almashtirish orqali amalga oshiriladi. Internetga qaramlik xulq-atvori xavfi, albatta,talabalarning hissiy foni va ijtimoiy intellektning pasayishi bilan bog‘liq bo‘lib, qo‘zg‘aluvchanlik, o‘z-o‘zini nazorat qilishning pasayishi, tashvish va umumiy tashvish o‘z-o‘zidan shubha va hissiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Muloqotdagi qiyinchiliklar yoshlar orasida yolg‘izlik xavfini oshiradi. Tashvish kuchaygan yoshlarda, bu doimiy stressga olib keladi, bu esa ularni virtual haqiqatga cho‘mish istagini uyg‘otadi. Internetga qaram bo‘lgan talabalar o‘zlarini past baholaydilar va shuning uchun haqiqatda muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Ular o‘z oldilariga erishish qiyin bo‘lgan maqsadlarni qo‘ymaydilar, faqat kundalik muammolarni hal qilish bilan cheklanadilar. A.V Grishina, nuqtai nazaridan yuqori tashvish, Internetga qaramlikning sababi va oqibatlari deb hisoblanadi. [5,29-37]

Xulosa qilib aytganda, N.V. Chudova tomonidan turli mahalliy va xorijiy tadqiqotlar natijalari, Internetga qaram bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarning quyidagi ro‘yxatini beradi:

- jismoniy "men"ni qabul qilishda qiyinchiliklar;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilishda qiyinchiliklar;
- intellektlanishga moyillik;
- yolg‘izlik hissi va o‘zaro tushunishning yo‘qligi (ehtimol qarama-qarshi jins bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar bilan bog‘liq);
- past tajovuzkorlik;
- hissiy zo‘riqish va negativizmga moyillik – hech bo‘lmaganda bir umidsiz ehtiyojning mavjudligi; o‘z-o‘zini hurmat qilish past;

Muammolardan qochish tendentsiyasi va mas'uliyat M.I.Drepa, Internetga qaram bo‘lganlar quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- shaxsiyatning kommunikativ va hissiy-irodaviy sohasidagi o‘zgarishlar;
- yuqori darajadagi tashvish, depressiya – tajovuzkorlik va dushmanlikning namoyon bo‘lishi – o‘z-o‘zidan shubhalanish, ziddiyat va yolg‘izlik bilan namoyon bo‘ladigan irodaning yetishmasligi;
- aloqa sherigi bilan ijtimoiy tarmoqda turli mavzularni osongina muhokama qilish imkonini beradi. Bunga aloqaning yozishmalar va ovozsiz ma'lumotlar almashinuvi orqali amalga oshirilishi yordam beradi. [7,12-21]

Yoshlar o‘zlarining shaxsiy fikrlarini ifoda etishning faqat (yozma ravishda) bunday usuliga odatlanib qolishadi, lekin, bu keyinchalik yigit o‘z fikrini bildirishdan, suhbatdoshlarini ko‘rishdan va eshitishdan qo‘rqishni boshlashiga olib kelishi mumkin. Kontaktsiz muloqotning bu oqibati omma oldida nutq so‘zlashda, imtihonlarga javob berishda, muhim qarorlar qabul qilishda jamoaviy ishlarni muhokama qilishda, Internetdan haddan tashqari foydalanishga ishtiyoqli bo‘lgan talabalarda ko‘pincha o‘quv jarayonida muammolar paydo bo‘ladi. O‘quv topshiriqlariga tayyorgarlik ko‘rayotganda, talabalar o‘rganishga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan narsalar bilan chalg‘ishadi. Bu talabaning o‘zi bajarayotgan ishiga umuman aloqasi bo‘lmagan saytlarga kira boshlaganida ifodalanadi.

Bundan tashqari, ko‘pincha odam ijtimoiy tarmoqdagi yozishmalar bilan chalg‘iy boshlaydi va shu bilan o‘quv jarayonidan butunlay chiqib ketadi. Uning yagona qiziqishi Internet deb ataladigan o‘yin-kulgidir. Ammo asosiy muammo shundaki, u boshlanganda uning rivojlanishida to‘xtaydi. Uni Internetdan boshqa hech narsa qiziqtirmaydi. Talaba endi internetda o‘tkazgan vaqtini nazorat qila olmaydi, shuning uchun u o‘qishga, ko‘pincha uxlashga ham yetarlicha vaqt topolmaydi. Dam olish uchun zarur bo‘lgan uyqu yetishmasligi tufayli charchoq boshlanadi va to‘planadi, bu ko‘pincha stress va asabiy buzilishlarga olib keladi. Ko‘plab tayyor insholar, hisobotlar, kurs ishlari va boshqa materiallar, albatta, ta'limning hozirgi bosqichi talabalar hayotini osonlashtirdi. Ammo shu bilan birga, intellektning rivojlanishiga katta zarar yetkazildi, ma'lumotni izlash zarurati yo‘qoldi, shuningdek, bilimlarni mustaqil ravishda qayta ishlash va tizimlashtirish zarurati yo‘qoldi.

Tadqiqotlar Internetga qaramlikni yangi paydo bo‘lgan va ko‘pincha tan olinmaydigan klinik kasallik sifatida aniqladi. Bu foydalanuvchining Internetdan foydalanishni nazorat qilish qobiliyatiga ta'sir qiladi, bu esa munosabatlarda, kasbiy va ijtimoiy sohalarda muammolarga olib kelishi mumkin. Internetga qaramlik muammosi ommaviy axborot vositalarida tez-tez tilga olinadi, ammo uning yangiligi tufayli u yetarlicha o‘rganilmagan, uni faqat taxminlar nuqtai nazaridan muhokama qilish mumkin. Yangi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Kimberli Yang tomonidan taklif qilingan Internetga qaramlik diagnostikasi so‘rovi (IADQ) dastlabki skrining vositasi sifatida ishlatilgan, uning asosida Internetga qaramlik xatti-harakatlarining asosiy xususiyatlari aniqlangan. Bular: Internetda o‘tkazgan eng qisqa vaqt ichida ham chalg‘ishni istamaslik; atrofidagi odamlarga yolg‘on gapirishga tayyorlik, uy ishlarini, o‘quv jarayonini yoki Internetda ish vazifalarini bajarishni unutish – bunday turmush tarzini tanqid qilishni mutlaqo istamaslik oilaning doimiy buzilishiga, yaqin do‘stlar doirasini yo‘qotishga tayyorlik; Internetga to‘liq singib ketish - o‘z sog‘lig‘iga beparvolik va beparvo munosabat, tunda Internetda sayr qilish tufayli uyqu va dam olish davomiyligini qisqartirish kabilardir.

Talabalar o‘rtasida internetga qaramlikni oldini olish bo‘yicha tavsiyalar:

1) Psixodiagnostika va korreksiya choralarini kompleks va tizimli qo‘llash, shuningdek, shaxsiy muammolar bilan tashkil etilgan va maqsadli psixologik ish uchun sharoit yaratish, universitet talabalari orasida Internetga qaramlikning samarali oldini olishga hissa qo‘shadi.

2) Talabalar o‘rtasida internetga qaramlikning oldini olish axborot-diagnostika, axborot-ma’rifiy va shakllantirish faoliyati sohasidagi o‘qituvchilar, psixologlar va boshqa mutaxassislarning sa’y-harakatlarini birlashtirishni nazarda tutadi.

3) Virtual qaramlik xavfini kamaytirish bo‘yicha profilaktika choralarini ishlab chiqishda gender omilini hisobga olish kerak. Yosh erkaklarda haddan tashqari internetga qaramlikka moyil bo‘lgan odamlarni o‘z vaqtida aniqlash uchun monitoringdan foydalanish tavsiya etiladi, bunda psixodiagnostik va korreksion choralar chastotasi 2 baravar ko‘paytirilishi kerak

4) Talabalar orasida virtual qaramlikning oldini olishda asosiysi chora-tadbirlar uning rivojlanishi uchun xavf omillari (shaxsiy muammolar va ijtimoiy muhit va ta'lim jarayonining noqulay omillari) bilan kurashishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, sa'y-harakatlarni shaxsiy anomaliyalar va xarakter aksentuatsiyalarning oldini olishga qaratish kerak.Shuning uchun talabalarning ushbu guruhida hissiyotlarni o‘z-o‘zini tartibga solish va empatiyani rivojlantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik tadbirlarni (rolli o‘yinlar, og‘zaki bo‘lmagan guruh usullari, dam olish usullari) o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Talabalar orasida internetdan haddan tashqari foydalanish oqibatlari haqida imkon qadar ko‘proq ma'lumot tarqatish hamda virtual olamdan o‘z vaqtida va oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun korreksion ishlarni amalga oshirish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev B. (2019). Pedagogik psixologiya: Talaba yoshlarda virtual qaramlikning psixologik ta'siri. Tashkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

2. Jalilova L. (2020). Yoshlar va axborot texnologiyalari: Pedagogik va psixologik yondashuvlar. Tashkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.

3. Toshmuhammadov D. (2021). Virtual qaramlik va uning yoshlar psixologiyasiga ta'siri. Tashkent: Yoshlar ishlari agentligi.

4. Samatova F. (2018). Internetda vaqt o‘tkazish va uning ta'lim jarayoniga ta'siri. "Pedagogika va psixologiya" jurnali, 5-son, 45–53-betlar.

5. Mirzayeva G. (2022). Talaba yoshlarda axborot texnologiyalari orqali psixologik sog‘liqni saqlash. "Ta'lim tizimi va psixologiya" jurnali, 4-son, 29–37-betlar.

6. Mahmudov A. (2020). Yoshlar orasida virtual qaramlikni oldini olish: Pedagogik yondashuvlar. Tashkent: "Innovatsion pedagogika" nashriyoti.

7. Khudoyberdiyeva M. (2021). Pedagogik psixologiya: O‘qituvchilar va talaba yoshlarda virtual qaramlikka qarshi kurashish metodikasi. "O‘zbekiston pedagogik ilmi" jurnali, 3-son, 12–21-betlar.

## TALABALARDA IJTIMOIY USTANOVKALAR SHAKILANISHINING IJTIMOYI-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Bekbolaev Javlonbek Jumanazar o‘g‘li**
Guliston davlat universiteti doktoranti
*E-mail:javlonbekbekbolayev@gmail.com*

**Аннотация:** В Послании Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиеева Олий Мажлису мы ставим перед собой такую великую цель, как создание в нашей стране фундамента третьего Возрождения, для чего необходимо создать среду и условия, которые будут воспитывать новых Хоразмий, Беруний, Ибн Сино, Улуғбек, Навоий и Бабуров. При этом, прежде всего, основными столпами нашей национальной идеи должны служить развитие образования и воспитания, решение проблем здорового образа жизни, развитие науки и инноваций.

**Ключевые слова:** социальная добродетель,способности, социальные навыки, социальная ситуация

**Abstract:** In the address of the president of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Supreme Assembly, we set ourselves the great goal of establishing the foundation of the third renaissance in our country, for which we need to create environments and conditions that will educate the New Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulugьbek, Navoiy and Babur. In this, first of all, the development of education and upbringing, the decision-making of a healthy lifestyle, the development of Science and innovation should serve as the main pillars of our national idea.

**Key words**: **Key words:** social virtue, ability, social skills, social situation

Hozirgi kunda terroristik guruh a’zolari o‘zlarining qabih rejalarini amalga oshirish yo‘lida yoshlarning ongini zaharlashda ularning ijtimoiy ustanovkalaridan foydalanayotganligini hisobga olsak, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham bu muammoning chuqur o‘rganilishi lozimligi ayon bo‘ladi.

Tadqiqotimiz talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish va o‘zgartirish muammosini o‘rganishda nafaqat ijtimoiy tasir hodisasini ko‘rib chiqishga, balki shaxsning xatti-harakatlariga tasir qilishning samarali mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi.Shu sababdan biz tadqiqotimiz “Talabalarda ijtimoiy ustanovkalar shakillanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusida oldik.

Ush bu maqola mavzusiga oid chet el olimlarining ishlarini tahlil qilib chiqdik. «Ijtimoiy ustanovka» tushunchasini fanga birinchi marotaba amerikalik sotsiologlar U. Tomas va F. Znanetskiylarning asarlarida keltirilgan deb qaraladi.

G.Ollportning ijtimoiy ustanovklar shaxsning harakatga tayyorgarlik jarayoni sifatida qarab, u xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi yakunlangan manba ekanligini e’tirof etadi va bunday ta’rif, ijtimoiy psixologiyada shaxsning yo‘nalishini o‘rganish uchun juda muhimdir.

M. Smit ijtimoiy ustanovkalar bo‘yicha qilgan ishlari diqqatga sazovordir u ishlab chiqan attityudning uch komponentli strukturasi psixologiya sohasida ijtimoiy ustanovkalarga bo‘lgan qiziqishni oshirib yangicha qarashlarga asos bo‘ldi.

Rus psixologlardan D.N. Uznadze esa ustanovka va ijtimoiy ustanovkalarni (attityud) bir-biridan farqlash bo‘yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borga.

G.M.Andreyevning ilmiy ishlarida attityud tushunchasiga to‘rt ilmiy yo‘nalishni belgilash asosida yanada oydinlik kiritilgan.

V.A. Yadov tadqiqotlarida ustanovka ma’lum vaziyatlar bilan bog‘liq «o‘z-o‘zini idora qilish» mezoni sifatida o‘rganiladi va bu o‘z navbatida, ijtimoiy psixologiya fanining taraqqiyotiga «ijtimoiy faoliyat ierarxiyasi», degan yangi tushunchaning olib kirilishiga sabab bo‘ladi.

*Ijtimoiy munosabat (attitude)* deganda subektning tayyorligi, moyilligi, uning fikrlari va his-tuygulariga muvofiq, ijtimoiy obektni hisobga olgan holda tashkil etilgan bo‘lib, bu uning faoliyati ushbu obektga nisbatan barqaror, maqsadli xususiyatini taminlaydi.

Ushbu kontseptsiya individni ijtimoiy tizimga kiritishning eng muhim psixologik mexanizmlaridan birini belgilaydi, attitude bir vaqtning o‘zida shaxsning psixologik tuzilishining elementi va ijtimoiy tuzilishning elementi sifatida ishlaydi.

Attitude-bu kognitsiyalar *(bilimlar), affektiv reaktsiyalar (his-tuygular), va oldingi xatti-*harakatlarga asoslangan, o‘z navbatida kognitiv jarayonlarga, affektiv reaktsiyalarga, niyatlarning shakllanishiga va kelajakdagi xatti-harakatlarga tasir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan malum bir baholashga barqaror moyillik. Shunday qilib, attitude o‘z tarkibiga uchta komponentni o‘z ichiga oladi:

- *ijtimoiy munosabatning xulq-atvor* komponenti nafaqat to‘gridan-to‘gri xatti-harakatlar(bazi haqiqiy, allaqachon amalga oshirilgan harakatlar), balki niyatlar bilan ham ifodalanadi. Xulq-atvor niyatlari turli xil umidlar, intilishlar, rejalar, harakatlar rejalarini o‘z ichiga olishi mumkin –inson faqat qilmoqchi bo‘lgan hamma narsa;
- *kognitiv* tarkibiy qism, shu jumladan tarafkashlik, goyalar, fikrlar, yani. ijtimoiy obektni bilish natijasida hosil bo‘lgan barcha kognitsiyalar;

• *affektiv* reaktsiyalar – bu munosabat obekti bilan bogliq bo‘lgan turli xil his-tuygular, his-tuygular va tajribalar.

Ijtimoiy ustanovkaning o‘zi ro‘yxatdagi barcha tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan umumiy baholash (baholash reaktsiyasi) vazifasini bajaradi.

Bugungi kunga kelib, *Ijtimoiy ustanovkalar – xatti* – harakatlar yoki *xatti-harakatlar-Ijtimoiy ustanovkalarni* aniqlaydimi, degan savol ochiq qolmoqda. Uzoq vaqt davomida attitudlar xulq-atvorni belgilaydi deb ishonishgan. Biroq, tajribalar shuni ko‘rsatdiki, bunday emas. Masalan, soglom turmush tarziga umumiy munosabat, odam yugurish, jismoniy mashqlar qilish, parhezga rioya qilish va h. k.

L. Raytsmanning "yuvish oqimi" nazariyasi attitude va xatti-harakatlarning mumkin bo‘lgan nomuvofiqligini tushuntirishi mumkin. U ijtimoiy munosabat va xulq-atvor o‘rtasidagi bogliqlik turli omillar bilan buzilgan ("xiralashgan" bo‘lishi mumkin) deb taxmin qildi.

Birinchidan, yaxlit obektga Ijtimoiy ustanovka ushbu obektni tashkil etuvchi qismga Ijtimoiy ustanovka bilan mos kelmasligi mumkin. Masalan, umuman televizion reklamaga salbiy munosabat umuman ijobiy Ijtimoiy ustanovka mavjud emas degani emas, bazi bir aniq, sevimli reklama roliklari va boshqalar.

Ikkinchidan, shuni yodda tutish kerakki, xatti-harakatlar nafaqat munosabat bilan, balki ular ajralib chiqadigan vaziyat bilan ham belgilanadi.

Uchinchidan, xatti-harakatni bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan bir nechta attitudlar belgilashi mumkin.

To‘rtinchidan, attitude va xulq-atvorning nomuvofiqligi inson ijtimoiy obektga nisbatan o‘z pozitsiyasini noto‘gri yoki noto‘gri ifoda etganidan kelib chiqishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** 1. Talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakillantirishning asosiy psixologik omillari (ishontirish, taklif qilish va motivatsiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tasirida namoyon bo‘ladi), ustanovka omili (ijtimoiy o‘ziga xoslik, ijtimoiy yordam va ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tasirida namoyon bo‘ladi) va faoliyat omili (ijtimoiy-psixologik mexanizmlar tasirida namoyon bo‘ladi). muvofiqlik, yuqtirish va taqlid qilish).

2. Talabalarda ijtimoiy ustanovkalar shakilanishiga ijtimoiy-psixologik omillarning quyidagi tasiri aniqlandi: ijtimoiy o‘ziga xoslik, ijtimoiy yordam va ijtimoiy-psixologik mexanizmlari

3. Ijtimoiy ustanovkalarning ishlab chiqilgan tasnifi O‘zbekistonda zamonaviy yoshlar ijtimoiy ustanovkalarining asosiy turlarini, ular tomonidan ilgari surilgan fuqarolik pozitsiyasining yonalishiga, harakatlarning rasmiylashtirilga darajasiga va ularning faoliyat doirasiga qarab o‘z ichiga oladi, bu esa ijtimoiy ustanovka qaysi turlarida ishtirok etishi mumkinligini bashorat qilishga imkon beradi.

Yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish muammolari bo‘yicha olib borilgan turli sohalardagi tadqiqotlar mazmunini o‘rganish asosida quyidagicha xulosalarga keldik:

1. O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning mazmunini asoslash, uning metodikasini ishlab chiqish pedagogika fani va amaliyoti oldidagi muhim vazifa hisoblanadi.

2. O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish shaxs umumiy kamolotini hamda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi, bugungi kunga qadar yaxlit pedagogik jarayon sifatida tadqiq etilmaganligi ta’kidlanadi.

3. O‘quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi ularning ijtimoiy ustanovkalar jarayonidagi ishtirokiga bog‘liq bo‘lib, shaxsning ijtimoiy borliqqa munosabatini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardayoq mamlakat aholisi, shu jumladan, yoshlar o‘rtasida mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib etish, ularda istiqlolni mustahkamlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy faollikni qaror toptirish vazifasi kun tartibiga qo‘yildi. Bu boradagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda ta’lim-tarbiya jarayonining roli katta.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Norbosheva. Bolalar psixologiyasi. Toshkent -2002. 31-32 betlar

2. Buribaevich M. K., Yuldashev S. E., Ugli S. L. B. Psychology of Modern Leadership as an Important Phenomenon of Effective Management //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – T. 14. – №. 1.

3. Boynazar S. L., Ulugbek M. Ursachen Der Entstehung Von Psychischen Krisen // "Online-conferences" platform. – 2021. – S. 514-516.

4. Boynazar S. L., Ulugbek M. Ursachen Der Entstehung Von Psychischen Krisen // "Onlineconferences" platform. – 2021. – S. 514-516.

4. Shovxiyev L., Sharafitdinov A. Psixologiyada tush korish tilsimlari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: echimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – S. 485-488.

5. Ibragimovna, Tuxtasinova Munira, et al. "Educators are one of the

creators of the new renaissance (progress in international reading literacy study)" *Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595)* 3.4 (2023).

6. Tuxtasinova, Munira Ibragimovna, and Nazokatxon Iqboljon qizi Qurbonova. "Uchinchi renesans sari ildam qadamlar bilan (PIRLS xalqaro baholash dasturining ikkinchi davriyligiga tayyorgarlik)." E*ducational Research in Universal Sciences* 2.1 SPECIAL (2023): 401-403.

7. Ibragimovna, Tukhtasinova Munira, and Sadirova Dilnoza Murodovna. "Improving the mechanisms of using International Assessment Programs (based on the Pirls International Assessment Program)." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 125-131.

## OLIY TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KREATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Ayakulov Ulug‘bek Abdug‘afforvich**
Toshkent davlat pedagogika universiteti
stajyor-tadqiqotchisi
ayakulovulugbek@gmail

**Annotatsiya**: Ushbu tezisda oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish, ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish vazifalari, talabalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ijodiy munosabatni shakllantirish, ichki va jahon ta’lim resurslaridan foydalana olish qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni kreativ fikrlashga o‘rgatish vosita va omillari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar**: ta'lim tizimini raqamlashtirish, axborot madaniyati, raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya, AKT ko‘nikmalari, texnologik ko‘nikmalar, IT ko‘nikmalari, 21-asr malakalari, raqamli ko‘nikmalar, boshqarish tamoiyllari, innovatsion texnologiyalar.

**Abstract:** In this thesis, the tasks of digitalization of the higher education system, the application of information and communication technologies to the educational process, the formation of a creative attitude to information and communication technologies in students, the development of the ability to use domestic and global educational resources, the means of teaching them to think creatively and factors are highlighted.

**Key words:** digitization of the educational system, information culture, digital literacy, digital competence, ICT skills, technological skills, IT skills, 21st century skills, digital skills, management principles, innovative technologies.

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish ko‘lami kengayishi tufayli uzluksiz ta’lim tizimida: talabalarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish orqali qaror qabul qilish uchun kerakli ma’lumotlarni to‘pish, raqamli qurilmalar bilan ishlash, ommaviy axborot vositalarini tanqidiy-tahliliy o‘rgana olishi, zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanishi hamda yangi ishlab chiqilayotgan innovatsion texnologiyalarga ijobiy munosabatni shakllantirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, talabalar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarining asosiy o‘quv dasturlariga doimiy o‘zgartirishlar kiritib borilishi, elektron ta’lim resurslarini yangi avlodlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, axborot texnologiyalariga doir bilimlar berish usul va vositalarini takomillashtirish hamda elektron ta’lim muhitida talabalarning axborot texnologiyalariga doir ijodiy qobiliyati, kreativ fikrlashi,

ichki va jahon ta’lim resurslaridan foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish, ta’lim samaradorligini yaxshilash bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Jamiyatning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, kompyuter texnologiya-larini rivojlantirish, globallashuv va axborotlashtirish jarayoni barcha sohalarga, shu jumladan ta’limga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qo‘lmadi. Deyarli barcha kelajakdagi ta’lim va ish o‘rinlari ma’lum darajadagi tez o‘zgaruvchan raqamli malaka va ko‘nikmalarni talab qiladi. Raqamli kompetentlik raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq ko‘nikmalarni tavsiflovchi yangi tushunchalardan biridir. So‘nggi yillarda raqamli ko‘nikma va malakalarni tavsiflash uchun “AKT ko‘nikmalari”, “texnologik ko‘nikmalar”, “IT ko‘nikmalari”, “21-asr malakalari”, “axborot madaniyati”, “raqamli savodxonlik va raqamli ko‘nikmalar” kabi bir qancha atamalar qo‘llanilmoqda. Ushbu atamalar ko‘p xollarda “raqamli kompetensiya” va “raqamli savodxonlik” kabi bir-birining o‘rnida ishlatiladi.

Raqamli savodxonlik (digital fluency) – raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz, samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning mavjudligidir. Sodda qilib aytganda, bu atama insonning raqamli muhitda vazifalarni samarali bajarish qobiliyatini anglatadi. “Raqamli” elektron ko‘rinishdagi turli qurilmalar (kompyuter, planshet yoki telefon) orqali taqdim etilgan ma’lumotlarni anglatsa, “savodxonlik” multimediali kontentni o‘qish va sharhlash, raqamli manipulyatsiya orqali ma’lumotlar va tasvirlarni ko‘paytirish, raqamli muhitdan olingan yangi bilimlarni baholash va qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi [5].

Ta’lim sifatini oshirish, fan va texnologiyaning eng so‘nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish asosida ijodkor, kasb-hunarli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, tashabbuskor va tadbirkor, o’z javobgarligini his etadigan yoshlarni tayyorlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu o’z navbatida ta’lim jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ularni qo‘llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi.

Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o‘z kasbiy tayyorgarligini, maxoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar butun dunyo mamlakatlarida mavjud soha va tarmoqlarning qiyofasi va tuzilishini o‘zgartilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: ta’lim tizimini to‘liq raqamlashtirish, oliy ta’limda o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga o‘tkazish, ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda “1 million dasturchi” loyihasini amalga oshirish hamda ta’limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to‘liq javob beradigan axborot texnologiyalari joriy etish kabi asosiy masalalarga to‘xtalib o‘tildi [1].

Shuningdek, respublikamiz hududlarida “Raqamli texnologiyalar o‘quv markaz”lari tashkil etilmoqda. Shunday markazlardan biri 2019-yil 7-noyabr kuni Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahrida foydalanishga topshirildi. Dastlabki bir yil davomida ushbu raqamli texnologiyalar markazi 1800 nafardan ortiq Kattaqo‘rg‘onlik yoshlarni robototexnika, kibersport, elektron tijorat sohasida innovatsion tadbirkorlik, dasturiy ta’minot va raqamli texnologiyalar bo‘yicha bilim, ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi [2].

Endilikda ta’lim olish uchun xorijiy davlatlarning nufuzli oliy ta’lim muassasalariga borish, chekka qishloq joylarida maktablar qurish, pedagogikkadrlarni jalb qilish, katta hajmdagi o‘quv darsliklarini nashr qilish kabilar muammo bo‘lmay qoldi. Chunki yuqoridagi masalalarning yechimi sifatida raqamli texnologiyalar butun dunyodagi ta’lim va boshqa sohalarga oid bilim va ko‘nikmalarni barcha uchun istalgan joyda, istalgan vaqtda va istalgan yo‘l bilan foydalanish imkonini bermoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanadigan bo‘lsak, jumladan AQShda “Raqamli kelajak” dasturi ishlab chiqildi, bu dasturga muvofiq bilim olish va ta’lim berishni

butunlay o‘zgartirish nazarda tutilgan. AQSh tadqiqotchilari xususiy o‘qituvchi singari samarali bo‘ladigan kompyuterlashtirilgan ta’lim dasturini yaratish ustida ish olib bordilar.

Tadqiqotchilar izlanishlar natijasida “Raqamli o‘qituvchi” dasturini hayotga tadbiq etdilar. Dasturning dastlabki natijalariga ko‘ra, axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassis bo‘lib yetishish uchun ketadigan vaqtni bir necha yildan bir necha oyga qisqartirish mumkinligini ko‘rsatdi [3].

Raqamli texnologiyalar (shaxsiy kompyuter, planshet, proektor, multimediya vositalari, elektron adabiyotlar va boshqalar) ta’lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Buning uchun elektron darsliklarni bilim olish jarayonini qiziqarli, yengil, esda qolarli va sog‘liq uchun zararsiz qilishga yo‘naltirish lozim. Elektron darsliklar bir vaqtning o‘zida ham matn, ham audiotushuntirish, ham videorolik, ham 3D- animatsiyasi kabi elementlarni o‘zida mujassamlashtira oladi. Bunday darsliklar ayniqsa, fizika, kimyo, tibbiyot kabi sohalarda ta’lim olayotganlar uchun juda qulay. Qachonki, raqamli texnologiyalar ta’lim olishning bir elementiga aylansa, ta’lim oluvchilar o‘qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadilar. Raqamli darsliklar vizual, multiformatli va interaktiv bo‘lgani sababli, mutaxassislar fikricha, tahsil oluvchilar axborotlarning 80% ni eslab qoladilar [4].

Pedagog muammoli masalalarni va butun bir muammoni hal etish uchun axborotni saralaydi. So‘ngra, muammoli vaziyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mukammal o‘ylab ko‘rib, diqqat e’tiborni ana shu aloqalarga alohida jalb qilishi zarur. Ushbu mashg‘ulotga pedagogni tayyorlashning navbatdagi bosqichi muammoli vaziyatlarni shakllantirish uchun kerak bo‘lgan ko‘rgazmali qurollarni tanlashdan iborat.

Bugungi kun ta’lim oluvchidan faol harakat qilishni, mustaqil qaror qabul qilishni, hayotning o‘zgarayotgan sharoitlariga tez moslashishni talab qiladi. Buning uchun, ta’lim oluvchi:

• zarur bilimlarni mustaqil egallash va amaliyotda qo‘llash;

• muammolarni yechishga qaratilgan qarashlarni taklif qilish, yangi muammolarni aniqlash va yechish;

• erkin va mustaqil fikrlash;

• kreativ g‘oyalar yaratish qobiliyatiga ega bo‘lish;

• o‘zining intellektual salohiyati rivojlantirish ustida mustaqil ishlash kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim.

Ushbu sifatlarga ega ta’lim oluvchilarni tayyorlashda faqat ta’lim mazmuni emas, balki muammoli o‘qitish texnologiyalari ham muhim o‘rin egallaydi. Chunki, bu jarayonda pedagog ham, ta’lim oluvchi ham o‘zining intellektual, jismoniy, ma’naviy imkoniyatlarini o’quv va amaliy muammolarni yechish uchun doim sinovdan o‘tkazadi hamda zarur sifatlarni shakllantirishga olib keladi.

Chunki, ular materialni yuqori intellektuallik darajalarida o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Har bir topshiriq faqat bir tushuncha yoki qonun-qoidani o’zlashtirilganligini tekshirishi hamda ixcham, tushunarli tarzda bayon qilinishi lozim. Aks holda, bu talaba uchun qo‘shimcha qiyinchilik tug‘diradi va o‘quv motivlarini susaytiradi. Topshiriqlar og‘zaki savoljavob, yozma va test shakllarida tuzilishi mumkin. Bir maqsadga turli shakllardagi topshiriqlar tuzish ham samarali bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T., 2020 yil 24 yanvar

2. Gulnora Ismoilova. Malika Parpieva. “Characteristics of Effective Use of Scientific and Technical Innovations in the field of Information Technologies” 2021 Mejdunarodnaya konferensiya po informatike i kommunikasionnim texnologiyam (ICISCT). Characteristics of Effective Use of Scientific and Technical Innovations in the field of Information Technologies

3. Parpieva Malika Muxamadjonovna. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli”. Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2022 yil, 3-son. https://statmirror.uz/en /yangisoni

4. Parpieva, Malika Muxamadjonovna. “Ta’lim tizimi sifatini oshirishda innovatsion faoliyat”. Akademicheskie issledovaniya v oblasti pedagogicheskix nauk 2.1 (2021): 491-503. 2021 - cyberleninka.ru ta’lim tizimi sifatini oshirishda innovatsion faoliyat academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723

5. Atamuratov Rasuljon Kadirjonovich. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida raqamli kompetensiyani rivojlantirish. Oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida innovatsion o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash masalalari (ict edu 2023)

## OLIY TA’LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

**Normamatova Nazira Alijon qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
naziranormamatova715@gmail.com

**Аннотация:** В данном тезисе раскрывается цифровизация системы высшего образования, организация данного процесса на основе инновационных технологии, пути устранение возникших проблем, обновление образова-тельного процесса, возможности организация занятий на основе современных технологии и повышении эффективности образования.

**Ключевые слова:** цифровизация, инновационные технологии, дистан-ционное образование, кибербезопасность, образовательные платформы, интерактивные образовательные материалы, цифровые системы управления, образовательные ресурсы, инновационные образовательные методики, искусственный интеллект.

**Abstract:** In this article, the digitization of the higher education system, the use of innovative technologies, the problems that arise in the digitization of the higher education system and their elimination, the renewal of the educational process, the organization of classes based on modern technologies, departing from the traditional method, and increasing the effectiveness of education and existing problems and shortcomings in preparing students for modern needs, and opinions about their elimination were expressed and analyzed.

**Key words:** digitization, innovative technologies, distance education, cyber security, educational platforms, interactive educational materials, digital management systems, educational resources, innovative educational metho-dologies, artificial intelligence .

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh negizida yosh-avlodni, ya’ni bo‘lajak kadrlarni kompetentli qilib tarbiyalash eng birinchi masala sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrda qabul qilgan O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim tizimining 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida milliy ta’lim tizimini yangi natijaga erishishga yo‘naltirish, “universal bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarning yangi tizimi, shuningdek, ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyat va shaxsiy mas’uliyat tajribasi, ya’ni zamonaviy asosiy kompetensiyalar” sifatida xizmat qilishi keltirib o‘tilgan.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan zamonimizda hamma sohada raqamli texnologiyalardan foyadalanib kelinmoqda. Ayniqsa ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega chunki buning natijasida pedagoglar va o‘quvchi, talabalarga ancha qulaylik yaratiladi hamda ta’lim samaradorligiga olib keladi. Ta’lim tizimidagi zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘layotgan o‘zgarishlar nafaqat ilmiy bilimlarning rivojlanishiga, balki ta’limda pedagogik va psixologik bilimlarning takomillashishiga ham tez ta’sir ko‘rsatmoqda.

***Ta’lim jarayoni*** – boshqaruvning murakkab va o‘ziga xos turi hisoblanadi, bu esa kibernetik tadqiqot predmeti bo‘lib, uni to‘g‘ri olib borish, o‘qitish va tarbiyalashning psixologik-pedagogik nazariyalariga tayanishni o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda pedagogik texnologiyalar tushunchasiga

ham qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman. Chunki sifatli ta’lim albatta pedagog tomonidan pedagogik mahoratni talab qiladi va albatta shu o‘rinda pedagog pedagogik texnologiyalardan, raqamli innovatsion texnologiyalardan habardor bo‘lishi va uni ta’lim jarayoniga qo‘llay olishi kerak. Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

***Ta'lim tizimida raqamlashtirish*** – bu ta'lim jarayonlarini, boshqaruvni va ta'lim resurslarini raqamli texnologiyalar yordamida samarali boshqarish va rivojlantirish jarayonidir. Bu tushuncha quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- raqamli o‘quv materiallari o‘qitish va o‘rganish jarayonida elektron kitoblar, videodarslar, onlayn kurslar va boshqa raqamli resurslar keng qo‘llaniladi. Bu talabalar uchun o‘qish jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi.

- masofaviy ta'lim raqamlashtirish orqali masofaviy ta'lim imkoniyatlari oshadi. Talabalar o‘z vaqtida va joyida ta'lim olishlari mumkin, bu esa o‘qitishning moslashuvchanligini ta'minlaydi.

- o‘qitish metodologiyalarini yangilash innovatsion texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt va o‘yinlar, o‘qitish metodlarini yangilashga yordam beradi. Bu talabalarni yanada faol ishtirok etishga va o‘qish jarayonida motivatsiyani oshirishga olib keladi.

- boshqaruv tizimlari ta'lim muassasalarida raqamli boshqaruv tizimlari (masalan, o‘qituvchi va talabalar uchun platformalar) o‘qitish jarayonini, kirish va natijalarni monitoring qilish imkonini beradi.

- ma'lumotlarni tahlil qilish raqamli tizimlar yordamida to‘plangan ma'lumotlar (masalan, talabalar muvaffaqiyati, qatnashuv) tahlil qilinishi va bu natijalar asosida ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

- kiberxavfsizlik raqamlashtirish jarayonida ma'lumotlarning xavfsizligi muhim masala hisoblanadi. Ta'lim muassasalari talabalar va o‘qituvchilar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun zarur chora-tadbirlarni ko‘rishlari kerak.

Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish va o‘qitish jarayonini yanada samarali qilish uchun zaruriydir. Hozirgi vaqtga kelib oliy ta’lim muassasalarida hemis dasturining yaratilishi va undan o‘qituvchilar va talabalar unumli foydalanib kelinayotgani ham raqamli texnologiyalarning bir ko‘rinishi deb aytishimiz mumkin. Bu jarayon bir qator muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi bunda raqamli ta'lim platformalaridan xususan oliy ta'lim muassasalari o‘z o‘quv dasturlarini raqamli platformalarda taqdim etishga o‘tmoqda.

Masofaviy ta'lim platformalari (masalan, Moodle, Coursera, edX) orqali talabalar turli fanlarni osonlik bilan o‘rganishlari mumkin. Bu platformalar interaktiv materiallar, videodarslar, muhokamalar va testlar bilan ta'minlaydi bundan tashqari ta’lim jarayonida innovatsion ta'lim metodologiyalaridan ya’ni Blended Learning (Aralash ta'lim) an'anaviy darslar va onlayn ta'limni birlashtirish orqali talabalar o‘z vaqtlarini va resurslarini samarali boshqarishi mumkin hamda gamifikatsiya ya’ni, o‘qitishda o‘yin elementlaridan foydalanish talabalarni motivatsiya qilish va o‘rganish jarayonini qiziqarli qilishga yordam beradigan jarayon hisoblanadi.

Ma'lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish orqali talabalarning muvaffaqiyati va o‘qish jarayoni haqida chuqur tahlil o‘tkazish mumkin. Sun'iy intellekt (AI) yordamida individual o‘qitish rejalari tuziladi, talabalarning o‘zlashtirish darajasini baholash va ularga mos yordam ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Talabalar Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) texnologiyalar yordamida talabalar haqiqiy hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan interaktiv o‘rganish tajribasini olishlari mumkin. Masalan, muhandislik yoki tibbiyot fakultetlarida VR simulyatsiyalari orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Raqamli boshqaruv tizimlaridan ham oliy ta’limda unumli foydalaniladi ya’ni ta'lim muassasalarining ichki boshqaruv jarayonlari raqamli tizimlar (masalan, Student Information Systems) yordamida avtomatlashtiriladi. Bu o‘qituvchilar va talabalar uchun kirish, natijalarni monitoring qilish va boshqa jarayonlarni soddalashtiradi. Bundan tashqari raqamlashtirish

jarayonida ijtimoiy va madaniy jihatlarni ham inobatga olishi kerak. Turli madaniyatlar va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida raqamli ta'lim imkoniyatlaridan foydalangan holda, ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar uchun dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu jarayonning asosiy muammolari va ularni hal etish usullari quyidagilar:

**1. Raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi.**

- **Muammo:** Ko‘plab oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarga mos infratuzilma mavjud emas. Internetga ulanish darajasi past, kompyuter va boshqa raqamli qurilmalar yetarli emas.
- **Yechim:** Maktab va universitetlarning raqamli infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

**2. O‘qituvchilar va talabalar uchun malaka oshirish**

- **Muammo:** O‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar bo‘yicha bilimlari yetarli emas. Talabalar esa innovatsion texnologiyalarni qabul qilishda qiynalishadi.
- **Yechim:** O‘qituvchilar va talabalar uchun doimiy malaka oshirish kurslari tashkil etish, onlayn platformalarda treninglar o‘tkazish.

**3. O‘qitish metodologiyasining yangilanishi**

- **Muammo:** An'anaviy o‘qitish usullari raqamli texnologiyalarni to‘liq o‘z ichiga olmaydi.
- **Yechim:** Interaktiv va ta'sirchan o‘qitish metodologiyalarini joriy etish, masofaviy ta'limni rivojlantirish.

**4. Ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi**

- **Muammo:** Raqamli platformalarda ma'lumotlarning xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash muhim masala hisoblanadi.
- **Yechim:** Kiberxavfsizlikni mustahkamlash, ma'lumotlarni himoya qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

**5. Tegishli normativ-huquqiy bazaning yetishmasligi**

- **Muammo:** Raqamli ta'lim uchun zarur bo‘lgan qonunchilik va normativ- huquqiy bazalar to‘liq ishlab chiqilmagan.
- **Yechim:** Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirishga oid qonunchilikni yangilash va rivojlantirish, yangi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish.

**6. Ijtimoiy va madaniy omillar**

- **Muammo:** Raqamli ta'limga nisbatan ijtimoiy qarashlar, turli madaniyatlar orasidagi tafovutlar.
- **Yechim:** Ijtimoiy ongni o‘zgartirish, raqamli ta'limning afzalliklarini targ‘ib qilish, barcha qatlamlarni jalb etish.

**7. Moliya va resurslar taqchilligi**

- **Muammo:** Raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarning yetishmasligi.
- **Yechim:** Davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, grantlar va investitsiyalarni jalb qilish.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida raqamlashtirish, ta'lim sifatini oshirish, o‘qitish jarayonini samarali boshqarish va zamonaviy talabalar ehtiyojlariga javob berish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, shuningdek, global raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lim jarayonini yangilash, samaradorligini oshirish va talabalarni zamonaviy ehtiyojlarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon ko‘plab imkoniyatlarni ochadi va ta'limni yanada sifatli va raqobatbardosh qiladi.

Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish jarayonida ko‘plab muammolar mavjud, ammo ularni hal qilish orqali ta'lim sifatini oshirish, talabalarning raqobatbardoshligini kuchaytirish va yangi imkoniyatlar yaratish mumkin. Buning uchun kompleks yondashuv zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // PF-5847-son .
2. Jumanazarov S.S. Tinglovchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish //Fizika, Matematika va Informatika// ilmiy-uslubiy jurnal. T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. 2023. №2
3. O‘g‘iloy Abdullayeva. Pedagogik texnologiya. Toshkent, 2015.
4. www.ziyonet.uz – Axborot ta’lim portali.

## OLIY TA’LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

**Eshonqulova Kamola Ibroximovna**
Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchi
e-mail: eshonqulovakamola1@gmail.com
**Safarova Nafisa Ulug‘bek qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi
e-mail: nafisasafarova22@gmail.com

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishdagi asosiy muammolar va shuningdek, kundalik hayotimizda ham innovatsion texnologiyalarning qay darajada ahamiyatli ekanligi haqida bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Oliy ta’lim, innovatsion, texnologiya, raqamlashtirish, quiz test, talaba, kompetensiya.

**Annotation.** This article describes the main problems in digitizing the higher education system and organizing it based on innovative technologies, as well as the importance of innovative technologies in our everyday life.

**Keyword:** Higher education, innovation, technology, digitization, quiz test, student, competence.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlis Murojaatnomsida 2020-yil uchun muhim vazifalar haqida asosan innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni keltirib o‘tdi:

“Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va ma’daniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida men yurtimizda 2020-yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili “ deb nom berishni taklif berdim“ -deydilar. Yana O‘zbekistonda ta’lim tizimini yanada ravnaq toptirish uchun bir qancha konsepsiyalar, nizomlar, qonunlar ishlab chiqilmoqda. Bulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida quyidagilar belgilangan:

- Oliy ta’limda o‘qib tahsil olgan har bir talaba mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali va mustahkam bilimli kadrlar tayyorlash;
- Fuqarolar orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu qatorda imkoniyati cheklangan aholilarning ta’lim olishlari uchun zarur bo‘lgan infratuzilmalar, texnologiyalar bilan ta’minlashga oid sharoitlarni yaxshilash va shu kabi bir qancha tushunchalar keltirilgan.

Bugungi kunda raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamon talabi darajasiga ko‘tarilgan. Qayerga qaramang, yon-atrof bizni o‘rab turgan jamiyat texnikalardan iborat. Oliy ta’limni raqamlashtirish nima uchun kerak? Hozir buning asosiy sabablaridan bir qanchasini ko‘rib chiqamiz:

- talaba yoshlarga bilimlarni zamonaviy ko‘rinishda berish uchun ya’ni ularni raqamalashayotgan kelajakka tayyorlash uchun;

- bo‘lajak pedagoglarni hozirgi zamon yoshlarining talablarini to‘laqonli bajara olishi uchun. O‘quvchilarga kerakli va zarur bo‘lgan bilimlarni yangicha ko‘rinishda qiziqarliroq ravishda o‘rgata olishlari uchun;

- talabalarning texnologiyalar bilan ishlashga bo‘lgan kompetensiyalarini rivojlantirish uchun.

Hozirgi paytda biz raqamlashgan va rivojlangan jamiyatda yashayapmiz. Har bir ishni bitkazish uchun texnika-dan foydalanilmoqda. Masalan:

- bilimlarni mustahkamlash maqsadida quiz testlar, turli xildagi onlayn o‘yinlar ham bor, bulardan foydalanish uchun;

- yangi, qo‘shimcha bilimlarni olish uchun onlayn dars va videoroliklarni ko‘rish uchun;

- pedagoglar turli xil metod va ko‘rgazmali qurollarni o‘quvchilarga taqdim etishlari uchun.

Bu kabi millionlab sabablarni topishimiz mumkin. Bu faqatgina ta’limga oid sabablar kundalik hayotimizda ham bunday sabablardan misollarni anchaginasini aytsak bo‘ladi.

1. Oddiygina onlayn taksi “yandex” xizmatidan foydalanish uchun;
2. Taom, yegulik, turli xil liboslarni ham onlayn xarid qilish uchun ;
3. Qayergadir ariza yuborish uchun davlat idoralarida navbat kutib o‘tirish shart emas gajetlardan foydalanib bu ishni bitirsa bo‘ladi;
4. Kredit olish uchun ham onlayn ariza tashlashni o‘zi kifoya.

O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida joylashgan Oliy ta’lim muassasalari “HEMIS” tizimiga ulangan . Talabalar bu tizim orqali ball to‘plab borishadi, vazifalar olib, vazifalar ushbu tizimga talabalar tomonidan joylanib boriladi. Davomat, yakuniy nazoratga, oraliq va joriy nazoratlar ham ushbu tizim orqali nazorat qilib boriladi. Bu tizimda barcha talabalarning shaxsiy kabineti bo‘ladi. Bu kabinetga kirish uchun login va parollar taqdim etiladi.

Oliy ta’limni raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning ham bir qancha muammolari bor bular:

- Dars davomida foydalanish uchun xonalardagi televizorlarning yetishmasligi;
- Wi-fi tarmog‘ining barcha xonalarga yetib bormasligi;
- Kerakli jihozlar bilan to‘ldirilmaganligi kabi asosiy muammolar bor.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mukinki, barcha Oliy ta’lim muassasalari, o‘rta maxsus, kasb-hunar talimlari barcha ta’lim dargohlari talabga javob beradigan darajada innovatsion texnologiyalar bilan jihozlanishi va barcha bu texnologiyalardan qanday foydalanishni bilishlari zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. PF-5847-son 08.10.2019 “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Ta’lim Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gifarmon.

2. PQ-2909-son 20.04.2017 “Oliy Ta’lim tizimini yanada yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qonun.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM TIZIMIDA “KREDIT – MODUL” TIZIMINING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Mamarasulov Sobirjon Odiljon o‘g‘li**
Guliston davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika va Psixologiya” yo‘nalishi 2-magistri
e-mail: sobirjon5464@gmail.com

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim tizimining bugungi kundagi ta’lim jarayonini tashkil etishdagi asosiy o‘zgarishlar, ta’limni Kredit-modul tizimi uning vatanimizda joriy etilishi, ahamiyati, yutuqlari, muammolari va jahon standartlariga tenglasha olish uslublari ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston Oliy ta’lim tizimi, ta’limning Kredit-modul tizimi, butun jahon standarti, ta’limdagi o‘zgatishlar, ta’limdagi qulayliklar, ta’limdagi muammolar, ta’limdagi yutuqlar va muvaffaqiyat.

**Abstract:** This article shows the main changes in the organization of the educational process of the higher education system of the Republic of Uzbekistan today, the introduction of the credit-module system of education in our country, its importance, achievements, problems and methods of bringing it up to world standards.

**Keywords:** Uzbekistan higher education system, credit-modular system of Education, World standard as a whole, educational developments, educational facilities, educational problems, educational achievements and success.

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan belgilangan ustuvor vazifalardan biri bu – ta’limda sifatni yaxshilash va takomillashtirish hisoblanadi. Ta’limdagi islohotlar kelajakda katta samara berishini rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yaqqol isbotlab turibdi. Bugun mamlakatimizda aynan ta’lim sohasiga yangicha boshqaruv tizimlarini joriy etish, ta’lim jarayonini tashkil etish darajasini jahon tajribasi asosida rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va kelajakda mutaxassislarning mas’uliyatini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Ayni damda insoniyat olamida turli o‘zgarishlar, yutuqlar, kamchiliklar va xavflar ortib bormoqda. Buni har bir jabxada ko‘rish, kuzatish, anglash mumkin. Yurtimizda masofaviy ta’limning shakllanib, rivojlanib borishi, ilk davri kamchiliklarsiz bo‘lmasligi tajribalardan ma’lum. Masofaviy ta’limning qulayliklari keng bo‘lib, unda o‘qituvchi va o‘quvchi erkin faoliyati olib borish imkoniyatlariga (vaqt va masofa nuqtai nazaridan) egadir.

**Muhokama va natijalar.** Ilm va bilimning shakllanishi bevosita ta’lim tizimiga bog‘liq. Ta’lim tizimini samaradorligi professor - o‘qituvchilar salohiyatini oshirish, talabaning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quv adabiyotlari mazmuni va maqsadlarini to‘g‘ri belgilash, mustaqil ta’limni shakllantirish bilan o‘zaro bog‘liq. Ana shu bog‘liklikni o‘zida aks etgan, yana bir ta’lim tizimi, butun Respublikamiz uchun yangi hisoblangan tizim bu – ta’limniing “Kredit-modul” tizimi.

Mamlakatimiz OTM (Oliy ta’lim muassasa)larida ham bosqichma - bosqich kredit-modul o‘qitish tizimiga o‘tish ishlari boshlab yuborilgan. Hususan, 2030 yilgacha kredit-modul tizimi joriy etiladigan OTMlar soni 2 tadan 85 taga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Ta’limda modul – bu alohida individual o‘quv fani. O‘zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo‘lib, ta’lim oluvchilarning o‘quv dasturini o‘zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishni nazarda tutadi. Bu bir nechta fan hamda kurslar o‘rganiladigan o‘quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma’lum bir bilim va ko‘nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo‘lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Xorijiy tajribaga ko‘ra, kredit-modul tizimida o‘quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo‘ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o‘zaro uzviy to‘ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi.

Kredit-modul o‘qitish tizimi esa, har bir o‘quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o‘quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o‘quv dasturini o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan bo‘lib, o‘quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta’limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot “kredit soati” tushunchasini iste’molga kiritadi. Shunday qilib, 1870 – 1880-yillarda kredit soatlari bilan o‘lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o‘qish va o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish talabalarga o‘quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta’lim texnologiyalarini- takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

**“Kredit (credit)** – talabaning alohida ta’lim yo‘nalishi yoki dasturi bo‘yicha fanlarni o‘qib o‘rganishi va o‘zlashtirishi uchun sarflangan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligidir. Kredit — talabalarning me’yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va

mustaqil ravishda ta’lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o‘lchovidir. Talabaga kredit ma’lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng beriladi. Har bir talaba kelajakda tanlagan yo‘nalishi va mutaxassisligi bo‘yicha diplomga ega bo‘lishi uchun kreditlarni yig‘ib borishi lozim. To‘plangan kredit talabaga butun umr davomida o‘zining malakasini oshirib borish yoki qo‘shimcha oliy ma’lumot olishiga hizmat qilib boraveradi.

Kredit to‘plash o‘lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo‘lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog‘da, baholash tizimi va ta’lim texnologiyalarining takomillashishiga ham olib keldi.

Bolonya deklaratsiyasida ko‘zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil ta’limga urg‘u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga hizmat qiladi:

birinchisi, talabalar va o‘qituvchilarning mobilligini, ya’ni bir oliy ta’lim muassasasidan boshqa OTMga to‘siqlarsiz, erkin ravishda o‘tishini (o‘qishni yoki ishni ko‘chirish) ni ta’minlaydi;

ikkinchisi, talabaning tanlagan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha barcha o‘quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama – kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig‘indisi talabaning tanlagan -dasturi bo‘yicha nimani qancha o‘zlashtirganligini namoyon etadi.

Kredit-modul tizimi, bu – ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari:

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:

- o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ningqiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish;
- ta’lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi.

**O‘zbekiston Oliy o‘quv yurtlarida “Kredit - modul” tizimining qo‘llanilishi.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida” nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizomda esa kredit-modul tizimiga oid asosiy tushunchalar berib o‘tilgan. Unga ko‘ra:

GPA (Grade Point Average) – ta’lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati bo‘lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

GPA =K1U1+K2U2+K3U3…+KnUn : K1+K2+K3…+Kn ga tengdir.

Bunda:

K – har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U – har bir fan/modul bo‘yicha talaba to‘plagan baho;

Kredit – ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba tomonidan muayyan fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

Kredit to‘plash – ta’lim elementlarini o‘zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to‘plash;

Talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi – talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to‘plash va xohlagan kompetensiyalar yig‘indisiga ega bo‘lish imkoniyatini beradigan yo‘nalish (marshrut).

O‘qish yuklamasi – talaba tomonidan o‘quv faoliyatining barcha turlari – ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o‘quv natijalariga erishish uchun zarur bo‘lgan soatlar hajmi asosida belgilanadi.

Mazkur tizimning oliy ta’limga joriy qilinishi o‘qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyaga barham berish, ta’lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda talabaning mustaqil o‘qib-o‘rganib, o‘z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi ko‘hna qit’aning deyarli barcha oliy o‘quv yurtida amaliyotga joriy etilgan.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o‘qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta’limda pedagog tinglovchining o‘zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo‘naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg‘u ham talabalarning mustaqil ta’lim olishiga qaratiladi.

Ta’limning kredit tizimi talabalar almashinuvini oshiradi. Chunki bitta universitetda olingan kreditlar ikkinchisida hisobga olinadi va talabalar kredit yo‘qotmasdan bir universitetdan -boshqasiga o‘tishi mumkin. Aynan ushbu -tizim o‘zbekistonlik talabalarning ilg‘or xorijiy universitetlarda o‘qishini davom ettirishiga hamda murakkab byurokratik to‘siqlarni olib tashlashga imkoniyat yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, har qanday tizim rivojlanishi uchun yangiliklarni joriy qilishga ehtiyoj sezadi. Shunday ekan OTMlarida kredit-modul tizimini joriy qilish va uni rivojlanishi OTMlarida yetishib chiqayotgan yosh kadrlarni o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha yetuk kadr bo‘lishi, ishga joylashishida, professor o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga, OTMlarida o‘quv-moddiy bazani rivojlantirishga, akademik mustaqilligini ta’minlashga, OTMlarida talaba, professor-o‘qituvchilarni o‘zaro almashishda (chet el OTMlari bo‘ycha ham) qulayliklar tug‘diradi, O‘zbekiston Respublikasini Bolonya jarayonlarida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritishida va boshqalarni amalga oshirishda katta yordam beradi.

**Foydaalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 1-ilovasi, 9- bandi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

4. Axmedova S. R. Masofaviy ta’lim va uning horijiy tillarni o‘qitishdagi o‘rni //Science and Education. - 2021.

5. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim Muassasalarida ECTS Kredit- Modul Tizimi: Asosiy Tushunchalar va Qoidalar. 2020.

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

**Yuldasheva Nigora Sultanovna**

GulDPI “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy kompetentligi shakllantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati haqida yoritilgan. Shuningdek, shu mavzu bo‘yicha tadqiqot olimlarning fikrlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetentlik, integrativ yondashuv, integral, integratsiya, ta’lim-tarbiya jarayoni.

**Abstract:** this article covers the importance of an integrative approach to the preparation of future teachers for professional activities, the formation of professional competence. Also, research on the same topic analyzed the opinions of scientists

**Keywords:** professional training, professional competence, integrative approach, integral, integration, educational process.

Respublikamizda bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni metodik jihatdan takomillashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, kasbiy kompetentligi, raqamli va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish alohida ahamiyatga molik masalalardan hisoblanadi.

Pedagog olim, professor N.Muslimov tadqiqot ishida “Kasbiy shakllanish” tushunchasiga alohida to‘xtalib, “Kasbiy shakllanish – shaxs kamolotining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, shaxsning faqatgina mehnat va kasbiy faoliyatini tanlash bilan bog‘liq ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi (umumiy rivojlanish barcha ehtiyojlar majmuasini, uning borliqqa, atrofdagilarga o‘ziga nisbatan munosabatlari tizimini ifoda etadi)”, deya ta’kidlagan.

N.Ahmedovaning ta;kidlashicha, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida qurishni takomillashtirish ta’limda integratsiyaning birligi fenomeni haqidagi ilmiy axborotni tadqiq qilish, integrativ yondashuv tushunchalarini va ularni chet tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi tizimini tavsiflash uchun qo‘llashning maqsadga muvofiqligini tahlil qilishga asoslanadi.

B.Myullerning yangi inglizcha va ruscha lug‘atida mazkur terminga quyidagicha ta’rif berilgan: «Integral – 1) muhim; 2) to‘la, butun, yaxlit integrallashgan, integrativ – to‘la va butun qilish, butunni tashkil qilish, o‘rtacha qiymati yoki umumiy miqdorini aniqlash; 3) *mat.*integrallashtirish. Integratsiya –1.*mat.* integratsiya, integrallash; 2. Bir-biriga birlashtirish».

Izohlardan ko‘rinadiki, «integral» atamasi matematik tushunchani ifodalaydi, «integratsiya esa qismlarni birlashtirish tushunchasini bildiradi. Shu bois «integral», «integrallashgan» atamalarini «integrativ», «integratsiya», «integratsiyalashgan» atamalariga sinonim sifatida qo‘llash mutlaqo nojoiz.

Integratsiyaning universalligi shunda namoyon bo‘ladiki, u umumiy va universal fenomen, dunyoda integrativ xossalarga ega bo‘lmagan narsa va hodisa bo‘lishi mumkin emas. N.K. Chapayevning ta’kidlashicha, bu ontologik va gnoseologik reallikka, jonli va jonsiz tabiatning barcha sohalariga, inson faoliyatining barcha sohalariga, jumladan pedagogikaga ham aloqador, pedagogikada integratsiya o‘quv-tarbiya jarayonining barcha tomonlari: pedagoglar va ta’lim oluvchilarning faoliyati; o‘qitish va tarbiyalashning maqsadlari, printsiplari, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari faoliyati; pedagogik bilimlar faoliyatining barcha darajalarini ―qamrab oladi‖. Polimorfiklik, tadqiqotchining fikricha, integratsiyaning turli sifatlarda gavdalanish, bilish va inson faoliyatining xilma-xil sohalarida turli shakl (tur, tip) larga ega bo‘lish qobiliyatini ifodalaydi.

Bu tushunchani o‘qitishning mazmuniy va protsessual tomonlarining birligi sifatiga qarab, M.N.Berulava ta’lim mazmunini integratsiyalash deganda ta’lim oluvchilar bilimlarining tizimliligi va zichligi ortishi bilan kechadigan ta’lim mazmunining strukturaviy elementlarining o‘zaro ta’siri jarayoni va uning natijasini tushunadi.

Pedagogika ensiklopediyasida “integrativ yondashuv” tushunchasi quyidagicha talqin qilingan: integrativ yondashuv – ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda boshqariluvchi ob’ektga bir necha yondashuvlar (vaziyatli, tizimli, innovatsion va h.k..)ni birgalikda qo‘llashni anglatuvchi tushuncha. Mazkur atama umumlashtirilgan yondashuvlarni ifodalaydi.

N.K.Chapayev o‘zining ilmiy tadqiqotida sanab o‘tilgan belgilar qatoriga yana ikkitasini qo‘shadi :

1) integratsiyaning universalligi va polimorfikligi;

2) butun va uning qismlari uyg‘un birligi.

Bo‘lajak o‘qituvchining integrativ yondashuv asosidagi kasbiy pedagogik faoliyati — o‘qituvchi-o‘quvchi‖ o‘zaro aloqasi negizida olib boriladi va aynan shu jarayonda ta’limiy tarbiyaviy, korrektsion, rivojlantiruvchi maqsadlar amalga oshiriladi.

Integrativ yondashuv turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka hamda tajribani hisobga olish, ularga tayanish ya’ni chet tilda kasbiy, kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni integratsiyalash, barobar takomillashtirishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarni, kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishda integrativ yondashuvning o‘rni nihoyatda ahamiyatlidir. Nutq faoliyati turlarini integratsiyalash ayrimlikdan uyg‘unlikka olib keladi va nutq faoliyatining barcha turlarida erkin muloqot yuritish imkoniyatini shakllantiradi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirish, ilmiy-ijodiy izlanishi, o‘z ustida ishlashi, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishida ta’lim tamoyillari, zamonaviy yondashuvlarni kasbiy faoliyatiga tatbiq qilish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedova N.H. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Ped.fan.fals.dok.diss… Toshkent, 2020. – 268 b.

2. Берулава, М.Н. Интеграция содержания образования / М.Н.Берулава. – М.: Педагогика, Бийск: Науч.-изд. центр БиГПИ, 1993. – 172 с.

3. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped.fan.fal….diss. Toshkent-2007. -281 b.

4. Мюллер В. Новый англо-русский словарь. New English- Russian Dictionary. Издательский дом Диалог. – М., 2003. –895 б .

5. Усманова Д. Инглиз тилига ўқитишда CEFR талабларин бажаришнинг ўзига хос жиҳатлари// Чет тилларни ўқитишни CEFR асосида такомиллаштиришнинг истиқболлари. Халқаро илмий- амалий конференция мақолалари тўплами. − Т., 2015. − Б.39.

6. Чапаев, Н. К. Интеграция образования и производства: методология, теория, опыт: монография / Н. К. Чапаев, М. Л. Вайнштейн. – Челябинск: ЧИРПО; Екатеринбург: ИРРО, 2007. – 408 с.

## OILAVIY INQIROZLARNING DAVRLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI

**Madatova Tamam Elman qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti
2-kurs magistranti
E-mail: gulbodomjon@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda, oilaviy inqirozlarning davrlari va bartaraf etish yo‘llari, uning farzandlarga ta’siri va ularning oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yoritib berilgan. Hech kimga sir emaski, oila – bu ikki turmush o‘rtog‘ining o‘zaro ijodkorligi. Vaqt o‘tishi bilan oilaning vazifalari o‘zgaradi va parallel ravishda turmush o‘rtoqlarining bir-biriga bo‘lgan munosabati ham o‘zgaradi. Har bir shaxs kabi, oila ham inqirozlarni boshdan kechiradi. Oila – bu tizim. Har qanday tizim kabi, u gomeostaz qonunlariga bo‘ysunadi, ya’ni doimiylikka intiladi.

**Kalit so‘zlar:** nikoh, ajrimlar, oilaviy ziddiyatlar, Oila, qadriyat, inqirozlar, rivojlanish, bosqich

**Abstract.** This thesis discusses stages related to children, ways to remove or address them, and efforts being conducted to examine and resolve these issues. It is no secret that a family is the mutual creation of two partners. Over time, families undergo changes, and the relationship between spouses evolves accordingly. Like every individual, families also go through crises. A family is a system, and like any system, it adheres to the principles of homeostasis, meaning it strives for stability.

**Key words:** marriage, divorces, family conflicts, family, values, crises, development, stages

O‘rta Osiyoda oila jamiyatning asosiy negizi, uning mustahkam poydevori hisoblanadi. Oilaning muqaddasligini, farovonligini ta’minlashda, birinchi navbatda, ayolning o‘rni beqiyos.

Shu o‘rinda Prezidentimizning “Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan muqaddas urf-odatlarni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor”, “Ayol baxtli bo‘lsa, oila tinch, jamiyat esa barqaror bo‘ladi”, degan serma’no so‘zlarini hayotga tatbiq qilish zarurligi davr talabi bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan bo‘lib, 76-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratadi”, deb alohida ta’kidlangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasida “Oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqli deb belgilab qo‘yilgan. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi”, deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Psixologlarning fikriga ko‘ra, oila o‘z rivojlanishida muzlab qolmagan "jamiyat hujayrasi" emas, uning bir davlatdan ikkinchisiga sifatli o‘tishi er va xotin o‘rtasida ziddiyatlar kuchayganda inqiroz hodisalari bilan kechadi. Va faqat ularni o‘z vaqtida aniqlash va yumshatish qobiliyati er-xotinlarga jiddiy kelishmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi.

Agar yoshlar bir-birlarini juda yaxshi ko‘rsalar, oilaviy munosabatlar inqirozi qiyin bo‘ladi. Nikoh qulaylik uchun tuzilgan bo‘lsa, unda tushunarsiz, ko‘zga ko‘rinmas xususiyatlar bo‘lishi mumkin. Psixologlar oilaviy inqirozning ikki turini ajratadilar: me'yoriy va nostandart. Birinchisi, oilaning bir ahvolidan ikkinchisiga o‘tish davri deb hisoblanadi (bola tug‘ilishi, gapirishni boshlaydi, bolalar bog‘chasiga borishi va hokazo) yoki er-xotinning muammolari bilan bog‘liq, masalan, erkaklarda jinsiy funktsiya va ayollarda menopauza. Ikkinchisi, oiladagi inqirozli munosabatlarga sabab bo‘lgan holatlarni tahlil qilish bilan bog‘liq. Oila hayotida oilaviy inqirozlarning bir necha davrlari ajralib turadi, ular yillar davomida ba'zi psixologlar tomonidan belgilanadi:

**Oilaviy inqirozning birinchi davri**. Statistika shuni ko‘rsatadiki, yangi turmush qurganlarning 50% ga yaqini bir yil turmush qurmasdan ajralishadi. Oddiy tushuntirish shundaki, kundalik hayot “tiqilib qoldi”. Ma'lum bo‘lishicha, romantik sevgi tajribalari davri tez o‘tdi, oilaviy munosabatlar, hali rivojlanishga ulgurmagan, kundalik muammolar “qoyalariga” qulab tushdi.

**Ikkinchisi (3-5 yillik turmushdan keyin)**. Er-xotinlar allaqachon “ko‘nikishgan”, bolalar paydo bo‘lgan, siz “uyangizni” tartibga solish, bolalarni parvarish qilish va tarbiyalash haqida o‘ylashingiz kerak, bu moddiy farovonlik xavotirlari bilan bog‘liq (nufuzli odamni qidirish) ish, martaba o‘sishi). Bu vaqtda, munosabatlarda beixtiyor sovuqlik paydo bo‘lganda, psixologik darajadagi ba'zi begonalashuvlar mavjud, chunki tushgan tashvishlar bir-biringizga etarlicha e'tibor berishga imkon bermaydi.

**Uchinchisi (7-9 yillik turmushdan keyin)**. Asta-sekin “hushyor bo‘lish” ning qiyin davri. Kamalak orzularining vaqti abadiy ketdi. Hamma narsa o‘z o‘rnini topdi va turmush qurishdan (nikohdan) oldin orzu qilinganidan uzoqroq rivojlandi. “Sevgi qayig‘i” birinchi navbatda bolalar bilan bog‘liq oilaviy muammolar nasriga mustahkam o‘rnashdi. Hayotda hech qanday ajoyib narsa bo‘lmaydi degan fikrdan hafsalasi pir bo‘lish vaqti keldi.

**To‘rtinchisi**. Bu 16-20 yil birga yashaganidan keyin, bolalar yetarlicha katta bo‘lgach, ular bilan yangi muammolar paydo bo‘ladi deb ishoniladi. Aftidan, uning shaxsiy hayotida hammasi ro‘y bergan, karerasida ma’lum yutuqlarga erishilgan, “keyin nima bo‘ladi?” optimistik javob topa olmaydi.

**Beshinchisi**. Bu er va xotin 50 yoshga to‘lmaganida sodir bo‘ladi (garchi ikkalasidan biri katta yoki yoshroq bo‘lsa). Bu voyaga yetgan bolalar bilan bog‘liq, ular allaqachon maktabni, oliy o‘quv yurtlarini tugatgan, o‘z ona “uyasidan” uchib ketishgan va mustaqil bo‘lishgan. “Yetim” ota-onalar o‘z hayotlarini qayta tiklashlari kerak, ular qandaydir tarzda bolalarga g‘amxo‘rlik qilish uchun sarflanadigan bo‘sh vaqtni qandaydir tarzda boshqarishlari kerak.

**Oltinchisi**. Aslida, uni beshinchi variant deb hisoblash mumkin. Qachonki o‘g‘il yoki qiz (turmushga chiqqan, uylangan) ota-onasi bilan qolganda. Oilaning yangi a'zosi har doim stressli vaziyatdir, chunki u tufayli siz yillar davomida o‘rnatilgan odatiy hayot ritmini keskin ravishda buzishingiz kerak. Oilaviy munosabatlarning bunday inqirozi nafaqat ota-onalarga, balki yosh oilaga ham ta'sir qiladi va u uchun ko‘pincha ajralish bilan tugaydi. Garchi buning ijobiy tomoni bo‘lsa-da, agar “qariyalar” bilan yoshlar o‘rtasidagi munosabatlar muvaffaqiyatli bo‘lsa, bobo-buvilar o‘z vaqtlarini paydo bo‘lgan nabiralarga bag‘ishlashadi.

**Yettinchi.** Er va xotin nafaqaga chiqib, yolg‘iz qolganda, bolalar uzoq vaqtdan beri va, ehtimol, hatto boshqa shaharda ham hayot kechirishadi. Ijtimoiy doiralar keskin qisqaradi, er-xotinlar yolg‘izlikni his qilishadi, bo‘sh vaqtlari ko‘p, buning hech qanday aloqasi yo‘q. Bu yerda asosiy narsa- psixologik jihatdan qayta tashkil qilish, o‘zingiz uchun biror narsa topish.

**Sakkizinchi**. Aytishimiz mumkinki, bu yosh bilan bog‘liq oxirgi inqiroz davri, turmush o‘rtoqlardan biri vafot etadi. Siz umr bo‘yi birga yashagan yaqiningizni yo‘qotishning og‘irligi psixikaga og‘ir ta'sir qiladi, siz qolgan vaqtgacha shu og‘riq bilan yashashingizga to‘g‘ri keladi.

Bilish muhim! Oilaviy hayot inqirozlari – bu oilaning normal rivojlanishi. Siz ularni qanday yengish kerakligini bilishingiz kerak.

Oilaviy inqirozlarni bartaraf etish yo‘llari:

1. **Xafagarchilikni yashirishning hojati yo‘q**. Aytaylik, er o‘z xotiniga tanbeh beradi, lekin u aybdor nigoh bilan jim. Yashirin norozilik ruhni yutib yuboradi. Ba'zida siz janjal qilishingiz mumkin, lekin janjallar haqoratga aylanib, unutilmaydigan og‘ir, kechirilmaydigan jinoyatga olib kelganda, u “ko‘lamdan chiqib ketmasligi” uchun ma'lum qoidalarga amal qilishingiz kerak.

2. **Siz haqorat qila olmaysiz**! Janjalda siz shaxsiy bo‘lishingiz shart emas: “Siz shundaysiz, ota-onangiz va do‘stlaringiz esa falonchi …”

3. Siz bir-biringizni omma oldida haqorat qila olmaysiz, begona odamlar sizning shaxsiy va oilaviy muammolaringizni umuman bilmasligi kerak.

4. **Oltin axloq qoidasini eslang** … O‘zingiz xohlamagan narsani sevganingizga (boshqa odamlarga) tilamang.

5. **O‘zingizga tanqidiy munosabatda bo‘ling** … O‘zingizni turmush o‘rtog‘ingizning o‘rniga qo‘ying, ya'ni boshqacha ko‘z bilan qarang, bu sizga oilada yuzaga kelgan muammoni ob’ektiv baholash va oqilona hal qilishga yordam beradi.

6. **Bila turib qarama-qarshi mavzulardan qoching** … Agar, masalan, er futbolni yaxshi ko‘rsa, lekin xotini sevmasa, bu mavzuga tegmaslikka harakat qiling.

7. **G‘azabingizni qog‘ozga to‘kib tashlang** … Kundalik tuting, his-tuyg‘ularingizni unga ishonib topshiring, bu sizni tinchlantirishga yordam beradi. Daftar hamma narsaga chidaydi, lekin tirik odam yomon so‘zdan xafa bo‘lishi mumkin.

8. **Har kimning o‘z erkinlik burchagi bo‘lishi kerak** … Agar yashash sharoitlari bunga imkon bersa yaxshi, lekin uyatchan sharoitda ham, o‘z fikrlaringiz va his-tuyg‘ularingiz bilan yolg‘iz bo‘lishingiz mumkin bo‘lgan joy topishingiz kerak.

9. **Bir-biringizga ishoning** … Er-xotinning har biri, masalan, uyda jiddiy oqibatlardan qo‘rqmasdan, do‘stlari bilan bir oqshom o‘tkazsa yaxshi bo‘ladi.

10. **Xuddi shu sevimli mashg‘ulot** … Agar er va xotinning sevimli mashg‘ulotlari bir xil bo‘lsa, bu sog‘lom oilaviy muhitni yaratadi, bunday oilalar, qoida tariqasida, ziddiyatsiz bo‘ladi.

**Oilada yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilishni o‘rganиш f**aqat nizolarning sabablarini tahlil qilish ularni muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi.

Er-xotinning bir-biriga bo‘lgan ishonchli munosabatlarisiz haqiqiy oilaviy munosabatlar mumkin emas. Bizning yagona boyligimiz- oilamiz.

Munosabatlarda o‘zaro hurmat va mas'uliyatni unutmaslik kerak. Har qanday inqiroz – bu orqaga qadam emas, balki oldinga harakatdir. Shuning uchun u qarshilik bilan kutib olinadi. Birgalikda boshdan kechirilgan qiyinchiliklar munosabatlarni mustahkamlaydi. Inqirozdan oila yangilanib chiqadi. Ehtimol, aynan inqiroz yangi shaxsiy sifatlarni ochib beradi. Oilaviy inqirozlar – bu oila rivojlanishining tabiiy qismi. Har bir inqiroz yangi bosqichga o‘tish imkoniyatini beradi. Turmush o‘rtoqlar o‘zaro hurmat va mas'uliyatni saqlab, birgalikda muammolarni hal qilishni o‘rgangan holda, oila mustahkamlanadi va yangi darajaga ko‘tariladi. Inqirozlarni yengib o‘tish – bu oilaning kuchini va birlikni mustahkamlashdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurasulov, R. A., & Karshiboyeva, G. A.Psixologik trening asoslari. O‘quv qo‘llanma.“Bayoz” nashriyoti. Toshkent–2019 yil.

2. Ibaydullaeva, U., & Abdurasulov, R. (2021). Nizolashuv darajasini o‘smirlarning xarakter xususiyatlariga ta’siri. Общestvo i innovatsii, 2(10/S), 499-505.

3. Ibaydullaeva, U. R. O‘smirlar o‘rtasidagi nizolar va ularni bartaraf etish. Professor-o‘qituvchilar va talabalarning ilmiy-amaliy konferensiyasi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti. Jizzax filiali//2020/5//37-39b.

4. Ibaydullayeva, U. (2022). diqqatni jamlash qobiliyatining pasayishi va buzilgan konsentratsiyaning oldini olishda psixologik yordam berish usullari. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 2(6)

5. Xudoynazarov, S. (2024). Rivojlanayotgan O‘zbekistonda gender va oila. *Евразийский журнал академических исследований*, *4*(3 Part 2), 137-141.

## AKMEOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

**Anarbayeva Muhlisa Shokirjon qizi**
Guliston davlat pedagogika insituti 1-kurs magistranti
Email: shokirjonovamuhlisa@gmail.com

**Annotatsiya:** Akmeologik yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatini rivojlantirishda yuqori natija beradi. Agarda: akmeologik rivojlanish usullari muammosining o‘rganilganlik darajasi tahlil etilsa; bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishning pedagogik-psixologik jihatlari o‘rganilsa; bo‘lajak o‘qituvchilarni akmeologik rivojlanishi samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlansa; tizimli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish modeli ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etish.

**Kalit so‘zlar:** Akmeologik yondashuv, gumanistik aksiologiya, kreativ yondashuv, refleksiv yondashuv falsafiy, pedagogik kuzatish, pedagogik, metodik hamda kasbiy ta’lim modellashtirish; psixologik; pedagogik tajriba; shaxs; o‘z-o‘zini anglash.

**Abstract:** Based on acmeological approaches, it gives high results in the professional development of future teachers. If: the degree of study of the problem of acmeological development methods is analyzed; if the pedagogical and psychological aspects of professional adaptation of future teachers are studied; if the pedagogical conditions ensuring the effectiveness of acmeological development of future teachers are determined; based on a systematic approach, a model of professional adaptation of future teachers was developed and put into practice.

**Key words:** Acmeological approach, humanistic axiology, creative approach, reflexive approach, philosophical, pedagogical observation, pedagogical, methodical and professional education modeling; psychological; pedagogical experience; person; self-awareness.

Har qanday sohada yoki kasbda shaxs o‘z potensialini rivojlantirishi jamiyatda va undagi turli tuman vaziyatlarda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi muhim sanaladi. Shaxs nazariyasida pedagogika va psixologiya tarmoqlarida shaxsning o‘ziga hos kasbiy malakalari shakllanishiga doir qarashlar mavjud.

Oliy ta’lim muassasasida innovatsion faoliyatning sub’ekti o‘qituvchi hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga ega bo‘ladi va o‘qituvchining innovatsion faoliyatiga nisbatan yondoshuvlari quyidagicha talqin qilinadi: Gumanistik aksiologiya – (aksiologiyaga insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan -bir maqsadi sifatida qaraydi) Innovasion faoliyatga aksilogik yondoshuv insonning o‘zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar majmuasini anglatadi. Akmeologik yondashuv - akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan yetuk, eng yaxshi davr degan manolarni bildiradi. [redacted]reativ yondashuv – (bu termin AQShda XX asrning 60-yillarda paydo bo‘ldi) individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatilini bildiradi.[redacted]efleksiv yondashuv - (lotincha reflixio - ortga qaytish) subektning o‘z (ichki) psixik tuyg‘u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi. Endi innovatsion faoliyatdagi akmeologik yondashuvga e’tibor qaratsak. O‘qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. "Akmeologiya" tushunchasi ("akme" - qadimgi yunon tilidan tarjima qilingan - eng yuqori nuqta, gullash, yetuklik, eng yaxshi vaqt)ni ilmiy atamashunoslikka 1928 yilda N.A.Ribnikov kiritdi, bu yosh davrlari psixologiyasining yetuklik davrini nazarda tutadi. Akmeologiyaning predmeti kasbiy yuksalish, mutaxassislarning ijodiy uzoq umr ko‘rishiga, shuningdek, kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirishga, ularning faoliyatini takomillashtirish va tuzatishga yordam beradigan sub'ektiv va ob'ektiv omillardir. Ob'ektiv omillar olingan ta'lim sifatini o‘z ichiga oladi. Subyektiv omillarga insonning mahorati va qobiliyati, uning mas'uliyati, kompetensiyasi, muammolarni samarali hal qilish ko‘nikmasi kiradi. Kasbiy yuksaklikka erishishning eng muhim omillari: iste'dod, qobiliyat, talant, oilaviy tarbiya sharoitlari, ta'lim muassasalari va o‘zining faolligidir.Bugungi kunda yoshlar o‘z mutaxassisliklari asosida ishga kirib kelmoqdalar lekin ularning malaka ko‘rsatkichlari, bilimlari, iqtidori mos ravishda yuksalishi uchun uzoq muddatli amaliy jarayonlarni talab etadi.

Akmeologiyaning inson haqidagi mavjud fanlarga nisbatan ustunligi shundaki, u insonning butun hayot va professional yo‘lini o‘rganadi. Shu bilan birga, akmeologiya kasbiy faoliyatni takomillashtirish va tuzatish muammolarini o‘rganadi. Akmeologiya insonning professionallik cho‘qqilariga o‘zi erishadi degan qarashni nazarda tutadi. Bu borada Xatima Shayxova: «Akmeologiya — zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog‘onaga ko‘tarilishidagi turli jihatlarini o‘rganishdir.

Akmeologiyaning mazmun-mohiyati — insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviyhuquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o‘rganishdan iborat», deydi. Akmeologiyada quyidagi kategoriyalarga e’tibor qaratiladi: ijodiy individuallik, o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish, o‘z-o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish Akmeologiyaning ushbu tushunchalari innovatsion pedagogikaning asosiy negizini tashkil etadi. Ijodiy individuallik professionallikning eng yuqori xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘z ichiga olgan shaxsiy kategoriyalar: [redacted]tellektual va ijodiy tashabbus;

intellektual qobiliyat, bilimlarning kengligi va chuqurligi;

qarama-qarshiliklarga tayyorlik, ijodiy ikkilanishlarga moyillik, ichki yaratuvchilik kurashni o‘zida sinash qobiliyati;

axborotlarga tashnalik, proffessionalizm, bilimga chanqoqlik V.A. Slastenin ijodiy individualizmni ro‘yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;

pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;

samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;

shaxsning o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘zini o‘zi namoyon qila olishi asosida o‘z rivojlanishini ta’minlash.

Malakali mutaxassis: berilgan mehnat turiga ijtimoiy mas’uliyat darajasiga, uning jarayoni va natijalariga qarab kasbga yaroqliligi, psihologik tayyorgarligini aniqlash orqali mehnat faoliyatini amalga oshirishdagi imkoniyat va natijalarini belgilash dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Refleksli — innovatsion potensialni mahorat darajasigacha takomillashtirish va innovatsiyalarni ijtimoiy ahamiyatini baholashni, sarf etilgan intilishlarni hamda uni amalga oshirish yutuqlari asosida belgilash orqali o‘rganilmoqda. Reflektiv tomoniga ko‘ra: (rivojlanayotgan «Men» sifatidagi shaxsni o‘zligini anglash va mehnat faoliyati jarayonida kommunikatsiya bo‘yicha hamkorlarini tushuna bilishi bilan bog‘liq) tizim yaratuvchi faktor hisoblanib, insonni kasbiylashuvini belgilashda akmeologik aspektlarning optimal o‘zaro harakatini ta’minlaydi.

Akmeologiyaning tadqiqot obyekti - bu akme shaxs ya’ni yetuk shaxs, obyektiv qonuniyatlarga asoslangan holda kasb faoliyatining va ijodiy faoliyatning metodologik,texnologik hamda gumanitar jihatlarini o ‘rganish jarayonida jamiyat rivojida kasb-hunar moddiy, ma'naviy jihatlari bilan bog‘liq akmeologik muammolami aniqlaydi. Bugungi kunda bozor munosabatlarining rivojlanishida yangi kasb-hunarlarni shakllantirish, davr talabiga mos keluvchi yetuk kadrlar yetishtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Globalizatsiya jarayonlariga ijodiy kompleks yondoshish, kasbkorlik madaniyati, komillik va mukammallik haqida alloma va mutafakkirlaming qarashlarini tahlil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos jihatlami va zamonaviy tajribalami chuqur egallash, texnika, texnologiya va axborot madaniyatini o ‘zlashtirish masalalari ham akmeologiyaning obyektlaridan biriga aylanishi mumkin.Inson qobiliyatlari chek chegara bilmaydi aslida, ammo bu chegarasiz manbaa shunchaki paydo bo‘lib qoladigan topilma emas, balki bunga uzoq mehnat bilim olish jarayonlari hamda takomillashib boradigan akmeologik qobiliyatlar ya’ni insonning ma’lum soha yoki yo‘nalishlariga fan, san’at, sport, kasb umuman olganda inson faoliyat sohalarining ham jismoniy ham manaviy tomonlarini o‘ziga qamrab oladi.

Akmeologik yondashuv yordamida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini takomilashtirishni turli qirralarini hisobga olgan holda, malakali mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini ochish va rivojlantirish muammolari oldingi o‘ringa chiqib bormoqda. Bu borada ta’lim tizimida o‘qituvchi shaxsiga e’tibor katta. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy moslashishini akmeologik jihatdan tadqiq qilinsa bugungi zamon talabiga mos, biroq avvalgi chuqur bilimlarga ham ega yetuk o‘qituvchi shaxsini, o‘z ishining mutaxassisi etib yetishtirish jarayoni juda murakkab pedagogik va psixologik jarayon hisoblanadi.

O‘z-o‘zini anglashning individual usuli va varianti g‘oyasi (K.A.AbulxanovaSlavskaya, A.A.Derkach va boshqalar). Olingan vaqtinchalik kompetensiyalar va shaxs tomonidanerishilgan vaqtinchalik malaka darajasi ko‘p jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarning individual psixologik xususiyatlari va xususiyatlarining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. A.A.Derkachning fikricha akmeologiyada modelga murojaat qilish zarurati bizga psixologik hodisani tasavvur qilish, uning muhim xususiyatlarini, tarkibiy xususiyatlarini, mexanizmlarini, shakllanish darajalarini ochib berishga imkon beradi.

Reflektiv tomoniga ko‘ra: (rivojlanayotgan «Men» sifatidagi shaxsni o‘zligini anglash va mehnat faoliyati jarayonida kommunikatsiya bo‘yicha hamkorlarini tushuna bilishi bilan bog‘liq)tizim yaratuvchi faktor hisoblanib, insonni kasbiylashuvini belgilashda akmeologik aspektlarningoptimal o‘zaro harakatini ta’minlaydi.

Maktab yoshidagi bolaga, yosh avlodga va boshqa tinglovchiga bilim berishda o‘z kasbiy mahorati yuksak akmeshaxs bo‘la oladigan o‘qituvchi o‘zining tasirigagi tinglovchini to‘la jaalb eta olishi hamda uni bilim olish va hayotiy ko‘nikmalarga tayyorlashi tayin. Akmeologik ta’lim texnologiyalarini o‘qitish amaliyotida tatbiq etish, ta’lim va ijodni rivojlanishini refleksli-psixologik konsepsiyasi asosida malakali mutaxassislarni tayyorlashda akmeologik yondashuvlarni tuzilmaviy tomonlarini hisobga olib borish lozim.

Darhaqiqat, Abdulla Avloniy o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga keng ta’rif berib: tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ya’ni axloqli, odobli, bilimdonligi, ziyrakligi, topqirligi, farosatliligi, aql-zakovatliligi ta’lim- tarbiya jarayoni uchun asosiy negiz bo‘lsa, ijodiy izlanish o‘qish va o‘qitishning yangi shakl, uslub hamda vositalarini qidirish o‘qituvchining eng muhim kasbiy sifatlaridan ekanligini uqtiradi. Bu bilan Abdulla Avloniy o‘qituvchi faoliyatiga nisabatan akmeologik yondashuvni o‘z davri qiyofasida olg‘a suradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni akmeologik rivojlanish jarayonini yana bir e’tiborli jihati bu yuqorida ta’kidlab o‘tilgan yo‘nalishlardagi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga to‘laqonli tatbiq etishning zaruriy shart- sharoitlari majmuasining belgilanishidir. Chunki, qulay va maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik sharoit jarayondan ko‘zlangan natijaga erishishini engillashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Akmeologik yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatini rivojlantirishda bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda yuqori darajada qo‘llay olishida namayon bo‘ladi. Zamonaviy jamiyatda ta`lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri – bu insonning turli sohalarda maqsadli va mustaqil faoliyatini tashkil etishidir. Shunday ekan bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatini shakllantirishda motivatsion, ijtimoiy, axborotli-mazmunli, faoliyatli, didaktik omillarga alohida e’tibor qaratish maqsadga maolikdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ахмадов, Н. Р. (2021). Суицидальное поведение подростков. Вестник интегративнойпсихологии.(журнал для психологов), 13-15.

2. Деркач А.А. Методолого-прикладные основы акмеологических исследований.- М.:1999

3. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. М.: ИЧП "Издательство Магистр", 1997. – 224с

4. Tillayeva G. Akmeologiya asoslari: o‘quv qo‘llanma /. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: «Tafakkur Bo‘stoni», 2014. —192 b.

5. Shayxova X.A. Ma'naviyat — kamolot ko‘zgusi. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagni NMIU, 2009. 115-b.

## OLIY TA’LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING DOLZARBLIGI

**Kamolov Mag‘rur Ruziqulovich**
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
kamolovmagrur@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola innovatsion pedagogik texnologiyalar ularni ta’lim tizimiga joriy etilishi, mohiyati, xususiyatlari va boshqalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim,texnologiya, mohiyat, global, tizim, pedagog

**Annotation:** This article provides information on innovative pedagogical technologies, their introduction into the educational system, their essence, features, etc**.**

**Key words:** education, technology, essence, global, system, pedagogue.

XXI – asr boshiga kelib butun dunyoda glaballashuv jarayoni shu qadar kuchayib ketadiki, u jarayonning o‘ziga xos ijobiy tamonlari bilan birga – bir qator jihatlari ham nomoyon bo‘la boshladi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlab, xalqimizni tub manfaatlaridan kelib chiqib, dekmakratik taraqqiyot yo‘lini izchillik bilan amalga oshirishda o‘zining strategik vazifalarini belgilab oldi.

Hozirgi davrning asosiy talabi – mustahkam va chuqur bilimga, mustaqil fikrga, kuchli irodaga, go‘yaviy immunitedga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash.

Glaballashuv davrida bilimlilik mamlakatni iqtisodiy rivojlanish va uning milliy boyligini ko‘paytirishning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bugungi kunda faqat yuksak bilimli zamonaviy mustaqil intellektual rivojlangan va ommaviy kasb – hunarga ega yoshlargina mamlakatning buyuk kelajagini ta’minlashi mumkin. Shuning uchun ham hozirgi kunda ta’lim tizimini takomillashtirish, unda innovatsion texnologiyalardanfoydalanish dolzarb masalaga aylandi.

Ta’lim jarayoniga pedogogik texnologiyalarni qo‘llanishi nafaqat o‘qituvchi kasbiy mahoratini o‘sishiga pedagogik faoliyatda zarur bo‘lgan axborot manbani izlashga, izohlashga pedagogik muammolar yechimini topishiga balki, pedagogik vaziyatlarning barcha nozik tomonlarini tushunish, izohlash, tahlil – talqin eta olishga ijobiy ta’sir etadi. Innovatsion taxnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishni asosiy omili hisoblanadi. Shu jihatdan bugungi kun o‘qituvchisi bilimli, atroflicha fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng, o‘z ustida tinimsiz ishalydigan, izlanuvchan, ijodkor, ta’lim jarayoniga yangiliklarni olib kiradigan bo‘lishi kerak. Demak, o‘qituvchining innovatsion ta’lim texnologiyalarini mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olishlari muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiya tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixoligik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik nuqtai nazardan yondashmoq lozim. Ta’lim samaradorligini oshirishga doir ilmiy – nazariy, amaliy qarashlar, innovatsion ta’lim metod va usullariga doir ilmiy – nazariy, amaliy yondashuvga ega bo‘lish qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun juda zarurdir.

Natija: ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, ta’limni sifat va samaradorligini oshirishda hamda o‘quvchi – yoshlarni intellektual salohiyatini yuksaltirishda katta ahamiyatga egadir.

**Ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar mohiyati va uning o‘ziga hos xususiyatlari.** Innovatsiya – yangilik kiritish, tizim ichki tuzulishini o‘zgartirish deb tariflanadi.

Ta’limni innovatsion texnologiyalar asosida olib borish, bu pedagogik jarayonni ixtiyoriy tuzishni va uni amalga oshirishni hal qiluvchi o‘zgartirishlarga olib kelishini bildiradi. Shuningdek, bu orqali ta’lim jarayonida qo‘yilgan ta’lim maqsadlari natijasiga erishish va ko‘rsatilgan vaqt mobaynida ijobiy natijani olish mumkin bo‘ladi.

Pedagogik jarayonga innovatsion texnologiyalarni olib kirish orqali uning bir qator xususiyatlari va qulayliklari kuzatiladi:

- ta’lim jarayonini oldindan loyihalash imkoniyatini ishlab chiqish;
- tizimli yondashuv asosida ta’lim oluvchi shaxsning o‘qish – bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta’lim jarayoni loyihasini tuzish;
- ta’lim maqsadi real, aniq diagnostik bo‘lishi va ta’lim oluvchining bilimlarini o‘zlashtirish sifatini obyektiv baholash;
- ta’lim jarayoni tuzilishi va mazminini yaxlitligi, o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sirida bo‘lishi;
- ta’lim shakllarini qulaylashtirish;
- ta’lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatini o‘zaro ta’sirini hisobga olish;
- ta’lim maqsadlarini ko‘zlangan etalon asosida talabalarda kuzatiladigan harakatlarni oydinlashtirish;
- talabaning faolligiga tayanib o‘qitish;
- o‘zlashtirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;
- shakllantiruvchi va jamlavchi baholar;
- belgilanga me’zonlarga binoan test vazifalarini bajarish;
- ta’limning rajalashtirilgan natijaga erishishini kafolatlanganligi;
- ta’lim samaradorligini yuqoriligi.

Bu keltirilgan xususiyatlar va qulayliklar o‘z navbatida innovatsion ta’limning an’anviy ta’limdan farqlovchi jihatlarini namoyon etadi. Ya’ni innovatsion ta’limda bir qator yangicha yondashuvlar namoyon bo‘ladi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan, ta’limga asoslanganlik: Ta’lim oluvchi shaxsi ta’lim jarayonini markaziy figurasiga aylanadi. Munosabatlarning insonparvarligi va demakratlashuvi o‘ishga majburlashdan voz kechish amalga oshadi.

